O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2025-4/4
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2025

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d.,prof.	*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d.,prof.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d.,prof.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dos.*
Ismailov Is’haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.	*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№4/4 (125), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2025 y. – 263 b. – Bosma nashrning elektron varianti - https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2025

MUNDARIJA

FILOLOGIYA FANLARI

Abdullayeva F.B. Koreys roman janri taraqqiyotida adibalarning tutgan o‘rni 6
Abduqaxarov Q.A. Ingliz va o’zbek tilida urg’u va ohangning pragmatik xususiyatlari 10
Abdusalimov S.R. Jon Ronald Tolkinning ingliz adabiyotida fantastik janrdagi ijodi 13
Abdullayeva. Z.Sh. Stilistik uslub va yozuvchining individual yondashuvi 15
Abiyatova M.M. Differences between machine translation and human translation: a comparative study of “The little prince” 18
Akindikov N.B. Selection and theoretical philological criteria in the promotion of enlightenment ideas in school literary studies 21
Akramxodjayeva D.A. Beyond the basics: elevating pragmatics in the uzbek high school context 24
Allayev Z.M. Linguistic aspects of oneirosphere: a comparative analysis 27
Alxiyeva S.R. “Tabiatning ikkinchi siri” afsonasining tahlili va talqini 29
Amirqulova N. Fraseologizmlar tarkibida qo'shma so'zlar derivatsiyasi va struktur semantik ko'chimlar 33
Anarboyeva I.O. Nominativ birliklarning gender tamoyillari xususida 35
Arifova U.A. Tarjimashunoslikda ekvivalentsiz leksika borasidagi nazariy qarashlar 39
Ashurov B.Sh. Linguistic markers of speech manipulation in forensic analysis of english and uzbek languages 42
Atamurodova F.T. Roman trilogiya janri va Joys Keri trilogiyasining badiiy xususiyatlari 44
Axmadjonov I. Dunyo tilshunosligida morfem birliklar haqida qarashlarning shakllanishi 47
Axmedov J.G’. Linguistic landcape of fire and water: analyzing idioms and proverbs in uzbek and english 50
Axrarova G.X. Antonim so‘zlarning she’riy misralarda qo‘llanilishi 52
Axunova M.A., O‘rmonova M.F. Ingliz va o‘zbek tillarida miqdor konseptiga oid neologizmlar 55
Azimova S.A. “Yosh” konsepti asosida madaniy-pragmatik qadriyatlarning lingvistik talqini 60
Azizova M.B. Ibora va gap ko‘rinishida uchrovchi epitetlarning o‘zbek tiliga tarjimasi tamoyillari 63
Barotova N.Sh. Olamning lisoniy manzarasini hosil qilishda qo‘llaniladigan lisoniy hamda nolisoniy omillar tahlili 66
Begmatova S.B. Adabiyot olamida romantizm yo‘nalishdagi ijod qilgan adiblar 70
Bobokalonov R.O. Fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasining tarixiy rivojlanishi 73
Boboqulova G.Sh. Badiiy tarjimada muammolar va yechimlar 78
Boltabayeva M.B. Grem Grinning diniy qarashlarini “Kuch va shon-shuhrat” romanida aks ettirilishi 81
Boltayeva D.Sh. The transformative power of the novella in literature and society 83
Botirova N.F. Chikano – mojaro va kurash she’riyati 86
Boymurodova G.M. Ingliz va o‘zbek tillarida mehnat mazmunli maqollarning yasalishida grammatik tuzilish 89
Bozorova M.U. Mediadiskursda til shaxsiyati va uning pragmalingvistik tadqiqi 91
Burieva U.A. Analysis of incomplete sentences in discourse in uzbek and english 94
Burxanova M.M. Nolisoniy tizim tasnifiga doir 97
Choriyeva Ch.S. Turg’unlashuviga ko‘ra diniy leksika 99
Davletova I.U., Jumaniyazova D.A. Ingliz va o‘zbek tillarida oddiy, qiyosiy va orttirma darajali sifat komponentli frazeologizmlar 102
Djumaeva N.D., Bakhshilloeva N.I. Linguistic features of the concept of “magic” in english and uzbek cultures: a comparative-cognitive analysis 105
Djumayeva N., Abduxolikova A. “O‘tkan kunlar” romanida inson ruhiy holatini ifodalovchi lisoniy birliklar tahlili 108
Djumayeva N., Sultanmuradova D. Pragmatic features of infinitive and infinitive constructions 110

Ergashev M.B. Ingliz va o‘zbek tillarida muhabbat izhorini ifodalashda pragmatik yondashuv 116
Ergasheva G.Sh. O‘zbek tilida do‘stlik/dushmanlik konseptlarini ifodalovchi maqollar 120
Ergasheva N.E. Structural and semantic characteristics of names of culinary products in english-language discourse 123
Ergasheva N.K. Developing social and emotional skills alongside language skills 126
Eshboltayev B.J. Bolalar reklama matnlarini shakllantirish tamoyillari 128
Eshonqulova S.I. Nodira she’riyatida diniy-ma’rifiy va falsafiy-tasavvufiy qarashlar talqini 131
Eshpulatova O'.G'. Tarjima jarayonida badiiy vositalarning o’ziga xosliklarini saqlash masalasi 134
Fayzullayeva N.S. Tilning morfologik darajasida so‘z tuzilishini soddalashtirishga intilishi tejamkorlik tamoyili doirasida tahlili 136
Gadayeva M.M. Cho‘lponning she’rlarida erk, ozodlik va o‘zlik masalalari 140
Gafurov B.Z. Organization and self-organization of text as a “living system” 143
G‘ofurova N.M., Ganiyeva D.A. Exploring metaphor and simile: insights from uzbek and english texts 147
Haydarov A.A., Sattorova Sh. Punktuatsion va turli ishora belgilari orqali ifodalangan konnotativ ma’nolar 149
Hayitov Sh.A., Barotova X.J. “Boburnoma”da zuhrabegi og‘a tasviri 152
Hidoyatova A.T. Yan Kvi Ja hikoyalarida ota obrazining o‘rni 155
Ibodullayeva Sh.D., Mirzakulova N.G. Vocabulary matters: integrating meaning, use, and memory. Focus on arabic 158
Ibragimova G.M. Abbreviaturalar til oshiqchaligi va tejamkorligini yuzaga keltiruvchi omil sifatida 161
Iskandarova G.M., Khalbayeva M.U., Saparbaeva G.M. Theoretical trends on the classification of the english phrases 164
Ismailov I.O. Ogahiy solnomalari badiiyatini yuzaga keltirishda mumtoz asarlar uslub va ruhiyati ta’siri masalasi 168
Ismailov I.O. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini yuzaga keltirishda firdavsiyning roli 173
Ismailova Kh.N. The evolution of style and form in literary influence 176
Ismoilova Sh. The evolution and history of english language 180
Jalolova M.B. Ingliz va o‘zbek tillarida kesatiqning verbal va noverbal ifoda vositalari 183
Jo‘rayev J.A. “Abushqa” va “Gulshan ul-asror” qo‘lyozma nusxalari matnining qiyosiy tahlili 187
Jomardova D.Q. O‘zbek va rus tillari tibbiyot reklama matnlarida aks etgan apellyativ leksikaning lingvomadaniy jihatlarida individuallik va o‘xshashliklar 190
Jumaniyazova M.A. Linguacultural evolution of proverbs and fables in english and uzbek proverbs 193
Jumanyazova M.X. Xorazm vohasi folklori tilidagi shaxs ma’naviyatini ifodalovchi til birliklari xususida 196
Karimboyeva S., Isxokov B. Yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda tarix fanining roli 199
Karimov R.K. Terminologiya sohasining tilshunoslikdagi o‘rni 201
Karimova M.S. The importance of gender roles in ordinary discourse 204
Karshiyeva T.I. Transcendentalism and jadid literature: a comparison of views on understanding nature, humanity, and freedom 206
Khudayberganova N.R. Maqol janriga xos ayrim xususiyatlar haqida 210
Kobilova N.S., Azimova M.Sh. Evaluative units in the english language and their pragmatic features 215
Kobilova N.S., Yusupova D.T. Phonetic economy in the english language: epenthesis, diaeresis, metathesis as derivatives of assimilation and dissimilation 218
Komilova D.M. Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida shamol detali orqali “qo‘rquv” semasining aktuallashuvi 219

Kosimova M.U. O‘zbek va ingliz tillarida ish hujjatlari matnining izomorf va allomorf jihatlari hamda tarjima masalalari 222
Kudratova M.K. The aspects of appearing and forming retronyms in language 224
Kurbanova B.K. Xorazm dostonlari tili leksikasini o‘rganish ahamiyati 227
Mamaniyozov H.T. O‘zbek va nemis tillarida paremiologik materiallar, xalq og‘zaki ijodi, folkloristik manbalar 230
Mamatkulova O. Improving the competence of professors and problems of learning languages by using ICT 233
Melikova G.T. Ingliz va o’zbek tillarida “oila tarbiyasi”ga oid leksik birliklarning o’zaro ma’no aloqalari va ko’p ma’nolilikni tahlil qilishning kognitiv modeli 235
Mirzatillayeva Z.R., Aliyeva N.X. Olamning lisoniy manzarasi lingvistik bilim tizimida 238
Mirzayev X.T. “Muntaxab ul-aruz” risolasida aruz bahrlari tasnifi 240
Movlanova R. Bridging cultures in global finance: ensuring translational equivalence in international financial documentation 243
Muratova G.Ch. G`afur G`ulom ijodida obraz masalalari 247
Murtazayev E.N. The imagination and interpretation of warriors in heroic epics 249
Murtozayeva N.J. Socio-historical basis of Ernest Hemingway's “A farewell to arms” 252
Muslixiddinova R. Til o‘rganish jarayonining neyrolingvistik tahlili 254
Muxammadiyeva Sh.A. Ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida estetik baho omilining lingvomadaniy xususiyatlari 257
Shernazarova H. M. The Historical roots and modern linguistic Interpretation of the concept of euphemism 260

UO'K 821.531

KOREYS ROMAN JANRI TARAQQIYOTIDA ADIBALARNING TUTGAN O'RNI

F.B.Abdullayeva, erkin tadqiqotchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *XX asrning 1980-yillariga kelib koreys jamiyatida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar fonida adabiyot olamiga ayol adibalarning shiddat bilan kirib kelishi kuzatiladi. Ayollarga xos chizgilar adibalar qalami orqali yanada sayqallashdi. Atrof-muhitga, jamiyatga ayol nigohi orqali qarash natijasida nasriy asarlarda yangi mavzu, yangi shakllar paydo bo'ldi. Adibalarning katta hajmli asarlarga qo'l urishi esa zamonaviy koreys nasrida kutilmagan yangilik bo'ldi. Goh ayol, goh ona, goh yanga obrazida insonning ichki kechinmalarini, hissiyotlarini yangi rakursda bera olgan adibalar nafaqat kitobxonlar, balki tanqidchilarning e'tiborini ham tortdi.*

Kalit so'zlar: *roman, xotira, ona, ayol, o'rtoq, temiryo'l, ziddiyat, avtobiografiya.*

Аннотация. *в 1980-х годах, когда общественно-политическая жизнь кореи претерпела серьезные перемены, в литературном мире начали появляться женщины-авторы. благодаря их творчеству женские темы получили дальнейшее развитие. новый взгляд на жизнь и общество с женской точки зрения привел к возникновению актуальных тем и оригинальных форм в прозе. попытка женщин-писательниц создавать масштабные произведения стала неожиданным феноменом в современной корейской литературе. женщины-писательницы, исследующие внутренний духовный мир, чувства и переживания в образах матерей и невесток, привлекли внимание как критиков, так и читателей.*

Ключевые слова: *роман, память, мать, женщина, товарищ, железная дорога, конфликт, автобиография.*

Abstract*. By the 1980s of the 20th century, against the backdrop of significant changes in Korean society, a rapid entry of female writers into the world of literature was observed. The characteristics associated with women were further refined through the pens of female authors. As a result of viewing the environment and society through the lens of women, new themes and forms emerged in prose. The attempt by female writers to tackle large-scale works became an unexpected innovation in modern Korean prose. Writers who were able to convey the inner experiences and emotions of a person from new perspectives through images of women, mothers, and daughters-in-law not only attracted the attention of readers but also drew the interest of critics.*

Keywords: *novel, memory, mother, woman, comrade, railway, conflict, autobiography.*

XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab imkoniyati cheksiz roman janrida ayol adibalar ham qalam tebrata boshladilar. Janrning mas'uliyatli yukini his qilgan, iste'dodli adiba Pak Vanso qator avtobiografik romanlar yaratdi. Yapon anneksiya davridan boshlab, fuqarolar urushi yillarini so'z san'atida mohirona tasvirlagan adiba romanlarida boshqa yozuvchilar ko'targan ayrim masalalar yanada bo'rtib namoyon bo'ladi. Jumladan, avval mamlakat janubida yashagan, fuqarolar urushi davrida shimoliy hududga ko'chib o'tgan Om Xin Sopning "Tong" romanida janubiy Koreya hududida Amerika hokimiyati boshqaruvni o'z qo'liga olganligi, mahalliy xalq esa unga tobe bo'lgani manzarasini chizadi. Yozuvchi kapitalistik davlatda yashayotgan xalqni yangi sinov, yangi tartib kutayotgani, milliy qadriyatlar oyoqosti bo'lishi sabablarini alohida ta'kidlaydi. Mana shu masala Pak Vansoning "Shuncha shinganing gulini kim yegan?" romanida shunday yoritiladi:

"*Fransiyaning kommunistik harakati a'zosi bo'lgan port ishchisi oddiy yuk tashuvchi bo'lib ishlaydi. Bir kuni unga unni quruqlikka emas, dengizga tashlash buyuriladi. Shu payt u hech qanday ish qilishiga qaramasdan bir xil maosh to'lanadigan, ochlikdan azob chekayotgan faqirlar son-sanoqsiz bo'lganda qanday qilib bu holatga yo'l qo'yish mumkinligini tushuna olmay qiynaladi. Va nihoyat o'sha yili hosil mo'l bo'lganligi uchun un narxi tushishidan xavotirlangan kapitalistlar shu yo'l orqali don hajmini kamaytirib, yuqori narxni saqlashni rejalashtirayotganini anglaydi. Dunyoda faqirlar och qolishi yoki qolmasligidan qat'iy nazar, faqat daromad ortidan quvish kapitalizmning*

eng yuksak maqsadi ekanligini anglagan port ishchisi shu vaqtdan boshlab kapitalistlarga nafrat bilan qaraydigan kommunistik inqilobchiga aylanadi". [5]

1970-yillar koreys adabiyoti olamiga adibalarning kirib kelishi koreys nasrida kutilmagan burilishlarga sabab bo'ldi. Xususan, Pak Vanso romanlarida hikoyachi "*o'g'il emas qiz; ona emas, ota; erkak emas, ayol*"dir [2, 164 b.]. Muallif romanlari uchun urush va bo'lingan millat fojeasidan iztirob chekkan oila tarixi, xaos davrining mavhum siyosati, ayollarning o'zligini anglash masalasi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Yapon istilosining so'ngi nafasi ulanib ketgan mustaqillik arafasida turgan xalqning ma'naviy-axloqiy masalalari bilan boshlanadigan romanlarda urush mavzusi yetakchilik qiladi.

Pak Vanso o'zining qator avtobiografik romanlarida front ortidagi hayotni aks ettiradi. Jumladan, "Yalang'och daraxt", "O'sha qish iliq bo'lganmi?", "Onaning bog'i", "Tog' chindan ham o'sha yerda bo'lganmi?" kabi romanlari urushdan talofat ko'rgan har bir koreys oilasi, turli qarashlar sabab bo'linib ketgan oilalar, erta vafot etgan yoshlar, insonlarning ayanchli taqdiri, tirik insonlar orasida yo'qolgan ishonch kabi mavzularga bag'ishlanadi. Har to'rt romanni urushda turmush o'rtog'i va o'g'lini yo'qotgan, yolg'izlikka mahkum bo'lgan ona obrazi birlashtirib turadi.

"Yalang'och daraxt" romanida oila boquvchisi, avlod davomchisi – har ikki erkakdan urush sabab ajrab qolgan ona obrazi "kimsasiz orol"ga qiyoslanadi. Adiba urushning front ortidagi manzarasini haqqoniy tasvirlaydi, uning asoratini ona obrazida anglatishga harakat qiladi. "Tog' chindan ham o'sha yerda bo'lganmi?" romanida bosh qahramon tasodifan uchratib qolgan shimoliy Koreya askarining:

" – ***O'rtoq**, siz bitta sil kasalligini ham davolay olmaydigan vatandan nafratlanmaysizmi*?" [6] yoki "*Davay*" *degan so'z ommalashgan holda bozor ham, polizdagi sabzavotlar ham, hatto, ayollar ham* "*davay*"*ga yo'liqdi*" [6] kabi jumlalarda mamlakat hududiga sobiq SSSR askarlari kirib kelgani anglashiladi. "*Shapillatib saqich chaynashar, ayollarga ko'z qisar va yosh bolalarni ko'tarib quchardi*. *Umuman, bu qo'shinda harbiy intizom yo'qdek ko'rindi. O'sha mahaldan boshlab yo'l chekkasi va devorlarga e'lonlar yopishtirila boshlandi. Erkinlik, demokratiya, xalq kabi ajoyib so'zlarni umrimda birinchi marotaba eshitayotgan edim*"[5] jumlalarida mamlakatda o'rnashgan Amerika askarlari tasviri beriladi.

Yozuvchi mamlakat hududiga kirib kelgan avval sobiq SSSR, keyin Amerika askarlari qiyofasini chizadi. Shu bilan birga "betaraf" mamlakatga ketayotgan vatandoshlari taqdirini *temiryo'l* detalida ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi:

"*Temiryo'l orqali shimoldan janubga ketayotgan piyoda odamlar soni kundan-kunga oshib borardi. O'sha damlarda hali 38-paralleldan bemalol o'tish mumkinligi bois ular erkinlik izlab janubga ko'chib o'tayotgan shimolliklar emas, majburiy harbiy xizmatdan yoki nochorlikdan Manjuriya va boshqa hududlarga qochib ketishga majbur bo'lgan vatandoshlarimiz edi*" [5].

Fuqarolar urushi va urush davrida koreys kitobxoni yapon va koreys tiliga tarjima qilingan sobiq SSSR yozuvchilari asarlari bilan tanishishga muvaffaq bo'lishdi. Hatto marksizm g'oyalari singdirilgan juda ham ko'p asarlar koreys tiliga o'girilgan. Tolstoy, Pushkin, Dostoyevskiy, Turgenev, Nekrasov asarlaridagi umumbashariy masalalar koreys kitobxonini befarq qoldirmadi. Ammo, 1953-yili mamlakat ikki xil mafkura ostida bo'linib ketganidan so'ng, janubiy Koreyada rus adabiyotiga bo'lgan qiziqish biroz so'ndi. Bu xalqning kommunizmga qarshi fikri bilan bog'liq. 1980-yillarga kelib rus adabiyoti va tanqidiga bo'lgan qiziqish ortdi. Mamlakatning yetakchi oliy o'quv yurtlarida rus tili va adabiyoti fakultetlari ochildi. 1987-yil iyun voqealaridan so'ng esa koreys kitobxoni Shimoliy Koreya yozuvchilari ijodini tanqidiy o'rgana boshladilar.

Koreys kitobxoni e'tiborini avval hikoyalari, keyin romanlari bilan o'ziga torta olgan adiba Shin Kyong Suk 1990-yillar koreys adabiyotining yorqin namoyondasi hisoblanadi. 1994-yili 2 tomli "Chuqur iztirob", 1995-yili "Yolg'iz xona" romani nafaqat kitobxon, balki tanqidchilar e'tiborini ham o'ziga tortdi. Siyosiy munozaralar ancha susaygan vaqtda adiba romanlari oddiy ehtiroslarga asoslangan xotira, muhabbat, qayg'u masalalarini yoritishda kitobxon qalbiga yo'l topa oldi. Muallifning roman yaratish mahorati har bir insonning yurak qatida yashiringan "xotira"ni ko'rsata olishida namoyon bo'ladi.

1996-yili adibaning "Yolg'iz xona" romani "Manxemunxaksan" mukofotiga sazovor bo'ldi. Roman birinchi shaxs tomonidan hikoya qilinadi, muallif obrazining ayni balog'at yoshiga yetgan yillari tasvirlanadi. Poytaxtdan olis qishloqda dunyoga kelgan qiz – roman bosh qahramoni mazkur davr yoshlari kabi kunduzi ishlaydi, kechasi bilim oladi. Shahardagi amakisining qizi bilan birga yashashga majbur muallif obrazi o'rtasida turli ziddiyatlar yuzaga keladi. Shaharda yashab qolish uchun qiz amakisining qizi bilan murosaga kelishga, e'tiroz bildirmaslikka harakat qiladi. Og'ir sharoit, mashaqqatli mehnat qizning badiiy asarlar o'qishiga ta'sir ko'rsata olmadi. Roman sarlavhasiga olib chiqilgan "Yolg'iz xona" – shahar chekkasidagi kichkina, past uy bo'lib, bu yerda yashash uchun oddiy sharoit ham mavjud emas. Qishloqdagi hayoti va shahar haqidagi tasavvurlari ayqash-uyqash bo'lib ketgan qiz ichki iztiroblarini kitob o'qish orqali yengib o'tishga harakat qiladi. Adiba qo'llagan "yolg'iz xona" detali Chxve Inxunning "Maydon" romanida qo'llanilgan "maxfiy xona" detaliga hamohangdir.

Ma'lumki, har bir millat adabiyotida ona obrazi turli qirralarda tasvirlangan, bu o'z navbatida, o'sha xalqning dunyoqarashi, tabiati bilan uzviy bog'liqdir. Dastlab yaratilgan ona obrazlarida oila tashvishlari va farzandlar tarbiyasi masalasi muhimlik kasb etgan bo'lsa, hozirgi kunda yaratilayotgan asarlarda ona obrazi jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan ayol obrazi bilan bog'liq ravishda aks ettirilmoqda. Mangu mavzu – ona obrazini yaratish yozuvchidan yuksak mahoratni talab etadi. Shin Kyong Suk ijodida ona obrazi ko'p uchraydi, ammo, "Onamni o'z panohingda asra" romanidagi ona obrazining prototipi sifatida o'z onasini tanlashi asarning tabiiyligini oshirgan.

Adibaning "Onamni o'z panohingda asra" romani o'zbek adabiyotida O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini yodga soladi. O'zbek adibining qissasi o'ttiz hikoyadan iborat bo'lsa, Shin Kyong Suk romani besh bobni tashkil etadi. Shin Kyong Suk romanining o'ziga xosligi, originalligi shundaki, asarning har bir bobi asar qahramonlari – o'g'il, qiz, er, ona tomonidan hikoya qilinadi. Har bob bir qahramonning avtobiografiyasi kabi taassurot uyg'otadi. O'tkir Hoshimovning o'z asari haqida aytgan "*qishloqning qalbi-yu, shaharning aqli bilan yozilgan*" [3] fikri Shin Kyong Suk romani g'oyasiga ham hamohangdir. Romandagi barcha boblarning syujet chizig'i ona obrazini yoritishga qaratilgan. Bir qarashda kundalik hayot tashvishlari, qishloqning og'ir mehnati kabi tasvirlarda onaning oddiy orzu-umidlari, ro'yobga chiqmagan, armonga aylangan istaklarini farzandlarida ko'rish kabi masalalar badiiylashtirilgan. Farzand uchun jonini berishga tayyor ona obrazi juda ham hayotiy, ishonarli tasvirlangan. Barchasi shaharga ketgan, o'z hayot yo'llari bilan andarmon farzandlarini sog'ingan ona o'z kuchini mehribonlik uyi bolalariga bag'ishlaydi. Hatto, farzandlari har oyda yuboradigan pulni ham mehribonlik uyiga beradi. Tasodifan, shaharga bolalarini ko'rishga borgan onaning yo'qolib qolishi o'quvchini o'ylantirib qo'yadi. Roman bir tomonidan onasiga yetarli vaqt ajrata olmagan, mehr ko'rsatmagan, onasining qanday rang va nimani yaxshi ko'rishini ham bilmaydigan ikki o'g'il va ikki qiz, hatto, erning istig'rofiga o'xshaydi.

Shin Kyong Suk romani qahramonlari o'z ziddiyatlari bilan botiniy kurashadilar, inson qalbi, ruhiyati, ko'ngil mayli badiiy jihatdan talqin etiladi.

XX asrning mashhur adibalaridan biri Yan Kvi Ja kitobxonlarga o'zining maishiy mavzudagi hikoyalari bilan birga "Ziddiyat" romani orqali yaqindan tanish. Roman 1998-yili chop etilgan bo'lib, adibaning o'zi asar haqida shunday yozadi:

"*Mening "Ziddiyat"im bunchalar shuhrat qozonishini kutmagan edim. "Ziddiyat" tajribalarim asosida atrofni, insonlarni kuzatishlarimning badiiy talqiinidir* 다"[7; 778 b.].

Yan Kvi Ja roman haqida yana shunday fikr bildiradi:

"Ziddiyat" romanini yozayotgan vaqtimda, har bir o'quvchi uning "birinchi o'quvchisi" bo'lishini istadim. Men ularning romandan olgan sof taassurotlari bilan o'rtoqlashishlarini tiladim" [8, 113 b.].

Roman bosh qahramoni An Jin yigirma besh yoshida oiladan ajralib chiqib, bir yil mustaqil hayot kechiradi. Mustaqil hayot tasavvur qilganidan ham mashaqqatli ekanligini anglagan qahramon ketma-ket ko'p xatolarga yo'l qo'yadi, ammo, u bu xatolardan to'g'ri xulosa chiqarmaydi. Hayotda o'z o'rnini topishga, yo'lini izlashga harakat qilayotgan qahramonning barcha orzulari, istaklari ro'yobga chiqmaydi. "Mustaqil, erkin, oiladan uzoqdagi hayot" romanning bosh g'oyasini tashkil

etadi. Shu sababli turmush qurishga ahd qilgan An Jin ikki yigit o‘rtasida ziddiyatli tanlovga kirishadi. Ammo, yigitlardan qaysi biriga ko‘ngil qo‘yganini anglab yetmagan qahramon shunday fikrlaydi:

“*Sevgi...Sevgi. U o‘rta darajadagi tushuncha. Sevgi dardiga bir marotaba mubtalo bo‘lgan, yana mubtalo bo‘lmaslik uchun ehtiyot bo‘lishi kerak. Biz qanchalik qattiq sevmaylik uning oqibatida halok bo‘lmasligimiz kerak. Mana shu sevgi...*” [8, 107 b.].

Roman An Jinning ichki olamida sodir bo‘layotgan qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan. Qalbidagi ziddiyatlar bilan kurashayotgan qahramon onasi va xolasining umuman bir-biriga o‘xshamagan taqdiri haqida ko‘p o‘ylaydi. Onasining turmushi o‘xshamadi, u ikkinchi marotaba turmush qurishga majbur bo‘ldi, ammo er ichkilikka mukkasidan berilgan edi. Xolasining turmushi har qanday insonning havasini keltirardi. Roman syujetiga opa-singillar obrazining kiritilishi orqali hayotiy voqealar jonlantiriladi.

Yozuvchining mahorati har bir xalq folklorida mavjud “Zumrad va Qimmat”, koreys adabiyotida “Kong Chi va Pxat Chi” obrazlarini zamon ruhiga mos tarzda aks ettirishida namoyon bo‘ladi.

Kitobxon va tanqidchilar e’tiboriga tushgan adiba In Xigyon ommaga o‘zining “Qushlardan sovg‘a” romanini taqdim qildi. Roman “Munxak tonne” fondi mukofotini qo‘lga kiritdi. “Hikoya ichida hikoya” tarzida yozilgan roman adibaning bolalik va o‘smirlik yillaridan bayon qiladi. Romanning mazmuni o‘zbek yozuvchisi Nazar Eshonqulning “Ozod qushlar” hikoyasidagi mana bu satrlarga mos keladi:

“*XX-asr mo‘’jizalar asri ekanligiga sen ham ishonarding. Sen ham bu asrdan mo’jiza kutib yasharding...Sen mo‘’jizasiz ham baxtli eding. Yer yuzidagi millioncha odamlardek osoyishta hayot kechirarding. Har haftaning so‘ngida o‘rtoqlaring bilan choyxonalarga, istirohat bog‘lariga borarding. U yerdan kayfiyating ko‘tarilib, bahri diling ochilib qaytarding. Biroq negadir o‘z hayotingni o‘zgartiradigan, shavqu zavq olib keladigan mo’jiza kutib yasharding*” [4, 17 b.].

Yozuvchi hayotida o‘zi istagan barcha orzu-istaklari amalga oshdi: o‘zi xohlagan o‘rta ta’limni oldi, oliy o‘quv yurti talabasi bo‘ldi, moddiy qiyinchilik ko‘rmadi, ammo uning ichki olami bir umr qandaydir mo’jizaga intilib yashadi. Moddiy farovonlik baxt kaliti emasligi, erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lgan ayolning yolg‘izligi, qushlar kabi ozod emasligidan tashvishlangan adiba o‘z qarashlarini qog‘ozga tushirdi. Uning pinhona istaklari hikoyalarida o‘z aksini topdi.

Adiba romanlarning nomlanishi ilk ijodi davrida yaratilgan hikoyalarning qisqa mazmuniga o‘xshaydi. “O‘zga inson suhbati ishtiyoqi”, “Men bilan so‘ngi raqs”, “Bu tushmidi?” romanlari qahramonlari ham asosan ayollar bo‘lib, ularning orzu-umidlari sarobga aylangan. Har bir ayolga xos taqdirni belgilagan adiba qarashlari aynan ayollarga xos tutumda, tafakkurda namoyon bo‘ladi. Yozuvchining mahorati shundaki, bayonchilikda u ezmalikka yo‘l qo‘ymaydi, syujet dinamikasini yetarli darajada rivojlantiradi, ayol tabiatining sirli qirralarini ochishda majburiy soxtalikdan qochadi.

XX- asrning 1990-yillariga kelib ayol va erkak o‘rtasidagi ochiq munosabat, turmush qurishdagi erkin tanlov, yolg‘izlik va begonalashuv, oila va jamiyatdagi ayol obrazini yaratish mahorati, orzular qanotidagi ayol ruhiyati, uning tabiatiga xos chizgilar, botiniy olamini ochishga bo‘lgan harakat tasviri masalalari kitobxon e’tiborini jalb qilmay qo‘ydi, adabiyotning ta’sirchanligi ancha pasayib ketdi. Bu davrga kelib yozuvchilar vaqtning yangi to‘lqinini his qilishdi, koreys nasrini rivojlantirish uchun turtki beruvchi mulohazali masalalar ustida bosh qotirishdi. Mana shu ma’noda uch yillik ijodiy tanaffusdan so‘ng 2005-yili yaratilgan In Xigyonning “Sir va yolg‘on” romani jamiyatning buguni uchun muhim masalalarni o‘zida aks ettirdi. X. Do‘stmuhammad fikri buni tasdiqlaydi:

“*Badiiy ijod jarayonida tug‘iladigan har qanday qiziqishu orzu-havaslardan qimmatroq va muhimroq. Chinakam ijod onlarida yozuvchining manfaatidan yuksakroq manfaat bo‘lmaydi, uni hatto jamiyat manfaatlari ham qiziqtirmaydi (vaholanki, o‘sha jarayon mahsuli bo‘lmish asar pirovardida ayni shu jamiyat koriga yaraydi). Chunki jamiyat deganda odatda ayni shu kunning voqealari, jarayonlari nazarda tutiladi, yozuvchilik esa BUGUNGA qattiq bog‘lanib qolmasligi kerak. Yozuvchilik bundan yuqori Ijodkor uchta zamonda yashaydi. Jamiyat asosan bugun bilan tirik*” [1, 21 b.].

Darhaqiqat, adiba yangi romani bilan nafaqat muxlislarini, balki tanqidchilarning ham o‘z ijodiga yangicha nazar tashlashga majbur qildi. Tanqidchilar yozuvchi ijodida yangi g‘oyaning yangi

usuldagi ifodasini, yangi ovoz, yangi ruhni ko‘rishdi hamda In Xigyonning yetuklik darajasiga kirganligini alohida e’tirof etishdi. Qalbida zohir bo‘lgan tuyg‘ularni roman qahramonlari orqali ifoda etgan adiba zamonaviy jamiyatda insoniyatning barcha sohalarini tonggi tumandek qoplab olayotgan o‘zgarishlar va an’ana to‘qnashuvida ko‘rsata oldi. G‘arb kishisining yashash tarzini aks ettiruvchi reklamalarning koreys xalqini o‘z ajdodlari ildizidan uzib tashlayotgani, milliy qadriyatlarni yo‘qotayotgani adibaning qalbidagi eng og‘riqli nuqtaga aylandi. Asrlar davomida Xitoy vassalligida bo‘lishiga qaramay, barcha sohalarda, xususan, adabiyotshunoslikda o‘zligini yo‘qotmagan xalq, 35-yil yapon mustabid tuzumida yashagan xalq milliy qiyofasini yo‘qotmagan edi. Ammo, juda ham qisqa fursatda, reklamalar ta’sirida o‘zgarayotgan madaniyat – oddiy holdek ko‘ringan G‘arbga xos erkak-ayol munosabati, oila rishtalarining uzilib borayotgani, milliy g‘urur va insoniylik tamoyillarining yo‘qolib borayotgani adibani tashvishlantirdi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, koreys adabiyotida roman janriga asos solinganiga salkam uch asr vaqt o‘tdi. Ilk romanlarda oila va jamiyat masalalari parallel chizildi, o‘zlikni anglash muammosi yuzaga chiqdi. Ikki asrlik tanaffusdan so‘ng yaratilgan romanlarda turli syujet chizig‘iga asoslanib vaziyatni real tasvirlash xos bo‘ldi. Davr bilan hamnafas adibalar o‘zlari his etgan vaziyatni, muhitni, ko‘rganlarini timsollar orqali mohirona tasvirlashda erkak yozuvchilardan kam ijod qilishmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дўстмуҳаммад Х. XX аср менинг тақдиримда. // Жаҳон адабиёти, 2001.
2. Ко Ен Чоль. Литература Кореи. – Казань. 2021.
3. Ҳошимов Ў. Дафтар ҳошиясидаги битиклар. “Шарқ” нашриёт матбаа концерни бош таҳририяти. – Тошкент. 1998.
4. Эшонқул Н. Озод қушлар // Ёш куч. – 2004. 6-7-сонлар.
5. 박완서. 그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까. – 서울: (주) 도서출판 세계사, 2012.
6. 박완서. 그산이정말거기있었을까. – 서울: (주) 도서출판 세계사, 2012.
7. 김동인, 황순원, 이청준, 황석영 외, 한국 단편 소설 베스트 37, 해문서관, 2012.
8. 양귀자. «모순». – 서울: 대일출판사.1998.

UO’K 81'44

INGLIZ VA O’ZBEK TILIDA URG’U VA OHANGNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Q.A.Abduqaxarov, tayanch doktorant, O’zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida urg‘u hamda ohangning pragmatik xususiyatlari tadqiq etiladi. Til birliklarining kontekstdagi ma‘nolarini o‘rganish jarayonida urg‘u va ohang nafaqat so‘zlardagi semantik farqlanishni belgilaydi, balki muloqot maqsadi, nutqiy strategiya, hissiy-psixologik holat va ijtimoiy munosabatlarni ham ifodalaydi. Maqolada ingliz tilidagi stress-timing hamda o‘zbek tilidagi sillabic-timing tizimlarining urg‘u va intonatsiyaga ta’siri, shuningdek, chet tilini o‘rganish jarayonida bunday fonetik xususiyatlarni noto‘g‘ri qo‘llashning kommunikativ oqibatlari ko‘rib chiqiladi. Natijada, urg‘u va ohangni samarali o‘zlashtirish lingvistik kompetensiyani to‘ldirish bilan birga, samarali va mazmunli muloqot yuritishda muhim omil ekanligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *urg‘u, ohang, pragmatika, ingliz tili, o‘zbek tili, komunikatsiya.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются прагматические особенности ударения и интонации в английском и узбекском языках. При анализе лингвистических единиц в контексте ударение и интонация не только задают семантические различия в словах, но и выражают цель коммуникации, речевую стратегию, эмоционально-психологическое состояние и социальные отношения. В работе исследуется влияние таких систем, как stress-timing в английском языке и sillabic-timing в узбекском, на функционирование ударения и интонации, а также обсуждаются последствия неправильного использования этих фонетических характеристик при изучении иностранного языка. В итоге подчеркивается,*

что успешное усвоение ударения и интонации является важным фактором для эффективной и содержательной коммуникации, дополняя лингвистическую компетенцию.

Ключевые слова: *ударение, интонация, прагматика, английский язык, узбекский язык, коммуникация.*

Abstract. *This article examines the pragmatic features of stress and intonation in English and Uzbek. In contextual linguistic analysis, stress and intonation not only establish semantic distinctions within words but also convey communicative intent, speech strategy, emotional-psychological state, and social relations. The paper explores how stress-timing in English and sillabic-timing in Uzbek influence the practical use of stress and intonation, as well as the communicative consequences of misapplying these phonetic elements when learning a foreign language. It concludes that mastering stress and intonation is essential for effective and meaningful communication, thereby enhancing overall linguistic competence.*

Keywords: *stress, intonation, pragmatics, English language, Uzbek language, communication.*

Ingliz va o‘zbek tilida urg‘u va ohang tushunchalari nutq jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, ularning pragmatik xususiyatlari har bir tilning o‘ziga xos kommunikativ maqsadlarini ifodalashda katta ahamiyat kasb etadi. Pragmatika til birliklarining kontekstdagi ma‘nolarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi va ayni paytda urg‘u hamda ohang so‘zlovchining niyatini, hissiy holatini, shuningdek, suhbat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tilida urg‘u turli darajalarda namoyon bo‘lib, individual so‘zlarda tovushlar yoki bo‘g‘inlar ustida fonetik diqqatni kuchaytirish vazifasini bajaradi. Bunday urg‘u, ayniqsa, ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda ma‘noni farqlash hamda maqsadni aniq ifodalash uchun xizmat qiladi. Misol uchun, “record” so‘zi fe‘l bo‘lganda ikkinchi bo‘g‘inga, ot bo‘lganda birinchi bo‘g‘inga urg‘u tushirilishi bilan ma‘no farqlanadi. O‘zbek tilida esa bo‘g‘inlarning mavjud tizimi nisbatan soddaroq bo‘lishiga qaramay, urg‘u qo‘shimchalar yoki so‘z oxirlarida ifoda topishi mumkin. Natijada, o‘zbek tilida so‘z urg‘usi ko‘pincha nutqning melodik ohangiga mos tarzda namoyon bo‘ladi va asosiy fonetik diqqat so‘z oxirida jamlanishi ehtimoli yuqori. Ushbu farqlardan kelib chiqib aytish mumkinki, urg‘u kategoriyasi ingliz va o‘zbek tillarida fonetik darajadan tashqari pragmatik maqsadlarga xizmat qiladi, chunki urg‘u nafaqat so‘z ma‘nosini aniq tashkillashtiradi, balki ma‘ruza yoki suhbat jarayonida diqqat markazini o‘zgartirish, ta‘kidlash, xulosa chiqarish yoki boshqa nutqiy harakatlar bilan ham bog‘liq.

Ohang esa uzluksiz nutqda turli tarzda namoyon bo‘lishi va pragmatik ma‘noni belgilashi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida ohang tinglovchiga so‘zlovchining hissiy holatini, munosabatini yoki iltimos, buyruq, taklif kabi maqsadni ifoda etishda juda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, so‘z oxiridagi ko‘tarilish intonatsiyasi savol ifodalaydi yoki murojaatga xos yumshoqlikni ta‘kidlaydi, pastga tushish intonatsiyasi esa tugallangan xulosa yoki qat‘iy hukmni bildiradi. Shuningdek, muayyan bo‘g‘inga urg‘u berish bilan ohang birgalikda ishlaganda, so‘zlovchi aniq bir nuqtaga diqqatni jalb qilishi yoki fikriga yakuniy urg‘u berishi mumkin. O‘zbek tilida ohang asosan gap oxiridagi intonatsion tizim orqali ifodalansa-da, har bir gap turida (darak, so‘roq, buyruq, nida va hokazo) o‘zining xos ohang sxemasiga ega. So‘zlovchining muloqot maqsadidan kelib chiqib, ohangni o‘zgartirish yoki matn ichida turli intonatsion pauzalar qilish orqali ma‘no chiziqlarini kengaytirish, hissiy rang-baranglik kiritish yoki suhbatdoshga nisbatan hurmat-iltifot ifodalash mumkin. Bunday funksionallik nutqning pragmatik yo‘nalishini kuchaytiradi va xabarni yanada ta‘sirchan, tushunarli hamda maqsadga muvofiq shaklda etkazishda yordam beradi.

Ingliz tilida urg‘u va ohangning o‘zaro bog‘liqligi, ayniqsa, shu tilda gapirish va o‘qish-tinglash jarayonida yaxshi seziladi. So‘zlovchi nutqning maqsadini o‘zgartirishi bilan urg‘u nuqtasi ham surilishi yoki ohang butunlay o‘zgarishi mumkin. Masalan, “I didn’t say he stole the money” jumlasini turlicha urg‘ulash orqali butunlay turli ma‘no va ta‘kidlarga erishiladi: urg‘u “I”ga qo‘yilsa, boshqa kimdir aytgani nazarda tutiladi, “didn’t”ga qo‘yilsa, inkor qattiqroq seziladi, “he”ga urg‘u berilsa, o‘sha shaxs emasligi ta‘kidlanadi. Bu esa pragmatik jihatdan muhim bo‘lib, suhbat jarayonida yolg‘iz leksik vosita emas, balki fonetik unsur ham o‘ta dolzarb ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida bunday ko‘p qatlamli urg‘u turlicha tashkillashtirilishi kamroq ko‘zga tashlansa-da, baribir kirish bo‘g‘ini yoki so‘zning ma‘lum qismi aniq ta‘kidlansa, u orqali gapning asosiy mazmuni yoki

so‘zlovchining ruhiy-emotsional ohangi ta‘kidlanishi mumkin. Yuqoridagi kabi ohangni ko‘tarish yoki pasaytirish yordami bilan gapning asosiy maqsadi, masalan, buyruqmi yoki iltimosmi, nozikroq aks ettiriladi. Natijada ikki tilda ham urg‘u va ohang nutqqa boylik hamda ifoda erkinligini hadya etadi.

Pragmatik nuqtai nazardan qaralganda, urg‘u va ohang faqatgina leksik yoki grammatik darajaga xos vositalar emas, balki suhbat jarayonini to‘g‘ridan to‘g‘ri shakllantiruvchi, sheriklar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va muloqot strategiyasiga ta‘sir etuvchi qudratli omillardir. Ingliz tilida rasmiy vaziyatlarda ohangning yuritilishi va urg‘uning nozik taqsimlanishi tinglovchida ma‘lumotni jiddiy qabul qilish, ma‘ruzachini e‘tibor bilan tinglash yoki so‘rov, taklif kabi mulohaza istagi uyg‘otishi mumkin. Norasmiy suhbatlarda esa ohang past-balandliklarning erkin almashinuvi bilan hissiy bo‘yoqlarni to‘ldiradi. O‘zbek jamiyatida ham muomalada ohangning yumshoqligi yoki balandligi, ayniqsa, kattalarga murojaat qilganda hurmat va odob talablari bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, urg‘uning ortiqcha kuchaytirilishi ba‘zan ko‘chma ma‘noda tanbeh, e‘tiroz yoki kinoya ifodalashi mumkin. Shu bois nutqdagi bunday fonetik vositalar har bir xalqning madaniyati, mentaliteti va ijtimoiy tamoyillarini ham aks ettiradi.

Til o‘rganish jarayonida urg‘u va ohangni noto‘g‘ri qo‘llash muloqotda tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi, hatto puch ziddiyatlar keltirib chiqarishi ham mumkin. Ingliz tilini o‘rganayotgan o‘zbek talabalarida, masalan, urg‘uning tipik xususiyatlarini e‘tiborsiz qoldirish yoki ohangning notabiiy shaklda qo‘llanishi sababli, nutq so‘rov sifatida emas, buyruq sifatida qabul qilinishi yoki aksincha, yumshoq taklifni qat‘iy hukm deb tushunish hollari uchrab turadi. Ayni paytda, o‘zbek tilini o‘rganayotgan ingliz tilli kishi ba‘zan undov gaplarga xos intonatsiyani haddan tashqari baland ko‘tarish orqali tahdid yoki zug‘um ifodalayotgandek tuyulishi ehtimoli bor. Demak, urg‘u va ohang o‘zga tilda muloqot qiluvchilar uchun o‘ta nozik ko‘nikma bo‘lib, bu ko‘nikma rivojlanmagan holatda odatdagi leksik-grammatik kompetensiyaning o‘zi ham to‘liq samara bermasligi mumkin. Shuning uchun chet tilini o‘rganuvchilar ham, ona tilida nutq mahoratini oshirishni istovchilar ham urg‘u va ohangni alohida e‘tibor bilan o‘rganishlari lozim.

Urg‘u va ohangning pragmatik xususiyatlarini yanada chuqurroq tadqiq etish uchun tilshunoslar zamonaviy akustik tadqiqot usullaridan keng foydalanmoqdalar. Nutq to‘lqinlari spektral tahlil orqali tovushlarning balandligi, davomiyligi va chastotasi o‘lchanib, ma‘naviy-pragmatik maqsadga bog‘liq o‘zgarishlar kuzatiladi. Ingliz tilida stress-timing (urg‘u-ritm) tamoyili kuchli namoyon bo‘lishi sababli nutq oqimi ayrim bo‘g‘inlarning cho‘ziqroq aytilishi bilan belgilanadi. O‘zbek tilida esa sillabic-timing (bo‘g‘in-ritm) tamoyili biroz ustunroq, chunki bo‘g‘inlar odatda muayyan barqaror ritmda aytiladi. Shunga qaramasdan, ohang va urg‘u pragmatik rol o‘ynaganda bu ritmik asos qisman buzilishi yoki aniqlik bilan o‘zgartirilishi mumkin. Demak, fonetik tahlil jarayonida gap to‘lqini va maromidagi o‘zgarishlar orqasida turli illokutsion maqsadlar, ijtimoiy kontekst va shaxsiy munosabatlar joylashgan bo‘ladi.

Kelajakda bu masalaning yanada ko‘lamli tadqiqi uchun multimodal yondashuvlardan foydalanish zarur. Zero, pragmatika faqat fonetik jihatdagina emas, balki nutq paytida yuzaga chiqadigan tana harakatlari, yuz ifodalari va boshqa jismoniy ishoralar bilan ham uzviy aloqador. Ingliz tilida, masalan, ohangni ko‘targanda ko‘z bilan tasdiqlash yoki qo‘l harakati bilan ko‘mak berish xabarni yanada ishonchli va jonli qiladi. O‘zbek madaniyatida ham ko‘z qarashlari, tana tili va ovoz balandligining bir butun uyg‘unligi hurmat-ehtirom, samimiyat yoki rasmiylik darajasini aniqlashga yordam beradi. Shunday ekan, urg‘u va ohangning pragmatik xususiyatlarini har taraflama o‘rganish har qanday til o‘rganuvchi yoki tadqiqotchiga tilning jonli mohiyatini, milliy xususiyatlarini chuqurroq tushunish, muloqotni samarali olib borish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida urg‘u hamda ohangning pragmatik xususiyatlari o‘ta muhim bo‘lib, har bir tilda aloqa jarayonida yuksak ta‘sirchanlikka erishish, ma‘no va maqsadni aniqlik bilan ifodalash, turli ijtimoiy vaziyatlarda munosib uslub tanlash uchun zarur omil hisoblanadi. Ushbu omillar nutqiy faoliyatda muloqot ishtirokchilarining psixologik holati, ijtimoiy mavqei va vaziyat talablariga monand strategiya tanlashda asosiy o‘rin tutadi. Ingliz tilida urg‘u so‘z yoki bo‘g‘in darajasida aniq namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida urg‘u ko‘pincha nutq oxiriga yaqinlashishi hamda intonatsiya orqali kengroq ko‘rinish kasb etishi mumkin. Shuningdek, har ikkala

til ham ohang orqali savolni, buyruqni, taklifni yoki shunchaki mulohazani ifodalab, nutqqa nozik ma‘no qatlamlarini qo‘shadi. Bu noziklik, ayniqsa, pragmatik darajadagi tadqiqotlarda yaqqol sezilib, har bir tilda muloqotning milliy mentalitet bilan bog‘liq xususiyatlarini ham yoritib turadi. Shuning uchun ham urg‘u va ohangni izchil o‘rganish nafaqat fonetik yoki grammatik bilimlarni boyitadi, balki ikki tilda ham munosabatlar, hissiy holatlar va madaniy qadriyatlar kesishmasida samarali muloqot qilish ko‘nikmasini shakllantiradi.

UO'K 808.5

JON RONALD TOLKINNING INGLIZ ADABIYOTIDA FANTASTIK JANRDAGI IJODI

S.R.Abdusalimov, stajyor assistent, Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand

Annotatsiya*. Jon Tolkinnig Uzuklar hukumdori asari tom ma'noda fantastik asarlar ichida eng shoh asar hisoblanadi, va har qanday yoshdagi insonlar uchun o'zga xos xulosa fikr va mulohazaga ega bo'lishadi*

Kalit so'zlar: *elrond, gollum, elf, ork, dyurin, moriya, gendalf, nekromant.*

Аннотация. *Работа Джона Толкина "Властелин колец" буквально является шедевром среди фантастических произведений, и для людей всех возрастов уникальное резюме будет иметь обратную связь и обратную связь*

Ключевые слова: *элронд, голлум, эльф, орк, дюрин, мория, гендальф, некромант.*

Abstract. *John Tolkien's work of the "Lord of the Rings" is literally the most regal of the fantastic works, and a unique conclusion for people of all ages will have an opinion and reasoning*

Keywords: *elrond, gollum, elf, ork, Durin, moriya, gendalf, Necromancer.*

Kirish. Bu asar tom man'oda juda ajoyib asarlar sarasiga kiradi bu asar nafaqat yevropa xalqlari uchun balkim butun dunyo uchun o'zga xos shoh asar sarasiga kiradi. Bu asarni yozishga juda ko'p muddatni hisobga olsak bu asar juda sayqallangan va qiziqarli ajoyib bayon etilgan asarlar ro'yxatidan hisoblanadi. Bu asarni yozishga muallif juda ko'p qiyinchiliklarga uchragan, chunki asar jahon urishi vaqtida yozilgan ammo yozuvchi juda ko'p qiyinchiliklarga qaramasdan bu asarni juda chiroyli va voqea hodisalarga boy asar darajasiga chiqardi. Bu asar faqatgina fantaziya mahsuli bo'libgina qolmasda bu asarda , vatanga bo'lgan muhabbat, do'stlik va sadoqat kabi rishtalarni o'ziga mujassamlashtirilgandir. Asarda adolat va yaxshilik g'alaba qilishni, rostgo'ylik hamma narsadan ustunligi keltirib o'tilgan.

Janerini aniqlash qiyin juda murakkab asardir. 1954-55 yillarda nashr etilganidan beri u etiketlangan mif, doston, romantika, qahramonlik romantikasi, sarguzasht romani, fantaziya, qahramonlik fantaziyasi va ertak, faqat bir nechtasini nomlash mumkin. Uni hatto hikoya she'ri yoki saqlovchisi sifatida ham o'qish mumkin. Bu asar juda ko'p umumiy xulosalar yuzasidan "Uzuklar hukmdori" qiyosiy adabiyot sohasida eng ko'p o'rganilgan. Romantika va epik kontekstlar. Yillar davomida u ishonchli tarzda taqqoslangan, Kretyen de Troyes va Volfram fon Eshenbax adabiyoti (Ryan, 1984); Miltonnikiga asarlari (Sli, 2000), Virjilning kompozitsiyalari (Morse, 1986; Grinman, 1992; Obertino, 1993), Gomer dostonlari (Fenvik, 1996) shuningdek, bularda ko'plab boshqa adabiy iboralar mavjud. "Uzuklar hukmdori" romaniga tegishli ikkita janr. Bu yondashuv haqiqat bo'lsa-da hikoyaning kuchliligi kabi global rasmning muhim umumiy jihatlarini qoldiradi roman janriga, ishqiy va epik rivoyatlardan tashqari afsonaviy an'analarga sodiqlik ko‘p jihatdan o‘zini oqlagan yondashuvdir. Tolkinning juda sinchkovligi va izlanuvchanligi bu asarni juda boyitib o'quvchiga juda ko'p yangiliklar beradi. Roman va uning turli xil variantlari - masalan, klassik antik davrning epik hikoyalari Kretyen de Troyes va Chauser kabi mualliflar tomonidan ishlatilgan va o'rta asr kiyimlari bilan jihozlangan; romantik janri, aslida, har ikkala dostonning ajralmas qismi ekanligidir. Ulissning sehrlangan arxipelagdagi sayohati Jeyson va uning romantikasi orqali. "Argonautika"dagi "Oltin jun" va "Don Kixot de la Mancha" romanidagi kabi asarlarni taqqoslash mumkin, Servantesning ishqiy janrdagi mashhur parodiyasi ham belgilangan voqealarda haqiqatan ham zamonaviy roman Shu nuqtai nazardan qaraganda, Uzuklar Egasi, albatta, ish mustahkam romantik va epik an'anaga o'rnatilgan - lekin keyin yana, qanday adabiy asar bo'lmaydimi? Shubhasiz, bunday har tomonlama

qamrab oluvchi ta'rif Tolkienning jozibali hikoyasining umumiy o'ziga xosligini yoritish uchun kurashimizda bizga unchalik yordam bermaydi.

Asosiy qism. Elrond bu J.R.R Tolkinning O'rta Yer afsonasidagi hayoliy qahramondir. Uning ikkala ota-onasi, Erendil va Elving yarim elf bo'lib, ularning ota-bobolari erkaklar va elflarga ega edi. U O'rta yerning ikkinchi va uchinchi asrlarida minglab yillar davomida yashab kelgan elvin halqasi Vilya, havo halqasi va Rivendellning ustasi.U ikkinchi asrning oxirida elf quroli Gil-galadning xabarchisi edi. Gil-Galad va shoh Elendil yagona uzuk uchun qorong'u lord Savron bilan kurashayotganini ko'radi.

Goblin bu 500 yilga yaqin tuman tog'lar ostida yashab, va goblinlar bilan oziqlanadi, oxir oqibat tumanli tog'larni tark etadi va bir necha yil o'tib Bilboning orasidan quviladi, ammo iz sovuq bo'lib qoladi. Bu ham romanda kichik bir ro'lga ega bo'lgan qahramondir.

Elf bu olmon mifologiyasi va folklorida uchraydigan humanoid g'ayritabiiy mavjudot turi hisoblanadi. O'rta asrlarda german tillarida so'zlashuvchi madiyatlarda odatdaelflar sehrli kuchga ega va go'zal mavjudotlar sifatida tasvirlanadi. Asarning yozishda Angilya va Sakandinaviya mif va afsonalaridan foydalangan.

Orklar O'rta yerdagi yashovchi mifologik qahramon bu asarda ular g'ayritabiiy mavjudot turi hisoblanib juda ko'p adadga ega bo'lgan yovuz qahramon hisoblanadi. Jon Ronald Tolkin asosan skandinaviya va Britaniya mifalogiyasini birlashtirib go'zal asar yaratgan.

Dyurin bu mittilarning yetti otasi yana o'z qarindoshlarida yashash va qaytib kelishgan mittilar yetakchisi va ular ichidagi eng mashhuri. Mifologik qahramon hisoblanadi.

Morya bu asarda O'rta yer tarixidning ko'p qismida Mittilarning eng buyuk shahri bo'lgan. Shahar boyligi zirhga mos keladigan, ajoyib go'zallik va kuchga ega bo'ladigan xayoliy metal – mitril ishlab chiqarilgan konga asos solgan.

Gendalf bu J.R.R Tolkinning Uzuklar hukumdori asaridagi mashhur sehrgar bo'lib asl ismi Olorin.

Vazifasi: O'rta yerdagi yovuzlikka qarshi kurashish

Ko'rinishi: Oq saqol, uzun ko'k libos, qalqon va tayoq

Xarakteri: Aqilli,rahmdil ammo juda qattiq qo'l

Nekromant esa fantastik va qo'rqinchli jangdagi sehrgar bo'lib, o'liklarni tiriltirish,qorong'ulik sehr va qorasehr bilan shug'illanadi.

Kuchlari: O'liklarni boshqarish, yorug'lik sehriga qarshi kurashish, zaharli sehrlar ishlatish.

- Gaps: No explicit politeness strategies: While phrases like *"It's a perfectly relaxing end…"* are provided, there is no instruction on mitigating opinions (e.g., hedging: *"I might say that…"*) or adapting tone for diverse audiences.

- Neglects social context: Tasks lack prompts to consider *familiarity* (e.g., writing for a school magazine vs. a formal blog) or *cultural norms* (e.g., appropriateness of directness).

Overall Findings: Pragmatic focus: Both tasks prioritize opinion-giving and grammatical accuracy but underemphasize contextual adaptability (e.g., adjusting language to social power, setting, or cultural expectations).

- Missing elements are mitigation strategies: No practice in softening disagreements or refusals (dispreferred responses). Limited opportunities for role-playing dialogues requiring negotiation, clarification, or repair (e.g., responding to counterarguments). While fixed phrases (*"It was the best… ever"*) aid novice learners, they may hinder advanced pragmatic competence without explicit instruction on variation. The textbook activities provide foundational tools for expressive communication but insufficiently address the sociopragmatic complexity required for real-world interactions. Recommendations include integrating activities that require students to adapt language to specific contexts (e.g., formal vs. informal scenarios) and explicitly teaching mitigation strategies (e.g., indirect requests, polite refusals) to enhance pragmatic competence.

Discussion. The Grade 10 textbook partially addresses pragmatic competence through formulaic language (e.g., Task 1, p.27: "It was an amazing…") but neglects contextual adaptability, such as adjusting language to audience or power dynamics (Taguchi, 2015). This aligns with Bardovi-Harlig's (2001) critique that instruction prioritizes grammar over sociocultural norms. Task 3 (p.79) includes opinion markers ("I think…") but omits politeness strategies (e.g., hedging, indirectness) tied to cultural expectations (Brown & Levinson, 1987). Phrases like "I absolutely love Sundays" lack guidance on mitigating directness in formal contexts, reflecting Ishihara and Cohen's (2010) observation that textbooks often divorce linguistic forms from situational variables. Both tasks ignore mitigation strategies for dispreferred responses (Searle, 1976) and interactive pragmatics (e.g., negotiation, repair; Kasper & Rose, 2002), favoring monologic tasks over dialogic exchanges (Roever, 2021). Over-reliance on rigid formulas ("It was the best… ever") risks limiting pragmatic flexibility (Taguchi & Roever, 2017). Textbook revisions should integrate sociopragmatic awareness, such as rewriting statements for different audiences (e.g., peer vs. principal) or role-playing indirect requests (Bardovi-Harlig & Mahan-Taylor, 2003). Explicit instruction on politeness norms and cultural nuances would bridge grammatical competence and pragmatic performance, aligning with Kasper's (1997) call for "pragmatics-rich" tasks that mirror authentic communication. Such changes would ensure learners grasp not only *what* to say but *how* to adapt language to shifting contexts, addressing gaps in mitigation, interactivity, and adaptability.

Conclusion. Current tasks prioritize formulaic language and grammatical accuracy but lack contextual adaptability, politeness strategies, and sociopragmatic guidance. Over-reliance on fixed phrases limits learners' ability to adjust language to social contexts, while tasks neglect mitigation and dialogic practice. To bridge grammar and pragmatics, the study recommends integrating dynamic activities like role-plays, audience-specific rewrites, and indirect requests. Explicit instruction on contextual cues, politeness norms, and cultural nuances is essential. Such revisions enhance sociopragmatic awareness, preparing learners for authentic interactions by teaching not only *what* to say but *how* to communicate appropriately. Emphasizing scenario-based tasks aligns materials with real-life complexities, fostering effective cross-cultural communication.

REFERENCES:

1. Bardovi-Harlig, K. (2001). Evaluating the empirical evidence: Grounds for instruction in pragmatics? In K. R. Rose & G. Kasper (Eds.), Pragmatics in language teaching (pp. 13-32). Cambridge University Press.

2. Bardovi-Harlig, K., & Mahan-Taylor, R. (2003). Teaching pragmatics. Washington, DC: United States Institute of Peace Press.

3. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.

4. Ishihara, N., & Cohen, A. D. (2010). Teaching and learning pragmatics: Where language and culture meet. Pearson Education.
5. Kasper, G., & Rose, K. R. (2002). Pragmatic development in a second language. John Benjamins Publishing.
6. Roever, C. (2021). Teaching and testing pragmatics. Routledge.
7. Searle, J. R. (1976). A classification of illocutionary acts. Language in Society, 5(1), 1-23.
8. Taguchi, N. (2015). Context, individual differences, and second language pragmatic competence. Multilingual Matters.
9. Taguchi, N., & Roever, C. (2017). Second language pragmatics: Learning and teaching. Routledge.

UDC 821.161.1.0

LINGUISTIC ASPECTS OF ONEIROSPHERE: A COMPARATIVE ANALYSIS

Z.M. Allayev, teacher, Termez University of Economics and Servis, Termez

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida oneirosfera doirasida tushlarning lingvistik ifodalanishini o'rganadi. Tadqiqot qiyosiy lingvistik yondashuv asosida tushlarga oid leksik birliklar, metaforik ifodalar va semantik tuzilmalarni tahlil qilishga qaratilgan. Korpus tahlili va kognitiv tilshunoslik metodlaridan foydalangan holda, ushbu ish asosiy leksik naqshlar, madaniy xususiyatlar va tush terminologiyasining pragmatik ahamiyatini aniqlaydi. Tadqiqot shuningdek, tushlar tiliga tarixiy ta'sirlarni hamda madaniy kontekstlarning rivojlanishi oneirosfera haqidagi tasavvurlarga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi.*

Kalit so'zlar: *Oneirosfera, tush leksikasi, metaforik ifodalar, semantik tuzilmalar, qiyosiy tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik.*

Аннотация. *Данная статья исследует лингвистическое представление снов в рамках онейросферы на английском и узбекском языках. Исследование направлено на анализ лексики, связанной со снами, метафорических выражений и семантических структур с использованием сравнительного лингвистического подхода. Применяя корпусный анализ и методы когнитивной лингвистики, работа выявляет ключевые лексические модели, культурные особенности и прагматическое значение терминологии сновидений в обеих языковых системах. В исследовании также рассматривается влияние исторических факторов на язык снов и то, как изменяющиеся культурные контексты формируют представления об онейросфере.*

Ключевые слова: *Онейросфера, лексика снов, метафорические выражения, семантические структуры, сравнительная лингвистика, когнитивная лингвистика, историческая лингвистика.*

Abstract. *This paper explores the linguistic representation of dreams within the oneirosphere across English and Uzbek languages. It aims to analyze dream-related vocabulary, metaphorical expressions, and semantic structures through a comparative linguistic approach. Using corpus analysis and cognitive linguistics frameworks, the study identifies key lexical patterns, cultural implications, and the pragmatic significance of dream terminology in both linguistic systems. The research also considers historical influences on dream language and how evolving cultural contexts shape the perception of the oneirosphere.*

Keywords: *Oneirosphere, dream lexicon, metaphorical expressions, semantic structures, comparative linguistics, cognitive linguistics, historical linguistics.*

Introduction. Dreams have been a significant subject of study in various disciplines, including psychology, literature, and linguistics. The term "oneirosphere" encapsulates the collective dreamscape and its linguistic manifestations. This paper investigates how English and Uzbek languages encode dream experiences, with a particular focus on metaphorical and semantic structures. By examining dream-related lexicon, we can better understand the interplay between culture and language in conceptualizing subconscious experiences. Additionally, historical linguistics perspectives are integrated to explore how the terminology and interpretations of dreams have evolved over time.

Methods. A comparative linguistic analysis was conducted using a corpus of dream-related texts in both English and Uzbek. The methodology includes:

- Lexical Analysis: Identification and classification of dream-related words.
- Semantic Field Study: Examination of meaning clusters and thematic categorization.
- Metaphorical Mapping: Investigation of conceptual metaphors used to describe dreams.
- Historical Linguistic Analysis: Examination of how dream-related terminology has changed over centuries and what external influences have shaped these linguistic structures.
- Pragmatic Analysis: Evaluation of how dream-related phrases function in communication and cultural discourse.

Results. The findings reveal significant differences in how dreams are verbalized in English and Uzbek:

Dream Lexicon: English tends to use clinical and psychological terms (e.g., "lucid dream," "REM sleep"), whereas Uzbek incorporates folklore-based expressions (e.g., "tush ko‘rmoq," "bashoratli tush"). Many Uzbek dream-related terms originate from Persian and Arabic influences, while English integrates Latin and Greek roots.

Metaphorical Expressions: Dreams in English are often conceptualized as a "journey" (e.g., "drifting into a dream"), while in Uzbek, they are frequently depicted as a "message" or "premonition" (e.g., "tush ta’bir qilish"). Religious and superstitious beliefs play a stronger role in Uzbek dream metaphors, whereas scientific and psychological interpretations dominate English.

Semantic Structures: English dream narratives often focus on personal experience and interpretation, while Uzbek emphasizes collective meaning and social context. Furthermore, Uzbek frequently uses dream-related idioms in everyday language, reflecting the cultural integration of dream symbolism.

Historical Evolution: Over time, the perception and terminology of dreams in both languages have shifted. In English, earlier dream-related terms were heavily influenced by religious connotations (e.g., "visions" or "prophetic dreams"), but the modern lexicon has become more scientific. In contrast, Uzbek retains a strong connection to mystical interpretations and cultural storytelling traditions.

Discussion. The results indicate that dream-related language is deeply rooted in cultural and cognitive frameworks. The English linguistic system reflects an individualistic, scientific approach to dreams, whereas Uzbek emphasizes communal beliefs and mystical interpretations. These linguistic differences highlight the broader cultural perspectives on subconscious experiences and how language encodes them. Additionally, historical and cross-linguistic influences demonstrate how dream terminology has been shaped by external linguistic and cultural interactions. The presence of Persian and Arabic elements in Uzbek and Latin and Greek elements in English further supports the theory that language and cognition evolve alongside cultural exchanges.

Conclusion. This study underscores the importance of linguistic and cultural contexts in shaping the conceptualization of the oneirosphere. By analyzing dream-related language in English and Uzbek, we gain insights into how different societies perceive and articulate subconscious phenomena. The study highlights how language reflects cultural attitudes toward dreams and their interpretations. Future research can further explore diachronic changes in dream lexicon and its impact on linguistic evolution. Additionally, interdisciplinary approaches combining neurolinguistics and cognitive science may offer deeper insights into how the brain processes dream-related language.

REFERENCES:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
2. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind’s Hidden Complexities. Basic Books.
3. Ullmann, S. (1962). Semantics: An Introduction to the Science of Meaning. Basil Blackwell.
4. Kuper, A. (1999). Culture: The Anthropologists' Account. Harvard University Press.
5. Zohidov, I. (1983). O‘zbek tili leksikologiyasi. Fan.
6. Crystal, D. (2010). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.
7. Freud, S. (1900). The Interpretation of Dreams. Macmillan.
8. Sweetser, E. (1990). From Etymology to Pragmatics: Metaphorical and Cultural Aspects of Semantic Structure. Cambridge University Press.

9. Whorf, B. L. (1956). Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. MIT Press.
10. Kadyrova, N. (2012). O'zbek tilida tush va uning lingvistik talqini. Toshkent Davlat Universiteti nashriyoti.

UO'K 8; 82.02

"TABIATNING IKKINCHI SIRI" AFSONASINING TAHLILI VA TALQINI

S.R.Alxiyeva, magistrant, O'zbekiston-Finlandiya instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Omon Matchonning "Tabiatning ikkinchi siri" afsonasi xususida so'z yuritiladi. Afsonaning badiiy tahlili va talqini buyuk mumtoz shoirlar Mirzo Bedil, Umar Hayyom, Ahmad Yassaviy ruboiylari; Sergey Yesenin, Zulfiya, A.Oripov, Maxtumquli va boshqa shoir, yozuvchilarning asrlaridan asar g'oyasiga mos parchalar keltirilib ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *tabiat, bolalik, qiz uzatdi, soy, qishloq, urush, qizil toychoq, buloq, shodlik va qayg'u, g'arib Mansur.*

Аннотация. *В данной статъе рассказывается о легенде «Вторая тайна природы» народного поэта Узбекистана Омона Матчона. Художественный анализ и интерпретация легенды написана великими поэтами-классиками Мирзой Бедилем, Умаром Хайямом, Ахмадом Яссави; Будут раскрыты соответствующие идее мифа отрывки из произведений Сергея Есенина, Зулъфии, А.Орипова, Махтумкули и других поэтов и писателей.*

Ключевые слова: *Природа, детство, девочка с руками, ручей, деревня, война, рыжая кобыла, весна, радостъ и печалъ, незнакомец Мансур.*

Abstract. *This article talks about the legend "The Second Secret of Nature" by the national poet of Uzbekistan Omon Matchon. The artistic analysis and interpretation of the legend are written by great classic poets Mirza Bedil, Umar Khayyam, Ahmad Yassavi; Excerpts from the works of Sergey Yesenin, Zulfiya, A.Oripov, Makhtumkuli and other poets and writers will be presented and revealed.*

Keywords: *Nature, childhood, girl handed, stream, village,war, red mare, joy and sorrow, stranger Mansur.*

Kirish. "Tabiatning ikkinchi siri" afsonasi O.Matchonning "Haqqush qichqirig'i" asaridagi birinchi afsona hisoblanib, unda beg'uborlik va zulmkorlik,tinchlik va urush, muhabbat va nafrat, baxt va fojia, yo'qotish va topish kabi azaliy, bir-biriga zid va yonma-yon bo'lgan tushunchalar aks ettirilgan. Bu tushunchalarning ketma-ketlikda sodir bo'lishi, pirovardida ezgulikning g'alaba qozonishi, unga hech narsa teng emasligi, yuksak insoniy tuyg'ular — vatanga, ona tabiatga bo'lgan muhabbat hamisha odamzodni o'ziga chorlashi, ularsiz yashab bo'lmasligi kabi haqiqatlarga afsonani o'qir ekanmiz, amin bo'lamiz.

Asosiy qism: afsona debochasi bahor faslining manzaralarini tasvirlashdan boshlanadi: shoxdan shoxga sakrab shod sayrashayorgan qushlar,toshdan toshga irg'ib oqayotgan jo'shqin soy to'lqinlari sho'xchan bolakaylarga, gullarning lov qizarib turishi — arzimagan gunoh qilib onasining oldida yuzlari olovlangan qizaloqqa[1] tanbehlanishi o'ziga xos badiiy nafosatni ifodalagan. Omon Matchon poetikasida tabiat tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ham shoir yashil tabiatni bolalikning pokiza, hayotshukuh va orzumand paytlariga qiyoslaydi, bu jarayon — tabiatning ikkinchi siri ekanligini ta'kidlaydi.

Bu afsona asardagi she'riy usulda yozilgan boshqa afsonalardan farqli asarda uchraydigan ba'zi afsonalar kabi nasriy yo'lda yozilgan bo'lib, kitobxon uni badia, hikoya tarzida o'qiydi. Muallif tabiat va bolalar ta'rifidan so'ng qishloq tasviriga yuzlanadi: qoq o'rtasidan toshqin soy o'tgan, bog'lar, daraxtzorlar, qushlar dunyosi, gullar… Yuqoridagi so'zlar orqali qishloq tabiati barcha tog' qishloqlari kabi jannatmonand ekanligini bilib olamiz. Shu o'rinda ulug' fors-tojik shoiri Umar Hayyomning quyidagi ruboiysiga to'xtalamiz:

U yon bu yonimga tashlayman nazar,
Bog'larda shildirab oqqan suv — kavsar.
Kavsardan so'z ochma dalalar jannat,
Shu jannatda o'tir,..[2]

-deya ta'kidlangan parchada qishloq tabiatining jozibadorligi, soyi jannat suvi — kavsar ekanligi, dala-yu dashti, tog‘-u toshi jannat zaminidan farq qilmasligi kabi shoirona misol va misralardan yaqqol his etamiz. Xo‘sh, tashqaridan maftunkor ko‘ringan qishloqning ma'naviy dunyosi qanday? Hamma gap shunda. Qishloq ikkiga bo‘lingan, bunga ilk zamonlarda otilgan vulqonlarning yo‘nalishi sabab ekanligi va hozir u yerdan oqayotgan soyning zarracha aybi yo‘qligini ta'kidlagan ijodkor ikki tomonning yoshi katta odamlari inoq emasligini bildiradi. Bunga oqsoqol taloshi, qiz uzatdi payti biron ishkal chiqishi, suv taqsimoti va boshqa mashmashalar sabab bo‘lib, o‘rtadagi adovatni kuchaytirgan va xunuk oqibatlarga olib kelgan. Bunday mojarolar har bir xalq tarixida, miflarida ko‘p uchraydi. Xususan, misr yozuvchisi Yusuf Idris "Qiz uzatish" nomli adabiy-hajviy hikoyasida qo‘shni qishloqlardagi o‘zaro janjallardan biri aynan shu vaziyatda sodir bo‘lishini mohirona ochib bergan: "Kelin karvoni qishloq yonidan o‘tib qolgudek bo‘lsa, ash-Sharqiya aholisining yoshu qarisi peshvoz chiqar, mol so‘yib, kallasini yog‘ochlarga sanchib ko‘tarib olishardi-da kelin va uning hamrohlariga qurbonlik qilishganini, bir kecha mehmon bo‘lishlarini ta'kidlaydilar. Kelin tomon birinchi nikoh to‘yini kuyovning uyida o‘tkazishi kerakligi uchun bu taklifni rad etadi. Ash-Sharqiyaliklar uchun esa rad javobi haqorat edi. Nizo oxiri mushtlashuvgacha borar edi"[3].

Omon Matchon "Tabiatning ikkinchi siri" afsonasida ikki taraf odamlari bir-biriga yov bo‘lsa ham bolalar bundan mustasno ekanligi, xuddi ravzai rizvondagi farishtachalar kabi birga o‘ynab, yayrab ulg‘ayishlarini, dala-qirlarga chiqib gullar, onalariga ko‘k chuchvara uchun giyohlar terishlarini yozadi. Afsonada kontrast mavjud bo‘lib, u rivoyat mazmun-mohiyatini to‘laqonli ochib berishga xizmat qilgan. Bu holat yuqoridagi jumlalardan so‘ng ko‘zga tashlanadi. Ya'ni bolalar bir kuni qirlardan tushib qishloqlariga qaytganda, hech narsa yo‘qligi, na qishloq, na odamlardan asar qolganligining guvohi bo‘lishadi. Hammayoq kunpayakun, jannatmonand qishloq jahannamga aylangandi. Dastavval, bolalar qotib qolishadi — bunga ishonishmaydi, go‘yo qishloq qayta paydo bo‘ladiganday. Ammo, chirkin manzara badtar qo‘rquvlarini kuchaytiradi. Tabiatdan o‘tinishadi, biroq tabiatning izi ham qolmagandi u yerda. Asta-sekin bolalarning zorli chinqirig‘i atrofni qoplaydi: ey Xudoyim, ey tabiat, qishlog‘im, otajon, onajon, gullarim, toshqin soy, qizil toychog‘im… Qaydasiz? Ularning bo‘zlashi Maxtumqulining quyidagi satrlarini esga soladi:

Bola sasin tinglar osib qulog‘in,
To‘ka-to‘ka ko‘zyoshining bulog‘in,
Oq jayron oldirsa qo‘ldan ulog‘in,
Ma'ray-ma'ray izlamayin bo‘larmu?[4]

Albatta, bu yerda bolasini yo‘qotgan ona jayron nolasi kuylangan bo‘lsa, afsonada uning aksi — onasidan, elidan judo bo‘lgan bolalar nidosi aks etgani bilan faryodlari farq qilmaydi. Chunki har ikkisining rishtasidan qay biri uzilmasin bir xil azob tortishadi. Bolalar ona tabiatdan iltijo qilishlarini A.Oripovning "Tabiat" she'ridan yanada yaqqol tushunib olamiz. Uning har bandi oxirida "Singil bo‘la qolgin menga, tabiat", "Aka bo‘la qolgin menga, tabiat", "Ota bo‘la qolgil menga, tabiat", "Ona bo‘la qolgil menga, tabiat"[5] kabi satrlar ifodalangan.

Jujuqlar giryasi, fig‘onlari besamar ketmaydi: qizaloq — qizil gulga, "ortimga qaramay yig‘lab ketaman" degan bolakay — toshqin soyga, bo‘yi sal ulug‘roq sipochehra bola — chinorga, yana boshqalari qushlar, bog‘lar, uylar, olovrang toychoqqa aylanishadi. Shunday qilib, qishloqda avvalgidek to‘laqonli hayot qaytadi. Buni bolalar qaytarishdi. Qaytish haqidagi so‘z fursatida tasavvuf olimi va shoiri Ahmad Yassaviyning quyidagi to‘rtligini esga olamiz:

G‘arib Mansur qulog‘imga bir so‘z dedi,
Xokistardin bir kaf olib menga berdi,
Daryo toshsa, "Yo Mansur" deb soling, dedi,
Inshaalloh , toshqan daryo qaytar emish[6].

G‘arib Mansurni tarix va adabiyot ko‘p kuylagan va e'tirof etgan. U Mansuri Halloj nomi bilan ham tilga olinadi. Ma'lumki, Mansuri Halloj "Analhaq" deya ko‘ksiga urib ko‘chaga chiqadi, odamlarni chorlaydi. Odamlar esa uni "Men Xudoman" deyabdi, deb o‘ylab toshbo‘ron qilib o‘ldirishadi(boshqa manbalarda daraxtga osishadi, deyilgan). Aslida esa g‘arib Mansur "Xudo mening ichimda, sizlarda ham shunday", deya hali insoniyatga noma'lum bo‘lgan haqiqatni

ochmoqchi bo‘lgan. Ahmad Yassaviy bu obrazni tilga olar ekan, uning shoir qulog‘iga bir so‘z degani, xokistar — kuldan bir kaft olib qo‘liga bergani, uni(kulni) toshgan daryoga “Yo Mansur!” deya sol va inshaalloh men qaytarman, deya bashorat qilganini yozadi.

Xuddi shunday afsonadagi bolalar ham kulga aylangan qishloqlarini toshqin soylarga, bog‘-u rog‘larga aylantirib hayotga qaytarishdi. Ona tabiatni qayta takomil etishdi. Vatandan ayrilmoq kabi og‘ir hisni mutafakkir Jaloliddin Rumiy ham bolaligida boshidan kechirgan. Bu haqda yozuvchi Radiy Fish o‘zining “Jaloliddin Rumiy” deb nomlangan tarixiy-biografik asarida shunday tilga oladi: “Jaloliddin har bir hamshaharining o‘limini o‘z o‘limidek kechindi. Bag‘dodda uni domiga tortgan vatandan ayrilish iztirobi sabab bo‘ldiyu u hamma narsa qismati ilohiyga bog‘liq, degan e’tiqoddan kechib, inson o‘zining azmu irodasi ila ko‘rki kamol sari intilishi kerak, degan e’tiqod yo‘lida ilk qadam qo‘ydi”[7].

Yuqorida ta’kidlangan quyidagi jumlalar — inson o‘zining azm-u irodasi ila ko‘rki kamol sari intilishi kerak, deya alloma tomonidan da’vat etilgan teran falsafiy yondashuv xuddi xarob bo‘lgan qishloqlarini bir qudrat bilan barpo etgan bolalar xislatining mantiqiy davomi sifatida yangraydi. Ular qarab turishmadi, oldin qo‘rqishdi, qaltirab bir-birlarining pinjilariga kirishdi, lekin bu vaziyat uzoqqa cho‘zilmadi: yolvorishdi, yalinishdi; ona tabiatga, ona zaminga murojaat etishdi va alaloqibat tarqalib tabiat jismlariga aylanishdi — hayotni qaytarishdi. Bu esa Mavlono Rumiy zabonida ko‘rki kamol sari intilish demakdir. Buning natijasida yorqin hayotga erishish turishini afsona orqali guvoh bo‘lamiz.

Ijodkor “Tabiatning ikkinchi siri” afsonasida kontrast holatga sabab bo‘lgan kattalarning urushini shunday ta’riflaydi: “Kattalarning urushi uzuq-yuluq bulutlarning jalasi emas! Kattalarning urushi vulqonlar otilganda, yer dahshatli qimirlaganda, sunamidan ham kuchliroq to‘fonlar qo‘zg‘alganda bo‘ladigan fojialar bilan teng. Unday payt negadir bolalarning taqdiri hech kimning esiga tushmaydi!”. Shoir tomonidan afsona orqali o‘z mulohazasini yoritgan ushbu jumlalar qadimdan bugungi kunga qadar va kelajakda ham ayni haqiqat. Ukraina bolalari (2022), G‘azo bolalari (2023) va boshqa dunyoning turli mintaqalarida “katta”larning ayovsiz jangi oqibatida talafot ko‘rayotgan bolalar taqdiri biz talqin etayotgan go‘daklarning ahvolidan aslo farq qilmaydi.

Maqola muqaddimasida ezgulik va yovuzlikka itoat va rioyat qiluvchi azaliy zid tushunchalar aytib o‘tildi. O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron o‘zining “Samarqand xayoli” kitobida “Boburnoma”ga murojaat qilib, shaharda hukm surayotgan xislat va illatlarni aniq, lo‘nda hamda ijodkorona ochib bergan: “Oltin qoziq o‘rni — Samarqand atrofida shaddod otlaru bahodir va nomard chavandozlar bilan birga havas va hasad, muhabbat va qahr, donolik va jaholat, tantilik va nomardlik, sadoqat va xiyonat aylanadi…”[8].

Afsonada kattalarning chirkin dunyosi va bolalikning beg‘ubor olami zidlangani kabi qayerga, nimaga, kimga yuzlanmaylik, bu ikki tarafning farqini shu bilan birga yonma-yonligini ko‘ramiz. Bolalikning tabiatga, odamlarning qabohati tabiatdagi ofatlarga o‘xshatilishi shoirning zidlantirish va o‘xshatishdagi yuksak poetikasini namoyon etgan. Yoshlikdagi ahillik, do‘stlik, hamjihatlik va vafodorlik kattalikdagi noahillik, dushmanlik, parokandalik va bevafolikka almashilganday ikki qishloq bolalari va ulug‘lari bir-biridan farq qiladi. Ikki taraf bolalari bir bo‘lib qirlarga chiqishadi, o‘ynashadi, onalari, buvilariga gullar, giyohlar terishadi; ko‘k chuchvara, ko‘k somsa uchun etaklariga xushbo‘y yalpizlardan to‘ldirishadi. Ammo, shunday yorug‘ kunlarning birida ikki tomon kattalari tandir tutunidanmi, xirmon changidanmi yoki esgan shamoldanmi nizo chiqarib, bir-biri bilan ayovsiz jang qilishadi. Bunda na tirik jon qoladi, na ona tabiatdan asar. Daraxtlar yonib bitgan o‘tinga aylangan, soy o‘rnida qon, atrofni zulmat qoplagan. Tabiiy ofatlar oldida inson bir chumolidek ojiz bo‘lgani kabi, ba’zan, odamlarning urushi oqibatida tabiat ham nobudlikka mahkum bo‘lishi hech gapmas ekan. Bundan faqatgina afsona qahramonlari — bolalar singari yorug‘likka intilib, tiriklikka intilib xalos bo‘lish mumkin. Yovuzlik ortidan ezgulik kelishi yana bir bor o‘z isbotini topgan. Shu o‘rinda taniqli rus shoiri Sergey Yeseninning “Talpinma ko‘p, devona ko‘ngil” she’ri ham mangu tushunchalarni tarannum etganiga amin bo‘lamiz:

Biz barchamiz go‘dakmiz bir oz,
Goh ko‘zda yosh, goh labda kulgu.
Bo‘lmish ushbu dunyoda meros

Odamlarga shodlik va qayg‘u[9].

Yoki sevgi va sog‘inch kuychisi bo‘lgan shoira Zulfiyaning “O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush” she’rini bolalar boshiga kulfat soluvchi janglar hech qachon bo‘lmasligi uchun madhiya kabi kuylagimiz keladi:

Urush! Noming o‘chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko‘p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.
Ko‘krak suti va mehnat bilan
Biz jahonga berganmiz turmush,
Ona qalbi oyoqqa tursa,
O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush![10]

Mazkur she’r afsona fojiasini bildirgan — qarovsiz qolgan murg‘aklar chirqillashi boshqa zinhor bo‘lmasligiga imon-ishonch bildirib, baralla tilagan va kuylagan butun jahon onalarining madhiyasi bo‘lib qulog‘imizga jaranglaydi. Bu buyuk tilak va talab urush tufayli otasidan, akasidan, umryo‘ldoshidan bevaqt ajralgan mushfiq qiz, singil va ayolni bittada ONA degan nom bilan oyoqqa turg‘azadi. Tinchlikka intilish esa afsonaning badiiy xususiyatiga uzviy bog‘langan.

Xulosa. Afsona debochasida muallif tabiatni bolalikka qiyoslashi bejiz emas edi. Uning yakunida xarob bo‘lgan tabiatni qayta tiriltirgan bolalar taqdiriga iqror bo‘ldik. Ular birdam bo‘lib gullarni, soylarni, daraxtlarni, odamlarni — hayotni qaytarishdi. Ungacha qancha zahmat, uqubat chekishgani bizga qorong‘u. Faqatgina bugungi kunda ishonar-ishonilmas bir afsona kabi qulog‘imizga chalinadi. Bu o‘ta ko‘hna haqiqat ekanligidan dalolatdir. Fikrimiz dalili sifatida Mirzo Bedilga murojaat qilamiz:

Inson dafaridan varaq bu jahon,
Odam kabobining tutuni osmon.
Ikki jahon ungan urug‘ni bilsak,
Kishi xayolida yetishgan bir don[11].

Fikrimizning davomi kabi ushbu misralarga e’tibor bersak, shoir qachondir ikki jahon ungan urug‘ kun kelib bashariyat xayolida bir don bo‘lib ko‘rinishini, odam kabobining tutuni osmon bo‘lsada, bu ko‘hna jahon inson daftaridan bir varaq ekanligini yuksak iqtibos va badiiyat bilan ifodalagan. Bugungi zamonamizda jahonning ayrim hududlarida bolalar boshiga ofat yog‘dirib ro‘y berayotgan fojialar afsuski, haqiqat va shu haqiqat ham asrlar osha avlodlardan avlodlarga bir afsona kabi tilga olinsa ne ajab!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Omon Matchon. Haqush qichqirig‘i: (Qirq afsona).- T.:Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.-136 b. 5-bet
2. Umar Hayyom. “Ruboiylar”, T., G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. 300-bet
3. Yusuf Idris. “Qiz uzatish”, Misr hikoyalari. (To‘plam. Arabchadan A.Shomirzayev tarjimasi). T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. 22-bet
4. Ustozingdan ayrilma/Maxtumquli;tarj.,va so‘z boshi muallifi E.Ochilov.-T.: “O‘zbekiston”, 2012.-176 b. 30-bet
5. Abdulla Oripov. Yurtim shamoli. “Yosh gvardiya” nashriyoti. Toshkent — 1976. 36-bet
6. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. — T.:G‘.G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. -208 b. 122-bet.
7. Radiy Fish. Jaloliddin Rumiy: tarixiy-biografik roman. Jamol Kamol tarjimasi.- T.:Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. 69-bet
8. Xurshid Davron. Samarqand xayoli, — T. Kamalak, 1991. — 320 b. 199-bet
9. Sergey Yesenin. Zamin Darg‘asi. She’rlar va doston. E.Vohidov tarjimasi. T.,G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti 1971, 184 b. 99-bet.
10. O‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush. Zulfiya. — tafakkur.net. https://tafakkur.net
11. Mirzo Abdulqodir Bedil. Ruboiylar. Shoislom Shomuhamedov tarjimasi. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent — 1974. 105 b. 19-bet.

UDK 808.3

FRASEOLOGIZMLAR TARKIBIDA QO'SHMA SO'ZLAR DERIVATSIYASI VA STRUKTUR SEMANTIK KO'CHIMLAR

N. Amirqulova, katta o'qituvchi, Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qo'shma so'zlarning derivatsiyasi va uning tilshunoslikdagi o'rni tahlil qilinadi. Qo'shma so'zlar mustaqil so'zlarning birikishi natijasida hosil bo'lib, yangi lug'aviy birliklar sifatida til tizimini boyitadi.*

Kalit so'zlar: *qo'shma so'z, derivatsiya, tilshunoslik, sintaktik usul, morfologik usul, semantik usul, frazeologizmlar, metafora, leksik birlik, semantik o'zgarish, qo'shma so'z yasalishi*

Аннотация. *В данной статье анализируется образование сложных слов и их роль в языкознании. Сложные слова образуются в результате соединения самостоятельных слов и обогащают языковую систему новыми лексическими единицами.*

Ключевые слова: *сложное слово, деривация, лингвистика, синтаксический метод, морфологический метод, семантический метод, фразеологизмы, метафора, лексическая единица, семантическое изменение, сложное словообразование.*

Abstract. *This article analyzes the derivation of compound words and their role in linguistics. Compound words are formed as a result of the combination of independent words and enrich the language system as new lexical units.*

Key words: *compound word, derivation, linguistics, syntactic method, morphological method, semantic method, phraseologisms, metaphor, lexical unit, semantic change, compound word formation.*

Tilshunoslikda frazeologizmlar tarkibidagi qo'shma so'zlarning derivatsiyasi va ularning struktur-semantik ko'chimlari muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Frazeologizmlar har bir tilning o'ziga xosliklarini aks ettirib, milliy madaniyat va xalq tafakkurining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Ular tarkibida qo'shma so'zlarning ishlatilishi esa tilning rivojlanish jarayonida yuz beradigan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Frazeologizmlar ko'pincha tarkibida qo'shma so'zlarni o'z ichiga oladi. Qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq leksik birliklarning birikishi natijasida hosil bo'lib, ularning semantik tarkibi turli darajada tahlil qilinishi mumkin. Masalan, "ko'ksiga urmoq" yoki "boshi berk ko'cha" kabi frazeologik birikmalarda qo'shma so'zlar mavjud bo'lib, ularning ma'nosi tarkibiy qismlarining yig'indisidan farq qiladi.

Qo'shma so'zlarning derivatsiyasi, ya'ni ularning yasalishi, tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishi va semantik o'zgarishlarga uchrashi frazeologizmlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda ayrim so'zlar o'zining dastlabki lug'aviy ma'nosini yo'qotib, yangi ma'no kasb etishi yoki kengayishi mumkin. Shu boisdan, qo'shma so'zlar tarkibidagi semantik va grammatik o'zgarishlarni o'rganish frazeologiyaning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, frazeologizmlar tarkibida struktur-semantik ko'chimlarning o'rganilishi ularning qanday shakllanganini va ma'nolarining qanday o'zgarishini tushunishga imkon beradi. Struktur o'zgarishlar frazeologizmlarning sintaktik tuzilishi va komponentlari o'rtasidagi munosabatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etsa, semantik ko'chimlar esa ularning ma'noviy o'zgarishlarini yoritib beradi. Frazeologik birliklar tarkibida qo'shma so'zlarning hosil bo'lishi derivatsion jarayonlar quyidagi shakllarda amalga oshadi:

Affiksatsiya – frazeologizmlar tarkibidagi qo'shma so'zlarning ba'zilari affikslar yordamida o'zgarishi mumkin. Masalan, "yuz-ko'z" → "yuz-ko'zli" kabi shakllar.

Sintaktik integratsiya – qo'shma so'zlar frazeologik birliklarga moslashgan holda yangi semantik yuklama kasb etadi.

Semantik ko'chish – qo'shma so'zlar ko'pincha metaforik yoki metonimik ko'chishlarga uchraydi. Masalan, "qo'l ochmoq" (yordam so'rash ma'nosida) yoki "ko'zi ochiq" (zirak odam) kabi frazeologizmlar semantik o'zgarish natijasida o'z dastlabki ma'nosidan uzoqlashgan.

Qo‘shma so‘zlarning derivatsiyasi – bu ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning birikishi orqali yangi, yagona ma’noni ifodalovchi so‘z hosil qilish jarayonidir. Ushbu jarayon tilning boyishi va yangi tushunchalarni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Qo‘shma so‘zlar yasalishi uchun asos bo‘lgan so‘zlar o‘zlarining dastlabki ma’nolarini qisman yoki butunlay yo‘qotib, birgalikda tamoman yangi lug‘aviy ma’no hosil qiladi.

Sintaktik usul: Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning qo‘shilib, yangi ma’no hosil qilishi.

Morfologik usul: So‘z yasovchi qo‘shimchalar orqali yangi ma’noli so‘z yasalishi.

Semantik usul: So‘zlarning yangi kontekstda o‘z ma’nosini o‘zgartirishi.

Olovrang (olov + rang)

Ko‘kko‘z (ko‘k + ko‘z)

Qo‘shqo‘llab (qo‘sh + qo‘l + ab)

Frazeologizmlar tarkibida qo‘shma so‘zlar muhim o‘rin tutadi. Ular frazeologik birlik sifatida barqarorlashib, yangi ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, *Ko‘kko‘z bo‘lish* – haddan tashqari hayron qolish; *Yong‘in bo‘lish* – janjal chiqishi**;** *Oq yo‘l tilamoq* – omad tilash; Bu frazeologizmlar tarkibiy qismlari o‘zining dastlabki lug‘aviy ma’nosidan farqli qo‘llanilgan. Qo‘shma so‘zlar frazeologizmlar tarkibida obrazlilik va ifodalilikni oshirishga xizmat qiladi. Ular nutqda ekspressivlikni kuchaytirib, xalq ijodi va tildagi ma’nodosh ifodalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Qo‘shma so‘zlar frazeologizmlarning ajralmas qismi bo‘lib, ular doimiy tuzilish va ma’no o‘zgarishlariga uchraydi. Bu esa ularning doimiylik va milliy xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, frazeologizmlarda qo‘shma so‘zlarning roli juda katta bo‘lib, ular tilning boyligi va xalqning madaniy merosi sifatida ko‘rib chiqiladi. Frazeologizmlar tarkibida so‘zlarning grammatik shakllari va sintaktik tuzilishi o‘zgarishi mumkin. Bu jarayonda frazeologik birlikning o‘z holida qolishi; tarkibiy qismlarning joylashuvi o‘zgarishi; so‘zlarning qisqarishi yoki kengayishi kuzatiladi. Masalan:

Ko‘kko‘z bo‘lish → Ko‘kko‘z bo‘ldi (Fe’l shakli o‘zgarishi)

Oq yo‘l → Oq yo‘l tiladim (Gap tarkibiga moslashishi)

Qo‘shqo‘llab → Qo‘shqo‘llab olmoq (Fe’l bilan birikishi)

Semantik ko‘chimlar frazeologizmlarning tarkibidagi so‘zlarning ma’nosi o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi. Ko‘chishning asosiy turlari: metaforik ko‘chimda so‘zlarning ma’nosi o‘xshashlik asosida o‘zgaradi. Metonimik ko‘chimda so‘zlarning ma’nosi aloqa asosida o‘zgaradi. Sintagmatik ko‘chimda so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligi sababli yangi ma’no hosil bo‘ladi. Masalan: *Qo‘shqanot bo‘lish* (metaforik) – baxtli bo‘lish, ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lish; *ko‘kko‘z bo‘lish* (metonimik) – hayratdan ko‘zlarini katta ochish; *qora kunlar* (sintagmatik) – qiyin damlar.

Qo‘shma so‘zlarning derivatsiyasi tilshunoslikning muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, til boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayon orqali yangi so‘zlar hosil bo‘ladi, ular esa tilning rivojlanishi va zamonaviy ehtiyojlarga moslashishida muhim rol o‘ynaydi. Frazeologizmlar tarkibida qo‘shma so‘zlarning ma’no uzatishdagi roli muhim ahamiyatga ega. Qo‘shma so‘zlarning tarkibiy tuzilishi ularning frazeologik birliklardagi funksional yuklamasini belgilaydi. Jumladan, stabilizatsiya qo‘shma so‘zlar frazeologizmlar tarkibida mustahkam shaklda keladi. Semantik o‘zgarishlar qo‘shma so‘zlar frazeologik birliklar ichida yangi ma’no kasb etadi. Emotsional-ekspressiv funksiyalar ayrim qo‘shma so‘zlar frazeologizmlar tarkibida stilistik jihatdan boyitilgan bo‘ladi. Metaforik ma’no hosil qilishda qo‘shma so‘zlar ba'zan o‘zining dastlabki lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, yangi obrazli ma’no kasb etadi. Masalan, “to‘rt ko‘z bo‘lib kutmoq” ifodasi shunchaki e’tibor berish emas, balki sabrsizlik bilan kutish ma’nosini anglatadi. Frazeologik birlikning mazmunini kuchaytirish – ayrim qo‘shma so‘zlar frazeologik birliklarning semantik og‘irlik markazini tashkil etadi va uning asosiy ma’nosini belgilaydi. Masalan, “qattiq qo‘l” (qat’iyatli, talabchan odam) frazeologizmida “qattiq” sifati qo‘shma so‘z sifatida asosiy semantik yukni o‘zida jamlagan. Til uslubi va ekspressivligini oshirishda ba’zi qo‘shma so‘zlar frazeologik birlik tarkibida badiiy ifodalilik va ekspressivlikni kuchaytiradi. Masalan, “boshi berk ko‘cha” iborasi insonning qiyin vaziyatda qolganligini ta’sirli shaklda ifodalaydi. Nutqning ixchamligi va samaradorligini ta’minlashda qo‘shma so‘zlar ba’zan murakkab tushunchalarni qisqa, lo‘nda ifodalash imkonini beradi, shu bilan birga frazeologik birlikning ma’no doirasini kengaytiradi.

Qo‘shma so‘zlarning shakllanishi turli xil usullar bilan amalga oshadi. Sintaktik usulda mustaqil so‘zlarning qo‘shilishi natijasida yangi birliklar yuzaga keladi (*tog‘yo‘li, suvosti*). Morfologik usulda esa qo‘shimchalar yordamida yangi qo‘shma so‘zlar hosil bo‘ladi (*o‘zbeklik, shaharsozlik*). Semantik usulda esa ikki so‘z o‘zining lug‘aviy ma’nosidan chetlanib, butunlay yangi tushuncha hosil qiladi (*qizil gul – chiroyli, yoqimli insonni anglatuvchi obrazli ibora*). Qo‘shma so‘zlar frazeologizmlar tarkibida ham muhim rol o‘ynaydi. Ular ko‘pincha metaforik ma’no kasb etib, tildagi obrazlilik va ifodalilikni oshiradi. Masalan, *ko‘kko‘z bo‘lish* iborasi oddiygina ko‘z rangi haqidagi ma’lumot emas, balki ajablanish yoki hayratlanishni ifodalaydi. Bunday holatlar tilning semantik jihatdan rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Shunday qilib, qo‘shma so‘zlarning derivatsiyasi til tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u leksik-semantik jihatdan boyitish, yangi tushunchalar yaratish va nutqning aniq hamda ifodali bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon tilshunoslik tadqiqotlarida ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi va o‘zgarishlari kelajakdagi ilmiy izlanishlar uchun muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova, M. (2016). *Frazeologik birliklarning o‘ziga xosligi.* Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Jumaniyazova, N. (2018). *O‘zbek tilidagi frazeologizmlar va ularning semantik ko‘chimlari.* Samarkand: SamDU nashriyoti.
3. Isroilov, B. (2020). *Til va madaniyat: Frazeologik birliklar.* Tashkent: Nafis nashr.
4. Mustafayeva, A. (2017). *Qo‘shma so‘zlar va ularning frazeologizmlar tarkibidagi o‘rni.* Bukhara: Buxoro Davlat Universiteti.
5. Sodikova, Z. (2019). *Frazeologizm va uning struktura-semantik ko‘chimlari.* Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
6. Rasulova, D. (2021). *O‘zbek tilida frazeologik birliklarning derivatsiyasi.* Tashkent: Fan va texnologiyalar.
7. Gafurov, S. (2022). *Tilshunoslik asoslari.* Tashkent: Ilmiy-nashriyot.
8. Bakhtiyorova, G. (2023). *Frazeologizmlar va ularning funktsional xususiyatlari.* Tashkent: Sharq nashriyoti.

UO'K 808.5

NOMINATIV BIRLIKLARNING GENDER TAMOYILLARI XUSUSIDA
(Fransuz va o‘zbek tillari misolida)

I.O. Anarboyeva, dots, (PhD), Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fransuz va o‘zbek tillarida gender tamoyillarining qanday namoyon bo‘lishi va ularning lingvistik va madaniy asoslari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: gender, nominativ birliklar, grammatik kategoriya, semantik daraja,….*

Аннотация. *В данной статье анализируется проявление принципов пола во французском и узбекском языках и их лингвокультурные основы.*

Ключевые слова*: род, номинативные единицы, грамматическая категория, семантический уровень,...*

Abstract. *This article analyzes the manifestation of the principles of gender in the French and Uzbek languages and their linguocultural foundations.*

Key words*: gender, nominative units, grammatical category, semantic level,...*

Kirish. Chet tillarini o‘rganish inson hayotida katta ahamiyatga ega. Yangi til o‘rganish orqali inson nafaqat yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi, balki yangi madaniyat bilan tanishadi, turli xalqlar vakillari bilan muloqot qiladi va dunyoqarashini kengaytiradi. Masalan, fransuz tilini o‘rganish jarayonida o‘quvchi fransuz madaniyati, adabiyoti va ijtimoiy hayoti bilan tanishadi. "Bonjour" (Salom) so‘zining o‘zi fransuzlarning odob-axloq qoidalariga asoslangan holda muloqotga kirishish odatlarini aks ettiradi. O‘zbek tilida esa "Assalomu alaykum" salomlashuvi odatda hurmat va ehtirom bilan bog‘liq. Bu holatlar turli tillarda muloqot madaniyatidagi farqlarni ko‘rsatadi [8.65].

Til o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, unga ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Insonning lingvistik qobiliyatlari, psixologik tayyorgarligi va motivatsiyasi bunda asosiy rol o‘ynaydi. Tilshunoslikda gender tamoyillari o‘ziga xos qiziqarli xususiyatlarga ega. Masalan, fransuz tilidagi urg‘u tizimi o‘zbek tilidan farq qiladi. Fransuzcha "école" (maktab) so‘zidagi urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushadi,

o‘zbek tilida esa urg‘u odatda oxirgi bo‘g‘inga tushadi, masalan, "kitob". Bu kabi fonetik tafovutlar o‘rganish jarayonida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin [6.27].

Ma’lumki, fransuz va o‘zbek tillarida nominativ birliklarning gender tamoyillari bo‘yicha turli olimlarning ilmiy fikrlariga ko‘ra, har ikkala tilda genderning ifodalanishi va uning til tizimidagi o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilida genderning ifodalanishi ko‘p asrlik madaniy va ijtimoiy jarayonlarning mahsuli sifatida qaraladi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa o‘zbek ayollari orasida ommalashgan turk seriallari, xorijga chiqish imkoniyatlarining kengayishi va xorijiy tillarni o‘rganish bu jarayonga muhim ta’sir ko‘rsatmoqda.

Masalan, kiyinish uslubini olaylik. Ilgari O‘zbekistonda hijob o‘ragan ayollar jinsi yoki shim kiyishmasdi; ularning kiyimlari keng va albatta uzun bo‘lishi kerak edi. Agar kimdir boshida ro‘mol bo‘lgan holda jinsi kiygan turk modalarini tasvirlab berganida, bu tushunmovchilik yoki hayrat uyg‘otardi. Ammo oradan 20 yil o‘tgach, bu uslub o‘zimizning kundalik hayotimizga ham singib ketdi. Bu esa madaniyatlararo kommunikatsiyaning naqadar kuchli ta’sirga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Gender xususiyatlarini nafaqat an’anaviy oilalar bilan solishtirish orqali, balki xalqaro nikohlarda ham kuzatish mumkin. Agar turmush o‘rtog‘ining biri chet ellik bo‘lsa yoki o‘zbek bo‘lishiga qaramay boshqa millat vakili bo‘lsa, bu holat o‘zaro kommunikatsiyaga yangi madaniy xususiyatlarni olib kiradi. Tajribaga ko‘ra, bunday oilalardagi er-xotin vaqt o‘tishi bilan bir-birining tiliga, muloqot uslubiga va madaniyatiga moslashib boradi. Hatto turmush o‘rtoqlar bir millat vakili bo‘lsa ham, agar ulardan biri rus tilida so‘zlashuvchi oilada ulg‘aygan bo‘lsa, bu omil nikohdagi o‘zaro munosabatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [4.20].

Shu nuqtai nazardan, til inson xarakterini bevosita shakllantiradi, deyish mumkin. Bugungi kunda o‘zbek ayollari turmush o‘rtoqlarini endi “xo‘jayin” sifatida emas, balki teng huquqli hamkor sifatida ko‘rmoqda. Bu o‘zgarish lingvistik jihatdan ham aks etmoqda: avvallari patriarxal qadriyatlarga xos bo‘lgan “xo‘jayin” atamasi o‘rniga ayollar tobora ko‘proq “erim” so‘zini ishlatmoqda, ya’ni narsalarni o‘z nomi bilan atashmoqda [3.59].

Lingvistikada “gender” tushunchasi tilga ijtimoiy va madaniy ta’sirni aniqlash hamda androtcentrizmni – ya’ni, tilning erkaklar nuqtayi nazariga ustuvorlik berishini tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Bu assimetriya tilning turli jins vakillarini qanday aks ettirishidagi tengsizlikni ifodalaydi va turli davrlarda feministlar tomonidan tanqid qilingan. Ular til erkaklar dunyoqarashini qanday aks ettirib, ayollar nigohini e’tiborsiz qoldirishini o‘rganishgan. Hozirgi tadqiqotlar gender assimetriyasini jamiyat shakllanishida muhim omil sifatida ko‘rib chiqadigan tarmoqlararo yondashuvga asoslanadi [4.15].

Tadqiqotchilar o‘zbek tilidagi gender ifodalari, ularning shakllanishi va o‘zgarishini tarixiy, lingvistik hamda ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qiladilar. Xususan, tilning jinsiy belgilar orqali insonlarni tasniflash va bu tasnifning madaniy qadriyatlar bilan aloqadorligi muhokama qilinadi. Shuningdek, genderning ifodalanishida mavjud bo‘lgan til birliklari, ularning leksik-semantik xususiyatlari, morfologik shakllanishi va pragmatik ahamiyati batafsil o‘rganiladi.

Frazeologik birliklar orqali genderning ifodalanishi ham muhim tadqiqot mavzularidan biridir. Masalan, nemis va o‘zbek tillarida ayol va erkak so‘zlari qatnashgan frazeologizmlarning struktur va semantik tahlili orqali olimlar bu birliklarning gender bilan bog‘liq xususiyatlarini o‘rganadilar.

Bu kabi tadqiqotlar frazeologizmlarning tarkibiy tuzilishi va ma'no jihatidan o‘ziga xosliklarini aniqlashga yordam beradi [4.22].

Shuningdek, turli tizimli tillarda assotsiativ birliklarning gender xususiyatlari ham qiyosiy tahlil qilinadi. Bu tadqiqotlar lingvistik tizimlarning gender bilan bog‘liq ma'lumotlarni qanday kodlashi va ifodalashini o‘rganadi, turli tillarda mavjud bo‘lgan nuanslar va o‘zgarishlarni yoritadi.

Umuman olganda, fransuz va o‘zbek tillarida nominativ birliklarning gender tamoyillari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar til va madaniyatning o‘zaro aloqasini, shuningdek, til birliklarining gender bilan bog‘liq xususiyatlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Globalizatsiya jarayoni bilan bir qatorda, O‘zbekistonga sayohatchilar, tadbirkorlar va xorijlik mehmonlar oqimi ko‘paymoqda. Bu esa xorijiy tillarni o‘rganish zaruratini kuchaytiradi. Masalan, Fransiyadan O‘zbekistonga kelgan sayohatchilar bilan muloqot qilish uchun fransuz tilini bilish

muhim. "Où est la gare?" (Vokzal qayerda?) kabi oddiy jumlalarni tushunish va javob bera olish muloqot jarayonini osonlashtiradi. Shuningdek, o‘zbek tilidagi "Mehmon keldi" kabi iboralarning fransuzcha ekvivalentini topish ("Un invité est arrivé") so‘z tartibidagi farqlarni tushunishga yordam beradi [1.16].

Til o‘rganish jarayonida rod bilan bog‘liq tafovutlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ayollar ko‘pincha tillarni tezroq o‘zlashtiradi va talaffuzni yaxshiroq egallaydi, chunki ular muloqotga ko‘proq moyil bo‘ladi. Erkaklar esa ko‘proq grammatika va tuzilishga e’tibor beradi. Masalan, fransuz tilida rod bilan bog‘liq ravishlar yaqqol namoyon bo‘ladi:

- "ami" – do‘st (masculine, erkak)
- "amie" – do‘st (feminine, ayol)

O‘zbek tilida esa bunday rod bilan bog‘liq shakllanish mavjud emas, lekin shaxsga murojaat qilish uslubi rodga ko‘ra o‘zgarishi mumkin: "aka" (masculine,erkak uchun) va "opa" (feminine ayol uchun).

Xorijiy tillarni o‘rganish inson uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Biroq bu jarayonda fonetik, grammatik va madaniy tafovutlarni hisobga olish muhim. Gender lingvistikasining o‘rni esa til o‘rganishdagi psixologik va lingvistik jarayonlarni tushunishga yordam beradi. Fransuz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni tahlil qilish esa til o‘rganish jarayonini yengillashtiradi.

XXI asr tilshunosligida gender masalalari keng o‘rganilmoqda. Tilning rod bilan bog‘liq jihatlari, ayniqsa, nominativ birliklarning gender tamoyillari lingvistik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Fransuz va o‘zbek tillari bu borada sezilarli farqlarga ega. Fransuz tilida gender grammatik kategoriya sifatida mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida u asosan semantik jihatdan namoyon bo‘ladi. Shu bois ushbu maqolada fransuz va o‘zbek tillarida nominativ birliklarning gender tamoyillari qiyosiy tahlil qilishga harakat qilamiz.

Tahlil va natijalar: Maqolaning maqsadi – fransuz va o‘zbek tillarida gender tamoyillarining qanday namoyon bo‘lishini, ularning lingvistik va madaniy asoslarini tahlil qilishdan iborat.

1. Nominativ birlik va gender tushunchasi

Nominativ birlik – bu til tizimidagi predmet yoki shaxsni nomlovchi birlik, ya’ni ot. Gender esa tilshunoslikda rodga oid farqlarni ifodalovchi tamoyillarning majmui sifatida tushuniladi.

Fransuz tilida barcha otlar grammatik rodga ega bo‘lib, ular masculin (erkak jins) va feminin (ayol jins) toifalariga bo‘linadi:

- Le professeur (o‘qituvchi – erkak) / La professeure (o‘qituvchi – ayol)
- Un ami (do‘st – erkak) / Une amie (do‘st – ayol)

O‘zbek tilida esa grammatik gender mavjud emas, lekin semantik jihatdan rod farqlari saqlanib qolgan:

- O‘qituvchi (erkak yoki ayol bo‘lishi mumkin)
- Dugona (faqat ayol kishiga nisbatan ishlatiladi)
- Do‘st (erkak yoki ayol bo‘lishi mumkin)

Bu esa o‘zbek tilini gender nuqtayi nazaridan neytral tilga aylantiradi.

2. Fransuz tilida nominativ birliklarning gender tamoyillari. Fransuz tilida otlarning rodini aniqlashning asosiy yo‘llari quyidagilardir:

1. Leksik jihatdan farqlanish

Ba’zi so‘zlar rodga qarab butunlay o‘zgaradi:

- Homme (erkak) / Femme (ayol)
- Garçon (o‘g‘il bola) / Fille (qiz bola)

2. Qo‘shimcha orqali ajratish

- Acteur (aktyor – erkak) → Actrice (aktyor – ayol)
- Chanteur (qo‘shiqchi – erkak) → Chanteuse (qo‘shiqchi – ayol)

3. Rod farqiga ega bo‘lmagan so‘zlar.

Ayrim kasb nomlari avval faqat masculin shaklda qo‘llanilgan:

- Médecin (shifokor)
- Ingénieur (muhandis)

Ammo zamonaviy fransuz tilida féminisation du langage jarayoni tufayli bu kasb nomlariga feminin shakllar ham kiritilmoqda:

- Une médecin (ayol shifokor)
- Une ingénieure (ayol muhandis)

3. O‘zbek tilida nominativ birliklarning gender tamoyillari. O‘zbek tilida grammatik gender mavjud bo‘lmasa-da, ayrim nominativ birliklar rod farqini ifodalaydi:

1. Rodda farq leksik birliklarda namoyon bo‘ladi
   - Ona – ota
   - Qiz – o‘g‘il
   - Ayol – erkak
2. Rodni bildiruvchi affikslar mavjud emas.

O‘zbek tilida, fransuz tilidan farqli o‘laroq, so‘z oxiriga -cha, -ka, -esse kabi ayollik bildiruvchi qo‘shimchalar qo‘shilmaydi. Masalan:

- O‘qituvchi (erkak yoki ayol)
- Shifokor (erkak yoki ayol)

3. Kasb nomlari neytral qo‘llanadi

O‘zbek tilida kasb nomlari gender jihatidan neytral bo‘lib, kontekst asosida aniqlanadi:

- Muhandis (erkak yoki ayol)
- Professor (erkak yoki ayol)

Ba’zan, nutq davomida rod aniq bo‘lishi uchun «ayol» yoki «erkak» so‘zlari qo‘shib aytiladi:

- Ayol o‘qituvchi
- Erkak shifokor

4. Fransuz va o‘zbek tillarida gender tamoyillarining qiyosiy tahlili

Jihatlar	Fransuz tili	O‘zbek tili
Grammatik rod	Ha (masculin va feminin)	Yo‘q
Roddagi farq leksik jihatdan	Bor	Bor
Qo‘shimcha orqali farqlash	Bor (**acteur/actrice**)	Yo‘q
Kasb nomlarining feminizatsiyasi	Yangi tendensiya (**ingénieur → ingénieure**)	Yo‘q

Fransuz tilida gender grammatik kategoriya bo‘lsa, o‘zbek tilida u semantik darajada aks etadi. Bu esa o‘zbek tilini gender neytral tilga aylantiradi.

Xulosa. Fransuz va o‘zbek tillari nominativ birliklarning gender tamoyillari jihatidan sezilarli farqlarga ega. Fransuz tilida gender grammatik kategoriya bo‘lib, til tizimiga chuqur singgan. O‘zbek tilida esa rodda farqlar asosan semantik darajada namoyon bo‘ladi. Zamonaviy fransuz tilida feminizatsiya jarayoni rivojlanayotgan bo‘lsa, o‘zbek tilida bu jarayon kuzatilmaydi. Ushbu manbalar lingvistika va tarjima sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tillarida nominativ birliklarning gender tamoyillari lingvistik kategoriyalar qatorida muhim o‘rinni egallaydi. Fransuz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tipologik farqlar ushbu tamoyillarning o‘ziga xos namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Fransuz tili grammatik gender tizimiga ega bo‘lib, unda barcha otlar ma’lum bir jins (masculin yoki féminin) bilan bog‘lanadi va bu tizim morfologik hamda sintaktik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tilida esa nominativ birliklar tabiiy jinsga asoslanadi va grammatik gender tushunchasi mavjud emas.

Fransuz tilida gender tamoyillari so‘z yasalishi, kelishik tizimi, sifatlarning kelishuvi hamda olmoshlar orqali o‘z ifodasini topadi. Masalan, un ami – une amie, heureux – heureuse kabi shakllar genderga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. O‘zbek tilida esa roddagi farqlanish ko‘proq leksik darajada kuzatiladi: aka – opa, o‘g‘il – qiz, shifokor – hamshira kabi birliklar tabiiy jinsni aks ettiradi, biroq grammatik jihatdan o‘zgarish kuzatilmaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, fransuz tilida gender tamoyillari morfologik va sintaktik jihatdan qat’iy bo‘lsa, o‘zbek tilida bu tamoyillar asosan leksik-semantik yo‘sinda aks etadi. Bu esa tarjima jarayonida ham muhim o‘rin tutib, ikki til o‘rtasida gender tamoyillarining ifodalanishida muayyan strategiyalarni qo‘llashni talab qiladi. Jumladan, fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada

genderni aniq ifodalovchi birliklar neytral shakllar bilan berilishi mumkin, yoki aksincha, o‘zbek tilidan fransuz tiliga o‘girishda jinsiy tafovutni grammatik vositalar bilan ifodalashga to‘g‘ri keladi.

Nominativ birliklarning gender tamoyillari har bir tilning lingvistik tizimi va madaniyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tarjima, tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida alohida e’tibor talab qiladi. Fransuz va o‘zbek tillari misolida olib borilgan tahlil gender tamoyillarining tipologik jihatdan qanday farqlanishini ochib beradi va bu farqlar tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Grevisse, M. (2016). Le bon usage. Paris: De Boeck.
2. Corbett, G. (1991). Gender. Cambridge University Press.
3. Смирнова, Л. Г. (2012). «Ветреная кокетка» и «прожженный делец». Гендерная специфика. Русская речь, (2), 59-67.
4. Махамедова Маликахон. Гендерные особенности межкультурной коммуникации в гражданском обществе Том 2 № 1 (2025): Лингвоспектр: Февраль
5. Tursunov, I. A. (2010). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Xudoyberganova, D. (2021). Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi. Toshkent: Fan va Texnologiya.
7. Trudgill, P. (2000). Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. London: Penguin.
8. Oripovna, A. I. (2024). The process of metaphorization in different systemic languages. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(09), 39-40.
9. Анарбоева,И.О.(2025). Гендерные принципы номинативных единиц (на примере французского и узбекского языков). *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(2), 136-139.
10. Anarboyeva I.O. La typologie compare. Andijon-2024. 104-b.

UO‘K 81.25

TARJIMASHUNOSLIKDA EKVIVALENTSIZ LEKSIKA BORASIDAGI NAZARIY QARASHLAR

U.A.Arifova, tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola tarjimashunoslikda duch kelinadigan ekvivalentsiz leksika va ularning turlari haqida rus va Yevropa olimlarining nazariy qarashlarini ko‘rib chiqadi. Solishtirma tilshunoslik bilan bog‘liq ekvivalentsizlik leksika muammosiga yechim beriladi, bir qator materiallarda uchraydigan noto‘g‘ri tushunchalar ko‘rsatiladi. Olimlarning ekvivalentsiz leksika va ularning turlari haqidagi nazariy qarashlar o‘rganiladi va ular o‘rtasidagi tafovutlar aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *ekvivalentsiz leksika, realiya, neologizmlar, lakunalar, tasodifiy ekvivalentsiz so‘zlar va tarkibiy ekzotizmlar, Transliteratsiya, kalkalash.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются виды безэквивалентной лексики, встречающиеся в переводоведении, а также теоретические взгляды российских и европейских учёных на эту тему. Освещается проблема безэквивалентной лексики в сравнительном языкознании и предлагаются пути ее решения. Анализируется ряд материалов, содержащих такие лексические единицы, и рассматриваются их теоретические аспекты. Также изучаются теоретические взгляды ученых на виды безэквивалентной лексики и выявляются различия между ними.*

Ключевые слова: *безэквивалентная лексика, реалии, неологизмы, лакуны, случайно безэквивалентные слова, структурные экзотизмы, транслитерация, калькирование.*

Abstract. *This article examines the types of non-equivalent vocabulary encountered in translation studies, as well as the theoretical perspectives of Russian and European scholars on this topic. The issue of non-equivalent vocabulary in comparative linguistics is highlighted, and solutions are proposed. A number of materials containing such lexical units are analyzed, and their theoretical aspects are explored. Theoretical views of scholars on the types of non-equivalent vocabulary are studied, and the differences between them are identifield.*

Keywords: *non-equivalent vocabulary, realia, neologisms, lacunas, accidental non-equivalent words, structural exoticisms, transliteration, calquing.*

Kirish. Bugungi kunda turli xalqlarning o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy hamkorligi rivojlanib, taraqqiy etib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Tarjima qilish

uchun esa turli chet tillarini bilish boshqa xalqlar bilan o‘zaro aloqalarga yo‘l ochadi, ularning tarixi, madaniyati, urf odatlari, dini, milliy o‘ziga xosliklarini o‘rganishga imkon yaratadi.

Tarjima ikki til va madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot qilish, milliy dunyoda tarqalish va madaniyatlararo kommunikatsiyani rag‘batlantirish uchun muhim omildir. Tarjimaning asosiy maqsadi – asl til matnidagi ma’lumotni tarjima qilinadigan tilga to‘g‘ri yetkazishdan iborat. Biroq, madaniy va lingvistik farqlar tufayli hech bir tarjima matni asl matnga to‘liq ekvivalent bo‘la olmaydi. Shu sababli, tarjima ekvivalentligiga erishishga to‘sqinlik qiluvchi joylarni aniqlash va ularning muqobil yechimlarini ishlab chiqish zarur. Ekvivalentsizlik, avvalo tarjima tilida ekvivalenti bo‘lmagan leksika (so‘zlar) sohasida namoyon bo‘ladi. Ekvivalentsiz leksika odatda o‘zida madaniyatga xos tarkibiy qismini saqlaydi, shu sababli u nafaqat tarjima nazariyasi, balki leksikografiya, lingvistik tadqiqotlar, qiyosiy tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiqotchilar e’tiboriga loyiqdir.

Ushbu mavzuni ko‘rib chiqishda biz mashhur olimlar L.K.Latyushev, L.S. Barxudarov, E.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov, V.N.Komissarov, S.Vlaxov, S.Florin, A.O.Ivanov, Sh.Usmanova, E.Ochilov va boshqalarning ilmiy izlanishlariga tayandik. A.O.Ivanov tarjimada ekvivalentsiz leksika haqida shunday ta’rif beradi: Ekvivalentsiz leksika – bu bir tilda mavjud bo‘lgan, lekin boshqa tilda to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalenti (o‘xshash ma’nodosh so‘zi) bo‘lmagan so‘zlar va iboralardir. Bunday so‘zlar madaniy, tarixiy, milliy yoki ijtimoiyi sabablarga ko‘ra har bir tilda o‘zgacha shaklda namoyon bo‘ladi.

A.O.Ivanov ekvivalentsiz leksikani uch guruhga bo‘lgan:

— Realiyalar – muayyan xalqning madaniyati, tarixi, an’analari bilan bog‘liq so‘zlar hisoblanadi;

— Neologizmlar – yangi paydo bo‘lgan tarjima qilinayotgan tilda hali mukammal ekvivalenti yo‘q so‘zlar hisoblanadi. Masalan: bloger, podcast, striming kabilar;

— Idiomalar va frazeologik birliklar – ayrim tillarda mavjud bo‘lib, boshqa tillarda to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmaydigan iboralar hisoblanadi.

A.O.Ivanov ekvivalent tushunchasi ostida tarjima jarayonida “funksional moslik”ni tushunadi. Bunda tarjima qilingan tilning ma’lum bir darajadagi ifodalari (so‘zlar yoki iboralar) kontekstga mos keluvchi va asl til birliklarining asosiy semantik tarkibiy qismlarini yetkazib berishi lozim [1, 187]. Balgariyalik tilshunos S.Vlaxovning fikricha, “ekvivalent” ikki til birliklari o‘rtasidagi to‘liq moslikni anglatadi. U semantik, konnotativ va fonetik jihatdan bir biriga mos tushuvchi birlik sifatida qaraladi [2, 47]. Ekvivalentsizlik tushunchasi birinchi marta yevropalik olimlar tomonidan kiritilgan. 1791-yilda ingliz olimi A. Taytler “Tarjima tamoyillari haqida esse” nomli risolasini chop etgan bo‘lib, unda u tarjima tamoyillari haqida fikr yuritgan [3, 3]. L.S.Barxudarov ekvivalentsiz leksikaga kiruvchi so‘zlarni uch guruhga ajratadi [4, 93 – 95].

1. Shaxs ismlari, geografik nomlar va tashkilot nomlari, ya’ni muassasalar, tashkilotlar, gazetalar, kemalar va hokazo nomlar. Bu so‘zlarning boshqa tillarda doimiy ekvivalentlari yo‘q;

2. Realiyalar – bu boshqa til egalari uchun amaliy tajribada mavjud bo‘lmagan narsalar, tushunchalar va holatni ifodalovchi so‘zlar. Barxudarov ushbu guruhga moddiy va ma’naviy madaniyatga oid so‘zlarni kiritadi. Masalan, milliy taomlar va ichimliklar, xalq kiyimlari turlari, milliy cholg‘u asboblari, unvon va lavozimlar, uy – ro‘zg‘or buyumlari va boshqalar kiradi;

3. Tasodifiy leksik bo‘shliqlar (lakunalar) bu bir tilning lug‘at tarkibidagi boshqa tildagi lug‘at tarkibida ekvivalenti yo‘q bo‘lgan so‘zlar yoki barqaror iboralarni tushunadi;

V.N.Komissarov tarjima jarayonida ekvivalentligi yo‘q leksikani aniqlash oson bo‘lgan holatlarni qisqacha bayon qilgan: “Neologizmlar orasida, maxsus tushunchalar va milliy haqiqatlarni ifodalovchi so‘zlar orasida, shuningdek, kam ma’lum bo‘lgan ismlar va nomlar orasida, ular uchun ba’zan mos ekvivalent yaratish talab qilinadi. Bunga misol sifatida ingliz tilidagi baby-sitter backlog va boshqalar keltiriladi” [5, 148]. Rus olimi L.K.Latishev tarjima tilida mos keluvchi leksik birlik (yuqorida bayon etilgan birliklardan biri) bo‘lmagan so‘zlar va barqaror iboralarni ekvivalentsiz leksika deya ta’rif beradi [6, 166]. Tarjima tilida leksik ekvivalentning yo‘qligi, ushbu leksik birliklarning ma’nosini umuman tarjima qilib bo‘lmaydi degani emas. Odatda bunday birliklarni tarjima qilish uchun turli usullar qo‘llaniladi.

L.K.Latishev fikriga ko‘ra, ekvivalenti yo‘q leksika tarkibiga realiya so‘zlar, vaqtinchalik ekvivalenti yo‘q atamalar, tasodifiy ekvivalentsiz so‘zlar va struktural ekzotizmlar kiradi [6, 178]. Tasodifiy ekvivalentsiz so‘zlar va struktural ekzotizmlarning paydo bo‘lish sabablari shundaki, ular ifodalovchi predmet va hodisalar tarjima tilining so‘zlashuvchilari amaliy tajribasida mavjud bo‘lsa ham, ular uchun nomi yo‘q.

Struktural ekzotizmlarning tasodifiy ekvivalentsiz so‘zlardan farqi shundaki, ularning tarjima qilinishi tushuntirishga muhtoj bo‘ladi. Tarjima qiluvchi tillarda asl til vositalariga o‘xshash vositalar mavjud emas, bu esa eslatilgan predmet va hodisalar uchun yetarlicha ixcham atama yaratishga imkon bermaydi. Bundan tashqari, asl tilning ba’zi leksik birliklari tarjima tilida mavjud bo‘lmagan so‘z yasash tizimiga ega bo‘lgani sababli, asl va tarjima tillarini solishtirganda, bu birliklar tashqi kuzatuvchiga juda noodatiy, hatto ekzotik bo‘lib tuyilishi mumkin. Shu sababli bunday leksik birliklar struktural ekzotizmlar deb ataladi.

So‘z realiyalar va vaqtinchalik ekvivalenti yo‘q terminlarning ekvivalentsizligi sababli, tarjima tilida ushbu so‘zlar ifodalovchi predmetlar yoki hodisalarning yo‘qligi yoki mavjud bo‘lsa ham, tarjima tilining so‘zlashuvchilari amaliy tajribasida ularning yetarlicha aks etmaganligi bilan izohlanadi. Masalan, rus tilidagi “липа” (lipa) so‘zi haqiqiy hujjatni anglatishi mumkin, ammo ingliz tilida bu transliteratsiya aslida, chet tilidan so‘z olishga o‘xshaydi. Bu usul faqat ekvivalenti butunlay mavjud bo‘lmagan hollarda o‘rinlidir. Transliteratsiyaning asosiy afzalligi bu ishonchligi, ya’ni asl so‘zning grafik yoki fonetik qobig‘ini to‘g‘ridan to‘g‘ri yetkazib berishdir [6, 166-167].

Kalkalash usulining mohiyati shundaki, ekvivalentsiz leksik birlikning tarkibiy qismlari (ekvivalentga ega bo‘lmagan barqaror so‘z birikmasining leksemalari) tarjima tilidagi so‘zma-so‘z muqobillar bilan almashtiriladi. Xuddi transliteratsiya kabi kalkalash ham yuqori darajadagi mexaniklik bilan tavsiflanadi. Realiyalar bu leksik birliklarning ekvivalentiga ega bo‘lmagani sababi tarjima qilinadigan til vakillarining amaliy tajribasida bunday predmet yoki hodisalarning mavjud emasligidir. Ya’ni boshqa tilda ular bilan bog‘liq tushuncha ham, umumqabul qilingan so‘z ham yo‘q [7, 177]. L.S.Barxudarov va L.K.Latishevadan farqli o‘laroq, leksik birliklarning ekvivalentligi va ekvivalentsizligini ma’no mosligi yoki tafovuti sifatida ko‘rib chiqadi. Boshqacha aytganda, muallif asl tarjima tillaridagi taqqoslanayotgan leksik birliklarning ekvivalentsizligini ularning ma’nolaridagi tafovut bilan bog‘laydi [8, 40 – 85].

Shunday qilib, A.O.Ivanov ekvivalentsiz leksikani ikki katta guruhga ajratadi:

1. Referentsial-ekvivalentsiz leksika, bularga terminlar, individual (muallifga xos) neologizmlar, semantik lakunalar, keng ma’noli so‘zlar va boshqalar;

2. Pragmatik-ekvivalentsiz leksika, bu esa umumiy qabul qilingan normadan chetga chiqishlar, qisqartmalar (abbreviaturalar), subyektiv baho bildiruvchi suffiksli so‘zlar, undov so‘zlar, tovushga taqlid qiluvchi so‘zlar, assotsiativ lakunalarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa. Ekvivalentsiz leksika tarjimada mutlaq hodisa emas, balki nisbiy xususiyatga ega bo‘lgan hodisadir. Ekvivalentsiz leksika – bu tarjima orqali ma’no chiqarib bo‘lmaydigan so‘zlardir. Ular boshqa tillarda semantik muqobilga ega emas; Ular mazmunini hech qanday chet tilidagi leksik tushunchalar bilan taqqoslab bo‘lmaydigan so‘zlardir. Ekvivalentsizlik sabablari xalq hayotida biror mavzu, hodisaning yo‘qligi, tarjima tilida mos tushunchaning yo‘qligi, shuningdek, leksik va semantik xususiyatlarning farqlanishidir. Ekvivalentsiz leksikani yetkazishda olimlarning turli usullaridan foydalanganliklari yuqorida keltirib o‘tildi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklarni bilish va ularni yengib o‘tishni o‘rganish muhim sabablaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Иванов А.О. Безэквивалентная лексика. – СПбГУ, 2006.

2. Влахов С.,Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 2009.

3. 刘云虹。论文学翻译批评的多元功能。– 中国:翻译 2002.

4. Бархударов Л.С. Язык и перевод вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975.

5. Комиссаров В.Н. Теория перевода. – М.: Высшая школа, 1990.

6. Латышев Л.К. Технология перевода. – М.: Академия, 2005.

7. Бархударов Л.С. Язык и перевод вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975.

8. Федеров А. Основы общей теории перевода. – М . , 1966.

UDC 81'42(075.8)

LINGUISTIC MARKERS OF SPEECH MANIPULATION IN FORENSIC ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

B.Sh.Ashurov, independent researcher, Uzbek State University of World Languages, Tashkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining sud-lingvistik tahlilida nutq manipulyatsiyasining til belgilari o'rganiladi. Unda keng tarqalgan manipulyativ usullar, leksik va sintaktik xususiyatlar hamda ularning huquqiy va ommaviy axborot vositalaridagi ta'siri tadqiq etiladi. Tadqiqot sud lingvistikasining ekspert baholash jarayonida manipulyativ til ishlatilishini aniqlashdagi ahamiyatini yoritib beradi.*

Kalit so'zlar: *sud lingvistikasi, nutq manipulyatsiyasi, lingvistik belgilar, ingliz tili, o'zbek tili, ekspert tahlili.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается языковые признаки речевой манипуляции в судебно-лингвистическом анализе английского и узбекского языков. В ней исследуются распространенные манипулятивные методы, лексические и синтаксические особенности, а также их влияние на правовую сферу и средства массовой информации. Исследование раскрывает важность судебной лингвистики в выявлении использования манипулятивного языка в процессе экспертной оценки.*

Ключевые слова: *судебная лингвистика, речевая манипуляция, лингвистические признаки, английский язык, узбекский язык, экспертный анализ.*

Abstract. *This article explores linguistic markers of speech manipulation in the forensic analysis of English and Uzbek languages. It examines common manipulative strategies, lexical and syntactic features, and their implications in legal and media contexts. The study highlights the role of forensic linguistics in identifying manipulative language use for expert evaluation.*

Keywords: *forensic linguistics, speech manipulation, linguistic markers, English, Uzbek, expert analysis.*

Introduction. In recent years, forensic linguistics has gained significant importance as an interdisciplinary field that combines linguistics and legal studies. One of its essential areas is the detection and analysis of speech manipulation in various contexts, including legal cases, media discourse, and political speeches. Manipulative language is deliberately used to influence, deceive, or mislead audiences, making its identification crucial in forensic investigations. Speech manipulation often involves specific linguistic markers such as lexical choices, syntactic structures, euphemisms, presuppositions, and implicatures that distort the intended meaning. The study of linguistic markers of manipulation in both English and Uzbek languages is highly relevant due to the growing influence of media and social networks, where manipulative discourse is widespread.

In Uzbekistan, forensic linguistic expertise is still developing, while in English-speaking countries, it is already applied in courts and legal practice. Comparative analysis of these two languages helps to identify common and unique features of manipulative speech strategies, contributing to the theoretical and practical development of forensic linguistics [2]. Currently, many studies in forensic linguistics focus on authorship attribution, plagiarism, and threat analysis, while speech manipulation remains under-researched, especially in the Uzbek context.

The relevance of studying speech manipulation within forensic linguistics is growing due to the increasing use of language as a tool for influence in media, politics, and legal contexts. Manipulative speech impacts public opinion, distorts facts, and often leads to misinformation. Forensic linguistic expertise plays a crucial role in detecting such manipulation, especially in legal cases where language analysis can serve as evidence. Currently, numerous studies in English-language forensic linguistics focus on authorship identification, threats, and deception detection [4]. However, the forensic analysis of speech manipulation remains under-researched, particularly in the Uzbek context. In Uzbekistan, this field is still developing, with limited resources and expertise available. Therefore, comparative studies like this contribute significantly to advancing forensic linguistic research and practice. Therefore, this study fills an important gap and provides valuable insights for experts and scholars in

the field. The study of speech manipulation in forensic linguistics has been explored by scholars like M.Coulthard, A.Johnson [1] and J.Olsson [5] focusing on linguistic markers in legal and media discourse. Uzbek researchers, including Xotamova G. [6] and Dedaxanova M.A [3] have contributed to forensic linguistic expertise development. However, comparative studies on English and Uzbek manipulation techniques remain limited, highlighting this research's significance.

The experimental part of this research focuses on identifying and analyzing linguistic markers of speech manipulation in selected English and Uzbek media texts. The research was carried out in three stages: data collection, linguistic analysis and comparative evaluation. At the first stage, 20 media articles were selected 10 in English from international media outlets such as The Guardian, BBC News and CNN. 10 in Uzbek from local platforms like Kun.uz, Xabar.uz and Daryo.uz. Articles were chosen based on their potential manipulative content, particularly political and social news aimed at influencing public opinion. In the second stage, a qualitative linguistic analysis was conducted to identify speech manipulation techniques.

The analysis focused on lexical markers (emotive words, loaded terms, euphemisms), syntactic structures (passive voice, nominalizations), and pragmatic elements (presuppositions, implicatures, appeals to authority). The frequency of each manipulative element was recorded and categorized. For instance, English texts frequently used modal verbs and vague quantifiers ("many believe", "it is said") to manipulate meaning, while Uzbek texts often relied on emotionally charged words and indirect speech to influence readers. The third stage involved comparing the results from both languages to highlight similarities and differences. Findings revealed that both English and Uzbek texts employed similar manipulation strategies, but cultural and linguistic differences influenced the choice of specific markers. Uzbek texts tended to use more culturally embedded phrases and metaphors, while English texts preferred subtle syntactic manipulation.

The research demonstrates that linguistic markers of manipulation can be systematically identified using forensic linguistic methods. This experimental analysis provides valuable insights for forensic experts, linguists and media specialists, contributing to the development of reliable tools for detecting manipulation in both English and Uzbek speech or written discourse.

Table.

Common speech manipulation strategies identified in English and Uzbek media texts

Manipulation strategy	Presence in English media	Presence in Uzbek media
Emotional appeal	High	High
Hiding responsibility	Medium	Medium
Generalization	High	High
Vagueness and ambiguity	Medium	Medium
Use of authority or expert opinion	High	High
Cultural or traditional references	Low	High
Presupposition and implicature	High	Medium
Stereotyping	Medium	Medium

This table summarizes the frequency of key speech manipulation strategies in English and Uzbek media, highlighting emotional appeal, generalization and expert references as dominant techniques.

The analysis of the collected English and Uzbek media texts revealed that speech manipulation techniques are widely used in both languages, though with certain cultural and linguistic variations. The most frequent manipulation strategies identified in both English and Uzbek texts were emotional appeal, generalization and reference to authority or expert opinion. These strategies are effective tools for influencing readers' opinions and shaping public perception. In English media, modal verbs, passive voice constructions and vague expressions were often employed to create uncertainty or avoid direct responsibility. These linguistic features allow the speaker or writer to distance themselves from statements, making the information sound objective or neutral. Additionally, presuppositions and implicatures were actively used in English texts to convey hidden assumptions and indirectly manipulate readers' views.

Uzbek media, on the other hand, demonstrated a higher usage of cultural references, traditional metaphors and emotionally charged words. Such elements appeal to the national identity and shared cultural values of the audience, making the message more persuasive. Stereotyping was also observed

as a manipulation strategy, particularly in social and political news. Overall, the results confirm that both English and Uzbek media utilize linguistic manipulation to influence audiences. However, each language reflects its cultural and communicative norms in applying these strategies.

Conclusion. The conducted research highlights the significance of forensic linguistic analysis in detecting speech manipulation strategies within English and Uzbek media texts. The study revealed that both languages employ various linguistic markers and manipulation techniques aimed at influencing readers' opinions, emotions and perceptions. Among the most frequently used strategies were emotional appeal, generalization, reference to authority and the use of vague expressions. English media texts predominantly relied on syntactic constructions such as modal verbs, passive voice and implicatures to distance the author from responsibility and subtly guide readers' interpretations. In contrast, Uzbek media often incorporated emotionally charged words, cultural references and traditional metaphors, reflecting the influence of cultural and national values in shaping manipulative discourse.

The comparative analysis proves that while speech manipulation is a universal phenomenon, the choice of linguistic markers is closely tied to the language's structure and the society's cultural context. These findings are essential for forensic experts, linguists and media analysis involved in identifying manipulative discourse, particularly in legal cases and media investigations. Future studies may further expand this research by analyzing larger datasets or focusing on specific contexts such as political speeches or legal documents. This work contributes to the growing field of forensic linguistics in Uzbekistan and beyond.

REFERENCES:

1. Coulthard M., Johnson A. An introduction to forensic linguistics. – London: Routledge, 2007. – 240 p.
2. Crystal D. Language and the law. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 267 p.
3. Dedaxanova M.A. Sud-lingvistik ekspertizada nutqning ahamiyati. – Namangan: "Yangi O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida milliy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati", xalqaro konferensiya, 2022. – B. 52-55.
4. Gibbons J. Forensic linguistics: An introduction to language in the justice system. – USA: Wiley-Blackwell, 2003. – 384 p.
5. Olsson J. Wordcrime: solving crime through forensic linguistics. – London: Bloomsbury, 2013. – 336 p.
6. Xotamova G. Lingvistik ekspertizada yozma nutq muallifini aniqlashning grammatik xususiyatlari. Общество и инновации 2(11/S):, 2022. – P. 220-228

UO'K 82-31

ROMAN TRILOGIYA JANRI VA JOYS KERI TRILOGIYASINING BADIIY XUSUSIYATLARI

F.T.Atamurodova, dotsenti, PhD, Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM, Qarshi

Annotatsiya*. Maqolada roman trilogiya janri va buyuk ingliz adibi Joys Keri trilogiyalarining janr xususiyatlari va badiiy o'ziga xosligi ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *trilogiya, syujet,memuar,oilaviy solnoma janr, epik turkum, xronologik, personaj, davriylik, triptix, avtobiografik roman.*

Аннотация. *В статье раскрываются жанр романа-трилогии, а также жанровые особенности и художественная самобытность трилогий великого английского писателя Джойса Кэри.*

Ключевые слова: *трилогия, сюжет, мемуар, жанр семейной хроники, эпический цикл, хронология, персонаж, периодичность, триптих, автобиографический роман.*

Abstract. *The article explores the genre of the novel trilogy and the genre characteristics and artistic uniqueness of the trilogies written by the great English writer Joyce Cary.*

Keywords: *trilogy, plot, memoir, family chronicle genre, epic cycle, chronological, character, periodicity, triptych, autobiographical novel.*

Qadimgi eposlardan tortib zamonaviy durdona asarlargacha, adabiy trilogiyalar uzoq yillardan beri o'quvchilarni keng qamrovli hikoyalari va chuqur xarakter rivoji bilan maftun etib kelmoqda. Ushbu uch qismdan iborat eposlar mualliflar uchun murakkab dunyolarni yaratish, murakkab syujetlar tuzish va vaqt o'tishi bilan ma'noli tarzda rivojlanadigan unutilmas qahramonlarni

shakllantirish uchun mukammal maydon yaratadi. Albatta, alohida romanlar ham kuchli hikoyalarni bayon eta oladi, biroq har bir qismi bilan kengayib, rivojlanib boruvchi puxta ishlangan trilogiyaga sho‘ng‘ishning o‘ziga xos zavqi bor. Uzoq galaktikalarni o‘rganish, tarixiy voqealarni qayta talqin qilish yoki sehrli olamlarga sho‘ng‘ish – eng yaxshi trilogiyalar o‘quvchilarda chuqur taassurot qoldirib, yozuvchilar avlodlariga ilhom manbai bo‘lgan.

Trilogiya — bu uch qismdan iborat asarlar turkumidir; har bir qism mustaqil bo‘lib, o‘ziga xos yakuniga ega bo‘lsa-da, ular o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘ladi va yagona mavzuni ifodalaydi yoki bir asosiy g‘oyaning turli jihatlarini rivojlantiradi.Bu atama dastlab bir muallif tomonidan yozilgan va musobaqa uchun mo‘ljallangan uchta fojia (tragediya) guruhiga nisbatan ishlatilgan. Bunday trilogiyalar qadimgi Afina shahrida miloddan avvalgi V asrda bo‘lib o‘tgan mashhur drama bayramlari – Buyuk Dionisiya (Dionysia)da bir nechta ishtirokchilar tomonidan sahnalashtirilgan.

Trilogiya - bu yanada kengroq, umumiy hikoyani to'ldiradigan uchta kitobdan iborat turkum. Uch hikoyaning har biri o'z-o'zidan to'liq , ya'ni har birining boshlanishi, o'rtasi, oxiri, ziddiyatlari, xarakter yoylari va mavzulari bor. Butun trilogiya tomonidan aytilgan hikoyada bu elementlarning barchasi mavjud, faqat kattaroq miqyosda. Trilogiyalar juda ko'p afzalliklarga ega. Ular sizga bitta kitobdan ko'ra qahramonlar, hikoyalar va syujetlarga chuqurroq kirishga imkon beradi. Ular sizga dunyoning ko'p qirralarini o'rganish imkonini beradi.

XX asr ingliz adabiyotida trilogiya shakli ko‘proq realist yozuvchi Joys Keri ijodida mukammal tarzda namoyon bo‘lgan. Trilogiya nisbatan mustaqil va ayni paytda o‘zaro bog‘liq romanlar birkuvi sifatida epik turkum janrining alohida turi sanaladi.

Joys Keri ijodining cho‘qqisi ikki trilogiya bo‘ldi. Sara Mandi haqidagi birinchi romanlar — “O‘zim o‘zimdan ajablanaman” (1941), “Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” (1942), “Asl manbadan” (1944); Chester Nimmo haqidagi ikkinchi trilogiya “Yoningdagiga bog‘langan sevgidan (1952), “Xudodan boshqa hech kim” (1953), “Nomussizlik” (1955) romanlaridan tarkib topgan. Keri trilogiyasi bir butunlik — bu o‘ziga xos tarkibiy qismlar, alohida romanlar yaxlitligi, ularning har biri o‘zining uslubiy xususiyatlariga ega. Yozuvchining betakror uslubiy maromi birinchi trilogiyadayoq namoyon bo‘lgan.

“O‘zim o‘zimdan ajablanaman” romanida qamoqqa hukm qilingan Sara Mandining istig‘fori bayon beriladi. U o‘zining hayoti haqida hikoya qiladi, bu bilan uni axloqsizlikda aylagan hakamlarning ta'kidlarini rad etmoqchi bo‘ladi. O‘zining sirtdan qaraganda xatolardan xoli bo‘lmagan sa'y-harakatlari, taqdiridagi “jinoyat”ga olib kelgan keskin o‘zgarishlar, umuman, Sara Mandining o‘z hayoti haqidagi hikoya tarzi ishqiy romanlar qahramonlarini yodga soladi.

Romanga so‘zboshisida muallifning yozishicha, uning qahramoni “o‘zining mo‘'jaz ayol dunyosida yashaydi” va u boshqa qahramonlarni “o‘zining hayoti va o‘zining taqdiri nuqtai nazaridan turib” kuzatadi, shu boisdan ham u o‘z istig‘forida ularning kechmishlarini va vaqt kechmishlarini o‘z hayotining tarixidek gavdalantiradi” . Garchi “O‘zim o‘zimdan ajablanaman” romani qahramon hayotining katta vaqtini (qirq yil) qamrab olgan bo‘lsa-da, muallif asarni voqealar va faktlar bilan to‘ldirib tashlashga urinmaydi. Muallif birinchi navbatda qahramon hayotidagi muayyan bir tang lahzalarda u tushgan ruhiy holatlarga e'tibor qaratadi. Voqealar va qahramon ruhiy holatlarini tanlab olish shu bilan belgilanganki, bu voqea va holatlar — bular barchasi nimaga olib keladi va qahramon hayoti xotimasi qanday kechadi — hammasi hikoya qiluvchiga oldindan ma'lum. “O‘zim o‘zimdan ajablanaman” romanida hikoya tarzi yodnoma xarakteridagi yozuvchilarga xos stilistik xususiyatlarni namoyon etadi. O‘tmish haqidagi xotiralar saralangan, ular personajning, yodnomalar ustida ayni ishlayotgan daqiqada shakllangan hayot to‘g‘risidagi tasavvurlariga mos keladi. Sara Mandi o‘z hayoti haqida odamlar uni qilmasliklari kerak, deyishadi. Bu noto‘g‘ri. Chunki har qanday jiddiy san'atkor, modomiki o‘sha haqiqatga mutlaqo ishonsa, uni ko‘rib turgan bo‘lsa, targ‘ib qiladi va odamlarga bu haqiqatni yetkazish uchun yozadi.” “Romanning barcha tarkibiy qismlari — xarakterlar, syujet, bayon dunyo haqida, romannavisning dunyosi haqida bilim-tushuncha berishi kerakki, bu dunyoda inson xarakterlari, yozuvchi ularni tushunganidek, axloqiy mavjudotlar sifatida o‘z taqdirini o‘zlari yaratadilar”.

Romanda syujet rivoji avlodlar almashinuvi bilan belgilanadi. Sara Mandi hikoyasida Tomas Uilcherning yosh qarindoshlari — Robert va Blanshga keng o‘rin berilgan. Sara Tomas Uilchernikida

xizmat qilib yurgan joy, Tolbruk yer-mulkini qo‘lga kiritgan Blansh Loftus o‘zi yoqtirmagan, Uilcher uylanmoqchi bo‘lgan xizmatkor ayoldan qutilish payida bo‘ladi. Blansh uni o‘g‘rilikda ayblaydi. Qamoqqa olingan Sara esa faqat Jimsonning o‘g‘li Tomasning o‘qishi uchun pul to‘lash tashvishi bilan band bo‘ladi. Shuning uchun u jurnalistning gazeta uchun o‘z hayoti tarixini yozib berish taklifini qabul qiladi va shu tariqa topgan pulini Tomasning o‘qishiga to‘lamoqchi bo‘ladi.

“Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” romanining ilk so‘zlari uni oldingi kitob bilan bog‘laydi: ya'ni Sara Mandi qamoqxonaga qamalgani, Tomas Uilcherni esa qarindoshlari Talbrukka olib ketishgani, u yerda unga aqldan ozgan sifatida qarab turishgani haqida xabar beriladi. Uilcher shu vaqtdan boshlab kundalik yoza boshlaydi. Agar “O‘zim o‘zimdan ajablanaman” kitobida hikoya qilish tarzi “memuar”, ya'ni xotira, yodnoma tarzida bo‘lsa, “Sayoh ziyoratchi yo‘lidan” kitobida hikoya maromi kundalikdagi yozuvlar uslubiga yaqin.

“Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” — trilogiyaning nisbatan ko‘lamli kitobi, bu kitob ellik yillik davr mobaynidagi ingliz tarixi zamirida bir oila tarixini qamrab oladi. Biroq muallif shunchaki solnomanavislikdan qochadi. U hikoya qiluvchining xotirasida turli personajlar hayotining turli davrlariga oid ko‘proq dramatik va lirik epizodlarni yoritadi.

Uilcherlar oilasi — bu miniatyuradagi ingliz jamiyati: u o‘zining siyosiy arbobiga (Edvard), o‘zining harbiysiga (Bill), o‘zining huquqshunosiga (Tomas), o‘zining mazhab boshlig‘iga (Lyusi), o‘zining vrachiga (Enn), o‘zining biznesmeniga (Jon) va o‘zining ishchisiga (Robert) ega.

Ko‘pplanlilik tamoyili “Sayyoh ziyoratchi” romanida, Kerining boshqa asarlariga qaraganida, ko‘proq muvaffaqiyatli chiqqan. Unda Tomas Uilcherning ukalari — Uilьyam va Edvard hayoti, uning singlisi Lyusi, shuningdek, ularning bolalari — Lyusining o‘g‘li Robert va Edvardning qizi Enn hayoti ko‘rsatilgan.

“Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” romani, trilogiyaning boshqa ikki kitobiga qaraganda, ko‘proq “sotsiologik” asar. Ma'rifatli hikoyachi Uilcher o‘zining oilaviy sulolasi va ingliz jamiyati tarixi solnomanavisi sifatida gavdalanadi. Bu romanda siyosiy kurash, siyosiy mavqe mavzularini ham yoritish mo‘ljallangan. Bu — liberal partiya bilan bog‘langan, vazir bo‘lgan, biroq keyinchalik shiddatli voqealar davomida siyosiy maydondan itqitilgan Edvard hayotining tarixi. Edvard obrazi vositasida muallif siyosat haqida, tarix va inqiloblar haqida bir qator fikrlarni aytadi

Trilogiyaning oxirgi kitobi — “Asl manbadan” romani — rassom Galli Jimsonning, uning o‘zi aytgan, hayotidan lavhalar tasvirini taqdim etadi. Jimson trilogiyaning boshqa personajlariga qaraganda o‘tmish haqida kam o‘ylaydi. Bu yerda o‘tmishga uzundan-uzoq ekskurslar yo‘q, yashab o‘tilgan hayot haqida ko‘lamli xotiralar ham yo‘q. Jimson kundalik turmush tashvishlari va o‘zining ijodiga butkul berilgan.

Garchi trilogiyaning har qaysi romani nisbatan mustaqil bo‘lsa-da, shunga qaramay u asarlar turkumiga kiradi va butun trilogiyaning badiiy birligi qoidalariga bo‘ysunadi. Xarakterlar va hikoya qilish usullari o‘rtasida muayyan darajada o‘zaro aloqa va nisbatan mavjud. Barcha o‘rinlarda kontrapunkt, ya'ni ko‘povozlik saqlanadi.

Joys Keri trilogiyasi — triptix, ya'ni umumiy mazmuni, g‘oyasi bir uch asar, uning markaziy qismi “Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” romani sanaladi; birinchi va uchinchi romanlar triptixning yon tomonlari — “tavaqalari”ni tashkil etadi. Hikoya qilish jarayonida va obrazlar tizimida takrorlanadigan uch qismdan iborat ritmi trilogiya strukturasiga muvofiq keladi. Keri trilogiyada hali roman janrida qilinmagan narsaga erishishni istadi, bu esa aynan “tarixga ro‘y bergan voqealarni taqqoslab emas, balki o‘zgarishlar o‘zaro nisbati tartibida, uch hissa teran baho berish”.

Joys Kerini insoniyat tamadduni taqdiri, real hayot va ijodiy aql-idrokka ega shaxsning o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq muammolar tashvishga soladi. Trilogiyaning har bir romanida yetakchi personaj ijtimoiy inqiroz va jamiyat hayotining turli — ma'naviy, siyosiy, madaniy sohalarida o‘zgarib borayotgan ijtimoiy qadriyatlar zamirida ko‘rsatilgan. Keri romanlari — bu muayyan tarzda tarixiy davr bardavomligi bilan bog‘langan xarakterlar romanlari. Garchi yozuvchi tarixga o‘ta kuchli e'tibor qaratmagan bo‘lsa-da, biroq hech qachon tarixni ko‘zdan qochirmaydi. Uning asarlaridagi epik vaqt pirovard natijada tarixiy vaqt andazasini yaratadi. Trilogiyaning uchta bosh personaji ortida XX asr birinchi yarmidagi Angliya hayoti turadi. O‘zining romanlarida Keri tarixiy voqealarni tasvirlamaydi, balki taqdirlari jamiyat tarixi bilan bog‘langan qahramonlarining hayot tarixini aks

ettiradi. Tarixiy voqealar romanlarga, mazkur kitobning yetakchi personaji tarixiy voqealarga qanchalik aloqador bo‘lsa, shu darajada kiritilgan. “Sayyoh ziyoratchi yo‘lidan” kitobida tarix xiyla sezilarli darajada, Sara Mandi va Galli Jimson haqidagi kitoblarda tarixiy voqealarning eshitilar-eshitilmas aks sadosi keladi.

Ta'kidlash lozimki, Joys Keri yaratgan trilogiya syujet-kompozitsion qurilishiga, epik hikoya qilish usulining o‘ziga xosligi va realistik nigohning betakrorligiga ko‘ra orginal asar sifatida alohida ajralib turadi. Ammo har bir qahramon holatini tahlil qiladigan bo‘lsa, asar modernizm janrida yozilgandek. Jimsonning hikoya qilshi, ya'ni uning nutqi avtobiografik romanlarga xosdir.

XX asr ingliz adabiyotida asosan realist yozuvchi Joys Keri ijodida trilogiya shakli ko‘proq uchraydi. Uning asarlarida hikoyachi ikki planda ko‘rinadi biri keksa biri navqiron, bu esa xronologiyaning izchilligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Аникин Г.В. Трилогия Джойса Кэри о Честере Ниммо. //Вопросы зарубежной литературы и искусства. Сб. 3. - Свердловск, 1974.
2. Михальская Н.П., Аникин Г.В. Английский роман XX века. - М., Высш. школа, 1982.
3. Cary Joyce. On The Function of the Novelist. — New York Times Book Review, 1949, October.
4. Cary Joyce. Herself Surprised. - L., 1960.

UO’K 800.61-56+494.351

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA MORFEM BIRLIKLAR HAQIDA QARASHLARNING SHAKLLANISHI

I.Axmadjonov, katta o‘qituvchi, Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada morfema haqida ilk qarashlar, qadimda morfema ostida qanday birliklarning o‘rganilganligi, hozirgi davrda morfema haqidagi turli xil mulohazalarning shakllanganligi kabilar borasida fikr yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *morfema, til, morfem birliklar, tilshunoslik*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются первые взгляды на морфему, какие единицы изучались под морфемой в древности, а также формирование различных мнений о морфеме в настоящее время.*

Ключевые слова: *морфема, язык, морфемные единицы, лингвистика*

Abstract. *This article examines the first views on the morpheme, what units were studied under the morpheme in ancient times, as well as the formation of various opinions about the morpheme at the present time.*

Keywords: *morpheme, language, morpheme units, linguistics*

Kirish. Tilshunoslik fanining beshigi qadimgi Hindiston sanaladi. Chunki xuddi shu mamlakatda birinchi bor kishilarning aloqa vositasi bo‘lgan tilni o‘rganishga qiziqish yuzaga keldi[1.7].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Morfema masalasi ham hind tilshunoslari nazaridan chetda qolmagandi. Garchi ular bu birliklarga morfema termini ostida qarashmagan bo‘lsa-da, ularning yondashuvi bugungi morfema tushunchasiga muvofiq keladi. “Qadimgi hind grammatikachilari so‘zlarni birlamchi elementlarga bo‘lganlar. So‘zni bunday tahlil qilish “samskara” deb atalgan. So‘zni birlamchi elementlarga ajratib tahlil qilish qadimgi hind grammatikasining asosiy tamoyilini tashkil qilgan” [2.8]. “Ular so‘z tahlilida so‘z shaklining o‘xshash va farqli belgilariga asoslanganlar. Natijada, bir so‘zning turli shakllarini, tarkibiy qismlarini to‘g‘ri belgilashga erishdilar. So‘z tarkibidan o‘zak, suffiks va qo‘shimchalarni ajratdilar” [1.7]. Arastu o‘zining “Poetika” asarida inson nutqi harf, bo‘g‘in, bog‘lovchi, ism, fe’l, kelishik, gaplardan tashkil topishini aytadi. Kelishik atamasi ostida ot shakllari ham, fe’l shakllari ham tushunilgan. Shuning uchun kelishiklar ikkiga bo‘lingan: a) ot kelishigi; b) fe’l kelishigi. Otlarning kelishik, son (birlik va ko‘plik) singari shakllari ot kelishiklar, shaxs-son, mayl singari shakllar fe’l kelishiklar hisoblangan [3.40]. Hozirgi kunda o‘rganilayotgan va o‘qitilayogan morfemik birliklar aslida qadimgi davrlardan boshlab tilshunos olimlarni qiziqtirib kelgan. Albatta, bugungi kundagi

talqinlar dastlabki davrlardagi qarashlardan farq qilishiga qaramay, asos, o‘rganilayotgan material bir xilligicha qolgan.

Natijalar va muhokama. Morfema atamasi ostida o‘rganiluvchi birliklar haqidagi qarashlar arab tilshunos olimlari e’tiboridan chetda qolmagan. Abu Nasr Forobiy “tilshunoslikning mundarijasi haqida fikr yuritgan hamda so‘z birikmalari haqidagi fan bo‘limida ot va fe’llarning oxiri (qo‘shimchalari) qoidasi, so‘z qismlarining qo‘shilish qoidalari, so‘z oldiga qo‘shiladigan, so‘z oxiriga qo‘shiladigan shakllar mavjudligini izohlab bergan” [1.231]. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘oti-t-turk” asarida “fe’llardan yasalgan otlar fe’l oxiriga o‘n ikki harfdan birini qo‘shish bilan yasalalishini” ta’kidlab o‘tadi [1.263]. Mahmud Koshg‘ariy fe’l asoslariga qo‘shilib kelgan shakllarni harflar deya ta’riflagan. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida morfemik birliklar haqida bir nechta fikrlarni keltirgan. Asarda “-chi shaxs oti yasovchi qo‘shimchasi va -vul affiksining ot yasashi haqida fikrlar bildirilgan” [4.137]. A.Navoiy keltirgan misollardan shuni tushunish mumkinki, -paz, -soz, -voz kabi shaxs oti yasovchi affikslar o‘rnida ham -chi shaxs oti yasovchi morfemasi qo‘llangan. “Fe’l asosga qo‘shilib, leksemaga gumon, shubha ma’nosini yuklovchi –gudek, -kudek affikslari haqida ma’lumot beradi, affiksatsiya yo‘li bilan bunday ma’no ifodalash forsiy tilda yo‘qligini ham aytib o‘tadi: *borgudek, kelgudek, bilgudek, surg‘udek* va boshqalar” [4.187].

“Morfema” termini va tushunchasi tilshunoslikka dastlab Boduen de Kurtene tomonidan kiritilgan [5.65]. Olim morfemani morfologiyaning eng sodda birligi sifatida baholaydi. “Morfemalar bu so‘zning ayrim ma’noli qismlaridir. So‘zning u yo bu ma’noli qismi morfema deyiladi” [6.12]. Olimning mazkur fikrlari morfema haqidagi qarashlar paydo bo‘lishiga, tilda muhim birlik sifatida maydonga chiqishiga sababchi bo‘lgan. Boduen de Kurtenedan so‘ng morfemaga turlicha yondashuvlar yuzaga kelgan. A.I.Tomson o‘zak, negiz, affikslardan tashqari, morfema qatoriga urg‘u va tovush o‘zgarishlarini ham kiritgan edi.

J.Vandriyesning morfemani tushunishi birmuncha o‘ziga xos xususiyatga ega: u so‘z o‘zagini ideya ifodalovchi semantema deb nomlaydi va uni morfema sanamaydi. Ammo u affikslardan tashqari, urg‘u, tovush toni, unli tovushlarning almashishi, so‘z tartibi yoki semantemalar tartibini ham morfemaga kiritadi. Chunki u morfema deb o‘zaklarning munosabatini ifodalaydigan vositalarni tushunadi [7.76]. Olimning yuqoridagi fikrlari orqali morfema obyekti birmuncha qisqaradi. Har qanday affiks so‘z o‘zagi bilan bog‘lanadi, o‘zak bilan munosabatga kirishadi. Affiks va affiks qo‘shilgan shakllar olim tomonidan morfema, deya ta’rifladi. M.Fridman “faqat grammatik qiymatga ega bo‘lgan qismlarni tushungani uchun barcha tillardagi artikllarni morfema deb hisoblaydi” [8.113]. “Morfemaning so‘z qurilishiga xos bo‘lgan grammatik shakllanishga ega bo‘lmay, so‘zning struktura jihatidan grammatik shakllanishi uchun qurilish materiali bo‘lishini N.M.Shanskiy qayd etib o‘tadi” [9.45]. Olimlarning morfema haqidagi turlicha fikrlari asosida morfemik qarashlarni guruhlarga bo‘lish mumkin bo‘ladi. Birinchi guruh olimlarini mohiyatan Boduen de Kurtene fikrlarining mantiqiy davomchisi deya qarash. Ikkinchi guruh olimlar esa morfema ostidagi birliklarni birmuncha kengaytirgan vakillar sinfi. Uchinchi guruh olimlarini morfema qamrovini toraytirgan guruh deya nomlash o‘rinli. Mana shunday bo‘linish morfema masalasini ancha sermahsul o‘rganish uchun turtki bo‘lsa-da, morfemik birliklar o‘rnini aniq belgilash, uning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri tushunishda chalkashliklarning paydo bo‘lishiga ham sababchi bo‘ldi.

Boduen de Kurtenening izdoshlari morfema so‘zning ma’noli qismi, deya ta’rif berishgan, ya’ni morfemaga so‘zning tarkibiy qismi nuqtayi nazaridan yondashishgan. Bunday fikrlar B.Kurtenedan tashqari, V.A.Bogorodiskiy, A.N.Gvozdev, E.B.Agayan, V.V.Vinogradov, I.V.Ustinov, O.P.Sunik, R.F.Shokirova kabi tilshunos olimlar ishlarida ham kuzatiladi. V.A.Bogorodiskiy dastlab morfema terminini qo‘llamagan, bu termin o‘rniga so‘zlarning morfologik qismlari nomini bergan [10.155]. Bundan anglashiladiki, A.Bogorodiskiy ham morfemaga so‘zning qismi sifatida yondashgan. Morfemani B.Kurtene singari tushungan. E.B.Agayan morfemalarni “har bir tilda ma’no tashuvchi bo‘linmas bo‘lak” deya ta’riflaydi [11. 100]. Morfemalarni umumiy leksik ma’no ifodalaydigan asosiy morfema va grammatik ma’no ifodalaydigan ikkinchi darajali morfemalarga ajratadi. V.V.Vinogradov so‘zning chegarasini aniqlash uchun morfemalarni o‘zak va grammatik elementlardan tashkil topishini ta’kidlab o‘tgan [12.32].

Ikkinchi guruh olimlari morfema atamasi ostidagi birliklar haqida birmuncha kengroq fikr bildiradilar. Morfemaning qamroviga so‘zning asos qismi va grammatik shakllardan tashqari, urg‘u, ayrim unli tovushlar, hattoki so‘zlarni ham kiritishgan. Bunday xulosaga kelish morfemaning eng kichik, boshqa mayda bo‘laklarga bo‘linmaydigan ma’noli qism deya tushunish tufayli paydo bo‘lgan. A.I.Tomson o‘zak, negiz, affikslardan tashqari, urg‘u, tovush almashishlari kabi hodisalarni ham kiritgan [13.311]. Urg‘uning ma’no anglatishi mavjud hodisa sanaladi. Masalan, *katta* so‘z shaklidagi birinchi bo‘g‘indagi “a” tovushini cho‘zish orqali ma’noning kuchayishini kuzatish mumkin. Morfema atamasi *morf* so‘zidan hosil bo‘lganligini hisobga olsak, *morf* - “shakl” degan ma’noni anglatadi. Shakl orqali ma’noning o‘zgarishi morfema bilan bog‘liq bo‘lmagan hodisalar sanaladi. “**Morf**, morfa (*yunoncha*: *morphe* – shakl) – til (so‘z)ning eng kichik ma’noli qismi, morfemaning alohida bir ko‘rinishi, varianti. Turli so‘z shakllarida ishtirok etuvchi morflar majmuyi morfemani tashkil etadi” [14.749]. N.M.Shanskiy morfemaga so‘zning struktur jihatdan grammatik shakllanishi uchun xizmat qiluvchi birliklar majmuyi, deya baho beradi va morfemalar qatoriga rus tiliga xos bo‘lgan ayrim unli tovushlarni kiritadi [15.45]. Deskriptiv tilshunoslik maktabining vakili G.Glison sodda so‘zlarni morfemalar sirasiga qo‘shadi [16.48].

Keyingi guruh olimlar morfemaga baho berib, faqat affikslarni morfema deb tushunadilar va izohlaydilar. Bu guruh olimlari morfemaga til birliklari masalasining mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashadilar. Ular leksik birlik bilan morfemik birliklarning farqi borligiga e’tibor qaratadilar. Yuqoridagi boshqa guruh tilshunoslari so‘z asosini ham morfema deb tushungan bo‘lsalar, bular affikslarnigina morfema deb atagan. M.F.Fridman, I.I.Meshchaninov, A.P.Potseluyevskiy, R.A.Budagov kabi tilshunoslar mazkur fikrni qo‘llab-quvvatlab, o‘z ilmiy ishlarida bayon qilishgan. R.A.Budagov fikricha, “affikslar o‘ziga xos morfemalardir, ya’ni so‘zning alohida grammatik ma’noli qismlaridir, morfema so‘zning grammatik ma’no tashuvchi qismidir” [17.199]. A.P.Potseluyevskiy muayyan grammatik shaklga ega bo‘lgan so‘zlarning o‘zak va formal ashyolardan tashkil topganligini aytib, formal elementlarni morfema deb yuritadi [18.7]. I.I.Meshchaninov morfemalarni leksemalarni hosil qiluvchilar va sintaksemalarni hosil qiluvchilar kabi turlarga bo‘ladi [19.32].

Xulosa. Olimlarning fikrlaridan xulosa qilish mumkinki, morfema masalasi nafaqat o‘zbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham ancha munozarali va bahstalab mavzulardan sanaladi. Jahon tilshunosligidagi olimlar qarashlaridan kelib chiqib, ikkita bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni kuzatdik. Morfema – so‘zlarning ma’noli qismi, boshqa mayda bo‘lakka bo‘linmaydigan eng kichik birlik. Mazkur fikr orqali morfema so‘zning tarkibiy qismi, ya’ni leksema va affikslar morfema deb qaralgan. Ikkinchi qarashga ko‘ra morfema – leksemaga qo‘shilib keluvchi nomustaqil bo‘lgan birlik. Jahon tilshunosligidagi ushbu fikrlar o‘zbek tilshunosligiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар II жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 7.
2. Звегинцев В.А. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Частъ I. – М., 1960. – Б.8.
3. Аристотель. Поэтика. – Тошкент, 1980. – Б.40.
4. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент, 1948. – Б.187.
5. Бодуэн де Куртене. Einige fdlle der Werkund der analogie in der polnischen declination. – 1868.
6. Бодуэн де Куртене. Лингвистические заметки и афоризмы. Журнал. Минстерство народного просвещения, 1903. – № 5. – Б.12.
7. Вандриес Ж. Язык. – М., 1937. – Б.76-85.
8. Фридман М.Д. О морфемном характере артикля. ВЯ 5. – 1962. – Б.113.
9. Шанский Н.М. Очерки по русскому словообразованию. – М.,1959. – Б.45.
10. Богородицкий В.А. Лекции по общему языковедению. Изд.2-е. – Казанъ, 1915. – Б.155.
11. Агаян Е.Б. Введение в языкознание. – Ереван, 1959. – Б.100.
12. Виноградов В.В. О формах слова. III том. – 1944. – Б. 32.
13. Томсон А.И. Общее языковедение. – Одесса, 1910. – Б.311.
14. ЎзМЕ. М ҳарфи. – Тошкент, 2000. – Б. 749.
15. Шанскнй Н.М. Очеркп по русскому словообразованию и лексикологии. – М., 1959. – Б.45.
16. Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. 1959.
17. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М., 1958. – Б.199.
18. Поцелуевский Л.П. Основы грамматики. – Ашхабад, 1946. – Б.7.
19. Мещанинов И.И. Общее языкознание. – 1940. – Б.32.

UDC 81'44

LINGUISTIC LANDCAPE OF FIRE AND WATER: ANALYZING IDIOMS AND PROVERBS IN UZBEK AND ENGLISH

J.G'.Axmedov, teacher, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. *Ushbu maqola "olov" va "suv" elementar konseptlarining o'zbek va ingliz tillaridagi idiomalar va maqollar orqali madaniy va lisoniy ahamiyatini o'rganadi. Taqqoslash usulidan foydalanib, ushbu tadqiqot bu tabiiy kuchlarning har ikki tilda ehtiros, yo'qotish, yaratilish, sokinlik va hayot bilan bog'liq ma'nolarni qanday ifodalashda ishlatilishini tahlil qiladi. Turli idiomalar va maqollar orqali bu elementlarning ikki tildagi umumiy va farqli ishlatilishini yoritadi. Olov va suv nafaqat muhim tabiiy elementlar, balki insoniy his-tuyg'ular va harakatlar uchun kuchli metaforalardir. Ushbu maqola tilning tabiiyatga bo'lgan madaniy qarashlarini qanday aks ettirishini tushunishga yordam beradi, shu bilan birga, o'zbek va ingliz tilida so'zlashuvchi jamiyatlarning madaniy va falsafiy asoslariga oid chuqur tushunchalarni ochib beradi.*

Kalit so'zlar*: Olov, Suv, Idiomalar, Maqollar, Lisoniy manzara, Taqqoslash lingvistika, Madaniy ramzlar, O'zbek tili, Ingliz tili*

Аннотация. *В статье исследуется культурное и лингвистическое значение элементарных понятий "огонь" и "вода" в идиомах и пословицах на узбекском и английском языках. Сравнительный анализ показывает, как эти природные силы используются для передачи значений, связанных с страстью, разрушением, творчеством, спокойствием и жизнью в обеих языках. В статье анализируются различные идиоматические выражения и пословицы, чтобы подчеркнуть общие и различные способы использования этих элементов в двух языковых традициях. Огонь и вода не только важные природные элементы, но и мощные метафоры для человеческих эмоций и действий. Работа помогает понять, как язык отражает культурные восприятия природы, раскрывая глубокие идеи культурных и философских основ как узбекского, так и английского обществ.*

Ключевые слова*: Огонь, Вода, Идиомы, Пословицы, Лингвистический ландшафт, Сравнительная лингвистика, Культурная символика, Узбекский язык, Английский язык*

Abstract. *This article explores the cultural and linguistic significance of the elemental concepts of "fire" and "water" in Uzbek and English idioms and proverbs. By employing a comparative approach, the study examines how these elemental forces are used to convey meanings related to passion, destruction, creation, calmness, and life in both languages. It analyzes various idiomatic expressions and proverbs to highlight the shared and divergent uses of these elements in the two linguistic traditions. Fire and water are not only vital natural elements but also serve as powerful metaphors for human emotions and actions. This article sheds light on how language reflects cultural perceptions of nature, revealing deep insights into the cultural and philosophical underpinnings of both Uzbek and English-speaking societies.*

Keywords*: Fire, Water, Idioms, Proverbs, Linguistic Landscape, Comparative Linguistics, Cultural Symbolism, Uzbek Language, English Language*

Introduction. Language is a reflection of culture, a mirror that showcases not just the structure and vocabulary of a community but also its beliefs, emotions, and worldview. A fascinating dimension of language lies in the metaphorical and symbolic use of natural elements. Two of the most prevalent and significant elements in various linguistic and cultural landscapes are fire and water. These elemental forces have captured human imagination across time and space, becoming integral to the ways in which societies conceptualize emotions, human nature, and the world at large. This article focuses on how fire and water are depicted in idioms and proverbs in the Uzbek and English languages. Both languages offer rich traditions of idiomatic expressions that use these elements to convey profound cultural meanings. Fire and water, while both common to human experience, often hold contrasting symbolic roles—fire is frequently associated with destruction, passion, and transformation, while water tends to represent calm, nourishment, and continuity. By analyzing the metaphoric use of fire and water in these two languages, this paper aims to understand how linguistic

landscapes are shaped by cultural perceptions of elemental forces. The comparative nature of the analysis not only reveals the universality of these natural symbols but also underscores the distinct cultural contexts in which they are embedded.

In Uzbek culture, fire is often seen as a powerful force, one capable of both destruction and creation. The dynamic and unpredictable nature of fire is reflected in many idioms and proverbs. For example, the Uzbek idiom **"Olovni shamol yonganidek o'ylash kerak"** (you should think like fire in the wind) emphasizes the fleeting and unpredictable quality of fire, symbolizing situations or emotions that are volatile or uncontrollable. Fire in this sense becomes a metaphor for chaos, passion, or uncontained energy. Another notable expression is **"Olovi bor odamni o'chirish qiyin"** (it's hard to extinguish a person with fire), which speaks to resilience and inner strength. Here, fire is a symbol of a person's indomitable will or character, suggesting that someone who is filled with determination cannot easily be defeated or discouraged. This idiom paints fire as a dynamic force that, while capable of destruction, can also symbolize an unbreakable spirit. Moreover, Uzbek folk wisdom often associates fire with spiritual purification and change. For example, **"Olovni yong'in tutishdan oldin alanga bilan sinash"** (before igniting a fire, test the flame) metaphorically suggests that one should evaluate and prepare before taking action, underlining the transformative potential of fire but also cautioning against reckless haste.

Symbolism of Fire in English Culture

In English, fire carries similar symbolic weight, often associated with danger, passion, and emotional extremes. The idiom [1] **"Playing with fire"** conveys the idea of engaging in a risky or dangerous activity, suggesting that fire is both a captivating and destructive force. **"Where there's smoke, there's fire"** points to the idea that even minor signs or symptoms usually indicate a larger problem, again associating fire with underlying causes that can lead to significant outcomes. Another famous English expression, **"To have a fire in one's belly"**, refers to someone who is highly motivated or passionate, symbolizing the internal drive or ambition that fuels one's actions. This ties fire to the notion of intense passion or desire, an energy that propels individuals toward achievement or action, often irrespective of the risks involved. In literature, fire also plays a crucial role in representing both destruction and purification. In many classical texts, the destructive fire is juxtaposed with its role in clearing away the old to make way for the new. Shakespeare, for instance, uses fire imagery to convey both passion and destruction, as seen in works like 2] *"A Midsummer Night's Dream"* and *"Macbeth"*.

Water in Uzbek and English Idioms and Proverbs

Symbolism of Water in Uzbek Culture

Water, in stark contrast to fire, tends to be viewed in Uzbek culture as a symbol of life, peace, and continuity. One well-known Uzbek proverb, **"Suvga tushgan baliq, o'zini bemalol his qiladi"** (a fish in water feels at ease), reflects the idea that being in one's natural environment brings a sense of peace and contentment. Water, in this sense, symbolizes harmony, tranquility, and the essential conditions for living a balanced life. The proverb **"Suvsizlikdan qurigan bog' va daraxt yashamaydi"** (a garden and tree cannot live without water) is used to convey the importance of basic sustenance for life to thrive. Water here is seen as a life-giving force, indispensable for growth and survival, both in nature and human endeavors. The reliance on water for agricultural prosperity in Uzbekistan, an agriculturally rich region, underpins many such expressions. Water's connection with purification and renewal is also notable. For example, **"Suv toshar"** (water will spill over) symbolizes the idea that something, whether it be an event or emotion, will eventually overflow or come to fruition. This phrase implies a natural course of events and the

In English, water, much like in Uzbek culture, symbolizes emotional depth, calmness, and even life itself. The expression **"Still waters run deep"** refers to the idea that calmness or quietness can often conceal profound emotions or thoughts. This idiom connects water to the internal, often hidden complexity of the human psyche. The proverb **"Blood is thicker than water"** uses water as a metaphor for relationships, particularly familial ones, suggesting that family ties are stronger than any other type of bond. This reflects water's symbolic role in nurturing and sustaining, not just life but also relationships. Water also holds a more destructive, even dangerous, aspect in English idioms.

Expressions like **"The floodgates have opened"** or **"Caught in the flood"** describe overwhelming emotions or situations that are difficult to control. Flood imagery often suggests a loss of control, where the power of water overwhelms reason or order.In examining fire and water in both Uzbek and English cultures, we see that these elements embody a wide range of human experiences and values. In Uzbek culture, fire often represents spiritual purification, transformation, and resilience, while water is seen as a sustainer of life, symbolizing peace, growth, and balance. English culture shares many of these associations but places a stronger emphasis on fire as a symbol of emotional intensity, ambition, and destruction, while water is often linked to emotional depth, relationships, and renewal. Both cultures recognize the destructive potential of both elements. Fire's destructive power is universally acknowledged in both idiomatic and literal senses, as is the potential for water to flood, overwhelm, or cleanse. However, the contrasting roles of fire and water—one often seen as unpredictable and the other as sustaining—highlight different cultural priorities: the Uzbek emphasis on continuity and spiritual renewal through water, and the English focus on the passionate, transformative power of fire.

The linguistic and cultural symbolism of fire and water is profound in both Uzbek and English. Through idioms and proverbs, these elemental forces are not only metaphors for nature's power but also for the complex array of human emotions, actions, and life experiences. Fire, with its dual capacity for destruction and creation, embodies the passion, risk, and change inherent in human endeavors. Water, conversely, represents stability, sustenance, and purification, offering a contrast to fire's unpredictable and often uncontrollable nature. This analysis of idiomatic expressions and proverbs from both languages provides a deeper understanding of how linguistic and cultural landscapes are shaped by elemental forces. While there are shared meanings across cultures, the distinct ways in which fire and water are perceived and used in idioms reflect each society's values, priorities, and worldviews. In the broader context of comparative linguistics, these findings underscore the importance of studying language not just for its structure, but for its reflection of human thought, culture, and nature. Understanding the cultural and symbolic meanings of fire and water can offer a valuable perspective on the ways in which humans interpret and relate to the natural world.

REFERENCES:

1. Makarov, V. (2009). *Cultural Significance of Natural Elements in Russian and Uzbek Proverbs*. Tashkent: National University Press.
2. Shakespeare, W. (1599). *A Midsummer Night's Dream*. London: Thomas Fisher.
3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.

UO'K 821.161.1

ANTONIM SO'ZLARNING SHE'RIY MISRALARDA QO'LLANILISHI

G.X.Axrarova, magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, asosan, maktab darsliklarida berilgan she'riy matnlarda qo'llanilgan omonim so'zlar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu vositalarning she'r badiiy qurilishi va mazmuniga yuklagan uslubiy xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *antonimiya hodisasi, lug'aviy antonimiya, grammatik antonimiya, kontekstual antonimiya, kontrar qarama-qarshilik, komplementar qarama-qarshilik, uslubiy ma'no.*

Аннотация*. В статье анализируются омонимы, используемые преимущественно в поэтических текстах, приведенных в школьных учебниках. Также обсуждаются стилистические особенности, которые эти средства накладывают на художественную конструкцию и содержание стихотворения.*

Ключевые слова: *явление антонимии, словарная антонимия, грамматическая антонимия, контекстуальная антонимия, контраргументативная оппозиция, комплементарная оппозиция, стилистическое значение.*

Abstract. *This article analyzes homonyms used in poetic texts, mainly in school textbooks. It also discusses the stylistic features of these devices on the artistic structure and content of the poem.*

***Keywords**: phenomenon of antonymy, lexical antonymy, grammatical antonymy, contextual antonymy, contrariety, complementary antonymy, stylistic meaning.*

Kirish. Jaloliddin Rumiy: "Har qanday ashyoning qiymati-uning ziddi bilan ayondir",- deb fikr bildiradi. Haqiqatan ham nimanidir qiymatini bilmoqchi bo'lsak, uni zid holati bilan qiyoslashimiz shart. Masalan, oq rangning sofligini qoraga qiyosan anglab yetamiz, yaxshining qadrini esa yomonga boqib anglaymiz.Aslida bu olamning ibtidosi ham ziddiyatlar asosida yaratilgan: tiriklik va o'lim, yer-u osmon, tun va kun.

Adabiyotlar tahlili va metod.

Ilm-fan olamida yangiliklarning jadal o'sishi jarayonida matnni ilmiy asosda o'rganish borasida ham zamonaviy yondashuvlar paydo bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan "Matn tilshunosligi" degan yangi bir fan paydo bo'ldi. Matnni lingvistik o'rganishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, o'zbek tilshunosligida o'tgan davr mobaynida matn lingvistikasiga doir salmoqli tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, V.V.Odinsovning "Tekst stilistikasi" (1980), I.R.Galperinning "Matn lingvistik tahlil obyekti sifatida"(1981), X.Doniyorov, B.Yo'ldoshevlarning "Adabiy til va badiiy stil" (1988), V.P.Belyaninning "Badiiy tekstning psixolingvistik aspektlari"(1988), N.M.Shanskiyning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili", M.To'xsanovning "O'zbek badiiy nutqida mikromatn va uning tabiati" (1987), A.Mamajonovning 1989-yilda nashr qilingan "Tekst lingvistikasi" nomli qo'llanmasi, Ma'rufjon Yo'ldoshevning "Badiiy matn lingvopoetikasi" (2008), "Badiiy matnning lisoniy tahlili" (2010) kabi kitoblarda matn va uning tiplari, badiiy matn va uning qismlarini bog'lovchi vositalar, badiiy nutq uslubi va uning ko'rsatkichlari, badiiy matninng fonetik, fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari hamda badiiy matnni tadqiqi etish tamoyillari haqida so'z yuritiladi. Maqolada, asosan, lingvistik tavsiflash va qiyoslash metodidan foydalanildi. She'riy matnlarda antonim so'zlarning ifodalanishi, shuningdek, muallif tomonidan ularning lingvistik tahliliga oid fikrlar bildirilgan.

Muhokama va natijalar

Til birliklarining o'zaro zid munosabatdagi ma'nolarni anglatishi asosida qarshilanishiga **antonimiya** deyiladi. Antonim yunoncha so'z bo'lib, "anti - zid, qarshi; onyma-ism" – degan ma'noni anglatadi. Antonimiya ikki til birligi orasidagi munosabatga qarama-qarshi, zid ma'noga asoslanadi. Bulardan biri ikkinchisiga nisbatan antonim bo'lib, ikkisi birlikda antonimik juftni hosil etadi. Avvolo, ikki xil antonimiyani ko'rsatish lozim:

1. Lug'aviy antonimiya – lug'aviy birliklarining o'zaro antonim bo'lishi: saxiy-baxil;
2. Grammatik antonimiya – grammatik birliklarning o'zaro antonim bo'lishi: o'rinli-o'rinsiz.[1]

Antonimlar tub (oz-ko'p), yasama (unumli-unumsiz) bo'ladi. Badiiy asarlarda, xalq maqollarida antonimlar emotsional-ekspressiv uslubiy vositalar sifatida nutqning ifodaliligi, ixchamligi, o'tkirligi uchun xizmat qiladi [2].

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:
a) kontrar qarama-qarshilik;

b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqlarning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvi. Masalan, kichik – o'rta – katta, yosh – o'smir – o'rta yosh – qari kabi. Bunda kichik va katta, yosh va qari leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in. Yuqoridagi o'rta leksemasida kichik va katta leksemalarining qarama-qarshiligi so'nadi. Demak, leksemalarining kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim. Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bog'insiz bo'ladi: rost -yolg'on, arzon - qimmat, oson - qiyin. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yo'q. Antonimiyada uch xil belgi bor:

1) shakliy (fonetik strukturasi) jihati har xillik;

2) ma'no jihatdan har xillik;

3) ma'nodagi o'zaro zidlik [3].

Kontekstual antonimiya - o‘zaro zid ma’no ifoda etmagan leksemalarning ma’lum kontekst ichida so‘zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatlarga kiritishidir. Bunday holatlar ko‘p hollarda she’riy misralarda uchraydi.

Ushbu she’rda ham aynan kontekstual antonimiyani uchratamiz:

Xormisan** yo **gulmisan,
Tojdormisan yo qulmisan,
Chug‘zmisan, bulbulmisan
Nolon o‘zing, xushxon o‘zing.. (E.Vohidov) [4]

Birinchi misradagi xor va gul leksemalari to‘g‘ridan to‘g‘ri zid bo‘la olmaydi. Lekin konteks talabi bilan xormisan so‘zi – “abgor bo‘lmoq” mazmunini bildirsa, gulmisan – ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, “gul kabi chiroyli yashamoq” mazmunida kelimoqda. Natijada bu ikki so‘z konteks talabi nuqtayi nazaridan o‘zaro zidlangan.

She’riy matnlarda antonimlarning ishlatilishi asarning mazmunini kuchaytirishga, hissiyotni yanada ta’sirchan qilishga xizmat qiladi. Shoir va yozuvchilar antonimlardan quyidagi maqsadlarni ifodalash uchun foydalanadi:

1. Tuyg‘u va kontrast yaratish: Qarama-qarshi tushunchalar qo‘llanganda, o‘quvchi ongida badiiy tasvir va his-tuyg‘ular uyg‘onadi. Hatto har bir misrada antonim so‘zlar qo‘llanishi ham mumkin:

Masalan,

Bu yorug‘ dunyo nadur?
***Koshona**dur, **vayrona** ham.*
Senga mehmonxonadur,
***Mehmon** o‘zing, **mezbon** o‘zing.*

*Bunda **oq** birla **qaro**,*
***Zulmat, ziyo, shoh-u gado**.*
Jang qilurlar doimo,
***Ul** yon o‘zing, **bul** yon o‘zing. (E.Vohidov) [4]*

Ushbu she’rda ajaratib ko‘rsatilgan so‘zlar antonim bo‘lib kelgan. Ijodkor bir misrada qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni qo‘llashi orqali o‘quvchida ikki xil muhitni muqoyasa qilishni, ularni solishtirib chiqishni badiiy maqsad qilib belgilagan.

2. Mazmunni kuchaytirish: Bir-biriga zid so‘zlarni ishlatish orqali she’rda aytilayotgan fikrni chuqurroq va o‘tkirroq ifodalash mumkin. Bu o‘quvchida katta taassurot qoldiradi.

3. Ritm va tovush uyg‘unligi: She’rda antonim so‘zlarning birgalikda kelishi ritm yaratadi va she’rning tovush uyg‘unligini kuchaytiradi. Bu esa she’rni eslab qolish osonroq bo‘lishiga yordam beradi.

4. Tasviriylik va obrazlilik: Qarama-qarshi tushunchalar tasvirni yanada jonli qiladi. Masalan, “sokin tun va quyoshli kun” kabi ifodalar tasviriylikni oshiradi, o‘quvchining tasavvurini boyitadi.

Ibora va maqollar mazmunni bo‘rttirish, jumlalarni o‘zaro qiyoslash maqsadida, asosan, qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan tashkil topadi.

Jumladan,

***Yoshlik**da bilgani – toshga yozgani,*
***Qarilik**da bilgani – muzga yozgani.*

*Yolg‘on aytib **foyda** ko‘rsang,*
*Oxiri **zarar** toparsan. [5]*

Antonimlik hodisasi faqatgina so‘zlar o‘rtasida emas, ko‘p ma’noli so‘zlarning ma’nolari o‘rtasida ham kuzatilishi mumkin. Bunday holat ma’noviy zidlik antonimiya hodisasining bir tarkibiy qismi – enantiosemiya deb nomlanadi. Enatiosemiya aslida nutqimizdagi bir leksemaning ikki xil, ya’ni zid ma’noda qo‘llanilishi hisoblanadi. Enantiosemiya bitta leksema ma’nosida nutqiy muhit talabiga ko‘ra semalar zidlanishining ifodalanishidir. Masalan, nutqda qo‘llanadigan yuviladigan kiyimlarni umumiy nom ostida “kir” deb ataymiz. Lekin yuvilib, toza holatga kelingan kiyimlarni

ham "kir" deyiladi. M*: Yomg'ir yog'ayatgani uchun dordagi kirlarni yig'ib oldim.* Bu misolimizda yuvilgan kiyim ham, yuvilmagan kiyim ham bir nom "kir" deb atalmoqda. Demak, mazmuniy zidlikni paydo qilmoqda.Ayrim o'rinlarda enantiosemiya hodisasi konteks bilan bog'liq holatda ham paydo bo'ladi. Ushbu she'rda aynan shunday holatni ko'rishimiz mumkin:

O'g'lidan aylardi umid
*Keltirar **rahmat** debon,*
*Barcha **«rahmat»** elning otgan*
Ta'nayi toshindadir. (Erkin Vohidov) [5]

Misralardagi rahmat so'zi ikki xil qarama-qarshi mazmunni ifodalab kelmoqda. Ular ijobiy va salbiy ma'noni anglatishi jihatidan zidlik hosil qilgan. Qo'shtirnoq belgisi aynan so'zning salbiylik bo'yog'ini shakllanishiga xizmat qilgan. Badiiyatda zid ma'nolilik asosida tazod san'ati yuzaga keladi. Lekin har qanday tazod san'atini hosil qila olgan so'z va sintaktik birliklar leksik jihatdan antonim bo'lib kela olmaydi. Chunki antonim deyilganda bir-biriga zid ma'no beruvchi yaxshi-yomon, oq-qora kabi so'zlar tushuniladi. Ba'zan matnda bular juft holatda qo'llaniladi. Bunday paytda aloqa zidlik hosil bo'ladi. Shuningdek matnda "bordi, bormadi" kabi so'zlar ham mazmuniy zidlikni ifodalash uchun qo'llaniladi. Lekin bunday birliklarda mazmuniy zidlik mavjud bo'lsa ham, antonim so'z sifatida qabul qilinmaydi. Masalan:

Gullar oqshom chog'ida, o'yga tolar emishlar,
***Quyosh botgan tarafga**, qarab qolar emishlar.*

So'ng barchasi subhidam sal iymanib, nozlanib,
Quyoshni kutar emish, sharq tomonga yuzlanib.

Faqatgina atirgul, sog'inch dog'lab ko'ksini,
Quyoshi ketgan yo'ldan olmas emish ko'zini.

***Ters tomondan kun chiqqach**, to'lib shabnam – ko'z yoshga,*
Hayrat-u araz bilan qayrilarmish quyoshga. (Mirzo Kenjabek)

Ushbu she'rda dastlabki baytdagi quyosh botgan taraf, ya'ni g'arb tomon haqida gap boradi. Oxirgi baytda esa quyosh botadigan yerga qarshi taraf "ters tomon" deya qo'llanadi. Bu baytlarda g'arb va sharq tomonga ishora qilingan. Muallif aynan ushbu jumlalar orqali zimdan mazmuniy zidlik asosida tazod san'atidan mohirlik bilan foydalangan.

Antonimlarning she'riy matnlardagi ahamiyati katta bo'lib, ular poetik ifoda vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Antonimlar she'riy matnlarda hissiy, falsafiy va estetik ta'sirni kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular orqali shoirlar ichki tug'yonlarini o'quvchiga ta'sirchanroq yetkazadi. She'riyatda antonim so'zlar poetik vosita sifatida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент, 1992.120б
2. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Бухоро, 2009. 67-68-б.
3. Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009. 83bet.
4. Ona tili. 10-sinf uchun darslik . Mengliyev B va boshqalar. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
5. Ona tili. 11-sinf uchun darslik. Mengliyev B va boshqalar. –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2020

UO'K 81.2'373.45

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MIQDOR KONSEPTIGA OID NEOLOGIZMLAR

M.A.Axunova, tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona
M.F.O'rmonova, tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Maqolada miqdor konseptining o'rganilishi va uning tasniflanishiga ko'ra, neologizmlarda aks etishi leksik-morfologik tomondan tahlil qilingan. Miqdor konsepti maydoniga kiruvchi so'zlar va ularning lug'aviy aniq ma'nolari, qo'llanilishi, foydalaniladigan sohalari o'rganilgan. Katta va kichik ma'nolarini beruvchi prefikslar va ular birikib kelayotgan so'zlar aniqlangan. Neologizmlarning asosiy qismi texnik yangiliklar, qurilmalar orqali jadal suratlarda*

kirib kelmoqda. Buning natijasida texnika yangiliklarni ifoda etuvchi so'zlarning o'zbekcha muqobil varianti topilmay turib neologizmlar tilimizga o'z holicha o'zlashib, muomalaga kirib ketmoqda. Izlanishlarimiz natijasida miqdorni anglatuvchi neologizmlar asosan ilm-fan taraqqiyoti natijasida hosil bo'lgan so'zlarni tashkil qilayotgani aniqlangan.

Kalit so'zlar: *konsept tushunchasi, miqdor konsepti, neologizm, makro-, mikro-, mega-, prefikslar.*

Аннотация. *В статье с лексико-морфологической точки зрения анализируется исследование понятия количества и его отражение в неологизмах согласно его классификации. Были изучены слова, входящие в область понятия количества, их точные словарные значения, применение и области употребления. Определены приставки со значением прописных и строчных букв и слова, с которыми они сочетаются. Основная часть неологизмов представлена в технических новостях, устройствах, в быстрых картинках. В результате неологизмы ассимилировались в наш язык и вошли в оборот, не найдя узбекской альтернативы словам, выражающим технические новости. В результате наших исследований установлено, что неологизмы, означающие количество, – это преимущественно слова, образовавшиеся в результате развития науки.*

Ключевые слова: *концепт, количественный концепт, неологизмы, макро-, микро-, мега-, приставки.*

Abstract. *The article analyzes the study of the concept of quantity and its reflection in neologisms from the lexical and morphological point of view, according to its classification. The words included in the field of the concept of quantity and their lexical specific meanings, application, and areas of use are studied. Prefixes that give the meanings of large and small and the words they are combined with are identified. The main part of neologisms is rapidly entering the language through technical innovations and devices. As a result, neologisms are being absorbed into our language without finding an alternative Uzbek version of the words expressing technical innovations and entering into circulation. As a result of our research, it was found that neologisms denoting quantity mainly constitute words formed as a result of the development of science.*

Keywords: *concept, concept of quantity, neologism, macro-, micro-, mega-, prefixes.*

Kirish. Bugungi kunda, tadqiqotchilar tilni turli tarafdan o'rganishmoqda. Tematik jihatdan til tahlilini osonlashtirish, albatta, konsept orqali sodir bo'ladi. Bu borada miqdor konseptining o'rganilishi ham yetakchilik qilmoqda. Miqdor konsepti turli soha va til bo'limlarda o'rganilar ekan, bevosita yetakchi va doimo rivojlanishda bo'lgan neologizmlar ham tadqiq etishga arzirli mavzudir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tilning turli leksik nuqtalarini konsept orqali ifodalash va idrok etish, tahlil qilish kognitiv tilshunoslikning asosiy tamoyillaridan biridir. Tilning konsept doirasidagi klassifikatsiyasi bugungi kunda tilshunos olim va izlanuvchilar tomonidan jadal suratda rivojlanib bormoqda.

S.A.Askoldov konsept tushunchasining turli tillardadagi izohi bo'yicha tadqiq olib brogan olimdir. Askoldov ilmiy tadqiqotlarida konseptga "konsept bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir" deb ta'rif bergan[1,28].Tilshunos olima N.D.Aryutunova o'zining imliy izlanishlarida konseptni falsafaning amaliy tushunchasi deb atab, u orqali milliy qadriyatlar, hayot tajribasi, din, jamiyat obrazlari kabi ko'plab omillar va fikrlash jarayoni o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi deya ta'kidlaydi. Shuningdek, konsept "insoniyat hamda tashqi dunyo o'rtasida bog'liqlik o'rnatuvchi madaniy qatlamni o'zida namoyon qiladi" degan fikrni ilgari surgan[2,3]. D.S.Lihachev «Концептосфера русского языка» nomli tadqiqot ishida ushbu konsept so'zining kelib chiqishi, hamda lug'aviy ma'nosi orqali insonning o'z dunyo qarashlari bilan to'qnashuvi natijasida vujudga keladigan fikrlash jarayonining natijasi sifati deya ta'riflaydi.

O'zbek tilshunosligi yirik namoyondasi Sh.Safarov fikriga ko'ra, "Inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalishda o'zlashtiradi. Moddiy dunyo idroki ayni paytda idrok

etilayotgan predmet – hodisalar haqida tushuncha tug‘ilishini, keyinchalik ushbu tushuncha mental na’muna – konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishni taqozo qiladi” [3,25].

Natija va muhokama. “Miqdor” arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, o‘zagi “qadar” so‘ziga borib taqaladi, o‘lchash, sanash mumkin bo‘lgan narsalarning oz-ko‘pligi, soni, chamasi, matematikada kesma uzunligi, sirt yuzi, jism hajmi va massasini, falsafada esa obyektning tashqi ko‘rsatkichlarini (kattaligi, soni, hajmi) ifodalaydi. Miqdorni ifodalovchi birliklarning xilma-xilligi va ko‘pligini inobatga olib unga faqat grammatik kategoriya sifatida qarab bo‘lmaydi, chunki son grammatik kategoriyasi “miqdor” konseptidan ko‘lamiga ko‘ra ancha kichik sanaladi. Insoniyat hayotida predmetlar mavjudligi, ma’lumotlarning axborotlarga aylanish jarayonida, olam manzarasini lisoniy va vizual ifodalanishida, doimo “miqdor” konsepti ishtirok etadi. Til va tafakkurning mushtarak aloqasi esa, miqdorni turli usullarda anglashga hizmat qiladi. “Miqdor”ni tadqiq qilish esa bizning tushunchamizdan ko‘ra farqli, kengroq va mukammalroq usulni talab qiladi. Shuning uchun “miqdor” zamonaviy tilshunoslikda ko‘plab olimlar tomonidan kognitiv lingvistikaning asosiy dastagi hisoblangan “konsept” bilan chambarchas holda o‘rganilmoqda.

Voqelikning lingvistik ongda “predmetlashuvi” konseptlar darajasida sodir bo‘ladi [4,61].

Dunyo tillarining lug‘at boyligi ilm-fan, texnologiya, ishlab chiqarish, globallashuv va davlatlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarining tez rivojlanishi tufayli keskin ortib bormoqda. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida har yili minglab yangi leksik birliklar paydo bo‘lar ekan. Yangi so‘zlar ilm-fanda “neologizm” atamasi bilan yuritiladi.

Tilshunoslikda ***neologizm*** atamasi (ingliz tilida neologism, /niˈɒləˌdʒɪzəm/; coinage /kɔɪnɪdʒ/) yunoncha (neo-yangi; logos-so‘z) “yangi so‘z” degan ma’noni anglatib, tilda har qanday nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan atama, so‘z yoki ibora bo‘lib, shunga qaramay foydalanuvchilar orasida yetarlicha mashhurlik e’tirofiga erishgan va asosiy tilga qabul qilingan birlik sifatida ta’riflanadi [5,601].

Son miqdor konsepti, matematikadan tortib, kundalik hayotdagi turli sohalarda muhim rol o‘ynaydi. Bu konseptni anglatuvchi neologizmlar, asosan, o‘lchov, va hisoblash bilan bog‘liq yangi tushunchalar va so‘zlar sifatida shakllanadi. Shuningdek, jadallashib rivojlanib borayotgan globallashuv, texnika taraqqiyoti va ijtimoiy hayotda tilimizga turli mazmundagi so‘zlar kirib kelmoqda. Jumladan miqdorni ifodalovchi, o‘zida son, o‘lchov atamalari, hajm ko‘lamlarini ifoda etuvchi yangi so‘zlar salmog‘i (shu o‘rinda, salmoq so‘zining o‘zi ham miqdorga aloqador sanalib, salmoq – og‘irlik, vazn, vazminlik, zalvor – ma’nolarida qo‘llanadi. Soni bor, salmog‘i yo‘q . Maqol [6,506]), talaygina. Ingliz tilida bu soha bo‘yicha paydo bo‘layotgan neologizmlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Large Language Model / LLM (noun) – *yirik til modeli* – bu murakkab qismli qo‘shma so‘z bo‘lib, *inson tilini tushunish va yaratish qobiliyatiga ega bo‘lgan kompyuter dasturi yoki sun’iy intellekt tizimi*ni ifodalaydi. Ular katta hajmli matnlarni neyron tarmoqlari orqali avtomatik tushunib, o‘zinining til ko‘nikmalarini rivojlantirib, so‘ngra matn hosil qiladi. Ular jamiyatdagi tilga oid turli qoidalarni, uslublarni va muloqot shakllarini o‘rganadi, bu esa LLM’ (el-el-em sifatida talaffuz qilinadi)larning insonlar bilan samarali va tabiiy tarzda muloqot qilishi, shuningdek, til va madaniyatning o‘zgaruvchan ijtimoiy kontekstini aks ettirishi uchun muhimdir. “Large Language Model” – “Large” asosan katta, ulkan, yirik deb tarjima qilinadi. Macmillan izohli lug‘atida *large*ga quyidagicha ta’rif berilgan: Large-bigger than usual in size, in number or amount[7,844]. Tarjimasi: odatiy miqdor, son yoki o‘lchamdan kattaroq o‘lcham.

Large Language Models (LLMs), such as ChatGPT and Bard, have revolutionized natural language understanding and generation. (Yifan Yao. A survey on large language model (LLM) security and privacy: The Good, The Bad, and The Ugly. 2 June 2024.)

Microtasking (verb) — *katta ishni kichik vazifalarga bo‘lib, ularni internet orqali ko‘plab odamlar orasida taqsimlash jarayoni*, zamonaviy jamiyatdagi yangi ijtimoiy va iqtisodiy strukturalarni aks ettiradi. Bu tushuncha, til va muloqotning o‘zgarishini, texnologik taraqqiyotning ijtimoiy jarayonlarga qanday ta’sir qilayotganini va yangi ishlash usullarini qanday shakllantirayotganini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Microtasking platformalari ko‘pincha internet orqali global darajada aloqalarni ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, til va muloqotning

kengayishiga va turli madaniyatlar o‘rtasida aloqa o‘rnatishga imkon beradi. Masalan, microtasking ishchilari o‘zaro ingliz, ispan, xitoy yoki boshqa tillarda muloqot qilishlari mumkin, bu esa ko‘p tilli muloqotni kuchaytiradi. Microtasking ko‘p turli ijtimoiy guruhlarga imkoniyat yaratadi, masalan, talabalar, uyda ishlovchilar, pensiyaga chiqqanlar, va boshqa mutaxassislar o‘z vaqtida mos keladigan vazifalarni bajarishlari mumkin. Bu yerda micro-prefiksi o‘ta kichik degan ma’noni bildiradi va ot va sifatlar bilan birgalikda qo‘llanadi (microchip). Mikro - so‘zi bugungi kunda ko‘plab texnik qurilmalar oldidan birga qo‘llanib, biror predmetning kichik variantini ifodalash uchun ishlatiladi.

Microtasking is contemplated as one of remunerative model of crowdsourcing, which utilizes the shared cognitive efforts of online crowd. (M. Zulfiqar. “Microtasking Activities in Crowdsourced Software Development: A Systematic Literature Review,”in *IEEE.2022.)*

Multitasking (verb) – Insonlarning *bir vaqtning o‘zida bir necha vazifalarni bajarish* qobiliyatini ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, texnologiyalar va internetning keng tarqalgan davrida juda muhimdir, chunki chunki ko‘plab qurilmalar va platformalar bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifalarni bajarishga imkon beradi. Multi-prefiksi ko‘p, bir qancha ma’nolarini berib, otlar va sifatlar bilan birgaqo‘llanadi(multimillioner).

Check back soon—we’ll add our full breakdown of how each Mac fares in practical scenarios, from *multitasking* and media editing to everyday computing tasks.(Brian Westover, *PCMAG*, 1 Nov. 2024.)

Greedflation (noun) – *korporativ foydalarni oshirish uchun kompaniya egalarining omillari orqali narxlarning umumiy ravishda ortishi va pulning qadrsizlanishi jarayoni*ni ifodalaydi. Shuningdek, iqtisodiyotda narxlar o‘zgarishini ko‘rsatadigan bir ko‘rsatkich sifatida qaralishi mumkin. Bu so‘z ko‘pincha jamiyatdagi, ayniqsa narxlar keskin oshishiga kurashayotgan va o‘z iqtisodiy holatini yaxshilashga urinayotgan guruhlar tomonidan norozilikni ifodalash uchun ishlatiladi.

A way to directly investigate if *“greedflation”* is at work is to look at profit rates. (Staff. You Decide: Is ‘Greedflation’ Keeping Prices High? May 17, 2024.Cals News.)

O‘zbek tilida ham turli sohalar doirasida miqdor konseptini ifodalovchi ko‘plab neologizmlar paydo bo‘lmoqda:

H-indeks (Hirsh indeksi, Hirsh nomeri) (ot) – *tadqiqotchining ilmiy ishlarining ilmiy hamjamiyatdagi ahamiyatini baholashda keng qo‘llaniladigan ilmiyometrik ko‘rsatkichdir*. Bu ko‘rsatkich, bir tomondan, tadqiqotchining chop etgan maqolalarining miqdorini, ularning nufuzini va ta’sirini, ikkinchi tomondan esa, boshqa olimlar tomonidan shu maqolalarga berilgan havolalar sonini hisobga oladi. H-indeks so‘zi asosan ilmiy tadqiqotchilar, olimlar, akademik muassasalar va ilmiy jamoalar tomonidan qo‘llanadi. Ular h-indeksni o‘zlarining ilmiy darajalarini ko‘rsatish, karyeralarini rivojlantirish yoki yangi grantlar olishda yordam beradigan bir ko‘rsatkich sifatida foydalanadilar. H-indeks, I10-indeks, Index Copernicus kabi iqtiboslar indeksini hisoblash uchun eng mashhur ma’lumotlar bazalari Web ofScience, Scopus va Google Scholar hisoblanadi.

Aynan *xirsh indeksiga* qarab olimning yoki ilmiy dargohning ilmiy salohiyati belgilanadi. (*Ashurov R. Xirsh indekslari. 21.02.2022.)*

2011-yil iyul oyidan boshlab, Google o‘z hisobidan avtomatik ravishda hisoblangan *h-indekslarini* va *i10-indekslarini* taqdim eta boshladi. (*Mirzakamol. H-index nima? 27.01.2020.)*

Bestseller (sifat) – *eng ko‘p sotilganlar ro‘yxatiga kiritilgan* mashhur kitob yoki boshqa keng tarqalgan nashr (masalan, musiqa albomi yoki kino). Bu atama asosan kitoblarga nisbatan omma orasida yetarlicha mashhurlikka erishganlikni bildiradi, huddi shunday, mashhur musiqani ifodalashda “xit”, kinoni ta’riflashda esa “blokbaster” terminlaridan foydalaniladi.

O‘zbek TV turk seriallariga ruju qo‘ygani kabi, noshirlar turk *“bestseller”*iga yopishib olishgan. (*Isomiddinov Z. Bizdagi tarjima muammolari.)*

Vikipediya (ot) – *ko‘p tilli, erkin, onlayn ensiklopediyaning o‘zbekcha varianti.*

Bu so‘z ikki atamaning birikmasidan iborat: “wiki” va “entsiklopediya”.

Wiki: Bu Gavayi tilidagi wiki so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tezkor” degan ma’noni anglatadi. Bu bir nechta foydalanuvchilarga birgalikda kontent yaratish va tahrirlash imkonini beruvchi veb-sayt turiga ishora qiladi.

Entsiklopediya: Bu keng ko‘lamli mavzular bo‘yicha, odatda maqolalar yoki yozuvlar shaklida ma'lumot beruvchi keng qamrovli ma'lumotnomaga ishora qiladi.

Shunday qilib, “Vikipediya” butun dunyo bo‘ylab foydalanuvchilar maqolalarga o‘z hissalarini qo‘shishlari va tahrirlashlari mumkin bo‘lgan tezkor, hamkorlikdagi, onlayn ensiklopediyaga ishora qiladi. U 2001-yilda ishga tushirilgan va shu vaqtdan boshlab internetdagi eng katta va eng mashhur axborot manbalaridan biriga aylandi va O‘zbekistonda ham keng qo‘llanmoqda.

Vikipediya o‘rtacha sekundiga 25 mingdan 60 minggacha so‘rovlarni qabul qiladi. Nafaqat ilmiy, balki keng auditoriya tomonidan oson kirish mumkin bo‘lgan va tez-tez yangilanadigan axborot platformasi sifatida ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega. (https://kun.uz/news/2020/02/23.)

Xulosa. Neologizmlar ko‘pincha yangi tushunchalarni ifodalash uchun yaratiladi. Bunday hollarda, miqdor konsepti yangi so‘zlar orqali ifodalanishi mumkin. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar yangi miqdoriy ko‘rsatkichlarni talab qilishi mumkin. Bu jarayonda yangi so‘zlar (neologizmlar) paydo bo‘ladi. Masalan, “digital detox” (raqamli detoks) iborasi, raqamli texnologiyalardan uzoqlashishning bir miqdoriy o‘lchovini ifodalaydi. Yangi so‘zlar va iboralar orqali muayyan hodisalarni yoki fenomenlarni tahlil qilish va baholash imkoniyati oshadi. Bu esa miqdoriy tadqiqotlarda yangi yondashuvlarni kiritishga olib keladi.

Miqdor konsepti va neologizm o‘rtasidagi aloqa tilning rivojlanishi, ijtimoiy o‘zgarishlar va yangi tushunchalarni ifodalash jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Neologizmlar orqali biz muayyan yangi miqdoriy ko‘rsatkichlarni anglashimiz va ifodalashimiz mumkin, bu esa tilning dinamikasini yanada boyitadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово.Ленинград. ст.28-44.1928
2. Арутюнова Н.Д. Введение // Логический анализ текста. Ментальные действия. – М.: Наука, 1993 с. 3-6.
3. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. “Сангзор” нашриёти,. 92-бет. 2006. 25-bet
4. “Involta” Innovation Scientific Journal Vol. 2 No.4 April (2023) 61 ISSN 2181-2632 www.involta.uz Lingvokulturologiya va kognitiv ilshunoslikda konseptual olam. Mohinur Tojiboyeva Sherali qizi
5. Anderson, James M. (2006). Malmkjær, Kirsten (ed.). The Linguistics Encyclopedia. London: Routledge. p. 601. ISBN 0-203-43286-X.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.I. / Ma’sul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. – 506 bet.
7. Macmillan, J. (2007) Macmillan English Dictionary for Advanced Learners. Macmillan Education: London.844p.
8. O‘rmonova M. Neologizmlarning til rivojiga ta’siri (ingliz va o‘zbek tillari misolida) // “FarDU. Ilmiy xabarlar” jurnali, 30(4), 2024.—B. 295-298.
9. O‘rmonova M. Ingliz tili neologizmlarning tarqalishida asosiy til vositasi sifatida // Iqro indexing, 11(02), 2024. – B. 573-576.
10. O‘rmonova M. Neologizmlar tadqiqining ahamiyati // “Madaniyatlararo muloqotni o‘qitishda lingvodidaktikaning zamonaviy yondashuvlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. FarDU – 2024. B – 1182-1186.
11. Mirzayeva D., O‘rmonova M. Lingvomadaniy birliklar // Science and Education 3 (10), 2022. – B.654-658.
12. Mirzayeva D., O‘rmonova M. “Aql va aqlsizlik” konseptiga oid paremalarning lingvomadaniy tadqiqi // International conferences. 1 (21), 2023. — B. 60-65.
13. Ganiyeva D., Urmonova M. The value of teaching students the concept “wisdom” // Fergana state university conference, 2023. – B. 306-311.
14. Zuhriddin Isomiddinov. Bizdagi tarjima muammolari. Vol. 1 No. 4 (2024): O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.
15. M. Axunova, S. Yusupova Son kategoriyasining qo‘llanilishi va uning ingliz va o‘zbek tillarida qiyoslanishi// SAI. 2022. №B7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/son-kategoriyasining-qo-llanilishi-va-uning-ingliz-va-o-zbek-tillarida-qiyoslanishi (дата обращения: 19.12.2024).

16. Axunova Moxidil. Miqdor konsepti. Son kategoriyasini o‘rganishdagi qiyosiy-lingvistik tahlil. Nordic science practical e-journal. Volume-2. 21 june 2024

17. Axunova, M. (2024). Zamonaviy tilshunoslikda "lingvomadaniy maydon" tushunchasi. *Talqin Va Tadqiqotlar*. извлечено от https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2631

18. https://ogoh.uz/29545/21.02.2022.

19. https://uz.genomics.uz/yangiliklar/news_post/h-index-nima.27.01.2020

20. kun.uz

21. http://uz.m.wikitionary.org/wiki/miqdor

22. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bestseller.

UO'K 81-13

"YOSH" KONSEPTI ASOSIDA MADANIY-PRAGMATIK QADRIYATLARNING LINGVISTIK TALQINI

S.A. Azimova, o‘qituvchi, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon
0009-0008-4580-1895

Annotatsiya. *Mazkur maqolada "yosh" konsepti asosida turli madaniy kontekstlarda shakllangan qadriyatlar va ularning pragmatik ifodalanish xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil etiladi. Xususan, yoshga nisbatan hurmat, mavqe, ijtimoiy rol va madaniy stereotiplar milliy urf-odatlar bilan qanday uyg‘unlashgani o‘rganiladi. Nutqdagi uslubiy vositalar, metaforik ifodalar, nomlash shakllari va kontekstga xos til birliklari orqali yosh konsepti madaniy va ijtimoiy tafakkurda qanday kodlanganiga e'tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *yosh konsepti, madaniy pragmatika, nutqiy kontekst, ijtimoiy stereotip, til va madaniyat, metaforik ifoda, ijtimoiy maqom.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются культурные ценности, связанные с концептом «возраст», и их прагматическое выражение в разных культурных контекстах. Анализируется, как через язык отражаются социальные роли, иерархия, уважение и стереотипы, связанные с возрастом. Особое внимание уделяется метафорическим выражениям, культурно обусловленным обращениям и прагматике возрастной идентичности в узбекской и международной речевой практике.*

Ключевые слова: *возрастная концепция, культурная прагматика, дискурсивный контекст, социальный стереотип, язык и культура, метафорическое выражение, социальный статус.*

Abstract. *This article explores how cultural values shaped by the concept of "age" are pragmatically and linguistically expressed across various cultural contexts. It analyzes the relationship between age and social hierarchy, respect, naming conventions, and metaphoric representations in Uzbek and global discourses. Special attention is given to the interaction of language and culture in expressing age-based identities and roles within specific communicative situations.*

Key words: *age concept, cultural pragmatics, discourse context, social stereotype, language and culture, metaphorical expression, social status.*

Kognitiv lingvistikada konsept tushunchasini o‘rganish ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Har qanday konsept mohiyatini anglashga bo‘lgan harakat ushbu fenomen bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa tushuncha va atamalar mavjudligini anglashga olib keladi. Bular, avvalo, konsept, tushuncha va ma'no kabi asosiy terminlardir. Ushbu masala bo‘yicha tadqiqotchilar soni qancha bo‘lsa, nuqtai nazarlar ham shuncha ekanligi kuzatiladi. Y.S. Stepanovning 1990-yilda qayd etishicha: "Tushuncha (konsept) so‘z ma'nosi bilan bir xil tabiatga ega bo‘lgan hodisadir, ammo u boshqa munosabatlar tizimida ko‘rib chiqiladi. Ma'no til tizimida, tushuncha esa mantiqiy munosabatlar va shakllar tizimida mavjud bo‘lib, u tilshunoslik va mantiq fanlari doirasida tadqiq etiladi" [1; 124]. So‘nggi o‘n yillik ichida ushbu tushunchani anglash sezilarli darajada o‘zgardi.

Konsept — so‘z va ekstralingvistik reallik o‘rtasidagi vositachi bo‘lib, u faqat lug‘aviy ma’no orqali to‘liq ifodalanib bo‘lmaydi. Bu nuqtai nazar S.A. Aksoldov tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, unga ko‘ra “Konsept lug‘aviy ma’nodan ancha kengroq qamrovga ega” [2; 280].

V.N. Teliyaning fikricha, konsept inson tafakkuri mahsuli bo‘lib, ideal hodisa hisoblanadi. U tayyor shaklda mavjud bo‘lmaydi, balki o‘zining til vositalaridagi ifodasi va ekstralingvistik bilimlar orqali rekonstruksiya qilinadi [3; 312].

Bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra, konsept – inson tafakkurining asosiy birliklaridan biri bo‘lib, u madaniy va kognitiv jihatdan muhim bo‘lgan dunyo haqidagi tasavvurlarni aks ettiradi. Ushbu tushuncha nafaqat so‘zning lug‘aviy ma’nosini, balki unga bog‘liq bo‘lgan assotsiatsiyalar, hissiy tajribalar va madaniy kontekstlarni ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Tilda, xususan, o‘zbek tilida yosh ma’nosini anglatuvchi leksik birliklarning shakllanishi uzoq tarixiy shakllarni bosib o‘tgan. Ayni davrda o‘zbek tilida inson umrining tug‘ilgandan boshlab o‘tkazgan vaqti, bu davrdagi har bir yil “yosh” so‘zi bilan nomlanadi. O‘zbek tilidagi frazeologizm va paremiyalarda, badiiy adabiyotlarda “yosh” konsepti chaqaloq, bola, o‘smir, o‘spirin, ayol, er, xola, ona, bolakay, yigit, juvon, amaki, kampir, chol, doda, momo, qariya, kampir, chol, buvi, bobo, ena, ota, leksemalari bilan ifodalanadi. Albatta, ularning orasidagi asosiy tafovutlardan biri “yosh” masalasidir.

Bundan tashqari, konseptlar statik hodisa emas, balki dinamik tuzilmalar bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan yangi tajribalar, ma’lumotlar va madaniy ta’sirlar natijasida rivojlanishi va o‘zgarishi mumkin. Shaxs yangi stimul va tashqi omillar bilan o‘zaro ta’sirga kirishgani sari uning konseptual bilimi takomillashishi, kengayishi yoki yangi tushunchalar va qarashlarga mos ravishda qayta tashkil etilishi mumkin.

“Yosh” konsepti esa vaqt o‘tishini o‘lchash hamda shaxsning hayot bosqichidagi holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu tushuncha bir nechta o‘lchovlarni o‘z ichiga oladi, jumladan:

- Xronologik yosh – shaxs tug‘ilganidan boshlab o‘tgan vaqtni o‘lchash.
- Biologik yosh – organizmning fiziologik holati va qarish jarayonining individual xususiyatlari.
- Psixologik yosh – shaxsning kognitiv va emotsional rivojlanish darajasi.
- Ijtimoiy yosh – jamiyat tomonidan shaxsga yuklatilgan rollar va kutilmalar.

Yosh konsepti turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. Yosh bilan bog‘liq tushunchalar va ulardan foydalanish usullari pragmatik xususiyatlar orqali namoyon bo‘ladi, ya’ni yosh kishining ijtimoiy mavqeyi, vazifalari, stereotiplari va umidlarining kontekstga qarab qanday shakllanishi tahlil qilinadi. Quyida yosh konseptining turli kontekstlarda qanday qo‘llanilishi va ularning pragmatik jihatlari ko‘rib chiqamiz.

Ijtimoiy kontekstda, masalan bilamiz-ki jamiyatda yoshning ijtimoiy maqomi va rollariga ta’sirini sezishimiz mumkin. Yosh insonning jamiyatda qanday rol o‘ynashi, huquq va majburiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Yosh bilan bog‘liq ijtimoiy stereotiplarni ham uchratishimiz mumkin, masalan: yoshlar tajribasiz, yoki qariyalar dono bo‘ladi. Biroq shunga qaramasdan yosh turib muvaffaqiyatlarga erishgan o‘g‘il-qizlarga nisbatan: *“Aql yoshda emas, boshda”* degan naql ishlatiladi. Bunday ko‘rinishlar turli xalqlarda o‘zicha namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy holatlarda yoshiga qaramasdan katta mansablarda ishlaydigan yoshi kichikroq xodimlarga nisbatan ismiga qo‘shib otasining ismi bilan atash muhimdir, masalan: Dilshod Abduvohidovich, yoki xalq tilida “ustoz”, “domla”, “opa” deb murojaat qilinadi, ba’zi hududlarda o‘qituvchini ulug‘lab “oya” deb ham chaqiriladi. Bu xalqning mansabdorlarga va bilimli shaxslarni yoshiga qaramay ulug‘lashini ko‘rsatadi. Tarixda ma`lumki, hoqonlar o‘zlarini raqibidan ustunligini ko‘rsatish uchun qo‘shni podshohga kichraytirib “o‘g‘lim” deb murojaat qilgan. Masalan, Chingizxon Xorazmshoxga yo‘llagan maktubida “menga o‘g‘il bo‘l” deb yozgan, Amir Temur Klavihodan Ispaniya qiroliga yozgan maktubida ham “o‘g‘lim”, albatta biz sening yurtlaringda uchrashamiz ma`nosida xat yozgan. Bu uning o‘sha yurtlarga qo‘shin tortib bormoqchi ekanligidan dalolat edi.

Endi esa madaniy kontekstni ko‘rib chiqamiz. Yosh madaniy va diniy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, har bir xalqning an’analari va urf-odatlarida namoyon bo‘ladi. Madaniy kontekstda yosh

milliy urf-odatlar va qadriyatlar orqali shakllanadi. Sharq va G‘arb madaniyatlari o‘rtasidagi farqlar yoshga munosabatda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- Sharqda yoshlarning keksalarni hurmat qilishi muhim qadriyat: *Erman buvi (O' Hoshimov), Farmon bibi (Said Ahmad)*
- G‘arbda mustaqil va yosh bo‘lish ijtimoiy muvaffaqiyat mezoni hisoblanadi. Shuni ta‘kidlash kerakki, g‘arbda yoshi kattalar ham o'zlarini maqomini bildiradigan *(Miss, Mr)* kabi so‘zlarni qo‘shmay faqat ismini aytib chaqirishlarini ma'qul ko‘radi, agar u juda rasmiy bo‘lmasa. Chunki g‘arb madaniyatida yosh bo‘lish ko‘proq ma'qullanadi. Yoshi kattalar ham o‘larini yoshdek his qilishni afzal ko‘radilar.

Masalan: Yaponiyada keksalar hayotiy tajriba va donolik ramzi hisoblanadi; G‘arb jamiyatida yoshlik innovatsiya va kreativlik bilan bog‘lanadi; O‘zbekistonda 25 yoshda to‘y qilish odatiy hol hisoblanadi.

Metaforik va badiiy kontekstni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak yosh badiiy tilda metaforalar, poetik tasvirlar va obrazlar orqali ifodalanadi va u odatda tabiat hodisalari, fasllar va vaqt o‘tishi bilan bog‘lanadi. Nutqda yosh badiiy ifodalar yordamida yanada ta'sirchan tasvirlanadi. Poetik va tasviriy nutq ko‘proq adabiyot, she'riyat va publitsistikada qo‘llaniladi. Masalan: *Yoshlik – bahor faslidek yashil va go‘zal; Qarilik – kuzning ohangdor lekin xotirjam oqshomiga o‘xshaydi; Inson hayoti tongdan to kechga qadar o‘tgan bir kun singari.umuman olganda yoshlik, ya'ni beg‘ubor go‘daklik hamma narsaning muqaddimasini anglatadi. U umidlarga to‘la davr bo‘lib hamma narsaga ijobiy boqishni anglatadi. Qarilik esa "hurmat", "e'tibor" kabi tushunchalarni anglatish bilan birga butun bir boshlangan kun bo‘lsin yoki muhim ish, uni nihoyasini anglatadi.*

Psixologik kontekstda esa yosh insonning hissiy, psixologik va kognitiv rivojlanish bosqichlarini anglatadi va psixologik jihatdan har bir yosh davri o‘ziga xos xatti-harakatlar va hissiy holat bilan ajralib turadi. Misollar: *O‘spirinlik davrida inson shaxsiy identifikatsiya jarayonini boshdan kechiradi; Qarilik – hayotiy tajriba va o‘zlikni anglash bosqichidir. Bola dedi: "Katta yigit bo‘lsam kosmonavt bo‘laman". Onasi: "Avval bolam yaxshi o‘qigin, akangga o‘xshab institutlarga o‘qishga kir".* Yuqoridagi misolda bola tezroq o‘sib ulg‘ayishni chin yurakdan istaydi. Odatda kichik yoshdagi bolalarda katta bo‘lishga ishtiyoq kuchli bo‘ladi. Ularning psixologiyasida yoshlik komplekslaridan qutilib, tezroq o‘ziga ishonch tuyg‘usini his qilishni xohlaydi. Ularning nazdida katta odamlarda muammo kam bo‘ladi, ular hamma narsani qila oladilar.

Yosh konsepti turli kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. Har bir kontekst uning pragmatik jihatlariga ta'sir ko‘rsatadi va nutqda turli uslubiy xususiyatlarni shakllantiradi**.** Ushbu tahlil yosh tushunchasining lingvistik va madaniy jihatdan murakkabligini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotida yosh konseptiga alohida e`tibor qaratiladi, chunki bizning mentalitetda yosh iyerarxiyasi muloqotda katta rol o‘ynaydi. Vodiy ahli o‘zidan bir yosh kattalarni ham hurmatlab "aka", "opa" deb murojaat qilishadi. Bu suhbatdoshiga bo‘lgan hurmatni anglatadi. Kundalik hayotda, bozor, ko‘cha-ko‘yda erkaklar yoshi noma`lum ayollarga o‘zlaridan yosh bo‘lsa ham "opa" deb murojaat qilishadi. Chunki urf-odat bo‘yicha o‘zganing ahli ayolini "singlim" deb atash uni erkalashga yaqin bo‘lib qoladi. Har xil nojo‘ya munosabatlardan qochish uchun "opa" deb yuzlanish shubhali fikrlardan holi qiladi. Xuddi shu holat Toshkent va boshqa hududlarda "opa"ning o‘rniga "kennoyi", "yanga" deyish kuzatiladi. Andijon shahri yigitlari ichida bir – biriga tengdoshlar, "oshna" deb murojaat qilishadi, tumanlarda esa "do‘sim" deyishadi, yurtimizning boshqa hududlarida "o‘rtoq" deyish keng yoyilgan. Agar yigit kishi ko‘cha-ko‘yda ish bajarmoqchi bo‘lsa u suhbatdoshiga "aka" deb murojaat qiladi, qarshi tomon ham unga shunday "aka" deb javob qaytaradi. Bu ularning bir-biriga samimiy ishbilarmonlik munosabatini anglatadi: - *Assalomu alaykum aka, poliklar necha pul ekan? – Aka, bizda arzon, besh yuz mingga "Spark" rusumli avtomobilingizni qurchoqdak yasatib qo‘yamiz. – Aka sal qimmatroq emasmi? – Aka ishoning gapimga bozorda bundan ma`qul tanlov topa olmaysiz.* Bu inglizlarda ishbilarmonlik va rasmiy holatlarda bir-biriga "Mister Kee", ya`ni "Janob Ki" deb murojaat qilinishiga o‘xshaydi. Bu ruslarda, ba`zan o‘zbeklarning rasmiy holatlarida otasining ismini qo‘shib aytish bilan teng: "Уважаемый Геннадий Александрович", o‘zbekchada "Hurmatli Dilshodbek Abduvohidovich".

Xulosa qilib aytganda, yosh konsepti suhbatda tomonlarning bir-biriga bo‘lgan hurmat va ehtiromni, his tuyg‘usini, erkalatishni, obro‘sini pasaytirishni, mavqe darajasini ko‘rsatishni angaltadi. Yosh kategoriyasini anglatuvchi so‘zlar o‘zaro munosabatlarda suhbatning ma`naviy darajasini oshiradi va tilning boyligini ko‘rsatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Stepanov Y.S. *Konsepty. Teoriya i metody*. Moskva: Nauka, 1990. – 124 b.
2. Aksoldov S.A. *Konsept i slovo*. – In: Russkaya slovestnost, Moskva, 1928. – 267-280 b.
3. Telia V.N. *Russkaya frazeologiya: Semanticheskiy, pragmaticheskiy i lingvokul'turologicheskiy aspekty*. Moskva: Nauka, 1996. – 312 b.

UO'K 81'25

IBORA VA GAP KO‘RINISHIDA UCHROVCHI EPITETLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI TAMOYILLARI

M.B.Azizova, tayanch doktorant, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi J.Rouling asarlarida uchrovchi gap va ibora ko‘rinishida keluvchi epitetlarning o‘zbek tilga tarjima xususiyatlari batafsil yoritilgan. Maqolada foydalailgan distributiv, komponent-analiz va qiyosiy metodlar gap-ibora shaklidagi epitetlarning lingvistik hamda tarjima xususiyatlari to‘g‘risida to‘liq tushuncha berishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Gap-ibora shaklli epitetlar, struktur-semantik yaxlitlik, ekvivalentlik, eksplikatsiya, so‘zma-so‘z tarjima transformatsiyasi.*

Аннотация. *В данной статье подробно рассматриваются особенности перевода эпитетов в форме предложений и фраз из произведений английской писательницы Дж.К. Роулинг на узбекский язык. В статье использованы распределительный, компонентный анализ и сравнительный методы, которые помогают полностью понять лингвистические и переводческие особенности эпитетов в форме предложений и фраз.*

Ключевые слова: *Эпитеты в форме предложений и фраз, структура-семантическая целостность, эквивалентность, экспликация, дословная трансформация перевода.*

Abstract. *This article provides a detailed analysis of the translation features of epithets, which appear in the form of sentences and phrases, from the works of the English writer J. Rowling into the Uzbek language. The distributive, component analysis, and comparative methods used in the article serve to provide a comprehensive understanding of the linguistic and translation characteristics of epithets in sentence-phrase form.*

Keywords: *Sentence-phrase epithets, structural-semantic integrity, equivalence, explicature, word-for-word translation transformation.*

Kirish. Stilistikasining asosiy unsurlaridan biri bo‘lgan uslubiy vositalar, jumladan epitet stilistik vositasi tasvir kuchini yaqqol namoyon qilishda, tasvirlanayotgan belgi-xususiyatni uslubiy tarzda qo‘shimcha metaforik ma’noni mujassam etgan holda ko‘rsatib berishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida epitet atamasiga “narsa, voqea, hodisa va shu kabilarning sifat-fazilatlarini yaqqol, jonli tasvirlash yoki tasvirli qilib ko‘rsatish uchun ularning nomiga qo‘shib ishlatiladigan sifatlovchi so‘z” [1] sifatida tarif berilgan.Epitetni birinchi bor qo‘llanilish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, uni mashhur qadimgi yunon shoiri Gomer asarlarida foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin. U o‘zining “Iliada” va “Odisseya” dostonlarida bir qancha epitetlardan foydalangan. Misol uchun, u O‘rta yer dengizini “wine-dark sea”-“sharobli qorong‘u dengiz” va donolik ma’budasi Afinani “grey-eyed”- “kulrang ko‘zli” deb ta’riflaydi.[2] Ya’ni bu yerda kulrang ko‘z atamasiga o‘tkir ko‘z, hattoki barcha yolg‘onlarni ham ko‘ra oluvchi va fosh qiluvchi aqlli ko‘z tarzida sifatlash berilgan. Birinchi bor epitet atamasi ingliz tilshunosligida 1579-yilda muomalaga kirgan.[3]

Materiallar. Tilshunos olim Galperin epitet vositasini tadqiq qilishi davomida uni ikki turga bo‘lgan: semantik va strukturali.[4] Ushbu tadqiqot ishining obyekti hisoblangan gap va ibora shaklida uchrovchi turi struktura jihatidan tasniflanuvchi turiga mansub hisoblanadi. Epitetning aynan ushbu shaklidan manbalarda, xususan badiiy adabiyotda foydalanish yozuvchidan yuksak

mahoratni talab etadi. Sababi obyekt, voqea-hodisa yoki shaxsning belgi-xususiyatini yaxlit gap yoki ibora shaklidagi birlik ichida ifoda etish murakkab vazifa hisoblanadi. Bu tadqiqot materialining manbasi bo‘lgan ingliz yozuvchisi J.Roulingning “Garri Potter” geptalogiyasida ushbu turdagi epitetlarning ko‘p o‘rinlarda qo‘llanganini ko‘rish mumkin. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilgan tarjimonlar A.Tolipov va J.Solijonov hamda rus tilidan o‘zbek tiliga bilvosita tarjima qilgan Sh.Dolimovning tarjima talqinlarida bu turdagi epitetlar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari va tarjimada yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar berib o‘tilgan.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot ishida murojaat qilingan asosiy metodlardan distributiv, komponent tahlil va qiyosiy tahlil metodlari gap-ibora ko‘rinishidagi epitetlarning tarjimasida adekvatlik va konkretlikka erishishga yordam berishga xizmat qildi. Misol uchun bu turdagi epitetlarning nafaqat denotativ balki konnotativ ma’nosini ochib berish distributiv usulda, ya’ni yondosh til birliklariga ham e’tibor berishni talab qiladi. Gap va iborali epitetlarni komponentlarga bo‘lgan holda o‘rganish orqali asl ma’nosini tushunish tarjimada ham adekvat tarjima talqinini berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tadqiqot manbayining turli tarjimonlar tomonidan o‘zbek tilga o‘girilgani gap-iborali epitetlarning tarjima variantlarini qiyosiy tahlil qilish, chuqur o‘rganish va batafsil ochib berishga yordam beradi.Iborali va gap ko‘rinishida uchrovchi epitetlar esa o‘z nomiga ko‘ra iborali va to‘liq gap ko‘rinishda keladi. Masalan, ingliz adabiyotining modernizm va zamonaviy davri vakillari ijodi ushbu epitetlar misollariga boy hisoblanadi: “There is a sort of “*Oh-what-a-wicked-world-this-is-and-how I-wish-I could-do-something-to-make-it-better-and-nobler*” expression about Montmorency”[5] yoki “Hermione gave Ron a don’t-joke-about-things-like-that look and said.”[6].Ibora-gapli epitetlar odatda “air”, “attitude”, “expression” kabi kalit so‘zlari orqali aniqlanadi va sifatlovchi (epitet) vazifasini bajaruvchi gap va iboralardan keyin ot so‘z turkumi funksiyasida keladi. “Garri Potter” romanlarida uchrovchi iborali va gapli epitetlar ham yuqoridagi sifatlarni o‘z ichiga oladi va misollarning ko‘p qismi “expression”, “tone”, “voice”, “look” kabi yordamchi so‘zlar bilan ifodalangan.Joan Roulingning “Garri Potter” romanlar turkumida mazkur turdagi epitetning faol qo‘llanilishi badiiy uslubga xos ekspressiv bo‘yoqdorlikni kuchaytirishga va asar mazmunini boyitishga xissa qo‘shgan.

Muhokama va natijalar. Sh.Dolimov va asarning 1-qismini ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita tarjima qilgan J.Solijonovlarning tarjima talqinlari ilmiy tadqiqotimizning asl maqsadi va vazifalarini mufassal yoritib berishga asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bilvosita va bevosita tarjimada asar mazmuni, undagi ifodalangan har bir lisoniy birlikning qayta talqini shubxasiz tafovutga ega, ya’ni bevosita manba tilidan maqsadli tilga o‘girilgan badiiy manbaning tasvir va ta’sir kuchi sezilarli darajada aniq, to‘g‘ri va tushunarli bo‘ladi.Ingliz tilidagi “tarjima metodi”ga (translation method) OALD (Oxford Advanced Learner’s Dictionary) lug‘atidagi “metod” atamasiga asoslanib (”biror narsani amalga oshirishning maxsus bir yo‘li, rejalashtirish yoki tashkil etish”),[7]shuningdek, P.Nyumark, N.Nelyubin, Mildred Larsonlar fikriga ko‘ra “tarjima metodini yaxlit matnni tarjima qilishga qaratilgan usul”deb ta’rif berish mumkin. Vinay va Darbalnelar ham tarjima metodlari haqida fikr yuritar ekan, ularni ikki turga bo‘lishni ilgari surgan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima (direct) va erkin (free, oblique) tarjima metodlari Aznaurova, Komissarov, Barxudarov va Qambarovlar esa yaxlit matnda keluvchi kichik lisoniy birliklar tarjimasi uchun tanlangan yo‘lni “tarjima transformatsiyalari” deb atashgan.[8] Tarjima transformatsiyalari esa mazkur ikkala tarjima metodlarining u yoki bu turiga mansub hisoblanadi. Ushbu nazariyalarga asoslanib, mazkur maqolada ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima (direct) metodi doirasida so‘zma-so‘z tarjima transformatsiyasi va erkin (free, oblique) tarjima metodlari doirasida “ekvivalent” tarjima transformatsiyasiga murojaat qilingan.Ibora va gap ko‘rinishida keluvchi epitetlar ham yaxlit gap yoki iboraviy birlik shaklida o‘zidan keyin keluvchi ot so‘z turkumining xususiyati, sifatini ochib bera olishi kerak, ya’ni yaxlit holdagi gap yoki ibora sifatlovchi shakliga o‘tkazilishi, lekin gapni tashkil qiluvchi komponentlar saqlab qolinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ma’no kuchi va ta’siri asarning asliyatdagi ko‘rinishidagidek o‘xshash darajada bo‘lishi ta’minlanadi. Bunga yaqqol misol qilib geptalogiyaning 1-qismida keluvchi aynan iborali epitetlar tarjimasini har ikki tarjimon yaratgan talqinida berib o‘tamiz.

Sh.Dolimov tarjimasi	J.Solijonov tarjimasi

A good for nothing husband [9]	To‘pori er [10]	A good for nothing husband	Takasaltang er [11]

Mazkur jadvaldagi iborali epitetning ikkala tarjima talqinida ham ekvivalentlik tarjima transformatsiyasi asosida tarjima qilinishi mazmunni to‘g‘ri ochib berishga xizmat qilgan. Ingliz tilidagi mazkur iboraning o‘zbek tilidagi ekvivalent (muqobil) varianti ikkala tarjimon tomonidan ham to‘g‘ri tanlangan deb aytish mumkin. Shuningdek, sifatlovchili ibora+sifatlanmish, ya’ni sifatlovchi+ot strukturasi saqlanib qolgan. Bizningcha esa, o‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi ibora “tepsa-tebranmas er” iborasiga o‘zgartirgan holda tarjima qilish maqsadli til auditoriyasiga tushunarliroq hamda o‘zbek tili madaniy kontekstiga ham mos bo‘lishiga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Ma’lumki, ibora ko‘rinishida uchrovchi epitetlar tarjimada qayta yaratish qiyin bo‘lgan birliklar hisoblanadi. Chunki, har bir tilning frazaelogik qatlami o‘ziga xos farqli xususiyat va ko‘rinishlariga ega. Manba tilidagi ayni bir iboraning maqsadli tildagi munosib talqinini topib tarjima qilish uchun tarjimonlar asosan ekvivalent (muqobil) tarjima usuliga murojaat qiladi. Muqobil tarjima esa eng murakkab usullardan biri hisoblanadi va aynan ibora shaklidagi epitetlar tarjimasi ham ekvivalentlikka asoslangan tarjima usulini talab qiladi. Bu o‘rinda nafaqat muqobillikni saqlab qolish, balki ushbu muqobil talqinni saqlagan holda epitetning belgi-xususiyatni ifodalovchi sifatlovchilik xususiyatini ham saqlay bilish muhim hisoblanadi. Misol uchun, “Garri Potter va Azkaban mahbusi” qismida qo‘llanilgan “fry-up for me of an evening” [12] iborali epitetida “fry-up for me of” jumlasi “evening” ot so‘z turkumidagi so‘zga nisbatan sifatlovchi vazifasini bajarayotganligini ko‘rishimiz mumkin va uni maqsadli tildagi ekvivalent varinatini aniqlab, so‘ng sifatlovchi ko‘rinishiga o‘tkazilishi shart, aks holda tarjimada ibora ko‘rinishidagi epitet ibora shakliga o‘tib qolishi mumkin.Bu esa muallif nazarda tutgan iboraning ma’no tashish xususiyatini to‘liq ochib berilmasligiga sabab bo‘ladi. Bu ibora ham “shosha pisha ovqatlanaman”[13] shaklida erkin tarjima metodi doirasida eksplikatsiya transformatsiyasi bilan sifatlovchilik xususiyat namoyon qilinmagan holatda tarjima qilingan. Strukturaning buzilishi, ya’ni sifatlovchi funksiyasini bajaruvchi iboraning muqobil talqini berilmaganligi, uning o‘rniga iborali sifatlovchining yaxlit bir gapga aylantirilishi ma’no nozikligiga putur yetkazgan, yozuvchining ma’no kuchaytirishga urg‘u bergan epitet-iborali qismi qaytadan yaratilmagan. Bizning talqinda “qo‘l uchida tayyorlangan kechki ovqat” shaklida tarjima qilish yuqoridagi ta’kidlangan talablarga to‘liq mos keladi deb hisoblaymiz. Sababi, milliy-madaniy tafovutlarni hisobga olib amalga oshirilgan ushbu tarjima talqini adekvatlikni ta’minlaydi.Yana bir misol, “all for best expression” [12;2] iborasi Sh.Dolimov va A.Tolipovlar tomonidan bir xil “nimaiki qilinsa, yaxshilik yo‘liga” tarzida tarjima qilingan, ya’ni muqobil tarjima transformatsiyasi foydalanilgan.Bizningcha esa, “hammasi yaxshilikka” iborasi o‘zbek tilida keng qo‘llanuvchi ibora bo‘lib, mazkur iborani qo‘llagan holda tarjima qilish iborali epitet birligi mazmunini kengroq ochib berishi mumkin.Gap shaklida beriluvchi epitetlarga misollar ham “Garri Potter” romanlar turkumida ko‘p uchraydi. Biroq, epitetning aynan gap ko‘rinishida uchrovchi ushbu turi tarjimasi nisbatan murakkab vazifa ekanligi bilan xarakterlanadi. Chunki, bu turdagi epitetning tarjimasi nafaqat semantik adekvatlikni saqlash balki struktur yaxlitlikni ham tarjimada qayta aks ettirishni taqozo etadi. Agar strukturaviy birlik buzilsa, o‘z navbatida ma’no nozikligiga ham sezilarli darajada putur yetadi. Misol uchun, tahlil manbayimizda uchrovchi gap va ibora ko‘rinishida keluvchi epitetlar muallif tomonidan asar qahramonlarining ruhiy holati, his-tuyg‘ulari yoki vaziyatning murakkab yoki osonlik darajasini, bir so‘z bilan aytganda asardagi tasvirlanayotgan muhitning belgi-xususiyatlarini bo‘rttirib, yana ham kuchaytirib ko‘rsatish uchun foydalanilgan. Masalan, asarning 7-qismida uchrovchi “I’ve-Faced-Worse’ Potter” [14] misolida ushbu tasvirlovchi epitetni nutqida qo‘llagan asardagi personaj, ya’ni Garri Potterning do‘sti Ron Uisley Potterning qahramonlik, har ishga tavakkalchilik bilan yondashish xususiyatlarini qattiq kinoya ostiga olgan holda, ushbu sifatlovchini achchiq kesatiq ma’nosida qo‘llaydi. Tarjimada “Qahramon Potter bundan battarini ko‘rgan” [15] tarzida so‘zma-so‘z transformatsiyasi bilan tarjima qilinib ushbu kinoya qisman saqlab qolingan, lekin muallifning asosiy maqsadi, ya’ni ironiyaga boy “men”lik, xudbinlik xususiyatini tasvirlashga xizmat qiluvchi “I’ve faced”-“Men ko‘rganman” birinchi shaxs bilan yasalgan iboraning xususiyati tarjimada yo‘qolgan. Gap shaklidagi epitetning kuchli kesatiq ma’nosini ifodalab kelgan aynan ushbu qismi o‘z ma’no kuchini nisbatan yo‘qotgan va eng asosiysi sifatlovchilik xususiyat ham

yo‘qolib, epitet yaxlit ko‘rinishdagi gapga aylanib qolgan. Bizning fikrimizcha, “ ‘Men bundan ham battarini ko‘rganman!’ Potter” tazrida tarjima qilish yuqoridagi talablarga mos keladi, ya’ni mazku tarjimada struktur-semantik muvofiqlik saqlab qolingan.

Xulosa. Xulosa shundan iboratki, ibora va gap ko‘rinishida keluvchi epitetlar tarjimasida eng asosiy hisoblanuvchi muammo bu-ularning manba tilidan maqsadli tilga o‘girilganda struktur-semantik ma’noni saqlab qola bilmaslikdir. Chunki aynan gap ko‘rinishida keluvchi epitetlar bir qarashda gap birligiga o‘xshashi tarjimonni chalg‘itadi va oqibatda epitetli birlik tarjimada gapli birlikka aylantirib yuboriladi. Bu esa o‘z navbatida ma’no nozikligiga putur yetishiga, badiiy bo‘yoqdorlikni yo‘qolishiga olib keladi. Bundan tashqari, ayrim ibora-gapli epitetlar maqsadli tilda muqobil(ekvivalent) variantini topa bilishni talab qiladi. Ekvivalentlik muammosi ham tarjimada yuzaga keladigan muammolardan biridir. J.Roulingning “Garri Potter” romanlar turkumida uchrovchi ibora va gap ko‘rinishida keluvchi epitetlar tarjimasida ham ushbu qiyinchiliklar va kamchiliklar masalasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bizning tarjima talqinimizda esa ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ibora-gapli epitetlar misollari qaytadan tarjima qilindi va struktura xususiyatini va semantik muvofiqlikni saqlab qolishga erishildi. Bu jarayonda biz tarjimon tanlagan tarjima metodi va texnikalariga ergashgan holda so‘zma-so‘z va eksplikatsiya hamda ekvivalentlik (muqobil) tarjima qilish transformatsiyalarini qo‘lladik va bu usulda adekvat tarjimaga erishildi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.Toshkent, 2014.123-b.
2. Homer. Odyssey. Fagles R.trans. New York, 1996, p 541, p 183.
3. https://www.merriam webster.com/dictionary/epithet.
4. I.R.Galperin. English Stylistics. Moscow, 1981.p 328, p 158 .
5. Jerome K.Jerome. Three men in a boat. Chapter IV, Project Gutenberg, p 286, p 20.
6. J.K.Rowling. Harry Potter and goblet of fire. London, 2016. Bloomsbury, p 378, 617 p.
7. Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary. Oxford, 2015. Oxford University Press, p 963.07.05.2024
8. Йўлдошев У. Бадиий таржиманинг лингвостилистик ва лингвокултурологик хусусиятлари. Самарқанд, 2022. Самарқанд давлат чет тиллар институти нашриёти, 170 b, 46 b.
9. J.K.Rowling. Harry Potter and the philosopher’s stone. London, 2014. Bloomsbury, p 332, p 2.
10. Dolimov Sh. Garri Potter va afsonaviy tosh. Toshkent, 2018. Adabiyot uchqunlari, 368 b, 2 b.
11. Solijonov J. Garri Potter va afsunlar toshi. Termiz, 2015. Surxon-nashr, 400 b, 2 b.
12. J.K.Rowling. Harry Potter and the prisoner of Azkaban. London, 2014.Bloomsbury, p 462, p 8.
13. Dolimov Sh. Garri Potter va Azkaban mahbusi. Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2020.318 b, 7 b.
14. J.K.Rowling. Harry Potter and the deathly hallows. London, 2014.Bloomsbury, p 620, p 420.
15. Dolimov Sh. Garri Potter va ajal tuhfalari.Toshkent, 2020.Ilm-ziyo-zakovat, 704 b, 514 b.

UO‘K 81'27

OLAMNING LISONIY MANZARASINI HOSIL QILISHDA QO‘LLANILADIGAN LISONIY HAMDA NOLISONIY OMILLAR TAHLILI

N.Sh.Barotova, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Biz ushbu ilmiy maqolamizda zamonaviy tilshunoslikning birmuncha yangi tarmoqlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya sohasida tilga olinadigan “olamning lisoniy manzarasi” tushunchasining nazariy hamda amaliy jihatlariga urg‘u beramiz. Ishimizda ushbu konseptual tushunchaning ilk bor olimlar tomonidan qaysi sohalarda ishlatilganligi va ularning bu boradagi qarashlari yoritilgan. Shuningdek, “olamning lisoniy manzarasi” ma’lum bir tildagi milliylik, qadriyatlar, dunyoqarash shakllanishida o‘z aksini topishi, ayniqsa til va madaniyat o‘rtasidagi asosiy ko‘prik sifatida qaralishi ham misollar yordamida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lisoniy shaxs, olam manzarasi, manzara, lingvistik relativizm, strukturalizm, verbal, estetik vositalar, metafora, idioma.*

Аннотация. *В данной научной статье мы подчеркиваем теоретические и практические аспекты понятия «языковой картине мира», упоминаемого в области лингвокультуры, которая является одной из новых отраслей современного языкознания. В нашей работе выделены области, в которых данное концептуальное понимание было использовано учеными впервые, и их взгляды на этот счет. Также на примерах раскрывается, что «языковая*

картина мира» отражается на формировании национальности, ценностей и мировоззрения в определенном языке, тем более, что он рассматривается как главный мост между языком и культурой.

Ключевые слова: *языковая личность, мировоззрение, пейзаж, лингвистический релятивизм, структурализм, вербальное, эстетические средства, метафора, идиома.*

Abstract. *In this scientific article, we emphasize the theoretical and practical aspects of the concept "linguistic picture of the world" mentioned in the field of linguo-cultural studies, which is one of the new branches of modern linguistics. In our work, the fields in which this conceptual understanding was used by scientists for the first time and their views on this matter are highlighted. It also reveales factors that impact to form the "linguistic picture of the world" as nationality, values, and worldview in a certain language, especially that it is considered to be as the main bridge between language and culture.*

Key words: *linguistic personality, world view, picture, linguistic relativism, structuralism, verbal, aesthetic means, metaphor, idiom.*

Kirish. Barchamizga ma'lumki, "nutqiy faoliyat" tafakkur mahsuli o'laroq yuzaga keladi. Tafakkur esa milliy-madaniy ong platformasida shakllanadi va mana shu murakkab antropotsentrik jarayon elementlari bo'lgan til, tafakkur va milliy mentalitet o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosi bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tilni madaniyatdan ajratib o'rganib bo'lmaydi. Har bir til negizida o'sha millat madaniyati, urf-odat va an'analari yotadi. Har qanday til lisoniy shaxs tomonidan tafakkur etilar ekan, unda o'zining anglashilgan olami, uning manzarasi yotadi. Lisoniy shaxs esa til orqali olamni idrok etish, tasavvur qilish va ifodalash jarayonida markaziy rol o'ynaydi. Lisoniy shaxs, ya'ni tilni gapiruvchi yoki yozuvchi sifatida odamning til orqali o'z dunyoqarashini, his-tuyg'ularini, tushunchalarini va tajribalarini qanday ifodalashini aniqlaydi. Olamning lisoniy manzarasi esa, o'z navbatida, shaxsning til yordamida olamni qanday tushunishini, tasavvur qilishini va madaniyatdagi o'rnini aks ettiradi.

Asosiy qism. Bugungi kunda lingvokulturologiya sohasida o'zining o'rniga ega bo'lgan "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasi ko'p yillardan buyon barcha tilshunos olimlar e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ushbu atamani biz avvalo falsafa faniga aloqador "olam manzarasi" tushunchasiga bog'laymiz. Insonning olamga (tabiatga, hayvonlarga, o'z o'ziga) bo'lgan munosabatini olamning lisoniy manzarasi shakllantiradi. Har qanday tabiiy til dunyoni bilishning muayyan usulini aks ettiradi. Unda ifodalangan ma'nolar muayyan qarashlarda, o'ziga xos jamoaviy falsafada mujassamlashadi va barcha til egalari uchun majburiylik kasb etadi. Natijada mazkur tilda so'zlashuvchilar dunyosi shakllanadi. Ushbu jarayon olamning lisoniy manzarasi bo'lib, u leksikologiya, frazeologiya, grammatika va hokazo tilshunoslik bo'limlarida muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasiga aylanadi.

"Olamning lisoniy manzarasi" termini birmuncha keng mazmunga ega tushuncha bo'lib, uni o'rganishda biz, avvalo, yaqindagina ilmiy-falsafiy qarashlar predmetiga aylangan "olam manzarasi" atamasiga e'tibor qaratishimiz lozim. Ushbu atama ilk bor XIX asr oxiri va XX asr boshlarida fizika sohasi doirasidan o'rtaga olib chiqildi. Mazkur atamani ilk bor G.Gers olamning fizikaviy manzarasini tashqi predmetlarning ichki obrazlar majmui sifatida talqin etishda qo'llagan. Mantiqan ular orqali aynan ana shu predmetlarning xususiyatlari haqida biror bir ma'lumot olish mumkinligini ta'kidlagan [10].

Olam manzarasini yaratish inson hayot faoliyatining zaruriy shartlaridan ekanligini A.Eynshteyn shunday tarzda asoslagan: "inson qandaydir yo'l bilan o'zida olamning sodda va tiniq manzarasini yaratishga intiladi. Bu unga hissiyotlar dunyosidan uzilib, ma'lum darajada yaratilgan manzara bilan almashtirishga urinish imkonini beradi. Mazkur manzarani shakllantrishda inson o'zining notinch hayotida topa olmagan tinchlik-xotirjamlik va ishonchga ega bo'lish maqsadida ma'naviy, ruhiy dunyosining barcha og'irliklarini unga ko'chiradi [1]".

Endi biz lingvokulturologiya sohasiga kirib kelgan va o'zining turli xildagi variantlariga ega bo'lgan, ya'ni: "oraliqdagi lisoniy dunyo" (V.I. Abayev), "olamning qayta lisoniy aks etishi" (T.M. Dridze), "olamning lisoniy modeli" (V.Gumboldt), "olamning lisoniy manzarasi" (B.A.

Serebrennikov) tushunchasiga e'tiborimizni qaratsak [10]. Dunyodagi har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini yaratadi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo'lishidagi muhim omildir. Inson faoliyat jarayonida obyektiv dunyoni aks ettirar ekan dunyoni bilish natijalarini so'zda, nutqda qayd etadi. Olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obyektiv bilimlarni to'ldiradi. Lisoniy shakllarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi deb nomlanadi [11]. "Olamning lisoniy manzarasi" terminidagi "manzara" ("картина") so'zida biz, eng avvalo, biror narsaning in'ikosi (aks etishi) haqida o'ylaymiz, ammo, mazmunan, "olam manzarasi" tushunchasi borliqni tasvirlovchi manzarani emas, balki, tushunchalarni manzara sifatida ifodalaydi. M.Xaydeggerning qayd qilishicha, "manzara" so'zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o'ylaymiz, olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi. Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o'rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo'ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o'ng-chap, Sharq-G'arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o'lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi esa olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo'la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo'lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o'zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida anglaydi. Bu o'rinda, "milliy tajriba" tilning barcha darajadagi o'ziga xos xususiyatlarini belgilashini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Tilning o'ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko'radi [6].

Olamning lisoniy manzarasi tushunchasining ilk qarashlari va fikrlarining mualliflari, asosan, tilshunoslikning rivojlanishining boshlang'ich bosqichlarida kognitiv lingvistika va lingvistik relativizm (tilning realitetga nisbati) nazariyalarini ilgari surgan olimlardir. Ulardan biri **lingvistik relativizm** (tilning realitetga nisbati) nazariyasining asoschisi Benjamin Li Uorfdir. Unga ko'ra, tilning strukturasiga qarab, odamlar dunyoni turlicha idrok etishadi. Ya'ni, biror tilda mavjud bo'lgan so'zlar va iboralar dunyo haqidagi tushunchalarni shakllantiradi. Agar biror tilda aniq tasavvurlar mavjud bo'lsa, u tildan foydalanadigan shaxslar uchun ularning dunyoqarashlari ham boshqacha bo'ladi [7]. Uning bu nazariyasi olamning lisoniy manzarasini tushunishda juda muhim bo'lib, til orqali olamning qanday tasvirlanishi va qabul qilinishi haqida dastlabki fikrlarni shakllantirdi. Uning til va tafakkur haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovor jumlalardir, olimning fikricha, har bir xalqning o'ziga xos milliy tafakkur tarzi mavjud. Tilshunos olim "If Newton had not spoken English, had not thought in English, his great discovery of the universe would have been somewhat different",ya'ni "agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo'lardi" degan g'oyani ilgari surganida ham, ana shu ingliz tili asosidagi o'ziga xos ingliz tafakkur tarzini nazarda tutgan. Til orqali reallashadigan tafakkur tarzining o'ziga xosligi borliqni ko'rishning, idrok etishning ham ma'lum ma'nodagi o'ziga xosligidir. Har bir xalq o'zicha ko'radi, eshitadi, zavqlanadi va uni lisonda namoyon etadi.

V.A.Maslova o'zining olamning lisoniy manzarasi haqidagi "Связь мифа и языка" kitobida: "olam manzarasini insonning dunyo haqidagi bilimlari tashkil etadi va u individual hamda ijtimoiy ong negizida yotadi. Til esa o'z navbatida, bilish jarayoni talablarini ado etadi va turli tillarda so'zlashuvchi odamlar, muayyan vaziyatlarda bir-biriga yaqin, o'xshash konseptual olam manzaralarini namoyon etishlari mumkin. Bir tilda so'zlashuvchilar esa, ulardan farqli o'laroq, turli dunyo manzaralarini o'z onglarida yaratadilar"-deb yozadi [3].

Olamning lisoniy manzarasi haqidagi birinchi fikrlar va qarashlar ko'plab olimlar tomonidan yaratilgan bo'lib, ularning ishlari til va tafakkur o'rtasidagi aloqalarni va tilning dunyoni qanday aks ettirishi va tushunishi haqidagi g'oyalarni o'z ichiga oladi. Ularning nazariyalari olamning lisoniy manzarasini tushunishda muhim asoslar yaratgan.

Amaliy qism. Olamning lisoniy manzarasi tilni nafaqat semantik jihatdan, balki madaniy, estetik va ijtimoiy jihatdan ham tushunishga yordam beradi. Olamning lisoniy manzarasi tushunchasini biz lingvokulturologiyada chuqur o'rganamiz, chunki u bu sohada ko'pgina vazifalarni bajaradi va ularni tilda namoyon etadi. **Ushbu tushuncha** til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro

bog‘liqlikni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega, chunki til va madaniyat bir butunlik sifatida o‘rganiladi. U til va madaniyatning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi va tilning madaniyatga oid ma’nolarni shakllantirishdagi o‘rnini belgilaydi. Olamning lisoniy manzarasi turlicha shakllanadi va uning ko‘p variantliligi kishining ijtimoiy tajribasiga bog‘liq, ya’ni ma’lum bir tilda so‘zlovchi shaxsning his qilish, tushunish, anglash, idrok etish dunyosi qancha bo‘lsa, shuncha olam manzarasi mavjuddir. Olam manzarasi bu insonning hayot faoliyatini boshqaruvchi unsuri sifatida ideal tasavvurlar xazinasi bo‘lmish inson ongi, psixikasi, ruhidagina keng ma’no kashf etib qolmay, balki odamlarning xulq-atvori, moddiy-hissiy amaliyoti, madaniyat mahsulotlari kabilarda ham o‘z ifodasini topadi. Har bir til dunyoni o‘ziga xos ravishda ko‘radi va uning sohibi o‘z jumlalarini mazmunan shu manzaraga muvofiq ravishda tuzishi va yaratishi kerak bo‘ladi. Inson ongida yillar davomida shakllanib keladigan bunday konseptual tizim jismoniy va madaniy tajriba orqali aniqlanadi. Shuning uchun ham madaniyatshunoslar e’tiborni, eng avvalo, subyektga bog‘liq bo‘lgan olam manzarasining xilma-xilligi faktiga qaratadilar, subyekt esa alohida inson, odamlar to‘dasi, ma’lum bir xalq, umuman, insoniyat bo‘lishi mumkin.

Masalan, o‘zbek tilida so‘zlab, shu millat, madaniyat vakili bo‘lgan inson uchun “quyosh” so‘zi ko‘plab ijobiy ma’nolarda: issiq kunni ifodalashda “quyoshli”, bo‘yoqdor so‘z sifatida “quyosh kabi porlamoq”, o‘xshatish san’ati sifatida “quyosh yuzligim”, erkalab chaqirishda “quyoshim” kabi ma’nolarda qo‘llanilib kelinadi. Ammo ushbu so‘z arab davlatlarida yashovchi va so‘zlovchilar uchun yoz paytida ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirilib, salbiy baholanadi. Bundan shuni anglashimiz mumkinki, “quyosh” so‘zi faqat tabiat hodisasi emas, balki ikki til madaniyatlaridagi farqli birikma hamdir.

Yoki ingliz tilidagi “family” (oila) so‘zini oladigan bo‘lsak, bu so‘z inglizlar madaniyatida ko‘pincha bir-birini qo‘llab-quvvatlaydigan, bir-biriga yordam beradigan ijtimoiy tuzilma sifatida ishlatiladi. Shuningdek, “home” (uy) tushunchasi ham o‘ziga xos, go‘zal va qulay joy sifatida tasvirlanadi. Ingliz tilidagi “house” hamda “home” leksik birliklari o‘zbek tilidagi “uy” tushunchasiga mos keladi, lekin ushbu so‘zlar o‘rtasida semantik jihatdan farqlar mavjud, zero “house” so‘zi bino, insonlar yashaydigan konstruksiya sifatida gavdalansa, “home” kishilar bir-birini hurmat qiladigan, e’zozlaydigan, bir-biriga suyanadigan, mehr-muhabbat urqib turadigan bir go‘sha, makon sifatida tasavvur etiladi. Ingliz kishisi “home” so‘zini eshitganida qulay va shinam, o‘zini erkin tutishi mumkin bo‘lgan joyni, sevimli jihozlarini, bir piyola issiq choyni, uy hayvonlarini eslashadi. Shuningdek, bu tushunchalar oilaning ijtimoiy ahamiyatini va o‘zaro yordamni ham ifodalaydi.

Olamning lisoniy manzarasi inson dunyoqarashi shakllanishida ham muhim o‘rin tutib, til va dunyoqarashning bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Til yordamida insonlar atrof-muhitni, tabiatni, ijtimoiy muhitni va o‘z hayotini qanday tushunishi va idrok etishini anglash mumkin. Tilsiz odamlar o‘z dunyoqarashini ifodalash va tashkil qilishda qiyinchiliklarga duch kelgan bo‘lar edi. Til orqali biz dunyoni tasvirlaymiz va shu orqali u haqidagi tushunchalarimiz shakllanadi. Til inson dunyoqarashining, fikrlash doirasining qanchalik rang-barangligini ko‘rsatadi va bu qarashlar lisoniy shaxs ongi orqali tilda namoyon bo‘ladi. Masalan, lisoniy shaxsning dunyoqarashi va fikrlash tarziga ko‘ra ba‘zi xalqlarda tabiatni tasvirlashda ko‘proq emotsional, estetik ifodalar (ramzlar, metaforalar) ishlatiladi, boshqalarda esa rasmiy yoki ilmiy tushunchalar afzal ko‘riladi. O‘zbek tilida biz tabiat tushunchasini “ona tabiat”, “ona zamin”, “yashil makon”, “osmon osti saltanati” kabi metaforalar yordamida tasvirlaymiz, chunki biz o‘zbek tilida so‘zlovchilar dunyoqarashida tabiatga bo‘lgan iliq munosabat va ulkan mehr-muhabbat shakllanib kelgan.

Bundan tashqari, olamning lisoniy manzarasi orqali madaniyatdagi qadriyatlar, hayotga qarashlar, yurtga bo‘lgan munosabat va boshqa tushunchalar tilga ko‘chadi va shu tarzda ular avloddan-avlodga o‘tadi. Biz o‘zbek tilida lug‘atimizda foydalanib kelayotgan “sodiqlik”, “vafodorlik” kabi so‘zlarni olsak. Bu so‘zlar biz o‘zbek xalqi, madaniyati uchun shunchaki oddiy tushunchalar emas, balki avloddan-avlodga ko‘chib, qon-qonimizga singdirilib kelayotgan madaniyatimiz mahsuli sifatida ham qaraladi. O‘zbek millatiga xos har bir inson ruhida shakllanib ulgurgan ushbu so‘zlar, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda va har bir ish faoliyatimizda o‘z izini ko‘rsatib kelmoqda.

Xulosa. "Olam manzarasi" yoki "olamning lisoniy manzarasi" kabi tushunchalar zamonaviy tilshunoslik xazinasini boyitib kelayotgan birmuncha yangi tushunchalardan biri bo'lsada, u haqidagi biz yuqorida keltirgan olimlar fikr va qarashlari, amalga oshirilib kelayotgan ishlar uning o'rni tilshunoslikda kundan-kunga tobora muhim o'rin tutayotganligidan dalolatdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, olamning lisoniy manzarasi inson ongida mavjud olam manzarasining til vositalari orqali yuzaga chiqarish, uni tilda namoyon qilishdir. Anglashilgan dunyo in'ikosi esa nafaqat oddiy til vositalari yordamida, balki turli xil iboralar, metaforalar yoki emotsional vositalar yordamida ham o'z ifodasini topadi. Tilda aks etgan lisoniy birliklar esa inson ongida amalga oshadigan kognitsiya jarayonidan o'tib, yillar davomida shakllanib boradi, inson ongida anglashilgan, sintezlangan, taraqqiy etib kelgan bo'ladi. Yuqoridagi misollardan ham shuni anglash mumkinki, olamning lisoniy manzarasini to'g'ridan-to'g'ri reflekslar vositasida anglab bo'lmaydi, uni faqat "o'z boshidan kechirish" orqaligina tushunish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бондарко А. В. коллективная монография"Проблемы функциональной грамматики." — М.: 2003.
2. Маматов А.Э. Лингвомаданиятшунослик. Лингвокультурема ва логоэпистема. Хорижий филология. Самарканд: СамДЧТИ, 2015. № 1
3. Маслова В.А. Связь мифа и языка. Фразеология в контексте культуры. М.: 1991.
4. Потебня А.А. Мысль и язык. Слово и миф. М.: Правда, 1989.
5. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. -М., 1993
6. Хайдеггер М. Исток художественного творения//М. Хайдеггер. Работы и размышления разных лет. — М.: Гнозис, 1993. -С.47-120
7. Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. -М., 1960. -Вып. 1. -С. 174
8. F.de.Sossure "*Course in General Linguistics"*
9. J.Lakoff, M.Jhonson "*Metaphors We Live By*
10. A.Ma'matov "Zamonaviy lingvistika", 66-bet
11. Sh.Usmanova "Lingvokulturologiya" darslik, Toshkent 2019,76-bet

UO'K 82

ADABIYOT OLAMIDA ROMANTIZM YO'NALISHDAGI IJOD QILGAN ADIBLAR (XVIII -XIX YEVROPA XXI ASR O'ZBEK ADABIYOTI MISOLIDA)

S.B.Begmatova, talaba, SamDU Urgut filiali, Urgut

Annotatsiya. *Ushbu maqolada romantizm adabiy yo'nalishining XVIII–XIX asr Yevropa adabiyotidagi shakllanishi va rivoji, shuningdek, XXI asr O'zbekiston adabiyotidagi yangi talqini tahlil qilinadi. Tadqiqotda Gyote, Bayron, Gyugo kabi Yevropa romantiklari va Xurshid Davron, Usmon Azim, Muhammad Yusuf singari zamonaviy o'zbek adiblarining ijodi o'rganilgan. Maqolada romantizmning har bir adabiy makonda o'ziga xos shakllanishi, umumiy va farqli jihatlari, uning zamonaviy adabiyotdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Romantizm, sufizm, panteizm, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm, epitet, o'xshatish, metafara, jonlantirish, giperbola, lirizm, realizm.*

Аннотация. *В данной статье анализируется становление и развитие романтизма как литературного направления в европейской литературе XVIII–XIX веков, а также его новое осмысление в узбекской литературе XXI века. В исследовании рассматриваются произведения таких европейских романтиков, как Гёте, Байрон, Гюго, а также современных узбекских писателей — Хуршида Даврона, Усмона Азима и Мухаммада Юсуфа. Путём сравнительного анализа раскрывается, как в их творчестве отражаются романтическое мировоззрение, душевные переживания, образы природы и символы мечты.*

Ключевые слова*: Романтизм, суфизм, пантеизм, рабовладение, феодализм, капитализм, социализм, епитет, сравнение, метафора, олицетворение, гипербола, лиризм, реализм.*

Abstract. *This article analyzes the formation and development of the Romantic literary movement in 18th–19th century European literature, as well as its modern interpretation in 21st-century Uzbek literature. The research examines the works of European Romantic writers such as*

Goethe, Byron, and Hugo, alongside contemporary Uzbek authors like Khurshid Davron, Usmon Azim, and Muhammad Yusuf.

Key words: *Romanticism, sufism, pantheism, slavery, feudalis, capitalism, socialism, epithet, simile, metaphor, personification, giperbola, hyperbole, lyricism, realism.*

Adabiyot inson tafakkurining, ruhiyatining, tarixiy va madaniy taraqqiyotining yorqin ko‘zgusidir. Turli davrlarda shakllangan adabiy yo‘nalishlar insoniyat tafakkurining o‘zgaruvchanligini, san’atga bo‘lgan yondashuvlar rang-barangligini aks ettiradi. Har qanday ijodiy metodning qimmati uning chinakam hayot qonuniyatlarini ochib berish darajasi, istiqbollarini ko‘rsatish va mazmunni ifodalashdagi qudrati, ta’sirchanligi va go‘zaligiga qarab belgilnadi Ularning boshqa ijodiy metodlardan ajralib turishining farqi shundaki, romantizm va realizmning adabiyotda hayotni aks ettirishdan, ya’ni haqiqatdan hayotda bo‘lgan voqealarda kuzatilgan maqsadlarga ko‘proq muvofiq kelishi ijod tajribasida isbotlandi. XVIII–XIX asr G‘arb adabiyotida keng yoyilgan romantizm yo‘nalishi ham ana shunday adabiy oqimlardan biri bo‘lib, insonning ichki dunyosi, orzu-umidlari, ruhiy iztiroblari, tabiat va muhabbat mavzularini ilgari surdi. Bu yo‘nalish realizmga qarshi reaksiya sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘zining falsafiy chuqurligi, emotsional kuchi va estetikasiga ega bo‘lgan yirik adabiy oqim sifatida tarixda muhim o‘rin egalladi.

Romantizm yo‘nalishi 1789-1794 yillardagi fransuz burjua inqilobiy o‘zgarishlariga javob sifatida tug‘iladi va keng jamoatchilik doiralarining feodal tartiblari, cherkov va burjua voqeligidan noroziligi ifodasiga aylandi. Har bir ijodiy yo‘nalish asosida davr falsafasi turadi. Romantizmga G‘arbda panteizm (xudo), musulmon Sharqda esa, sufizm (arabcha, jun, sufiylar jun chakmon kiyganligi) asosdir. Har ikkisida ham hayot, koinot, tabiat, xudo jilolanishidan iboratdir, deb qaraladi. [1]

Romantizm yo‘nalishining bosh xislati “idealga ya’ni, o‘zining g‘oyaviy dunyosiga moslab hayotni qayta yaratish” dir, ya’ni orzu qilingan voqelikni tasvirlashdir; ana shu hayot qahromonlarining afsonaviy kuch-qudratga egaligini, mo‘jizakorligini ideallashtirishdir. Adabiyot olamida ikki xil romantizm, ya’ni reaksion va ilg‘or romantizm maydonga kelgan edi. Reaksion romantizm vakillari o‘z zamonlaridan chekinib, yo qoloq o‘tmishga murojaat qilardilar yoki real voqellika aloqasi bo‘lmagan mayda orzu, mavhum, uydirma, bachkana, befoyda xayollar dunyosidan mavzu olar edilar.

Romantik metodning asosiy xususiyatlaridan yana biri har qanday jamiyat (quldorlik, feodalizm, kapitalizm, sotsializm)ning antigumanistik mohiyatini doimo fosh etish va qoralashdir. Ijodda va hayotda erkinlik, shaxs ozodligi va komilligi uchun kurashdir. Bu xususiyat hamma romantik ijodkorlar faoliyatida pafos darajasiga ko‘tarilgan, o‘lmaydigan ruh bag‘ishlaydigan «hamma xalqlarda va hamma zamonlarda umumiy bo‘lgan hodisadir» (V. G.Belinskiy). [2]

Yevropa adabiyotshunosligida Gyote, Bayron, Gyugo singari adiblarning ijodi romantizmning yetuk namunalari sifatida baholangan. Jumladan, Harold Bloom va Isaiah Berlin kabi tadqiqotchilar romantik adabiyotning mohiyatini inson individualligi, his-tuyg‘ular erkinligi va irratsional holatlarni tasvirlashga urg‘u bergan yo‘nalish deb tavsiflaydilar. [4]

Esxilning «Prometey», Sofoklning «Shoh Edip», Yevripidning «Elena», Navoiyning «Xamsa», Rustavelining «Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon» kabi asarlarida «odamlarning qanday bo‘lishi kerak, bo‘lsa, shunday tasviri» berilgani ham yuqorida aytilgan bosh xislatni tasdiqlaydi. [3]

Fransiyada ilg‘or romantizmning dastlabki rivojlanish davri shu yillarga to‘g‘ri keladi. Xuddi o‘sha davrda, ya‘ni 20-yillar oxirida Fransiyada Viktor Gyugo boshchiligida bir guruh ilg‘or romantizm vakillari maydonga chiqadilar. Ular ayrim siyosiy masalalar yuzasidan tug‘ilgan turli-tuman qarashlarga ega bo‘lsalar-da, burjua tuzumidan va unga nisbatan tug‘ilgan ta‘siridan noroziliklarga ko‘ra o‘zaro yaqin san‘atkorlar edilar. [5]

Germaniyada nemis ilg‘or romantizmining ulug‘ Genrix Geyne o‘z iste‘dodi, ijodi bilan kamol topadi va voyaga yetadi. O‘zbek adabiyotida romantik yo‘nalish tarixan XX asr boshlarida Cho‘lpon, Elbek, Abdulla Qodiriy kabi adiblar ijodida ko‘zga tashlangan bo‘lsa-da, XXI asrga kelib bu yo‘nalish yangi estetik shakllarda tiklana boshladi. Xurshid Davron ijodi bo‘yicha yozilgan

maqolalarda uning tarix va ruhiyat uyg‘unligiga asoslangan lirikasi zamonaviy romantizm namunasi sifatida baholanadi. [8]

Adabiyotshunoslar Usmon Azim, Muhammad Yusuf kabi adiblarning ijodi milliy ruh, muhabbat, orzular va tarixiy xotiralarni zamonaviy romantik uslubda yoritgan asarlar sifatida turli ilmiy ishlar va adabiy tahlillarda e’tirof etilgan. Bu asarlar o‘zbek adabiyotida romantik obrazlar, lirizm va ruhiy iztiroblarning zamonaviy qiyofasini ifodalaydi.

Romantik asarlarda voqea-hodisalar va qahramonlar boshqa tarixiy davr va mamlakatlarga ko‘chirib tasvirlanadi. «Farhod va Shirin» (A. Navoiy) dostonida voqea-hodisalar awal Chin (Xitoy)da, so'ng Arman oMkasida yuz beradi. Farhod, Bahrom - xitoylik, Mehinbonu, Shirin - armani, Shopur, Xisrav, Sheruya — eronlik. Holbuki, bu qahramonlar xarakteri, a’moli, ruhi bilan o‘zbeklarga tegishlidir, undagi voqea-hodisalar asosida Navoiy davri hayotining tipik manzaralari aksini topgandir. Insoniylikni ulugMash, ezgulikni kuylash, muhabbat va sadoqatni yuksak darajada madh etish, unga ishontirish romantizmning eng xarakterli alomatidir. Unda hayotni judayam ko‘tarinki ruhda, serjilo bo‘yoqlarga boy tarzda, yorqin va nozik ifoda etish — xislatga aylanadi va bu xislat kitobxon qalbini larzaga soladi. «Farhod va Shirin»da tasvirlanishicha, Farhod oiimidan so‘ng Shirin: «Men uning hajrida bemoru bedilman, xuddi chala so‘yilgan qushdayman» — deydi.

Aning hajrida men bemori bedil,
Qushemenkim, qilurlar nim bismil.

Farhodni Armaniya togidan keltirib, uni quchoqlab, jismiga jismin va joniga jonin ulaydi. Yuzini yuziga, ko‘ksini ko‘ksiga qo‘yib o'z bedilini quchogkiga oladi. So'ng yuragidan alangali bir oh tortib, uning ko'zi ham birga uxlagani u bilan uyquga ketadi:

Qo'yubon ro'y-barro' do'sh-bardo'sh,
Bo'lib o'z bedili birla hamog'ush.
Ko'nguldin shulaliq ohe chiqar di,
Ko'zi hamhobadek uyquga bordi.

Mehinbonu va uning yonidagilar kajavaga yaqin qadam qo‘yib borib, pardani ochib sanamni ko‘rdilar. U yuzini yuziga, ko‘ksini ko‘ksiga berib, Farhod bilan hamog‘ush yotar edi. Cheksiz-chegarasiz ayriliqlar ketib, uning o'rnini benihoya visol egallagan edi. o‘lgan oshiq bilan jonsiz ma’shuqa sarv daraxti bilan pechak guliday chirmashib yotar edilar. Ma’shuqa o‘z sevgilisini mahkam quchoqlab yotar, sevgilisi ham ma’shuqasini xuddi shunday quchoqlab yotardi:

Amori sori qo'ydilar qadamni,
Ochibon par da, ko‘rdilar sanamni
Ki, Farhodi bila yotib hamog'ush,
Qo'yubon ro'y-barro' do'sh-bardo'sh.
Ko'ziyu qoshi uzra, ko'zu qoshi,
Sari mo' bo'lmayin zohir tahoshi.
Ketib ul furqati behaddu g'oyat,
Bo'lub ro'zi visoli benihoyaU
O'luk oshiq bila ma’shuqi bejon,
Nechunkim sarv birla ishq pechon.
Quchub o'z oshiqin ma’shuqi mahkam,
Nechunkim, oshiq o'z ma’shuqini ham.

Bunday ajib holatga — muhabbatning bunchalik vafoga, sadoqatga yo‘g‘rilganini, pokligi va go‘zalligini ko'rgan Mehinbonuning fig‘oni ko‘kka ko‘tarildi. Shu fig‘on bilan birga uning joni ham chiqib ketdi. Chunki Shirin uning joni edi. Usiz o‘lishi mumkin edi. Shu paytda undan ajralgan edi, jonidan ham ajraldi qo‘ydi:

Chiqib gar dun sori afg'oni oning,
Fig'oni birla chiqti joni oning.
Chu Shirin joni erdi, onsiz o'ldi,
Damekim o'ldi onsiz, jonsiz o'ldi.

Ko‘rinadiki, inson bekorga va bir o‘zi hech vaqt o‘lmaydi. Mehru muhabbat rishtalari bilan bog‘langanlar birga yashaydilar yoki birga rixlat qiladilar, bu vafoning, sadoqatning, insoniylikning, poklikning, niyatning yetukligi natijasidir, romantik tasviming qudratidir. [1]

Romantizm Rossiyada XIX asr boshlarida taraqqiy etdi. Rus romantizmi vakillari ozodlik, erk uchun kurashchilarni madh etishga katta e’tibor berdilar. Buni Dekabrist shoirlarning she’r va poemalarida, Pushkin lirikasida, Lermontov yozgan “Erkning so‘nggi o‘g‘loni “ham oxirgi she’rlari va poemalarida ko‘rish mumkin. [6]

XXI asr O‘zbek adabiyotida romantik yo‘nalish o‘ziga xos tarzda qayta talqin qilinmoqda. Xurshid Davron, Usmon Azim, Muhammad Yusuf singari adiblar ruhiyat, tarixiy xotira, muhabbat va xalqona lirizm orqali zamonaviy romantik ohangni yaratishga erishgan. [7]

Ushbu tadqiqot shuni isbotladiki, romantizm – vaqt va makondan qat’i nazar, adabiyotda insonning ichki dunyosini teran anglash va badiiy ifoda qilish vositasi bo‘lib qolmoqda. Bu esa romantizmni nafaqat tarixiy oqim, balki bugungi adabiy tafakkurning ham muhim qismiga aylantiradi. XXI asr o‘zbek adabiyotida romantik ifodaning davom etishi esa milliy adabiyotimizning estetik yuksalishiga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Erkin Xudoyberdiev. Adabiyotshunoslikka kirish.-“Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati Toshkent-2008.
2. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti-2004.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. 2-qism -Almata: 2021 185-bet.
4. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma – Toshkent G‘.G‘ulom nomidagi nashiryoti NMIU. 2017.
5. Berlin, I. The Roots of Romanticism. Princeton University Press, 1999.
6. U.Jo‘raqulov, K.Hamroyev, Qiyosiy adabiyotshunoslik. (O‘quv qo‘llanma). – T.“Lesson press” nashriyoti, 2021
7. Nazarov, Q. Adabiy tanqid nazariyasi-T.: G‘afur G‘ULOM nomidagi NMIU, 2015
8. Xo‘jaqulov, M. O‘zbek adabiyotida romantizm an’analari va zomanaviy talqin.-T.: Ilm Ziyo, 2020

UO‘K:81’ 44)

FRANSUZ VA O‘ZBEK TIBBIYOT TERMINOLOGIYASINING TARIXIY RIVOJLANISHI

R.O.Bobokalonov, mustaqil tadqiqotchi, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Mazkur maqola fransuz va o‘zbek tillaridagi tibbiyot terminologiyasining tarixiy rivojlanishini, uning asosiy bosqichlarini, tashqi ta’sirlarni va xalqaro tibbiy atamalarning kiritilishini o‘rganishni maqsad qiladi. Tadqiqot ikki tilda tibbiy terminologiyaning zamonaviy tibbiyot ehtiyojlariga moslashuvi jarayonini o‘rganadi va tibbiyot lug‘atlarining tarixiy va lingvistik o‘zgarishlarini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *fransuz tibbiyot terminologiyasi, o‘zbek tibbiyot terminologiyasi, tarixiy rivojlanish, lingvistik ta’sirlar, globallashuv, tibbiyot leksikasi;*

Аннотация. *Данная статья направлена на изучение исторического развития медицинской терминологии во французском и узбекском языках, с особым акцентом на ключевые этапы, внешние влияния и интеграцию международных медицинских терминов. В исследовании рассматривается, как медицинская терминология в обоих языках эволюционировала, чтобы соответствовать потребностям современной медицины, выделяя значительные исторические и лингвистические изменения, которые сформировали медицинскую лексику во французском и узбекском языках.*

Ключевые слова: *французская медицинская терминология, узбекская медицинская терминология, историческое развитие, лингвистические влияния, глобализация, медицинская лексика.*

Abstract. *This article aims to explore the historical development of medical terminology in both french and uzbek languages, with a specific focus on key phases, external influences, and the integration of international medical terms. The study will examine how medical terminology in both languages has evolved to meet the needs of modern medicine, highlighting the significant historical and linguistic shifts that have shaped the medical lexicons in french and uzbek.*

Keywords: *french medical terminology, uzbek medical terminology, historical development, linguistic influences, globalization, medical lexicon*

Kirish. Har bir xalqning tibbiyot terminologiyasi uning tarixiy, madaniy va ilmiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Tibbiyot terminologiyasi nafaqat kasalliklarni tavsiflash, balki davolash usullarini, anatomiya va farmakologiya kabi fanlarni rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Fransuz tibbiyot terminologiyasi o‘zining boy tarixiy ildizlari va xalqaro tibbiyot ilmiga qo‘shgan hissasi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda fransuz tili xalqaro miqyosda tibbiyot sohasi uchun standart bo‘lgan atamalarni o‘z ichiga olgan va ko‘plab ilmiy manbalar lotin va yunon tillaridan kirib kelgan.

Boshqa tomondan, o‘zbek tibbiyot terminologiyasi ko‘p bosqichli rivojlanish jarayonini bosib o‘tgan bo‘lib, unda arab va fors tillari, so‘ngra esa rus tili va Sovet davri tibbiyot terminologiyasining ta’siri sezilarli darajada bo‘lgan. Sovet davri mobaynida o‘zbek tiliga ko‘plab ruscha tibbiy atamalar kirib kelgan bo‘lsa-da, mustaqillikdan so‘ng o‘zbek tili o‘z milliy o‘zligini tiklashga harakat qilib, xalqaro atamalar bilan integratsiyalashmoqda. Mazkur tadqiqot ishimiz fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasining tarixiy rivojlanishini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, tibbiyot terminlarining paydo bo‘lishi, rivojlanishi va zamonaviy davrda qanday o‘zgarishlarga uchraganini ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida fransuz va o‘zbek tillaridagi tibbiyot terminlarining asosiy bosqichlari, tashqi ta’sirlar va xalqaro tendensiyalarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tibbiyot terminologiyasining rivojlanishi va uning turli tillarga ta’siri ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasini o‘rganish, ayniqsa, tillarning tarixiy rivojlanishi va xalqaro atamalar bilan integratsiyasi jarayonida lingvistik ta’sirlarni yoritishga qaratilgan tadqiqotlar ilmiy nutqni rivojlantirishga xizmat qilgan. Tibbiyot terminologiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimalarimizdan, F.I. Abdulxairovaning *tibbiy metaforalarning kognitiv va lingvokulturologik jihatlari chuqur tahlil qilingan* [1, 199]. Muallifning ta’kidlashicha, tibbiyot terminologiyasi va metaforalarning alohida fan sifatida shakllanishi haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, ibn Sinoning *Tib qonunlari* asari asosida Sharqda tibbiyot terminologiyasining shakllanish tarixi o‘rganilgan. Ilmiy tadqiqotchi M. Kaxarova esa, terminologiya sohasining tarixiy kirib kelishi, o‘rganilishi va rivojlanishi haqida ma’lumotlar keltirgan bo‘lib, uning fikricha, *terminologiya lug‘aviy nominatsiya sohasida olib boriladigan tadqiqotlar nazariyasi va amaliyotida eng muhim masalalar sirasiga kiradi* [2, 81].

Yuqoridagi adabiyotlar o‘zbek tibbiyot terminologiyalarining xalqaro va lingvistik omillar ta’sirida rivojlanayotganligini ko‘rsatadi va globalizatsiya sharoitida ularning qanday o‘zgarishlarga uchraganini aniqlash uchun mustahkam ilmiy poydevor yaratadi. O‘zbek tibbiyot terminologiyasi bo‘yicha tadqiqotlarda xalqona atamalar, arab va fors tillarining ta’siri, so‘ngra esa rus tilining kuchli ta’siri yoritilgan. Obruyeva M. J hamda Kamarova M. U larning fikricha, “.....*tibbiy atama tizimi tillararo o‘zaro ta’sir natijasida til, leksik-tibbiy shakllanishining semantik va tarkibiy xususiyatlari fonetik, morfologik va leksik-sintaktik atamalar, darajalar, sinonimiya va metaforizatsiyaga boyligini o‘rganadi*” [3, 140] ma’lum bir tilda yangi atamalarni shakllantirish usullarini ko‘rib chiqadi. So‘nggi yillarda xalqaro tibbiyot terminologiyasi o‘zbek tilida ham keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Xususan, **virus**, **vaksina** kabi atamalar ingliz tilidan o‘zbek tiliga bevosita o‘zlashgani va bu jarayon milliy tilga yangi lingvistik vositalar qo‘shganligini ko‘rsatgan.

Fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar umumiy xulosa qilishga yordam beradi. Fransuz tili xalqaro standartlar orqali o‘z terminologiyasini boyitishda davom etsa, o‘zbek tili milliy o‘zligini tiklash jarayonida xalqaro atamalarni o‘zlashtirib bormoqda. Xalqaro atamalar va milliy xususiyatlar integratsiyasi hozirgi kunda ikkala tilda ham zamonaviy tibbiyot terminologiyasining shakllanishida asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasining tarixiy rivojlanishini o‘rganish uchun qiyosiy tarixiy-lingvistik tahlil usuli qo‘llandi. Tadqiqot fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasining rivojlanish bosqichlarini, ularning shakllanishiga ta’sir qilgan tashqi omillarni va xalqaro tendensiyalarni o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning birinchi bosqichida

fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasining tarixiy rivojlanishini yorituvchi asosiy lug‘atlar, darsliklar va ilmiy maqolalar o‘rganildi. Fransuz tilidagi *Larousse médical* va boshqa tarixiy tibbiyot lug‘atlari, shuningdek, o‘zbek tilidagi asosiy lug‘atlar, jumladan, A.Qosimovning *Ruscha-o‘zbekcha-lotincha farmasevtik terminlar lug‘ati* kabi asarlar tadqiqot uchun asosiy manba sifatida foydalanildi. Fransuz va o‘zbek tillaridagi tibbiyot terminlarining etimologik kelib chiqishini aniqlash uchun lug‘aviy tahlil usuli qo‘llandi. Bu jarayonda terminlarning kelib chiqishi, ularning lotin, yunon, arab, fors va rus tillaridan qanday o‘zlashganligi o‘rganildi. Har bir terminning tarixiy ildizlari aniqlanib, ularning tibbiyot tilida qanday qo‘llanilishi tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasiga tashqi tillarning ta’siri o‘rganildi. Fransuz tilidagi tibbiyot terminologiyasida lotin va yunon tillarining ta’siri aniqlangan bo‘lsa, o‘zbek tili uchun arab, fors va rus tillari asosiy manba bo‘lgan. Bu ta’sirlar lug‘aviy tahlil asosida aniqlanib, har bir tilga kirib kelgan terminlarning mahalliylashishi yoki asl shaklda qabul qilinishi o‘rganildi. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayonida asosan tibbiyot lug‘atlari va ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Bu ma’lumotlar fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasining tarixiy rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatib beradi. Keyinchalik, to‘plangan ma’lumotlar qiyosiy lingvistik tahlil usuli bilan tahlil qilindi va ikkala tilning tibbiyot terminologiyasi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlandi. Shuningdek, tibbiyot terminlari xalqaro miqyosdagi modernizatsiya va globalizatsiya jarayonlaridagi o‘zgarishlar ham o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyasining rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni va ularning terminologik o‘zgarishlarini o‘rganish orqali har ikkala tilga xos bo‘lgan xususiyatlarni aniqlashga qaratildi. Fransuz tibbiyot terminologiyasi asosan lotin va yunon tillaridan olingan bo‘lib, bu tillar fransuz tilidagi tibbiy atamalarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ilk tibbiy, anatomik va jarrohlik asarlarida yunon va lotin ildizlari keng qo‘llanilgan. Bu atamalar hozirgi kungacha fransuz tibbiyot tilining ajralmas qismi sifatida saqlanib qolgan va xalqaro tibbiyot ilmida ham keng tarqalgan.

1.1 jadval.

Yunon va lotin tillaridan o‘zlashgan tibbiyot terminlari

anatomie	yunoncha *anatomē* so‘zidan olingan bo‘lib, tananing tuzilishini o‘rganish fanini ifodalaydi. Ushbu atama zamonaviy tibbiyotda asosiy fanlardan biri sifatida qabul qilingan.
chirurgie	jarrohlikni anglatadi va yunoncha *kheirourgia* (qo‘l bilan ishlash) so‘zidan olingan. Xirurgiya tibbiyot sohasida katta ahamiyatga ega va jarrohlik amaliyotlarini o‘z ichiga oladi.
pathologie	kasalliklar haqida bilimlarni o‘z ichiga oluvchi atama bo‘lib, yunoncha *pathos* (azob-uqubat) va *logos* (fan, bilim) so‘zlaridan kelib chiqqan. Bu atama bugungi kunda tibbiy diagnostikada va kasalliklarni aniqlashda keng qo‘llaniladi.
pharmacologie	farmakologiyani anglatib, dorilar va ularning inson tanasiga ta’siri haqidagi fan hisoblanadi. Bu atama yunoncha *pharmakon* (dori) va *logos* (bilim) so‘zlaridan olingan.
neurologie	asab tizimi haqidagi fan bo‘lib, yunoncha *neuron* (asab) va *logos* so‘zlaridan shakllangan. Ushbu atama asab kasalliklari va ularni davolash bilan bog‘liq ilmiy yo‘nalishlarda keng qo‘llaniladi.
cardiologie	yurak haqidagi fan, yunoncha *kardia* (yurak) va *logos* so‘zlaridan kelib chiqqan. Yurak kasalliklari va ularni davolashda muhim ahamiyatga ega.
psychiatrie	ruhiy kasalliklar haqida fan, yunoncha *psyche* (ruh) va *iatros* (shifokor) so‘zlaridan shakllangan. Psixiatriya fransuz tibbiyot terminologiyasida alohida o‘rin tutadi.
gynecologie	ayol salomatligini o‘rganadigan fan bo‘lib, yunoncha *gyne* (ayol) va *logos* so‘zlaridan kelib chiqqan. Ushbu atama ayollar tibbiyotida keng qo‘llaniladi.
orthopedie	tanani to‘g‘rilash va suyak kasalliklarini davolash sohasiga tegishli bo‘lib, yunoncha *ortho* (to‘g‘ri) va *paideia* (tarbiya) so‘zlaridan shakllangan.

Fransuz tilida ushbu atamalar nafaqat asosiy tibbiyot fanlari, balki har bir sohaga xos terminologiyani yaratishda ham muhim ahamiyatga ega. Tibbiyotda rivojlanayotgan yangi sohalar, masalan, ***oncologie*** (onkologiya – rak kasalligini o‘rganish) va ***immunologie*** (immunologiya – immun tizimi haqidagi fan) ham yunon va lotin ildizlariga asoslanib yaratilgan. Bu terminlar tibbiyotda kasalliklarni aniqlash, davolash va tadqiq qilishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu lotin va yunon ildizlariga asoslangan atamalar fransuz tilining tibbiyot sohasidagi xalqaro maqomini saqlab qolishiga yordam berib kelmoqda. Har bir yangi tibbiy yo‘nalish paydo bo‘lganda, yangi atamalar yaratishda asosan yunon va lotin ildizlari qo‘llanilib, terminlarning izchilligi ta’minlanadi. Shu

sababli, fransuz tibbiyot terminologiyasi zamonaviy tibbiyotning xalqaro miqyosda tan olinishida hamda ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor yaratishda davom etmoqda.

O‘zbek tibbiyot terminologiyasining shakllanishida arab va fors tillarining ta’siri katta bo‘lgan. Islom olamida tibbiyot fanining rivojlanishi bilan birga, *arab* va *fors* tillaridagi tibbiy atamalar Markaziy Osiyoga, jumladan, o‘zbek tiliga kirib kelgan. Bu davrda Ibn Sino kabi buyuk tabiblarning asarlari asosida ko‘plab tibbiy tushunchalar shakllangan va o‘zbek tilida ishlatiladigan atamalar paydo bo‘lgan.

1.2 jadval.

Arab va fors tillaridan o‘zlashgan tibbiyot terminlari

tabib	*shifokor yoki davolovchi ma’nosini anglatib, arabcha tibb so‘zidan kelib chiqqan. Ushbu atama qadimdan shifokorlikni ifodalab kelmoqda.*
shifo	*davolash yoki tuzalish ma’nosini anglatadi va arabcha shifa so‘zidan olingan. Islomiy tibbiyotda kasalliklarni davolashda shifo atamasi keng qo‘llanilgan.*
darmon	*dori-darmon yoki shifo beruvchi vosita ma’nosini anglatib, fors tilidan kirib kelgan. Bu atama xalq tabobatida keng qo‘llanilib kelinadi.*
dard	*kasallik yoki og‘riq ma’nosini anglatadi va arabcha dard so‘zidan kelib chiqqan. Bu so‘z ham hozirgi kundagi tibbiy nutqda uchraydi.*
shamol	*sovuq urish yoki shamollash kasalligini anglatadi. Bu atama arab va fors tilidan olingan va ayniqsa o‘zbek xalq tabobatida keng qo‘llaniladi.*
surma	*ko‘z kasalliklarini davolashda ishlatiladigan moddani anglatadi va arabcha surma so‘zidan kelib chiqqan. Ko‘z kasalliklarini davolashda xalq tabobatida keng tarqalgan.*

Ibn Sinoning **Qonun** asari o‘zbek tibbiyot terminologiyasining shakllanishida alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarda keltirilgan ko‘plab tibbiy tushunchalar, kasalliklar va davolash usullari o‘zbek tiliga kirib kelgan va xalq tabobati amaliyotida qo‘llanilgan. Bularga misol:

furqon – arabcha farq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, kasalliklarni turli belgilariga ko‘ra farqlash va tahlil qilish ma’nosini anglatadi. Ibn Sino *furqon* tushunchasidan kasalliklarni aniqlash va davolash usullarida foydalanishni tavsiya qilgan;

mizoj – insonning jismoniy va ruhiy holatini ifodalovchi atama bo‘lib, arabcha mizaj (harorat, namlik va boshqa holatlar) so‘zidan kelib chiqqan. *Mizoj* tushunchasi o‘zbek xalq tabobatida odamlarning turli tabiatini tahlil qilishda foydalanilgan;

taniyot – tana, jismni anglatadi va arabcha tan (jism, tana) so‘zidan kelib chiqqan. Bu tushuncha anatomik tuzilishni o‘rganishda ishlatilgan;

qon bosimi – arab tilidan kelib chiqqan va qon aylanishining holatini ifodalashda qo‘llaniladigan atama bo‘lib, Ibn Sino tibbiyotida qondagi harorat va bosimni o‘lchash muhim sanalgan;

O‘zbek tibbiyot terminologiyasida diniy va shifobaxsh vositalar bilan bog‘liq ko‘plab atamalar ham mavjud bo‘lib, ular diniy tushunchalar va xalq tabobati orqali shakllangan.

- **duolar** – *kasalliklarni davolashda ruhiy tasalli sifatida o‘qiladigan diniy iboralar bo‘lib, shifo berishning diniy usullari sifatida qo‘llanilgan*.
- **atirgul suvi** – *arabcha va fors tillarida gul va atar so‘zlari orqali kirib kelgan va xushbo‘y atirgul suvi sifatida ichki organlarni davolash uchun xalq tabobatida ishlatilgan*.
- **munjal** – *turli o‘simliklardan tayyorlanadigan aralashma bo‘lib, arabcha manjan (aralash) so‘zidan kelib chiqqan. Bu davolash vositasi qadimdan xalq tabobatida keng qo‘llanilgan*.

Bu terminlar o‘zbek tibbiyot terminologiyasining tarixiy rivojlanishida o‘ziga xos o‘rin egallab, xalq tabobati va diniy tibbiyot amaliyotida keng tarqalgan. Ushbu arab va fors tillaridan o‘zlashtirilgan terminlar hozirgi kunda ham ishlatilib, zamonaviy tibbiyotda o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

XIX asr va XX asr boshlarida ilmiy kashfiyotlar va yangi tibbiyot institutlarining paydo bo‘lishi fransuz tibbiyot terminologiyasining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda fransuz tibbiyot terminologiyasida lotin va yunon ildizlariga asoslangan yangi atamalar yaratilib, xalqaro miqyosda keng qabul qilindi. Standartlashuv jarayonida ko‘plab tibbiyot yo‘nalishlari uchun maxsus terminlar shakllantirildi va bu atamalar fransuz tilidagi tibbiy nutqning xalqaro e’tirofini ta’minladi.

1.3 jadval.

XIX va XX asrlarda kashf qilingan tibbiyot terminlari

XIX asrda	XX asrda
• *anesthésie* • *radiologie* • *cardiologie* • *neurologie* • *dermatologie*	• *immunologie* • *oncologie* • *endocrinologie* • *pédiatrie* • *gynécologie*

Fransuz tibbiyot terminologiyasida yuqorida keltirilgan atamalar xalqaro standartga aylangan va tibbiyot sohasida keng qo‘llanilib kelmoqda. Ushbu lotin va yunon ildizlariga asoslangan terminlar fransuz tilining tibbiyot fanidagi xalqaro mavqeini mustahkamlaydi va yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishida ham tilning izchilligi va boyligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Rossiya tarkibiga kirgach, rus tili mamlakatning ta’lim va ilmiy sohalarida yetakchi tilga aylandi, bu esa tibbiyot terminologiyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Rus tilidan kirib kelgan ko‘plab tibbiyot terminlari o‘zbek tiliga o‘zlashib, yangi ilmiy sohalarda keng qo‘llanila boshladi. Bu davrda ruscha terminlar asosida shakllangan o‘zbek tibbiyot tilining zamonaviy terminologik tizimi paydo bo‘ldi. Bulardan, **диагностика** – diagnostika kasalliklarni aniqlash jarayonini anglatadi. Diagnostika zamonaviy tibbiyotda kasallikning bosqichlarini va sabablarini o‘rganishda keng qo‘llaniladi. **терапия** – terapiya atamasi davolash usulini ifodalaydi. Bu atama tibbiyot sohasida, ayniqsa ichki kasalliklarni davolashda qo‘llanilib, turli terapiya usullari bilan kasalliklarni davolashni ifodalaydi. **профилактика** – profilaktika atamasi kasalliklarni oldini olishga qaratilgan usullar majmuasini anglatadi. Bu atama tibbiyot sohasida infektsion kasalliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. **реанимация** – reanimatsiya hayotiy faoliyatni tiklash usulini ifodalaydi. Reanimatsiya, ayniqsa, favqulodda holatlar va tez yordam ko‘rsatishda keng qo‘llaniladi. **анестезия** – anesteziya (og‘riqni yo‘qotish) so‘zidan olingan. Bu atama jarrohlik amaliyotlarida qo‘llanilib, bemorga og‘riqsiz operatsiya o‘tkazish imkonini beradi. **кардиология** – kardiologiya (yurak kasalliklarini o‘rganish) atamasi yurak va qon-tomir kasalliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan fan bo‘lib, tibbiyotda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ayniqsa, **вирусология** – virusologiya viruslarni o‘rganuvchi fan va kasalliklarni o‘rganish sohasiga tegishli atama. Bu atama infeksion kasalliklarni davolashda muhim rol o‘ynaydi. **рентгенология** – rentgenologiya rentgen nurlari yordamida tasvir olish orqali kasalliklarni aniqlashni ifodalaydi. Rentgenologik usullar bilan ichki organlarning holatini o‘rganish uchun keng qo‘llaniladi. **онкология** – onkologiya o‘sma kasalliklarini o‘rganuvchi fan. Onkologiya rak kasalliklarini tadqiq qilish va davolashda asosiy soha sanaladi. **психиатрия** – psixiatriya atamasi ruhiy kasalliklarni aniqlash va davolashda qo‘llanilib, tibbiyotda katta ahamiyatga ega.

O‘zbek tibbiyot terminologiyasi asosan rus tiliga asoslangan bo‘lib, ko‘plab xalqona, mahalliy atamalar kamroq qo‘llanilgan va ilmiy tibbiyotda o‘z o‘rnini yo‘qotgan. Masalan, xalq tabobatida ishlatilgan *darmon* va *shifo* kabi so‘zlar o‘rniga ruscha muqobillar kiritilib, mahalliy atamalar zamonaviy tibbiyotdan chetda qolgan. Bu jarayon xalqona terminologiyaning kamayishiga olib kelgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi tibbiy nutqda xalqaro terminlarni qabul qilish imkoniyatlari kengaygan.

Hozirgi kunda global ta’sir kuchaygani bois, ingliz tilidan kirib kelgan *virus* va *vaksina* kabi xalqaro terminlar o‘zbek tibbiyot terminologiyasiga kiritilgan va keng qabul qilingan. Fransuz tili esa asosan yunon-lotin ildizlariga asoslangan antibiotique va cardiologie kabi terminlarni saqlab qolgan holda ingliz tilidan texnologik atamalarni qabul qilishni davom ettirmoqda. Hozirgi kunda o‘zbek tilida xalqaro atamalar bilan bir qatorda xalqona tibbiyot atamalarini o‘zlashtirish ham davom etmoqda. Fransiyada esa o‘z terminologiyasining milliy xususiyatlarini saqlab qolishga katta e’tibor berilmoqda.

Xulosa va takliflar. Fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyalarining rivojlanish jarayoni ko‘plab tarixiy, madaniy va lingvistik omillar ta’sirida shakllangan. Fransuz tibbiyot terminologiyasi lotin va yunon tillaridan olingan, xalqaro darajada tan olingan terminlar asosida shakllanib, zamonaviy tibbiyotning xalqaro ilmiy tiliga aylangan. O‘zbek tibbiyot terminologiyasi esa arab, fors, so‘ngra rus tillaridan o‘zlashtirilgan bo‘lib, u xalqona va diniy atamalar bilan boyitilgan. Bugungi kunda esa globalizatsiya ta’sirida xalqaro atamalarni o‘zlashtirish davom etmoqda. O‘zbek tilida

xalqona, milliy tibbiy atamalarni zamonaviy tibbiyotga integratsiyalash hamda mahalliy terminlarni ilmiy tilga kiritish zarur. Bu o‘zbek tilining tibbiyot ilmiy tilida mustahkamlanishiga yordam beradi va mahalliy xususiyatlarni saqlab qoladi. O‘zbek tibbiyot terminologiyasida xalqaro standartlarni saqlash va yangi ilmiy atamalarni moslashtirish uchun fransuz tili tajribasini o‘rganish foydali bo‘lishi mumkin. Xalqaro terminlarning o‘zbek tilidagi izchil va aniq tarjimasini ishlab chiqish tibbiyot sohasi uchun muhimdir.

Ushbu takliflar fransuz va o‘zbek tibbiyot terminologiyalarini yanada rivojlantirishga va tibbiyot ilmiy nutqining zamonaviy ehtiyojlariga javob berishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilida tibbiyot ilmiy nutqini rivojlantirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali milliy xususiyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Invarovna A.F. Тиббиёт термин-метафоралари когнитив ҳодиса сифатида //Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 198-205.

2. Muxabbat K. Terminologik tadqiqotlarning asosiy yo ‘nalishlari //Научный Фокус. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 79-84.

3. Obruyeva M.J., & Kamarova M.U. (2024). Koreys tilida tibbiyotga oid terminlar tahlili. Образование наука и инновационные идеи в мире, 47(5), 140–143. Retrieved from https://newjournal.org/01/article/view/15069

4. Bigras, Isabelle, and Isabelle Simard. “Traitement et évolution des termes médicaux dans un dictionnaire de langue générale.”MC Cormier & A. Francoeur (Éds), Problèmes et méthodes de la lexicographie québécoise (1997): 97-110., 45–68 bet.

5. Larousse Médical, Dictionnaire médical illustré. Paris: Éditions Larousse, 2010, 560 bet.

UO‘K 82.035

BADIIY TARJIMADA MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

G.Sh.Boboqulova, o‘qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolda badiiy asarlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammo va ularni hal etish yo‘llari haqida bayon etilgan.Maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari”asaridan ba’zi gaplar tarjima qilinib tahlilga tortilgan,tarjimon tarjima qilishda muallifning o‘ziga xos uslubini saqlab qolish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki har bir tilning o‘z emotsional ifoda usullari mavjud.*

Kalit so‘zlar*: emotsional,tarjima,tarjimon,uslub, muammo, qiyinchilik, bartaraf etish,his-tuyg‘u, madaniyat,ko‘nikma, tajriba.*

Аннотация. *В данной статье описаны проблемы, возникающие при переводе литературных произведений, и пути их решения. В статье переведены и проанализированы некоторые предложения из произведения Откира Гашимова, которые могут оказаться трудными для переводчика. сохранить оригинальный стиль автора при переводе, ведь каждый язык имеет свои способы выражения эмоций.*

Ключевые слова*: эмоциональность, перевод, переводчик, стиль, проблема, сложность, решение, чувство, культура, мастерство, опыт.*

Abstract. *This article describes the problems that arise when translating literary works and ways to solve them. The article translates and analyzes some sentences from Otkir Gashimov’s work that may be difficult for a translator. preserve the author’s original style when translating, because each language has its own ways of expressing emotions.*

Keywords: *emotionality, translation, translator, style, problem, complexity, solution, feeling, culture, skill, experience.*

Badiiy asarlarni tarjima qilishda ko‘plab muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni tushunish va bartaraf etish jarayoni tarjima sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Tarjima jarayonida ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tarjimonlardan yuqori darajadagi bilim, ko‘nikma va tajriba talab etiladi. Buning uchun tarjimonlar doimiy ravishda til va madaniyat haqida bilimlarini kengaytirib, tajriba almashishlari zarur. Shu sababli avvalambor til va madaniyat haqida biroz to‘xtalib o‘tsak. Til odamlarning his-tuyg‘ulari, fikrlari, istiqbollari, turmush tarzi va hayotiy ko‘rinishlarini eng umumiy ma’noda o‘zida mujassamlashtirgan holda odamlarga ko‘rinishga ega

bo‘lish imkonini beradigan muhim vositadir. Madaniyat esa xalqning asrlar davomida shakllangan idroklari, qiziqishlari, xulq-atvori va xulq-atvori bilan namoyon bo‘ladigan va avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan turmush tarzi, moddiy va ma’naviy qadriyatlar yig‘indisidir. meros. Madaniyat — bu hayotning har bir bosqichida odamlarni o‘rab turgan hissiyot va fikrlashning aksidir (Göçer, 2012). Til o‘zi so‘zlashadigan jamiyatning xususiyatlarini eng yaxshi aks ettiruvchi elementdir. Jamiyat tomonidan ochib berilgan madaniy qadriyatlarning izlari til bilan namoyon bo‘ladi. Til madaniyatning uzluksizligini ta’minlovchi eng muhim vosita, shuningdek, madaniy uzatuvchidir (Akarsu, 1998).

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ikkita tushunchadir. Til madaniyat bilan yashaydi, madaniyat esa til bilan birga rivojlanadi va to‘planadi (Günay, 1995). Tilni madaniyat mahsuli deb hisoblash mumkin. Jamiyat tili shu jamiyatda yashovchi shaxslarning umumiy madaniyatini aks ettiradi. Madaniyat jamiyatning muhim asoslaridan biri bo‘lib, u xolisona ko‘rsatilishi kerak va har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Madaniyat bilimlar majmuasidir. Bilim manbai tildir. Shuning uchun til va madaniyat ajralmasdir (Aslan; 2008). U holda madaniyat avloddan-avlodga o‘tishi uchun tilga muhtoj bo‘ladi; Madaniyat, shuningdek, jamiyatning his-tuyg‘ulari, fikrlari va tom ma’noda hayotiy ko‘rinishlarini konkretlashtiradigan vosita bo‘lgan tilga bo‘lgan ehtiyojdir (Göçer, 2012). Millatning shakllanishida til muhim o‘rin tutadi. Har bir shaxs o‘zi mansub bo‘lgan xalqning madaniyatini o‘rganishi va o‘sha xalqning madaniy o‘ziga xosligini egallashi kerak. Chunki xalqlar hamjamiyatida odamlar o‘z milliy madaniyati bilan tanilgan bo‘lib, bu ularni boshqalardan ajralib turadi, o‘ziga xos qiladi. Xalqlarga ham odamlar kabi omon qolish uchun milliy madaniyat kerak. (Kirkkilich va Sevim, 2012).

Badiiy asarlarni ikki tilda,ya’ni bir tildan ikkinchi tilda tarjima qilishda quyidagi farqlarni yoki muammolarni ko‘rishimiz mumkin.

1. Til va madaniyat farqlari: Har bir til o‘ziga xos madaniy kontekstga ega. Badiiy asarlarda ko‘pincha o‘sha madaniyatga oid urf-odatlar, qadriyatlar, va hazil-mutoyiba ishlatiladi, ularni boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilish qiyin bo‘lishi mumkin.Ularni bartaraf tish uchun tarjimon o‘zbek tilidagi madaniy kontekstni yaxshi bilishi kerak.shuningdek,Qo‘shimcha izohlar yoki sharhlar qo‘shish orqali o‘quvchiga madaniy tafovutlarni tushuntirish mumkin.

*2. Tilning emotsional va estetik jihatlari:*Badiiy asarlar ko‘pincha ma’lum bir emotsional va estetik jihatlarni ifodalaydi. Buni boshqa tilga tarjima qilishda ifoda boyligi va hissiyotlarni yo‘qotish xavfi bor.bunday holatda,tarjimon asarning estetik jihatlarini saqlab qolish uchun sinchkovlik bilan ishlashi kerak.Muqobil iboralar (ekvivalentlik)va ifodalar tanlash orqali hissiyotni yetkazish mumkin.

*3. Lug‘aviy farqlar:*Har bir tilda so‘zlar va iboralar turli xil ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, metaforalar va obrazli ifodalarda muammo tug‘diradi. Tarjimonlar sinonimlardan foydalanishi yoki matn kontekstiga mos keladigan yangi iboralar yaratishi mumkin.Asar muallifi bilan maslahatlashish va ularning maqsadini tushunish ham yordam beradi.

*4. Stilistik muvofiqlik:*Har bir muallifning o‘ziga xos uslubi bor. Ushbu uslubni tarjimada saqlab qolish qiyin bo‘lishi mumkin.

tarjimon muallifning uslubini tushunishi va uni o‘z tarjimasida saqlab qolishga harakat qilishi kerak. Buning uchun o‘xshash uslubdagi mualliflarning asarlarini o‘qib, ularni tahlil qilish foydali bo‘lishi mumkin.

5. Tilning grammatika va sintaksis farqlari:: Har bir til o‘z grammatik va sintaktik qoidalariga ega. Bu farqlar tarjima jarayonida qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.Albatta tarjimon ikki tildagi grammatik va sintaktik farqlarni yaxshi bilishi kerak.Asar mohiyatini yo‘qotmasdan, kerakli o‘zgartirishlarni amalga oshirish mumkin.

*6. So‘z o‘yinlari va hazillar;K*o‘pincha bir tilga xos bo‘ladi va ularni boshqa tilga tarjima qilish qiyin bo‘ladi. Buning uchun so‘z o‘yinlarini tarjima qilar ekan, tarjimon yangi kontekstga mos keladigan ekvivalent so‘z o‘yinlarini yaratishi mumkin, va o‘quvchiga qo‘shimcha izohlar orqali asl mazmunni tushuntirish mumkin.

*7. Muallifning niyati va maqsadini yetkazish:*Tarjima jarayonida muallifning asl niyati va maqsadini yo‘qotish xavfi mavjud.yechimini topishda tarjimon muallif bilan yaqin hamkorlik qilishi va asar mazmunini yaxshiroq tushunishi kerak.Har bir bo‘lim yoki sahifani tarjima qilishdan oldin

muallifning maqsadlarini tushunish uchun chuqur tahlil o‘tkazish muhimdir. Quyida , O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" hikoyasidan ba’zi gaplarning o‘zbek va ingliz tillaridagi tarjimalarini quyida keltiramiz:

1Hayot gohida shunday sinovlarni oldimizga qo‘yadiki, ularga dosh berish oson emas. Ingliz tilida quyidagicha tarjima qilindi: *Life sometimes presents us with trials that are not easy to endure.*

2. O‘zbek tilida- Inson o‘zining chinakam baxtini topishi uchun ko‘p narsalardan voz kechishi kerak. Inglizcha: *A person must give up many things to find their true happiness.*

3. O‘zbekcha: Ba’zan eng oddiy narsalarda ham hayotning eng chuqur ma’nosini topish mumkin. Inglizcha: *Sometimes, the deepest meaning of life can be found in the simplest things.*

4. O‘zbekcha: Har bir insonning o‘ziga xos hayot yo‘li va taqdiri bor. Inglizcha: *Every person has their own unique path in life and destiny*.

5. O‘zbekcha: Odamlar o‘z baxtini uzoqdan izlaydi, lekin ba’zan u yaqin orada bo‘ladi. Inglizcha: *People search for happiness far away, but sometimes it is close by* Hikoyada tasvirlangan vaziyatlar va obrazlar o‘zbek madaniyati bilan bog‘liq. Bu madaniy kontekstni boshqa tilga tarjima qilishda, o‘quvchi hikoyaning asl ma’nosini va muhim nuqtalarini to‘liq anglamasligi mumkin

O‘tkir Hoshimovning”Dunyoning ishlari“ hikoyasidan ba’zi gaplarni tarjima qilishda quyidagi muammolarga duch kelish mumkin:

1. Mahalliy leksika va ifodalar: Hikoyada o‘zbek xalqining turmush tarziga xos bo‘lgan so‘zlar, iboralar va maqollar mavjud. Ularni boshqa tilga tarjima qilishda muqobilini topish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki bunday iboralar boshqa madaniyatlarda mavjud bo‘lmasligi yoki o‘ziga xos ma’noni yo‘qotishi mumkin.

2. Emotsional rang-baranglik: O‘tkir Hoshimovning asarlarida ko‘p hollarda chuqur emotsiyalar, mehr, dard va hazil aralashgan. Buni tarjima qilishda muallifning o‘ziga xos uslubini saqlab qolish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki har bir tilning o‘z emotsional ifoda usullari mavjud.

4. Dialekt va lahjalar: Asarda ba’zida dialektal yoki mahalliy lahjalar ishlatilishi mumkin. Bu elementlarni tarjima qilishda ularning mazmuni va o‘quvchiga ta’sirini to‘g‘ri yetkazish qiyinchilik tug‘diradi.

5. Sodda lekin mazmunli til: O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida sodda, ammo chuqur mazmunli til ishlatadi. Bu sodda tilning ortidagi chuqur ma’noni tarjima orqali saqlab qolish har doim ham oson emas.

Xulosa qilib aytganda,bu muammolarni yengib o‘tish uchun tarjimon o‘zbek madaniyatini, adabiy uslubni va hikoyaning kontekstini chuqur anglashga harakat qilishi kerak.har bir tarjimon asarni tarjima qilarkan o‘sha asar qahramoni yashagan davrni, urf- odatlarini ichki kechinmalarini his eta olishi zarur.asar qahramonlarining o‘sha yashagan davrdagi turmush tarziga xos bo‘lgan so‘zlar, iboralar va yoki mahalliy lahjalar ishlatilishini bilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘. Salomov”Tarjima nazariyasiga kirish“ // O‘qituvchi nashriyoti, Toshkent, 1978-yil.

2. M. Fayzullayeva” Badiiy tarjima va bu jarayonda yuzaga keluvchi muammolar“// Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1-jild, 8-son, 2023-yil, noyabr.

3. Sh. A. Yangiboyeva ”Tarjimashunoslik: muammolar, yechimlar va istiqbollar“//, Academic Research in Modern Science, 2022-yil.

4. ”Tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar“ – M. Xolbekov, Tahlil va Tadqiqotlar, 2023-yil.

5. Sh. Choriyeva ”Badiiy tarjimada uchraydigan asosiy muammolar“//, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 2024-yil, dekabr.

6. S. Shermatova va M. Odiljonova ”Tarjimada uchraydigan asosiy xatolar“//, CyberLeninka ilmiy maqolalar to‘plami, 2023-yil.

7. S. Atabayev”Tarjima jarayonida uchraydigan leksik va grammatik muammolar“// Nauchniy Impuls, 2023-yil.

8. D. Nodirjonovna ”Adabiy nasrni tarjima qilishdagi muammolar va ularning yechimlari “//Web-Journal, 2023-yil.

UO'K 808.5

GREM GRINNING DINIY QARASHLARINI "KUCH VA SHON-SHUHRAT" ROMANIDA AKS ETTIRILISHI

M.A. Boltabayeva, o'qituvchi, Namangan davlat pedagogika instituti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qahramonlarning dinga bo'lga qarashlari, hayotga bo'lgan muhabbati, ishonchi va his tuyg'ulari haqida so'z ketgan. Insonlarning bir biriga bo'lgan ishonchini yo'q bo'lib borishi haqida. Ishonchni suiiste'mol qilganligi natijasida ko'plab muammolarning kelib chiqqanligi haqida o'qishimiz mumki.*

Kalit so'zlar: *Tabasko, Massa, antiklerikal, leytenant, hukumat ta'siriga, mardonavor, taqvodor, buklamalar.*

Аннотация. *В статье рассказывается о взглядах персонажей на религию, их любви к жизни, вере и чувствах. О подрыве доверия людей друг к другу. Мы можем прочитать о многих проблемах, возникших в результате злоупотребления доверием.*

Ключевые слова: *Табаско, Масса, антиклерикальный, лейтенант, влияние правительства, мужественный, набожный, складки.*

Abstract. *The article tell about the characters' views on religion, their love of life, faith and feelings. About the undermining of people's trust in each other. We can read about many problems that arose as a result of abuse of trust.*

Key words*: Tabasco, Massa, anticlerical, lieutenant, government influence, courageous, pious, folds.*

Kuch va shon-shuhrat romani 1940-yilda Britaniyalik yozuvchi Grem Grin tomonidan yozilgan bo'lib, dastlab AQSh da "Labirint yo'llari" nomi bilan nashr etilgan, keyinchalik "Kuch va shon-shuhrat"nomi bilan nashr etilgan. Roman diniy qarashlarga asoslangan holda yozilgan, bu bevosita Grinning 1930-yillarda Meksika hukumati katolik cherkovini bostirishga urinayotgan paytda Tabasko shtatida yashovchi dindan qaytgan katolik "viski ruhoniysi" (bu atama Grin tomonidan kiritilgan) haqida hikoya qiladi[1]. Kuch va shon-shuhrat romani Britaniyada dastlab tashkil topgan adabiy "Hawthornden" mukofotiga sozovor bo'ldi.

Viloyat poytaxtida zo'rg'a hayot uchun kurashib kelayotgan oddiy xalq romanning paydo bo'lishiga o'z xissasini qoshdi[2]. Katolik cherkovining ta'qibi antiklerikal gubernator Kando Tomas Tabasko hukumatida juda qattiq ruhoniylarni nazorat qildi va bu shtatdagi har bir cherkovning yopilishi bilan yakunlandi.[3]. U hattoki ruhoniylarni turmush qurishga majburlagan. Grin o'zining tashrifi haqidagi umumiy dushmanlik bayonida u shunday deb yozgan: "Menimcha, bu men meksikaliklardan nafratlana boshlagan kun edi" [4] deb tasvirlangan. Grin Kuch va shon-shuhrat romanida o'zing ko'rgan va kechirgan voqealarni asoslangan holda yozgan va bu uni "shunchalik dispeptik, shu qadar sevgisiz, shu qadar vahshiy va ko'r" insonlarni borligidan nafratlanib roman yuzaga kelgan[5].

Romanda qochoq ruhoniy yillar o'tib, ilgari uning cherkovi bo'lgan kichik qishloqqa qaytib keladi, u yerda boshpanasiz qochoq Mariya Lores va uning noqonuniy qizi Brigittaga duch keladi va ilk bor ruhoniydan Mariya qizini choqintirib berishi iltimos qiladi. Bundan habar topgan oddiy chorvador xalq uni samimiy qarshi oladi. Ruhoniy imkon qadar chekkalangan odamlarga xizmat qilishga harakat qiladi. Bunda u juda ko'p muammolarga duch keladi, eng muhimi, Tabaskoda ham "Massa" qurbonligini nishonlash ta'qiqlangan, shunga qaramay ruhoniy undan foydalanishda davom etadi. Sharof va spirtli ichimliklar qattiq sotilishi taqiqlangan bo'lsada uni topish unchalik qiyin ish bo'lmaydi[6].

Padre Xose ruhoniylarni tanqid qiluvchi va ular yoq qilish uchun bor kuchini sariflovchi oddiy politsiya leytenanti bo'lib u ham aslida hukumat ta'siriga uchragan ruhoniylikni tashlab zobitlikka o'tgan, Mariya Loresni yoqtirib qolgan, ko'rinishidan va bajarayotgan ishlaridan vaxshiy odamdek ko'rinsada[7], roman oxirida uning dinga bo'lgan ishonchi va e'tiqodini ko'rishimiz mumkin. Oldiniga u ruhoniy bo'lganini romandagi bir necha jarayonlarda ko'rishimiz mumkin. Masalan: qochoq ruhoniy o'ziga yaqin qishloqqa qochib ketadi, u yerdan panoh topa olmagani uchun

quvg'inlikda yana Tabaskoga qaytadi, bundan habar topgan zobit uni asir etish haqida buyruq beradi va barcha zobitlar tulporlariga minib uni qidirib Mariyaning kichik kulbasiga tashrif buyurishadi bu vaqtda Mariya endigina Janob Tenchga hizmat ko'rsatib bo'lib, ruhoniyga iltifot ko'rsata boshlagan edi, ruhoniy juda charchagan hattoki gapirishga ham kuchi qolmagam edi, uni himoya qilish maqsadida orqa eshikdan chiqarib qizi Brigitani yonidagi o'ridiqqa o'tqazdi, ruhoniy charchaganidan hech narsani his qilmasdi. Zobitlar tashrif buyurishadi va ayoldan vino bormi deb soradi zobitlardan biri, Mariya ularni chalg'itish va ruhoniyga yordam berish maqsadida ulardagi bor maylarni tavsiya qildi. Zobitlar ichib uyin kulgu qilishdi, Mariyadan ularga raqs tushib berishini so'rashdi va u oyoqlarini ko'rsatib stol ustida raqsga tusha boshladi, shu payt Padre Xose kelib qoldi, ko'zlari qonga tolib Mariya tomon yura boshladi va bu axloqsizlik va tarbiyasizlikdan nafratlandi, u boshqa zobitlar kabi o'zini tutmasdi insonlar yoki qobiliyatsiz boshlig'ining oldida razil, o'ta qattiq qol, siyosat va davlat uchun kurashgan leytenantdek tutardi.

Janob Tench ushbu romanda dastlab qoralanib ko'rsatilgan sababi u banklardan birini o'margan, politsiyadan qochib yurgan inson[8]. Ammo keyinchalik ruhoniyga katta yordam beradi leytenantga asirga tushmasligi uchun jon jaxti bilan kurashadi. U yaxshi mergan bo'lganligi sababli askarlar bilan yaxshi otishmalar olib boradi, otishmada yaralanganligi sababli so'ngi nafasida o'zining gunohlari uchun avf soramoqchi bo'lgan, bu haqda doim uni aldab kelgan Mestizo Kapitan Fellov ning uyiga kelib bu haqda aytadi, ruhoniy oldiniga ishonmaydi ammo u cho'ntagidan bir parcha yozilgan qog'oz olib uni ruhoniyga beradi, uni o'qigan ruhoniy tezda Janob Tench yotgan kulba tomon shoshadi va bu yerda jon talvasasida yotgan Tenchni ko'radi[9], unga yordam berishga urinadi ammo Tench bu tuzoqligi uni kelishini so'ramaganligini unga aytadi va tezda bu yerni tark etishi aytib joni uziladi, shu payt Tench aytaganideb bu tuzoq bo'lib chiqadi, chunki leytenant keladi va uni asirlikka oladi. Tench umrining so'ngida o'zini mardonavor o'limi bilan asarga yanada ko'rk va axloqiy jihatdan ma'muna bola oladi.

Kuch va shon-shuhrat romani o'z navbatida, ruhoniy o'zining noloyiqligini chuqur his qilishiga qaramay, u juda ham qorqoq hayot uchun dastlab kurashishga harakat qiladi ammo keyinchalik hayotdan to'ygan muammolardan charchagan o'z erkinligini ham o'ylamaydigon faqat xalq uchun jonini fido qiladigon bir inson kabi ko'rishimiz mumkin, misol uchun qashshoqlikdan azob chekayotgan qishloq xo'jaligi xodimlarining diniy ehtiyojlarini qondirish uchun qochib ketadi, bunga misol qilib qishloq oqsoqolini leytenant asirlikka olganda, oqsaqol uchun o'zining jonini garovga qoyib kurashadi, lekin uddalay olmaydi, shundan so'ng qishloq aholisini qasoskor leytenantning balosidan qutqarish uchun u endi tog'li chegaradan o'tib, unchalik qattiq bo'lmagan, qo'shni davlatga o'tishga majbur bo'ladi. Bu vaqt ichida u leytenant bilan ikki marta uchrashadi - bir marta o'z qishlog'ida yig'ilish paytida va keyin u mast sifatida qamalganidan keyin - lekin uni tanib bo'lmasdi, ammo yo'lini davom ettirardi. Xavfli sayohatdan so'ng o'lim arafasida uni AQShdan kelgan protestant yer egalari bo'lgan Lehr ishchilari qutqarib qolishadi, ular ruhoniyni sog'lig'iga qaytarishadi va unga mahalliy poytaxtga borish rejasini tuzishda yordam berishadi. Roman ruhoniyning o'limi bilan tugatilibgina qolmaydi.

Leytenant endi "viloyatni ruhoniylardan tozalaganiga" amin bo'lgandi, ammo oxirgi bobda poytaxtga yana bir yashirin ruhoniy keladi. Ilgari o'z farzandlariga mahalliy avliyolarning hayoti haqida taqvodor buklamalarni o'qiyotgan deb hisoblagan sodiq katolik ayol, bosh qahramonni o'zining nasroniy shahidlari repertuariga qo'shishga rozi bo'ldi.

Xulosa qilib aytganga o'sha vaqtlarda ruhoniylarga qilingan ta'qiblar juda ayuqori darajaga chiqqan, ularni quvg'inlikda kun kechirgani, insonlarga yordam berishga harakat qilishi samarasiz ishlardan biri bo'lgan, qolaversa o'zining ichki xohish va irodalaridan vos kechib savodsiz, o'zining xohish va irodalarini yoqori qo'ygan Politsiya boshlig'ining istaklari so'zsiz bajarilgan, bu esa o'sha vaqtlarda ham boshqarish tizimida ko'plab muammolar bo'lganligi haqida ma'lumot bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "All Time 100 Novels". Time. 2005.
2. "Mexico: Palm Down". Time. 10 December 1934. Archived from the original on 30 September 2007. Retrieved 25 May 2010.
3. "Mexico Acts to Legitimize Shunned Catholic Church". Los Angeles Times. 2 November 1991. Retrieved 9 May 2020.

4. Graham Greene, The Lawless Roads, page 44
5. Riding, Alan (2 December 2001). "Greeneland Revisited". New York Times. Retrieved 5 January 2014.
6. Schweizer, Bernard (2001). Radicals on the Road: The Politics of English Travel Writing in the 1930s. University Press of Virginia. pp. 77, 123
7. Heyman, Stephen (4 December 2011). "Bookshelf". New York Times. Retrieved 5 January 2014.
8. "The Uneasy Catholicism of Graham Greene". New York Times. 3 April 1983. Retrieved 5 January 2014.
9. Details given in the Who's Who 2007 article about Denis Cannan
10. Sochurek, Howard (Sept 1961), "Power and Glory of Sir Laurence", Life, issue 29
11. Graham Greene. Paul VI, in 1953, a decade before becoming pope, had defended The Power and the Glory against other churchmen who wanted to censor it. Peter Godman. "Graham Greene's Vatican Dossier", The Atlantic, July/August 2001.

UDC 82 (Nem)

THE TRANSFORMATIVE POWER OF THE NOVELLA IN LITERATURE AND SOCIETY

D.Sh.Boltayeva, teacher, Uzbek State University of World Languages, Tashkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada novella janrining o'ziga xos xususiyatlari va uning o'quvchilar hamda jamiyatga chuqur ta'siri ko'rib chiqiladi. Bokkachcho, xitoylik mutafakkir Xan Fey Tszы va Genrix fon Kleyst kabi mualliflarning asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, novellalar badiiy adabiyot doirasidan chiqib, muhim ijtimoiy muammolarni yoritadi. Maqolaning maqsadi — novellalar mavjud me'yorlarga qarshi chiqadigan dilemmani qanday tasvirlayotganini va o'quvchilarni hal qilinmagan savollarga duch kelishga majbur qilib, ularni fikrlash, harakat qilish va hayotiy vaziyatlarda talqin qilishga undashini ko'rsatishdir. Mavzu va struktura elementlarining sifatli tahlili orqali tadqiqot shuni aniqlaydiki, novellalar adabiyot va fuqarolik faolligi tutashgan nuqtada faoliyat yuritib, jamiyatda fikr va normalarni shakllantiradi. Natijalar novellaning ijtimoiy tanqid va muloqot vositasi sifatida kuchli rolini va madaniy hamda ijtimoiy dialogni rivojlantirishdagi doimiy dolzarbligini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *izchillik, novella, narrativ, me'yorlar, dilemmlar, fikr yuritish, ijtimoiylik, noaniqlik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются уникальные особенности жанра новеллы и его глубокое воздействие на читателей и общество. Анализ произведений таких авторов, как Боккаччо, китайский мыслитель Хань Фэй Цзы и Генрих фон Клейст, подчеркивает, как новеллы выходят за рамки художественной литературы и освещают важные социальные проблемы. Цель статьи — показать, как новеллы представляют дилеммы, бросающие вызов существующим нормам, оставляя читателям нерешённые вопросы, которые побуждают к размышлению, действию и интерпретации в реальной жизни. Посредством качественного анализа тематических и структурных элементов исследование выявляет, что новеллы функционируют на пересечении литературы и гражданской активности, формируя идеи и нормы общества. Результаты подчеркивают роль новеллы как мощного средства социальной критики и взаимодействия, подтверждая её устойчивую актуальность в развитии культурного и общественного диалога.*

Ключевые слова: *согласованность, новелла, нарратив, нормы, дилеммы, рефлексия, общественный, неопределенность.*

Abstract. *This article explores the distinctive characteristics of the novella genre and its profound impact on readers and society. By analyzing works from authors such as Boccaccio, the Chinese thinker Han Fei Tzu, and Heinrich Von Kleist, the study highlights how novellas transcend the boundaries of fiction to address critical social issues. The objective of the article is to demonstrate how novellas present dilemmas that challenge prevailing norms, leaving readers with unresolved questions that inspire reflection, action, and interpretation in real-life contexts. Through a qualitative analysis of thematic and structural elements, the study reveals that novellas operate at the crossroads of literature and civic engagement, shaping societal ideas and norms. The findings emphasize the novella's role as a powerful medium for social critique and engagement, underscoring its enduring relevance in fostering cultural and societal discourse.*

Key words: *coherence, novella, narrative, norms, dilemmas, reflection, societal, uncertainty.*

Analyzing incomplete sentences, we came to the conclusion that their pragmatic "load" in communication is enormous: incomplete sentences are involved in the formation of various speech acts. In a speech act, various linguistic actions are performed: ask a question, convey a message, order, comment on a situation, thank, ask, congratulate, confirm, refute. A speech act is understood as linguistic communication that occurs between people in a certain environment, for a specific purpose; This is a form of speech that, through linguistic means, reveals a person's communicative purpose, his internal experiences, feelings, informing the listener about this.

The concept of a speech act was first defined by the Oxford University professor, philosopher J. Austin. His book "How To Do Things With Words," published after the scientist's death, sets out in detail his theoretical conclusions on issues of the speech act [6].

In addition to the above, we note that usually the speaker himself chooses which type of speech act to use in the communication process. But we can see that the speaker's choice of the type of

speech act depends not only on his communicative purpose, but also on his gender, age, psychological state or social status, which determine which aspects of the speech act he actively uses. The participants in dialogical discourse are the addresser and the addressee. They have a common goal that has a certain practical significance. If the goal (intention) of the addressee from the process of communication-intervention is to convey information about something and influence the psyche and morals of people, then the goal of the addressee is to listen. Their common goal is to exchange views. Further, if the speech situation of communicants, in turn, differs in gender differences, cultural level, social status, age, education, specialization, socio-spiritual world, then the speech situation in dialogic discourse is also different. Taking into account many factors, for example: on the street, on the phone, at home, on a bus (car), in written speech, using examples we will consider various forms of dialogic discourse:

By age: – Necha yoshga bordingiz? – Yigirma to'rt yoshga... (A. Qodiriy). In this dialogue between Qutidor and Otabek, the age differences appear somewhat more actively. It is also clear that Otabek's use of the incomplete sentence form serves to make his speech concise and lively, and that in this situation he is calmly responding to the question asked of him by the man.

Our analysis revealed that the level of mutual understanding is important when using incomplete sentences. For example, between a doctor and a patient, incomplete sentences are rarely used. The reason is that medical language and its terms are unfamiliar to the recipient (if he is not a representative of this field). Also, if the knowledge and skills of the participants in the dialogue are not the same due to age or gender, the use of incomplete sentences will be inactive, or even if they are used by one party, they will not be understood by the other.

English linguist R. Nordquist divided incomplete sentences into the following types [7]:

1. **Gapping**

а) Elizabeth likes the Minnesota Vikings and her father, the Patriots.

б) Bob wants to go to the store, and Jane wants to as well.

2. а) Ashley is managing the club Thursday, and Sam is Friday.

б) She told John to come outside, and Ben too.

в) Someone called for you yesterday, but I don't know who.

г) John saw two hawks in the sky, and Bill saw three.

Mc Carthy specified three different types of ellipsis: ellipsis with omitted noun (nominal ellipsis)- Nelly liked the green tiles, I preferred the blue.

Ellipsis with omitted verb (verbal ellipsis)

A: Will anyone be waiting?

B: Jim will, I should think.

Ellipsis in a complex sentence (clausal ellipsis)

– If you'd stayed here like I suggested, they definitely would be.

– "Did you eat anything?" She nodded. "A little. I telephoned Mrs. Lament and told her where I'm going and said I'd be back at three o'clock. (Rex Stout)

There was one I did not understand, but it must have been a very bad one, for the other boys all pointed at me, and left me alone. (Rex Stout).

During the research process, when analyzing complete and incomplete sentences, formal and substantive works were given equal importance. As a result of the analysis in this chapter, we came to the conclusion that, despite the fact that the languages being compared are included in typologically different groups, the problem under study has both similar and different aspects.

Although the amount of information about incomplete sentences is relatively small, this topic is reflected in Uzbek language textbooks and scientific literature. The characteristics of these syntactic units are described in educational literature in Uzbek and English. When considering incomplete sentences in English literature, it was revealed that they are used more widely compared to constructions of the same status in the Uzbek language. Incomplete sentences were considered by English scientists as phenomena of the same kind as ellipsis. This means that not only Uzbek, but also English scientists do not have a complete understanding of the essence and composition of the units being compared.

REFERENCES:

1. Гуламов А., Маруфов З., Шермухамедов Т. Грамматика узбекского языка 2-часть Синтаксис – Ташкент: Укув пед дав нашр, 1948 – с.112
2. Грамматика узбекского языка II том Синтаксис – Ташкент: 1976 – с. 198
3. Бобоева А. Неполные предложения в современном узбекском литературном языке – Ташкент: Наука. 1978
4. Махмудов Н.Н. Эллипсис в узбекском языке: дисс. канд. филол. наук – Ташкент: 1977 – с. 83-98
5. Садуллаева Н.А. Ўзбек ва инглиз тилларида ёйиқлик ва йиғиқлик ҳосиласи: дисс.док.фил.наук – Ташкент, 2020 – с. 172
6. Teun van Dijk. Ideology: A Multidisciplinary Approach / Dijk van Teun – London: Sage, 1998 – p. 86
7. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред.: В.Н. Ярцева – Москва, 1990 – с. 136-13

UO'K 81-13

NOLISONIY TIZIM TASNIFIGA DOIR

M.M. Burxanova, dots., PhD, Fargona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Mazkur maqolada paralingvistika termini tilga yondoshlik ma'nosi bilan izohlanishi, shuning uchun ham tilga yondoshlik hodisasi idrok qilish, tafakkur, talaffuz, grafik, shrift hajmi, chizish, rang va ma'no paradigmalari tamoyillari asosida tushuntirilishi haqida so'z boradi. Ana shu paradigmalar tilga yondoshlik mohiyatini ifodalaydi. Ba'zida paralingvistika tarkibiga tilga yondosh bo'lmagan hodisalar ham kiritiladi, bunda ularning verbal vositalar bilan parallel qo'llanishi nazarda tutiladi.*

Kalit so'zlar: *paralingvistika, termin, persepsiya, paradigm, verbal vosita, noverbal vosita, lisoniy va nolisoniy tizim*

Аннотация. *В данной статье обсуждается, как термин паралингвистика трактуется как подход к языку, и, следовательно, явление языкового подхода объясняется на основе принципов парадигм восприятия, мышления, произношения, графики, размера шрифта, рисунка, цвета и смысла. Эти парадигмы выражают суть подхода к языку. Иногда паралингвистика включает в себя и явления, не связанные с языком, что подразумевает их параллельное использование с вербальными средствами.*

Ключевые слова: *паралингвистика, термин, восприятие, парадигма, вербальная средство, невербальная средство, лингвистическая и нелингвистическая система.*

Abstract. *This article discusses the interpretation of the term paralinguistics in the sense of language approach, and therefore the phenomenon of language approach is explained on the basis of the principles of perception, thinking, pronunciation, graphics, font size, drawing, color and meaning paradigms. These paradigms express the essence of language approach. Sometimes paralinguistics also includes phenomena that are not language-related, in which case their parallel use with verbal means is assumed.*

Key words: *paralinguistics, term, perception, paradigm, verbal means, nonverbal means, linguistic and nonlinguistic system.*

Dunyo tilshunoslari tomonidan lingvistikaning uch asosiy tarmog'i alohida farqlanadi. Ular tilshunoslikda ichki, tashqi hamda komparativistik nomlar bilan atalib, har bir tarmoqning mundarijasi va yo'nalishlari ajratiladi. Bunday fikrlar "Umumiy ratsional grammatika" mualliflari qarashlarida ham aks etgan, jumladan: tilning "...ichki tavsifi leksik-semantik, sintaktik va fonetik talqinni o'z ichiga oladi... Universal grammatikaning asosiy tadqiqot obyekti tilning ichki tuzilishi bo'lishi kerak.., ichki tuzilish bilan tashqi tuzilish o'rtasidagi munosabat transformasiya qoidalariga asoslanadi". Ichki va tashqi tilshunoslik birliklari transformasiyasi ifoda shaklidan qat'i nazar, kommunikativ sistema va yondosh sistemalar paradigmasidan iborat bo'ladi. Tashqi lingvistika tarkibidagi noverbal vositalar aynan tilga yondosh hodisalar bo'lgani uchun ham paralingvistika nomi bilan umumlashtiriladi. Shunday bo'lsa-da, kommunikatsiya uchun xizmat qiladigan nutqning yordamchi vositalari qatorida tana tili bilan bog'liq yana boshqa ifoda vositalari borligi hisobga olinsa, tilning barcha nolisoniy sistemasi birliklarini birgina "paralingvistika" termini bilan nomlab

bo'lmasligi ayon bo'ladi. Buning ustiga O.S.Axmanova paralingvistikani (inglizcha –paralingustiss) paratil hodisalarini o'rganuvchi tilshunoslikning maxsus bo'limi deb izohlaydi.

"XX asrning 30-yillarida paralingvistikaning ayrim ko'rinishlari N.V.Yushchan tomonidan "ekstranormal fonetika" nomi bilan o'rganilgan. Paralingvistikaning fan sifatida rivojlanishi XX asrning 60-yillariga to'g'ri keladi. Til sistemasining o'z qobig'idan tashqariga chiqishi bilan paralingvistikaga asos solindi". N.M.Yushchanning "ekstranormal fonetika" haqidagi konsepsiyasi paralingvistika sohasiga taalluqli tizim mohiyatiga mos tushadi. Biroq mazkur yo'nalishdagi aksariyat ilmiy adabiyotlarda bu konsepsiyaga amal qilinmasligi kuzatiladi. Aslida paralingvistika termini tilga yondoshlik ma'nosi bilan izohlanishi zarur. Shuning uchun ham tilga yondoshlik hodisasi idrok qilish, tafakkur, talaffuz, grafik, shrift hajmi, chizish, rang va ma'no paradigmalari tamoyillari asosida tushuntiriladi. Ana shu paradigmalar tilga yondoshlik mohiyatini ifodalaydi. Ba'zida paralingvistika tarkibiga tilga yondosh bo'lmagan hodisalar ham kiritiladi, bunda ularning verbal vositalar bilan parallel qo'llanishi nazarda tutiladi. Shunday bo'lsa-da, tilning nolisoniy sistemasi har xil terminologik birliklar bilan nomlangan. "...Bu fan sohasi ekstralingvistika, paralingvistika, noverbal vosita kabi nomlar bilan atab kelindi. Biroq keyingi davrlarda ekstralingvistika va paralingvistika bir-biridan ajratilmoqda. O.S.Axmanovaning yozishicha, tilshunoslik bu "predlingvistika", "mikrolingvistika" va "metalingvistika"ga bo'linadigan "makrolingvistika"dir. "Predlingvistika" til ifodasining fizik tabiati bilan shug'ullanadi. "Metalingvistika" til va tafakkur, til va jamiyat (madaniyat)ning turli aloqalarini tekshiradi. "Mikrolingvistika" intralingvistika hisoblanadi, u tilga ichki tomondan yondashadi. "Predlingvistika" va "metalingvistika"ni bir umumiy nom – "ekstralingvistika" ostida birlashtirish mumkin. Paralingvistika esa kommunikasiya uchun xizmat qiladigan nutqning yordamchi vositalarini o'rganadi". Inson tilini o'rganadigan lingvistika va unga yondosh bo'lgan fan sohalariga oid yo'nalishlarning obyekti maxsus terminlar yordamida ilmiy jihatdan to'g'ri asoslanadi. Paralingvistika termini ifodalagan tushuncha tarkibiga barcha noverbal vositalarni sig'dirib va singdirib bo'lmaydi. Nolisoniy tizim tarkibida o'rganiluvchi noverbal vositalar tasnifiga taalluqli muammolar mana shunda ko'zga tashlanadi.

Noverbal vositalar tasnifi sohaga oid maxsus adabiyotlarda paralingvistika, kinesika va jestikulyasiya yo'nalishlarida tasnif qilinishi shu paytga qadar mavjud bo'lgan ishlarda an'anaga aylangan. Bizning nazarimizda, paralingvistika, kinesika va jestikulyasiya kabi yo'nalishlarning lingvistik ensiklopedik lug'atlarda ayri holda, alohida sahifalarda berilgani, paralingvistika tarkibiga singdirilmaganligi bir jihatdan to'g'ri, buning ma'nosi yuqorida ta'kidlangan va nomlangan noverbal vositalar psixologiya, fiziologiya, etologiya, kommunikasiya nazariyasi, lingvistika fanlariga tegishliligiga hamda alifbo tartibiga ko'ra izohlanishi bilan bog'liq. Biroq noverbal sistemaga mansubligi, semiotik tushunchalar paradigmasi bilan belgi funksiyasiga egaligi, axborot qabul qilish va ifodalash imkoniyatining mavjudligi, muloqot jarayonida verbal elementlar singari vazifalar bajarishi nazarda tutilgan holda paralingvistika lingvistika tizimidagi qomusiy lug'atlarga kiritilgan. Shu ma'noda ular ham aloqa-aralashuvning noverbal struktur birliklari sifatida kommunikantlar o'rtasidagi muloqotni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi. Biroq biz ta'kidlamoqchi bo'lgan noverbal sistema birliklari bajaradigan funksiyalari asosida, ularning ilmiy yo'nalishi va mohiyatini hisobga olgan holda qayta tasnif qilishga ehtiyoj yuzaga kelmoqda. Aynan mana shular noverbal tizim elementlari tasnifiga oid konseptual masalaning muammoli jihatlaridir.

Tilshunoslikda noverbal vositalar ekstralingvistika tarkibiga kiradi degan konsepsiya mavjud. Bu to'g'ri, biroq aslida noverbal vositalar uning bir qismi, xolos. Bu o'rinda nolisoniy vositalar termini noverbal vositalar terminiga nisbatan ham kengroq tushuncha ekanligini unutmaslik zarur.

Ekstralingvistika sohasini V. fon Gumboldt va F. de Sossyur konsepsiyalari asosida izohlash mantiqan to'g'ri deb hisoblaymiz. Ekstralingvistika termini inglizcha so'z bo'lib, "external linguistics, metalinguistics" – tashqi tilshunoslik degan ma'noni ifodalaydi. Ekstralingvistika yo'nalishiga oid termin va tushunchalar tahlilida soha mundarijasini belgilash muhimdir. Bu masalalar yuzasidan nazariy adabiyotlarda quyidagi fikrlar bildiriladi: "...ekstralingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganib, sotsiolingvistika va mentalingvistikani o'zida birlashtiradi. Sotsiolingvistika tilning tabiati va ijtimoiy funksiyasini, mentalingvistika esa til va tafakkur, tilning

mazmun tomonining nutq faoliyati, kontekst va situasiya bilan aloqasini o'rganadi". Ekstralingvistikaga berilgan ta'rifdan shuni tushunish mumkinki, bugungi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda olamning konseptual manzarasi, olamning lisoniy manzarasi kabi tushunchalar va yo'nalishlar o'zaro farqlanadi. Ekstralingvistika tarkibi tilning ijtimoiy maqomi, tafakkur bilan bog'liq konseptual struktura, tilning mazmun tomonini to'ldirishga xizmat qiladigan nutq faoliyatiga oid yondosh hodisalar, tashqi tilshunoslik bilan bog'liq kontekst, vaziyat kabi omillar bilan voqyelanuvchi ma'no va boshqa tashqi ifodalardan iborat bo'ladi. Bu fikrlar asosida axborot ifodalashga xizmat qiluvchi nutq paradigmasida konseptual (tafakkurga xoslik belgisi, sezgi a'zolari orqali uzatilgan xabarlarning ongdagi assotsiatsiyasi), ovoz strukturalar ta'rifi bilan til va nutqqa yaqin bo'lgan ifoda vositalari hamda shakllarini ekstralingvistika nomi bilan umumlashtirish mumkin. Bular nolisoniy sistemaga tegishli konseptual strukturalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.22.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Сов. энциклопедия, 1969. – С.311.
3. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Сов. энциклопедия, 1990. – С.367.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.215.
5. Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1990. – С.367.
6. Горелов И.Н. Кинесика //Лингвистический энциклопедический словарь. М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 221.
7. Беликоа В.И. Жестов языки //Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1990. – С.153.
8. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – С.217.
9. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. –Б. 9.

UO'K 811.161.1'373.46

TURG'UNLASHUVIGA KO'RA DINIY LEKSIKA

Ch.S.Choriyeva, tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muloqotning ta'sirchanligini, ifodaviyligini ta'minlovchi, nutqni yanada jonli hamda obrazli bayon qilib beruvchi diniy barqaror birikmalar haqida to'xtalib o'tildi. Ularning o'zbek xalqi lingvomadaniyatida alohida o'ringa ega barqaror birikmalar ekanligi misollar yordamida tahlilga tortildi.*

Kalit so'zlar: *turg'un birikma, milliy mentallik, ko'chim, perefraza, mashaalloh, subhanalloh, qarg'ish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются религиозно устойчивые сочетания, которые обеспечивают эффективность и выразительность общения, делают речь более яркой и образной. На примерах проанализирован тот факт, что они являются устойчивыми соединениями, занимающими особое место в языковой культуре узбекского народа.*

Ключевые слова: *устойчивое соединение, национальный менталитет, миграция, парафраз, машааллах, субханаллах, проклятие.*

Abstract. *This article discusses the religious stable combinations that provide the effectiveness and expressiveness of communication, make speech more vivid and figurative. Their stable combinations, which have a special place in the linguistic culture of the Uzbek people, were analyzed using examples.*

Keywords: *stable combination, national mentality, migration, paraphrase, mashaallah, subhanallah, curse.*

Dunyodagi har qaysi tilning barhayotlik darajasi o'sha tilda muloqot qiluvchi xalqning, millatning o'z ona tilida muloqot qilish darajasiga ko'ra xarakterlanadi. Tilning akkumulyativ funksiyasiga ko'ra har qaysi millat va jamiyat o'zigacha bo'lgan bebaho ma'naviy boyliklarini o'zidan keyingi avlodga bus-butun yetkazish vazifasini bajaradi. Ana shu vazifani bajarish asnosida muloqot jarayoniga tayyor holda olib kiriladigan, insonlarning xotirasida avvaldan tayyor nutqiy qolip holida mavjud bo'lgan turg'un birikmalarning ham o'rni muhim. Negaki, milliy til o'zida to'liqligicha xalqning milliy mental xususiyatlarini saqlaydi. Tilshunos G.Begmatova ham turli

lisoniy xususiyatlarga ega bo‘lgan turg’un birikmalar tilning frazeologik qatlamini tashkil etishini, bu qatlam doimiy ravishda yangi birliklar bilan boyib borishini, xalqning madaniy hamda tarixiy tajribasini, tilning taraqqiyot qonunlarini aks ettirishini e’tirof etadi. [5,13]

Tilshunoslikda turg’un birikmalar keng va tor ma’noda tushuniladi. Tor ma’noda faqatgina idiomalar, keng ma’noda esa aforizmlar, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, ekzotizmlar kabilar tushuniladi. Turg’un birikmalar o‘zida “tayyorlik” hamda “barqarorlik” kabi xususiyatlari bilan qayd etiladi. Ular har doim nutq jarayoniga avvaldan tayyor holda mavjud bo‘lgan holda olib kiriladi va nutqning hissiy jihatdan boy, mazmundor va tinglovchiga aniqroq yetkazib berilishini ta’minlaydi. Jumladan, o‘zbek lingvomadaniyatida nafaqat badiiy adabiyotda, balki, xalq og’zaki ijodi namunalarida ham qahramonlar tilidan frazeologizmlar, xalq maqollari keng qo‘llaniladi. H.Ahmedov o‘zining “Alpomish” dostonida diniy komponentli barqaror qurilmalar” nomli maqolasida dostondagi frazeologik birliklarni diniy mazmunga ko‘ra ikki asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish mumkinligini qayd etadi:1.umummilliy til unsurlaridan tarkib topgan mifik va diniy mazmunli frazeologizmlar; 2. ekzotik leksikaga mansub teonim komponentli diniy barqaror birikmalar. Dostondagi *Xudoning suygan quli, Xudo beribdi, Xudoga topshirmoq, Haqqa yetmoq, Alloh yoring bo‘lsin, shayton shobiriga tushmoq, payg’ambarlar shafoat qilmoq* kabi bir qator diniy barqaror birikmalar misol tariqasida keltiriladi.

Diniy va mifologik mazmunli diniy birikmalar ma’lum ma’noda lingvokulturologik birlik vazifasini ham bajaradi, chunki bir xalq madaniyati uchun xoslangan diniy birikma boshqa xalq madaniyati uchun begona yoki umuman boshqacha ma’no anglatishi ham mumkin. Tilshunos olima Sh.Maxmaraimova frazeologik birliklar xalqning madaniyati haqida ma’lumot beruvchi manba hamda milliy-madaniy lingvokulturemani ifoda etuvchi yorqin til birligi ekanligini ta’kidlaydi.[3,271] Haqiqatdan ham, har bir tilning frazeologik lug’at boyligiga e’tibor qaratar ekanmiz, unda o’sha millatning qadriyatlari, urf-odatlari, asrlar osha saqlanib kelayotgan madaniy an’analari aks etganiga guvoh bo‘lamiz.

Tilshunos olim A.Mamatov frazeologik birliklarning lingvomadaniy tabiati haqida ushbu fikrlarni bildiradi: “Albatta, frazeologizmlarning shakllanishi va ma’no kasb etishida ekstralingvistik omillar, jumladan tarix, milliy qadriyatlar, milliy-ma’naviy meroslar, urf-odatlar, hududning o‘ziga xosligi, voqeliklar, tarixiy jarayonlar va h.k.lar muhim omillar bo‘lib xizmat qiladi”.[1,23] O’zbek lingvomadaniyatida “ajralmas, abadiy birga” ma’nosida “qiyomatli do’st”, tutingan kishilarga nisbatan “qiyomatli opa-singil”, “qiyomatli aka-uka” kabi birikmalar uchraydi va bu kabi birikmalarni boshqa xalqlar lingvomadaniyatida deyarli uchratmaymiz. “Qiyomat qarz” birikmasi ham islom ta’limotiga ko‘ra, qarzdor kishining qarzini albatta uzishi kerakligini anglatadi. Frazeologik lug’atda tirikligida (o‘lgunga qadar) albatta ado etishi lozim bo‘lgan burch, majburiyat deya ta’riflanadi.

Misol: −Yetib borganimizdan keyin xudo xohlasa, boshingni ikkita qilib qo‘yaman.

−Davlatingiz bundan ham ziyoda bo‘lsin, taqsir…

Bu −bo‘ynimdagi qiyomat qarz. (S.Anorboyev, Oqsoy.)[2,412]

O‘zbek tili diniy leksikasining diniy barqaror birikmalar nomli leksik qatlami nutq jarayonida juda faol qo’llanuvchi birliklar sanaladi. O’zbek lingvomadaniyatida bismillah, alhamdulillah, mashaalloh, subhanalloh, astag’firulloh , inshaalloh kabi turg’unlashgan birikmalar mavjudki, ularning har biri ma’lum nutqiy vaziyatlarda shukronalik, ishonch, hayrat, xursandchilik, umid, qo‘rquv kabi ma’nolarni ifodalab keladi: *“-Astag’firulloh! –dedi ovozini ko‘tarib. Nelarni demoqdasiz ? Tavba qiling, darxol istig’for ayting”. “-Inshaalloh! Ungacha balki yuz yil, balki undan ko‘proq yillar o‘tar, hakimlar barakali umr ko‘rmoqlik sirlaridan voqif bo‘larlar…” (Tohir Malik, “Alvido, bolalik”)*

Sh.Sultonova doktorlik dissertatsiyasida diniy frazeologizmlar deganda nafaqat Qur’on, Hadis kabi diniy manbalar, balki ilk sodda diniy tasavvurlar, mifologiya asosida shakllangan, insonlar ongida umuman din tushunchasi bilan bog’liq bo‘lgan turg’un birikmalarni tushunish mumkinligini e’tirof etadi. Olima diniy frazeologizmlarni tarixiy-etimologik va struktur tahlil asosida quyidagicha tasniflaydi: 1. Diniy manbadan havola sifatida olingan frazeologizmlar (ular o‘z navbatida birlamchi va ikkilamchi bo‘ladi) (qiyomat bo‘lmoq) 2. Diniy manba prototipi yoki syujeti asosida shakllangan

frazeologizmlar (osmondan tushganday bo‘lmoq) 3. Mifologiya, sodda diniy tasavvurlar va xurofiy qarashlar asosida shakllangan frazeologizmlar (ayamajuz shamoli, dam solmoq, kinna silamoq, is chiqarmoq).[4,21]

Yer yuzidagi dinning ilk ko‘rinishlaridan boshlab to bugungi kunga qadar insonlar ma’lum bir etnografik urf-odat, an’analarni bajarish jarayonida *kinna silamoq, ko‘z tegmoq, is chiqarmoq, qurbonlik qilmoq* kabi amallarni bajarib kelishadi. Bu jarayonda ular Allohdan, payg’ambarlardan, chahoryorlardan, ruhlardan, chiltonlardan madad so‘raydi, ins-jinslardan hamda ular keltirishi mumkin bo‘lgan zararlardan himoyalanish uchun harakat qiladi. O‘TILda “Is chiqarmoq” birikmasiga quyidagicha ta’rif beriladi: Arvohlarga atab yoki ins-jinslarni qaytarish maqsadida maxsus issiq taom tayyorlab tarqatmoq (qo’ni-qo’shni, mahalladosh, qarindosh kishilarga). *O’g’limning qo‘lini halollatsam, so‘yib jindak is chiqararman, deb umid bilan boqib yurgan bir ulog’im bor edi. (Parda Tursun, O’qituvchi).[6,545]*

Qurbonlik qilish islom dini kirib kelishidan oldin ham ko‘plab xalqlarda va qabilalarda bor edi. Jumladan, somiylar, qadimgi arablar, yahudiylar orasida ham ushbu marosim o‘tkazilgan. Islomdan avvalgi arablarda qullarni, hatto o‘z farzandlarini ham qurbonlik qilish odati bo‘lgan. “Qurbonlik” arabchada “uzhiyya” so‘zi orqali ifodalanadi. “Uzhiyya”ning lug’aviy ma’nosi haqida “qurbonlik qilinadigan hayvonning nomi” deya ta’riflangan. Abu Sa’iyd Xudriy r.a. dan rivoyat qilinadi: Rasulullo s.a.v. Fotima r.a.ga: “Qurbonligingiz oldida turib, guvoh bo‘ling. Chunki, qurbonlik qonining birinchi qatra tomchisi bilan o‘tgan gunohlaringiz mag’firat qilinadi” dedilar. Misollar: *It bolasi qurbonlikka yaramas (maqol) Ahli mo‘minlar qurbonlik qilishdi. Qo‘li kalta mo‘minlar qassobdan go‘sht oldi. (T.Murod, Ot kishnagan oqshom, 357-b)*

Tilshunos J.Omonturdiyev qurbonlik tarixi maxsus o‘rganilishi kerakligi haqida to‘xtalarkan, insonlar hali ovchilik va chorvachilikni bilmagan ibtidoiy davrlarda dastlab odamxo‘rlik (kannibalizm) ham qilganini, fetishizm davrida esa zilzila, toshqin, vabo kabi tabiiy ofatlarni boshqaruvchi ma’budlarni tinchlantirish maqsadida bolalar, qullar olovga va daryoga tashlanganini aytib o‘tadi. [7,148] Jamiyatning keying taraqqiyoti davrida inson ongi, tafakkuri va madaniyatining buyuk g’alabasi sifatida qurbonlik obyekti insondan hayvonga o‘tdi. Bu haqida N.Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy” asarida Ibrohim Xalilullohning o‘g’li Ismoilni qurbonlik qilish uchun tog’ga olib borgani va oxir-oqibatda Allohning buyrug’i bilan Jabroil Behishtdan qurbonlik uchun bir qo‘chqor olib kelgani haqidagi ma’lumotlar mavjud.

Islom ta’limotiga ko‘ra, qurbonlik Alloh taologa yaqinlik hosil qilish maqsadida so‘yiladigan jonliqdir. Qurbonlikning bir necha turlari mavjud: 1. Qurbonlik kunlari so‘yiladigan vojib qurbonlik; 2. Nazr qurbonlik; 3. Aqiqa qurbonlik; 4. Xadiy (Hajda so‘yiladigan qurbonlik). “Aqiqa” so‘zi aslida yangi tug’ilgan chaqaloqning sochiga nisbatan ishlatilgan, keyinchalik esa Allohga farzand bergani uchun shukronalik keltirish maqsadida so‘yiladigan qurbonlikka nisbatan ham shu nom berilgan. Hadislarga ko‘ra aqiqa yettinchi, o‘n to‘rtinchi yoki yigirma birinchi kuni so‘yilishi lozim.

Diniy birikmalar orasida ma’lum nutqiy vaziyatlardagina ishlatiladigan, ijobiy yoki salbiy ottenkaga ega birikmalar ham mavjud. Jumladan, *Alloh kifoya (qilsin)* birikmasining tavakkal qilmoq ma’nosidagi kishi o‘zini Alloh irodasiga topshirishi, butun umidini unga ishonib bog’lash ma’nosi bilan birga zulm ko‘rgan mazlumning zolim ortidan aytadigan gapi (Allohga solib qarg’ash) ma’nosi ham bor. Islom dini an’analariga binoan biror insonning vafot etganini eshitganda uning yaqinlariga *joyi jannatdan bo‘lsin, qabri nurga to‘lsin, Alloh rahmatiga olsin, Allohning irodasi, bandalik ekan* deya hamdardlik izhor etiladi va bu birikmalar faqat shu nutqiy vaziyatdagina ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, o’zbek tilidagi nihoyatda boy ifoda imkoniyatlariga ega diniy birikmalar ham kundalik so‘zlashuv jarayonida, ham badiiy uslubda fikrni ta’sirchanroq, yanada soddaroq yetkazib berilishini ta’minlash maqsadida faol qo‘llanadi. Ularni alohida mavzu doirasida tahlil qilib o’rganish, o‘zbek lingvomadaniyatidagi o‘ziga xos tomonlarini hamda diniy frazeologizmlar lug’atini tuzish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маматов А., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданий ва семантик-прагматик тадқиқи – Toshkent: 2018.

2. Раҳматуллаев Ш., Маҳмудов Н. ва бошқ. Ўзбек тили фразеологик луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2022.

3. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili (leksikologiya). – Toshkent: Firdavs Shoh. 2021.

4. Султонова Ш.М. Диний фразеологизмлар трансформацияси: семантик ва лингвомаданий аспектлар: филол.фан.док. дисс.автореф. – Тошкент, 2022.

5. Бегматова Г. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш: филол.фан. фал. док. дисс. – Термиз, 2021.

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati/ E.Begmatov, A.Madvaliev, N.Mahkamov va b. tahriri ostida. 5-tomlik, 2-tom. - T.: G’afur G’ulom, 2022. 1035 b.

7. Омонтурдиев Ж. Маърифатнома – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013.238 б.

UO‘K 81'44

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ODDIY, QIYOSIY VA ORTTIRMA DARAJALI SIFAT KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLAR

I.U.Davletova, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch
D.A. Jumaniyazova, dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi oddiy, qiyosiy va orttirma darajali sifat komponentli frazeologizmlar tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning tuzilishi, semantik xususiyatlari va har ikki tilda ifoda usullari qiyosiy o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari sifat komponentli frazeologizmlarning tuzilish qonuniyatlari va lingvistik xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar*: frazeologizmlar, sifat komponenti, oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja, qiyosiy tahlil, sintaktik tahlil.*

Аннотация. *В данной статье анализируются фразеологические единицы с компонентами прилагательных в положительной, сравнительной и превосходной степени в английском и узбекском языках. Исследование рассматривает структуру, семантические особенности и способы выражения фразеологизмов в обоих языках. Результаты исследования способствуют выявлению закономерностей построения и лингвистических особенностей фразеологизмов с компонентами прилагательных.*

Ключевые слова: *фразеологизмы, компонент прилагательного, положительная степень, сравнительная степень, превосходная степень, сравнительный анализ, синтаксический анализ.*

Abstract. *This article analyzes phraseological units with adjectival components in positive, comparative, and superlative degrees in English and Uzbek languages. The study examines the structure, semantic characteristics, and expression methods of phraseological units in both languages. The research findings contribute to identifying the structural patterns and linguistic features of phraseological units with adjectival components.*

Keywords: *phraseological units, adjectival component, positive degree, comparative degree, superlative degree, comparative analysis, syntactic analysis.*

Kirish. Frazeologik birliklar har qanday tilda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xalqning milliy tafakkurini, madaniyatini va turmush tarzini aks ettiradi [1; 25-b.]. Ingliz va o‘zbek tillari ham boy frazeologik fondga ega bo‘lib, ularning tarkibida sifat komponentli frazeologizmlar alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotimizda aynan oddiy, qiyosiy va orttirma darajali sifat komponentiga ega bo‘lgan frazeologizmlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi – ingliz va o‘zbek tillarida sifat komponentiga ega bo‘lgan frazeologizmlarni tizimli ravishda tahlil qilish, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda lingvistik tavsifini berish.

Frazeologiya masalalari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ingliz tilida frazeologizmlar A.V. Kunin [2; 25-b.], I.V. Arnold [3; 48-b.] kabi olimlar tomonidan tahlil qilingan. O‘zbek tilshunosligida esa A. Madrahimov [4; 112-b], G‘. Salohiddinov [10; 87-b] kabi olimlar frazeologiya bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Frazeologik birliklarning daraja shakllariga oid tadqiqotlar orasida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

Mamadaliyev K. “O‘zbek frazeologiyasining nazariy asoslari” – O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning morfologik va semantik xususiyatlari o‘rganilgan [5; 45-47-b.].

Granger S., Meunier F. "Phraseology: An Interdisciplinary Perspective" – Frazeologik birliklarning turli tillardagi semantik o'xshashligi va farqlari tahlil qilingan [6; 78-b.].

Cowie A.P. "Phraseology: Theory, Analysis, and Applications" – Frazeologik birliklarning tuzilish shakllari, ularning daraja turlariga ta'siri o'rganilgan [7; 63-b.].

Ularning morfologik xususiyatlari turli sintaktik birliklar bilan qo'llanilishiga bog'liq [13; 120-b.]. Frazeologik birliklarning tarkibiy qismlarini o'rganish lingvistik tadqiqotlarda yanada chuqurroq yondashishni talab qiladi [2; 48-b.].

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sifat komponentli frazeologizmlar har bir tilda o'ziga xos grammatik va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning tadqiqi tilshunoslik uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda qiyosiy-taqqoslov, komponent tahlili va statistik usul qo'llanildi. Asosiy tadqiqot materiali ingliz va o'zbek tillarida keng ishlatiladigan sifat komponentli frazeologizmlardan iborat bo'lib, ularning semantik va grammatik xususiyatlari solishtirildi.

Oddiy darajali sifat komponentli frazeologizmlar

Ingliz tilidagi sifat komponentli iboralarni o'rganishimiz jarayonida ular asosan aniqlovchi yoki kesim vazifasida qo'llanishiga, o'zbek tilida esa gapda sifatlovchi aniqlovchi sifatida namoyon bo'lishiga guvoh bo'ldik. Oddiy darajadagi sifat komponentlaridan tarkib topgan frazemalarni tahlil qiladigan bo'lsak, misol uchun "big mouth" –og'zida gap turmaydigan, gullab qo'yadigan va maqtanchoq ma'nolarida qo'llanilsa, o'zbek tilidagi "katta og'iz-og'zi katta" – iborasi soxta kibr havoli, maqtanishni yaxshi ko'radigan kishilarga nisbatan qo'llaniladi."Mehmonning qizarganini payqagan keksa boy, o'z xotinining katta og'iz va betamizligiga achchiqlanib, yuzini teskari burdi. Oybek. Qutlug' qon[9; 1393-b].

Oddiy darajali sifat komponentli frazeologizmlar **sifatning oddiy shaklida** ifodalanadi va hech qanday qiyos yoki orttirma ma'no yuklamaydi. Ular odatda aniq, bevosita tavsiflash vazifasini bajaradi [8; 79-b.].

Misollar:

Oq yuvib, oq taramoq – (toza, beg'araz bo'lish)

Shirin so'z – (yoqimli gap, muloyim so'z)

Katta gap – (katta ahamiyatga ega bo'lgan holat)

Tor fikr – (cheklangan dunyoqarash)

Yumshoq muomala – (muloyim munosabat)

Morfologik tahlil:

Ushbu frazeologizmlarda sifatlar **oddiy shaklda** kelgan va asosiy so'z sifat vazifasini bajaradi.

"Oq yuvib, oq taramoq" iborasida **"oq"** sifati frazeologik birlikning asosiy komponenti bo'lib, uning **tozalik va beg'arazlik** ma'nosini beradi.

"Shirin so'z" iborasida **"shirin"** sifati bevosita **yoqimlilik** ma'nosini bildiradi.

Misollar (Ingliz tilida):

Cold feet – (qo'rquv yoki ishonchsizlik his qilish)

Sweet talk – (yoqimli, maqtovli so'zlar orqali manipulyatsiya qilish)

Big deal – (muhim yoki katta ahamiyatga ega bo'lgan holat)

Narrow-minded – (cheklangan dunyoqarash)

Soft touch – (muloyim va rahmdil inson)

Morfologik tahlil:

"Cold feet" iborasida **"cold"** sifati frazeologik birlikning asosiy komponenti bo'lib, bevosita qo'rquv va ishonchsizlikni bildiradi.

"Sweet talk" iborasida **"sweet"** sifati yoqimlilik va manipulyatsiya ma'nosini beradi.

"Big deal" iborasida **"big"** sifati frazeologizmdagi asosiy semantik yukni tashiydi.

Qiyosiy darajali sifat komponentli frazeologizmlar

Ingliz tilida qiyosiy darajali sifatlardan tarkib topgan iboralarni tahlil qilarkanmiz ularning o'zbek tilidagi muqobillarining hammasida ham sifat so'z turkumi ishtirok etmagan. "Blood is thicker than water" iborasida thicker so'zi qiyosiy darajada ishlatilgan bo'lib so'zma-so'z "qon suvdan quyuqroq" deb tarjima qilinadi. Ingliz millatiga mansub kishilar oilaviy rishtalar boshqa

munosabatlardan ustunligini ko‘rsatuvchi mazkur iboraning o‘zbek tilidagi ekvivalenti sifatida “et bilan tirnoq”, “etni tirnoqdan ajratib bo‘lmas” iborasi o‘z nutqimizda ko‘p bora uchraydi. Morfologik jihatdan turli so‘z turkumlaridan tuzilgan bo‘lsa-da, semantik jihatdan bir ma’noni ifodalaydi. Qondoshlik, jigarchilik, bir ota-onaning farzandlari o‘rtasidagi mehr-muhabbat rishtalari o‘zbek millatida qanchalik qadrlansa, ingliz madaniyatshunosligida ham o‘ziga xos o‘rni borligini ushbu ibora misolida anglashimiz mumkin.

Qiyosiy darajali frazeologizmlar sifat komponentining **ikki yoki undan ortiq narsa o‘rtasida qiyoslash** yoki **boshqalar bilan solishtirish** vazifasini bajarishidan kelib chiqadi [9; 1394-b].

Misollar:

Yanada katta gap – (bundan-da muhim holat)

Shirinrog‘ini aytmoq – (yanada yoqimli gap aytish)

Tezroq tugatmoq – (tezlikni oshirish, sekin emas)

Oqroq ko‘rinmoq – (bundan ham toza bo‘lish)

Yaxshiroq muhokama qilmoq – (yanada chuqurroq tahlil qilish)

Morfologik tahlil:

Ushbu frazeologizmlarda sifat komponenti **qiyosiy darajada** berilgan va odatda -roq qo‘shimchasi orqali hosil qilingan.

“Shirinrog‘ini aytmoq” iborasida **“shirin”** sifatiga **“-roq”** qo‘shimchasi qo‘shilib, **yanada yoqimli** degan ma’no hosil qilingan.

“Tezroq tugatmoq” iborasida **“tez”** sifatiga **“-roq”** qo‘shimchasi qo‘shilib, **yanada tez** degan ma’no hosil qilingan.

Misollar (ingliz tilida):

Bigger deal – (**yanada katta gap**, bundan-da muhim holat)

Sweeter talk – (**shirinrog‘ini aytmoq**, yanada yoqimli yoki laganbardorona gapirish)

Faster finish – (**tezroq tugatmoq**, tezlikni oshirish)

Whiter than white – (**beg‘ubor**, juda ham toza va pok)

Better discussion – (**yaxshiroq muhokama qilmoq**, yanada chuqurroq tahlil qilish)

Morfologik tahlil:

Ushbu frazeologizmlarda sifat **qiyosiy darajada** berilgan bo‘lib, odatda **-er** qo‘shimchasi yoki **more + sifat** orqali hosil qilingan.

“Sweeter talk” iborasida **“sweet”** sifatiga **-er** qo‘shimchasi qo‘shilib, **yanada yoqimli** degan ma’no hosil qilingan.

“Whiter than white” iborasida **“white”** sifatiga **-er** qo‘shimchasi qo‘shilib, **juda ham toza va pok** degan ma’no hosil qilingan.

“Better discussion” iborasida **“good”** sifati **irregular (noto‘g‘ri shakllangan)** bo‘lib, **“better”** ko‘rinishida qiyosiy daraja hosil qilgan.

Orttirma darajali sifat komponentli frazeologizmlar

Ingliz tilidagi iboralarni o‘rganar ekanmiz orttirma darajadagi sifatlardan tarkib topgan frazeologik birliklar juda kam ekanligiga guvoh bo‘ldik . “The oldest trick in the book” oldin ko‘p marotaba qo‘llanilgan bo‘lsa-da, haliyam o‘z samarasini beradigan hiylalarga nisbatan ishlatiladigan ushbu iboraning o‘zbekcha muqobili sifatida “eski nayranglar” frazemasini qo‘llaymiz [9; 1395-b].

Orttirma darajali frazeologizmlar sifatning yuqori yoki eng yuqori darajasini bildiradi va o‘ta kuchaytirilgan ma’no yuklaydi [11; 120-b.].

Misollar (O‘zbek tilida):

Eng shirin so‘z – (nihoyatda yoqimli gap)

Behad katta ish – (juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan ish)

Benihoya oq ko‘ngil – (juda ham pokiza odam)

O‘ta shirin til – (ortiqcha yoqimli nutq)

Juda tor dunyoqarash – (o‘ta cheklangan fikrlash)

Morfologik tahlil:

Ushbu frazeologizmlarda sifat komponenti **orttirma daraja** orqali kuchaytirilgan va ko‘pincha **“eng”**, **“behad”**, **“nihoyatda”**, **“juda”** kabi kuchaytiruvchi so‘zlar yordamida hosil qilingan.

"Eng shirin so'z" iborasida **"eng"** so'zi **"shirin"** sifatini orttirma darajaga chiqarib, "nihoyatda yoqimli gap" degan ma'no hosil qiladi.

"Behad katta ish" iborasida "behad" so'zi "katta" sifatini kuchaytirib, "cheksiz darajada muhim ish" ma'nosini bildiradi.

Misollar (Ingliz tilida):

The sweetest words – (eng yoqimli so'zlar)

The best of both worlds – (Ikkala dunyoning eng yaxshisi)

The last straw – (Oxirgi tomchi)

A truly pure heart – (mutlaqo pokiza yurak)

A deeply narrow worldview – (o'ta cheklangan dunyoqarash)

Morfologik tahlil:

Ingliz tilida orttirma daraja **"the"** artikli va sifatlarning orttirma shakli yoki kuchaytiruvchi so'zlar yordamida hosil qilinadi.

"The sweetest words" iborasida **"the"** artikli va **"-est"** qo'shimchasi "sweet" sifatini orttirma darajaga olib chiqadi.

"An immensely important task" iborasida **"immensely"** so'zi **"important"** sifatini kuchaytirib, "nihoyatda muhim" degan ma'no hosil qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, har ikkala til frazeologik tizimida sifat komponentining grammatik va semantik funksiyalari o'xshash bo'lsa-da, ularning milliy xususiyatlari ham mavjud.

Xulosa. Frazeologik birliklarning tarkibiy tuzilishi va ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sifat komponentli frazeologizmlar tilning semantik tizimini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Sifat komponentlari frazeologik birliklarga obrazlilik, ekspressivlik va kuchaytirish kabi ma'no yuklaydi. Ushbu maqolada sifatning oddiy, qiyosiy va orttirma darajadagi frazeologik birliklari o'rganildi va ularning morfologik, sintaktik va semantik tahlili amalga oshirildi. Frazeologik birliklar nutqning muhim qismi bo'lib, ularning tarkibida sifat komponentlarining har xil darajadagi shakllari uchraydi. Oddiy, qiyosiy va orttirma darajadagi sifat komponentli frazeologizmlar semantik, sintaktik va stilistik jihatdan muhim xususiyatlarga ega. Ular nutqning aniqligi, emotsionalligi va ifodaviyligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
2. Kunin A.V. English-Russian Phraseological Dictionary. Moscow: Progress, 1996.
3. Arnold I.V. The English Word. Moscow: High School, 2006.
4. Madrahimov A. O'zbek frazeologiyasining nazariy asoslari. Toshkent: Fan, 2010.
5. Mamadaliyev K. O'zbek frazeologiyasining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2015.
6. Granger S., Meunier F. Phraseology: An Interdisciplinary Perspective. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
7. Cowie A.P. Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
8. Kobyakova I.K., Baranova S., Matuzka V. Structural Patterns of Phraseological Units Used to Denote the Personal Character. – ResearchGate, 2017.
9. Xolmatova M.I. Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili. – Academic Research in Educational Sciences, 2020.
10. Salohiddinov G'. O'zbek tilida frazeologik birliklarning semantik tahlili. Toshkent: Sharq, 2015.
11. Musayeva E. Phraseological Units in the English Language and Their Structural and Semantic Peculiarities. – Dspace.khazar.org, 2019.
12. Cambridge Dictionary. English Idioms and Phrases.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent, 2008.

UDC 808.5

LINGUISTIC FEATURES OF THE CONCEPT OF "MAGIC" IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES: A COMPARATIVE-COGNITIVE ANALYSIS

N.D. Djumaeva, PhD, Associate professor Bukhara State University,
N.I. Bakhshilloeva, Master student of Bukhara State University

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "sehr" konseptining lisoniy xususiyatlari qiyosiy-kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Sehr tushunchasi til va*

madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar orqali shakllanib, turli tillarda o'ziga xos ifodalanadi. Maqolada "sehr" konsepti bilan bog'liq leksik birliklar, metaforik ifodalar, frazeologizmlar hamda madaniy kodlar o'rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlari tahlil qilinadi.
***Kalit so'zlar**: sehr konsepti, lingvokulturologiya, kognitiv tahlil, metafora, frazeologizmlar.*
***Аннотация.** В данной статье анализируются лингвистические особенности концепта «магия» в английской и узбекской лингвокультурах с сравнительно-когнитивной точки зрения. Понятие магии формируется через взаимодействие языка и культуры и выражается по-разному в различных языках. В статье рассматриваются лексические единицы, метафорические выражения, фразеологизмы и культурные коды, связанные с концептом «магия», а также анализируются их общие и отличительные черты.*
***Ключевые слова**: концепт магии, лингвокультурология, когнитивный анализ, метафора, фразеологизмы.*
***Abstract.** This article analyzes the linguistic features of the concept of "magic" in English and Uzbek cultures from a comparative-cognitive perspective. The concept of magic is shaped through the interrelations between language and culture and is expressed uniquely in different languages. The article examines lexical units, metaphorical expressions, phraseological units, and cultural codes related to the concept of "magic," analyzing their common and distinctive aspects.*
***Key words:** concept of magic, cultural linguistics, cognitive analysis, metaphor, phraseological units.*

Introduction. Language and culture are deeply intertwined, reflecting the worldview and cognitive patterns of a society. One of the fundamental ways this connection manifests is through conceptual structures that shape the way people perceive and express certain ideas. The concept of "magic" is among such fundamental notions, rooted in mythology, religion, folklore, and everyday discourse across various cultures.

In linguistic and cultural studies, analyzing such concepts from a comparative perspective helps reveal the ways different societies construct meaning. In the case of English and Uzbek, the concept of magic has evolved uniquely due to historical, religious, and socio-cultural influences. While in English, "magic" is often associated with fantasy literature and entertainment, in Uzbek, it is more closely linked to folklore, superstitions, and religious beliefs.

This study aims to examine the linguistic representation of the concept of "magic" in English and Uzbek through lexical analysis, phraseology, and metaphorical models. The findings contribute to a broader understanding of how language encodes cultural values and beliefs, which is essential for cross-cultural communication and linguistic research.

Linguistically, different languages have various ways of expressing the concept of magic, shaped by cultural and historical factors.

In English, words such as magic, sorcery, witchcraft, and enchantment are used to describe magical phenomena. Among these, magic is the most general term and can refer to both positive (white magic) and negative (black magic) supernatural forces. Additionally, the English lexicon includes terms like spell, charm, and incantation, which refer to specific magical practices. While in Uzbek, the concept of magic is conveyed through words such as *sehr, jodu, afsun, folbinlik, and duoxonlik*. Unlike English, where magic is often depicted in a neutral or even positive way, Uzbek terms for magic tend to carry a negative connotation, being linked to deception or supernatural dangers. For instance, *sehr-jodu* (literally "magic-sorcery") commonly refers to harmful spells, and *duoxonlik* (the practice of reciting spells or prayers) has religious implications.

In contrast to English, where magic is widely used in fantasy literature (e.g., the Harry Potter series presents magic in a positive or neutral light), Uzbek culture tends to associate magic with negative supernatural forces, warnings, or religious prohibitions. Phraseological expressions provide insights into how the concept of magic is culturally embedded in each language. English and Uzbek contain idioms and expressions related to magic, though their meanings and usage differ.

English Phraseological Units Related to Magic

• Cast a spell on someone – To enchant or influence someone strongly, either literally or metaphorically.

• Magic touch – Exceptional skill or ability to perform something flawlessly.

• Black magic – Harmful or malevolent magical practices.

• Like magic – Something happening quickly and efficiently, as if by supernatural means.

Uzbek Phraseological Units Related to Magic

• Ko'zi bog'langan ("His eyes are covered") – A person who is blind to reality or deceived.

• Sehr-jodu kabi ta'sir qilmoq ("To have an effect like magic") – To have an overwhelming or powerful influence.

• Afsona va haqiqat orasida ("Between legend and reality") – Describes something mystical or unbelievable.

• Jodugar kabi bo'lish ("To be like a witch") – Used to describe someone who is cunning or deceitful.

These examples highlight an essential difference: while English often uses magic-related expressions metaphorically to describe talent or efficiency, Uzbek phraseology leans toward describing deception, trickery, or supernatural power with a cautionary tone. If it comes to the metaphorical interpretation of magic in English and Uzbek Cognitive linguistics suggests that concepts are structured through metaphorical models that shape how people understand abstract ideas. Magic, being an abstract concept, is metaphorically represented in different ways in English and Uzbek.

Magic as Power

• English: "Words have magic power" – Language and speech have the ability to influence people.

• Uzbek: "Sehrli so'z" ("Magical word") – A phrase used to describe inspiring or enchanting speech.

Magic as a Miracle

• English: "It worked like magic" – Something functioned perfectly or quickly.

• Uzbek: "Sehrli qo'l" ("Magical hand") – A metaphor for exceptional talent or craftsmanship.

Magic as Danger

• English: "He fell under her spell" – He was strongly influenced or captivated by someone, often in a romantic context.

• Uzbek: "Jodugar xotin" ("Witch woman") – A derogatory term for a deceitful or manipulative woman.

The metaphorical analysis shows that while English metaphors of magic can convey both positive and negative connotations, Uzbek metaphors predominantly focus on the mystical and dangerous aspects of magic.

Conclusion. The comparative analysis of the concept of "magic" in English and Uzbek cultures reveals significant differences in how the term is perceived and expressed. English, influenced by literary and fantasy traditions, tends to use "magic" in both positive and neutral contexts. Uzbek, on the other hand, has a more cautionary or negative perception of magic, often linking it to deception, religious beliefs, and folklore warnings.

Phraseological and metaphorical expressions further illustrate these differences: English idioms and metaphors frequently portray magic as a skill, power, or miraculous effect, while Uzbek expressions emphasize supernatural danger, cunning, or illusion. These findings highlight the deep connection between language, culture, and cognition, emphasizing the importance of cultural context in linguistic analysis. Future research could expand this study by including other languages and exploring how globalization and modern media influence the perception of magic in different cultures.

REFERENCES:

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980.
2. Oxford English Dictionary.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.
4. Proshina Z. G. Comparative Linguistics and Cross-Cultural Communication. Moscow, 2014.

5. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press.
6. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
7. Wierzbicka, A. (1991). Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Mouton de Gruyter.
8. Джумаева, Н. (2023). The essence of concept in cognitive linguistics. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 44(44).
9. Джумаева, Н. (2023). Ingliz hamda o`zbek xalq ertaklaridagi sehrli buyumlar orqali milliy madaniyatning ifodalanishi. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 39(39).
10. Джумаева, Н. (2023). Human centered motives in the image of magical objects in fairy tales. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 39(39).
11. Rasulov, Z. (2024). Ortiqchalik va tejamkorik tamoyillarining o'zaro munosabati. Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit, 8-9. https://doi.org/10.2024/tw831c49
10. Rasulov Zubaydullo Izomovich, . (2024). Balance of economy and redundancy in information transmission. International Journal Of Literature And Languages, 4(10), 26–28. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume04Issue10-06
11. Izomovich , R. Z. . (2024). Xalq Og'zaki Ijodida, Ingliz Va O'zbek Mifologiyasining Asosiy Personajlarining Boshqa Xususiyatlarini O`Rganish. *Miasto Przyszłości*, *47*, 1179–1182.
12. Erkinovna, Y. F. (2024). Modern Learning Methods and the Effectiveness of the Communication Maxims in Education. *Miasto Przyszłości*, *55*, 1133–1136.
13. Yuldasheva, F. E., & Shavkat, G. The advantages of pairworking and groupworking in English classes. *Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги Бухоро давлат университети немис ва француз тиллари кафедраси*, 312.

UO'K 808.5

"O'TKAN KUNLAR" ROMANIDA INSON RUHIY HOLATINI IFODALOVCHI LISONIY BIRLIKLAR TAHLILI

N.Djumayeva, PhD, dots., Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro
A.Abduxolikova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida inson ruhiy holatini ifodalovchi lisoniy birliklar tahlil qilinadi. Asarda qahramonlarning hissiyotlari va ichki kechinmalari turli lingvistik vositalar orqali ifodalangan bo'lib, bu usullar roman badiiyati va obrazlar tizimini yanada jonlantiradi. Keltirilgan materialda lisoniy birliklar psixolingvistik usuldan foydalanilib tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *psixolingvistik tahlil, tasviriy vositalar, obraz, frazeologik birliklar, ruhiy kechinmalar.*

Аннотация. *В данной статье анализируются языковые единицы, репрезентирующие психическое состояние человека в романе Абдуллы Кадири «Минувшие дни». В произведении чувства и внутренние переживания героев выражаются различными языковыми средствами, и эти приемы еще больше оживляют искусство романа и систему образов. В цитируемом материале языковые единицы анализируются с помощью психолингвистического метода.*

Ключевые слова: *психолингвистический анализ, изобразительные средства, образ, фразеологизмы, душевные переживания.*

Abstract. *This article analyzes the linguistic units that express the human mental state in Abdulla Qodiriy's novel "Days Gone By". In the work, the emotions and inner experiences of the characters are expressed through various linguistic means, and these methods further enliven the novel's art and the system of images. In the cited material, linguistic units are analyzed using psycholinguistic methods.*

Key words: *psycholinguistic analysis, pictorial means, image, phraseological units, mental experiences.*

Psixolingvistika matndagi hissiyotlilik (his-tuyg'ularni yetkazish qobiliyati) xususiyatiga alohida e'tibor qaratadi. Matnning bunday xususiyati insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini o'ziga xos pafos bilan ifodalaydi. Qahramonning hissiy kechinmalari va uning ruhiy holati muallifning nutqiy vaziyat uchun tanlagan til birliklariga bog'liq bo'lib qoladi[1].

Tahlilda quyidagi asosiy jihatlar o'rganiladi:

- Ruhiy holatni aks ettiruvchi leksik birliklar, jumladan, hissiy so'zlar va sinonimik qatlamlar.

- Frazeologik birliklar orqali inson kayfiyatining chuqur ifodalanishi.
- Dialog va ichki monologlar yordamida qahramonlarning psixologik kechinmalarini yoritish.
- Tasviriy vositalar (metafora, epitet, tashbih va poetizmlar) orqali ruhiy holatlarning estetik ifodasi.

Natijada, Qodiriyning badiiy uslubi inson ruhiyatini ta’sirchan tasvirlashda katta ahamiyat kasb etishi aniqlanadi. Ushbu maqola adabiyotshunoslar va tilshunoslar uchun muhim bo‘lib, o‘zbek badiiy matnida lingvistik birliklarning funksional xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Abdulla Qodiriyning "O‘tgan kunlar" romani o‘zbek adabiyotida birinchi tarixiy-romantik asar sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Asarda qahramonlarning ruhiy kechinmalari, hissiyotlari va ichki dunyosi turli lisoniy birliklar orqali ifodalangan. Quyida ushbu ruhiy holatlarni ifodalovchi asosiy vositalarni tahlil qilamiz.

1. Leksemalar orqali ifodalash

Qodiriy inson his-tuyg‘ularini ifodalash uchun aniq leksik birliklardan foydalanadi. Masalan:

- Muhabbat: "Kumush, men seni yaxshi ko‘raman…"
- Xavotir va qo‘rquv: "Yusufbek hojining yuragi g‘ash tortdi."
- Alam va nadomat: "O, taqdir, nega meni bu qadar ayovsiz qiynaysan?"
- Xafagarchilik va tushkunlik: “ Ichimga charog’ yoqsalar ham yorimaydi.”

Bu kabi so‘z va iboralar qahramonlarning ichki dunyosini aniqroq ochib beradi.

2. Frazeologik birliklar

Romanda inson ruhiy holatini yanada ta’sirli ifodalash uchun frazeologizmlardan keng foydalaniladi:

-"Ko‘ngli g‘ash bo‘ldi" qayg‘u va tashvish ifodasi.
- "Yuragi hovuch-hovuch bo‘ldi" – qo‘rquv va hayajonni bildiradi.
- "Ko‘ziga uyqu kelmadi" – insonning tashvishda ekanini ko‘rsatadi.

Bu iboralar orqali qahramonlarning his-tuyg‘ulari yanada aniq va tabiiy aks ettirilgan.

3. Sinonim va antonimlar orqali his-tuyg‘ularni kontrastda ifodalash

Qodiriy inson ruhiy holatlarini tasvirlashda sinonim va antonimlardan samarali foydalanadi.

-Masalan, Kumush va Yusufbek hojining muhabbati shodlik va umid bilan bog‘langan bo‘lsa, Zaynabning qismati og‘riq va hasrat bilan ifodalangan.

-Yusufbek hoji va Komilbek obrazlarida yaxshi-yomon tushunchalari keskin ziddiyatda beriladi.

4. Dialoglar va ichki monologlar

Qahramonlarning ruhiy holatini ochishda dialoglar va ichki monologlar muhim o‘rin tutadi.

- Yusufbek hoji Kumush va Otabek o‘rtasidagi sevgi haqida o‘ylaganda, u o‘z ichida turli kechinmalarni boshdan kechiradi.
- Otabekning Kumushga bo‘lgan muhabbati esa uning so‘zlarida yaqqol aks etadi:

“Sen meni deb qiynalayapsan, Kumushjon! Men ham shu yurak g‘amini bosib bo‘lay desam, yana seni o‘ylayman.”_

Bunday holatlar ruhiy kechinmalarni tabiiy tarzda yetkazadi.

5. Poetizmlar va tasviriy vositalar

Asarda inson his-tuyg‘ularini ta’sirchan tasvirlash uchun metafora, epitet va boshqa badiiy vositalardan keng foydalanilgan:

- Metaforalar: "Ko‘nglim g‘ulg‘ula bo‘ldi.", "Taqdir mening boshimga qora bulutlar tortdi.".
-Epitetlar: "g‘amgin yurak", "qalbi pora-pora", "mehribon Kumush".
-Tashbihlar: "Yuragi g‘am ichida erib borayotgan sham kabi edi.", "Ko‘z yoshlari yomg‘irdek yog‘ildi".

Bular qahramonlarning ruhiy holatini yanada teranroq ifodalaydi.

Xulosa. "O‘tgan kunlar" romanida inson ruhiy kechinmalarini ifodalash uchun turli lisoniy birliklar – leksik birliklar, frazeologizmlar, sinonim va antonimlar, dialoglar, ichki monologlar hamda tasviriy vositalardan foydalanilgan. Bu usullar orqali qahramonlarning ichki dunyosi o‘quvchiga yorqin va jonli yetkaziladi.

Shu sababli, Qodiriyning badiiy uslubi inson his-tuyg‘ularini aniq va ta’sirchan ifodalashda alohida o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abuzalova Mehriniso Kadirovna, Avliyoqulova Lola Bebutovna, “BADIIY MATNNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI”. "AYNIY VORISLARI" xalqaro elektron jurnal. ISSN 3030-3370
2. Qodiriy, Abdulla. O‘tgan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, turli nashrlari.
3. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Abdulla Qodiriy ijodi va o‘zbek romanchiligi rivoji. – Toshkent, 1980.
4. Vohidov, A. O‘zbek romanining shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent, 1976.
5. Karimov, I. Abdulla Qodiriy va jadid adabiyoti. – Toshkent, 1994.
6. Usmonov, Q. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2005.
7. Jo‘raev, M. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.
8. Mamatov, M. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi badiiy tasvir vositalari. – Toshkent, 2010.
9. Rahmonov, Sh. Frazeologik birliklarning badiiy asardagi funksiyasi. – Toshkent, 2015.

UDK 808.3

PRAGMATIC FEATURES OF INFINITIVE AND INFINITIVE CONSTRUCTIONS

N. Djumayeva, Associate professor, PhD, Bukhara State University, Bukhara
D. Sultanmuradova, master student, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilida infinitiv va infinitiv konstruksiyalarining pragmatik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot ushbu grammatik birliklarning turli kommunikativ kontekstlardagi roli va funksiyalarini, jumladan, modal ma’no ifodalash, xushmuomalalik strategiyalarini qo‘llash hamda bilvosita nutq shakllarini yaratishdagi ahamiyatini o‘rganadi. Infinitiv konstruksiyalarining sintaktik moslashuvchanligi va boshqa til birliklari bilan bog‘lanishi natijasida turli xil ma’no nozikliklarini qanday hosil qilishi tadqiq qilinadi. Shuningdek, Otto Jespersen, V.V. Vinogradov va Sh.S. Sirojiddinov kabi tilshunos olimlarning infinitiv ishlatilishi bo‘yicha qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, infinitiv konstruksiyalari nutqni tartibga solish, buyruqlarni yumshatish va niyatni bevosita bildirmasdan ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola rasmiy va norasmiy nutq kontekstlarida infinitiv tuzilmalarning qanday ishlatilishini ko‘rsatadigan lingvistik tahlillarni taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *infinitiv, infinitiv konstruksiyalari, pragmatika, modal ma’no, bilvosita nutq, xushmuomalalik strategiyalari, sintaktik moslashuvchanlik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются прагматические особенности инфинитива и инфинитивных конструкций в английском языке. Исследуется их роль в различных коммуникативных контекстах, с особым вниманием к выражению модальности, вежливости и косвенной речи. Анализируется синтаксическая гибкость инфинитивных конструкций и их взаимодействие с другими языковыми единицами, что позволяет передавать сложные смысловые оттенки. Кроме того, проводится сравнительный анализ взглядов известных лингвистов, таких как Отто Есперсен, В.В. Виноградов и Ш.С. Сироджиддинов, на семантические и прагматические аспекты использования инфинитива. Выводы исследования показывают, что инфинитивные структуры играют ключевую роль в организации дискурса, смягчении команд и выражении намерений без прямого указания. Статья дает представление о том, как инфинитивные конструкции формируют языковое взаимодействие в официальных и неофициальных ситуациях.*

Ключевые слова: *инфинитив, инфинитивные конструкции, прагматика, модальность, косвенная речь, стратегии вежливости, синтаксическая гибкость.*

Abstract. *This article examines the pragmatic features of the infinitive and infinitive constructions in English. It explores how these structures function within different communicative contexts, emphasizing their role in expressing modality, politeness, and indirect speech. The research investigates the syntactic flexibility of the infinitive and its interaction with other linguistic elements to convey nuanced meanings. Furthermore, the study compares the views of leading linguists, such as Otto Jespersen, V.V. Vinogradov, and Sh.S. Sirojiddinov, on the semantic and pragmatic aspects of infinitive usage. The findings suggest that infinitive constructions serve as a crucial tool in*

structuring discourse, softening commands, and indicating intention without imposing directness. The analysis provides insights into how infinitive-based expressions shape linguistic interactions in both formal and informal settings.

Key words: *infinitive, infinitive constructions, pragmatics, modality, indirect speech, politeness strategies, syntactic flexibility.*

Infinitives and infinitive constructions play a significant role in English grammar and communication. Beyond their traditional syntactic functions, these structures contribute to the pragmatic aspects of language, influencing politeness strategies, modality, and indirect speech. The infinitive can soften commands, indicate intention without directness, and create a more formal or neutral tone in discourse.

From a pragmatic perspective, infinitive constructions often serve as tools for structuring speech in a way that aligns with social norms and communicative efficiency. They appear frequently in formal registers, academic writing, and diplomatic language, helping to maintain an appropriate level of politeness and ambiguity. Moreover, their use extends beyond English, showing cross-linguistic similarities and differences in how they function in various languages.

This study explores the pragmatic features of infinitive constructions, focusing on their communicative functions, contextual variations, and syntactic flexibility. By analyzing different linguistic perspectives, including those of Otto Jespersen, V.V. Vinogradov, and Sh.S. Sirojiddinov, this research aims to highlight the role of infinitives in pragmatics and discourse. Through a comparative approach, it examines how infinitive-based expressions shape meaning and interaction in both formal and informal communication.

Infinitives and infinitive constructions are widely used in English to express various shades of meaning beyond their grammatical functions. They contribute to pragmatics by shaping the tone of communication, indicating intention, and structuring discourse in a way that aligns with politeness norms and social expectations. In different contexts, these structures help soften requests, present indirect speech, and introduce modal implications.

1. Pragmatic Functions of Infinitives

One of the key pragmatic roles of infinitives is their ability to modify the force of an utterance. In formal communication, infinitive constructions help mitigate directness, making speech more polite and less imposing. For example:

I want to ask you a question (more indirect and polite)

Can I ask you a question? (more direct)

Similarly, infinitives contribute to expressions of obligation and necessity. Instead of issuing direct commands, speakers use infinitive constructions to sound more diplomatic:

It is important to submit the report on time (polite and indirect)

You must submit the report on time (direct and firm)

These pragmatic strategies allow speakers to navigate social interactions effectively while maintaining a balance between clarity and politeness.

2. Infinitive Constructions in Indirect Speech

Infinitives frequently appear in indirect speech, helping to convey reported statements, thoughts, or intentions without altering the original meaning. In this context, infinitive structures function as pragmatic tools for softening statements:

Direct: She said, *"I will help you."*

Indirect: *She promised to help me.*

This transformation illustrates how infinitive constructions reduce the assertiveness of a statement, making it sound more neutral and formal.

3. Cross-Linguistic Perspectives on Infinitives

While English relies on infinitives for a range of pragmatic purposes, their role varies across languages. In Russian, for instance, infinitives are also commonly used to express obligation (Нужно сделать это – *"It is necessary to do this").* Similarly, in Uzbek, infinitives play a role in conveying politeness and indirect speech (Men buni qilishni xohlayman – *"I want to do this*"). A comparative

analysis of different languages highlights both universal and language-specific pragmatic functions of infinitives.

4. Theoretical Approaches to Infinitive Pragmatics

Several linguistic scholars have explored the pragmatic features of infinitives, emphasizing their role in communication, politeness, and discourse organization.

Otto Jespersen's View on Infinitive Modality

Danish linguist Otto Jespersen (1924) argued that infinitives often carry a modal function, allowing speakers to express possibility, necessity, or intention without being overly direct. He noted that infinitives serve as an effective way to soften commands and requests in formal discourse.

For example:

To be honest, I don't agree with you. (Hedging strategy)

It is necessary to complete the project by Friday. (Impersonal obligation)

In these cases, infinitive constructions make statements sound less imposing, aligning with Jespersen's claim that they contribute to pragmatic politeness.[1]

V.V. Vinogradov on Infinitives in Indirect Speech

Russian linguist V.V. Vinogradov (1950) explored how infinitives function in indirect speech and reported statements. He emphasized that infinitive constructions provide a smooth transition between direct and indirect discourse, maintaining the speaker's intent while adjusting the sentence structure.

For instance:

Direct speech: *He said, "I will help you."*

Indirect speech: *He promised to help me.[2]*

According to Vinogradov, this transformation illustrates how infinitives can preserve meaning while making statements more formal and neutral.

Sh.S. Sirojiddinov's Study on Uzbek Infinitives

Uzbek linguist Sh.S. Sirojiddinov (2005) analyzed the syntactic and pragmatic aspects of infinitives in Uzbek and other Turkic languages. He found that infinitive constructions in Uzbek are widely used to express desire, necessity, and politeness, similar to their role in English and Russian.

For example:

Men buni qilishni xohlayman. (I want to do this.)

Sizga yordam berish kerak. (It is necessary to help you.)

Sirojiddinov's research shows that infinitives in Uzbek, like in English, contribute to indirectness and politeness, making them important in both spoken and written discourse.[3]

Conclusion. Infinitives and infinitive constructions play a crucial role in language pragmatics, influencing politeness, indirectness, and discourse organization. Their ability to soften commands, express intention, and structure indirect speech makes them an essential feature in both spoken and written communication.

A comparative analysis reveals that infinitive constructions are widely used across different languages, though their specific pragmatic functions may vary. In English, they often contribute to formality and politeness, while in Russian and Uzbek, they similarly help convey indirectness and necessity. The theoretical insights of Jespersen, Vinogradov, and Sirojiddinov highlight the syntactic and pragmatic flexibility of infinitives, demonstrating their significance in shaping meaning and interaction.

Understanding the pragmatic features of infinitives allows for more effective communication, particularly in formal and intercultural settings. As language continues to evolve, infinitive constructions remain a powerful linguistic tool for maintaining clarity, politeness, and structural coherence in discourse. Further research into their role in different sociolinguistic contexts can provide deeper insights into their evolving functions in communication.

REFERENCES:

1. Jespersen, O. (1924). The Philosophy of Grammar. London: Allen & Unwin.
2. Vinogradov, V. V. (1947). Russkiy yazyk: Grammaticheskoe uchenie o slove. Moskva: Nauka.
3. Sirojiddinov, S. (2003). Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

4. Quirk, R., Greenbaum, S., Leech, G., & Svartvik, J. (1985). A Comprehensive Grammar of the English Language. London: Longman.

5. Huddleston, R., & Pullum, G. K. (2002). The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.

6. Palmer, F. R. (1987). The English Verb. London: Longman.

7. Lyons, J. (1977). Semantics (Vol. 1 & 2). Cambridge: Cambridge University Press.

8. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press.

9. Xudoyberganova, D. (2010). O'zbek tilining grammatikasi va sintaksisi. Toshkent: Fan.

10. Norman, E. (2016). Pragmatics and Language Structure: The Role of Infinitives. New York: Oxford University Press.

UO'K 81-13

O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATLARIDA TERMINLARNING KODIFIKATSIYA QILINISHI

J.J. Egamberdiyev, dots., Andijon Davlat Chet Tillari Instituti, Andijon

Annotatsiya. mazkur ilmiy maqola o'zbek tilidagi izohli lug'atlarda terminlarning kodifikatsiya qilinishi jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Unda terminlarning lingvistik va ilmiy-texnik tizimlarda bir me'yorga solinishi, ularni izohli lug'atlarda ta'riflash prinsiplari hamda normativ asoslari yoritiladi. Maqolada kodifikatsiya jarayonining muhim bosqichlari – termin tanlash, ularning leksik-semantik xususiyatlarini belgilash, xalqaro standartlarga moslashtirish va milliy til qoidalariga mos ekvivalentlarni yaratish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, terminologik muammolar va ularni hal etish yo'llari, jumladan, yangi sohalar va texnologiyalar uchun terminlarning ishlab chiqilishi, ularni rasmiy hujjatlar va ommaviy nashrlarda targ'ib etish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari izohli lug'atlar tuzishda ilmiy asoslangan yondashuvni takomillashtirish va til birligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalarni taklif etadi. Ushbu maqola tilshunoslar, terminologlar va lug'at tuzuvchilar uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, izohli lug'atlar, terminologiya, kodifikatsiya, normativ lug'atlar, til me'yorlash, termin tanlash, leksik-semantik tahlil, xalqaro standartlar, milliy til.*

Аннотация. *данная научная статья посвящена изучению процесса кодификации терминов в толковых словарях на узбекском языке. В нем излагаются принципы и нормативные основы стандартизации терминов в лингвистических и научно-технических системах, их определения в толковых словарях. В статье анализируются важные этапы процесса кодификации — отбор терминов, определение их лексико-семантических свойств, адаптация к международным стандартам, создание эквивалентов в соответствии с правилами национального языка. Особое внимание будет уделено также терминологическим проблемам и путям их решения, включая разработку терминов для новых направлений и технологий, их продвижение в официальных документах и массовых изданиях. Результаты исследования предлагают рекомендации, направленные на совершенствование научно обоснованного подхода к созданию толковых словарей и обеспечение языкового единства. Данная статья представляет собой важный теоретический и практический ресурс для лингвистов, терминологов и лексикографов.*

Ключевые слова: *узбекский язык, толковые словари, терминология, кодификация, нормативные словари, стандартизация языка, отбор терминов, лексико-семантический анализ, международные стандарты, национальный язык.*

Abstract. *this scientific article is devoted to the study of the process of codification of terms in explanatory dictionaries in the Uzbek language. It covers the principles and normative foundations of standardizing terms in linguistic and scientific-technical systems, defining them in explanatory dictionaries. The article analyzes the important stages of the codification process - the process of selecting terms, determining their lexical and semantic characteristics, adapting them to international standards and creating equivalents in accordance with the rules of the national language. Special attention is also paid to terminological problems and ways to solve them, including*

the development of terms for new areas and technologies, their promotion in official documents and mass publications. The results of the research offer recommendations aimed at improving the scientifically based approach to compiling explanatory dictionaries and ensuring language unity. This article serves as an important theoretical and practical resource for linguists, terminologists and lexicographers.

Key words: *Uzbek language, explanatory dictionaries, terminology, codification, normative dictionaries, language standardization, term selection, lexical-semantic analysis, international standards, national language.*

Til har bir jamiyatning madaniyati, tarixi va ilm-fani haqida ma'lumot beruvchi asosiy vositalardan biridir. So‘z boyligining aniqligini ta'minlash va uni me'yorlashtirishda izohli lug‘atlar muhim ahamiyatga ega. Izohli lug‘atlar faqatgina so‘zlarning ma'nosini yoritish bilan chegaralanib qolmay, balki ularni kodifikatsiya qilish, ya'ni ilmiy va amaliy jihatdan me'yorlashtirish jarayonida ham asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada o‘zbek tili izohli lug‘atlarida terminlarning kodifikatsiya qilinishi masalasi ko‘rib chiqiladi.

Terminologiya va kodifikatsiya tushunchalari. O‘zbek tilida izohli lug‘atlar terminlarni kodifikatsiya qilish jarayoni – bu terminlarni bir me'yorga solish, ularni ma'lum bir til normalariga moslashtirish va ilmiy-texnik, madaniy hamda boshqa sohalarda yagona qo‘llashni ta'minlash jarayonidir. Bu jarayon tilni rivojlantirish va boyitish maqsadida muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu jarayonning ayrim asosiy yo‘nalishlari va bosqichlari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Terminologiya ma'lum bir soha yoki fan yo‘nalishiga oid maxsus atamalar yig‘indisini anglatadi. Kodifikatsiya esa atama va tushunchalarning muayyan bir me'yorga solinishi, ularning belgilangan qoidalar asosida qo‘llanilishini ta'minlash jarayonidir. Kodifikatsiya qilish natijasida terminlarning barqarorligi, bir ma'noda ishlatilishi va tushunarli bo‘lishi ta'minlanadi.

O‘zbek tili izohli lug‘atlarining vazifalari. O‘zbek tili izohli lug‘atlari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Aniqlik va me'yorlashtirishni ta'minlash**:** Lug‘atlar atamalarni standartlashtirish va ularning aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.
2. Til boyligini saqlash va rivojlantirish: Lug‘atlar tilda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar va terminlarni o‘zida aks ettiradi.
3. Ilmiy asosni yaratish**:** Lug‘atlarni tuzish jarayonida ilmiy metodlardan foydalanilib, atamalarning lingvistik va semantik xususiyatlari o‘rganiladi.

Kodifikatsiya jarayonining bosqichlari:

1. Terminlarni yig‘ish va tanlash: Dastlab, ma'lum bir sohada ishlatiladigan terminlar aniqlanadi va to‘planadi.
2. Terminlarni tavsiflash va tahlil qilish: Har bir terminning lingvistik va semantik xususiyatlari aniqlanadi.
3. Me'yorlashtirish: Terminlarning yagona standartlarga mosligi ta'minlanadi.
4. Lug‘atga kiritish: Kodifikatsiyadan o‘tgan terminlar lug‘atga kiritiladi va ular ma'nolari izohlanadi.

Izohli lug‘atlarda kodifikatsiya muammolari.

1. Terminologik ziddiyatlar**:** Bir so‘zning turli sohalarda turlicha ma'no kasb etishi lug‘atlarda chalkashliklarga olib keladi.
2. Yangi atamalarni qabul qilish: Ilm-fan va texnologiya sohalarida yangi paydo bo‘lgan terminlarni lug‘atga kiritishda kechikishlar kuzatiladi.
3. Milliy va xalqaro standartlar: Ba'zi terminlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida milliy til me'yorlariga zid keluvchi holatlar yuzaga keladi.

1. Terminlarning me'yorlashtirilishi

a). Terminologik lug‘atlar va izohli lug‘atlar tuzishda terminlar ma'nosi, grammatik shakllari va qo‘llanish sohalarini aniq belgilash.

b). Terminlarning o‘zbek tilidagi muqobil variantlarini ishlab chiqish va ularni til qoidalariga moslashtirish.

c). Til birligi uchun xalqaro standartlarga mos terminlarni milliy tilga moslashtirish yoki ularga mos ekvivalentlarni yaratish.

2. Izohli lug‘atlar tuzish

a). Har bir terminning aniq ta’rifini berish.

b). Bir xil ma’noli yoki yaqin ma’noli terminlarni farqlash uchun ularning ma’nosini izohlash.

c). Terminlarning etimologiyasini (kelib chiqishini) ko‘rsatish, ayniqsa, yangi qabul qilingan terminlar uchun.

3. Terminlarni tanlash prinsiplari

a). Aniqlik**:** Har bir termin o‘z sohasida yagona va tushunarli bo‘lishi kerak.

b). Qisqalik: Termin imkon qadar qisqa va esda qoladigan bo‘lishi kerak.

c). O‘zbek tiliga xoslik**:** Chet tilidan olingan terminlar imkon qadar o‘zbek tiliga moslashtiriladi.

d). O‘zaro uyg‘unlik: Bir xil sohadagi terminlar bir xil til normalariga bo‘ysunishi kerak.

4. Terminlarning ilmiy jamoatchilik tomonidan tasdiqlanishi

a). Lug‘at tayyorlash jarayonida terminlar muhokamaga qo‘yiladi va mutaxassislarning fikrlari inobatga olinadi.

b). Terminologiya bilan shug’ullanuvchi olimlardan iborat komissiyalar va maxsus ilmiy kengashlar tomonidan tasdiqlanadi.

5. Kodifikatsiya natijasining ommalashuvi

a). Rasmiy hujjatlar, o‘quv materiallari, ilmiy adabiyotlar orqali kodifikatsiya qilingan terminlarni amaliyotga kiritish.

b). Lug‘atlar va ma’lumot bazalarini elektron shaklda ishlab chiqish va ularni keng ommaga taqdim etish.

6. Muammolar va yechimlar

a). Muammolar: Yangi texnologiyalar va sohalar uchun terminlarni o‘z vaqtida ishlab chiqmaslik, terminlarning bir necha variantda qo‘llanishi, chet tillar ta’siri.

b). Yechimlar: Terminologiyani rivojlantirish bo‘yicha doimiy tadqiqotlar o‘tkazish, davlat darajasida terminologiyani qo‘llab-quvvatlash.

XULOSA. O‘zbek tili izohli lug‘atlarida terminlarni kodifikatsiya qilish tilning me’yorlashtirilgan holda rivojlanishini ta’minlash uchun muhimdir. Bu jarayonda quyidagi amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Har bir fan sohasi bo‘yicha maxsus terminologik lug‘atlar yaratish va ularni doimiy ravishda yangilab borish.
2. Yangi terminlarni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida milliy til me’yorlarini hisobga olish.
3. Lug‘at tuzishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va raqamli platformalar orqali keng auditoriyaga yetkazish.

O‘zbek tilining ilmiy va madaniy mavqeyini mustahkamlashda izohli lug‘atlarning ahamiyati beqiyosdir. Bu jarayonda kodifikatsiya tamoyillariga amal qilish tilni rivojlantirish va boyitish yo‘lida muhim qadam hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Terminologiya qo‘mitasi. “O‘zbek tili terminologiyasi asoslari”. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.

2. Abdullayev, A. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.

3. Komilov, N. “Til me’yoriyati va kodifikatsiya muammolari”. Til va adabiyot jurnali, 2019, №2, 45-53-betlar.

4. Norman, E. “Terminologiya va lingvistik kodifikatsiya”. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2015.

5. Sodiqov, M. “Terminlarni milliylashtirish: nazariya va amaliyot”. O‘zbekiston tilshunosligi masalalari, 2021, №3, 78-87-betlar.

UO‘K 811.512.133

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUHABBAT IZHORINI IFODALASHDA PRAGMATIK YONDASHUV

M.B.Ergashev, o‘qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqola muhabbat izhorining pragmatik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, u til, madaniyat, kontekst va kommunikatsiya jarayonlaridagi o‘zgarishlarni tahlil etadi. Maqolada sevgi izhorlarining bevosita va bilvosita shakllari, madaniyatga bog‘liqligi, gender rollari, noverbal kommunikatsiya va zamonaviy texnologiyalarning ta’siri keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: muhabbat izhori, pragmatika, kommunikatsiya, madaniyat, til, bevosita izhor, bilvosita izhor, gender, noverbal kommunikatsiya.*

Аннотация. *Эта статья посвящена изучению прагматических аспектов выражения любви, анализируя язык, культуру, контекст и процессы коммуникации. В статье рассматриваются прямые и косвенные формы выражения любви, их культурная привязанность, гендерные роли, невербальная коммуникация и влияние современных технологий.*

Ключевые слова*: выражение любви, прагматика, коммуникация, культура, язык, прямое выражение, косвенное выражение, гендер, невербальная коммуникация.*

Abstract. *This article is dedicated to studying the pragmatic aspects of love expression, analyzing language, culture, context, and communication processes. The article discusses both direct and indirect forms of love expression, their cultural dependence, gender roles, nonverbal communication, and the impact of modern technologies.*

Keywords*: love expression, pragmatics, communication, culture, language, direct expression, indirect expression, gender, nonverbal communication.*

Kirish. Tilning voqelanishda inson omili bilan bog‘liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish lingvopragmatik va psixolingvistik yo‘nalishning o‘rganish manbaini tashkil etadi. Ma’lumki, nutqiy muloqot o‘nlab – milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat dinamik sistemadir. Demak, insonning mental faoliyati bilan bog‘liq ravishdagi hodisalarni tadqiq qiluvchi kulturologiya fanining muhim tarmoqlaridan biri sifatidagi pragmatik tilshunoslik inson subyekti va obyektivlik (lison)ni qorishiq yaxlitlik sifatida tadqiq qiladi. Zero, nutqda subyektivlik va obyektivlikni bir-biridan ajratgan holda tadqiq qilish mumkin emas, sistemaviylik yaxlitlik xossasi bilan xarakterlanadi. Demak, nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, madaniy sistemalar bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa obyektiv baho beriladi.

So‘ngi paytlarda, til bo‘limlarining pragmatik aspektlari va ularning kommunikativ xususiyatlari keng miqyosda aniqlanmoqda. Pragmatik yondashuv- ma’noni tilning muayyan bir yo‘nalishida muayyan bir kontekst yoki vaziyatda muloqot jarayonida yoki nutq aktlari orqali namoyon etadi. Odatda muloqotning xususiyati muayyan bir kontekst yoki vaziyatda so‘zlovchining muloqotga kirishishdan maqsadi orqali aniqlanadi.

Muhabbat – inson hayotining eng chuqur va ta’sirchan his-tuyg‘ularidan biri bo‘lib, uning izhori turli madaniy, lingvistik va kommunikativ omillarga bog‘liq. “Muhabbat” konsepti o‘zbek tilida sevgi so‘zi bilan sinonim sifatida qo‘llaniladi. Mazkur tushuncha bir tomondan hissiy, ikkinchi tomondan esa badiiydir [2]. Sevgi izhor qilish jarayoni oddiy so‘zlardan iborat bo‘lib qolmay, balki muloqotning murakkab pragmatik jihatlariga ham tayanadi. Pragmatika – til birliklarining kontekstga bog‘liq holda qanday qo‘llanilishini o‘rganadigan fan sifatida, muhabbat izhorining mazmuni va ta’sirchanligini tahlil qilishga imkon beradi.

Muhabbat izhori bevosita yoki bilvosita shaklda bo‘lishi, so‘z, imo-ishora yoki harakatlar orqali ifodalanishi mumkin. Har bir holatda pragmatik yondashuv sevgi e’tirofining samimiyligi va samaradorligini belgilaydi. Shuningdek, muloqot maqsadi, nutqiy vaziyat, madaniy kontekst va hissiy

ifodaning uslubiy xususiyatlari muhabbat izhorining qanday qabul qilinishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada muhabbat izhorining pragmatik jihatlari, uning turli muloqot strategiyalari hamda madaniy va lingvistik farqlari atroflicha tahlil qilinadi. Sevgi e'tiroflarining turli shakllarini tushunish esa muloqotning yanada samimiy va mazmunli bo'lishiga xizmat qiladi.

Muhabbat izhorining pragmatik xususiyatlari tilshunoslik, psixologiya, madaniyat va noverbal muloqotni o'z ichiga oladi. Ularning barcha jihatlari muloqotning samaradorligini, tinglovchiga ta'sirni va his-tuyg'ularni yetkazishni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, muhabbat izhorining pragmatik jihatlari, ayniqsa, madaniyatlararo tafovutlar, noverbal kommunikatsiya va zamonaviy texnologiyalarning ta'siri bilan yanada boyib bormoqda. Biz tahlilimiz davomida Muhabbat izhorining pragmatik xususiyatlarini tasniflanishning quyidagi turlarini keltirishimiz mumkin:

1. Kontekstga bog'liqlik

Kontekst nutqiy harakat, muloqotning qayerda, qachon, kimlar bilan kechayotganiga ishora qiluvchi hodisadir. Til birliklarining kontekstual ma'nosi ularning denotativ va emotsional ma'nosidan farqli ravishda, asosan, ma'lum bir matn yoki muloqot muhitida ijtimoiy madaniy omillar bilan bog'liq qo'llanishda namoyon bo'ladi. Pragmalingvistlar ko'pchilik holatlarda nutqiy tuzilmalarning u yoki bu kontekstda faollashuvi natijasida yuzaga keladigan ma'no xususiyatlarini aniqlashni muhim deb hisoblaydilar [6].

Muhabbat izhorining pragmatik jihatlari ko'pincha **kontekstga** bog'liqdir. Muloqotning samimiyligi, nutqiy vaziyat va shaxslar o'rtasidagi munosabatlar muhabbatni qanday ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Masalan:

- **Suhbatdoshlar o'rtasidagi aloqalar** (yaqin do'stlik, sevgi munosabatlari, oilaviy bog'lanishlar) izhorning aniq yoki bilvosita bo'lishini belgilaydi.
- **Vaqt va joy**: Misol uchun, muhabbat izhorini **xususiy muhitda** (masalan, ikki kishilik suhbatda) yoki **jamoat joylarida** ifodalash turlicha bo'lishi mumkin.

2. Bevosita va Bilvosita izhorlar

Axborotni bevosita yoki bilvosita yetkazish pragmalingvistika sohasida ma'lum shakldagi tuzilmalarning biror-bir boshqa mazmunda qo'llanilishiga nisbatan ishlatiladi [6]. Demak, bevosita axborot yetkazish to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot almashinish bo'lib, hech bir qo'shimcha ma'no anglatmaydi. Aksincha, bilvosita axborot yetkazishda bildirilgan gap nisbatan asl ma'nosi va qo'shimcha ma'no anglatishi ham mumkin.

Muhabbat izhorlarining pragmatik jihatlari ham **bevosita** (to'g'ridan-to'g'ri) va **bilvosita** (nozik yoki estetik ifodalar) shakllarini o'z ichiga oladi.

Bevosita izhorlar – bu aniq va to'g'ridan-to'g'ri sevgi izhorlari: *"Men seni sevaman", "Men sizni yaxshi ko'raman". "I love you, I like you"* Bu turdagi izhorlar ko'pincha rasmiy yoki ochiq muloqotlarda ishlatiladi.

Bilvosita izhorlar – bu his-tuyg'ularni, she'riy ifodalar, ekspressiv vositalar va boshqa ko'chma ma'no anglatuvchi birliklar orqali bildirish: *"Sen mening yuragimning malikasisan", "Sen meni yaxshilikka chaqirgan yulduzimsan" "You are my sunshine", "You are my angel"*. Bu usul samimiyatni oshiradi va yanada romantik va nozik ifodalar sifatida ko'riladi hamda muhabbat izhorining jozibadorligini oshirish orqali yetkazishga xizmat qiladi.

3. Nutqiy Aktlar

Oksford universiteti professori Jon Ostin muloqot jarayonida hosil bo'ladigan nutqiy harakatlarni alohida lisoniy birlik sifatida talqin qilish va ularni mazmunan tasniflash g'oyasini ilk bor targ'ibot qilgan olimlardan bir edi [8]. U o'zining 1962 yilda nashr etilgan "How to do things with words" nomli ma'ruzalar to'plamida mazkur masalaga e'tibor qaratgan.

J.Ostinning fikricha har bir gap talaffuz qilinganda, o'z ma'nosi ifodasidan tashqari, ma'lum bir harakat bajariladi, ya'ni biror bir voqea haqida xabar beriladi. Bu xabar tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi, biror narsa iltimos qilinadi, taqiqlanadi shuningdek buyruq, maslahat, ijozat beriladi, va'da yoki taklif qilinadi hamda takalluf, minnatdorchilik izhor qilinadi [1].

Ushbu fikrdan kelib chiqib, Sh.Safarov nutqiy aktni ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir deb ta'kidlaydi [8]. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma'nosining so'zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan "boyitilishi", idrok etilishi natijasidir. Demak nutqiy akt ma'lum bir muloqot jarayonida so'zlovchi tomonidan tinglovchiga nafaqat axborot uzatilishi, balkim ma'lum bir maqsad bilan harakat bajarilishi hamdir.

Professor Sh.Safarovning 2023-yilda "Lesson press" nashriyotida nashr etilgan "Tilshunoslik terminlar lug'ati"da "nutqiy aktlar"ga shunday ta'rif beriladi: Kommunikativ harakat faoliyat birligi bo'lib, unda so'zlovchi va tinglovchining xatti-harakatlari aks etadi.

Muhabbat izhorini **nutqiy aktlar nazariyasi** orqali tushunish mumkin:

Lokutiv akt – (maxsus tizim, ma'no va munosabatga ega hukmni bayon qilish) Muhabbat izhori nutqning birinchi bosqichida sodir bo'ladi: *"Men seni sevaman."* Bu oddiy gapdir, lekin bu o'zining ma'nosi va konteksti bo'yicha muhimdir.

Illokutiv akt – (tegishli maqsad bilan tegishli kontekstda so'zlovchi tomonidan bajariladigan nutqiy harakat) Muhabbat izhori orqali muayyan maqsadga erishish (masalan, shaxsiy munosabatlarni mustahkamlash, sevgi va o'zaro ishonch yaratish).

Perlokutiv akt – (muloqot samarasini ta'minlash bilan bog'liq harakat) Bu izhor orqali yuzaga keladigan ta'sir: izhorni qabul qilgan shaxsning his-tuyg'ularda qanday o'zgarishlar bo'lishi (masalan, javob qaytarish yoki munosabatlarni kuchaytirish).

4. Madaniy Tafovutlar

Muhabbat konsepti madaniy konseptdir. Tilshunoslikda konsept mohiyatiga ko'ra madaniy, lingvomadaniy, psixolingvistik, kognitiv, emotsional, ilmiy xususiyatlarga egaligi e'tirof etiladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, konseptning mavjudlik doirasi, ya'ni til va fikrlashga madaniyat sohasi ham qo'shiladi. Lingvomadaniy konsept endi kognitiv tilshunoslik emas, balki lingvomadaniyatshunoslik birliklari bilan namoyon bo'ladi. Konseptni lingvomadaniy nuqtai nazardan olib qarasak, konsept madaniyatning bazaviy birligi hisoblanib, uning tarkibini konseptni madaniyat birligi deb hisoblashga asos bo'la oladigan belgilar, ya'ni etimologiyasi, konsept tarixi, zamonaviy assotsiatsiyalari, munosabat (baholash) [7] va boshqalar tashkil etadi.

Muhabbat izhorining pragmatik xususiyatlari **madaniyatga** ham bog'liqdir. Turli madaniyatlarda muhabbat izhori turlicha ifodalanadi. Masalan:

G'arb madaniyatlarida muhabbat izhorlari ko'proq bevosita va ochiq shakllarda bo'ladi.

"Isabella Clarence, I love you so much that I can barely breathe.Please never change, okay?" (Lynn Painter, Accidentally Amy)

There is no pretending. I love you, and I will love you until I die, and if there's life after that, I'll love you then. (Cassandra Clare, The Mortal Instruments)

Ingliz va Amerika badiiy adabiyotlarida, poetik asarlarda, ko'plab ijtimoiy va romantik muloqotlarida muhabbat izhorining asosan bevosita yetkazilishini kuzatishimiz mumkin.

Sharq madaniyatlarida (O'zbekistonda) sevgi ko'pincha bilvosita, turli ifoda vositalar, she'r va ramzlar orqali nozik ifodalanadi. O'zbek tilida, masalan, *"Yuragimni egalladingiz"* yoki *"Sizga ko'nglim tushdi"* kabi turli yashirin vositalar va iboralar ishlatiladi.

Men o'zimga bag'ishlang'an kuch manba'ini juda yaxshi onglar edim, mendagi bu o'zgarish manba'i uy ichida uxlag'uchi bir malak edi... Siz edingiz!»

(Abdulla Qodiriy, O'tkan Kunlar)

– Xolida, nega unday deysiz? Axir, men sizni... sizni... Xayolimni yolg'iz siz olib qo'ydingiz-ku, axir! Menga nasib bo'ladimi, yo'qmi, deb xavotirlanib o'zim ham topolmay yurgan aziz bir narsani taqdim qilasiz-u...

(O'.Hoshimov. Xayollarga bo'laman tutqun)

5. Noverbal Muloqot

Muloqot insonlar o'rtasidagi axborot almashinuv jarayoni bo'lib, u verbal va noverbal shakllarga bo'linadi. Bu ikki tur bir-birini to'ldiradi va insonlar o'rtasidagi tushunishni ta'minlaydi. Verbal muloqot — **so'zlar orqali amalga oshiriladigan muloqot** bo'lib, u nutq yoki yozma shaklda bo'lishi mumkin. Bunda til asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Noverbal muloqot **— so'zlarsiz, tana**

harakati, imo-ishora, yuz ifodalari, ovoz ohangi va boshqa belgilar orqali amalga oshiriladigan muloqot turi. Bunda asosiy ma'lumot tananing harakati va holati orqali yetkaziladi.

Noverbal kommunikatsiya (so‘zsiz muloqot) muhabbat izhorining ta'sirini yanada kuchaytiradi. Tana tili, ko‘z bilan qarash, tabassum va imo-ishoralar sevgi izhorining o‘zgacha shakllarini tashkil qiladi.

- Ko‘z bilan qarash – bu sevgi va yaqinlikni bildirishning kuchli vositasidir.

"I wish you could see yourself through my eyes. I wish you could read my mind so that you would know how much I want you, no one else." (Mia Sheridan, Archer's Voice)

Abdurahmon ko‘zlar allaqachon bir-biriga izhor etgan bu so‘zlarni Salimaga faqat armiyaga jo‘nashidan bir kun avval aytishga ulgurdi. Yo‘q, aslida aytgani yo‘q — «O‘tgan kunlar» kitobning oq sahifasiga «MEN SENI SEVAMAN», deb yozdi-da, bolalar uyiga borib, darvoza oldiga o‘rmalashib yurgan «churvaqa»lardan birining qo‘liga tutqazdi: «Salima opangga ber». Xizmat haqiga naq bir cho‘ntak «Iris» olgan bolakay g‘izillab jo‘nadi. Abdurahmon esa qush quvganday shoshilib orqasiga qaytdi. (Usmon Azim. Sevgi (hikoya))

Turli imo-ishoralar, turli xalqlarning madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlar, tana tili– sevgi izhorining samimiyligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

6. Zamonaviy texnologiyalarning ta'siri

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarsiz hayotimizni tasavvur qilishimiz qiyin. Ular turmush tarzimizning asosiy qismlaridan biriga aylanib qolgan. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari (Whatsapp, Facebook, Telegram va boshqalar) muhabbat izhorini yangi shakllarda amalga oshirishga imkon beradi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va ular orqali muloqot qilishga bugun har doimgiga qaraganda talab yuqori. Shunday ekan, ushbu zamonaviy texnologik vositalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muhabbat izhor qilish yangicha bir ifoda yo‘lini turmush tarziga kiritdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bugungi kunda mashhur bo‘lgan Facebook, Telegram, Instagram kabi messenjerlarda **"his-tuyg‘u belgilari", "kulgi belgilari" kabi "**emoji"lar, GIF-lar va ovozli xabarlar muhabbat izhorining yangi pragmatik shakllarini tashkil qiladi. Misol uchun, *yurak tasviri, lablar (bo‘sa tasviri)* kabi inson **his-tuyg‘ularini ifoda etuvchi belgilar** orqali sevgi izhor qilish oddiy muloqotlarda ommalashib ulgurdi.

Xulosa. Muhabbat izhorini ifodalashda pragmatik yondashuv turli madaniy va lingvistik omillarga bog‘liq bo‘lib, uning bevosita va bilvosita shakllari mavjud. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, G‘arb madaniyatlarida sevgi izhorlari odatda ochiq va aniq bo‘lsa, Sharq madaniyatlarida bilvosita va ramziy ifodalarga ko‘proq urg‘u beriladi. Shuningdek, ijtimoiy omillar, jumladan, gender farqlari, ijtimoiy maqom va kommunikativ muhit sevgi ifodalash usullariga sezilarli ta'sir qiladi.

Noverbal muloqot, jumladan, imo-ishoralar, ovoz ohangi va ko‘z bilan aloqa muhabbat izhorining ajralmas qismi bo‘lib, u ko‘pincha verbal ifodalar bilan birga ishlatiladi. Zamonaviy texnologiyalar muhabbat izhor qilish usullarini o‘zgartirib, emoji, qisqa yozishmalar va virtual aloqa vositalarini ommalashtirdi.

Umuman olganda, muhabbat izhorining pragmatik jihatlari kommunikatsiya jarayonining muhim qismi bo‘lib, u madaniyat, kontekst va shaxsiy xususiyatlarga qarab turlicha namoyon bo‘ladi. Ushbu mavzuni chuqurroq o‘rganish lingvistik hamda madaniyatlararo kommunikatsiyani yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Austin.J.L., "How to do things with words" Oxford at the clarendon press. 1962
2. D.M.Buzrikova. Olamning hissiy-lisoniy manzarasida "muhabbat" konseptining lingvokulturologik va gender tahlili.-Dissertatsiya, Farg‘ona-2024.
3. Ergashev M.B,, "Konseptning lingvomadaniy xususiyatlari." *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*. 2024.
4. Ergashev M.B., "Zamonaviy tilshunoslikda konsept tushunchasi talqini." *Science and innovation* 3.Special Issue 19 (2024): 44-46.
5. Oxford Collocation Dictionary for students of English. Second edition. Oxford university press-2009. p 963.
6. Sh.Safarov, Tilshunoslik terminlar lug‘ati.-T.: "Lesson press" nashriyoti, 2023.-356 b.
7. Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки // Вопросы языкознания. – М., 1985. – №3. – С.13
8. Ш.Сафаров, Прагмалингвистика. Монография.- Тошкент, 2008 йил, 318 бет.
9. A.Qodiriy, "O‘tkan kunlar"
10. Cassandra Clare, "The Mortal Instruments"

11. Lynn Painter, "Accidentally Amy"
12. Mia Sheridan, "Archer's Voice"
13. O'.Hoshimov. "Xayollarga bo'laman tutqun"
14. Usmon Azim. "Sevgi (hikoya)" 02.11.2013 ziyonet.com

UO'K 811.512'36/37'42

O'ZBEK TILIDA DO'STLIK/DUSHMANLIK KONSEPTLARINI IFODALOVCHI MAQOLLAR

G.Sh.Ergasheva, doktorant, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Namangan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xalq maqollarining til, falsafa, va badiiy ijoddagi o'rni, ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, hamda ularning xalq madaniyati va tarixidagi rolini o'rganish muhimligi ta'kidlangan. Maqollar xalqning ko'p asrlik tajribalari, axloqiy va estetik qarashlari, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi muhim tushunchalarni ifodalaydi. Maqollarning tilshunoslik va badiiy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Bunda maqollarni sintaktik, semantik, lingvopoetik, grammatik va pragmatik jihatlari asosida tasniflashning ahamiyati ko'rsatilgan. Har bir maqol o'ziga xos mazmun va tuzilishga ega bo'lib, ular qisqa va ixcham shaklda xalqning fikrini chuqur va ta'sirchan tarzda ifodalaydi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Xalq maqollari, folklor, tilshunoslik, ma'naviy meros, Mahmud Qoshg'ariy, hayotiy tajriba, do'stlik, dushmanlik, lingvistik tahlil, pragmatika.*

Аннотация. *В статье подчеркивается важность изучения роли народных пословиц в языке, философии и художественном творчестве, их значения в общественной жизни, а также их роли в народной культуре и истории. Пословицы отражают многовековой опыт народа, его нравственные и эстетические взгляды, а также важные понятия общественной жизни. Уделяется внимание языковым и художественным особенностям пословиц. Это подчеркивает важность классификации пословиц на основе их синтаксических, семантических, лингвопоэтических, грамматических и прагматических аспектов. Каждая пословица имеет свое уникальное содержание и структуру, и показано, что они выражают мысли народа в краткой и лаконичной форме, глубоко и впечатляюще.*

Ключевые слова: *Пословицы, фольклор, языкознание, духовное наследие, Махмуд Кашгари, жизненный опыт, дружба, вражда, лингвистический анализ, прагматика.*

Abstract. *The article emphasizes the importance of studying the role of folk proverbs in language, philosophy and artistic creativity, their significance in public life, as well as their role in folk culture and history. Proverbs reflect the centuries-old experience of the people, their moral and aesthetic views, as well as important concepts of public life. Attention is paid to the linguistic and artistic features of proverbs. This emphasizes the importance of classifying proverbs based on their syntactic, semantic, linguapoetic, grammatical and pragmatic aspects. Each proverb has its own unique content and structure, and it is shown that they express the thoughts of the people in a short and concise form.*

Keywords: *Proverbs, folklore, linguistics, spiritual heritage, Mahmud Kashgari, life experience, friendship, enmity, linguistic analysis, pragmatics.*

Kirish. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har biri tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda. Yillar aro davrlar aro ularning yangilari yaratilib turgan [1]. Dunyo folklorshunosligida maqollarni o'rganish bugungi kunda yuqori bosqichga ko'tarilgan. Qadimgi xalq

og‘zaki ijodi namunasi bo‘lgan maqollarning ilk tadqiqotchisi Mahmud Koshg‘ariy hisoblanadi. Mahmud Qoshg‘ariy turkiy qabilalar folklorining qo‘shiq, maqol, matal, marosim folklori, afsona, rivoyat kabi janrlariga oid katta material to‘plagan [1].

Muallif "Devonu lug‘ati-t-turk" asarida so‘zlarning ma'nosini izohlash uchun, o‘rni bilan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan misollar keltirgan. Bular qadimgi dostonlar, xalq qo‘shiqlaridan olingan she'riy parchalar va turkiy xalqlar orasida keng yoyilgan maqollardir. Mahmud Qoshg‘ariy asarda xalq maqollarini keltirar ekan, ularning mazmuni va qanday holatda ishlatilganini yoritib bergan. Turkiy xalqlar tilining bitmas-tuganmas xazinasi sanaluvchi ushbu asarda 400 dan ortiq xalq maqollari qo‘llangan va ular qanday o‘rinlarda qanday ma'nolarda qo‘llanilishi izohlangan.

Adabiyotlar tahlili. S. Boysinov [2] ning fikricha, o‘zbek maqollarining ilmiy tadqiqi XIX asrda boshlangan. XIX asrning ikkinchi yarmida Vengriya olimi Herman Vamberi O‘rta Osiyoga sayohat qilib, o‘zbek maqollarini to‘plagan. U to‘plagan 44 ta maqola, matal, ertak va topishmoqlar Yevropa tilshunosligi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Bu to‘plam Yevropada o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti haqidagi dastlabki ilmiy ma'lumotlardan biri bo‘lgan.

Maqol — chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng alohida ritmik melodik belgi-xususiyatlarga ega bo‘lgan folklor janri [3].

"Maqol – bu xalqimizning boy ma'naviy merosini ifoda etuvchi, asrlar davomida og‘zaki ijodda shakllangan ma'naviy merosdir. Ularda inson hayoti, jamiyat, axloq va odob-ahloqga oid chuqur fikrlar juda ixcham va ta'sirchan ifoda etiladi. Maqol hajmi jihatdan kichik bo‘lsa-da, mazmuni juda keng va turfa xildir. Unda xalqning umrboqiy hikmatlari, turmush tajribasi, orzu-umidlari mujassam. Shuning uchun ham maqollar faqat bir millatga xos emas, balki butun insoniyat uchun umumiy qadriyat hisoblanadi. Dunyoda o‘z maqollariga ega bo‘lmagan xalq yo‘q, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Maqollar nutqimizga rang-baranglik bag‘ishlab, uni yanada chiroyli va ta'sirchan qiladi. Shu sababli, maqollar ming yillar davomida xalq og‘zaki ijodining bebaho durdonalari sifatida saqlanib kelingan va bugungi kunda ham adabiyot, san'at, ommaviy axborot vositalarida keng qo‘llaniladi.

Xalq maqollari shu xalqning butun tarixini, hayot yo‘lini aks ettiradi. Shuning uchun ham xalq maqollarga tez-tez murojaat etadi. Xalq maqollari badiiy asar tilining shirali va ta'sirchan bo‘lishida, emotsional va musiqiyligini oshirishda muhim stilistik vositadir. Obrazli qilib aytganda, uzukka ko‘z qanday bezak bo‘lsa, maqol ham notiqning nutqiga, yozuvchining tasviriga ana shunday husn, hayotiylik bag‘ishlaydi [4].

O‘zbek tilida hikmatli iboralarni umuman maqol deb atashadi, ammo bu tushunchani ifodalash uchun o‘ndan ortiq atama qo‘llanadi maqol, matal, masal, naql, hikmat, tanbeh, zarbulmasal, hikmatli maqol, xalq iborasi, xalq so‘zi, donishmandlar so‘zi, donolar so‘zi, yaxshilar so‘zi, burungilar so‘zi, ulusning so‘zi, avomunnos masali, hikmatli so‘z va hokazo. Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal atamalari deyarli farqlanmaydi [5]. Hatto ba'zi manbalarda paremalarning turlari sifatida farqlangan bo‘lishiga qaramay, maqol va matal terminlari izohi chalkashtirib yuborilgan o‘rinlarni ham uchratish mumkin.

Maqol va matallar orasidagi munosabat haqidagi qarashlarni ko‘rib chiqamiz. "Maqollar nutqda yaxlit hukm sifatida qo‘llansa, matallar hukmning qismi funksiyasini bajaradi. Maqollarning tematik doirasi keng bo‘lsa, matallar konkret temaga va qat'iy funksional qo‘llanishga ega; maqollar konkret shakliy tuzilishga ega bo‘lsa, matallarda shakliy qat'iylik mavjud emas; maqollar ba'zan ko‘chma ma'noda, ba'zan o‘z ma'nosida qo‘llansa, matallar hamma vaqt ko‘chma ma'no tashiydi [6]". Biz maqollar va matallarning farqlarini xulosalash fikridan yiroqmiz, shu sababdan tadqiqot ishimizda zamonamizning yorqin filolog mutaxassislari tomonidan yaratilgan "O‘zbek xalq maqollari" lug‘atiga kiritilgan maqollardan namunalar keltirishga harakat qildik.

Ta'kidlab o‘tish zarurki, maqollar ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so‘zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg‘unligi, shakliy barqarorlik ustunlik qiladi. Ammo qo‘llanish o‘rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so‘zga alohida e'tibor berish kerak. Ularda shunday so‘zlar borki, bu so‘zlar tarixan butunlay boshqa ma'nolarni anglatgan. Masalan, tuz so‘zi bugungi kunda mineral moddani bildiradi. Tarixan bu so‘z

to‘g‘ri, odobli; dala, tekislik ma’nolarini anglatgan va faqat maqollardagina saqlanib qolgan Qiz saqlasang, tuz saqla. Tuzdagi bilan emas, uydagi bilan bo‘l.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada bir nechta tadqiqot metodologiyalari ishlatilgan:

1.Lingvistik tahlil: Maqollarning grammatik va sintaktik tuzilmalari, so‘z birikmalarining ma’nosi, o‘ziga xos xususiyatlari va stilistik ifodalarini tahlil qilishda lingvistik metoddan foydalanilgan. Bu metod maqollarning til tizimiga ta’sirini, strukturaviy xususiyatlarini, shuningdek, ularning mazmunini chuqur anglashga yordam beradi.

2. Pragmatik tahlil: Maqollarning kontekstida qanday ahamiyatga ega bo‘lishi, ular qanday ijtimoiy vaziyatlarda qo‘llanilishi va qanday maqsadlarni ko‘zlaganligi tahlil qilingan. Bu metod maqollarning amaliy va axloqiy ahamiyatini tushunishda ishlatilgan.

3. Antropologik metod: Maqollar xalqning hayot tarzini, an’ana va qadriyatlarini aks ettirishi nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin. Xalqning madaniy va ruhiy holatini o‘rganish uchun antropologik metoddan foydalanilgan.

4. Komparativ (taqqoslash) tahlil: O‘zbek xalq maqollarining boshqa xalqlarning maqollari bilan o‘xshash va farqli tomonlarini solishtirish, maqollarda uchraydigan umumiy g‘oyalar va farqliklarni aniqlash uchun taqqoslash metodidan foydalanilgan.

5. Sotsiologik tahlil: Maqollar insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy me’yorlar, axloq va madaniyat haqida hikoya qilgani uchun, bu metod maqollarni ijtimoiy jamiyat va uning qadriyatlari bilan bog‘lashda ishlatilgan.

Tahlillar va natijalar. Biz tadqiqot ishimizda o‘zbek tilida do‘stlik va dushmanlik konseptlarini ifodalovchi ayrim maqollarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib ularning milliy qadriyatlarimiz fondida tutgan o‘rnini, ma’nosi, strukturasi va pragmatikasini tahlil qilib chiqdik:

Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar [7]. Bu maqol insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, do‘stlik munosabatlari haqidagi fikrni chuqur ifoda etib ideal, aybsiz do‘stni izlash befoyda ish ekanligini ifoda etadi. Chunki har bir inson o‘z kamchiliklariga ega. Bu maqol xalqimizning do‘stlikka bo‘lgan qarashi, insoniy munosabatlari haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi. Go‘yoki bu maqol faqat o‘zbek xalqiga xosdek tuyulsa-da, aslida undagi g‘oya ko‘pgina boshqa xalqlar maqollarida ham uchraydi. Chunki inson munosabatlaridagi bunday dilemma barcha jamiyatlar uchun umumiydir. Maqolda qisqa, oddiy va ravshan iboralar ishlatilgan bo‘lib, bu uning xalqimiz orasida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Maqolda qofiya va ritm yo‘q bo‘lsa-da, undagi g‘oyaning chuqurligi va ifodaning ravonligi uni badiiy asar darajasiga ko‘taradi. Ifodaning ixchamligi, ma’noning chuqurligi, ta’sirchanligi maqol janriga xos xususiyatlardir.

Bu maqol insonlarga hayotiy haqiqatni anglatish, ularni ortiqcha ideallarga ishonishdan saqlanishga chaqiradi. Maqol tinglovchida mulohaza qilishga, o‘z hayoti va munosabatlari haqida fikr yuritishga turtki berib, insonlarga o‘z atrofidagi odamlarga nisbatan murosabardor bo‘lishga, ularning kamchiliklarini kechirishga o‘rgatadi.

Gadoning dushmani – gado, shohning dushmani – shoh. Maqol insoniyat tarixi davomida kuch va manfaat uchun bo‘ladigan kurash haqida ma’lumot berib unda ijtimoiy tabaqalanishdagi turli qatlamlar vakillarining o‘zaro munosabatlari aks ettirilgan. Kambag‘allar o‘rtasidagi raqobat, shohlar yoki boylar o‘rtasidagi kuch qudrat uchun kurash bir-biriga qarshi qo‘yilgan.

Maqol juft qismdan iborat bo‘lib, har bir qismi parallel konstruksiya hosil qiladi va bu struktura maqol ma’nosini yanada kuchaytiradi va uzoq muddat xotirada saqlanishiga yordam beradi. Maqoldagi asosiy semantik maydonlar bu kuch, manfaat, raqobat, ijtimoiy tekislik hisoblanadi.

Mazkur maqol o‘zbek xalqining hayotiy tajribasi va donishmandligini o‘zida aks ettiradi. Unda kuch va manfaat uchun bo‘ladigan kurash haqidagi umumbashariy haqiqat milliy tusda ifoda etilgan. Maqol qisqa, yorqin va obrazli bo‘lib, unda chuqur ma’no yashiringan. Maqol tinglovchini mulohaza qilishga, hayot haqiqatlarini chuqurroq anglashga undaydi. “Gadoning dushmani — gado, shohning dushmani — shoh” maqoli o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosining bir parchasi bo‘lib, unda insoniyat tarixi davomida kuch va manfaat uchun bo‘ladigan kurash haqidagi umumbashariy haqiqat milliy tusda ifoda etilgan.

Xulosa. Ushbu maqolada xalq maqollarining o‘zbek tilidagi o‘rni, ularning lingvistik va madaniy xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Maqollar nafaqat xalqning boy ma’naviy merosini aks

ettiradi, balki ular turmush tajribasini, axloqiy me'yorlarni, ijtimoiy qarashlarni va falsafiy tafakkurni o'z ichiga oladi. Maqollarda inson munosabatlari, do'stlik, dushmanlik, mehnat va qadriyatlar haqidagi hikmatlar izohlanadi. Shuningdek, maqollarning maqsadi insonlarni axloqiy va ijtimoiy jihatdan tarbiyalash, ularga hayotiy haqiqatlarni tushuntirishdir. Ular qisqa, lekin chuqur ma'no kasb etadi va o'tmishdan hozirgi kungacha xalq og'zaki ijodining bebaho durdonalari sifatida saqlanib kelmoqda. Maqollarning lingvistik va pragmatik xususiyatlari, shuningdek, ularning til va madaniyatdagi o'rni, adabiyotda, san'atga va kundalik hayotda qanday ishlatilishini tahlil qilish, o'zbek xalqining ma'naviy merosini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jo'rayeva M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: Fan, 2009. – B 25.

2. Boysinov S.S. Adabiyotshunoslikda maqol janrining o'rganilish tarixi. Sharq xalqlari folklori — milliy qadriyatlar in'ikosi. 2- qism – Toshkent: 2021. – B.16.

3. Nurmonov A. Sobirov A. Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejining I,II,II bosqich talabalari uchun darslik. –Toshkent: "ILM ZIYO".2015y. 225-b.

4. Қиличев Э.Ўзбек тилининг практик стилистикаси.Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 72-б.

5. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1984, 12-б.

6. Хотамов Н.,Саримсоқов Б. "Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати".-Тошкент:Ўқитувчи, 1979, 236-б.

7. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2019.- B.118.

UO'K 808.5

STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF NAMES OF CULINARY PRODUCTS IN ENGLISH-LANGUAGE DISCOURSE

N.E. Ergasheva, master student, Turon University, Karshi, Uzbekistan
Belgorod State National Research University, Belgorod, Russia

Annotatsiya. *Maqolada ingliz tilidagi nutqda oshxona mahsulotlari nomlarining tarkibiy va semantik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. So'z yasash jarayonlari, jumladan, o'zlashma, kompozitsiya, derivatsiya va aralashuv tahlil qilinadi. Semantik jihatdan etimologik ta'sirlar, metaforik foydalanish va terminologiyadagi madaniy o'zgarishlarni o'rganadi. Tadqiqot ingliz oshxona leksikonining shakllanishida til va madaniyat omillarining rolini ta'kidlaydi hamda tarixiy va ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiradi.*

Kalit so'zlar: *pazandachilik terminologiyasi, so'z yasalishi, o'zlashma so'zlar, kompozitsiya, derivatsiya, yasama so'zlar, etimologiya, metaforizatsiya, madaniy o'zgarishlar, ingliz tilidagi nutq.*

Аннотация. *В статье рассматриваются структурные и семантические характеристики наименований кулинарных продуктов в англоязычном дискурсе. Анализируются процессы словообразования, такие как заимствование, композиция, деривация и смешение. Семантические аспекты включают этимологические влияния, метафорическое использование и культурные вариации в терминологии. Исследование подчеркивает роль языковых и культурных факторов в формировании английского кулинарного лексикона, отражая исторические и социальные изменения.*

Ключевые слова: *кулинарная терминология, словообразование, заимствование, композиция, деривация, смешение, этимология, метафоризация, культурные вариации, англоязычный дискурс.*

Abstract. *This article explores the structural and semantic characteristics of the names of culinary products in English-language discourse. It examines various word formation processes such as borrowing, compounding, derivation, and blending. The semantic aspects include etymological influences, metaphorical uses, and cultural variations in food terminology. The study highlights how linguistic and cultural factors shape the English culinary lexicon, reflecting historical exchanges and social influences.*

Keywords: *Culinary terminology, word formation, borrowing, compounding, derivation, blending, etymology, metaphorization, cultural variation, English-language discourse.*

Language is a dynamic and evolving system that reflects cultural, social, and historical influences. This is particularly evident in the naming of culinary products. As a global lingua franca, the English language has absorbed culinary terms from various cultures, resulting in a rich and diverse vocabulary. This article examines the structural and semantic characteristics of culinary product names in English discourse, focusing on word formation processes, etymological influences, and the meaning-making mechanisms behind food-related terminology.

Structural Characteristics of Culinary Product Names.

Word Formation Processes. The names of culinary products in English are formed through various linguistic processes, including borrowing, compounding, derivation, and blending.

Borrowing: Many culinary terms in English originate from other languages, reflecting historical trade, colonization, and globalization. For instance:

Croissant (French) [1].

Sushi (Japanese) [2].

Pasta (Italian) [3].

Kebab (Turkish) [4].

Compounding: Some food names are created by combining two or more words to form a new term, often describing the dish's ingredients, preparation, or cultural origin. Examples include:

Cheeseburger (cheese + burger) [5].

Milkshake (milk + shake) [6].

Cupcake (cup + cake) [7].

Derivation: The addition of affixes (prefixes and suffixes) is another method of forming culinary terms. Common suffixes include:

-y (*butter**y**, fruit**y***) [8].

-ish (*sweet**ish**, sour**ish***) [9].

-ette (*omel**ette***) [10].

Blending: Some food names emerge from the merging of two words, creating a new term. For example:

Brunch (breakfast + lunch) [11].

Mocktail (mock + cocktail) [12].

The names of culinary products in English exhibit distinct morphosyntactic characteristics, reflecting their structural composition and grammatical behavior. These features include noun structure, pluralization patterns, syntactic roles, and collocations, all of which contribute to the way food-related terms function in language.

Noun Structure: Culinary terms are mostly nouns, but they can also function as adjectives (grilled chicken, spicy soup) or verbs (to toast bread, to roast meat).

Pluralization: Many food names follow regular pluralization rules (apples, pizzas), but some are uncountable (rice, spaghetti) and require quantifiers like a bowl of rice or a plate of spaghetti.

Collocations: Certain words frequently appear together in food discourse, such as freshly baked bread, crispy fries, or tender steak.

Cultural and regional variations also play a key role in the semantics of culinary product names. Different English-speaking regions often have distinct names for the same food items, influenced by local traditions and historical developments. Various languages heavily influence the English culinary lexicon due to historical and cultural exchanges. For example:

French Influence: Many sophisticated or restaurant-related food terms originate from French, such as soufflé, éclair, hors d'oeuvre, and cuisine. [13].

Italian Influence: Given Italy's rich culinary heritage, English has borrowed many Italian words, including pizza, lasagna, risotto, and espresso. [14].

Asian Influence: As Asian cuisine gained popularity, terms like dim sum, ramen, kimchi, and tandoori became common in English. [15].

The names of culinary products in English frequently undergo semantic extension, where a word expands its meaning beyond its original culinary sense. This process often leads to metaphorization, where food-related terms acquire figurative meanings in various domains of

communication, including everyday speech, literature, and business. Food-related terms often acquire extended meanings beyond their literal sense.

Metaphorical Uses: Many culinary terms are used metaphorically in everyday language:

Piece of cake (something easy) [16].

Spill the beans (reveal a secret) [17].

Cool as a cucumber (calm and composed) [18].

Euphemisms and Pejorative Meanings: Some food terms carry social or emotional connotations:

Vegetable (metaphorically used for someone inactive or unresponsive)

Cheesy (something overly sentimental or low-quality)

Due to cultural influences, different regions use distinct names for the same food item. For example:

Chips (UK) vs. *French fries* (US)

Biscuits (UK) vs. *Cookies* (US)

Aubergine (UK) vs. *Eggplant* (US)

Additionally, food branding and marketing play a significant role in shaping how culinary products are named. Many food brands create unique, catchy names (*Oreo, Coca-Cola, Doritos*) that become ingrained in popular culture.

Conclusion. The names of culinary products in English-language discourse exhibit diverse structural and semantic features, shaped by historical, linguistic, and cultural factors. Borrowing, compounding, derivation, and blending contribute to the formation of food-related terms, while semantic shifts, metaphors, and regional variations enrich their meanings. Understanding these characteristics offers valuable insights into the dynamic relationship between language and food, reflecting broader social and cultural influences in English-speaking communities.

The morphosyntactic features of culinary terms, including noun structures, pluralization patterns, and collocations, further demonstrate their linguistic versatility. As language continues to adapt to global influences and changing food trends, culinary terminology will remain an essential and evolving aspect of English discourse.

REFERENCES:

1. Ferguson, M. (2014). «The Global Influence of French Cuisine». Culinary Journal.
2. Watanabe, S. (2015). «Culinary Borrowings: The Case of Sushi in Western Cuisine». Journal of Food Studies.
3. Baldwin, R. (2018). «Italian Cuisine: A Linguistic Perspective». Language and Food.
4. Duman, E. (2020). «Kebabs: A Cultural Journey through Language». Journal of Ethnic Foods.
5. Smith, J. (2016). «The Evolution of the Cheeseburger: A Linguistic Analysis». Food History Review.
6. Jones, T. (2017). «Milkshakes: From Classic to Contemporary». The Journal of Dairy Science.
7. Taylor, L. (2019). «Cupcakes: A Sweet Linguistic Exploration». Dessert Studies Quarterly.
8. Miller, H. (2021). «Suffixation in Culinary Terms: An Overview». Linguistic Studies.
9. Roberts, P. (2020). «Food Language: The Use of -ish in Culinary Discourse». Journal of Language and Culture.
10. Johnson, R. (2018). «Omelettes: A Case Study in Derivation». Culinary Linguistics.
11. Clark, E. (2015). «Brunch: A Blend of Cultures and Languages». Journal of Gastronomy.
12. Thompson, A. (2022). «Mocktails: The Rise of Non-Alcoholic Blends». Beverage Studies Journal.
13. Levy, D. (2013). «French Culinary Terms in English: A Historical Perspective». Journal of Culinary History.
14. Gallo, M. (2016). «The Italian Influence on English Cuisine Vocabulary». Food Culture Society.
15. Chen, Y. (2021). «Asian Cuisine: Linguistic Contributions to English Food Terms». Asian Food Studies.
16. Friedman, L. (2019). «Metaphors in Everyday Language: The Role of Food Terms». Journal of Pragmatics.
17. Baker, S. (2018). «Secrets and Surprises: The Metaphorical Use of Food Terms». Language Communication.
18. Walters, J. (2020). «Calmness and Composure: Food Metaphors in Modern Language». Journal of Modern Linguistics.
19. Shodikhonov, S. (2024). Lexicography and semantics of military terms: a comparative study in Russian and English. Golden Brain, 2(16), 81-84.

UDK 808.3

DEVELOPING SOCIAL AND EMOTIONAL SKILLS ALONGSIDE LANGUAGE SKILLS

N.K. Ergasheva, Associate professor, Fergana state university, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarning til rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi hamda bolalarda ushbu ikki sohaning bir vaqtning o'zida rivojlanishining ahamiyati ta'kidlanadi. Unda bu ko'nikmalar samarali muloqot, ijtimoiy munosabatlar va umumiy emotsional farovonlik uchun asos bo'lishi ko'rsatilgan. Maqola emotsional intellekt va ijtimoiy ko'nikmalarning til o'zlashtirishdagi o'rniga oid so'nggi tadqiqotlar natijalariga tayanadi va ushbu sohalarning birgalikda rivojlanishi o'quv yutuqlari, tengdoshlar bilan munosabatlar va o'z-o'zini boshqarishni yaxshilashi mumkinligini ilgari suradi. Fanlararo yondashuvdan foydalangan holda, maqolada kompleks rivojlanishga ko'maklashuvchi asosiy strategiyalar va ta'limiy aralashuvlar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy ko'nikmalar, emotsional intellekt, til rivojlanishi, emotsional boshqaruv, muloqot, akademik yutuqlar, ijtimoiy o'zaro ta'sir, rivojlanish psixologiyasi.*

Аннотация. *В этой статье рассматривается взаимосвязь социальных и эмоциональных навыков с развитием языка, подчеркивается важность одновременного развития обеих сфер у детей. В ней рассматривается, как эти навыки являются основой для эффективной коммуникации, социальных взаимодействий и общего эмоционального благополучия. Статья опирается на результаты недавних исследований о роли эмоционального интеллекта и социальных навыков в овладении языком и утверждает, что совместное развитие этих областей может улучшить успеваемость, отношения со сверстниками и саморегуляцию. Используя междисциплинарный подход, в статье освещаются ключевые стратегии и образовательные вмешательства, направленные на содействие комплексному развитию.*

Ключевые слова: *Социальные навыки, эмоциональный интеллект, развитие языка, эмоциональная регуляция, коммуникация, академические достижения, социальное взаимодействие, психология развития.*

Abstract. *This article explores the interconnectedness of social and emotional skills with language development, emphasizing the importance of nurturing both areas simultaneously in children. It discusses how these skills are foundational for effective communication, social interactions, and overall emotional well-being. The article draws from recent research on the role of emotional intelligence and social skills in language acquisition, proposing that fostering these areas together can improve academic outcomes, peer relationships, and self-regulation. Through a multidisciplinary approach, the article highlights key strategies and educational interventions aimed at promoting integrated development.*

Key words: *Social skills, emotional intelligence, language development, emotional regulation, communication, academic achievement, social interaction, developmental psychology.*

Language is among the most vital ways through which humans are able to express thoughts, emotions, and intentions, thus laying the foundation for communication at both social and educational levels. Whereas language skills have always been in the limelight as the most focused aspects of early childhood development, it is increasingly becoming important to recognize the role social and emotional skills play in determining how well an individual will communicate. Language acquisition gives important consequences to the development of social and emotional competencies, such as empathy, emotional regulation, and self-awareness, mainly in social contexts.

Indeed, language and emotional development has been one of the most studied areas in developmental psychology. Under the sociocultural theory developed by Vygotsky, social interaction is a major player in cognition and language development. Theoretically, he viewed language development as an interpersonal communication activity. In fact, Vygotsky viewed that emotional regulation and social interactions offer the context for language development; children learn to communicate both verbally and non-verbally in social contexts.[1]

The theory of emotional intelligence, which gained wide popularity through Daniel Goleman's bestseller, in particular, provides that the ability to understand and manage one's emotions and those of others is the basis of social functioning and communication. The levels of emotional intelligence influence language acquisition by affecting the way children will interact with their peers, teachers, or caregivers, thus affecting the quality and frequency of exposure to language.[2]

This combination of social and emotional development in the process of language acquisition is put into the broader context of "social-emotional learning". It is defined as the process of developing the appropriate competencies to recognize and manage one's emotions, establish proper relationships, and make responsible decisions. The development of SEL in concert with language skills is considered one of the most significant strategies in dealing with social and academic issues for children in school.

Social-emotional abilities are, therefore, directly reflected in children's behaviors related to communicating. For instance, children who had good emotional regulation were able to get themselves involved in meaningful and sustained verbal interactions because they could handle feelings that, in other cases, may impede effective communication, such as frustration or anxiety.[3] In addition, perspective-taking and empathy in social skills enable children to appreciate another person's feelings and intentions, which is the keystone in every verbal communication.

Children with good social skills also tend to develop more positive relationships with their peers; these are rich contexts for language exposure. Those children learning to express themselves emotionally in socially acceptable ways also tend to develop better language skills due to the complex verbal formulations that are often involved in expression.

Educational settings focused on cooperative learning, emotional reflection, and social skills training can support language development as these settings allow the students to hold dialogues, role-playing, and group discussions.[4] Additionally, creating an inclusive setting-one focused on and taking care of the emotional well-being of the students-will eliminate anxiety or stress over failure that has always been a barrier to the use of languages in the classrooms.

This study aimed at exploring the relation between social-emotional competence and the development of language skills in early childhood years, and to reveal those effective educational interventions that would be supportive in both the areas simultaneously. The following were the research questions for the study:

1. How do social and emotional competencies impact language development in early childhood?

2. What are the pedagogies that effectively provide the interrelationship between social-emotional learning and language acquisition?

3. How do children who possess high social-emotional skills perform academically compared to their peers in language-related tasks?

This study was a mixed-methods design, combining quantitative measures of language proficiency and socioemotional competencies and qualitative data regarding classroom observations and interviews with educators. The period of the study was one academic year.

The analysis showed that social-emotional competencies were strongly positively related to language development. Children with higher emotional intelligence, better emotional regulation, and a higher degree of empathy proved to be more verbally fluent and proficient in their vocabulary acquisition. Children also fared better on interactive tasks that required perspective and negotiation, such as group storytelling or collaborative problem-solving exercises.

The findings in this study give strong support to the integrated development of social-emotional skills and language proficiency. It is quite clear that emotional regulation, empathy, and social awareness are not only the roots of effective social interactions but also a great contributor to the effective use of language. Children who possess the ability to manage their own emotions and understand the emotional cues of others create a better context in which they are likely to take up sophisticated language-based tasks such as narrative and persuasive speaking and cooperative learning.

This finding places a premium on early interventions that attend to both emotional and cognitive development. Social-emotional learning programs offering linguistic social experiences, such as collaborative play and group problem-solving, allow children to practice their emerging social and linguistic competencies within naturalistic contexts. By fostering these competencies concurrently, educators support children to become well-rounded individuals who can tackle various challenges, whether academic or social.

This study shows how intertwined the emergence of both social-emotional skills and language proficiency really is. Jointly promoting both domains within early childhood education can ensure more effective communication, amendable peer relationships, and better academic results.

These findings also point to a venue of investigation that the future research should undertake, that is, the long-term impacts of such integrative approaches and how SEL-based curricula affect language outcomes in a variety of populations.

REFERENCES:

1. Vygotsky, L. (1978). "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Harvard University Press.

2. Denham, S. A., & Burton, R. (2003). "Social and Emotional Prevention and Intervention Programming for Preschoolers". Springer.

3. Goleman, D. (1995). "Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ". Bantam Books.

4. CASEL. (2020). "Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning: Guide to SEL Programs". CASEL.

UO'K 74; 82-92

BOLALAR REKLAMA MATNLARINI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI

B.J.Eshboltayev, mustaqil tadqiqotchi, Navoiy innovatsiyalar universiteti, Navoiy

Annotatsiya. *So'nggi yillarda ommaviy axborot aloqalarini o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, ommaviy aloqaning eng yorqin ko'rinishi sifatida namoyon bo'layotgan reklamalarga qiziquvchilar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Zamonaviy reklama ommaviy aloqa va madaniyatlararo aloqaning dinamik rivojlanayotgan shakli bo'lib, u murakkab va serqirraligi bilan boshqa turdagi ommaviy aloqa ko'rinishlaridan ajralib turadi.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ funksiya, iqtisodiy funksiyasi, ma'lumot beruvchi reklama, tavsiya qiluvchi reklama, eslatuvchi reklama.*

Аннотация. *В последние годы растет интерес к изучению медиа-коммуникаций. Особенно много тех, кто интересуется рекламой, которая оказывается самым ярким проявлением массовой коммуникации. Современная реклама-это динамично развивающаяся форма массовой коммуникации и межкультурной коммуникации, которая отличается от других видов массовой коммуникации своей сложностью и многогранностью.*

Ключевые слова: *коммуникативная функция, экономическая функция, информативная реклама, рекомендательная реклама, напоминающая реклама.*

Abstract. *In recent years, there has been a growing interest in studying media communications. There are especially many people who are interested in advertising, which turns out to be the most striking manifestation of mass communication. Modern advertising is a dynamically developing form of mass communication and intercultural communication, which differs from other types of mass communication in its complexity and versatility.*

Keywords: *communicative function, economic function, informative advertising, recommendation advertising, reminiscent advertising.*

Reklamaning barcha ta'riflarida kalit so'z "ma'lumot"dir. Demak, reklamaning asosiy vazifasi *kommunikativ funksiya* (aloqa, axborot berish) ekanligi ayon bo'ladi. Reklama e'lonlarida mahsulot(xizmat)ning mavjudligi, sifati, ularni qo'llash sohalari, foydali jihatlari, narxi va boshqalar to'g'risida ma'lumot beriladi. Qolaversa, reklama sotib olishni rag'batlantirishi, foyda olishga xizmat qilishi kerak. Demak, reklamaning *iqtisodiy funksiyasi* ham mavjud. Reklama ob'ektiv dunyoni baholash bilan birga haqiqatga nisbatan ma'lum munosabatni ham yetkazish orqali insonning his-tuyg'ulari va fikrlariga ta'sir o'tkazadi. U jamiyatning ijtimoiy va estetik ideallarini aks ettiruvchi

ijtimoiy ong shakllaridan birini ifodalaydi. Bu esa reklamaning *ta'sir (ekspressiv) funksiyasini* yuzaga chiqaradi. Tadqiqotlarda reklamaning asosiy funksiyalariga yondosh bo‘lib keladigan qo‘shimcha funksiyalari xususida ham so‘z boradi. Rus olimasi E.Vasileva reklamaning 5 asosiy funksiyasi mavjudligi xususida so‘z yuritadi:

1) ***axborot va ta'lim funksiyasi:*** xaridorlarni yangi tovarlar va xizmatlar to‘g‘risida xabardor qilish;

2) ***ijtimoiy-madaniy funksiya***: estetik xulq-atvor me'yorlari va jamiyat hayotining rivojlanishi hamda mustahkamlanishiga hissa qo‘shish;

3) ***tashkiliy funksiya:*** hayotning muayyan sohalarda jamiyat tashkil etishga undash;

4) ***iqtisodiy funksiya***: tovarlarni sotishni rag‘batlantiruvchi va foyda o‘sishiga hissa qo‘shish;

5) ***boshqarish funksiyasi***: iste'molchilar ayrim guruhlarining turli assortimentdagi tovarlarga imtiyozlarini yaratish jarayon-larini boshqarish [1].

Yu.V.Cheryachukin reklamaning huquqiy asoslarini yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotida maxsus reklama funksiyalarini (reklama beruvchining tovarlarini raqobatchilarning o‘xshash mahsulotlari orasida ajratib ko‘rsatish, iste'molchilarga tovar to‘g‘risida ma'lumot berish, talabni rag‘batlantirish, tarqatishni rag‘batlantirish, iste'molchilarning xohish-istaklarini shakllantirish, tovarlarning reklama narxini pasaytirish) va reklamaning ijtimoiy funksiyalari (marketing, kognitiv, iqtisodiy, estetik, tarbiyaviy)ning jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan o‘zaro ta'sirini tavsiflaydi [2]. Ilgari reklamaning eng muhim vazifasi mahsulotni bozorga olib chiqish va uning sotilishini rag‘batlantirish deb hisoblangan bo‘lsa, qayd etish kerakki, bugun zamonaviy sharoitlarda reklama funksiyalari kengayib bormoqda: iqtisodiy vazifalardan tashqari g‘oyaviy, ijtimoiy jihatdan birlashtiruvchi, talabgorlarga estetik ta'sir ko‘rsatuvchi, jamiyatni boshqarish vositalaridan biriga evriluvchi, madaniyatni shakllantirish orqali tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan reklama ham ma'lum darajada o‘z vazifalarini bajarib kelmoqda.

Fransuz olimi K.Tatilon o‘zining reklama matni va uning tarjimasi muammolariga bag‘ishlangan ishida reklama matnlarining to‘rtta muhim funksiyasi mavjudligini qayd etadi: a) reklama nomi va iborasini aniqlash funksiyasi; b) mahsulot sifatini tavsiflovchi funksiya; d) reklamadagi so‘z o‘yinlari funksiyasi; e) reklamaning tushunarliligi va ahamiyatliligi funksiyasi [3]. Fikrimizcha, olim reklama matnini yaratishga xos bo‘lgan bosqich va usullarni funksiya sifatida baholagan.

O‘zbek reklamashunoslari tomonidan ham sohaga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, reklamaning, asosan, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, tarixiy va lisoniy jihatlari tadqiq etilgan. Mahsulot reklamasini tashkil etish A.Azlarova tadqiqotida, o‘zbek oilalarida reklama qilinayotgan mahsulotlar idrokining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari N.Shomurotova qarashlarida, reklamaning ijtimoiy-psixologik hamda etnopsixologik vazifalari L.Karimova talqinida atroflicha o‘rganilgan [4]. U.Mahmudova reklama matnlari tarjimasining lingvomadaniy va uslubiy jihatlarini o‘rganar ekan, reklama diskursining asosiy yondosh vazifalari sifatida quyidagilarni belgilaydi [5]:

– xatti-harakatlardan kelib chiqib, muayyan stereotiplarni yaratish;

– shaxsning ongida azaliy qadriyatlarni qayta qurish va mustah-kamlashga qaratilgan ta'sirni berish;

– jamiyatda reklama muhitini rivojlantirish;

– turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan mahsulot yoki xizmat, uning mohiyati, tabiati, sotilish joyini yetkazish;

– targ‘ib etilayotgan mahsulot (xizmat)ni ommaviy va iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish.

Bugungi kunda reklama matnlari cheksiz va xilma-xildir. Reklama matnlarini ma'lum bir turlarga ajratish reklamaning kommunikativ vazifalariga, reklama qilinayotgan mahsulotning xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Quyida biz reklama matnlarining bir nechta tasnifini beramiz, bu esa mazkur sohada turli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan reklama matnlari turlarini ko‘rib chiqish va taqqoslash imkonini beradi.

Marketolog olim F.Kotler reklama muallifining maqsadiga qarab uning uch turini farqlaydi: a) ma'lumot beruvchi reklama; b) tavsiya qiluvchi reklama; d) eslatuvchi reclama [6].

Tavsiya qiluvchi reklama matnlarida ma’lum bir mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlari, boshqa mahsulotlardan afzalliklari bayon qilinadi. Shu orqali adresatga reklama qilinayotgan mahsulotni xarid qilish tavsiya qilinadi. Tibbiy reklamalarda ham salomatlik bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishda ma’lum bir dori vositasi qabul qilinishi lozimligi xususida so‘z yuritilib, xastalikni davolashda preparatni iste’mol qilish tavsiya etiladi.

Eslatma reklama iste’molchilarning xotirasida tovarlarning imidjini saqlashga, tovarlar haqida xabardorlikni saqlashga, tovarlarni qaerda, qachon va qanday sharoitda sotib olish mumkinligini eslatishga qaratilgan. Bunday reklamalar qisqaligi, mahsulot nomi va ishlab chiqaruvchisini eslatib o‘tishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganligi bilan boshqa reklama ko‘rinishlaridan farq qiladi.

Tijoriy reklama o‘z oldiga iste’molchini ma’lum bir mahsulotni sotib olishga yoki ma’lum bir xizmatdan foydalanishga undash vazifasini qo‘yadi. Ijtimoiy reklama yaratuvchilar uchun esa bunday vazifa muhim emas. Ijtimoiy reklamaning maqsadi har qanday muammoga jamoatchilikning munosabatini o‘zgartirish va kelajakda o‘z auditoriyasida yangi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishdan iboratdir. Dastlabki ijtimoiy reklamalar Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi fuqarolik jamiyati tashkilotlari 1906-yilda Amerika fuqarolik uyushmasi Niagara sharsharasini elektr kompaniyalari tomonidan sodir etilayotgan vahshiylikdan himoya qilishga chaqirganda jamoat xizmatlariga oid e’lonlarga murojaat qilish orqali vujudga kelgan [7]. Ijtimoiy reklama mavzusi muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan fikrdir. Odamlarning keng tarqalgan muammolariga (zo‘ravonlikka qarshi kurash, tabiatni muhofaza qilish, bolalar salomatligi, OITS va boshqalar) bag‘ishlangan ijtimoiy reklama keng omma uchun mo‘ljallangan. Jumladan, ayni damda yurtimizda ham tabiatni muhofaza qilish maqsadida ona tabiatni asrab-avaylash, uni muhofaza qilish hamda tabiat ne’matlaridan oqilona foydalanishga, kasallikka qarshi emlanishga doir ijtimoiy reklamalar ommaviy axborot vositalari orqali keng targ‘ib qilinmoqda.

Ta’sir nuqtayi nazaridan ijtimoiy reklama tijoriy reklamaga qaraganda ancha kuchli. Ko‘pincha ijtimoiy reklama zarba beradi, ogohlantiradi, keskin tavsiya qiladi, ba’zida bunday reklamalar qoidalarga ega bo‘lgan ma’lumotnomadan parchalar kabi eshitiladi. Ko‘pincha, ijtimoiy matnning butun kuchi maslahat yoki so‘rov orqasida yashiringan ham bo‘ladi. Ikki turdagi reklamalarning maqsadli auditoriyalari sezilarli darajada farq qiladi: tijoriy reklama uchun maqsadli auditoriya juda tor doira(jamiyatning ma’lum bir qatlami)ni qamrab oladi, ijtimoiy reklama uchun esa maqsadli auditoriya keng (butun jamiyat) hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Васильева Е.А. Как сделать рекламу эффективной? 25 беспроигрышных идей. Практические пособие. – Москва: Дашков и Ко. 2009. – С. 10.

2. Черячукин Ю.В. Правовое регулирование рекламной деятельности в Российской Федерации и зарубежных государствах: Опыт. Автореферат кандидат юридических наук. – Москва, 1998. https://www.dissercat.com/content/pravovoe-regulirovanie-reklamnoi-deyatelnosti-v-rossiiskoi-federatsii-i-zarubezhnykh-gosudar

3. Tatilon C. Le texte publicitaire: traduction ou adaptation // Meta, 35(1), 1990. – P. 243. https://doi.org/10.7202/004326ar

4. Шомуротова Н. Ўзбек оилаларида реклама қилинаётган маҳсулотлар идрокининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психол. фан. номзоди дисс... Т., 2011; Азларова А. Товарлар рекламасини ташкил қилиш ва самарадорлиги (Ўзбекистон корхоналари мисолида): Иқт. фан. ном. дисс... – Тошкент, 2005; Л.Каримова Социально-психологические и этнопсихологические особенности социальных представление и устоновок личности по отношению к рекламе. Кандидатская диссертация. – Ташкент, 2003.

5. Маҳмудова У.У. Реклама матнлари таржимасининг лингвомаданий ва услубий жиҳатлари: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. – Қарши, 2021. – 133 б.

6. Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс Пер. с англ. – Москва: Вильяме, 2007. – С. 434.

7. Русаков А.Ю. Романтизм и прагматизм социальной рекламы. http://www.socreklama.ru/analytics/list.php?ELEMENT_ID=4984&SECTION_ID=107

UO‘K: 821.5 12.133 (092)

NODIRA SHE’RIYATIDA DINIY-MA’RIFIY VA FALSAFIY-TASAVVUFIY QARASHLAR TALQINI

S.I. Eshonqulova, dots., f.f.d., Alfraganus universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqola Nodiraning diniy-ma'rifiy va falsafiy-tasavvufiy qarashlarini talqin qilishga bag‘ishlangan. Shoiraning ijodiga islomiy qadriyatlar, tasavvuf ta’limotlar va ma’naviy an’analar ta’siri o‘rganilgan, uning Qur’on, hadis va islom tarixi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lganligi ilmiy asoslangan. Uning g‘azallaridagi diniy mavzular, jumladan, Muhammad (s.a.v.) na’tlari va to‘rt xalifa haqidagi g‘azallari tahlil qilingan. Maqola psixo-biografik metod asosida va germenevtik usullarga asoslangan bo‘lib, Nodarining o‘ziga xos uslubi va falsafiy-tasavvufiy qarashlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Nodira, diniy-ma'rifiy, falsafiy-tasavvufiy, islomiy qadriyatlar, hamd, na’t, xulafoyi roshidin.*

Аннотация. *Данная статья посвящена интерпретации религиозно-просветительских и философско-суфийских взглядов Нодиры. Изучено влияние исламских ценностей, суфийского учения и духовных традиций на творчество поэтессы, научно обосновано её глубокое знание Корана, хадисов и истории ислама. Проанализированы религиозные темы в её газелях, в том числе восхваление о Пророке и газели о четырёх халифах. Статья основана на психобиографическом методе и герменевтических подходах, раскрывая уникальный стиль и философско-суфийские взгляды Нодиры.*

Ключевые слова: *Нодира, религиозно-просветительский, философско-суфийский, исламские ценности, хамд, наат, праведные халифы.*

Abstract. *This article is dedicated to the interpretation of Nodira's religious-educational and philosophical-Sufi views. It examines the influence of Islamic values, Sufi teachings, and spiritual traditions on the poetess's work, scientifically substantiating her deep knowledge of the Quran, hadiths, and Islamic history. The religious themes in her ghazals are analyzed, including praises of the Prophet and ghazals about the four caliphs. The article is based on the psycho-biographical method and hermeneutic approaches, revealing Nodira's unique style and philosophical-Sufi views.*

Keywords: *Nodira, religious-educational, philosophical-Sufi, Islamic values, hamd, na'at, righteous caliphs.*

Kirish. Har bir xalqning adabiyoti uning milliy ruhi, tafakkur tarzi, ustozlar tajribasi, diniy-ma’rifiy, falsafiy-tasavvufiy, axloqiy-ma’naviy tushuncha va qadriyatlariga tayanadi. Binobarin, ijodkor lirikasidan kelib chiqadigan xulosalar asosida ijodkor dunyoqarashining yetakchi jihatlari borasida fikr yuritish mumkin. Dunyoqarash o‘z-o‘zidan ijodkor yashagan davr, uning hukmron mafkurasi, ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy, falsafiy, psixologik spetsifikasi bilan bog‘liqdir. Badiiy ijodda ma’no, tuyg‘u yoki haqiqat yo‘q joydan kashf etilmaydi, balki badiiy ijodda din va falsafa, ma’rifat va ma’naviyat, tafakkur va axloqiy qadriyatlar ham o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘ladi. Qur’oni Karim ta’limi va tasavvufning ma’naviy tamoyil sifatidagi o‘rnini o‘zbek mumtoz adabiyotining har bir bosqichi hamda nodir meroslari misolida kuzatishimiz mumkin. Xususan, Qo‘qon adabiy muhitining yirik vakilasi Mohlaroyim Nodira badiiyat olami diniy-ma’rifiy, falsafiy-tasavvufiy g‘oyalardan suv ichganligi, ya’ni ular bag‘rida ulg‘ayganligi sababli uning ijodi yuksak darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. XX asr nodirashunoslikda shoira ijodini atroflicha o‘rganilganligi bilan ajralib turadi. Nodira tarjimayi holi, ijodiy merosiga oid bir qator tadqiqotlar adabiyotshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan [9,563; 10,182]. Mustaqillik yillaridan so‘ng ham shoira shaxsiyati va she’riyatini yoritishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan [8,292; 6,158; 7,267].

Metodologiya. Qayd etilgan tadqiqotlarda Nodira shaxsiyati, dunyoqarashi, asarlaridagi tarixiy obrazlar tizimi, poeziyasi borasida turli yo‘nalishlarda turli munosabatlar bilan fikr-mulohazalar milliy istiqlol nuqtayi nazaridan biografik va qiyosiy-tipologik metod orqali tahlil etilgan. Biroq,

Nodira she'riyatida diniy-ma'rifiy va falsafiy-tasavvufiy qarashlar talqini, shoiraning o'ziga xos uslubi va axloqiy asoslari masalasi alohida psixo-biografik metod asosida kompleks tahlil etilmagan, germenevtik usullaridan foydalanilgan holda maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan.

Natijalar. Nodira lirikasida asosan islom dini tarixi va shoiraning o'zi yashagan davr bilan bog'liq tarixiy shaxslar obrazlari o'ziga xos poetik talqin etilgani kuzatiladi. Nodira devonining 1963 yilgi nashrida shoira asarlarida uchraydigan qirqdan ortiq tarixiy obrazlar ko'rsatkichi ilova qilingan [1,621]. "Nodira devonida islom dini arkonlari, payg'ambaru sahobalar va hadisi sharif to'g'risida talay she'ru timsollar mavjudki, ularni o'rni bilan, imkon darajasida tadqiq etmoq zarur" [2,297]. Darhaqiqat, shoira dunyoqarashining takomilida o'zi mansub bo'lgan islom dunyosining ma'naviy ta'siri katta. Nodira devonida Alloh taolo, Muhammad (s.a.v.) betakror badiiyat bilan vasf etiladi va teran mazmun mutanosibligida talqin qilinadi. Bu shoiraning kalom ilmini, islom dini va millatimiz tarixini chuqur bilganidan dalolat beradi.

Shoiraning hamd, na't mavzusidagi g'azallari teran ma'no va go'zal badiiy shakl uyg'unligi jihatidan alohida ajralib turadi. Devon tartib berar ekan, u mavjud an'anaga muvofiq debochani hamd va na't bilan boshlaydi. Ma'lumki, na't g'azal deb Muhammad (s.a.v.) maqtoviga bag'ishlangan g'azallarga aytiladi [3,62]. Nodira ijodiyotidagi na't she'rlar asosan, vasf, me'rojnoma va shafoat-faxriya mazmunida.

Muhokama. Munojot g'azaldan olingan mana bu baytda Muhammad (s.a.v.)ning qiyomat kunida o'z ummatlarining gunohini Tangridan so'rovchi shafe'ligi bilan bog'liq qarashlar o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, Nodira o'zining gunohkor ekanligini aytib, Yaratgandan Muhammad (s.a.v.)ning haqqi hurmati bandalari, jumladan, o'z gunohlarini kechirishni so'raydi:

Yo rab, ba haqqi Ahmadi Muxtoru oli o',
Baxshoy churmi banda ba altofi Kibriyo.

Mazmuni: *Ey Xudo, Ahmadi Muxtorning urug'-aymog'lari haqqi, Kibriyolik lutfing bilan bandalaring gunohini kechir.* "Oli o'" – uning oilasi ma'nosini beradi. Bu ibora bilan saodat xonadonigina nazarda tutilmoqda (N2;8-10).

Quyidagi *"Tui dar har du olam dastgiram"* matlasi bilan boshlanuvchi fors-tojik tilidagi na't g'azalida esa, Muhammad (s.a.v.) ikki dunyoda qo'llovchi podshoh, shohlar uning gadoyi ekanligi, uning ehsonu muruvvatidan butun jahon xalqi mamnun va masrur ekanligi, hidoyatini quyoshi tufayli munavvar bo'lgan sanamlar ham bebahra qolmaganligi, u to'lin oy kabi shoiraning ham dilidan, ham ko'zidan joy olganligiga sabab ikki ko'zlariga faqat uning haqi borligi kabi sifatlar bilan vasf etilgan.

Shoiraning "Kase, ki nest sarash xok gashta bar dari o'" misrasi bilan boshlangan g'azalida esa Muhammad (s.a.v.)ning so'nggi payg'ambar ekanligi, me'roj voqeasi, barcha ummatlarining gunohini tilaguvchi shafe' ekanligi ulug'lanadi.

Qur'oni Karim va hadisda islom dini haqqoniyat va rabboniylikni (muhofaza qilishga va himoyalashga kafil etilgan) targ'ib qiladigan din ekanligi ta'kidlanadi. Shoira bir g'azalida:

Fahm aylagay ramuzi haqiqatni Komila,
Har kimki topti ma'nii Qur'ong'a ixtisos (H1;189),

– der ekan, Qur'on ma'nosini o'zlashtirgan odam haqiqat ramzini fahmlay oladi, deb tushuntiradi.

Mohlaroyim ijodida xulafoyi roshidin vasfiga bag'ishlangan she'rlar ko'p bo'lmasa-da, ularning fazilati, islom dini rivojidagi xizmatlari vasf etilgan misralarni uchratish mumkin. Nodiraning na't va manqabat she'rlarida umummusulmon adabiyotiga xos tarzda Muhammad (s.a.v.)ning fazilatlari, yaqinlarining islom tamadduni yuksalishidagi xizmatlari o'ziga xos pafos hamda ohorli tashbehlar vositasida ifodalangan.

Shoiraning devonida "Hadis" radifli g'azali ikkita bo'lib, unda e'tiqod va iymon tuyg'ulari tarannum etiladi. Zero, hadis Alloh kalomi bo'lmish Qur'oni Karimdan keyin eng muqaddas kitobdir. Bu haqda Muhammad (s.a.v.) shunday bashorat qilgan edi: "Ey ummatlarim! Men sizlar uchun Qur'oni Karim bilan o'zimning sunnatim, yo'l-yo'riqlarimni qoldirdim. Sizlar bu ikkalasini qattiq ushlab, ularga amal qilsangiz, to'g'ri yo'ldan aslo adashmaysiz" [4,6]. Hadislar to'lig'icha halolni haromdan, yaxshini yomondan, do'stni dushmandan farqlaydigan barkamol axloqli shaxslarning e'tiqodini mustahkamlaydi, poklikka, xushxulqlikka chaqiradi, insoniy mukammallikka undaydi.

Shoira shu bois hadislarni har vaqt takrorlab turish inson uchun yaxshi fazilat deb hisoblaganini birinchi g‘azalida:

Dameki lablaridin zohir etsa yor hadis,
Ulusin xotirini aylagay shikor hadis.
Labing hadisini jon lavhina savod ettim,
Ko‘zim qarosi kabi bo‘ldi mushkbor hadis (A1;114),

– shunday tasvirlarda bersa, ikkinchi g‘azalida:

Gungu lol o‘lg‘usidur bulbulu to‘ti nog‘ah,
Ul shakarlab nafasi aylasa izhor hadis.
Bildilar chunki jahon ahli hadisni sahih,
Tong emas bo‘lsa ulus og‘zida takrori hadis (A1;115),

– tarzda tarannum etadi. Shoira ushbu g‘azalida inson ruhiyatida kechuvchi barcha murakkabliklarni mahorat bilan yoritadi va bora-bora barchaning yagona ishonchi Alloh ekanligiga o‘quvchilarni ishontirmoqchi bo‘ladi.

Shoira ijodida hadislar bilan birga ro‘za, ro‘za tutish, uning fazilatlariga bir necha bora murojaat qilingan. Hech kimga sir emaski, ro‘za ham musulmon ahli uchun farz qilingan amal hisoblanib: “Ey mo‘minlar! Taqvoli kishilar bo‘lishingiz uchun sizlardan ilgari o‘tganlarga farz qilingani kabi sizlarga ham sanoqli kunlarda ro‘za tutish farz qilinadi” [5,21-22], –deyilgan. Shoira bu mavzuga ko‘p bora murojaat qilishiga sabab, ro‘za insonlarning qalblarini poklaydi, ularni haromdan hazar qilishga undash bilan ezgu amallar qilishga chorlab, komillikka yetaklashining boisi diniy-ma’rifiy manbalarni chuqur o‘rganib, uning xosiyatlarini qalban his qilganidan bo‘lsa kerak:

Ro‘zada Komila, boz ayla saxovat eshigin,
Bo‘ldi haq rahmatidin ro‘zai rizvon hojat.

Zotan, ro‘za oyida insonlarning qalbi, ruhi yanada pok bo‘lish bilan birga Allohning rahmatidan umidvorlik hislari bisyor ko‘p bo‘ladi.

Ro‘za za’fidin ajab hayratdadurman, Nodira,
Aylamasman lek bu ahvol ila tarki duo (A1;52).

Shoira bu kabi she’rlari bilan Haqning rahmatiga umidvorlik yo‘lida qilinadigan muqaddas odat, fazilatlarni satrlar silsilasiga mahorat bilan singdirib yuboradi. Ro‘zaning alohida shukuhini zavq-shavq bilan tasvirlaydi. Shuningdek, shoira ijodida dunyoviy va diniy talqinlar bilan birga chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lgan tasavvufiy g‘oyalar ham o‘z aksini topgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Nodira badiiy ijodining tub asosi diniy-ma’rifiy va falsafiy-tasavvufiy qarashlarining yuksak poetik shakldagi ifodasi bo‘la olganligi bilan xarakterlanadi. Shoira islom dini peshvolari, xususan, Muhammad (s.a.v.) va xulafoyi roshidin obrazlarini tasvirlashda o‘zigacha bo‘lgan davr ijodkorlari yo‘lidan boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nodira. Devon. –T.: Fan, 1963. – B. 621.
2. Jumaxo‘ja N. Ramzi haqiqat erur ishqi majoz // G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. – T.: O‘zbekiston, 1994. – B. 297.
3. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. – Buxoro: Buxoro, 1994. – B. 208;
4. Ubaydulla Unatov. Donolardan saboqlar. –T.: Xalq, 1994. –B.6.
5. Qur’oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. –T.: Cho‘lpon, 1992. –B.21-22.
6. Eshonqulova S. Nodira she’riyatida tarixiy obrazlar talqini. Filol. fan. nom..... diss. – T., 2011. – B. 158.
7. Eshonqulova S. Nodiraning badiiy mahorati. Filol. fan. dokt. ...diss. – Jizzax, 2022. B. 267.
8. Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII–XIX asrlar o‘zbek she’riyati asosida). Filol. fan. dokt. ...diss. –T., 1999. – B. 292.
9. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII–XIX asrlar): Filol. fan. dokt. ... diss. –T., 1961. – bet 563.
10. Qodirova M. Nodira hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... diss. –T., 1961. – bet 182.

UO’K 81’25

TARJIMA JARAYONIDA BADIIY VOSITALARNING O’ZIGA XOSLIKLARINI SAQLASH MASALASI

O'.G'. Eshpulatova, tayanch doktarant, Toshkent Davlat Transport universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Tarjima nafaqat tillararo muloqot vositasi, balki madaniyatlararo ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Xususan, badiiy tarjima jarayoni bu borada alohida o'ringa ega bo'lib, nafaqat matnni boshqa tilda yetkazish, balki uning badiiy-uslubiy xususiyatlarini, estetik jihatlarini, muallif ovozi va niyatini saqlab qolish vazifasini ham bajaradi. Ushbu maqolada tarjima jarayonida badiiy vositalarning o'ziga xosliklarini saqlash masalasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy tarjima, badiiy vositalar, metafora, epitet, stilistik moslik, madaniy konnotatsiya, ijodiy yondashuv, tarjima nazariyasi.*

Аннотация. *Перевод служит не только средством межъязыкового общения, но и мостом между культурами. В частности, особое место в этом отношении занимает процесс художественного перевода, решающий задачу не только передачи текста на другом языке, но и сохранения его художественно-стилистических особенностей, эстетических аспектов, голоса и замысла автора. В статье анализируется проблема сохранения самобытности художественных средств в процессе перевода.*

Ключевые слова: *художественный перевод, художественные средства, метафора, эпитет, стилистическое соответствие, культурная коннотация, творческий подход, теория перевода.*

Abstract. *Translation serves not only as a means of interlingual communication, but also as a bridge between cultures. In particular, the process of literary translation has a special place in this regard, performing the task of not only conveying the text in another language, but also preserving its artistic and stylistic features, aesthetic aspects, the author's voice and intention. This article analyzes the issue of preserving the originality of artistic means in the translation process.*

Key words: *literary translation, artistic means, metaphor, epithet, stylistic correspondence, cultural connotation, creative approach, translation theory.*

Tarjima jarayoni – bu nafaqat so‘zlarni bir tildan boshqasiga ko‘chirish, balki manba matnning mohiyati, uslubi, madaniyati va san’atini boshqa tilda jonli va tushunarli tarzda ifodalashdir. Ayniqsa, badiiy tarjima sohasida bu jarayon yanada murakkab va nozik bo‘lib, tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik bilim, madaniy sezuvchanlik va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Badiiy matnlarning asosiy xususiyati shundaki, unda muallifning emotsional ruhiy holati, shaxsiy uslubi va turli badiiy ifoda vositalari mujassam bo‘ladi. Shunday ekan, bunday matnlarni tarjima qilishda faqat mazmunni emas, balki badiiy rang-baranglikni, tasviriy ifodaning betakrorligini saqlab qolish birlamchi vazifadir.

Badiiy vositalar – bu metafora, epitet, o‘xshatish, kinoya, ironiya, personifikatsiya, metonimiya, allegoriya kabi tasviriy ifoda shakllari bo‘lib, ular muallif g‘oyasini yanada chuqurroq, hissiyotliroq yetkazishga xizmat qiladi. Ularning tarjima jarayonidagi saqlanishi o‘quvchiga asl asarning estetik zavqini bera oladigan darajada muhimdir. Agar bu vositalar tarjimada to‘g‘ri aks ettirilmasa, asarning badiiy qiymati pasayib ketadi. Shu sababli tarjimon nafaqat ikki tilni, balki ikki xalqning madaniyati, qadriyatlari, fikrlash tarzini ham chuqur anglamog‘i zarur.

Ko‘p hollarda tarjimonlar ikki yo‘ldan birini tanlashadi: birinchisi – so‘zma-so‘z tarjima yo‘li, ikkinchisi – erkin tarjima, ya’ni badiiy uslubni saqlagan holda matn mazmunini yetkazish. So‘zma-so‘z tarjima aniq, lekin badiiy jihatdan quruq bo‘lishi mumkin; aksincha, erkin yondashuv asar ruhini saqlab qoladi, biroq mazmuniy siljish xavfi mavjud. Ideal badiiy tarjima esa aynan ushbu ikki yondashuv orasidagi nozik muvozanatni topgan tarjimadir. Bu, o‘z navbatida, tarjimondan har bir badiiy vositaning funksiyasi, manba tildagi ohang va tazyiqlari, shuningdek, ularning maqsadli til madaniyatidagi aks sadosini to‘g‘ri baholashni talab qiladi.

Masalan, metafora – bu ikki narsani taqqoslash orqali yangi ma’no yaratish vositasi. U tarjimada oddiy so‘z bilan berilsa, o‘zining badiiy ta’sir kuchini yo‘qotadi. Shuning uchun tarjimon bu obrazni boshqa tilda ham xuddi shunday emotsional va obrazli effekt bilan ifodalashga harakat

qilishi kerak. Bunda ko‘pincha tarjimon ekvivalent metaforani topishga urinadi yoki kontekstga mos ijodiy yondashuvni qo‘llaydi.

Epitetlar, ya’ni so‘zga qo‘shimcha emotsional rang beruvchi ta’riflar, ham asarning badiiy ta’sirini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning tarjimasida ularning semantik yukini yo‘qotmaslik kerak. Bu esa faqatgina tarjimonning til sezgirligi, so‘z boyligi va adabiy uslubga egaligi orqali mumkin bo‘ladi. Shuningdek, madaniy konnotatsiyali iboralar, maqollar, iboraviy ifodalar ham tarjimada juda ehtiyotkorlik bilan ko‘chirilishi lozim. Bunday hollarda tarjimon ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki maqsadli tilning madaniy muhitiga mos ekvivalent shaklda qayta yaratishi lozim.

Tarjima jarayonida badiiy vositalarning o‘ziga xosliklarini saqlab qolish tarjimon oldiga juda murakkab va mas’uliyatli vazifani qo‘yadi. Bunday matnlar ko‘pincha faqat informatsion mazmun emas, balki estetik qiymatga ham ega bo‘ladi. Shuning uchun tarjimon faqat so‘zlarni emas, balki muallifning ruhiy holatini, uslubini, konnotatsiyalarini ham ko‘chira olishi lozim.

Masalan, Cho‘lponning “Kechalar” asaridagi “Oy nurida yuvinayotgan sahro jimjit, faqat yulduzlarning yurak urishini eshitmoq mumkin edi” kabi poetik satr ingliz tiliga tarjima qilinayotganda oddiy “The desert bathed in moonlight was silent, only the heartbeat of stars could be heard” deb tarjima qilinishi mumkin. Biroq bu tarzdagi tarjimada asl matndagi lirizm, nozik tasvir kuchi, ritm va poetik ohang saqlanmaydi. Bu yerda "yulduzlarning yurak urishi" iborasi metafora sifatida ishlatilgan bo‘lib, inson qalbidagi noaniq tuyg‘ularni ifodalaydi. Tarjimon ushbu badiiy vositani saqlab qolish uchun ekvivalent ifodani topishi kerak: masalan, “...as if the stars whispered their silent pulse to the night” – bu tarzda tarjima nafaqat ma’noni, balki badiiy ifoda kuchini ham uzatishga harakat qiladi.

Yana bir misol – maqollar va iboralarni tarjima qilishda muammolar yuzaga keladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Yel bo‘lsa shamol bo‘lar, shamol bo‘lsa daryo toshar” degan xalq maqolini ingliz tiliga so‘zma-so‘z tarjima qilinsa, uning mazmuni tushunarsiz bo‘lib qoladi. Tarjimon mazmunini anglab, anglashli va uslubiy jihatdan muvofiq ifodani tanlashi lozim: “A breeze becomes a wind, and a wind makes rivers overflow” shaklida berilishi mumkin. Bunda metaforik qatlam saqlanadi, ammo bu ibora maqsadli auditoriyaga tushunarliroq bo‘ladi.

Bundan tashqari, epitetlar va o‘xshatishlar ham tarjimada muhim o‘rin tutadi. Ularnig to‘g‘ri qo‘llanilishi matnning emotsional tusini saqlab qolishga yordam beradi. Masalan, Abdulla Qahhorning bir hikoyasida "ko‘zlari dardli tongdek mungli edi" degan ifoda mavjud. Bu ifoda ingliz tilida "Her eyes were as sorrowful as the morning filled with pain" deb tarjima qilinadi. Bu yerda “dardli tong” o‘xshatmasi oddiy epitet emas, balki chuqur metaforik ma’no anglatadi – u yolg‘izlik, og‘riq va umidsizlikni obrazli tarzda tasvirlaydi.

Shuningdek, davr ruhi va madaniy kontekstni tarjimada to‘g‘ri aks ettirish zarur. Badiiy asarlar ko‘pincha o‘z davrining ruhiy-ma’naviy holatini ifodalaydi, shuning uchun tarjimon bu jihatlarni ham hisobga olishi kerak. Masalan, XIX asr rus adabiyotidagi muayyan ijtimoiy tabaqalar tilida ishlatilgan iboralarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hozirgi zamon ingliz tiliga tarjima qilish, agar kontekst saqlanmasa, asarning ruhini buzib qo‘yadi. Shu bois, tarjimon kontekstni anglab, kerak bo‘lsa, izohli tarjima yoki stilistik ekvivalent topishi kerak bo‘ladi.

Tarjimada yana bir muhim jihat – bu uslubiy o‘ziga xosliklarni saqlashdir. Masalan, muallifning kinoyali tili, istehzo aralash gap qurilishi yoki o‘ziga xos dialoglar uslubini aynan o‘tkazish qiyin, lekin bu harakat qilinishi kerak bo‘lgan jihat. Bunday uslubiy elementlarni saqlash, o‘quvchida asl muallifni his qilish imkonini beradi. Demak, badiiy tarjima – bu ijodiy jarayon bo‘lib, unda tarjimon nafaqat tarjima qiluvchi, balki yozuvchi kabi ijodkor sifatida ishtirok etadi.

Badiiy tarjimaning murakkab jihatlaridan yana biri – bu kontekstual va stilistik moslikni saqlashdir. Muallif uslubi ko‘pincha uning frazeologik birikmalar, ironiya, tamsil, dramatik pauzalar va boshqa stilistik vositalar orqali yuzaga chiqadi. Bu uslubni tarjimada saqlab qolish esa tarjimondan nafaqat til bilimini, balki adabiy tafakkurni ham talab qiladi. Tarjimon muallif ovozini so‘ndirmasdan, balki o‘z tilida qayta tiklashi kerak. Aynan shunday yondashuv asarning aslga sodiqligini ta’minlaydi va uni yangi auditoriyaga estetik jihatdan tushunarli qiladi.

Tarjima jarayonida badiiy vositalarni saqlash faqat tildan tilga o‘tish emas, balki ijodiy transformatsiyadir. Bu transformatsiya jarayonida tarjimon til, uslub, ifoda vositalari, muallif niyati

va o‘quvchi kutgan ta’sirni uyg‘unlashtirishga intiladi. Zero, badiiy tarjima har doim oddiy til almashinuvidan ko‘ra murakkabroq – u asl asarni yangi madaniy kontekstda qayta yaratish demakdir.

Shuningdek, tarjimada zamonaviy yondashuvlar, kompyuter lingvistikasi, sun’iy intellekt yordami bilan yaratilgan tarjimalar haqida ham to‘xtalish lozim. Har qancha texnologiya rivojlangan bo‘lsa ham, hozirgi kunda badiiy tarjimaning asosiy og‘irligi baribir inson tafakkurida qolmoqda. Chunki badiiy obrazlarni, hissiy niyatni va chuqur konnotatsiyani robot anglab yetolmaydi. Demak, tarjimondan har doim ijodkorlik, chuqur o‘qish, tafsir qilish va o‘zlashtirish talabi saqlanib qoladi.

Yuqorida keltirilgan holatlar badiiy vositalarning tarjima jarayonidagi dolzarbligini va ularning o‘ziga xosliklarini asrab qolish qanday muhim vazifa ekanligini ko‘rsatadi. Tarjimon – bu ikki til, ikki madaniyat va ikki dunyoqarash orasida vositachilik qiluvchi ijodkor bo‘lib, u o‘z ishi orqali madaniyatlararo aloqani boyitadi, o‘quvchi ongiga yangi olam eshiklarini ochadi. Bunday faoliyat esa, albatta, mukammal til bilimidan tashqari, keng madaniy bilim, kuchli estetik sezgi va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Tarjimonning ustun vazifasi – nafaqat matnni o‘girish, balki uni boshqa tilda o‘quvchi uchun xuddi asl muallif yozgandek ta’sirli va tushunarli qilib yetkazishdir. Bu jarayon esa, shubhasiz, tarjimani san’at darajasiga ko‘taradi.

Xususan, badiiy tarjimada badiiy vositalarning o‘ziga xosliklarini saqlash jarayoni – bu oddiy tarjima emas, balki ijodiy yondashuv, madaniyatlararo muvozanat va estetik anglashuvni talab qiluvchi san’atdir. Tarjimonning vazifasi – nafaqat matnni tarjima qilish, balki o‘quvchini asl asardagi badiiy muhitga olib kirish, uni hissiy jihatdan ta’sirlantirish va madaniy bog‘lanishni ta’minlashdir. Bu jarayon esa, tarjimaga chinakam san’at maqomini beradi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy vositalarning tarjimada o‘ziga xosligini saqlash, bu faqat til bilimiga emas, balki madaniy ong, estetik tafakkur va tarjimonning ijodkorlik qobiliyatiga bog‘liq. Har bir badiiy vosita alohida yondashuvni talab qiladi. Tarjimon, bir tomondan, sodiqlikni saqlashi, ikkinchi tomondan esa o‘quvchi ongiga yaqin, ta’sirli va badiiy jihatdan boy matnni yaratishi kerak. Ana shundagina tarjima aslga monand va o‘z davrining ifodasi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. M. Nazarova, Badiiy tarjima qilish mushkulotlari xususida // Orienss, 2023. №23. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarjima-qilish-mushkulotlari-xususida

2. N.A. Sulaymonova, Sh.Sh. Sayfuddinova, Z.I. Ro’zimatova, L.S. Valiyeva, Sh.D Asiljonova, Badiiy tarjimada milliy kolorit va uniu saqlash jarayonidagi muammolarning tahliliy natijalari // Cartis 2022. №5. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarjimada-milliy-kolorit-va-uni-saqlash-jarayonidagi-muommolarning-tahliliy-natijalari

3. F. Qodirova, ‘Derivation-structural features in terms of graphic art and design in English and Uzbek’, J. Adv. Res. Dyn. Control Syst., vol. 12, no. 2, pp. 2747–2752, 2020, doi: 10.5373/JARDCS/V12I2/S20201333.

4. R. Shirinova, M. Kuldashova, G. Rakhimova, G. Shamuratova, and I. Eshmamatov, ‘Representation of the national picture of the world in literary translation’, Int. J. Adv. Sci. Technol., vol. 29, no. 5, pp. 1436–1445, 2020.

UO’K 808.3

TILNING MORFOLOGIK DARAJASIDA SO‘Z TUZILISHINI SODDALASHTIRISHGA INTILISHI TEJAMKORLIK TAMOYILI DOIRASIDA TAHLILI

N.S. Fayzullayeva, o‘qituvchi, Osiyo Xalqaro Universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilning morfologik darajasida soddalashtirishga intilish hodisasi tejamkorlik tamoyili nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Til tizimi taraqqiyotida ortiqcha morfemalarning qisqarishi, ba’zi grammatik shakllarning soddalasuvi va omonim birliklarning ko‘p funksiyali bo‘lib borishi kuzatiladi. Morfologik soddalashuv zamonaviy tillarda funksional samaradorlikni oshirishga xizmat qilib, minimal lingvistik vositalar yordamida maksimal semantik yukni uzatishga imkon yaratadi. Maqolada o‘zbek tili va ingliz tilidan misollar orqali morfologik tejamkorlikning namoyon bo‘lish shakllari, tarixiy rivojlanish jarayoni va zamonaviy til oqimidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bu hodisaning o‘quv jarayonida va lingvistik tadqiqotlarda qanday metodologik ahamiyat kasb etishi tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *morfologiya, tejamkorlik tamoyili, soddalashtirish, morfemalar, grammatik shakl, til rivoji, lingvistik iqtisod*

Аннотация. *В данной статье явление стремления к упрощению на морфологическом уровне языка анализируется с точки зрения принципа экономии. В процессе развития языковой системы наблюдаются сокращение избыточных морфем, упрощение некоторых грамматических форм и превращение омонимичных единиц в многофункциональные. Морфологическое упрощение способствует повышению функциональной эффективности в современных языках, создавая возможность передачи максимальной семантической нагрузки с помощью минимальных лингвистических средств. В статье освещаются формы проявления морфологической экономии, процесс исторического развития и значение этого явления в современном языковом потоке на примере узбекского и английского языков. Также рассматривается методологическое значение данного явления в учебном процессе и лингвистических исследованиях.*

Ключевые слова: *морфология, принцип экономии, упрощение, морфемы, грамматическая форма, развитие языка, языковая экономия.*

Abstract. *This article analyzes the phenomenon of simplification at the morphological level of language from the perspective of the principle of economy. The reduction of redundant morphemes, simplification of certain grammatical forms, and the multifunctionality of homonymous units are observed in the development of language systems. Morphological simplification contributes to enhancing functional efficiency in modern languages, allowing the transmission of maximum semantic load with minimal linguistic means. The article highlights the manifestations, historical development, and significance of morphological economy in the flow of modern language, using examples from Uzbek and English. It also examines the methodological importance of this phenomenon in the educational process and linguistic research.*

Key words: *morphology, principle of economy, simplification, morphemes, grammatical form, language development, linguistic economy*

Kirish. Til doimo rivojlanish va o‘zgarish jarayonida bo‘ladi. Til tizimi tarkibiy jihatdan murakkab bo‘lsa-da, uning taraqqiyotida tejamkorlik tamoyili muhim omillardan biri sanaladi. Tilshunoslikda tejamkorlik tamoyili til birliklari ortiqcha, mazmun tashimaydigan elementlardan xoli bo‘lishga, ya’ni tildagi ifodalarni imkon qadar soddalashtirishga intilishini anglatadi. Til har doim muloqot maqsadida xizmat qilishi, fikrni eng qisqa va oson shaklda ifodalashga intilishi bilan izohlanadi. Shunday ekan, tilning morfologik darajasidagi soddalashuv – ya’ni so‘z shakllari va grammatik qurilishining sodda tus olishi – til taraqqiyotining muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek tilining morfologik sistemasida kuzatilayotgan soddalashuv holatlari nutq tejamkorligi tamoyili nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tilshunoslik nazariyalariga tayangan holda, morfologik soddalashuvning asosiy ko‘rinishlari va ularning yuzaga kelish sabablari, ayniqsa nutqda ortiqcha harakat va energiyani tejash ehtiyoji bilan bog‘liqligi yoritiladi. Shuningdek, morfologik darajadagi bu o‘zgarishlarning zamonaviy o‘zbek tiliga ta’siri, ularning amaliy ahamiyati va til o‘rganishdagi roli misollar va ilmiy adabiyotlar ma’lumotlari asosida ko‘rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tilshunoslik nazariyasida tejamkorlik tamoyili (ekonomiya prinsipi) til evolyutsiyasini tushuntiruvchi markaziy tushunchalardan biridir. XX asr tilshunoslaridan A. Martinet til tizimidagi o‘zgarishlarni kommunikativ ehtiyojlar va minimum harakat sarfi o‘rtasidagi doimiy muvozanatning natijasi sifatida izohlagan. Olimning ta’kidlashicha, til nutq jarayonida nafaqat jismoniy, balki aqliy harakatlarni ham imkon qadar kichik darajaga keltirishga intiladi. Boshqacha aytganda, til kommunikatsiya davomida eng kam kuch bilan eng ko‘p ma’lumot yetkazishga harakat qiladi. Bu holat G. Zipf tomonidan ilgari surilgan “eng kichik kuch sarfi qonuni” (Principle of Least Effort) bilan ham uyg‘un bo‘lib, unga ko‘ra insonlar og‘zaki nutqda imkon qadar qisqa va oson yo‘llarni tanlaydi.

Tejamkorlik tamoyilining mohiyati shundan iboratki, til tizimi o‘zini ortiqcha yukdan “tozalash” orqali maksimal samaradorlikka intiladi. G. Toirova izohlaganidek, til har doim o‘zida axborot tashimaydigan va ma’no uchun zarur bo‘lmagan so‘z, bo‘g‘in va grammatik shakllardan xoli bo‘lishga harakat qiladi. Masalan, takror ma’noni beruvchi yoki kontekst orqali tushuniladigan

unsurlar (ortiqcha yordamchi so‘zlar, qo‘shimchalar) vaqt o‘tishi bilan tushib qolishi mumkin. Bunda asosiy maqsad – qisqa vaqt birligi mobaynida maksimum axborot uzatish, ya’ni bir minimum shaklda maksimum ma’no ifodalash. Shu bilan birga, tilshunoslar tejamkorlik tamoyilini absolyutlashtirib bo‘lmasligini ta’kidlashadi. Til tizimida tejamkorlikka zid bo‘lgan ortiqchalik hodisalari ham mavjud: masalan, tushunarlilikni oshirish uchun ba’zan ataylab takror yoki ortiqcha birliklar qo‘llanadi (pleonazm, proteza kabi).

Tahlil va natijalar. Morfologik darajadagi soddalashtirish holatlari (zamonaviy o‘zbek tilidan misollar). Zamonaviy o‘zbek tilining morfologik tizimini tahlil qilar ekanmiz, unda bir qancha soddalashuv ko‘rinishlarini ko‘rish mumkin. Quyida o‘zbek tilidan olingan misollar yordamida asosiy morfologik soddalashtirish hodisalari ko‘rib chiqiladi. Tushum kelishigi qo‘shimchasining tushib qolishi (aniq va noaniq to‘ldiruvchi): O‘zbek tilida to‘ldiruvchi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ob’ekt) fe’lga -ni tushum kelishigi qo‘shimchasi bilan bog‘lanishi mumkin. Biroq, ob’ekt umumiy yoki noaniq bo‘lsa, bu qo‘shimcha qo‘llanmaydi. Masalan, *“Vali akasini ko‘rdi”* jumlasida *aka* so‘zi aniq (ma’lum) ob’ekt bo‘lib -ni bilan kelgan, lekin *“Karim kitob sotib oldi”* jumlasida *kitob* so‘zi noaniq ob’ekt bo‘lib, hech qanday qo‘shimchasiz ishlatilgan. Bu yerda “kitob” so‘zining -ni qo‘shimchasiz (ya’ni belgisiz tushum) qo‘llanilishi morfologik jihatdan shaklni soddalashtiradi va ortiqcha belgi keltirmaydi. Mazmun nuqtai nazaridan esa, bunday qo‘shimchasiz shakl ob’ektning noaniqligini (umumiy kitob ekanini) anglatadi. Shunday qilib, mazmunan zarurat bo‘lmaganda, grammatik belgi qo‘llanmaydi va bu nutq tejamkorligiga mos keladi.

Ko‘plik ma’nosini ifodalashda qo‘shimchani iqtisod qilish: O‘zbek tilida otning ko‘plik kategoriyasi odatda -lar qo‘shimchasi bilan ifodalanadi (masalan: *kitoblar, odamlar*). Biroq, son va miqdor ko‘rsatkichlari bilan birga kelganda, ko‘plik qo‘shimchasi qo‘llanmasdan, so‘z yakka holda ishlatiladi. Masalan: *“uch kishi”, “o‘n talaba”* kabi birikmalarda *kishi, talaba* shakllari yakka holda turib ham ko‘plik mazmunini beradi, **“uch kishilar”* yoki *“o‘n talabalar”* deyilmaydi. Xuddi shuningdek, *“ko‘p odam keldi”* iborasi to‘g‘ri bo‘lib, *“ko‘p odamlar keldi”* shakli me’yoriy nutqda ortiqcha hisoblanadi. Demak, son yoki *ko‘p, oz, bir qancha* kabi miqdor bildiruvchi so‘zlar bilan birgalikda ko‘plik qo‘shimchasini qo‘llamaslik — morfologik tejamkorlikning namunasidir: til ortiqcha ikki martalik belgilashdan qochadi. Bu hodisa kommunikativ ortiqchalikning oldini oladi, chunki miqdor allaqachon ma’lum bo‘lganda, qo‘shimcha ko‘plik ma’nosini qaytarishning hojati yo‘q. Fe’l shakllarining qisqarishi va birikishi: O‘zbek tilining fe’l morfologiyasida ayrim shakllar so‘zlashuv nutqida soddalashtirilgan ko‘rinishda uchraydi. Jumladan, hozirgi davomli zamon “-yapti” shakli tarixan murakkabroq tuzilmalardan qisqargan. Adabiy tilda davomli harakat *“-moqda”* qo‘shimchasi bilan ifodalansa (*“u kelmoqda”*), so‘zlashuvda ko‘pincha *“u kelyapti”* tarzida aytiladi. Aslida bu shakl *“kel-ayap-ti”* tarkibiy qismlaridan yuzaga kelgan bo‘lib, undagi ay qismi qisqarib, kelyapti ko‘rinishida barqarorlangan. Natijada ikki bo‘g‘inli qo‘shimcha (ayap) bir bo‘g‘inga (yap) qisqardi – bu esa artikulyatsion tejamkorlikni ta’minlaydi. Xuddi shunday, *“borayotir”* shaklining *“boryapti”* ko‘rinishi, *“borayotgan edi”* ning *“borgandi”* ga qisqarishi kabi hodisalar kuzatiladi. Masalan, *“Akbarjon o‘ynayapti”* jumlasini adabiy tilda *“Akbarjon o‘ynab turibdi”* deb ham ifodalash mumkin, ammo so‘zlashuv uslubida birinchi, ixcham shakl ustun keladi. Bu misollar fe’l tarkibidagi yordamchi elementlarning tushib qolishi yoki qo‘shilib ketishi orqali morfologik soddalashuv ro‘y berayotganini ko‘rsatadi. Murakkab shakllarning analitik vositalar bilan almashtirilishi: Ba’zi tarixiy yoki kitobiy morfologik shakllar zamonaviy tilda soddaroq, analitik konstruksiyalar bilan almashtirilgan. Masalan, eski o‘zbek tili va mumtoz adabiyotda keng ishlatilgan “-mish” qo‘shimchasi (masalan: *“kelmish”* – u kelgan emish) hozirgi adabiy tilda uncha qo‘llanmaydi. Uning o‘rniga “ekan” yordamchi so‘zi bilan tuzilgan analitik konstruktsiya ishlatiladi: *“u kelgan ekan”*. Shuningdek, “-gur, -dur” (masalan: *“bordur”*) kabi eski hozirgi zamon-holat shakllari bugungi kunda faqat ayrim poetik uslubda uchraydi; ularning vazifasini odatiy *“-di”* yoki *“-kan”* shakllari bajarmoqda (*“bor ekan”*). Bu o‘zgarishlar mazmuni bir xil bo‘la turib, ifoda uchun sodda vositalarni tanlash orqali morfologik tizimning ixchamlashganini ko‘rsatadi. Egalik va izofaning sodda shakllari: O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlar va birikmalarda egalik va izofa munosabatlarini ifodalashda ham soddalashuv kuzatiladi. Masalan, qaratqich (izofa) konstruktsiyasi odatda *-ning* qo‘shimchasi va egalik qo‘shimchasining birikmasi orqali ifodalanadi: *“Alining kitobi”*. Biroq, hozirgi tilimizda ayni

ma'noni ba'zan *"Ali kitobi"* yoki *"Alining kitob"* tarzida, ya'ni bitta grammatik ko'rsatkich bilan ifodalash holatlari uchraydi (bunday foydalanish ko'proq so'zlashuvda yoki ba'zi shevalarda kuzatiladi). Rasmiy me'yor ikki belgi qo'llanishini talab etsa-da, nutqda tushunishga xalaqit bermasa, ana shu belgilarni qisqartirishga moyillik paydo bo'ladi. Bundan tashqari, ikki otning bevosita yonma-yon kelib, izofa ko'rsatkichisiz ma'no birikmasini hosil qilishi keng tarqalgan: *"O'zbekiston davlat universiteti"*, *"kitob do'koni"* kabi birikmalarda birinchi ot aniqlovchi vazifasida keladi va -ning qo'shimchasi ishtirok etmaydi. Natijada tuzilma sodda, ortiqcha bo'g'insiz bo'ladi. Bu ham morfologik darajadagi tejamkorlikka misol bo'lib, ortiqcha morfemalarsiz ham so'zlar orasidagi munosabat anglasha olinishiga asoslanadi. Yuqoridagi misollar zamonaviy o'zbek tilining morfologiyasida ro'y berayotgan soddalashuv jarayonlarini yoritadi. Ko'rinib turibdiki, til strukturasi o'z-o'zidan murakkablashish tomon emas, aksincha, imkon qadar soddalashish tomonga intiladi – bu intilish bevosita nutq tejamkorligi tamoyili bilan bog'liq holda vujudga keladi. Tejamkorlik va morfologik soddalashuvning o'zaro bog'liqligi

Muhokama. Tilning morfologik darajasidagi soddalashuv va tejamkorlik hodisalarini tushunish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Avvalo, bu hodisalarni anglash til o'qitish va o'rganishda katta yordam beradi. Zamonaviy o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun grammatik kategoriyalarning iqtisod qilinishi bilan bog'liq qoidalarni bilish tilni tez va to'g'ri o'zlashtirishga imkon yaratadi. Masalan, xorijiy talaba yoki maktab o'quvchisiga o'zbek tilini o'rgatishda, agar u tushum kelishigining ikki xil – belgi bilan va belgisiz – qo'llanishini bilmasa, *"non olaman"* (men non sotib olaman) singari tuzilmalarni xato deb o'ylashi mumkin. Shu bois, darslik va qo'llanmalarda *aniq/noaniq to'ldiruvchi* qoidasi, son bilan kelganda ko'plik qo'shimchasi ishlatilmasligi kabi tejamkorlik bilan bog'liq grammatik me'yorlar alohida ta'kidlanishi lozim. Shuningdek, morfologik soddalashuv jarayonlarini bilish tarjima va til texnologiyalarida ham qo'l keladi. Masalan, matnni o'zbek tiliga tarjima qilayotgan mutarjim ba'zan asl matn mazmunini to'liq yetkazish uchun o'zbekchada ba'zi grammatik elementlarni tushirib yoki sodda shaklga o'tkazib ifodalashi kerak bo'ladi. Bu jarayonda tilning tejamkorlik xususiyatlarini his qila olishi muhim – ortiqcha so'z yoki qo'shimcha qo'shib yuborilsa, natijadagi matn g'alizlikka yoki sun'iylikka olib kelishi mumkin. Aksincha, kerakli o'rinda qisqa va lo'nda shakllardan foydalanish tarjimani tabiiylashtiradi. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilining morfologik tizimi nisbatan muntazam va istisnolarga boy emas – bu ham tarixiy soddalashuv jarayonlarining mahsulidir. Masalan, fe'llarning shaxs-son qo'shimchalari yoki otlarning ko'plik va kelishik qo'shimchalari deyarli istisnosiz qo'llanadi, oz sonli noodatiy shakllar esa (masalan, *eman – emasman* singari) xalq tilida me'yorlashib borayapti. Bu holat til o'rganuvchilariga grammatikani osonroq egallash imkonini beradi, chunki qonuniyatlar oddiy va istisnolarsiz bo'lsa, yangi bilimni qabul qilishga kamroq aqliy kuch sarflanadi. Boshqacha qilib aytganda, morfologik soddalashuv tilning o'rganish tejamkorligini ham oshiradi. Rasmiy uslubda ba'zan to'liq grammatik shakllar ishlatilsa-da (masalan, *"boradi"* o'rniga *"borajak"* shaklini poetik matnda uchratish mumkin), publitsistik yoki so'zlashuv uslubida oddiylashgan shakllar ustun keladi. Nutq tejamkorligi printsipi tilning jonli qatlamida kuchliroq bo'lganligi tufayli, til madaniyati sohasida ham murakkab, ko'p bo'g'inli byurokratik iboralarni soddalashtirish tendensiyasi kuzatiladi. Bu, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va internet tilida yaqqol ko'rinadi – qisqa, lo'nda va tushunarli ifodalar talab etiladi. Demak, morfologik soddalashuv zamonaviy kommunikativ muhitda muvaffaqiyat kalitlaridan biridir va uni o'rganish hamda o'rgatish jarayonida hisobga olish zarur.

Xulosa. Tilning morfologik darajasidagi o'z tuzilishini soddalashtirishga intilishi – til evolyutsiyasining tabiiy va mantiqiy jarayonidir. Zamonaviy o'zbek tilida bu hodisa turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, asosan nutq tejamkorligi tamoyili bilan bog'liq ravishda kechmoqda. Til birliklari ortiqcha elementlardan xoli bo'lishga, eng qisqa shaklda maksimal ma'no ifodalashga intilishi natijasida grammatik kategoriyalar ifodasida iqtisod qilinadi: keraksiz qo'shimchalar qo'llanmaydi, murakkab shakllar o'rnini sodda variantlar egallaydi, ortiqcha ma'no takrorlanishi bartaraf etiladi. Morfologik soddalashuvning asosiy sabablari tilga xizmat qiluvchi kommunikativ ehtiyojlar va insonning ortiqcha kuch sarflashdan qochishga intilishidadir. Bu intilish, albatta, mutlaq emas – til har doim tushunarlilikni ham saqlashi lozim. Shu bois, soddalashuv bilan bir qatorda, zarur

o‘rinlarda ortiqcha elementlar (masalan, ma’no noaniqligini oldini oluvchi grammatik ko‘rsatkichlar) saqlanib qoladi yoki boshqa darajada kompensatsiya qilinadi. Tilshunoslik nazariyasida bu holat tejamkorlik va ortiqchalikning dialektik birligi sifatida qaraladi. Zamonaviy o‘zbek tilining taraqqiyoti misolida ko‘rish mumkinki, til oddiylashib borar ekan, bu jarayon uning imkoniyatlarini cheklamaydi, aksincha, ifoda vositalarini moslashuvchan va foydalanuvchi uchun qulay qilib boradi. Morfologik darajadagi soddalashtirishlar natijasida nutq yanada tezkor, ravon va tushunarli bo‘lib, til o‘zining asosiy vazifasi – muloqotni ta’minlash –ni samaraliroq bajara boshlaydi. Tilning morfologik soddalashuvi va tejamkorlik tamoyilini o‘rganish bizga nafaqat til o‘zgarishlarining ichki mexanizmlarini tushunishda, balki tilni me’yorlash, o‘qitish hamda tarjima qilishda ham foydali yo‘l-yo‘riq beradi. Kelgusida tilshunoslikda ushbu mavzuni yanada chuqurroq tadqiq etish, xususan, morfologik soddalashuvning davom etuvchi tendentsiyalari va ularning tilning boshqa darajalariga (fonetika, sintaksis, leksika) ta’sirini o‘rganish muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, morfologik darajadagi soddalashuv – bu tildagi tejamkorlik tamoyilining amaldagi ifodasi bo‘lib, u zamonaviy o‘zbek tilining shakllanishi va takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. To‘ldiruvchi” maqolasi – O‘zbek tilining grammatik kategoriya izohi. O‘zbekcha Vikipediya, erkin ensiklopediya
2. Ona tili (Morfologiya). O‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha elektron darslikdan parcha
3. Rasulov Z. “So‘zlashuv nutqi lisoniy o‘zgarishlarning manbai sifatida.” O‘zbekistonda xorijiy tillar ilmiy jurnali, 2022, №4(45), 20-29-bet
4. Jespersen O. Progress in Language asarida tilning soddalashuvi va taraqqiyoti haqidagi qarashlar (1905).
5. Qobilova N.S. “Til tejamkorligi nazariyasining tadqiq qilish tamoyillari.” Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari, 2024 yil, №4 (109), 92-97 bet.
6. Toirova G.I. “So‘zlashuv uslubida tejamlilikning pragmatik xususiyatlari.” Education and Innovative Research (BuxDU), 2022, №5, 57-61-bet
7. Martinet A. Til tizimidagi o‘zgarishlarning iqtisodiy tamoyillari haqida (Qobilova N.S. keltirgan)
8. Nazarova, N. (2022). Antroponimlarning o’rganilishi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 110-112.
9. Ahrorovna, N. N. (2023). ANTROPONIMLAR TILSHUNOS OLIMLAR TADQIQIDA. International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers, 11(2), 400-405.

UO‘K 82: 821.512.145

CHO‘LPONNING SHE’RLARIDA ERK, OZODLIK VA O‘ZLIK MASALALARI

M.M.Gadayeva, o‘qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining erkin namoyondalaridan biri- «Cho‘lpon» taxallusi bilan shuhrat topgan Abdulhamid Sulaymonning hayoti va uning she’rlarida aks ettirilgan erk ozodlik va o‘zlik masalalari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik harakati, Qatorterak mahallasi, dastlabki she’r, nazm.*

Аннотация. *В этой статье рассматриваются вопросы свободы и преемственности, отраженные в хаэте Абдулхамида Сулеймана, известного под псевдонимом«Чолпон», и его львах, одной из легенд джадидистского движения.*

Ключевые слова: *движение джадидов, квартал Катаортак, ранняя поэзия, стих.*

Abstract. *This article examines the issues of freedom and continuity reflected in the khaeta of Abdulhamid Suleiman, known under the pseudonym "Cholpon", and his lions, one of the legends of the Jadidist movement.*

Keywords: *Jadid movement, Qatorterak neighborhood, early poetry, verse.*

«Cho‘lpon» taxallusi bilan shuhrat topgan Abdulhamid Sulaymon 1897-yilda Andijon shahrining Qatorterak mahallasida dunyoga keldi. Abdulhamid dastlab eski maktabda, so‘ng Andijon, Toshkent madrasalarida o‘qiydi. Shuningdek, Andijondagi rus-tuzem maktabida ham tahsil olgan. Yoshlikdan matbuot bilan tanishib borgan.

Cho‘lponning matbuotdagi dastlabki she’r va maqolalari 1914-yildan ko‘rinadi. «Sadoyi Turkiston» gazetasi 1914-yil 14-aprel sonida «15 yashar Abdulhamid afandi»ning «Turkistonli

qardoshlarimizga» she’rini mushtariylariga havola etar ekan, o‘quvchilarni «yoshgina qalbi ila yorug‘lik va ilm-maorif yo‘liga boshlagan»idan mamnunligini yashirmagan va uning kelajagiga katta umid bildirgan edi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, «Sadoyi Turkiston»ning 1914-yil 29-aprel sonida chop etilgan «Qurboni jaholat» hikoyasi Cho‘lponning birinchi nasriy asaridir. Dastlabki asarlari «Abdulhamid Sulaymon», «Abdulhamid Sulaymoniy» imzolari bilan bosildi.So‘ngroq «Qalandar»,«Mirzaqalandar» va nihoyat, «Cho‘lpon» taxalluslari bilan chiqdi. Tariximizga Cho‘lpon nomi bilan kirdi.

1919-yilda Toshkentda Fitrat yonida bo‘lgan, «Chig‘atoy gurungi»da ish olib borgan. 1920-yilning avgustida Bokuda bo‘lib o‘tgan Sharq xalqlari qurultoyida ishtirok etadi.

Adibning 1927-yilda o‘zbek ziyolilarining qurultoyiga yozgan arizasidan shu yillari TurkRosTAda, «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq», «Turkiston», «Buxoro axbori» gazetalarida mas’ul lavozimlarda ishlagani ma’lum bo‘ladi. Taxmin qilish mumkinki, u Buxoroda Fitrat hukumat tarkibida ishlab turgan 1920-1923-yillarda xizmat qilgan. Ziyo Said uning bir muddat 1920-1922-yillarda chiqib turgan «Buxoro axbori»da mas’ul muharrir bo‘lganini qayd etadi. Zaki Validiy xotiralari ham uning 1921-1922-yillarda Buxoroda yashaganini tasdiqlaydi. 1922-yilda Toshkentda chop etilgan «O‘zbek yosh shoirlari» she’riy to‘plami (antologiyasi)da uning 14 she’ri bosilib chiqadi. Shu yili «Uyg‘onish» nomi bilan uning birinchi she’riy to‘plami e’lon qilinadi. 1923-yilning boshlarida esa, ikkinchi she’riy to‘plami «Buloqlar» nashrdan chiqadi. Professor Ozod Sharafiddinov Cho‘lponning 1924-yilda Moskvada Maorif uyi qoshidagi yosh o‘zbek artistlarining mahoratini oshirish uchun tashkil qilingan dramatik studiyaning adabiy emaqdoshi va rahbarlaridan biri bo‘lganini ma’lum qiladi.

Shu tariqa 1927-yil kirib keldi. Sho‘ro hukumati ijtimoiy uyg‘onish bayrog‘i ostida milliy uyg‘onishga qarshi hal qiluvchi hujumga o‘tdi. Davrning birinchi milliy shoiri Cho‘lpon ziyolilar qurultoyidan haydab chiqarildi. Qiyin-qistov kunlar boshlandi. Asarlari ming bir chig‘iriqqa solindi. Bosilgan she’rlari ustidagi «ur kaltak» kuchaygandan kuchaydi. Dastlab «g‘oyasiz» deyish bilan cheklanilgan bo‘lsa, endi ularni «zararli», muallifni esa, ochiqdan-ochiq «dushman» deya boshladilar. Shoir qand kasaliga mubtalo bo‘ldi. Zamon og‘irlashib bordi.

Cho‘lponning to‘rt tomlik tanlagan asarlari to‘plami quyidagi asarlardan iborat:"Yodnomalar" – Bu asar Cho‘lponning eng mashhur she’riy to‘plamlaridan biridir. Unda shoirning o‘z davriga bo‘lgan munosabati, umuman hayotga, insoniyatga bo‘lgan qarashlari aks etadi.

"Qissalar" – Bu to‘plamda Cho‘lponning qisqa hikoyalari va qissalari jamlangan. Asarlarida odamzodning ruhiy holati, jamiyatdagi o‘zgarishlar, insoniyatning daxlsizligi mavzulari yoritilgan.

"Dunyo va men" – Cho‘lponning falsafiy asari bo‘lib, unda shoir o‘zining dunyoqarashi, hayotga bo‘lgan munosabati, insoniyat va tabiat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlaydi. "Ijodiyot" – Bu to‘plamda Cho‘lponning turli janrlardagi asarlari, shu jumladan she’rlar va dramatik asarlar keltirilgan. Shoirning ijodiy dunyosi, uning zamonaviy adabiyotga qo‘shgan hissasi haqida fikrlar mavjud.Ushbu asarlar Cho‘lponning turli janrlaridagi ijodini kengroq tushunishga yordam beradi va uning adabiyotga bo‘lgan katta hissasini ko‘rsatadi. Cho‘lpon o‘z asarlari orqali xalqni uyg‘onishga, jamiyatdagi noxush holatlarga qarshi kurashishga, tenglik va erkinlik uchun faol bo‘lishga chaqirdi. U o‘zining "Aql va tafakkur" kabi maqolalarida xalqni bilimga va taraqqiyotga undagan.

20-yillar o‘zbek she’riyatining chinakam Cho‘lpon davridir.U she’riyatga juda erta kirib keldi. Ilk she’rlaridanoq milliy shoir sifatida tanildi. Masalan, bizga ma’lum bo‘lgan va matbuotda chop etilgan ilk she’ri «Turkistonli qardoshlarimizga» o‘ksik Vatan — Turkiston jarohatlari haqida edi. Chunonchi, «ma’rifatsizlik balosiga yo‘liqqan», foyda-zararini unutgan, yaxshi-yomonini tanimaydigan, tor manfaatlari doirasida ko‘milib qolgan, «topganini boshqalarga berib», o‘zi «och-yalang‘och» qolgan, bir so‘z bilan aytganda, millat sifatida adoyi tamom bo‘lgan «bizni xalq» haqida edi. Ismoilbek Gasprinskiy vafotiga bag‘ishlab yozgan marsiyasida buyuk islohotchining «uyg‘otguvchi ustod»ligiga diqqatni qaratdi. 1917-yil 28-noyabrdagi «Turkiston muxtoriyati»ni olqishlab chiqdi, uni «ozod turk bayrami» sifatida qabul qildi. Unga mehr-u muhabbatini izhor etdi. Uni qo‘lga kiritgan Vatan va xalqni sharafladi:

Muxtoriyat olindi, Ishlar yo‘lga solindi.
Milliy marshlar cholindi, Dushman o‘rtansun endi!

Hurriyat — bayrog‘imiz, Adolat — o‘rtog‘imiz,
Xursand bo‘lgan chog‘imiz, Mevalansun bog‘imiz!
Turkistonli — shonimiz, turonli — unvonimiz,
Vatan — bizni jonimiz, fido o‘lsun qonimiz!

Vaziyat murakkab edi. Sho‘ro mafkurasi islom dunyosining eng nozik nuqtasidan — musulmonchilikning faqirparvarligidan g‘oyat ustalik bilan foydalanib, Turkistonning ziyolilari qalbini zabt eta bordi. Shoirning 1918-yilda «Nizomiddin Asomiy o‘rtoqqa» bag‘ishlangan va o‘sha yili Turkiston Kompartiyasi va Markaziy Ijroiya qo‘mitasi organi «Ishtirokiyun»da chop etilgan «Qizil bayroq» she’rini hamda undagi «mazlum ishchilar» bilan «qonxo‘r burjo‘ylar» muqoyasasini boshqacha izohlash mumkin emas. Lekin shoir ko‘p o‘tmay, juda ko‘p zamondoshlari singari aldanganini anglab yetdi. E’tirof e’tirozga, u esa o‘z navbatida, e’tirozga aylanib bordi. Bu Cho‘lpon ijodiy taqdiriga xos muhim va murakkab bir holdir.

Uningcha, sho‘ro tuzumi va rus istibdodi boshqa-boshqa narsalar emas. Biri ikkinchisining bevosita davomidir. Shakli va vositalari o‘zgargan, xolos. Bu — muhim nuqta,
«Qo‘zg‘alish» she’rida yozadi:
Ey! Sen meni haqir ko‘rgan, tuban degan afandi!
Ey! Ustimda bir umrga xo‘ja bo‘lmoq istagan.
Ey! Bo‘ynimga kishan solib, halokatga sudragan,
Ko‘zlaringni zaharlatib o‘ynatmagil, bas endi!
Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo‘lkim, uzilur,
Tomirimda qo‘zg‘alishning vahshiy qoni gupurdi.
Eski fikr, an’analar endi butkul uzildi.
Yo bitarman, yoki sening saltanating buzilur!
Ey! Sen meni qul o‘rnida ishlatguvchi afandi,
Titra, qo‘rqkim, bog‘liq quling bosh ko‘targan kuch endi!

Bu fikr-tuyg‘ular, shoirdagi ehtiros to‘la g‘azab va nafrat sho‘rolar davrida tarbiya topgan o‘quvchi uchun shamol tegirmonlarga dag‘dag‘a qilayotgan Don Kixotning jazavasi bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin, aslida, shoir vaziyatni juda teran anglagan edi.

Darhaqiqat, sho‘rolar o‘z hayot falsafalari bilan Turkiston hayotini alg‘ov-dalg‘ov qilib yubordilar. Sinfiy kurash degan gap o‘zbek jamiyatini qoq ikkiga bo‘lib tashladi.

Bir tomonda, erk, mustaqillik uchun ketayotgan shafqatsiz kurash, ikkinchi tomonda, ochlik-qahatlik. Bir tomonda, millat ichida yaratilgan «sinfiy kurash», ikkinchi yoqda jaholat, mutaassiblik. Xullas, to‘rt tomon ham ihotalangan. Shoirni bu hol larzaga soladi. U «qirilib tugalish dahshati»dan larzaga tushadi.

Ayni paytda, bu kurashlarning har biri hayot-mamot kurashi edi. Biri ikkinchisi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan edi. Lekin ahamiyatiga ko‘ra eng muhimi istiqlol, erk uchun ketayotgan kurash edi. Bu ulug‘ yo‘l edi. Shoir o‘z she’rlaridan birini «Ulug‘ yo‘lda» deb nomlagan ediki, bejiz emas:
Yo‘limizda cho‘llar, suvlar, dengizlar,Bosguvchisin tanib bo‘lmaslik izlar.
Shul izlarni bosib, dengizlar kechib,Buyuk amal bilan boramiz bizlar.
Yurakdagi saqlab borgan amallar,Yo‘llardagi dengizlardan ulug‘roq.
Ezilganlar tilak tilar bu yo‘li , Burungidan to‘lug‘roq.

She’rda maqsad u qadar pardalangan emas. Ulug‘ yo‘l — ozodlik yo‘li. Suvlar, dengizlar, cho‘llar — bu yoddagi qiyinchiliklar. Buyuk amal — buyuk kurash. Yuraklarda saqlangan amallarning dengizlardan ulug‘ligi sabotga, qat’iyatga ishora. Tilakning burungidan to‘liqligi — bu kurashning oldingilariga o‘xshamaganligi. Kamarlarning mahkam bog‘lanilib, shitob istash kurashning shiddatini anglatadi.

Shoir «Vijdon erki» she’riga «Tutqunlarga» deb izoh bergan. «Ezilgan», «qiynalgan yo‘qsil ellar»ga, «bevalar», «bechoralar»ga, «kishanlarga bog‘langan» «erk uchun ovoralar»ga murojaat etar-kan, zolimlarga yalinmaslikka undaydi. Chunki «bo‘rilardan omon kutmoq» «tentaklarning ishi». Zulm oldida hamma narsa, ehtimol bo‘yin egar. Zulm avjga minsa, osmon uzilib yerga tushar, lekin zolim hech qachon erkin vijdonlarni zabt eta olmaydi. Ulargina mag‘lub bo‘lmaydilar. Shu

tariqa, u vatandosh va millatdoshlarini yuksak vijdon bilan yashashga undaydi. O‘lish kerak bo‘lsa, nomus va vijdon bilan umrni yakunlamoqliklarini orzu qiladi..

1921-yilda Buxoroda yozilgan «Xalq» she’ri shoir fikr-qarashlarini aniqlashda benihoya muhim ahamiyatga ega. Muallif, birinchidan, xalqning buyuk kuch ekanligini yaxshi anglaydi. Ikkinchidan, o‘lkaning ozod bo‘lib, mustaqillik olishini uning istagi hisoblaydi. Uchinchidan, ijod ahlini uning bilan hamisha birga bo‘lishga, o‘zi aytmoqchi, «quchoq ochib xalq ichiga» kirishga undaydi:

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir,
Xalq isyondir, xalq olovdir, xalq o‘chdir…
Xalq qo‘zg‘olsa, kuch yo‘qdurkim, to‘xtatsun,
Quvvat yo‘qkim, xalq istagin yo‘q etsun.
Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi, Xalq istadi: toju taxtlar yiqildi.
Xalq istagi ozod bo‘lsun bu o‘lka, Ketsun uning boshindagi ko‘lanka.
Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar, Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar.
Yo‘qlikni-da, ochliknida yo‘q etar, O‘z yurtini har narsaga to‘q etar…
Butun kuchni xalq ichidan olaylik, Quchoq ochib xalq ichiga boraylik.
Kulgan boshqalardir, yig‘lagan menman,
O‘ynagan boshqalar, ingragan menman.
Erk ertaklarini eshitgan boshqa,
Qullik qo‘shig‘ini tinglagan menman…

Har she’rida erk, ozodlik, adolat istagini, xalqning huquqlarini, mustaqillikka eltguvchi ma’naviyat so‘qmoqlarini Cho‘lpon shoirning nechog‘lik chuqur idrok etgani ayniqsa, bugungi istiqlol avlodlarini hayrat va hayajonga soladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Тоҳир Шермуродов.”Чўлпоннинг чўлпонлик ҳуқуқи”.Т-1995 йил.
2. Бегали Қосимов. “Абдулҳамид Чўлпон”.Т-2015.
3. Gadayeva, M. (2025). Abdulhamid Cholponning jadidchilik harakatidagi orni. *Modern Science and Research*, *4*(2), 1013-1019.

UDC: 81`276.6:61:659.1

ORGANIZATION AND SELF-ORGANIZATION OF TEXT AS A “LIVING SYSTEM”

B.Z.Gafurov, DSc, prof., Bukhara state medical institute, Bukhara

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy tadqiqotlar matnni tashkil qilishni diskursiv tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot ishi, shuningdek, matn tarkibi va matnlardagi ma’lumotlarni qanday tahlil qilishni o‘rganadi. Matnni artikulyatsiya qilish imkoniyatlari ham muhokama qilinadi. Turli xil amaliy maqsadlar uchun har xil turdagi ma’lumotlar tavsiflangan. Taklif qilingan matnni tahlil qilishning turli usullari maxsus matnlar (hujjat matnlari)ni tahlil qilishda qo‘llanilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *matn, diskurs, matnni tashkil etish, globallashuv, dissipativ tuzilmalar, grafik reproduktsiya, atrof-muhit, tizimlar, ichki tuzilmalar.*

Аннотация. *Данное научное исследование направлено на дискурсивный анализ организации текста. В исследовательской работе также рассматривается структура текста и способы анализа информации, содержащейся в текстах. Также обсуждаются возможности артикуляции текста. Описываются различные типы информации для различных практических целей. Представлены методы анализа текста и их возможные применения для анализа специальных текстов (текстов документов).*

Ключевые слова: *текст, дискурс, организация текста, глобализация, диссипативные структуры, графическое воспроизведение, окружающая среда, системы, внутренние подструктуры.*

Abstract. *The given scientific research is aimed at discursive analysis of the organization of the text. The research work also examines textual composition and how to analyze the information contained in texts. The possibilities of text articulation are also discussed. Different types of*

information for different practical purposes are described. Various text analysis methods and their possible applications to the analysis of special texts (document texts) are presented.

Key words: *text, discourse, text organization, globalization, dissipative structures, graphic reproduction, environment, systems, internal substructures.*

The concept of systematicity is rightfully considered to be a conceptual node of science. The conceptual node of science in the second half of the 20th – early 21st centuries led to the understanding of the interdependence of elements in various systems and the complementarity of the concepts of structure and system, with structure being understood as an invariant of the system, and this antinomy leads, in turn, to the concepts of stability (structure) and instability (system) in the process of actual functioning of the system elements. Moments of instability detected in the process of functioning of systems required justification, in addition, it was initially clear that the systems themselves interact with each other. A system is an "ordered and internally organized set of interacting and interconnected objects that form a certain integrity". Organization arises from disorganization, that is, order from chaos, given that these processes exist simultaneously. According to the theory of systems research, a system as a set of elements with relationships and connections between them, forming a certain integrity, manifests and forms all its properties in interaction with the environment. The concept of the environment, which was used mainly in the exact sciences, is intended to explain moments of instability in the process of functioning of systems. At present, the concepts of instability, environment, functioning of systems have received a philosophical justification. These conceptual nodes are approached from different sides in linguistics (M. Guillaume, I. Arnold, A. Bondarko), in exact knowledge (I. Prigogine, I. Stengers, G. Nicolis), in philosophy (J. Habermas, J. Derrida, etc.). As one of the main sources of the theory of instability, we should name the work of A. Bergson "Creative Evolution" (1907). The environment in relation to linguistic units, categories and groups as the initial system is interpreted as a set of linguistic (and sometimes non-linguistic) elements (within a broader system, including the initial system, and in various related areas).

The most powerful explanatory power in the process of understanding the interaction of the system and the environment is possessed by the concepts of self-organization and organization (determinacy and indeterminacy) and verticality in the organization of the system, its openness and closure (hermeticity).

In the process of heated debate, a "new science" was born, the essence of which can be defined as apostasy from the ideals of rationality. This primarily concerns the theory of "dissipative structures" by I. Prigogine and R. Thom. The discussion of these researchers covers situations when the "inexpressible" gives birth to the "expressible", or, in the words of I. Prigogine, "order is born from chaos" ("random fluctuations") [1, pp. 85-86]. Random fluctuations (random, minor changes in initial conditions) change the trajectories of systems in an unpredictable way, but the trajectories themselves gravitate toward certain types (attractors, points of attraction) - and as a result, they transfer an unstable system (environment) into a new stable state (harmony).

Thus, the new paradigm of explanation in science is based on the concepts of order, disorder, interaction and organization. S.P. Kurdiumov, who developed the theory of order in Russian philosophy, writes: "Imagine a constantly open environment, an environment with energy sources and radiation sources." Such an environment is heterogeneous and in some sense integral. But after some time, precisely because of its openness and the nonlinear nature of energy sources and emissions, a dynamic structure consisting of a single line begins to appear in it. This is amazing. As soon as a continuous homogeneous environment self-organizes and disintegrates into discontinuous structures, a mechanism of self-organization is discovered, and the destructive effect of the diffusion process ceases.

Much attention is paid to written speech - writing in general. As the studies of poststructuralists have shown, and primarily the work of J. Derrida, in texts presented in writing linearly, in the form of a book, the form of thinking comes into conflict with the form of writing. [2, p. 50]. Derrida traces the internal processes of the text and destroys its actual linearity and closure, revealing endless chains

and networks between its semantic elements. The text loses its logocentricity and phonocentricity in the usual understanding of these terms. "This interweaving leads to the fact that each element - be it a phoneme or a grapheme - is constituted on the basis of the trace of elements of a chain or system that it contains. This interweaving, this fabric (textile) is a text, and it is created only in the process of transforming another text".

Graphic reproduction of poetic texts, as it seems to us, is an external indicator that the form of poetic thinking, its harmonically non-linear character are in accordance with the form of writing; poetic text is graphically marked in relation to other types of text: this is evidenced by its emphasized verticality in the space of the page with graphic accentuation of the verse. The graphics of the poetic text perform the function of a semantic gesture, referring to what is more essential in its organization. The system of language in the poetic text is decentered and deconstructed, that is, it is subjected to disassembly, dismantling. It should be noted that this process has an antinomic structure: the text uses both the structural and systemic possibilities of language and the elements of its dismantling. The focus on this relationship allows, in addition to the concept of material, to highlight the concept of the matter of a poetic text, and already starting from it, to speak of the warehouse, fabric, texture - factors in which the specific principles of the harmonious organization of the artistic text are embodied.

The focus on the characteristics of language as a material subject to formal processing leads to the distinction between the concepts of material and matter of a poetic text. Matter is a "material" primary element used to embody the artist's creative concept. With the help of the characteristics of the material, the artist "dresses" the images created by his fantasy and imagination in a linguistic shell. Language as a material of poetry is characterized by linguistic certainty, it is structured, formal, has a hierarchy, discreteness, and meaningfulness, and in order to overcome the resistance of "rigid" material, language is to some extent deconstructed, acquiring the quality of matter, which is not characterized by strict certainty [5, p. 589].

In the process of formation of matter it seems important: 1) the installation on the use of language as the material of the work; 2) putting forward as the primary elements of the artistic text the units of language and speech, on the awareness of which in the process of ordinary speaking (including in written speech) there is no installation - sounds, syllables, morphemes, grammemes, semes; 3) the independent functioning, along with the named, of anomalous elements - parts of words, segments of a sentence, half-words, etc.; 4) equating with the actual linguistic units of the elements of the graphic art of the verse, spelling, punctuation, etc.

"Anomalous" elements are called upon to compensate for the imbalance between the number of formal and substantive components, to bring the material of the poetic text - language - to a deeper, plastic state of matter, which includes elements of language and detachment. Thus, the matter of the text (and of poetic language as a whole) is a set of elements of language and exfoliation ("inside" elements), which are a certain physical given, neutral, "indefinite in itself" in relation to the actual poetic, artistic and aesthetic meaning. Only the interaction of a number of specific harmonic patterns that establish mutual connections and dependencies, dismembering and uniting matter, organizes it at a higher, artistic level. Matter as a overcome "material" plays the role of an environment in the text - it is already an adaptive system, self-adjusting, adjusting to the conditions of functioning of the paths of enrichment of its composition (meaning the elements of dismantling), as well as by changing the structure. By structure "is meant a set of relationships between the elements of systems" (9, p. 21). The basis for adaptation is a violation of equilibrium - decentration of the system; it is associated with the tasks that the system must perform in the process of its functioning. In this case, these are the tasks of the harmonic organization of the artistic text.

What we call the environment, "includes certain particular systems, but in relation to the system, which is the main, initial in this cell of the systemic-structural organization, they play the role of a conditioning and conditioned environment, thanks to which the initial system interacting with this environment can perform its functions" (43, p. 15).

The environment for detachments, that is, the emergence of "anomalous" elements, are the linguistic elements and units included in the text, and first of all, the word and the sentence. Thus, all linguistic units appear in the text in potential discreteness.

The environment is relatively homogeneous and, in a sense, truly perfect, since it has already been formed in the process of selecting elements. Due to the breaks in linear connections, dynamic structures of a certain (symmetrical) configuration begin to emerge in it. A continuous, relatively homogeneous environment self-organizes, disintegrates into discrete structures, and in this process, mechanisms of self-organization are discovered, certain invariants ("sources") are located in many points of this environment, so that each element seems to radiate and absorb the semantic and structural energy of the text, as a result of which it can be spoken of as a living system. In this case, the elements of the system - the language - are in the potential and probabilistic possibility of dismantling, deconstruction in order to be organized on a new - harmonic - basis. As a result of this harmonization of self-organizing elements, harmonic verticals and horizontals of the text arise: sound, morphemic, verbal, syntactic.

Thus, order and disorder in the text arise and exist simultaneously: "chaos" that arose in the process of decentering language as a structural-systemic formation generates order, in which certain structures associated with the functions of the environment can arise. The functions of the environment as an adaptive self-adjusting system in a literary text are determined by horizontal (the process of unfolding the utterance) and vertical dynamic processes - the parallelism of verse rows, rhyme. The opposition of language and speech in the text is overcome, as a result the text is a "dialectical synthesis" in which the syngmatically conditioned, structurally fixed linear flow of speech is supplemented by the free interaction of all linguistic units and elements of dismantling included in the text, which function not only as part of a word and sentence, but already in the space of the entire text, forming internal substructures. This functioning leads to interaction and, ultimately, to the integration of units of the same rank (graphemes, phonetic units, morphemes, semes, words, sentences - the latter enter not only into specific vertical relations of sequence, but also into distant vertical connections) and different ranks (poems, "chopped" words in the text of the avant-garde). Thus, in the process of deconstructing the text as a linear organization, harmony is born from a certain chaos - this process is localized in the form of relatively stable internal structures, since stability arises from instability, to some extent the birth of a new internal structural formation is associated with "randomness", chaos and instability of linear connections. Internal substructures, in contrast to the external linear flow of speech, have a vertical direction - from the initial, "setting", to the final part. Vertical connections are largely the result of the selection of elements by the artist (organization), largely - the process of self-organization, the appearance of some structures in the matter-environment. Completely determined linear speech, from the point of view of traditional ideas, generates an indeterministic, chaotic process. The environment has defining points and a direction of movement, determined by strophic, verse, and rhyme division ("source" and "drains" in terms of the modern theory of instability).

REFERENCES:

1. Ashurbayeva R.K. The concept of integration and its application in education. "International Scientific Journal Theoretical & Applied Science" (ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085). –Year: 2020 Issue: 02 Volume: 82. – pp. 83-86.

2. Ashurbayeva R.K. Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021.ISSN 2694-9970.-pp. 45-51.

3. Babaitseva V.V. Selected. 1955-2005. - M. - Stavropol: SSU, 2005.

4. Babaitseva V.V. Selected. 2005-2010. - Stavropol: SSU, 2011.

5. Gafurov B.Z. Study of advertising texts in Russian on the topic of medical terminology. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). –Indonesia. Vol. 26. №1, April 2021.– pp. 586-590.

6. Gafurov B.Z. Analysis of medical version in texts of advertising of hygiene products in the fight against COVID-19 (on the material of Russian and Uzbek languages). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). –Indonesia. Vol. 3, Issue 1, January 2022. – pp. 32-39.

7. Linguistic encyclopedic dictionary. Head. ed. V.N.Yartseva. -Moscow, Soviet Encyclopedia, 1990. – p. 688.

8. Ozhegov S.I., Shvedova N.Yu. Explanatory dictionary of the Russian language. 4th edition, supplemented with 80,000 words and phraseological expressions. - M.: A TEMP, 2007. – p. 944.

9. Shcherba L.V. Phonetics of the French language. - M.: Higher school, 1953. – p. 302.

10. Encyclopedic dictionary of medical terms. -M.: Soviet Encyclopedia. –1984– p. 426.

UDC 808.3

EXPLORING METAPHOR AND SIMILE: INSIGHTS FROM UZBEK AND ENGLISH TEXTS

N.M. G'ofurova, Master student, Fergana State University, Fergana
D.A. Ganiyeva, DSc, Fergana State University, Fergana

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz adabiyotida metafora va taqqoslash (o'xshatish) vositalarining qo'llanilishi o'rganiladi hamda ular ma'no chuqurligini oshirish va emotsional ta'sir uyg'otishda muhim uslubiy vosita sifatida ta'kidlanadi. Tanlab olingan matnlar asosida solishtirma tahlil orqali bu badiiy vositalarning har ikki tildagi madaniy kontekstda qanday ishlashi o'rganiladi. Ularning qo'llanilishidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilinadi, va bu vositalar tilni boyitish bilan birga, milliy qadriyatlar va dunyoqarashni aks ettirishini ko'rsatadi. She'riyat, nasr va kundalik nutqdagi misollar asosida maqola ushbu badiiy ifoda vositalarining universal tabiatini ochib beradi, har bir tildagi o'ziga xoslikni qadrlaydi. Tadqiqot natijalari metafora va o'xshatishning adabiy ifoda va muloqotdagi o'rnini chuqurroq anglashga yordam beradi hamda tilshunoslar, adabiyotshunoslar va pedagoglar uchun foydali bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *metafora, o'xshatish, uslubiy vositalar, o'zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, solishtirma tahlil, madaniy kontekst, badiiy ifoda, tilshunoslik, badiiy til.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается использование метафоры и сравнения в узбекской и английской литературе, подчеркивается их значение как стилистических приемов, усиливающих смысл и вызывающих эмоциональный отклик. Посредством сравнительного анализа отобранных текстов исследуется, как эти тропы функционируют в соответствующих культурных контекстах. Анализируются сходства и различия в их применении, что позволяет выявить, как метафоры и сравнения не только обогащают язык, но и отражают культурные ценности и мировоззрение. Изучая примеры из поэзии, прозы и повседневной речи, статья демонстрирует универсальную природу этих средств выразительности, а также уникальные оттенки каждого языка. Результаты способствуют более глубокому пониманию того, как метафора и сравнение формируют литературное выражение и коммуникацию на узбекском и английском языках, и представляют интерес для лингвистов, литературоведов и преподавателей.*

Ключевые слова: *метафора, сравнение, стилистические приемы, узбекская литература, английская литература, сравнительный анализ, культурный контекст, литературное выражение, лингвистические исследования, образный язык.*

Abstract. *This article examines the use of metaphor and simile in both Uzbek and English literature, highlighting their significance as stylistic devices that enhance meaning and evoke emotional responses. Through a comparative analysis of selected texts, the study explores how these figures of speech function within their respective cultural contexts. It investigates the similarities and differences in their application, revealing how metaphors and similes not only enrich language but also reflect cultural values and worldviews. By analyzing examples from poetry, prose, and everyday speech, this article aims to demonstrate the universal nature of these devices while appreciating the unique nuances found in each language. The findings contribute to a deeper understanding of how metaphor and simile shape literary expression and communication in Uzbek and English, offering insights for linguists, literary scholars, and educators alike.*

Key words: *metaphor, simile, stylistic devices, Uzbek literature, English literature, comparative analysis, cultural context, literary expression, linguistic studies, figurative language.*

Language serves as a vital medium for human expression, allowing individuals to convey thoughts, emotions, and experiences. Within this intricate system, stylistic devices such as metaphor and simile hold significant importance. These figures of speech enable writers to create vivid imagery and evoke deep emotional responses, transforming abstract concepts into relatable and concrete experiences. By drawing comparisons, metaphors and similes enrich the text, making it more

engaging and meaningful to readers. In the rich tapestry of literature, both Uzbek and English traditions utilize metaphor and simile to reflect the cultural values, historical contexts, and worldviews of their respective societies. While these devices share a common purpose of enhancing communication, their usage can vary significantly across languages and genres. In Uzbek literature, for instance, metaphor often draws upon local landscapes, folklore, and traditions, encapsulating the essence of the culture. Conversely, English literature frequently employs metaphors and similes that resonate with its own social and historical nuances, revealing insights into the human condition.

In the context of Uzbek and English, scholars have explored the cultural implications of these devices. For example, in Uzbek literature, metaphoric expressions often draw from local traditions and natural imagery, reflecting the cultural and historical backdrop of the language (Salimov, 2018). This cultural specificity contrasts with English literature, where metaphors may utilize a broader range of influences, including global and contemporary themes.

The literature on metaphor and simile reveals a complex interplay between language, culture, and cognition. By examining these devices in both Uzbek and English texts, this study aims to contribute to the existing body of knowledge, highlighting the cultural specificity and universal themes that emerge from their use. This review sets the stage for a deeper exploration of metaphor and simile in the subsequent sections of this article.

This study employs a qualitative comparative analysis to explore the use of metaphor and simile in selected Uzbek and English literary texts. The primary aim is to identify and analyze the stylistic features of these figures of speech, examining their cultural significance and impact on literary expression. The texts chosen for analysis include a diverse range of genres, such as poetry, short stories, and novels, to provide a comprehensive view of how metaphor and simile function across different forms of literature. The analysis was guided by a framework that considers both linguistic and cultural dimensions of metaphor and simile.

Data was collected through close readings and textual analysis, supplemented by secondary literature on metaphor and simile in both Uzbek and English contexts. The interpretation of findings was informed by existing research on stylistic devices, cognitive linguistics, and cultural studies, ensuring a well-rounded perspective on the subject matter.

In the Uzbek texts, metaphors were frequently derived from nature and everyday life, often drawing on local imagery such as rivers, mountains, and agricultural themes. For instance, a common metaphor equating life to a river emphasizes the flow and unpredictability of human experiences. In contrast, English texts showcased a broader variety of sources for metaphors, including urban imagery, historical references, and abstract concepts. For example, Shakespeare's use of "all the world's a stage" not only conveys the performative aspects of life but also reflects the social hierarchies and roles present in society.

Both Uzbek and English literature employed similes to evoke strong emotional responses. In Uzbek poetry, similes often likened love to natural phenomena, enhancing the emotional intensity and creating a deep connection with readers. For example, a simile comparing love to the blooming of a flower captures the beauty and fragility of relationships. English literature similarly used similes to convey emotions, with comparisons to familiar experiences making the sentiments more relatable. A notable example is Emily Dickinson's similes that compare grief to a "storm," illustrating the tumultuous nature of loss.

The metaphors and similes in Uzbek literature often reflect cultural values such as honor, family, and community. For instance, metaphors related to hospitality and kinship underscore the importance of social bonds in Uzbek culture. In English literature, metaphors frequently highlight individualism and personal struggle, reflecting broader cultural narratives of self-reliance and ambition. This divergence illustrates how cultural contexts influence the thematic choices of authors in both languages.

This study has explored the use of metaphor and simile in both Uzbek and English literature, revealing their significant role as stylistic devices that enrich textual meaning and reflect cultural values. Through a comparative analysis of selected works, we identified key similarities and differences in the application of these figures of speech, demonstrating how they serve as vital tools

for expression across diverse literary traditions. The findings indicate that while both Uzbek and English authors utilize metaphor and simile to convey complex emotions and ideas, the cultural contexts greatly influence their choices. Uzbek literature often draws upon nature and local imagery, emphasizing themes of community and tradition, whereas English literature showcases a wider array of sources, reflecting individualism and modernity. This divergence not only highlights the unique characteristics of each literary tradition but also underscores the universal nature of metaphor and simile as cognitive and communicative tools.

In conclusion, this study contributes to the broader discourse on figurative language by illustrating the intricate relationship between language, culture, and cognition. Future research could expand upon these findings by examining additional texts, exploring the evolution of metaphor and simile in contemporary literature, and investigating their pedagogical implications in language education. Ultimately, the enduring power of metaphor and simile lies in their ability to transcend cultural boundaries, inviting readers to engage with literature on a profound and personal level.

REFERENCES:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
2. Cameron, L. (2003). Metaphor in Educational Discourse. Continuum.
3. Gibbs, R. W. (2006). Metaphor and Thought: Alternative Approaches to the Study of Metaphor. Cambridge University Press.
4. Salimov, A. (2018). "Cultural Reflections in Uzbek Literature: The Role of Metaphor." Journal of Central Asian Studies, 12(1), 45-60.
5. Yusupova, S. A. , G'ofurova, N. M. Lexical stylistic devices used in English short stories. Journal of Qo'qon DPI Ilmiy xabarlari. ISSN 3030-3958 №1/2025

UO'K 808.5

PUNKTUATSION VA TURLI ISHORA BELGILARI ORQALI IFODALANGAN KONNOTATIV MA'NOLAR

A.A. Haydarov, prof., Buxoro davlat universiteti, Buxoro
Sh. Sattorova, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Ushbu maqolada punktuatsion va turli ishora belgilarining konnotativ ma'nolarni ifodalashdagi o'rni tahlil etilgan. Tadqiqotda tinish belgilarining nafaqat grammatik, balki matnning ekspressiv va stilistik tusini belgilashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, o'zbek va jahon tilshunosligida ushbu masalaga oid tadqiqotlar tahlil qilinib, mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari yozma nutqning ta'sirchanligini oshirish va matnning mantiqiy tuzilishini shakllantirishda punktuatsiyaning muhim vosita ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *punktuatsiya, konnotativ ma'no, tinish belgilari, stilistika, pragmatika, matn semantikasi, ekspressiv vositalar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль пунктуации и различных символов в выражении коннотативных значений. В исследовании подчеркивается, что знаки препинания выполняют не только грамматическую, но и экспрессивную и стилистическую функции в тексте. Также анализируются исследования по данной теме в узбекской и мировой лингвистике, что обосновывает актуальность проблемы. Результаты исследования показывают, что пунктуация является важным средством повышения выразительности письменной речи и организации текстовой структуры.*

Ключевые слова: *пунктуация, коннотативное значение, знаки препинания, стилистика, прагматика, семантика текста, экспрессивные средства.*

Abstract. *This article examines the role of punctuation and various symbols in expressing connotative meanings. The study highlights the significance of punctuation marks not only in grammar but also in defining the expressive and stylistic features of a text. Additionally, research on this topic in both Uzbek and global linguistics is analyzed to substantiate the relevance of the subject. The findings demonstrate that punctuation serves as an essential tool in enhancing the impact of written speech and structuring textual coherence.*

Key words: *punctuation, connotative meaning, punctuation marks, stylistics, pragmatics, text semantics, expressive means.*

Kirish. Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning - tinish belgilarining alohida ahamiyatga ega ekanligini qayd etiladi. Har bir punktuatsion belgi o’ziga xos uslubiy vazifani bajaradi. Punktuatsion va turli ishora belgilari badiiy matnda konnotativ ma’nolarni ifodalash, urg‘ularni belgilash va o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatish vositasi hisoblanadi. O‘zbek va ingliz adabiyotida bu vositalar turlicha uslubiy imkoniyatlar bilan qo‘llanilib, matnning o‘quvchi ongiga ta’sirini oshiradi va uning mazmunini boyitadi.

Dolzarbligi. Punktuatsion va turli ishora belgilarining konnotativ ma’nolarni ifodalashdagi roli zamonaviy tilshunoslik va matnshunoslik tadqiqotlarida tobora dolzarb mavzulardan biriga aylanmoqda. Hozirgi kunda yozma nutqning ta’sirchanligi va semantik ko‘lamini kengaytirish uchun nafaqat leksik vositalar, balki punktuatsion belgilar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turli ishora belgilari orqali ma’no tusini o‘zgartirish, ironiyaga yo‘l qo‘yish, matn ohangini aniqlashtirish kabi usullar adabiy va ommaviy matnlarda keng qo‘llanmoqda. Shuningdek, badiiy matnlarda turli tinish belgilarining muallif nutqidagi emotsional va ekspressiv mazmunni boyitishga xizmat qilishi stilistik jihatdan muhim o‘rinni egallaydi. Shu sababli, ushbu mavzuni o‘rganish nafaqat lingvistik nazariya, balki amaliy tilshunoslik uchun ham dolzarbdir.

Adabiyotlar sharhi. Mazkur mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar lingvistika, stilistika va semiotika doirasida shakllangan ilmiy ishlarga asoslanadi. Punktuatsiya va ishora belgilarining konnotativ ma’nolarni ifodalashdagi o‘rni haqida Baxtin M.M., Bartes R., Eko U. kabi semiotik va stilistik tadqiqotchilar muhim ilmiy xulosalar bergan. Ushbu olimlarning ishlarida matnning konnotativ qatlamlari, belgilarning yashirin ma’no yaratishdagi roli, kontekstga bog‘liq holda semantik o‘zgarishlar yuz berishi kabi jihatlar keng yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida ham ushbu masalaga oid muhim tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Sh.Raxmatullayev**,** G’.Abdurahmonov**,** N.Mahmudov**,** M.Hojiyev kabi olimlar o‘zbek tilidagi punktuatsiya vositalarining funksional-semantik jihatlarini o‘rganishgan. G‘.Rahimov va U.Normatov kabi tadqiqotchilar esa tinish belgilarining pragmatik vazifalari, jumladan, matnning emotsional ohangini shakllantirishdagi o‘rniga e’tibor qaratishgan.

Tahlil va natijalar. Biz diqqat qiladigan jihat tilning punktuatsiyasi me’yorlaridir. Savodxonlikni oshirishda orfografiya - to‘g‘ri yozishning o‘rni qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash ham shunchalik muhimdir. Zero, yozuvda tinish belgilarining o‘rinli ishlatilishi nafaqat yozuv egasining, balki millatning saviyasini, yozuv madaniyatini ko‘rsatib turadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining punktuatsion me’yorlari ancha avval o‘rganilgan va mavjud qoidalar ancha barqarorlashgan bo‘lsa ham takomillashtirilishi zarur jihatlar bor edi. Tinish belgilarining qo‘llanishi bilan bog'liq asosiy qoidalar 2015-yilda O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va chop etilgan edi. Mazkur bo’limda zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasi me’yorlari, tinish belgilarining qo‘llanishi kabi turli masalalar haqida fikr yuritiladi. Ushbu qismni yozishda punktuatsiya bo‘yicha izlanish olib borgan K.Nazarov, Sh.Shoabdurahmonov, H.G‘oziyev, H.Jamolxonov, B.Bahriddinova kabi tilshunoslarning ishlariga lozim o‘rinlarda murojaat qilindi. Yozuv tarixiga nazar solinsa, insoniyat hozirgi tinish belgilarini qo'llamasdan oldin ham o‘z fikrini yozuvda turli vositalar orqali to’g’ri anglatishga intilgani ayonlashadi. Shunday intilish yoki izlanishlar natijasida yozuvlarning o‘tmishida har xil belgilar paydo bo‘lgan. O‘zbek tilshunosligida ham punktuatsiyaning vazifalari va qo'llanish doirasi kengaydi, bu borada muayyan izlanishlar olib borildi, o‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari ishlab chiqildi. Tilshunoslikda punktuatsiya termini tinish belgilarning ishlatilishi haqidagi qonun-qoidalar majmui va tinish belgilarining o'ziga nisbatan ishlatiladi.

Punktuatsiya *(lot. punctum -nuqta; kichkina dog‘)* alifbodan tashqari bo‘lgan grafik belgilar (tinish belgilari) tizimi bo‘lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birgalikda yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi. Punktuatsiya qoidalari va me’yorlarini bilish esa yozma fikrni aniq va to‘g‘ri, mantiqli va ifodali, ravon va tushunarli hamda maqsadga muvofiq bayon qilishda muhimdir. Punktuasiyaga oid adabiyotlarda tinish belgilari umumiy xususiyatlariga ko’ra quyidagicha tasnif qilinadi: 1. Qo’llanish o’rniga ko’ra. 2. Ishlatilish usuliga ko’ra. 3. Tuzilishiga ko’ra. 4. Vazifasiga ko’ra[1].

Tinish belgilari qo’llanish o’rniga ko’ra ikki xil: a) gap oxirida qo’llanuvchi tinish belgilari - nuqta, ko’pnuqta, so’roq va undov belgilari; b) gap ichida qo’llanuvchi tinish belgilari - vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta, qavs, qo’shtirnoq.Gap oxirida qo’llanuvchi tinish belgilarining umumiy xususiyatlari sifatida quyidagi fikrlarni aytish mumkin:1) gapning tugallanganini ko’rsatadi; 2) gapda qanday mazmun ifodalanganini bildiradi; 3) gapning tugallanish chegarasini, mazkur gapning keyingi gapdan ajralishini ko’rsatadi; 4) ular gap oxiridan boshqa o’rinlarda ishlatilganda boshqa vazifa bajaradi va ayrim maqsadlar uchun ishlatiladi. Qo’llanish usuliga ko’ra tinish belgilari ikkiga bo’linadi: 1.Yakka holda qo’llanuvchi tinish belgilari. Bunga faqat ikki nuqta kiradi. 2.Yakka va takror qo’llanuvchi tinish belgilari. qavs, undov, so’roq yakka xolatda ham, takror ham qo’llanadi. Masalan, qavs yopiluvchi qavs shaklida qo’llanganda yakka ishlatiladi: *Olmoshlarning grammatik xususiyatlari:1) olmosh otga xos sintaktik shakl yasovchilarni oladi; 2) olmosh hech vaqt o’zidan oldin aniqlovchi olmaydi; 3) juft holda qo’llanib, boshqa so’z turkumi vazifasida keladi.*

Undov belgisi kuchli his-xayajon bilan aytilgan gaplarda qo’sh holatda qo’llanadi: *Ey purviqor tog’lar! Nega jimsizlar, nega!!!*(Cho’lpon)

- Ana, ko’ryapsanmi? Mening dadamlar! Dada!!! (E.Vohidov)

Badiiy adabiyotda turli maqsadlarda so’roq va undov birga qo’llanadi:

Oftob yelib tolsa ko’k uzra,
Unga osmon sandig’i hujra.
Haqdan hukm, bandadan ijro,
Xudo bilar, kim oldin ketar?! (M.Yusuf)

Tinish belgilari tuzilishiga ko’ra ikki xil: 1. Bir tarkibli tinish belgilari: vergul, tire, nuqta. 2. Ko’p tarkibli tinish belgilari: ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs, qo’shtirnoq, ko’pnuqta, so’roq va undov belgisi.

Ko’p tarkibli tinish belgilari tarixan ikki va undan ortiq belgidan tashkil topgan bo’lib, ularga hozirgi kunda bir grafik belgi sifatida qaraladi. Masalan: ikki nuqta belgisi ikkita nuqtaning vertikal usuldagi birikuvi asosida hosil bo’lgan, ya'ni (:); ko’pnuqta nuqtaning gorizontal usuldagi birikuvi asosida paydo bulgan, ya'ni (...); nuqtali vergul nuqta va vergulning qo’shiluvi asosida yuzaga kelgan. Qavs ham ikki elementdan iborat bo’lib, uning birinchisi “ochiluvchi qavs”, ikkinchisi “yopiluvchi qavs”, ba'zan “yarim qavs” ham deyiladi va tartibni bildiruvchi raqam yoki harfdan so’ng qo’yiladi. So’roq, undov va qo’shtirnoqlarning tarkibi yanada murakkabroq. Ular ham ikki elementdan iborat bo’lib, mavjud manbalarga ko’ra, so’roq belgisining lotincha quaistio (so’roq), undov belgisining lo (oh, eh) so’zlaridagi bosh harflarning nuqta bilan qo’shilishi asosida hosil bo’lgani aytiladi. Umuman, har bir tinish belgisining o’z tarixi bor.

Zamonaviy rus punktuatsiyasi bilan shug‘ullangan N.S.Valginaning shunday gapi bor: “Tinish belgilarini o‘rganish mumkin emas, balki ularni qo’llashni o‘rganish kerak”[2]. Olima bu fikri zamirida tinish belgilarini keng vazifalarga, imkoniyatlarga egaligini ham nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Chunki tinish belgilari dastlab faqat grafik belgi vazifasini o‘tagan bo‘lsa, hozir ularning vazifalari bir qadar kengaygan. Olima fikrida davom etib yozadi: “Zamonaviy tinish belgilari o‘zida ulkan imkoniyatlarni mujassam etadi, ular yozuvchiga nafaqat fikrlarini, balki his-tuyg‘ularini ham yetkazishda yordam beradi”.

Punktuatsiya, bir tomondan, ijodkorga o‘z yozma nutqini aniq, to‘g‘ri va ifodali bayon etish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan, o‘quvchiga muayyan matndagi fikrni muallif bayon etganidek, u ko‘zda tutgandek tushunishini ta’minlaydi. Umuman, savodxonlikni oshirishda orfografiya (imlo) qoidalarini egallash qanchalik zarur bo‘lsa, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llay bilish malakasini hosil qilish ham shunchalik ahamiyatlidir. Punktuatsiya ijtimoiy hodisa sifatida davr o‘tishi, yozuvning taraqqiy etishi bilan o’zgarib, takomillashib kelgan. Tabiiyki, yozuvda dastlab qo‘llanilgan tinish belgilarining qo‘yilish o‘rni hozirgi holatidan boshqacha bo‘lgan, qolaversa, vazifalari hozirgidek aniq va murakkab ham bo‘lmagan. Masalan, o‘zbek punktuatsiyasi masalalari bilan shug‘ullangan tilshunos K.Nazarov dastlab yulduzcha va romb ko‘rinishidagi o‘ndan ortiq ishoralarning nuqta vazifasida ishlatilgani haqida ma’lumot bergan[3].

Xulosa. Punktuatsion va turli ishora belgilarining konnotativ ma’nolarni ifodalashdagi roli zamonaviy lingvistika, stilistika va semiotika doirasida dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib

qolmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tinish belgilarining asosiy vazifasi faqatgina sintaktik tuzilmani aniqlash bilan cheklanmay, balki matnning emotsional, ekspressiv va konnotativ qatlamlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu mavzu xorijiy tilshunoslikda Bartes R.**,** Eko U.**,** Jakobson R. kabi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida ham Sh.Raxmatullayev**,** N.Mahmudov**,** M.Hojiyev**,** G‘.Rahimov kabi olimlar tomonidan punktuatsiyaning stilistik va semantik imkoniyatlari o‘rganilgan. Mazkur mavzuni yanada kengroq o‘rganish yozma nutqning ta’sirchanligini oshirish, matnlarning mantiqiy va semantik jihatdan yanada boy bo‘lishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Назаров К. Узбек тили пунктуацияси. - Тошкент, 1976. - Б.50-54.
2. Валгина Н. С. Актуальные проблемы современной русской пунктуации. - М., 2004. - С. 12.
3. Назаров К., Узбек тили пунктуацияси. - Тошкент, 1976. - Б.50-54.

UO‘K 894.375. (092)

“BOBURNOMA”DA ZUHRABEGI OG‘A TASVIRI

Sh.A.Hayitov, DSc, prof., Buxoro davlat universiteti, Buxoro
X.J.Barotova, o‘qituvchi, PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. *Maqolada juvonmard shoh va nozikta’b shoir, buyuk iste’dod egasi Zahiriddin Muhammad Boburning Sulton Mahmud Mirzo va uning suyukli g‘unchachisi Zuhrabegi Og‘a obrazini yaratishdagi mahorati haqida mulohaza yuritilgan.Tabiatan itoatsiz, takabbur, Samarqand mamlakatida yuz turlik ko‘ngilsizliklarni sodir etgan hamda taqdir hukmi ila qilmishlariga yarasha jazo olgan malika Zuhrabegi Og‘a timsoliga xos g‘ayriinsoniy fazilatlar "Boburnoma" ma’lumotlari asosida chuqur tahlil qilingan. Bobur Mirzo zamonasining yirik tarixchilari Mirzo Muhammad Haydar, G‘iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning Zuhrabegi Og‘a shaxsiga munosabati "Boburnoma"dagi talqinlar bilan qiyosiy-tipologik yo‘nalishda nazardan o‘tkazilgan.*

Kalit so‘zlar: *Hasad, hadislar, takabburlik, Shayboniyxon, xotin, davlat, Samarqand, muhabbat, ishonch, itoatsizlik, Sulton Ali Mirzo.*

Аннотация. *В статье рассматривается мастерство Захириддина Мухаммада Бабура, молодого царя и прекрасного поэта, обладателя большого таланта, в создании образа султана Султан Махмуд Мирзо и его любимой жены Зухрабеги Ага. Нечеловеческие качества, свойственные принцессе Зухрабеги Ага, которая была наказанная за свои действия, были глубоко проанализированы на основе информации "Бобурномы". Крупнейшие историки времени Бабур-Мирзы Мирза Мухаммад Хайдар, Гиязиддин ибн Хумомиддин Хондамир трактовали личность Зухрабеги Ага в сравнительно-типологическом направлении с интерпретациями в «Бобурноме».*

Ключевые слова: *зависть, хадисы, высокомерие, Шайбани-хан, жена, государство, Самарканд, Султан Али Мирза.*

Abstract. *The article discusses the skill of Zahiriddin Muhammad Babur, a young king and a fine poet, the owner of great talent, in creating the image of Sultan Makhmud Mirzo and his beloved wife Zuhrabegi Aga. The inhuman qualities characteristic of princess Zuhrabegi Aga, who was punished according to her actions, were deeply analyzed based on the information of "Boburnoma". Major historians of Babur Mirza’s time, Mirza Muhammad Haidar, Ghiyaziddin ibn Humomiddin Khondamir, treated the personality of Zuhrabegi Aga in a comparative-typological direction with the interpretations in "Boburnoma".*

Key words: *envy, hadith, pride, Shaibani Khan, wife, state, Samarkand, Sultan Ali Mirza.*

Zuhrabegi og‘a – Sulton Abusa’idning uchinchi o‘g‘li Sulton Mahmud Mirzo e’tiborini tortgan kanizaklardan bo‘lgan. Sulton Mahmud Mirzo uni otasi Abusa’id Mirzo tiriklik paytida, umrining yigitlik faslida olgan. “Boburnoma”ning 1494-1495-yil voqealariga bag‘ishlangan sahifalaridan o‘qiymiz: “Mo‘tabar g‘umasi Zuhrabegi Og‘a edi. O‘zbakdin edi. Sulton Abusa’id Mirzoning tirikligida, yigitligida olib edi. Bir o‘g‘il, bir qizning onasi edi”. [1:48] 1500-yilda Samarqand hokimiyati Zuhrabegi Og‘aning o‘g‘li Sulton Ali Mirzo ixtiyorida bo‘lgan. Muxolifat hech qachon,

hech bir zamonda yaxshi oqibatga olib kelmagan. Sulton Ali Mirzo bilan Muhammad Mazid Tarxon boshchiligidagi beklar orasida kelishmovchilik kelib chiqadi. Tarxon beklaridan bo‘lgan Muhammad Mazid Tarxon temuriylar davrida katta mavqega ega bo‘lgan. Sulton Ali Mirzo davrida uning nufuzi yanada oshib ketgan. Davlatdagi turli mansablarga kimni qo‘yish yoki qo‘ymaslik masalasi Muhammad Mazidning istagiga ko‘ra amalga oshgan. Sulton Ali Mirzo saltanatida barcha lavozimlarning u tomonidan tanlangan kishilarga berilishi Muhammad Mazidni ortiqcha g‘ururlanib, kibrlanib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu holat boshqa bek va saroy a’yonlarining noroziligini keltirib chiqaradi. Natijada Muhammad Mazid Samarqandni tark etib, shahardan chiqib ketishga majbur bo‘lgan. Ikkinchi tomondan Buxoro va uning atroflarini zabt etgan Shayboniyxon tahdidi borgan sari Samarqandga kuchayib kelayotgan edi. Bunday murakkab, siyosiy, qaltis vaziyat Zahiriddin Muhammad Boburning ulug‘ bobosi poytaxti Samarqandga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Samarqand tomonga yurgan Bobur Sangzorga yetib kelganida shahar Hazrati Xoja Ubaydullohning o‘g‘li Xoja Yahyo qo‘lida ekanligi ma’lum bo‘ladi. Xoja Yahyo Bobur Mirzoga shaharni jangsiz topshirishga va’da beradi. Ammo bu ish amalga oshmay qoladi.

Ayg‘oqchilar Shayboniyxonning katta harbiy tayyorgarliklar bilan Samarqandga kelayotganligi haqida xabar olib keladilar. Zahiriddin Muhammad Bobur qo‘shinning harbiy salohiyatini kuchaytirish, mustahkamlash maqsadida Shahrisabzga (Keshga) yo‘l oladi. Ammo Shahrisabzga kelganidan ko‘p fursat o‘tmay, Samarqandning Shayboniyxon qo‘liga o‘tganligi ma’lum bo‘ladi. “Boburnoma”dan o‘qiymiz: “Keshga kelgandin bir-ikki haftadin so‘ng xabar keldikim, Sulton Ali Mirzo Samarqandni Shayboniyxong‘a berdi. Tafsili budurkim, Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegi Og‘a bilmasligidin va beaqllig‘idin maxfiy Shayboniyxong‘a kishi yuborur, bu mazmun bilakim, Shayboniyxon ani olur bo‘lsa, o‘g‘li Shayboniyxong‘a Samarqandni bergay. Otasining viloyatini olg‘ondin so‘ng Sulton Ali Mirzog‘a bergay”. [1:131]

Zuhrabegi Og‘a Shayboniyxonga yashirincha maktub yo‘llab, xonning o‘ziga uylanishini so‘ragan. Agar Muhammad Shayboniy uning shu shartiga rozi bo‘lsa, o‘g‘li Sulton Ali Mirzo ixtiyorida bo‘lgan Samarqandni unga topshirishini aytgan. Shayboniyxon bunday qulay imkoniyatdan makkorlik bilan foydalangan. Samarqandni hech qanday talofatsiz, jangsiz egallagan. “Boburnoma”dan ko‘chirilgan iqtibosga e’tibor bersak, Z.M. Bobur Zuhrabegi Og‘a timsolidagi ikki salbiy xususiyatga o‘quvchi e’tiborini qaratgan. Bular: bilmaslik va beaqllik. Mirzo Bobur talqinicha, Zuhrabegi Og‘a siyosiy vaziyatga to‘g‘ri baho bera olish narida tursin, oddiy hayot oqimini, birinchi navbatda ko‘z o‘ngida bo‘layotgan voqealarni tushunib yetmagan. Uzoq vaqt saroy muhitida yashagan bu ayol shahzodalar o‘rtasidagi toj-taxt kurashlari, ichki nizolar, mansab-amal, martaba ilinjida yuz bergan fitna-fasod, ayovsiz kurash, qonli to‘qnashuvlardan hech qanday saboq chiqarmagan. O‘z nomusini toptash, marhum eri ruhini kamsitish bilan bir sulola orasida emas, ikki muxolif sulola o‘rtasidagi ixtilofga osongina barham bermoqchi bo‘lgan. Siyosiy savodsizligi, yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata bilmaganligi uchun qattiqqo‘l va shafqatsiz Shayboniyxondan marhamat kutgan. Z.M. Bobur birgina so‘z (“bilmaslik”) vositasida Zuhrabegi Og‘a shaxsiyatidagi eng og‘riqli, alamli nuqtani bexato nishonga olgan. Marhum Samarqand podshosi Sulton Mahmud Mirzoning bevasi Zuhrabegi Og‘aning nodon, johil, to‘g‘ri mushohada yurita olish qobiliyatiga ega bo‘lmagan, chala dumbul ayol ekanligini san’atkorona asoslagan.

Zuhrabegi Og‘a xarakteri va irodasining zaifligini maxsus ta’kidlashga xizmat qilgan ikkinchi so‘z – “beaqllik”. Aql – insonning qudrati, ziynati. U insonni sharaflaydi, jamiyat a’zolari o‘rtasidagi darajasini, maqomini belgilab beradi. Haq subhanahu taolo insonni boshqa yaratilmishlardan aql tufayli mumtoz qilgan. Hazrati inson asrlar davomida o‘zi va xalqi boshiga tushishi mumkin bo‘lgan ofatni, aql kuchi bilan qaytarib kelgan. Zuhrabegi Og‘ada ana shu eng asosiy narsa – aql gavhari bo‘lmagan. Shuning uchun ham o‘zini va o‘g‘lini, elini va yurtini bo‘ynini bog‘lab Shayboniyxon qo‘liga topshirgan.

Muhammad Bobur – zukko so‘zshunos. U tarixiy jarayonning yorqin talqinini berish, obrazning asl mohiyatini ochishda so‘z imkoniyatlaridan mohirona foydalangan. Aql va fikr bir-biri bilan mustahkam bog‘langan, tana va jon kabi yagona vujud. Mirzo Boburning quyidagi talqinlaridan ayon bo‘ladiki, beaql Zuhrabegi Og‘ada mustaqil fikr ham bo‘lmagan: “Bu ra’yidin (Zuhrabegimning qadim Samarqandni Shayboniyxonga qo‘sh qo‘llab topshirish rejasidan) Abu Yusuf arg‘unning

xabari bor ekandur, balki bu ra'yni ko'rsatguvchi o'shal g'addor ekandur". [1:71] Agar Zuhrabegim Og'ada zarracha mustaqil fikr bo'lganida edi, istiqbolda Vatan va xalq taqdiri turgan masalada hech kimning ra'yi bilan hisoblashmas, eng to'g'ri va xolis qarorni o'zi chiqargan bo'lar edi. Shayboniyxon Zuhrabegi Og'aning va'dasi bo'yicha kelib, Bog'i Maydonga tushadi.

Onasi bilan Shayboniyxon o'rtasidagi kelishuvga binoan Sulton Ali Mirzo beklari va saroy a'yonlari bilan kengashmasdan ulardan yashirin ravishda ayrim o'ziga yaqin kishilar bilan Samarqandning Chorraha darvozasidan chiqib, Bog'i Maydonga, Shayboniyxon huzuriga boradi. Muhammad Shayboniy unga past nazar bilan qarab, o'tirishi uchun quyiroqdan joy ko'rsatadi. Bu orada Xo'ja Yahyo bo'lgan voqeadan xabar topadi. Tariqat piri qattiq iztirobda qoladi. Beaql ayol fikrsizligi sababli yuzaga kelgan sharmandali taqdirga hech chora topa olmay, noiloj Sulton Ali Mirzo izidan boradi. Ulug' tariqat piriga ko'zi tushgan Muhammad Shayboniy pirning hurmati uchun o'tirgan joyidan ham qo'zg'almaydi. Xoja Yahyo va boshqa Samarqand ulug'lari salkam 140 yil temuriylar poytaxti bo'lgan azim shaharga Shayboniyxonning bostirib kelishidan qat'iy norozi edilar. Ular Movorounnahr va uning poytaxti Samarqandni temuriylarning qonuniy vorislaridan biri boshqarishini chin dildan istar edilar. Muhammad Shayboniy tarix sahnasida paydo bo'lgan yangi sulolaning asoschisi sifatida bu vaziyatni teran mulohaza qilgan. Shuning uchun ham o'rnidan turib Xoja Yahyoga ehtirom ko'rsatmagan. Aksincha, avliyoullohga ta'naomuz, shikoyatomuz so'zlar ayta boshlagan. Bu iltifotsizlik va beboshlikdan Xoja Yahyo qattiq ranjiydi va qaytib ketishga hozirlanadi. O'zi ham naqshbandiya xojalaridan ulug' tarbiyatlar ko'rgan, fitna-fasodlar girdobida qolganida, hazrat xojai buzrukvor Bahouddin Naqshbandning nurga to'la mozori atrofiga borib, ulug' xojaning nabirasi hidoyatpanoh Nizomiddinxoja Mir Muhammad Naqshband dargohidan panoh topgan Muhammad Shayboniyxon birdan hushyor tortadi. Xoja Yahyo qaytib ketishiga chog'lanib, joyidan qo'zg'alganda ta'zim qilib o'rnidan turganini o'zi ham bilmay qoladi.

Mirzo Bobur jahongir Amir Temur poydevorini nihoyatda mustahkam qo'ygan ulug' davlatning inqirozi, parchalanayotganidan qattiq iztirob chekadi. Buyuk Sohibqiron avlodlarining noshudligiga ich-ichdan achinadi.

Ulug' saltanat haramining to'rida o'tirib, uning imtiyozlaridan istaganicha bahramand bo'lgan, oqibatda esa beaqlligi, fikrsizligi kasofatidan uning inqirozi, tanazzuli ildizlariga suv bergan yengiltak ayolga nisbatan nafratini tizginlay olmaydi. Zuhrabegi Og'a tabiatidagi beaqllikka, yana o'quvchi e'tiborini tortadi. Bobur Mirzo talqinicha, bu xudbin ayol o'zida aql yo'qligidan kibr, manmanlik, g'aflat botqog'iga botdi. Ichidagi shaytoniy tug'yonga barham bera olmadi. Havoyi nafsiga erk berdi. Oqibat nuri diydasining hayot daraxtini quritdi: " Bu bedavlat xotun chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'z o'g'lining xonumonini barbod qildi"[1:72]. Ulug' adib jumlalari chuqur hayotiy, falsafiy ruh bilan yo'g'rilgan. Undan kelib chiqadigan qat'iy xulosa shuki, aqlsizlik insonni poymol etadi. E'tibordan qoldiradi, nochor ahvolga tushiradi, xo'rlaydi, izzat-nafsini tahqirlaydi: "Shayboniyxon (Zuhrabegi Og'aga – X.B.) bir zarra parvo ham qilmadi, balki g'uma-g'unchachicha ham ko'zga ilmadi" [1:72].

Ulug' Navoiy talqinicha, "Pushaymonlik o'tin yoritgan fisq, zuhd g'ururidan kibrga berilgan shayxdan ustun" [2:42]. Har qanday xatoni ham anglab, o'z qilmishidan pushaymon bo'lgan, ruhan ezilgan, chin dildan afsuslangan kishi ko'ngliga Parvardigor isloh yo'lini soladi. Biroq so'nggi pushaymonga hech qanday chora yo'q. Sulton Ali Mirzo onasi so'ziga kirib, Samarqand darvozalarini o'z dushmaniga ochib berganidan qattiq pushaymon bo'ladi. Shohning ba'zi yaqin kishilari bu holni mushohada qilib, ko'rib Vatanidan, xalqidan, taxtidan ajralgan temuriyzodaning hayotini saqlab qolish uchun chora izlaydilar. Ammo endi kech bo'lgan, tadbirning yengi bilan taqdirni o'zgartirib bo'lmasdi. "Sulton Ali Mirzo ham o'z ishiga hayron, chiqqonidin behad pushaymon edi. Ba'zi yovuqlari kayfiyatni anglab Mirzoni olib qochmoq xayol qildilar. Sulton Ali Mirzo rozi bo'lmadi, chun ajal yetib edi, qutulmadi" [2:72].

Dushmanga shahar darvozasini ochib berib, o'zi g'anim qo'lida halok bo'lgan Sultonali Mirzo qismatini "Vaqoe"da yozar ekan, "Mundoq kishining vaqoyeni bundin ortuq bitib bo'lmas, bu yo'sunluq sha'ne harakotni bundin ortiq eshitib bo'lmas", – deya so'ziga yakun yasaydi [1:131]. Haqiqatdan ham, ayol kishi avvalo ona sifatida qadrlanadi. Qur'oni majid su'ralarining bir necha oyatlarida har bir farzand onani izzat-ikrom etish, uning haqqini ado qilishga buyurilgan.

Payg'ambarmiz (s.a.v) muborak hadislarida: "Jannat onalar oyog'i ostidadir",– deb marhamat qilganlar. Xo'sh, Zuhrabegi og'a singari ayollarning sha'niga yuqorida zikr qilingan mazmundagi hikmatlar qanchalik to'g'ri kelar ekan? Zero, Hazrat Alisher Navoiy ta'birlari bilan aytganda: " nosoz juft elga muhliq marazdur oshkor va nuhuft" [2:41]. Ushbu hikmatda aqlsiz , tili zahar xotin oilani barbod qilishi qat'iy ta'kidlagan. Azal-azaldan ham xotinlari tarbiyali bo'lgan xalq – tarbiyali uy sifatida qaralgan. Buyuk donishmand Rizouddin ibn Faxriddin "Oila" nomli risolasida: " Xotunlari tarbiyali bo'lgan xalq – tarbiyali uy, xotunlari tarbiyasiz bo'lgan xalq –tarbiyasiz uy, xotunlari tirishqoq, tadbirkor, irodali bo'lgan xalq – boy, xotunlari yalqov yoki isrofgar xalq faqir bo'lishi aniqdir", [3:42] – deb o'rinli ta'kidlagan.

Jahongir Amir Temur poydevorini mustahkam qo'ygan ulug' davlatning inqirozi, parchalanishida Xadicha Begim va Zuhrabegi Og'a kabi saroy malikalarining sezilarli ta'siri bo'lgan. Mavzuning ayni qirrasi "Boburnoma" da XV asr mafkurasi va tarixiy sharoiti mantig'idan kelib chiqib san'atkorona yoritilgan.

"Boburnoma"da tasvirlangan xotin-qizlarning botiniy go'zalligi shu darajada mahorat bilan aks ettirilganki ularning tashqi-zohiriy ko'rkamligi talqiniga ehtiyoj mutlaqo sezilmaydi. "Vaqoe"da qalamga olingan xotin-qizlar obrazi o'zining axloqiy-ma'naviy go'zalligi bilan beqiyos badiiy emotsional ta'sir qudratiga ega. Tarixiy-adabiy asardagi manfiy (Oybek) xotin-qiz timsollari ham so'z imkoniyatlaridan san'atkorona foydalangan holda behad ta'sirchan badiiy-emotsional fonda ochib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 664 b.
2. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. –Тошкент: Фан, 1998. – 316 Б.
3. Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. — Тошкент: Меҳнат, 1991. – 237 Б.
4. Xondamir. Habib us-siyar. 2-jild. Forscha nashr. – Kobul: Haydariy, 1362 h.sh. S.: 402 – 403.; G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. (Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidan 9-008-7321-06 raqamli forcha qo'lyozmadan tarjima. Ibrohim Alizoda tarjimasi).
5. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixiy Rashidiy. – Toshkent: Sharq NMAK, 2010. – B.319.

UO'K 81-13

YAN KVI JA HIKOYALARIDA OTA OBRAZINING O'RNI

A.T.Hidoyatova, tayanch doktorant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Koreys adibasi Yan Kvi Ja mohir hikoyanavis sifatida tanilgan. Muallifning qator hikoyalarida u yaratgan ayollar obrazi, otasi tirik, begunoh yetim bolalar obrazi, Kvanju qo'zg'oloni ishtirokchilari bilan birga tagmatnda ota obrazi bo'y ko'rsatadi. Bir hikoyasida an'anaviy qadriyatlarning namunasi timsolida gavdalangan ota, boshqa hikoyada zo'ravon, uchinchi bir hikoyada esa ma'naviy qashshoq inson sifatida tasvirlanadi.*

Kalit so'zlar: *obraz, ota, tentak shoir, qizaloq, an'anaviy qadriyat, burch va mas'uliyat, zo'ravonlik, axloqsizlik*

Аннотация. *Корейская писательница Ян Кви Жа известна как искусная рассказчица. В ряде её произведений образ отца присутствует в разных формах: как живой, невиновный отец, участник восстания в Кванджу и как символ традиционных ценностей. В одном рассказе отец изображён как пример традиционных ценностей, в другом — как насильственный персонаж, а в третьем — как духовно обеднённый человек. Исследование образа отца у Ян Кви Жа касается тем долга, ответственности и сложности человеческой природы.*

Ключевые слова: *образ, отец, глупый поэт, девочка, традиционные ценности, долг и ответственность, насилие, аморальность*

Abstract. *Korean writer Yang Kwi Ja is known as a skilled short story writer. In many of her stories, the father figure appears in various forms: as a living, innocent father, a participant in the Kwanju Uprising, and a symbol of traditional values. In one story, the father is depicted as a model of traditional values; in another, he is portrayed as a violent figure, while in a third, he appears as a spiritually impoverished individual. Yang Kwi Ja's exploration of fatherhood delves into themes of duty, responsibility, and the complexities of human nature.*

Keywords: *image, father, foolish poet, girl, traditional values, duty and responsibility, violence, immorality*

Koreys yozuvchisi Yan Kvi Ja hikoyalarida maishiy hayot tasviri, Kvanju qo‘zg‘olonining badiiy ifodasi berilgan. Muallif ijodi tahlili shuni ko‘rsatadiki, asarlari uchun tanlangan bosh qahramonlar ham ayollar yoki o‘zbek adabiyotshunos olimi Baxodir Karim ta’biri bilan aytganda *begidir* insonlar obrazidir. Har bir hikoyada ayol qalbi noziklari his etilgani holda, maishiy hayot tashvishlari girdobida u ayollik latofatini yo‘qotadi, mustaqil hayot ostonasida kuchli qo‘llarga muhtojlikdan qoqiladi.

Shu bilan birga yozuvchi hikoyalarida Kvanju qo‘zg‘oloni nayranglari qurboni bo‘lgan otalar obrazi ham kuzatiladi. Bu hikoyalar tagmatnida namoyon bo‘ladi. Bir qator hikoyalardagi ota obrazi oilaga vafodor, halol, insonparvar tarzida namoyon bo‘ladi. An’anaviy qadriyatlarga amal qiluvchi, uni himoya qiluvchi bu otadir. Konfutsiy ta’kidlagan insonga xos besh xislatning uchinchisida shunday deyiladi: “*...udum, odat, an’anaga sodiqlik. Masalan, ota-onaga hurmat ko‘rsatish. Bunda Konfutsiy jamiyat birligi, o‘zaro hamjihatlik va hurmat-e’tiborni, xalqona urf-odatga qat’iy rioya etilishini, ijtimoiy himoyani nazarda tutgan. Olov hammaga barobar issiqlik va yorug‘lik taratadi, deya uni ramz sifatida belgilagan*” [1; 9-b.].

Jumladan, “Olis va go‘zal mahalla” hikoya qahramoni otasi buviga ko‘rsatgan ehtiromi barcha oila a’zolariga namuna bo‘ladi. Oilaning yangi dahaga ko‘chib o‘tishi uchun eng qulay kun yakshanba edi. Ammo nasroniylikka e’tiqod qiluvchi ona uchun bu haqoratdek tuyuladi: “*Ko‘chish kuni dam olsang, ishdan bo‘shatishadimi*? *Biroq, yakshanba kuni ko‘chsang, Xudo seni jazolaydi*. *Bizda qanday tanlov bor*? *Qaysi biri qo‘rqinchli ekanligini yaxshi bilsang kerak*!” [2; 11-b.]. Birinchidan, ona o‘z e’tiqodiga sadoqatni saqlaydi, ikkinchidan, ota onaning fikrlarini hurmat qiladi. Shu sababli u ish joyida muammo yuzaga kelsa-da, ko‘chish ishlarini boshqa kunga qoldiradi.

O‘g‘ilning ehtiromidan xursand onaning holatini chizishda adiba duodan foydalanadi. Bu duoda bevaqt olamdan o‘tgan ota yodga olinadi: “*Otajon rahmat. Endi doimiy yashaydigan uyga ega bo‘ldik, eson-omon yetib olishga sharoit yaratib berganing uchun rahmat*”. [2; 14-b.]. O‘g‘lining uylanganiga to‘rt, oila boshlig‘ining olamdan o‘tganiga yigirma yil bo‘lganida ular o‘z uylariga ega bo‘lishdi. Ota o‘g‘il sifatida onasiga mehribon, er sifatida ayoliga mehr ko‘rsatadi, farzandini suyib erkalaydi.

“Vonmidonglik shoir” hikoyasida ota obrazi “Olis va go‘zal mahalla” hikoyasidagi ota obraziga qarama-qarshi qo‘yiladi. Qizaloq tilidan qilingan hikoyaga ko‘ra, ota oilada o‘z mas’uliyatini unutgan, uzzu-kun ichish uchun bahona axtaradi. Adiba otaning tubanligini ko‘rsatish uchun uning axlat tashishi, aniqrog‘i, axlat titishi, ichkilik oqibatida ustidan faqat axlat hidi anqib turishini qizaloq nigohida ishonchli tasvirlaydi: “*To‘g‘risini aytishni xohlamasam ham otam ko‘cha tozalovchisi bo‘lib ishlaydi. Tong sahardan to kun botgunga qadar birovlarning uylari oldidagi axlat qutilarini titib yuradigan ish bo‘lgani uchun badanidan keladigan badbo‘y hidga chidab bo‘lmasdi*” [2; 103-b.]. Oilada to‘rtta qiz farzand bo‘lib, ota ularning nima bilan shug‘ullanishini bilmaydi, qizlar ham otalarini hurmat qilishmaydi, shu sababli shaharga ketgan qiz axloqsizlik ko‘chasiga kiradi, begona erkak – do‘kondor Kim uning uyiga bemalol kirib-chiqib yuradi. Ko‘rinadiki, hikoyada gavdalantirilgan ota obrazida erkakning oiladagi o‘rni, oila mustahkamligini saqlashi lozim bo‘lgan vazifalarni unutgani aks ettirilgan.

Hikoyada yana bitta ota obrazi uchraydi, bu tentak shoirning shaharda istiqomat qilib, tabibchilik qiladigan otasidir. Otaning kutilmaganda yosh juvonga uylanishi lavhasi oilada ota va o‘g‘il o‘rtasida ziddiyatni kuchaytiradi. Oiladagi sovuq munosabatlarga befarq bo‘lib qolgan tentak shoir akasi oldidan olis dahada yangi hayot boshlagan otaning oldiga ko‘chib o‘tdi: “*U oiladi kenja farzand edi. Kongnamdagi oldi-sotdi idorasidagi Ko‘xinlik xola buni ahmoqona ish, deb Mongdalni rosa koyib berdi. Biroq Mongdal otasi bilan birga yashash nima uchun ahmoqona ish ekanligini tushunmasdi*” [2; 102-b.].

Yozuvchi Ko‘hinlik xola tomonidan bildirilgan fikrning mohiyatini tentak shoirni ko‘cha bezorilari o‘lgudek qilib savab ketishganida ham, o‘n to‘rt kun davomida uyda kasal yotganida ham otasining churq etmaganligida ko‘rsatadi. Katta shaharda to‘polonlarga aralashib qolgan kenja o‘g‘il

bilan kelisha olmayapgan ota o‘rtasida ko‘rinmas nizo borligi anglashiladi. O‘smirlik davrida qilingan xato uchun hatto, otaning sovuq munosabati sabab Mongdal o‘zi o‘ylab topgan olamda, atrofdagilarning ta'biri bilan aytganda tentak bo‘lib yashashga mahkum. Hikoyadagi bu lavhalar bir tarafdan rus adibi F. Dostoyevskiyning "O‘smir", ikkinchi tomondan I Turgenevning "Otalar va bolalar" asarlaridagi kattalar va bolalar o‘rtasidagi muammoni yodga soladi.

Mongdal obrazida Kvanju qo‘zg‘oloni murakkabliklari namoyon bo‘lsa, ota obrazida oilaning keyingi hayoti fojealari ko‘rsatiladi. Jamiyatdan chetlashtirilgan tentak shoir oilasi tomonidan ham e'tiborsiz qoldirildi. Aslida, Mongdal oilasi o‘ziga to‘q xonadonlardan biri. Jumladan, qizaloq tilidan bu shunday hikoya qilinadi: "*Ayvonida xonaki gullari juda ko‘p bo‘lib, uchta qush qafasi ham osig‘liq turgan Mongdalnig uyi yozda bizning shaharchada kam uchraydigan, g‘uv-g‘uv ovoz chiqarib aylanadigan havosovutgichli boy xonadon edi*" [2; 102-b.].

Bu xonadonda barcha sharoit muhayyo, otaning qo‘li uzun, shu sababli ham o‘g‘lini to‘polonlardan omon saqlab qolgan. Ammo Mongdal kibrli emas, aksincha, xorliklarga chidab yashaydi. Ota-o‘g‘il ziddiyati oilada erkinlik, samimiy munosabat yo‘qligida oydinlashadi. Shu bilan birga ota katta shaharda qolib yashay olmaydi, yozuvchi matn ostiga yashirgan haqiqat – kichik o‘g‘li qo‘zg‘olonda ishtirok etgani uchun u ham olis dahaga kechib o‘tishga majbur bo‘lgan. Muallif bu haqida ochiq-oydin yozmaydi, ammo adiba ta'biri bo‘yicha "Vonmidong" bu kichik odamlar dahasi.

Muallifning "Xangeron" hikoyasida ham shunga o‘xshash ota obrazi uchraydi: "*Bir necha bor bug‘da pishirilgan non do‘koni kassasidan yashirincha pul olayotganida otasi* (*qizini*) *tutib olib, o‘lar darajada kaltaklayotganini ko‘rganman. Otasi Injadan tashqari, turmushga chiqmagan katta opasini ham, onasini ham kaltaklardi. Shuning uchun uning uyi oldidan o‘tayotganimda, otasining o‘pkasi to‘lib baqirayotganini eshitib qolardim. Inja qo‘shiqchi bo‘lish orzusida, tunda qochib ketganida, otasi allaqachon bu dunyoni tark etgan edi. Agar otasi hayot bo‘lganida, Inja ham yosh boshi bilan tunda uydan qochishni xayoliga ham keltirmagan bo‘lardi*" [2; 340-b.].

Oiladagi zo‘ravonlik ota obrazida bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Qizlarini savaganida ona ham, qo‘ni-qo‘shni ham voqealar rivojiga umuman aralashmaydilar. Ota tomonidan tinimsiz kaltaklangan, ona tomonidan himoya qilinmagan xonadonning kichik qizi o‘g‘irlik qilishga majbur. Bu "fazilati" bilan u tengdoshlari orasida hech bo‘lmasa yonida mullajiring borligi bilan maqtanishni xohlaydi: "*Bizning oilaga nisbatan chor-nochor hayot kechirayotgan, ust-boshi isqirt Injaning yonida har doim mayda pullar bo‘lib, tengdosh bolalar orasida eng boyi edi*" [2; 340-b.]. Tinimsiz mehnat qilgan ayolini, onasiga yordamchi katta qizini ham ayamay savaydigan erkak o‘limi, oiladagi qiz-juvonlar oldida mustaqil hayot uchun ochilgan yo‘li kabi tasvirlanadi.

Ota tirik vaqtida tunu-kun mehnat qilgan qiz Inja, ota o‘limidan so‘ng oilasini tashlab qochib ketishga muvaffaq bo‘ldi. Oila boshlig‘i ayollarning erkini bo‘g‘uvchi, ularning mehnatidan foydalanuvchi sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Oiladagi bu ziddiyatning yechimini ko‘rsatishda adiba o‘lim konseptidan foydalanadi. Ota o‘limidan so‘ng ta'qiq eshiklari ochilib, oila tartiblarida biroz o‘zgarishlar ro‘y berdi, natijada, hikoya qahramoni Injaning orzulari amalga oshgandek ko‘rinadi. Adibaning mahorati shundaki, u oila a'zolarining o‘zaro munosabatlarini ishonarli, maromiga yetkazib tasvirlaydi.

"Vonmidonglik shoir" hamda "Xangeron" hikoyasida ota zo‘ravonligiga uchragan qizlar mustaqil, ozod hayotni shahardan axtarishadi. Adiba esa ma'naviy qashshoq oilalar, ayollarning axloqsizlik ko‘chasiga kirib ketishida erkaklar, ayniqsa, otalar obrazini real chizishga muvaffaq bo‘ladi. To‘g‘ri, hikoyada ota obrazlari alohida ajratib ko‘rsatilmagan, yoki ular ishtirok etgan lavhalar ham ko‘p emas. Har ikki hikoyada ayollar obrazi yetakchilik qilsa-da, asar tagmatnida oila boshlig‘i – otaning qizlar tarbiyasidagi salbiy illatlari, qizlar ruhiyatiga ta'siri anglashiladi.

Yozuvchi hikoyalarida ota iyun qo‘zg‘oloni ishtirokchisi, ziyoli inson. "Qo‘ng‘iroq qushi" hikoyasida beva ayollar, otasiz o‘sayotgan obrazlar bilan birga ota obrazi alohida qiyofa kasb etadi. Tinch, osuda hayoti, tirikchiligini xavf ostiga qo‘yib, qo‘zg‘olonda ishtirok etgan ota, farzandi oldida o‘zini notavon his qiladi. Bu ayolning monologida chuqur ifodalanadi: "*Bu kichik jussada ham oq-qora xotiralar mavjudmikin*? *Bor bo‘lsa, hoynahoy, otasi bilan bog‘liq javobsiz savollarga boy xotiradir*. *Kyongju beradigan eng oddiy savol: Oyi, dadam nima ish qiladilar*? *Kichkina bola*

xotirasida dada hatto, mavjud emas. *Doimiy ish bilan band ota o'g'li oldida kam bo'lgan, hatto,* (*oldida*) *uzoq bo'lmagan*" [2; 212-b.].

Mamlakatda favqulodda holat e'lon qilindi. Talabalar harbiy holatni bekor qilish va demokratik jamiyat qurish, mamlakatda ijtimoiy muhitni o'zgartirish uchun tinchlik namoyishlarini o'tkazdilar. Ammo bu namoyishlardan biri kutilmaganda qo'zg'olonga aylanib ketdi va shafqatsizlarcha bostirildi. Bu namoyish XX-asr ikkinchi yarmida mafkuraviy bo'linishdan keyingi Koreya Respublikasi tarixidagi eng fojiali va eng muhim sahifa bo'lib qoldi. Tarixda esa bu qo'zg'olon Kvanju qo'zg'oloni sifatida muhrlandi.

Eri mana shu namoyish targ'ibotchilaridan biriga aylangan edi. Uyda targ'ibotchi er o'rni bo'shab qoldi, ayol bu bo'sh joyga qarashga o'zida kuch topa olmadi. Shu sababli u hayot mazmunini anglash uchun o'zini ovutishga harakat qildi.

Adiba ayolning eri o'tirgan bino tasvirini shunday chizadi: eri o'tirgan bino ichidagi xonaga yetib borish uchun uzun yo'lak bo'ylab yurish kerak, yo'lakning adog'i ko'rinmaydi, xuddi tubsiz jarga tushib ketayotgandek his paydo bo'ladi. Yo'lak oxirida temir eshiklar va qadalgan qattiq nigohlar ostida uchrashuv xonasiga yetib borish mumkin. Uchrashuv xonasi to'g'ri to'rtburchak. To'rtburchak xona daryoning ikki sohili singari bo'lingan. Bir tomonda er – ixtiyori o'zida emas, ikkinchi tomon ayol – eriga yordam ko'rsatishga ojiz. Shisha idishdagi bolalar, to'rtburchak xonadagi er. Shisha idishdagi bolalarni ota-onasi olib ketadi, ammo to'rtburchak xonada temir to'r ortida o'tirgan eri bilan tuzukroq ham gaplashish imkoni yo'q.

To'rtburchak xonada devorda faqat sonlardan iborat soat osig'liq turibdi. Uning qattiq ovozi odamni seskantiradi. Xuddi umr soniyalarini sanayotganga o'xshash his uyg'otadi. Er-xotin o'rtasida quyidagicha suhbat bo'lib o'tdi:

" – *Kyongjuning tomog'i tuzalib qoldimi*..."

" – *...yoz tugadi*..."

" – *xavotirlanma, xotirjam yashanglar*..."

" – *qishloqdan amakimizning bolalaridan sarimsoq piyoz keldi*..."

" - *...xotirjam bo'linglar*..." *Ayol siniq jilmaydi* [2; 201-b.].

Erini dunyoning u burchagida qoldirib, ayol uzun yo'lakning boshi tomonga qaytdi. Zaifligidan, nochorligidan afsuslandi. Keyingi safar albatta ilojini topadi, chunki bu to'rtburchak xonani ham inson qo'llari yaratgan, demak insonlarning o'zi ilojini topadi.

Otasidan xonalari ko'p, ammo kichkina uy meros bo'lib qolgan. Tayyor uyda faqat yeyish-ichish, uxlash, qisqasi faqat yashash mumkin emas. Demak, baxt va istiqlol uchun kurashish, insonlarga quvonch ulashish kerak. Bu yerda adiba *kosa tagida nimkosa* tarzida ish ko'radi. Gap 1980-yillari Koreyada bo'lib o'tgan yigirma yil davomida hukmronlik qilgan diktator prezident o'limidan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan harbiylar hokimiyati haqida ketmoqda.

Koreys jamiyatida madaniy kodiga ko'ra, ota – oila boshlig'i sifatida hurmatga loyiq, shu bilan birga mas'uliyatli inson. Buni chuqur anglagan adiba ayrim hikoyalarida ota va farzandlar munosabatining tarixiy ildizlarini ko'rsatgan bo'lsa, boshqa hikoyalarida mamlakatda bo'lib o'tgan "ichki urushlar" oqibatida unutilayotgan qadriyatlarning oila va jamiyatga salbiy ta'sirini fosh qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Конфуций. Суҳат ва мулоҳазалар.Тузувчи ва сўзбоши муаллифи М. Обидов. – Тошкент. 2014.
2. 양귀자, 원미동 사람들, – 서울, 2012.

UDC 808.3

VOCABULARY MATTERS: INTEGRATING MEANING, USE, AND MEMORY. FOCUS ON ARABIC

Sh.D. Ibodullayeva, teacher, Uzbekistan State World Languages University, Tashkent
N.G. Mirzakulova, student, Gulistan state pedagogical Institute, Gulistan

Annotatsiya. *Arab tili – bu chuqur til bo'lib, lug'at boyligi esa har bir zamonaviy adabiy arab tili (MSA) o'rganuvchisi uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Tilda eng muhim narsa – bu so'zlardir, va arabcha so'zlar madaniyat, e'tiqod va ruhiyat bilan qanday chuqur bog'langanini o'rganish*

orqali, biz lug'atni o'rganish shunchaki yodlash jarayoni emasligini chuqurroq tushunishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: arabcha lug'at, xotira va eslab qolish, til va shaxsiyat, lingvistik chuqurlik, til orqali shaxsiy o'sish, madaniyatlararo muloqot.

Аннотация. *Арабский язык — это язык глубины, и лексика является основой для каждого изучающего современный литературный арабский язык (MSA). Нет ничего более важного в языке, чем слова, и, исследуя, как арабские слова глубоко связаны с культурой, верой и духовностью, мы стремимся понять, что изучение слов — это не просто запоминание.*

Ключевые слова: *арабская лексика, память и запоминание, язык и личность, языковая глубина, личностный рост через язык, межкультурная коммуникация.*

Abstract. *Arabic is a language of depth, and vocabulary is the main foundation of the learning journey for every learner of MSA (Modern Standard Arabic). Nothing is more important to language than words, and by exploring how Arabic words connect deeply to culture, faith, and spirituality, we aim to delve deeper into the idea that vocabulary learning is not merely a process of memorization.*

Key words: *Arabic vocabulary, memory and retention, language and identity, linguistic depth, personal growth through language, intercultural communication.*

Introduction. Since comprehension and the creation of understanding are essential in language learning, vocabulary cannot be overestimated. A solid vocabulary foundation is vital for improving all language skills such as listening, reading, writing, and speaking. This is so because all things that should be understood and all the knowledge that could exist consist of words. If vocabulary is considered as the basic determinant of language acquisition, more knowledge calls for more vocabulary. As Paul Nation (2015) noted in his paper on vocabulary learning: "Vocabulary is not an end in itself. A rich vocabulary makes the skills of listening, speaking, reading, and writing easier to perform."

Arabic features a complex linguistic structure that amplifies its expressiveness, enabling the formation of new words—possibly through the innovation of original roots—resulting in a plethora of related terms, all with logically identifiable meanings. There is no need to teach people every word's meaning, patterns give a specific meaning. For instance, the root ʿ-l-m (ع-ل-م), which broadly relates to knowledge or knowing. From one root, we may create different words, such as:

ilm (عِلم) – knowledge, science
ālim (عالِم) – scholar, one who knows
maʿlūm (معْلوم) – known, information
taʿlīm (تَعليم) – education, teaching
istiʿlām (اِستِعلام) – inquiry or request for information
ʿallama (عَلَّم) – he taught
taʿallama (تَعَلَّم) – he learned

Each of these is built from the same root using specific patterns that reflect roles, actions, or outcomes. Like an Arabic, few languages use root-pattern morphology to this extent.

Considering some of the problems related to the vocabulary and learning of Arabic, especially reading and comprehension skills are among the factors that motivate researchers to produce models of teaching strategies for effective learning Arabic words. This preliminary study is a pilot study to evaluate the effectiveness of the use of effective methods rather than traditional memorisational approach. This study tries to suggest solutions to problems related to vocabulary acquisition and integration of meaning, memory, and usage of every word through the teaching of effective methods or strategies.

As we know, Arabic is known for its rich morphological complexity, particularly the use of patterns (vazn) and roots. Understanding morphological complexity is a key point to work with vocabulary and translation. Arabic learners, especially those who totally unfamiliar with this structure, often face with morphological challenges due to complexity of word forms that arise from a single root. Most Arabic words established from three-consonant roots, and they carry a core

meaningWithout a clear understanding of how roots and patterns interact, learners may struggle to recognize the relationship between these words, making memorization more difficult.

Every word carries meaning, of course—but in Arabic, many words carry much more: layers of culture, history, emotion, and belief. For learners of Arabic, developing intercultural awareness is just as important as mastering vocabulary lists. Arabic is the language of a vast region, a shared identity, and a deeply spiritual tradition. We may struggle to find the right equivalent of some words in other languages. Many words are loaded with cultural and religious significance that can't always be fully captured by a simple dictionary definition. For example:

The word "barakah" (بركة) doesn't just mean "blessing'; it refers to a divine, almost sacred sense of abundance and peace. Another words, like "sabr" (صبر) isn't just "patience." It also reflects inner strength, endurance through hardship, and spiritual resilience. Taqwa (تقوى) is more than "piety"—it's a state of mindfulness of God in everything one does. Sometimes, words can be confusing without cultural insight. For instance, a learner might understand ʿaṣabiyya (عصبية) as "nervousness," but in some regions, it refers to tribal loyalty or fierce family pride—two very different meanings. When learners only focus on the literal meanings, they risk missing the heart of the language. A phrase like as-salāmu ʿalaykum (السلام عليكم) might seem like a simple "hello," but it's actually a deep greeting of peace, almost a prayer. Or take in shā' Allāh (إن شاء الله)—yes, it means "if God wills," but in everyday life, it can express hope, caution, or even a polite way to say "maybe. Context is everything in Arabic.

For this study, we wanted to understand how different methods of learning vocabulary affect Arabic learners, we worked with different intermediate students who were all learning Modern Standard Arabic, and over three weeks, we observed their different approaches to vocabulary acquisition. Each student was encouraged to reflect on their learning preferences and the results they were getting from their chosen strategies. Based on their responses and performance, we categorized them into three main groups based on their learning styles:

First student was a big fan of **traditional memorization**. She loved using flashcards and wrote each new word multiple times until it stuck in her mind. She said that repeating words over and over helped her feel more confident when recalling them. While she could easily remember new words for quizzes, she often struggled to use them in conversation, especially when trying to understand longer Arabic texts. The memorization approach worked for short-term recall but didn't seem to help her apply the words meaningfully in different contexts.

Second student preferred a **root-based approach**. He really enjoyed breaking down Arabic words and identifying the roots. Once he understood a root, he could predict the meaning of related words with ease. For example, when we learned the root **k-t-b (كَتَبَ)**, he immediately recognized words like **kitāb (book), kātib (writer), maktaba (library),** and **maktūb (letter)** without needing to memorize each one separately. He found that learning through roots made the language feel more logical and systematic. This approach helped him build a stronger foundation for understanding new vocabulary without feeling overwhelmed.

Third student was all about **contextual learning**. He preffers learning words by seeing them in sentences and books. Whether through reading Arabic stories, listening to conversations, or watching videos, she absorbed vocabulary by understanding how it fit into different situations. She told me that when she could see how words were used in meaningful contexts, she remembered them more easily. For example, when she came across a word like **'āshiq (عاشِق)** — lover — she instantly associated it with a romantic story we read in class, and the meaning stuck. This approach helped her feel connected to the words, making them more personal and easier to retain.

We compared how each student performed and reflected on which method seemed most effective for them in terms of both short-term recall and long-term retention. In the end, this study gave me valuable insights into how memorization, root-based learning, and contextual learning each impact students' ability to understand and use new vocabulary in Arabic. It was clear that while each method had its strengths, the effectiveness largely depended on the individual learner's preferences and learning style.

Learning Arabic goes far beyond the simple task of memorizing words. It's a journey that connects learners to a rich and deep culture, filled with centuries of tradition, faith, and history. Each word in Arabic carries not only a meaning but also a sense of the world it comes from, making language learning an emotional and intellectual experience. Through this study, we've seen that the most effective way to truly master Arabic vocabulary is not by rote memorization, but by understanding how words are used, how they are connected to each other, and how they fit into the real world. Learning Arabic vocabulary is more than a task—it's about building bridges between cultures and connecting with a language that has shaped the way millions of people think, live, and communicate. In the end, vocabulary isn't just about memorizing a list of words; it's about creating lasting connections that enhance not only your knowledge of Arabic but also your connection to the culture, identity, and people that speak it.

REFERENCES:

1. Nation, I. S. P. (2015). Teaching ESL/EFL Listening and Speaking. New York: Routledge.

2. Boers, F., & Lindstromberg, S. (2012). Experimental perspectives on learning vocabulary in a second language. John Benjamins Publishing.

3. Amin, N., & Saeed, S. (2020). Vocabulary acquisition in Arabic language learning: The role of memory, context, and repetition. Journal of Arabic Language and Literature, 10(2), 29-45.

UO'K 808.5

ABBREVIATURALAR TIL OSHIQCHALIGI VA TEJAMKORLIGINI YUZAGA KELTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

G.M. Ibragimova, PhD, dots., Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon

Annotatsiya*. Maqolada oshiqchalik va tejamkorlik hodisalarining tilshunos olimlar tomonidan o'rganilishi oshiqchalik va tejamkorlik tamoyilining yuzaga kelishida abbreviaturalarning o'rni, o'zlashma abbreviaturalarning o'zlashgan tildagi assimilyatsiyasi, vazifaviy-uslubiy xususiyatlari, fonetik, leksik grammatik (morfologik, sintaktik) sathlarda ifodalanishi kabi masalalar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *abbreviatura, qisqartma, oshiqchalik, tejamkorlik, o'zlashma abbreviatura, fonetik, leksik grammatik, uslubiy, vazifaviy, metonimiya, kinoya.*

Аннотация*. В статье анализируется изучение явлений избыточности и экономии лингвистами, роль аббревиатур в становлении принципа избыточности и экономии, ассимиляция заимствованных аббревиатур в принятом языке, их функционально-стилистическая характеристика, а также их выражение на фонетическом, лексическом, грамматическом (морфологическом, синтаксическом) уровнях.*

Ключевые слова*: аббревиатура, сокращение, избыточность, экономия, заимствованное сокращения, фонетический, лексико-грамматический, стилистический, функциональный, метонимия, ирония.*

Abstract. *The article analyzes the study of the phenomena of redundancy and economy by linguists, the role of abbreviations in the emergence of the principle of redundancy and economy, the assimilation of borrowed abbreviations in the adopted language, their functional and stylistic characteristics, and their expression at the phonetic, lexical, grammatical (morphological, syntactic) levels.*

Key words*: abbreviation, shortening, redundancy, economy, borrowed abbreviation, phonetic, lexical and grammatical, stylistic, functional, metonymy, irony.*

Kirish. Jahon tillarida qisqaruv va tejamkorlikning ko'pincha diaxron hodisa bilan aloqadaligi ularni yuzaga kelishida sabab bo'luvchi omillarni tadrijiy ravishda o'rganishni taqozo etadi. Tejamkorlik va ortiqchalik tamoyillari til egalarining nutqiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda paydo bo'ladi. so'zlovchi tildagi ortiqchalikdan o'z munosabatini lo'nda, qisqa qilib tinglovchiga yetkazishga harakat qiladi. Bu esa so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi, desak adashmaymiz.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tilda oshiqchalik va tejamkorlik masalalari ko'plab xorij, rus va o'zbek tilshunoslarining e'tiboridan chetda qolmagan. Jumladan, G.Gleason, A.N.Marckwardt,

A.A.Shchukin, Barry R. Chiswick, Wang Xiaojuan. Claude E. Shannon, Ch.Hockett, J.Cenoz & D.Gorter, S.S.Komarova, A.P.Kononenko, L.O.Zimina, M.A.Pavlyukovets, L.A.Buskunbayeva, A.R.Mustafina, I.Zaykova, L.A.Samboruk, N.Mahkamova, B.Sheronov, R.N.Yusubova, G.Z.Bozorova, Z.I.Rasulov, A.B.Uralov kabi tilshunoslar nomini zikr etish mumkin.

Natijalar va muhokama. Oshiqchalik va tejamkorlik hodisalarida ellipsis va reduksiya alohida o‘rin tutadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida ingliz tilida fonetik, morfemik, elliptik qisqaruvlar shiddat bilan kechgan, masalan: *phone < telephone – “телефон”; fan < fanatic – “энтузиаст”; gym < gymnasium – “гимнастика зали”; gas < gasoline “бензин”; movie < moving pictures – “кино”* kabi [3, 93]. Qisqaruvning asosiy xususiyatlaridan biri tildan unumli foydalanish, so‘zlovchiga ixcham nutq yaratish va tinglovchini muloqotdan zeriktirmay, kerak bo‘lsa aytish mumkinki, samarali muloqotni amalga oshirish, desak to‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

Claude E.Shannon tejamkorlikni telegraf kompaniyasi umumiy so‘zlar va iboralar uchun bir necha harf yoki raqamlardan iborat tijorat kodlaridan foydalananishi orqali shunday tushuntiradi: “*Xabarni ushbu kodlarga tarjima qilish orqali siz o‘rtacha tejamkorlikni ko‘rasiz. Kodlangan xabar asl nusxadan o‘rtacha qisqaroq*” [2, 123].

Rus tilshunoslari ham tejamkorlik masalasi yuzasidan izlanishlar olib borgan. Masalan, A.P.Kononenko o‘zining tadqiqotida zamonoviy ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘zlashma abbreviaturalarning o‘zlashgan tildagi assimilyatsiyasi va unikal tomonlarini tadqiq qilgan [4, 16]. Uning qarashicha, o‘zlashgan abbreviaturalar til tejamkorligiga va oson o‘zlashuvchi birliklar deb qaraydi. Tilshunos o‘zlashgan abbreviaturalarni 1) federatsiya, 2) agentlik, 3) texnika nomlariga ajratadi. Qisqartmalar magazin, oshxona, restoran, kafe nomlarida, ayniqsa badiiy asarlarda ko‘p uchraydi. Ular tibbiyot, ta’lim, televideniya, umuman hayotning barcha jabhalarida keng qo‘llaniladi.

L.A.Samboruk o‘zining “Средства и способы языковой экономии в различных типах англоязычного дискурса” [6, 223] nomli nomzodlik dissertatsiyasida ingliz tilidagi nutqning o‘quv, dramatik, ilmiy va ommaviy axborot vositalarida lingvistik iqtisod vositalarini zamonaviy ingliz tilida so‘zlashuvchi jamiyat lingvomadaniy paradigmasining diskursiv belgilari bilan o'zaro ta'siri jarayonida har tomonlama aniqlash va tizimlashtirish masalasini tilning fonetik, leksik va grammatik sathlarida, ommaviy axborot vositalari diskursida ifodalanishini tadqiq qilgan. Tildagi ortiqchalik tamoyilining o`rganilish tarixi uzoq o`tmishga borib taqaladi. Mazkur hodisa haqidagi dastlabki qarashlarni antik davr olimlari ijodida uchratish mumkin. Faylasuflar tomonidan ortiqchalik, xususan, pleonazm hodisasi ritorika va stilistika doirasida o‘rganilgan [1, 946].

G.Bozorovaning ta’kidlashicha, o‘zbek tilshunosligida maxsus pleonazm hodisasiga e’tibor qaratilgan ish N.Mahkamovning “Adabiy norma va pleonazm” nomli tadqiqotidir. Olim o‘zbek tilida uchraydigan affiksal pleonazmlarni ikki turga bo‘lib o‘rganadi: distant va kontakt holatda joylashib pleonastik qo‘llanishiga ko‘ra pleonazmlar. Shuningdek, leksik-affiksal pleonazmlarni ham misollar bilan tahlil etadi. O‘zbekcha va o‘zlashma so‘zlarning pleonastik qo‘llanishi ham olim nazaridan chetda qolmagan [1, 949].

Tilshunos olim J.Eltazarov o‘zining “Tildagi tejalilik tamoyili va qisqaruv” nomli monografiyasida tilning amal qilinishida muhim o‘rin tutuvchi qonuniyatlardan biri bo‘lmish tejamlilik tamoyili va uning til satxlarida namoyon bo‘lishi masalalari yoritib berilgan. Tejamkorlik tamoyilining xususiy holi bo‘lmish kisqaruv hodisasining yuz berish mexanizmi va shakllari haqida atroflicha ma’lumotlar keltirilgan [8, 110].

Muallif monografiyada olg‘a surgan nazariy qarashlarini izohlash maqsadida o‘zbek tili va boshqa qardosh turkiy tillar materiallaridan, eski turkiy yozma obidalar namunalaridan keng foydalangan. Olim tildagi tejamlilik va qisqaruv hodisalarini tahlil qilar ekan, u “*jahon tillarida qisqarish hollari davom etmoqda. Tildagi tejamlilikni amal qilishdan to‘xtagan deb xulosa chiqarish haqiqatdan uzoq yondashuvdir*”, deya ta’kidlaydi [8, 25].

Tejamkorlik bilan baravar faoliyatda bo‘lgan tildagi ortiqchalik (redundantlik) hodisasi til tizimi uchun qonuniy va tabiiy ravishda hosil bo‘ladigan voqelik sifatida talqin qilinadi. Til tizimidagi ortiqchalik faqat tabiatan mavjud bo‘lmasdan, balki talab qilinganda so‘zlovchining o‘zi tomonidan ham hosil qilinishi mumkin. Bu, ayniqsa, uzatilayotgan axborotni alohida ta’kidlash ehtiyoji tug‘ilganida yoki kommunikantlarda shuni istaganlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi [5, 19].

R.N.Yusubova o‘z izlanishida badiiy matnda tejamlilik va ortiqchalikning lingvopoetik xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan ochib bergan [9, 76]. Shu o‘rinda metaforik, metonimik, sinekdoxa, kinoya hamda okkazionallik asosidagi, sitaktik sathdagi, noverbval vositalar asosidagi tejamlilikning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilgan. Tejamlilikning har bir ko‘chim asosidagi o‘ziga xos tomonlari nazariy va amaliy jihatdan izohlangan. Masalan, metoforik tejamlilikni shunday yoritadi: Ijodkor tafakkur faoliyatining kognitiv darajasida obrazli konseptlar namoyon bo‘ladi, biror voqelik mazmuni yangicha tus olayotganda,in'ikos standartlashtirilgan fikrlarga bo‘ysunmasdan, betakror ifodalar kashf qiladi, masalan, ushbu omillar milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangan metaforik tejamlilik tipida voqelanib, ijodkorning badiiy niyati bilan uyg‘unlashadi. Metaforaning semantik-struktur planida "keng mazmun + ixcham shakl" modeli ustunlik qilsa, ushbu qisqartirilgan qiyos kognitiv planda tafakkur va madaniyat hamkorligi, lingvopoetik planda badiiy-estetik umumlashma sanaladi. Masalan: *Agar shu **jonvorlar** mendan sarmunshiylikni tinchlik bilan olsalar, o‘zimni juda ham baxtlik kishilardan sanar edim...* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon) misolida sarmunshiylik lavozimiga tayinlangan Anvarga Sultonali bu lavozim egasiga otga minib yurish yarashishini aytganda, Anvar rad etadi va bu lavozimni egallash uchun har qanday qabihlikdan toymaydigan kishilar borligini yoddan chiqarmaslikni ularni *"jonvorlar"* deb atash orqali ishora qiladi. *Jonivor* so‘zi jins-tur munosabatida jins tushunchasini ifodalaydi, metaforada quyidagi tushunchalar yaxlitlangan: bir necha shaxsning xarakter-xususiyatlaridagi umumiylik, o‘xshashlik (1), so‘zlovchining salbiy munosabati (2) kabilar [9, 20].

Demak, tejamlilikni sifatlash, jonlantirish, ramz, allegoriya kabi boshqa o‘xshash ko‘chimlar orqali ham ifodalash mumkin.

Tejash tamoyili fonetik, leksik grammatik (morfologik, sintaktik) sathlarda keng qo‘llaniladi. Fonetik tamoyilda talaffuzda unlilarning qisqarishi, ya'ni reduksiya (*б<u>и</u>лан, read<u>e</u>r*), unli harf birikmalarining bir yoki ikki tovush berishi (height) undoshlarning tushishi yoki diereza (*go‘sh<u>t</u>, liv<u>e</u>*), gaplologiyada (*morf<u>o</u>fonologiya-morfonologiya*), akkomolatsiyada (*bu keng tarqalgan fonetik hodisalardan biri bo‘lib, talaffuz iqtisodi bilan uzviy bog‘liqdir. So‘zlardagi undosh birikmalarning har ikki elementi bir biriga ta'sir qilib, jarangsiz undoo‘lar sonorlarni qisman jarangsizlashtiradi va o‘z navbatida, sonorlar ham jarangsiz undoshlarda ovoz tonini kuchaytirib, shrvqinni pasaytiradi* [7, 48-49]), assimilyatsiyada (*nutq organlarining ishtirokini tejab talaffuzni osonlashtirishdir*), morfologik tamoyilda qo‘shimchalarning tushib qolishi (*talabalar o‘qidilar, a book of John* (*<u>'s</u>*), so‘zlarni qisqartirish (*AQSH, USA*), sintaktik tamoyilda (*kitob sotib oldim* – ega tushib qolyapti, vositasiz to‘ldiriruvchi belgisiz qo‘llanilmoqda), yordamchi fe'llarni qisqartirishda (*She'<u>s</u> returned from England this week*), takrorni oldini olish uchun so‘z almashtirishda (*<u>The salary</u> of Tom is as high as <u>that</u> of mine*) kuzatiladi.

Xulosa. Oshiqchalik va tejamkorlik tamoyillari fonetik, leksik grammatik (morfologik, sintaktik) sathlarda yuzaga chiqadi va uning asosiy vazifasi muloqot jarayonida ma'lumotni tezda yetkazish, so‘zlovchidan ortiqcha energiya sarflamaslikka yordam, samarali muloqoni omalga oshishini ta'minlash va tildagi oshiqchaliklaridan voz kechishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bozorova G.Z. Ortiqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida o‘rganilishi. Scientific Journal Impact Factor. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1 | Issue 9. ISSN 2181-1784. SJIF 2021: 5.423. – B. 946.

2. Claude E. Shannon. The redundancy English. Chrome-extension: //kdpelmjpfafjppnhbloffcjpeomlnpah/http://medientheorie.com/doc/shannon_redundancy.pdf. – P. 123.

3. Marckwardt. A.N. American English. – New York, 1958. – P.93.

4. Кононенко А.П. Заимствованные сокращения как выражение экономии языковых средств (на материале английского и русского языков): Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Нальчик, 2006. – 16 с.

5. Расулов З.И. Нутқий тузилмалар ахборот-дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида): Филол.фан.д-ри.дисс.…автореф. – Бухоро: 2022. – Б. 19.

6. Самборук Л.А. Средства и способы языковой экономии в различных типах англоязычного дискурса: Дисс канд. филол.наук. – Самара, 2023. – 223 с.

7. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – Б. 48-49.

8. Элтазаров. Тилдаги тежамлилик ва тамойили ва қичқарув. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2004. – 110 б.

9. Юсубова Р.Н. Тежамлилик ва ортиқчаликнинг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан.бўйича фал.докт...дисс.автореф. – Самарқанд: 2021. – 76 б.

UDC 811

THEORETICAL TRENDS ON THE CLASSIFICATION OF THE ENGLISH PHRASES

G.M.Iskandarova, student, Urgench state university, Urgench
M.U.Khalbayeva, student, Urgench state university, Urgench
G.M.Saparbaeva, PhD, doc., Urgench state university, Urgench

Annotatsiya. *Ushbu maqola frazeologiya masalasi, ingliz tilidagi frazeologik birliklarning tasniflanishi kabi bahsli mavzuni yoritadi. Bu masala lingvistikaning turli sohalarida turli nuqtai nazarlardan muhokama qilingan, ammo hali to'liq yechim topmaganligi maqolada misollar orqali ochib berishga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar*: fraza, idiom, frazeologik birlik, birliklar, birlashma.*

Аннотация. *В данной исследовательской работе рассматривается спорный вопрос фразеологии, классификации фразеологических единиц в английском языке. Этот вопрос обсуждался в различных разделах лингвистики с разных точек зрения, но до сих пор не нашел окончательного решения.*

Ключевые слова*: фраза, идиома, фразеологическая единица, единства, слияние.*

Abstract. *The current research paper highlights the controversial issue of phraseology, the classification of PU in the English language. The issue has been discussed in a number of branches in linguistics from different perspectives but hasn't found its solution yet.*

Key words: *phrase, idiom, phraseological unit, unities, fusion.*

It has been repeatedly pointed out that word-groups viewed as functionally and semantically inseparable units are traditionally regarded as the subject matter of phraseology. It should be noted, however, that no proper scientific investigation of English phraseology has been attempted until quite recently. English and American linguists as a rule confine themselves to collecting various words, word- groups and sentences presenting some interest either from the point of view of origin, style, usage, or some other feature peculiar to them. These units are habitually described as idioms but no attempt has been made to investigate these idioms as a separate class of linguistic units or a specific class of word-groups.

The vocabulary of a language is enriched not only by words but also by phraseological units. Phraseological units are word-groups that cannot be' made in the process of speech, they exist in the language as ready-made units. They are compiled in special dictionaries. The same as words phraseological units express a single notion and are used in a sentence as one part of it. American and British lexicographers call such units «idioms». We can mention such dictionaries as: L. Smith «Words and Idioms»[6], V.Collins «A Book of English Idioms» [5] etc. In these dictionaries we can find words, peculiar in their semantics (idiomatic), side by side with word-groups and sentences. In these dictionaries they are arranged, as a rule, into different semantic groups. Phraseological units can be classified according to the ways they are formed, according to the degree of the motivation of their meaning, according to their structure and according to their part-of-speech meaning. A.V.Koonin classified phraseological units according to the way they are formed. He pointed out primary and secondary ways of forming phraseological units. [4] Primary ways of forming phraseological units are those when a unit is formed on the basis of a free word-group:

a) The most productive in Modern English is the formation of phraseological units by means of transferring the meaning of terminological word-groups:

E.g. in cosmic technique we ran point out the following phrases:

«launching pad» in its terminological meaning is *«стартовая площадка»,*in its transferred meaning -*«отправной пункт», «to link up» - «стыковка космических кораблей, соединение»,* in its tranformed meaning it means - *«знакомиться»;*

A large group of phraseological units was formed from free word groups by transforming their meaning.

E.*g. «granny farm» - «пансионат для старых людей»,*

«Trojan horse» - компьютерная программа предварительно составленная для повреждения компьютера»

Phraseological units can be formed by means of alliteration**.**

E.g. «a sad sack» - «несчастный случай», «culture vulture» - « человек интересующийся искусством», «fudge and nudge» - «уклончивость».

They can be formed by means of expressiveness; especially it is characteristic for forming interjections. E.*g. «My aunt!», « Hear, hear !» etc.*

They can be formed by means of distorting a word group, *e.g. «odds and ends» was formed from «odd ends»,* they can be formed by using archaisms.

E.g. «in brown study» means «in gloomy meditation» where both components preserve their archaic meanings, they can be formed by using a sentence in a different sphere of life.

E.*g. «that cock won't fight»* can be used as a free word-group when it is used in sports (cock fighting), it becomes a phraseological unit when it is used in everyday life, because it is used metaphorically, they can be formed when we use some unreal image.

E.*g. «to have butterflies in the stomach» - «испытывать волнение», «to have green fingers - «преуспевать, как садовод-любитель».*

They can be formed by using expressions of writers or politicians in everyday life, e.g. «corridors of power»*(Snow), «American dream» (Alby) «locust years» (Churchill), «the winds of change» (McMillan).*

Secondary ways of forming phraseological units are those when a phraseological unit is formed on the basis of another phraseological unit; they are:

a) Conversion or forming verb forms from nominal constructions or vice versa.

E.g. «to vote with one's feet» was converted into «vote with one's feet»;

- Changing the grammar form into a whole sentence. *E.g. «Make hay while the sun shines» is transferred into a verbal phrase - «to make hay while the sun shines»;*
- Analogy or taking appropriate word for the situation, *e.g. «Curiosity killed the cat» was transferred into «Care killed the cat»;*
- Contrast, *e.g. «cold surgery» - «a planned before operation» was formed by* contrasting it with *«acute surgery», «.thin cat» - «a poor person» was formed by* contrasting it with *«fat cat»;*
- Shortening of proverbs or sayings *e.g. from the proverb «You can't make a silk purse out of a sow's ear» by means of clipping the middle of it the phraseological unit «to make a sow's ear» was formed with the meaning «помилятись».*
- borrowing phraseological units from other languages, either as translation loans, *e.g. « living space» (German), « to take the bull by the horns» (Latin) or by means of phonetic borrowings «meche blanche» (French), «corpse d'elite» (French), «sotto voce» (Italian) etc.*

Phonetic borrowings among phraseological units refer to the bookish style and are not used very often. There are different combinations of words. Some of them are free, *e.g. to read books (newspapers, a letter, etc.)* others are fixed, limited in their combinative power, *e.g. to go to bed, to make a report.* The combinations of words which are fixed (set-expressions) are called phraseological units.

A free combination is a syntactical unit, which consists notional and form words, and in which notional words have the function of, independent parts of the sentence. In a phraseological unit words are not independent. They form set-expressions, in which neither words nor the order of words can be changed. Free combinations are created by the speaker. Phraseological units are used by the speaker in a ready form, without any changes. The whole phraseological unit has a meaning which

may be quite different from the meaning of its components, and therefore the whole unit, and not separate words, has the function of a part of the sentence.

Phraseological units consist of separate words and therefore they are different words, even from compounds. Word have several structural forms, but in phraseological units only one of the components has all the forms of the paradigm of the part of speech it belongs to *e.g. to go to bed, goes to bed, went to bed, gone to bed, going to bed, etc.,* the rest of the components do not change their form.

By the classification of Academician V. Vinogradov phraseological units are devided into three groups: phraseological combinations, phraseological units and phraseological fusions [9].

Phraseological combinations are often called traditional because words are combined in their original meaning but their combinations are different in different languages, e.g. cash and carry - (self-service shop), in a big way (in great degree) etc. It is usually impossible to account logically for the combination of particular words. It can be explained only on the basis of tradition, e.g. to deliver a lection (but not to read a lecture). In phraseological combinations words retain their full semantic independence although they are limited in their combinative power, e.g. to wage wax (but not to lead war), to render assistance, to render services (but not to render pleasure).

Phraseological Unities: In phraseological unities the meaning of the whole can be guessed from the meanings of its components, but it is transferred (metaphorical or metonymical)

E.g. to play the first fiddle (to be a leader in something), old salt (experienced sailor) etc. The meaning of the whole word combination is not the sum of the meanings of its components, but it is based on them and the meaning of the whole can be inferred from the image that underlies the whole expression, e.g. to get on one's nerves, to cut somebody short, to show one's teeth, to be at daggers drawn. Phraseological unities are equivalents of words as:

1) only one of components of a phraseological unity has structural forms' e.g. to play (played, is playing, etc.) the first fiddle (but not played the first fiddles); to turn (turned, will turn, etc.) a new leaf (but not to turn newer leaf or new leaves); 2) the whole unity and not its components are parts of the sentence in syntactical analysis, e.g. in the sentence He took the bull by the horns (attacked a problem boldly) there are only two parts: he - the subject, and took the bull by the horns - the predicate.

Phraseological Fusions: In phraseological fusions the degree of motivation is very low, we cannot guess the meaning of the whole from the meanings of its components, they are highly idiomatic and cannot be translated word for word into other languages.

E. g. to pull one's leg (to deceive); at sixes and sevens (in confusion); a mare's nest (a discovery which turns out to be false or worthless); to show the white feather (to show cowardice); to ride the high horse (to put on airs).

Phraseological fusions are the most idiomatic of all the kinds of phraseological units. Phraseological fusions are equivalents of words: fusions as well as unities form a syntactical whole in analysis. In particular, life concept phrases" are those which present concepts, ideas, or sentiments associated with life as it re-lates to humanness, values, and experience. Such a phrase might express an attitude of be¬ing philosophical, emotional, or motivational and is normally used in daily conversation in speaking one's mind about life. Below is the categorization of the phrases by conceptual and functional aspects.

1. Motivational Phrases: These are those phrases which encourage and motivate someone towards tackling challenges or following ambitions.

Examples: "Follow your dreams"–«Следуй за своей мечтой».

"Never give up" – «Никогда не сдавайся».

"The sky's the limit"–«Небо — предел».

Then purpose is to lift spirits and leave on a note of positivity.

They are used in self-help contexts, speeches, or personal encouragement.

2. Philosophical Phrases. These phrases reflect deep thoughts with regard to the nature of life, existence, or humanity. Examples: "Life is what you make it."– «Жизнь — это то, что ты из нее делаешь»; "To live is to suffer, to survive is to find meaning in the suffering"–«Жить — значит

страдать, а выживать — это найти смысл в страданиях»; "The unexamined life is not worth living"– «Неисследованная жизнь не стоит того, чтобы её жить».

The purpose is to evoke introspection and raise thought. They are used in philosophical discussions, reflective writings, or literature.

3. Emotional or Expressive Phrases. These phrases describe ups and downs in life with feelings or sentiments. Examples:"Life is beautiful"–«Жизнь прекрасна»; "Life is unfair"–«Жизнь несправедлива»;"This is the best day of my life"–«Это лучший день в моей жизни.

The purpose is to express feelings or personal experiences. They can be used in personal conversations, narration, or creative writing.

4. Observational Phrases. These are descriptive phrases that observe and generalize on aspects of life or human behavior. Examples: "Life goes on." • «Жизнь продолжается»; "Life is a journey, not a destination."– «Жизнь — это путешествие, а не пункт назначения»; "You reap what you sow."– «Что посеешь, то и пожнёшь». The purpose is to enlighten or share wisdom or universal truths. They are used in advice, life lessons, or social commentary.

5. Spiritual or Religious Phrases. These phrases are representative of beliefs concerning the meaning of life, spirituality, or God. Examples: "Life is a gift from God"– «Жизнь — это дар Божий»;"Everything happens for a reason"– «Все происходит не просто так»; "The soul is eternal, but life is temporary" –«Душа вечна, но жизнь временная». The purpose is to guide spiritually or soothe.

Use: In religious contexts, sermons, or spiritual discussions.

6. Temporal or Ephemeral Phrases. These phrases emphasize the fleeting nature of life and the importance of cherishing the moment. Examples: "Life is short."– «Жизнь коротка»;"Live for the moment"– «Живи настоящим»; "You only live once (YOLO)"– «Живешь только раз» (YOLO).

The purpose is to highlight the impermanence of life and promote mindfulness. They are used in inspirational talks, lifestyle advice, or casual expressions.

7. Relational or Social Phrases. These phrases focus on relationships, connections, and interactions in life. Examples: "Family is everything." –«Семья — это всё»; "Life is better with friends"– «Жизнь лучше с друзьями»; "No man is an island"– «Ни один человек не является островом».

The purpose is to emphasize the importance of relationships and social bonds. They are used in discussion of personal values, relationships, or social contexts.

8. Practical or Realistic Phrases. These phrases give some practical advice on how to live with life's struggles. Examples: "Life is not a bed of roses"– «Жизнь — это не розовый сад»; "Take life one step at a time"– «Делай жизнь шаг за шагом»; "Prepare for the worst, but hope for the best"– «Готовься к худшему, но надейся на лучшее». The purpose is to give some practical advice and prepare for reality. They are used in giving advice, counseling, or telling about oneself.

9. Metaphorical Phrases. These phrases employ metaphorical language to describe life in symbolic or figurative terms. Examples: "Life is a rollercoaster"– «Жизнь — это американские горки»; "Life is a stage, and we are merely players"– «Жизнь — это сцена, а мы на ней — актеры»; "Life is a canvas; paint your own picture"– «Жизнь — это холст, и ты сам рисуешь картину». The purpose is to give depth and imagery to the concept of life. They are used in literature, poetry, or creative writing.

10. Existential or Nihilistic Phrases. These phrases raise questions or express doubt about the meaning or purpose of life. Examples: "What is the meaning of life?"– «В чем смысл жизни?»; "Life is meaningless"– «Жизнь бессмысленна»; "We are just small specks in the universe" – «Мы всего лишь крошечные точки во вселенной».The purpose is to debate questions about the meaning of existence or to describe nihilistic perspectives. They are used in philosophical debates, literature, or personal reflection.

11. Cultural or Idiomatic Phrases are those that express beliefs, values, or idioms of the culture about life. Examples: "Life's a piece of cake." – «Жизнь как кусок пирога»; "You can't have your cake and eat it too"–«Нельзя съесть пирог и сохранить его»; "When life gives you lemons, make

lemonade" – «Когда жизнь дает тебе лимоны, сделай лимонад». The purpose is to teach wisdom or humor from the culture. They are used in common conversation, folklore, or idiomatic sayings.

12. Legacy or Purpose-Oriented Phrases. These phrases focus on leaving mark or accomplishing one's purpose in life. Examples: "Leave your mark on the world"– «Сделай свой след в мире»; "Live a life worth remembering"– «Жизнь — это создание воспоминаний»; "Life is about memories"–«Живи так, чтобы твоя жизнь запомнилась». The purpose is to inspire purpose-driven living or goal-setting. These phrases are used for motivational talks, personal development, or life coaching.

In conclusion we can say that these classifications reflect the multifaceted nature of life concepts and their representation in language, allowing us to explore and articulate our experiences, beliefs, and aspirations.

REFERENCES:

1. Азарх Н. А. Фразеологические единицы в современном английском языке/ Н. А. Азарх // Иностранные языки в школе.- 1956.- №6.
2. Амосова Н. Н. Основы английской фразеологии / Н. Н. Амосова. - Л.: Изд-во ЛГУ, 1963.
3. Копыленко М. М. Очерки по общей фразеологии / М. М. Копыленко, З. Д. Попова. - Воронеж: Изд-во Воронежского университета, 1989.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка / А.В. Кунин. - М.: Высшая школа, 1996.
5. *https://www.collinsdictionary.com/*
6. https://archive.org/details/wordsidiomsstudi0000smit/page/n3/mode/2up
7. https://eu01.alma.exlibrisgroup.com/
8. https://www.abebooks.co.uk/book-search/title/a-book-of-english-idioms-with-explanations/author/collins-v-h/
9. https://studfile.net/preview/9166564/page:2/

UO'K 891.550

OGAHIY SOLNOMALARI BADIIYATINI YUZAGA KELTIRISHDA MUMTOZ ASARLAR USLUB VA RUHIYATI TA'SIRI MASALASI

I.O.Ismailov, dots., f.f.n., Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ogahiy solnomalari badiiyatini yuzaga keltirishda mumtoz asarlar uslub va ruhiyati ta'siri masalasi haqida gap boradi.*

Kalit so'zlar: *tarixiy-adabiy asar, tasvir, til va uslub, badiiyat.*

Аннотация*. В данной статье обсуждается вопрос о влиянии стиля и психики классических произведений на становление искусства в историко-литературных произведениях Агахи.*

Ключевые слова*: историко-литературное произведение, образ, язык и стиль, искусство.*

Abstract*. This article discusses the influence of the style and psyche of classical works on the formation of art in Agakhi 's historical and literary works.*

Key words*. historical and literary work, image, language and style, art.*

Kirish. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini yuzaga keltirgan omillar va vositalar aynan bir narsa emasligi, ularning muayyan farqlari mavjudligini ta'kidlash lozim.

Mavzuning dolzarbligi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarini ijtimoiy fanlarning qaysi yo'nalishi bo'yicha o'rganmaylik, mumtoz asarlar uslubi va ta'siri omilini chetlab o'tish imkoni yo'q. Ularga solnoma sifatida qaragan vaqtimizda ham, tarixiy voqealikni ana shu omilni e'tiborga olgan taqdirda real tasavvur qilamiz. Shu bilan birga unda tasvir, til va uslub, badiiyat bobida mumtoz asarlar ta'siri yaqqol namoyon bo'lib turuvchi jihatlar ko'zga tez-tez tashlanadi.

Tajriba qismi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida Alisher Navoiyning tarixiy asarlaridan ko'ra badiiy asarlari ta'siri kuchli. Misol tariqasida Navoiy Farhodni ilm olish borasidagi intilishlarini quyidagi ta'riflaydi:

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.
Ne so'znikim, o'qub ko'ngliga yozib,

Dema ko‘ngliki, jon lavhiga qozib.
O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori,
Qolib yodida safha-safha bori.

Tabiiyki, so‘z romantik qahramon haqida ketayotganda insonni bu kabi xislat va fazilatlar koni ekani sifatida vasf qilish mumkin. Lekin Ogahiy real insonni, aniqrog‘i hukmdorni "*...ilm-u fazl iktisobig‘a kamoyanbag‘iy sa'yu shitob ko‘rguzub, oz fursatda ulumi aqliy va naqliyg‘a mahorati tamom hosil qildi*" [Riyozu-d-davla, 251[a]] deyishi ular aslida muarrix idealidagi xonlar ekani ma'lum bo‘ladi. Ogahiyning real qahramoni Alisher Navoiyning ideal qahramonlari darajasida vasf qilingan. Masalan, mamlakatning joriy hukmdori yoshligida tahsil jarayonida "she'rshunoslig-u latifago‘ylik uqudining hallida diqqat tirnog‘in andoq ishlatur erdi, fuzaloyi zamong‘a hayrat barmog‘in tishlatur erdi" [RD, 251[b]]. Alisher Navoiyning romantik qahramoni esa

Tabiiy-u, riyoziy-u, ilohiy,
"Alif, be, te"dek ollinda kamohi [1.496].

Bu bilan Ogahiyning madhiyabozlikda aylab, hukmdorlarning asl qiyofasini yashirganlik, ularni ijobiy fazilatlar sohibi qilib ko‘rsatib, barcha nuqsonlarini yashirganlikda ayblash juda oson va asosli ko‘rinadi. Lekin muarrix yashagan zamon va makon imkonlarini hisobga olsak, Ogahiydan ko‘ra maqbulroq ish amalga oshirish mushkul bo‘lganini butun vujudimiz bilan his qilamiz. Ogahiy nafaqat tarixiy-adabiy asarlarida, lirikasida ham hukmdor tabaqalarni "barcha ilmni yod olib" farishtasifat ezgu fazilatlar sohibi bo‘lishiga undaydi:

Ul malaksiymoki borcha ilm bo‘lmish yod anga,
Ro‘z-u shab dars-u saboq takroridur mu'tod anga.
Ilm tahsili suluki ichra solik bo‘lg‘ali,
Aql piridin damodam yetkusi irshod ang [2.38].

Shu bilan birga Ogahiy tiynatidagi qone'lik, ozga qanoat va shukur qilish fazilatini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak. Masalan, Olloqulixon boshqa hukmdorlarga nisbatan tarix va she'riyatga e'tibori baland, shu bilan nisbatan zabardast va yakqalam davlat barpo etish yo‘lida jiddiy ishlarni amalga oshirayotgan hukmdor edi. Muarrix uning bu xislatlarini mamlakat iqboli uchun xizmat qilajagidan umid va shod holda uning vasfida "*...majlisi firdavsmisol va bazmi ishratmaol tartib berdurub, ulamoyi izom va fuzaloyi kirom va shuaroyi fazoyilmaob va zurafoyi latoyifintisob bila hamsuhbat bo‘lub, goho masoyil ilmining mushkiloti va goho tavorix fanining mug‘laqoti kashfig‘a sa'yi mashkur va jahdi nomahsur zuhurg‘a yetkurub, barcha fuzalodin avval anomili idrok bila hal qilur erdi*" [RD, 251[b]], – deb yozadi. Parcha mazmuni Alisher Navoiy Iskandar ta'rifida bitgan

Ki, olam olurg‘a bo‘lur muntahi,
Bu so‘z fikrida xotiri ogahi.
Taammul qilur erdi haddin fuzun,
Chekar erdi andisha torin uzun.
Chu adlu shijoat anga yor edi,
Yana roy ila hikmati bor edi [3]

satrlariga muvofiq keladi. Ularning biri real, ideal qahramon vasfi ekaniga qarab, Ogahiy hukmdorlardagi ozgina fazilatni ham g‘animat bilib, ularni ruhlantirishga, mana shu fazilatlarning tom sohibi bo‘lishga undaydi. Ogahiy tarixiy asarlari badiiyatini boyitishda muarrix xarakteridagi qanoat, shukr hislariga boyligining o‘rni katta ekanini ilm ahliga e'tibor lavhalarining g‘oyat baland ohanglarda kuylanishi, oz bo‘lsa ham xalqning xursandchilik kunlarini [hayit va to‘y tasvirlarida] o‘ziga xos jo‘shqinlikda tavsiflashida ko‘rishimiz mumkin. Bu xislat shoir lirikasida ham aks etib turadi. Masalan, uning bugun hech kimni ajablantirmaydigan choyni, garchi o‘sha paytda topish ancha qiyinligidan kamyob bo‘lishiga qaramay:

Gar budur xosiyati oning jahon bozorida,
Yuz diram ham bo‘lsa bir misqoli arzon o‘ldi choy.
Ushbu ta'rif, Ogahiy, bas bo‘lg‘usidur choyga,
Kim, tarabafzoyi bazmi hazrati xon o‘ldi choy [2.290] –

deb yozgani hamda o‘zi ko‘chirgan bayozlarning biriga piyolada tutun chiqib turgan choy rasmini chizgani fikrimizning dalilidir. Demakki, Ogahiy tarixiy asarlari badiiyatini oshirishda muarrix xarakterining ayrim qirralari yaqqol aks etishi ayni haqiqatdir. Aslini olganda, muarrixning mumtoz merosga bo‘lgan muhabbati va uning ijobiy jihatlarini san’atkorlik bilan o‘z asarlariga ko‘chirishi uning xarakteridagi yana bir muhim fazilat – mumtoz merosga muhabbat ifodasidir.

Ogahiyning tarjimonlik faoliyati haqida gap ketganda ko‘pincha uning fors tilidan yigirmaga yaqin asarni tarjima qilgani haqida boradi. Aslida Ogahiy tarjima qilgan fors tilida bitilgan jahon adabiyoti asarlari, ya’ni o‘z salmog‘i bilan insoniyat badiiy va ilmiy tafakkurining durdonalari edi.

Shu bois ularning Muhammad Rizo Ogahiyning tarixnavislik sohasidagi ijodida ham o‘z aksini topmasligi, ularning o‘ziga xosliklari an’ana sifatida davom etmasligi mumkin emas edi. Shu o‘rinda e’tiborli nuqtalardan biri, Ogahiy kamol topgan voha qadimdan Nizomiy ijodiga alohida ehtirom bilan qarar edi. Nizomiy ijodiga bo‘lgan ehtirom natijasi o‘laroq Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror”ni, Qutb Xorazmiy “Xusrav va Shirin”ni tarjima qildi [4.38].

Xorazmda shakllangan forsiyzabon adabiyot va zullisonaynlik an’analarining yigirmanchi asr boshlarigacha davom etib kelgani bejiz emas, albatta. Xorazmda fors tilidagi badiiy ijodga hozirgi zamon Eron adabiyotshunoslari ham yuksak baho berganlar. Birgina Shayx Najmiddin Kubroning fors tilida bitgan ruboiylari uning ma’naviy vorislari bo‘lgan insonlarni fors tilini o‘rganish, unda ozmi-ko‘pni ijod qilish, bu adabiyot durdonalaridan bahramand bo‘lishga ma’lum darajada ta’sir etganini bemalol e’tirof qilish mumkin. Zabihullo Safo to‘g‘ri ta’kidlaganidek, har biri islom olamida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Shayx Majdiddin Bag‘dodiyi Xorazmiy, Shayx Sayfiddin Boxarziy, Shayx Sa’diddin Hamaviy, Shayx Rizouddin Ali Lolo, Shayx Kamoliddin Giliy kabilar qatorida Bahouddin Valad nomi bilan mashhur Sultonul-ulamo Bahouddin Muhammad bin Husayn Xatibiyi Balxiy ham Najmiddin Kubro shogirdlari bo‘lgan [5]. “Shuni e’tiborga oladigan bo‘lsak, Bahouddin Valadning arjumand farzandi Jaloliddin Rumiyi Balxiy tomonidan yaratilgan “Masnaviyi ma’naviy”dek asarning ham ma’rifiy ildizlari forsiy tilidagi Xorazm adabiy muhitiga ma’lum jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib chiqadi” [6.24]. Xorazmda forsiyzabon adabiyotning rivojida muhim o‘rin tutgan Shayx Majduddin Bag‘dodiy, Imom Faxruddin Roziy, Pahlavon Mahmud [7], Abulvafoyi Xorazmiy, Husayn Xorazmiy, Husomiy Devona kabilarning ijodlari bu zamin farzandlarining forsiy adabiyot, jumladan, Nizomiy ijodiga bo‘lgan qiziqishlari oshishining muhim omillaridan biri edi, deb qarash mumkin.

Ogahiy ijodiga Nizomiyning har tomonlama ta’sirini shoir yaratgan badiiy va tarixiy asarlarda ko‘rish mumkin [8.69]. Zero, Nizomiy Ogahiy kamolga yetgan muhitda eng ardoqli salaflar peshvosi hisoblanardi. Shuning uchun ham, Munis butun ustodlar silsilasini sanagan she’rini

Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur manga,
Manzili ma’nig‘a Xizri roh Jomiydur manga [9.11]–

deb boshlagani bejiz emas.

Ogahiyning nihoyatda muhim masala moddiyat va ma’naviyat mushtarakligi va ziddiyati haqidagi xulosalari shakllanishida o‘tmish salaflar ijodining ta’siri ham nihoyatda katta. Ikkinchi tomondan, Ogahiyning mumtoz daholar g‘oyalari ta’sirida ulg‘ayishi har tomondan tanazzulga yuz tutib borayotgan muhitga moslashishi, shunday muhitda ham ruhi so‘nmay ijod qilishida juda muhim ahamiyat kasb etgani alohida e’tiborga loyiq. Ogahiy yashagan davr muhitida ommaning aksar qismini yashash mohiyatini, hayot mazmunini faqat moddiy boyliklarda ko‘ruvchi, inson qadrini uning moliyaviy salohiyati bilan o‘lchovchilar tashkil qilgani bois achchiq kinoya va alam bilan:

...Odam uldur, bu jahon ahli aro,
Qaysi hayvonning esa siym-u zari.
Kirmagay zarsiz kishilik sonig‘a,
Sa’diy o‘lsun fazl aro Anvariy [10.66], – deb yozgan edi.

To‘g‘ri, Munis, Ogahiy va boshqalar ham bir inson sifatida, bir fuqaro sifatida xonlar iltifotiga ko‘z tikdilar, umid qildilar, bahramand bo‘ldi. Lekin hech qachon bularni nohaqni haq, zulmni adl deyishi hisobiga qilishmadi. Shu ma’noda Munisning

Chu shoirlar ichra solib lutfi shayn,
Tahayyur qilib shoh Sulton Husayn,

Netong, man bo'lub modihi podshoh,
Yetushsa Navoiydin ortuqsi joh [Firdavsu-l-iqbol, 30], –

degan so'zlarini bir shoir, bir inson, bir fuqaroning ko'nglidagi gap deb to'g'ri tushunishimiz kerak. Xuddi shu kabi Ogahiy nazdida umr mazmuni ma'naviy qashshoqlik va tubanlik evaziga erishiladigan moddiy farovonlikda emas. Hayotini faqirona, muttasil moddiy ehtiyoj bilan o'tkazgan Ogahiy, albatta, moddiy ne'matlarning hayotda tutgan o'rni, ahamiyatini g'oyat chuqur anglagan. Buni yuqorida choy misolida ko'rganimiz kabi Ogahiy bu kabi fahm-u farosati, shukrona hissi balandligi bois bugungi kunda hech kimni ajablantirmaydigan qand-qursni tasavvurdan tashqari yuksak ohanglarda kuylaydi: "*mehmonlarg'a izzati tamom bila ne'mati alvon-u qandi bekaron va choyi farovon izlik-izidin yetkurub, hamul kun va hamul kecha jame'i ulamo va umaroni lutf-u ehson bodasidin shodob, aysh-u tarab nash'asidin bahrayob qildilar*" [RD, 287[a]]. Lekin Ogahiy hech qachon bunday farovonlik ma'naviy cheklanish, ruhiy tanazzul hisobiga bo'lmasligini aqida qilib olgan. Shuning uchun ham iftixor bilan

Bizki, bugun jahon aro kishvari faqr shohimiz,
Boshimiz uzra ohimiz shu'lasidur kulohimiz [10.214],

deya yozadi.

Sharqning mashhur mutafakkirlari haddan tashqari boylik, odam ehtiyojlaridan ortiqcha joh uning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan aqidada bo'lganlar.

Ogahiyning yuqoridagi satrlarda bayon qilingan fikrlari Nizomiyning "Harki, to'hiy kisatar – osudatar", ya'ni "kimning boyligi ozroq bo'lsa, tinchroq bo'ladi" misralari yoki

Farovon xazina farovon g'am ast,
Kam ast anduh onroki, dunyo kam ast,

(tarjimasi: haddan tashqari boylik, ko'p g'am keltirar, kimda mol-dunyo kam bo'lsa, tashvishi ham ozroqdir) – degan baytiga hamohanglik kasb etadi. Mutaxassislar Nizomiyning bu fikrlari manbasi ham xalq og'zaki ijodi bo'lib, "Moli cho'h o'lonlarin kunu qoro o'lur" (*Moli ko'p bo'lganlarning kuni qora bo'ladi*) degan ozarbayjon (turkiy) maqoli talqini sifatida ko'rsatadilar [11]. Chuqurroq mulohaza qiladigan bo'lsak, bu satrlar moddiy ne'matlardan yuz o'girish yoki ulardan tamoman voz kechishga emas, bil'aks, moddiy imkoniyati katta inson zimmasidagi mas'uliyatni teran anglashga da'vatdir. Bunday mas'uliyat zimmasida bo'lgan insonlar o'zlarini hamisha nihoyatda hushyor, har bir amalidan ogoh tutishlari lozim. Shuning uchun tasavvuf ahli istilohidagi "gado" so'zini "dunyo moddiyatiga dil bermagan odam" tarzida kengroq idrok qilinadi. Bu borada Shayx Sa'diy:

Nigohboniyi mulk-u davlat balost,
Gado podshoh astu nomash gadost,

ya'ni "mulk-u davlatni asrash bir balo (g'oyat mushkul ish), gado haqiqatda podshoh bo'lib, nomigina gadodir", – deydi.

Ogahiy ijodi, umuman, ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy dunyoqarashiga Nizomiy ta'sirini uning

Dahr qasrikim haqiqatda kuhan vayronadur,
Oni har kim maskan etmak istadi devonadur.
Saqfida yer sarbasar ondin yog'or gardi xatar,
Amniyatdin yo'q asar, vah, na ajab koshonadur.
Fitna afvoji oning sokinlari qasdi uchun
Tortibon onda jafo tiyg'in mudom aylonadur... [10.167]

kabi satrlar ohangida ham ko'ramiz. Ushbu misralarda bayon qilingan fikrlar "Maxzanu-l-asror"ning "Dunyo bevafoligi haqida" [12] deb nomlangan o'n birinchi maqolati mazmuniga muvofiq keladi. Xususan, Ogahiyning mazkur g'azalidagi "amniyatdin yo'q asar" satrlari

Kunji amon nest dar in xokdon,
Mag'zi vafo nest dar in ustixon

(tarjimasi: bu tuproqda bir omon topadigan xilvat yo'q, bu suyakda hech ham vafo ilik mavjud emas) baytidagi fikrlarga hamohang bo'lsa, g'azalning dastlabki bayti mazmuni xuddi shu bobdagi

Nest hama sola dar in deh savob,
Fitnayi andesha-u g'avg'oyi xob.

Xilvati xud soz adam xonaro,

Boz guzor in dehi vayronaro

(tarjimasi: "bu qishloq – dunyoda hamisha to‘g‘rilik bo‘lmagan, unda mudom fikrlar fitnasi-yu uyqu g‘avg‘osi. Bu uyda o‘zingga xilvat go‘sha hozir qil, bu ko‘hna vayronadan voz kech") baytlariga muvofiq keladi.

Dunyo bebaqoligi haqidagi g‘oya Ogahiy tarixiy-adabiy asarlaridan goh iqtiboslar, goh nukta va tanbehlar, goh rivoyat, goh rangin nazmlar orqali ochib berilgan. Masalan, birgina "Gulshani davlat" asarining o‘zida "Qur'oni karim"ning "Oli Imron" surasi 185-oyati, "Anbiyo" surasi 35-oyati, "Ankabut" surasi 57-oyatida kelgan "kullu nafsin zā'iqatu-l-mavt", ya'ni "Har bir jon o‘lim (achchig‘i)ni totuvchidir" iqtibosi to‘rt marta takrorlangani [13.123] bejiz emas.

Ogahiy ijodida Nizomiy ta'siri sifatida talqin qilinadigan o‘rinlarning katta qismi, albatta, umuminsoniy g‘oyalar o‘z aksini topgan satrlardir. Shunga qaramay, mutafakkir tafakkurida Nizomiy fikriy olami bilan bahamjihat bo‘lgan o‘rinlar ko‘plab kuzatiladi. Shulardan biri, nazarimizda, salaf va xalaflar ijodida odil shoh g‘oyasi talqinidagi mushtarakliklardir. Nizomiy Ganjaviy "Xusrav va Shirin" dostonining bosh qahramoni sifatida Xusravni tanlagani ma'lum: "*Vale chekkanlar ushbu jomdin roh Sarosar bo‘ldilar Xusravg‘a maddoh*" [14.45]. Nizomiy ham tarixiy Xusrav obrazini ideallashtirish orqali zamon shohlariga ibratli, odil shoh timsolini yaratishni maqsad qilgan edi. Ogahiy ham Nizomiy singari adolatparvarlik haqidagi g‘oyalarini zamon hukmdorlariga turli vositalar: goh madhiya, goh ibrat ko‘rsatish usulida bayon qilgan.

Ogahiy o‘z salaflari kabi bu yo‘lda birinchi navbatda islom dini ahkomlarini mahkam tutish lozimligini uqtirib, mulkni xohlagan bandasiga bergan Alloh yana xohlagan boshqa bir bandasiga berishi mumkinligi bot-bot eslatib turadilar. Lekin bu vosita ham o‘z haddi va mavridi bilan amalga oshirilgan. Muarrixlar qismatida esa o‘sha mavrid va mahalni to‘g‘ri tanlay olish mas'uliyati bor edi. Bunday vositalardan foydalanish Ogahiy salaflari ijodida ko‘p kuzatiladi. Masalan, Shayx Sa'diy "Guliston"ida shunday satrlar bor:

اي ملك چو گرد آمدن خلقى موجب پادشاهيست تو مر خلق را پريشان براي چه مي كني مگر سر پادشاهي كردن نداري؟

Tarjimasi: "Ey podshoh! Podshohlarning ishi odamlarning boshini biriktirish ekan, sen xalq parokanda bo‘lishiga yo‘l qo‘yasan? Nahotki, podshohlik qilish sirini bilmasang?"

Ogahiy salaflari podshohlarni adolat sarhadidan chiqmasligi uchun "Iymon va adolat egizlardir", ya'ni adolati bo‘lmagan iymonini, iymoni bo‘lmagan adolatini boy beradi, degan g‘oyani ilgari surganlar. Demakki, Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida bu borada salaflar kabi ikki asosiy usulni o‘rni bilan qo‘llash yo‘lidan borgan.

Kutilayotgan natija. Ogahiy solnomalari badiiyatini yuzaga keltirgan omillar sifatida mumtoz asarlar uslub va ruhiyati ta'siri alohida o‘rin tutadi. Bu borada muarrix tarjima qilgan, sevib mutolaa qilgan tarixiy va badiiy asarlar ta'siri katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Саккизинчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 496.

2. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд: Девон. Нашрга тайёрловчилар: Д.Ғойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – Б. 38.

3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 12-том. – Тошкент: Фан, 1992.

4. Aysu Ata. Harezm – Altın Ordu türkçesı. İstanbul, 2002. –S. 38.

5. صفا ضبيح الله . تاريخ ادبيات درايران. ج ۲ص ۱۰۱۳

6. Исмоилов И. Огаҳийнинг форсий мероси: Филол.. фан... номз... дисс... – Самарқанд. 2010. – Б. 24.

7. Манбаларда Паҳлавон Маҳмуд Пурёрвалий зикри. Нашрга тайёрловчилар: Ж.Маҳмудов, М.Карамий. – Тошкент, 2007.

8. Kalandarov M. Manzum eseri düz yaziya aktarmada "Haft Peyker" örneği. Example of "Haft Peyker" for transfering verse text into prose // Gazi Türkiyat, Güz 2012/11. – S. 69. http://turkiyat.gazi.edu.tr/posts/download?id=44233

9. Мунис Хоразмий. Сайланма. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 11.

10.Огаҳий, Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 66.

11. ضربالمثلهای ترکی در آثار نظامی: https://azenglishnews.com

12. https://ganjoor.net/nezami/5ganj/makhzanolasrar/sh40

13. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 6-жилд. Гулшани давлат (Давлат гулшани). – Тошкент: "Sharq" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2020. – Б. 123.

14. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.8-том. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 45.

UO'K 891.550

OGAHIY TARIXIY-ADABIY ASARLARI BADIIYATINI YUZAGA KELTIRISHDA FIRDAVSIYNING ROLI

I.O.Ismailov, dots., f.f.n., Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini yuzaga keltirishda Firdavsiyning roli masalasi haqida gap boradi.*

Kalit so'zlar: *tarixiy-adabiy asar, tasvir, til va uslub, badiiyat.*

Аннотация*. В данной статье обсуждается вопрос о роли Фирдавси в создании искусства историко-литературных произведений Агахи.*

Ключевые слова*: историко-литературное произведение, образ, язык и стиль, искусство.*

Abstrakt*. This article discusses the role of Firdavsi in creating the art of historical and literary works by Agakhi.*

Key words*. historical and literary work, image, language and style, art.*

Kirish. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini yuzaga keltirgan omillar va vositalar haqida gap borar ekan, forsiyzabon adabiyot vakili Abulqosim Firdavsiy va uning "Shohnoma" asarini tilga olmasdan iloj yo'q.

Mavzuning dolzarbligi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarini yuzaga chiqishida mumtoz asarlar uslubi va ta'siri omili tilga olinar ekan, uning tub o'zanlaridan biri Firdavsiyning "Shohnoma" asariga borib taqaladi.

Tajriba qismi. Ogahiyning tarixnavislik mahoratining oshishida forsiy adabiyotdan qilingan tarjimalar bilan bir qatorda jahon adabiyotining yirik namunalaridan biri bo'lgan Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" asari ham muhim o'rin egallagan. Jumladan, Ogahiy saroy muarrix sifatida o'z asarlarini hukmdorga taqdim qilar ekan, ularning xon nomiga bag'ishlangan "Shohnoma" bo'lishini orzu qiladi (taqvimiy tartib asosida keltiramiz):

Ki to men surub ibtido xomasin,
Raqam aylayin shoh "*Shohnoma"*sin [Riyozu-d-davla, 250^{b}].
Raqam aylay olib ilgimga xoma,
Shohi davron otig'a "*Shohnoma*" [Jome'u-l-voqe'oti sultoniy, 13^{b}].
Ki, sabt aylay olib ilgimga xoma,
Shahi davron otig'a *shohnoma* [Gulshani davlat, 7^{b}].
Sabt aylay olib qo'lumg'a xoma,
Bu shoh otig'a *shohnoma* [Shohidi iqbol, 4^{b}].

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida shunday satrlar borki, ular bevosita "Shohnoma" ta'sirida vujudga kelgan. Masalan, "Jome'u-l-voqe'oti sultoniy"dagi

"Yerdin andoq uchti gard andozasiz,
Kim yer olti bo'ldi-yu gardun –sekiz" bayti "Shohnoma"ning

ز گرد سواران در آن پهن دشت
زمین شش شد و آسمان گشت هشت[1]

ya'ni "keng dashtda otlarning tuyog'idan chiqqan changlar sabab yer olti qat bo'lib qolib, osmon sakkiz qavat bo'ldi" bayti mazmuniga to'la mos keladi. Faqat ularning biri mutaqoribda, biri ramal bahrida ekani bilan farqlanadi. Shu munosabat bilan ushbu bayt olingan parchadagi tasvir ruhi "Shohnoma"da qo'llangan so'zlarni ishlatishda ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun A.O'razboyevning "Shohnoma" ta'siri, uning ifoda yo'siniga ma'lum ma'noda izdoshlik bilan bog'lashi [2.11] asosli ko'rinadi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarining ko'pgina o'rinlarida "Shohnoma"dagidek *ro'zi nabard* yoki *ro'zi masof* – "jang kuni" izofiy birikmasi qo'llanganidan ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, "... *ro'zi masofni* shabi zifofdin lazzatmand va maydoni razmni ayvoni bazmdin uluvatpayvandroq bilur erdilar" [Jome'u-l-voqe'oti sultoniy, 38^{b}]. "Shohnoma"ning *nabard* ishtirok etgan baytlaridan biri aynan yuqoridagi bayt joy olgan qismida keltirilgan

که افراسیاب آن بد اندیش مرد [1]کجا
جاي گیرد به روز نبرد

Mazmuni: Afrosiyob (Alp Er To‘nga) gumondor inson, jang kuni (ro‘zi nabard) qayerdan joy oladi?

Haqiqatan,

Gurdlar raxshin surub maydong‘a tez,
Solibon xayli adug‘a rustaxez.
Na’rasin to‘qquz falakdin oshurub,
Gardi birla mehr yuzin yoshurub.
Sachrab otlar na’lidin har sori barq,
O‘t aro aylab bori olamni g‘arq [JVS, 69[a]],

yoki

Nabard ahli har yon surub raxsh tez,
Sitez ila zohir qilib rustaxez.
Xirom aylabon arsa ichra daler,
Chekib na’ra andoqki, g‘arranda sher [GD, 70[a]],

misralari “Shohnoma”dagi afsonaviy jang sahnalarini eslatadi. Ogahiy bu tasvirlarni real janglarni o‘ta hayajonli va ta’sirchan chiqishi uchun ishlatadi. Ogahiyning deyarli har tarixiy-adabiy asarida “Shohnoma” qahramonlari epionim sifatida ishtirok etadi. Masalan, *Suhrob, Isfandiyor, Rustam, Zol* va shu kabilar. Shu bilan birga “Shohnoma” mutolaasisiz yoki bu epopeyaga bog‘lamasdan Ogahiy ishlatgan ayrim so‘zlar, atoqli otlar va ifodalarni anglash mumkin emas. Masalan, haftxon **(**هفت خوان**)** Isfandiyor oldida ikkita dovon bor edi: biri Kaykovus Mozandaronda qamalib, Isfandiyor undan qutulmoqchi bo‘lib, yo‘lda bir qancha jin va jodugarlarni o‘ldirib, yetti kunda Mozandaronga borib, Kaykovusni qutqarib qoldi. Uni o‘zi qo‘nib o‘tgan har bir xonadonda ziyofat qilib, shukr qilib mehmondorchilik qilgani uchun Ajamning yetti xoni [dastruxoni] deb ham atagan; ikkinchisi esa Ruyinadij yo‘li dovoni edi. Turonzamin podshosi Arjospi Isfandiyor opalarini Ruyinadij qal’asiga qamab, o‘sha kunlarda Isfandiyor otasining qo‘lida bo‘lganligi sababli, najot topishi bilan Haftxonning dovon yo‘liga chiqib, boshiga tushgan barcha balolardan qutulib qoladi. Qasr ichida bo‘lgan Arjosni aldab, Arjosni a’yonlari bilan o‘ldiradi va opa-singillarini ozod qiladi. Ba’zilar bu ikki dovon ham bir bo‘lib, Eron va Turon orasidagi yetti manzil edi. U yo‘lda Rustam va Isfandiyordan boshqa hech kim yurmagan [3.195].

Solnomalarda aksar hollarda Rustam va Isfandiyor nomi birgalikda tilga olinadi: “...har afrode ish chog‘i *Rustami* safshikan va *Isfandiyori* ro‘yinatanni mo‘ri xoksor yanglig‘ nazari e’tiborg‘a ilmas erdilar...” [RD, 302[a]] yoki “*Rustam-u Isfandiyor* ruhidin ovozi “Al-hazar” falak toqig‘a sho‘r-u shar soldi,..” [RD, 303[b]]. Ba’zida muarrix mumtoz adabiyot qahramonlari nomini zikr etish bilan yuksak badiiy nuqtadan o‘quvchi zehniga o‘ziga ta’sir o‘tkazish hamda xalqona tus berish hayotiy holatga “sho‘ng‘iydi”:

Qilg‘anin mardona azmi korzor,
Ko‘rsa erdi *Rustam-u Isfandiyor*,
Qo‘rqubon tushgay edi jonig‘a havl,
Balki aylar erdi ishtonig‘a bavl [SHI, 111[a]].

Ogahiyning “Shohnoma”ga bo‘lgan muhabbati bejiz emas. Chunki asar va uning xususida Alisher Navoiyning nihoyatda iliq va “Shohnoma”dagi ko‘tarinki ruhda bitilgan so‘zlari muarrixga yoshlikdan yod edi.

Bu maydonda Firdavsiy ul gurd erur
Ki, gar kelsa Rustam javobin berur.
Raqam qildi farxunda “Shahnoma”ye
Ki, sindi javobida har xomaye [4.529].

Alisher Navoiy bu haqda fikrini davom ettirar ekan, Firdavsiyning o‘z ona tili rivojiga qo‘shgan hissasiga e’tibor qaratadi. Albatta, bu o‘rinda o‘zining ham bu borada chekkan mashaqqatlari bois genial xammosanavis ruhiyatini chuqur anglagani namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham Alisher Navoiy aynan uning quyidagi baytini eslaydi:

Dedi o‘z tili birla ul koni ganj:
Ki, si sol burdam ba “Shahnoma” ranj [4.529].

به سی سال بردم به شهنامه رنج [5]که شاهم
ببخشد بسی تاج و گنج

Bunday fikr yuritishimizga sabab, Alisher Navoiy uchun shoirning millati oldidagi xizmati muhim bo‘lgani bois “Shohnoma”ning Firdavsiy yozganiga qat’iy dalil bo‘lmagan “Hajvnoma” qismidan keltiradi. Chunki ayni o‘z ona tili ravnaqi uchun kurashga chog‘langan Navoiy o‘ziga namuna va ruh olishi uchun [shu masnaviyda shoir buni Sayyid Hasan Ardasherga, aslida butun elga e’lon qiladi] Firdavsiyning o‘ttiz yil mashaqqat chekib fors tilini tiriltirgani haqidagi faxriyasi muhim edi:

بسی رنج بردم در این سال سی [5] عجم
زنده کردم بدین پارسی

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida “Shohnoma” qahramonlari nomi asar qahramonlarini ularga qiyoslash, tashbih qilish barobarida ko‘plab uchrashi, ikkinchi tomondan, Alisher Navoiy asarlari ta’siri bilan ham bog‘liq. Masalan, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”da bosh qahramonni ta’riflab, shunday yozadi:

Qilib Ro‘yintan o‘z ilgini ranja,
Tutub chin panjasi olig‘a panja [6.72].

Ro‘yintan – aynan: bronza tanali; Firdavsiyning “Shohnoma”siga ko‘ra, Eron shohlaridan Isfandiyorning laqabi. Uning tanasiga zarba yetkazib bo‘lmas ekan. Shoir Farhodning tanasini, uning kuchini Asfandiyor//Isfandiyordan ortiq deb ta’riflamoqda [6.496].

Ogahiyning “Shohnoma”ga bo‘lgan alohida e’tibori bejiz emas. Bu asarga nafaqat o‘zbeklar, balki butun turkiy xalqlar alohida hurmat va ehtirom bilan qaragani bejiz emas [7.5,6]. Misol tariqasida biz nisbatan kam ma’lumotga ega bo‘lgan asar turkiy tilda bitilgan “Lug‘ati “Shohnoma” haqida gapirsak, bu muhtasham epopeya qahramonlari haqida xalqimiz nihoyatda yaxshi tanish bo‘lganini bilib olamiz.

Turkiy leksikografiya haqidagi ilmiy ishlar hamda darsliklarda Abdulqodir Bag‘dodiyning “Lug‘ati “Shohnoma” asari haqida kam gapiriladi. Olim haqida Turkiyada nashr qilingan “Islom ensiklopediyasi”da (muallifi Nofiz Xo‘ja) atroflicha ma’lumot berilgan [8.230,231]. Undagi ma’lumotlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, asar muallifi 1030- hijriy (1621- milodiy)da Bag‘dodda tug‘ilgan va ilk tahsilni o‘sha yerda olgan. Mana shu orada fors va turk tillarini o‘rganadi. O‘n sakkiz-o‘n to‘qqiz yoshlarida Usmonli-Safaviy nizolari sabab yuzaga kelgan siyosiy tanglik bois 1639-yilda Shom (Suriya)ga ko‘chib o‘tadi. U yerda ham zamonasining eng ilg‘or olimlaridan tahsil oldi. So‘ngroq Qohiraga ko‘chib o‘tgan Abdulqodir Bag‘dodiy Al-Azharning yetuk olimlaridan islomiy ilmlar, adabiyot, mantiq va falsafiy ilmlar bo‘yicha tahsil olishga muvaffaq bo‘ldi. U yerda Yosin al-Himsiy, Nuriddin Ash-Shabromallisiy kabi olimlar qo‘lida o‘qidi. Eng sevimli ustozlaridan biri zamonasining taniqli siymolaridan biri Shihobiddin Al-Xofajiy 1069- hijriy (1659- milodiy) yilda vafot etgach, kitoblarining katta bir qismi shogirdi Abdulqodirga qoladi. Arab shoirlarining kamyob devonlari ham mavjud bo‘lgan Abdulqodir Bag‘dodiyga meros bu katta kutubxona zamonasining eng boy shaxsiy kitob xazinalaridan biri edi. Turkiyada bir necha marta sayohatda bo‘lgan. Shuningdek, olimning hayoti va ijodi, uning qalamiga mansub asarlar haqida Husayn Varo‘l [10.145-160] mufassal so‘z yuritadi. Abdulqodir Bag‘dodiy ko‘p safar qilgani uchun Rahhol [Sayohatchi] deb ham shuhrat topgan [10.158].

Uning Firdavsiy “Shohnoma”sida uchraydigan forscha so‘zlarning turkiy sharhi berilgan “Lug‘ati Shohnoma” asari (*Lugat-i Şâhnâme – Lexicon Šahnâmianum*) Sankt-Peturburgda 1895-yilda Korlos Salamon tomonidan nashr qilingan.

Ushbu asar arab olimi tomonidan usmonli turk tilida yozilgan bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tili tarixiy leksikasi tadqiqida muhim manba bo‘la oladi. Eron olimi Abulfazl Xatibiy tomonidan Muhammad bin Ar-Roziy Al-Alaviy at-Tusiyning “Mo‘jami “Shohnoma”sidan shu kungacha “Shohnoma” uchun yaratilgan lug‘atlar umumiy tahlil qilingan [11]. Ushbu maqolada Abdulqodir Bag‘dodiyning “Lug‘ati “Shohnoma”si haqida (ish aynan “Shohnoma” bo‘yicha amalga oshirilgan

leksikografik manbalarga bag‘ishlangani uchun) Nofiz Xo‘ja, Husayn Varo‘llarga nisbatan ham kengroq ma’lumot beriladi.

Kutilayotgan natija. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari tahlil maydoniga tortilar ekan, bunday mas’uliyatli vazifani uddalash uchun muarrixlikka qo‘yiladigan yuksak talablar natijasiga guvoh bo‘lamiz. Diniy-tasavvufiy, falsafiy-didaktik tushunchalarni hosil qilishda qardosh xalqlar adabiyotining ta’sirini istisno qilib bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://ganjoor.net/ferdousi/shahname/kqobad/sh2
2. Ўрозбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Муҳаррир нашриёти, 2013. – Б. 11.
3. Муҳаммадҳусайни Бурҳон. Бурҳони қотеъ (ҷилди 3). – Душанбе, Адиб. 2014, – С. 195.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Учинчи том – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 529.
5. https://ganjoor.net/ferdousi/hajvname
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Саккизинчи том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 72.
7. Ҳомидий Ҳамиджон. Даҳо оламига очқу // Фирдавсий, Абулкосим. Шоҳнома: сайланма / А.Фирдавсий. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. – Б. 5-6.
8. İslâm Ansiklopedisi’nin 1988- yılında İstanbul’da basılan 1. cildinde, 230-231.
9. İslâm Ansiklopedisi’nin 1997 yılında İstanbul’da basılan 15. cildinde, 72-7.
10. Varol Hüseyin. Abdülkadir b. 'Ömer b. Bayezid b. el-Bagdadi el-Hanefi. Ilmi kişiligi, egitimciligi ve eserleri // Yüzüncü yil üniversitesi ilahiyat fakültesi dergisi. Sayi:1 cilt: 1 yil: 1. 1994. – S. 145-160.
11. ابوالفضل خطيبي نگاهي به فرهنگ هاي شاهنامه (از آغاز تا امروز) // نامه فرهنگستان ٤/ ٣ ص. ٣٧-٥٧

UDC 821.161.1

THE EVOLUTION OF STYLE AND FORM IN LITERARY INFLUENCE

Kh.N.Ismailova, PhD, act. associate professor, Karakalpak state university, Nukus

Annotatsiya. *Ushbu maqola M. Sholoxovning adabiy uslubi, xususan, uning “Inson taqdiri” asarining jahon adabiyoti tarixidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganadi. Aristotelning poetikasi asosida qurilgan tadqiqot Sholoxovning “tanqidiy realizmi” ning keyingi avlod adiblariga, ayniqsa, O‘zbekiston yozuvchilariga qanday ta’sir ko‘rsatganligini, inson kurashi va bardoshini qanday tasvirlashini tahlil qiladi. Maqolada, personajlar rivoji va syujetning tuzilishi qanday bog‘lanib ketgani, inson ruhiyati va hissiy holatlarini tasvirlashda qanday noyob yondoshuvlarni taqdim etganligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Sholoxovning asaridagi uslub va shaklning o‘zgarishi, estetik idealni sintezlash orqali milliy va zamoniy chegaralarni chetlab o‘tgan yangi adabiy tizimni yaratganligi ta’kidlanadi. Uslub va shaklni birlashtirish orqali yozuvchi dunyoqarashini va asarida yoritilgan falsafiy masalalarni aniqlash, syujet va xarakterni ijtimoiy voqeliklar bilan bog‘lashda yangi yondoshuvlarni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *Mikhail Sholoxov, adabiy uslub, Aristotel poetikasi, qattiq realizm, syujet tuzilishi, personaj rivoji, psixologik o‘sish, o‘zbek adabiyoti, san’atkorlik ifodasi, adabiy ta’sir, perspektiva, uslub va shaklni sintezlash, ekzistensial mavzular, inson bardoshliligi, syujet texnikasi.*

Аннотация. *В статье исследуется глубокое влияние литературного стиля М. Шолохова, особенно его произведения «Судьба человека», на развитие мировой литературной традиции. Основанное на вечных принципах поэтики Аристотеля, исследование анализирует, как «жестокий реализм» Шолохова оказал влияние на последующие поколения писателей, особенно в Узбекистане, через изображение человеческой борьбы и стойкости. В статье рассматривается, как взаимодействуют развитие персонажей и структура повествования, предоставляя уникальное понимание изображения сложных психологических и эмоциональных состояний. Аргументируется, что модификация стиля и формы в произведениях Шолохова служит примером синтеза эстетических идеалов, который преодолевает национальные и временные границы. Также рассматриваются философские аспекты стиля в литературном творчестве, подчеркивая, как художественное выражение формирует перспективу повествования и мировоззрение писателя. Через соединение универсального и личного, повествовательная техника Шолохова устанавливает новую рамку для понимания сложных взаимосвязей между персонажем, сюжетом и социальными реалиями времени.*

Ключевые слова: *Михаил Шолохов, литературный стиль, поэтика Аристотеля, жестокий реализм, структура повествования, развитие персонажа, психологический рост, узбекская литература, художественное выражение, литературное влияние, перспектива, синтез формы и стиля, экзистенциальные темы, человеческая стойкость, повествовательная техника.*

Ubaydxon, Iskandar mirzo va boshqa ijodkorlar asarlaridan turli qadimiy turkiy so‘zlarning ma’nolari keltirilgan” - deydi noshir.Lug‘atning muallifi noma’lum bo‘lgani uchun uni o‘quvchilari tomonidan “Abushqa” deb nomlangan, ya’ni mazkur lug‘atda qadimiy turkiy so‘zlarning birinchisi shu so‘z bilan boshlanadi. Asar muallif noma’lum bo‘lsada uni ko‘chiruvchi kotibning nomi mavjud. Imperatorlik Piterburg ommaviy kutubxonasida saqlanuvchi nusxasida “A’loiy bin Muhibin Sharif, hijriy 967 yil (melodiy 1560 yil)da ko‘chirilgan. Demak hazrat Navoiyning vofotidan 60 yil o‘tib ko‘chirilganligi ma’lum bo‘ladi. Lug‘atning beshta ma’lum nusxalari mavjud bo‘lib, birinchisi Imperatorlik S.Piterburg Ommaviy kutubxonasida saqlanadi, ikkinchisi, Imperetorlik Universiteti kutubxonasida saqlanadi, uchinchisi, Imperatorlik Fanlar Akademiyasining Osiyo muzeyida saqlanadi, to‘rtinchisi, Xorijiy tillar Vazirligining sharqshunoslik o‘quv bo‘limida, beshinchisi akademik B.A. Dorning shaxsiy kutubxonasida o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan nusxasi. Vladimir Velyaminov Zernov: “Men lug‘atni nashrga tayyorlashda ushbu besh nusxadan ham foydalanganman” deydi lug‘atning so‘z boshi qismida. Lug‘at Sanktpiterburgda 1868 yil Imperatorlik Fanlar Akademiyasida nashr qilingan, “Slovar djagataysko-tureski” deb nomlanadi. Jami 421 sahifidan iborat. Oxirgi sahifalarga “Ba’zi xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish”ga mo‘ljallangan ikki betlik so‘zlar jamlanmasi berilgan. Undan so‘ng 31 sahifada nashrga tayyorlovchi tomonidan “So‘z boshi” yozilgan. Lug‘at Alloh Taologa “hamd” bilan boshlanadi va undan keyin “Sababi nazmi kitob” berilgan. Shundan so‘ng alifbo tarzida “Bobi alif”dan boshlanib, har bir harf uch turga bo‘linib tartiblangan. Birinchisi, “Harful aliful – maftuha” (“A” tovushi bilan keluvchi alif harfi), ikkinchisi, “Harful aliful –maqsura” (“I” tovushi bilan keluvchi alif harfi), uchinchisi, “Harful aliful –mazmuma” (“U” tovushi bilan keluvchi alif harfi) tarzida berilib, barcha o‘ttiz ikkita harf uchun qadimiy turkiy so‘zlardan misollar berilgan. Asarda birinchi so‘z “Abushqa” so‘zining ma’nosini izohlash bilan boshlanadi. Lug‘atda Haydar Xorazmiyning “Gulshanul-asror” asari “Maxzani Mir Haydar” nomi bilan keltirilgan. Bu noaniqlik XX asrning oxirlarigacha ham “Maxzanul-asror” deb nomlanib kelindi. Ammo, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki Zahiriddin Muhammad Boburning “Muxtasar” asarida birinchilardan bo‘lib Haydar Xorazmiyning “Gulshanul-asror” asari haqida ma’lumot beradi. Bobur aruz ilmiga bag‘ishlangan sare’ bahriga misol keltirib yozadi: “Masnaviy vaznlaridin biri budur. Bu vaznda heyli masnaviylar aytibdurlar... Yana Mavlono Haydar Xorazmiy Turkiygo‘yning “Gulshanul-asror”idur pandu nasihatga yaxshi abyoti bor”, degan fikrlarni keltiradi va ushbu ikki baytni yozdadi:

Er kishiga himmat agar bo‘lsa yor,
Oqibat ul amr murodin topor.
Har kishiga himmat agar to‘sh bo‘lur,
Ko‘kni talashquchi uchar qush bo‘lur

Lug‘atni nashrga tayyorlovchi turkiy-tatar tilshunosligi doktori V.V. Zernov “Gul va Navro‘z” Lutfiyning asari deyilgan fikrning noto‘g‘riligiga bir necha dalillari mavjud. Jumladan, Taroziyning “Funun un-balog‘a” asarida Haydar Xorazmiy qalamiga mansubligini Fahriy Hiraviyning “Ravzatus-salotin” asarining Sulton Sikandan Sheroziy haqidagi faslda “Maxzanul - asror” (“Gulshanul-asror”) va “Gul va Navro‘z”ning muallifi bo‘lgan Mavlono Haydar Turkiygo‘y uning nazmgo‘yi va o‘sha ikki kitobni yaxshi aytgan va uning nomiga bitganligi aytilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ham “Muxtasar” asarida Mavlono Abdul Haydar Xorazmiyning “Gulu Navro‘z” nomli asari borligini qayd etadi. Ushbu fikrlarni inobatga olib aytish mumkinki, mazkur lug‘atda Navoiy asarlarida eng ko‘p qadimiy turkiy so‘zlarni ishlatgan ijodkor Haydar Xorazmiy deb hisoblash mumkin. “Abushqa” lug‘atida Haydar Xorazmiyning “Gulshanul asror” asaridan o‘ttizdan ziyod baytlari keltirilgan. Lug‘atdagi baytlarni “Gulshanul asror” ning Parij milliy kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida 978 raqam bilan saqlanuvchi, Eron milliy kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida 13524 raqam bilan saqlanuvchi, Hirotda ko‘chirilgan nusxasining fotokopiyasi, Qozonda nashrga tayyorlangan fotokopiyasi, Turkiyaning To‘pqopi qo‘lyozmalar fondida 1460 raqam bilan saqlanuvchi, Parijda Kurteyl tomonidan nashrga tayyorlangan nusxalari baytlar bilan qiyoslaganimizda quyidagicha farqli va o‘xshash jihatlari borligi aniqlandi. “Abushqa”da “Gulshanul-asror” asaridan keltirlgan qadimiy turkiycha so‘zlarning matniy qiyosi shuni ko‘rsatadiki, lug‘atdagi Haydar Xorazmiy “Gulshanul-asror” baytlari bilan asarning bir necha nusxalaridagi

baytlarning farqli va o‘xshash jihatlari borligi aniqlandi. Jumladan, lug‘atda mavjud bo‘lgan baytlar “Gulshanul –asror”ning biz qiyoslagan ushbu bayt nusxalarda yo‘q:

Balx elining toqati ham toq edi,
Borcha qovun hasratidin qoq edi. (Abushqa: 323)
بلخ ایلی نینک طاقتی هم طاق ایدی بارچا قاون
حسرتیدین قاق ایدی

Yana ushbu bir misra’:

Bini chiroyi ko‘rguzar bir qori. (Abushqa:239)
بینی چیرای کورکوزار بیر قاری

Yoki, barcha nusxalarda bor bo‘lgan bayt “Eron” nusxada yo‘q:

Uldam achirg‘indi bir ahli qabul,
Kim bu kishilar erur erkin fuzul. (Abushqa:9)
اولدم آچیرغیندی بیر اهل قبول کیم کیشلار
ایرور ایرکین فضول

Zernov tomonidan nashr qilingan “Abushqa”dagi ba’zi so‘zlar xato ifodalanganligini ham kuzatish mumkin. Masalan ushbu baytda

Hech kishi ko‘zga bu jahon xalqida,
Xoja yayyog‘ kezgay va ot ilqida. (Abushqa:73)
هیچ کیشی کوزکا بو جهان خلقی دا خواجه
بیاغ کیزکای و آت ایلقی دا

Yuqoridagi baytda کوزکا “ko‘zga” so‘zi noto‘g‘ri ko‘chirligan. “Gulshanul –asror”ning barcha nusxalarida ushbu so‘z “ko‘rgaymu” shaklida yozilgani to‘g‘ri hisoblanadi va baytnning mazmuniga ham aniqlik kiritiladi. Parij, Qozon, Hirot va boshqa nusxalarda quyidagi tarzda berilgan:

Hech kishi ko‘rgaymu jahon xalqida,
Xoja yayyoq kezgay va ot ilqida. (P:51b)
هیچ کیشی کورکایمو جهان خلقیدا خواجا بیاق
کیزکای و آت ایلقیدا

Abushqadagi ba’zi baytlar “Gulshanul –asror” nusxalarining baytlari bilan katta farqli jihatlari ham mavjud. Masalan ushbu baytda:

Har ki netuk yig‘di oningdek qo‘yar,
Ortug‘i esurg‘on qusar, itlar to‘yar. (Abushqa:59)
هرکه نیتوک ییغدی آنینک دیک قویار آرتوغ
ایسورغان قوسار ایتلار تویار

“Abushqa”da keltirilgan baytdagi نیتوک “netuk” so‘zi Parij nusxasida نیچون “nechuk” shaklida ishlatilgan. ایسورغان “esirg‘on” so‘zi Parij va Hirot nusxalarida **آسورکان** “osurgon” shaklida ifoda qiligan. تویار “to‘yar” so‘zi Parij nusxasida توتار “tutar” shaklida قویار “qo‘yor” so‘zi Parij nusxasida غبار “g‘ubor” shaklida yozilgan.

Kimki nechuk naqdin engduk g‘ubor,
Ortuq osurgon qusor itlar to‘yor. (Parij:44a)
کیمکه نیچون نقدین اینگدوک غبار ارتوق
آسورکان قوسار ا تیلار توتار

Kimki nechuk yig‘di aningdek qo‘yor,
Ortuq osurgon qusor itlar to‘yor. (Hirot:15a)
کیم که نیچوک یغدی انینک دیک قویار ارتوق
اوسورکان قوسار ایتلار تویار

Xulosa qilib aytish mumikinki, “Abushqa” nomli lug‘atda qadimiy turkiycha so‘zlar hazrat Alisher Navoyidan keyingi o‘rinda Haydar Xorazmiy asarlaridan keltirilgan misollar hisoblanadi. Haydar Xorazmiy baytlarini qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki “Abushqa” mavjud bo‘lgan ba’zi baytlar “Gulshanul-asror” da o‘z ifodasini topmagan. Yana ikki manbaning so‘zma-so‘z qiyosida ham farqlarning mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Manbalardagi farqlarning mavjudligi esa “Gulshanul-asror” matning tanqidiy matnini tayyorlashning hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligidan dalolat desak xato bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алибек Рустамов. "Гулу Наврўз"нинг муаллифи масаласи. /Ўзбек тили в адабиёти. журнали, 1972, 3-сон;
2. Владимир Вельяминов - Зернов. اللغات النوایة والاستشهادات الجغاتایة (Ал-луғотун-Навойия вал-истишҳодотул – чиғотоийя). Абушқа. Питербург, 1868 йил. 7-бет
3. Ёқубжон Исҳоқов. "Гул ва Наврўз"нинг муаллифи масаласи./ Ўзбек тили ва адабиёти,1972, 1 сонлар.
4. Фахри Ҳиравий. Равзатус-салотин. "Mumtoz so'z" нашриёти, Тошкент, 2014 йил, 44-бет
5. Бобур. Мухтасар, 1971. Тошкент., 135 -бет
6. Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. Turkiya, Ayosofiya kutubxonasi. 4757/ II raqamli qo'lyozma.
7. Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. Fransiya milliy kutubxonasi. 978-raqamli qo'lyozma.
8. Haydar Xorazmiy. Maxzan ul-asror. Vengriya, Budapesht milliy kutubxonasi. 081-raqamli qo'lyozma.

UO'K: [81`276.6:61:659.1]=512.133/=161.1

O'ZBEK VA RUS TILLARI TIBBIYOT REKLAMA MATNLARIDA AKS ETGAN APELLYATIV LEKSIKANING LINGVOMADANIY JIHATLARIDA INDIVIDUALLIK VA O'XSHASHLIKLAR

D.Q.Jomardova, o'qituvchi, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro

Annotasiya. *Mazkur maqolada tibbiyot reklama matnlarida faol ishtirok etgan o'zbek va rus tillari apellaytiv leksikasining lingvomadaniy jihatlari yoritilgan. Har ikkala tilda yaratilgan tibbiy xizmatlar reklama matnlarining foyfalanuvchilarga taqdim etilishi, bunday reklamalarning auditoriyaga ta'siri, negativ reklama va anti reklama tushunchalarining shakllanish omillari va sabablari sanab o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *reklama matni, apellyativ leksika, o'zbek va rus tilshunosligi, lingvomadaniyat, tibbiy atama, anti reklama, negativ reklama.*

Аннотация. *В статье рассматриваются лингвокультурологические аспекты апеллятивной лексики узбекского и русского языков, активно задействованной в текстах медицинской рекламы. Перечислены особенности представления пользователям рекламных текстов медицинских услуг, созданных на обоих языках, воздействие такой рекламы на аудиторию, а также факторы и причины формирования понятий негативной рекламы и антирекламы.*

Ключевые слова: *рекламный текст, апеллятивная лексика, узбекское и русское языкознание, лингвокультуралогия, медицинский термин, антиреклама, негативная реклама.*

Abstract. *This article discusses the linguistic and cultural aspects of the appellative lexicon of the Uzbek and Russian languages, which are actively involved in medical advertising texts. The presentation of advertising texts for medical services created in both languages to users, the impact of such advertisements on the audience, the factors and reasons for the formation of the concepts of negative advertising and anti-advertising are listed.*

Keywords: *advertising text, appellative lexicon, Uzbek and Russian linguistics, linguistic and cultural, medical term, anti-advertising, negative advertising.*

Reklamaning turli shakl va ko'rinishda, jumladan tibbiyot va farmatsevtika sohalarida keng tarqalishi misli ta'riflab bo'lmaydigan darajada ko'zimizni qamashtiradi. Bunday reklamalarning azbaro'yi ko'pligidan foydali, qolaversa nafi tegadigan reklama matnlaridan, nafi tegmaydiganlarini alohida ajratish murakkab bo'lib qoldi. Chunki bunday reklama matnlarida kreativ yondashuvning rang-barangligi ma'lum bir obrazni hosil qilib, asosan xaridorlar harakatiga ta'sir etishga qaratilgan bo'ladi. Afsuski, reklama ijodi namunalarining aksariyat mualliflari auditoriya uchun reklama mazmuni nechog'lik tushunarli yoki tushunarsiz ekanligi bilan ishi bo'lmaydi. Oddiyroq qilib aytganda, bu jarayonda mualliflar tomonidan reklamaning sifatiga emas, miqdori (soni)ga asosiy e'tibor qaratiladi.

Bundan tashqari, aholi o'rtasida umuman reklama matnlarini xush ko'rmaydigan qatlam ham yo'q emas. Ushbu toifadagi auditoriyani tashkil qiluvchilar barcha reklama janrlariga befarq ekanligini yoki reklamani umuman qabul qilmasligini shaxsiy fikr sifatida ilgari suradi.

Tadqiqotimizda apellyativ leksikaning lingvomadaniy jihatlariga doir yig‘ilgan nazariy bilim va ko‘nikmalardan o‘rinli foydalangan holda tegishli tahlillarni taqdim etishga harakat qilamiz.

Ham an’anaviy tibbiyot, ham xalq tabobatida, shifokorlar bemorlarga ko‘p shamollash va yallig‘lanish kasalliklaridan himoya qilinish maqsadida, oyoq sohasini issiq tutishlarini tavsiya etishadi. Bunga misol qilib, mahsi oyoq kiyimini keltirsa bo‘ladi. **Mahsi** (massi) — mayin, pishiq qo‘y yoki echki terisidan tayyorlanadigan poshnasiz, baland qo‘njli poyabzal. Hozir kalta qo‘njli turi ham mavjud. Tag charmi yalang qavat va yumshoq bo‘lgani uchun kalish yoki kavush bilan kiyiladigan milliy oyoq kiyimi. Mahsi musulmon xalqlari orasida qadimdan keng tarqalgan. Oyoqni sovuqdan asraydi, boldirni issiq tutadi. Mahsiga o‘xshash oyoq kiyimlari tasvirini Afrosiyob devoriy rasmlarida (V—VIII asrlarga oid) ko‘rish mumkin. Mahsi reklama matnida apellyativ leksika sifatida quyidagicha ifodalanadi: “*Sovuq kunlar boshlanmoqda. Kasallikning 70% oyoqlardan sovuq o‘tishi bilan boshlanadi.* *Erkaklar va* *Ayollar uchun birdek qulay, avval videoni ko‘ring bu oddiy mahsi emas, issiqlikni va tahoratni saqlaydi va umuman suv o‘tkazmaydi. Turkiyada ishlab chiqilgan. “**Termal Mest Çorap**” sifatiga 100% kafolat beramiz. 74%CHEGIRMADAGI NARXI: 107.000 SO‘M. Buyurtma berish uchun quyidagi “Далее” yoki “Next” tugmasini bosing. O‘zbekiston bo‘ylab yetkazib berish xizmati mavjud*”.

Ma’lumki, Islom dini xalqimiz tomonidan e’zozlanib, e’tirof etiladi. Shu sababdan oxirgi paytlarda tibbiy reklama matnlarida Islom diniga tegishli ibora, qonun-qoidalarni ifodalovchi apellaytiv leksik birliklar yaqqol ko‘zga tashlanyapti. Masalan: “***ANDROGARD** Jinsiy hayotdagi muammolar uchun **halol yechim**! Sizdagi urug‘ foizi va sifatini oshiruvchi mahsulot. Mutlaqo tabiiy, mutlaqo tez natija!*”. Ushbu reklama matnida muallif, erkaklar o‘rtasida uchraydigan muammolarni yengil bartaraf etish maqsadida ***halol yechim*** apellyativ leksik birligidan mohirona foydalanib, talabgorlarga mahsulotni hattoki diniy tarafdan ishonchli ekanligiga urg‘u berishga harakat qilgan.

Keyingi ayollarga mo‘ljallangan lazerli epilyatsiya reklamasi misolida Islom dini apellyativ leksikasi orqali ushbu dinda mavjud qoidalarga rioya qilishga alohida urg‘u berilgan: “*Islom qoidalariga ko‘ra, tanadagi sochlarni olib tashlash, tanangizni va ruhingizni toza va ozoda saqlash uchun juda muhimdir. Tana sochlarini olib tashlash va poklikka intilish orqali ayol Allohga yaqinlashadi. Siz nima deb o‘ylaysiz?*”.

Telegram kanali sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va rasman mavjud bo‘lgan @XALQIM_TABOBATI kanalida quyidagi reklamaga duch kelishingiz mumkin: “***Sajda holati** bemorni ichak rezektsiyasi operatsiyasidan saqlab qolgan! Videoni yaqinlaringizga ulashing va tafakkur qiling! @XALQIM_TABOBATI. Dr. Abduzoxid Juraev*”. Ushbu reklama matnida dindagi **Sajda holati** tushunchasidan muallif apellyativ leksik birlik sifatida foydalanib, uni qo‘llash oshqozon ichak kasalliklari rivojlanishining oldini olishda samarali yechim ekanligi ta’kidlanadi.

Barchaga ma’lumki, azaldan o‘zbek erkaklari o‘zlariga ishonch hissi yuqori ekanligi bilan bir qator millat erkaklaridan ajralib turishadi, shu sababli boshqa millat vakillariga nisbatan ular o‘z sog‘liqlariga befarq bo‘lib, ular umumiy salomatliklarida kuzatiladigan mavjud muammolarga e’tibor bermasdan va aksariyat hollarda shifokor huzuriga qatnashishdan bosh tortishadi. U esa, kezi kelganda salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu mavzuni ko‘tarar ekanmiz, erkaklar salomatligi bilan bog‘liq qo‘shtirnoq ichidagi mavzularga ham o‘z e’tiborimizni qaratishga qaror qildik, zero ham erkak, ham ayol salomatligiga befarq bo‘lmaslik, millatimiz oilalarida sog‘lom bolalar tug‘ilishini ta’minlab beradi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, qo‘shtirnoq ichidagi mavzular so‘nggi paytlarda o‘zbek tibbiy reklama industriyasida bemalol, oshkorona muhokama qilinishi kuzatilmoqda. Tabiiyki bunday reklama matnlarida apellyativ leksik birliklar erkak reproduktiv salomatligi muammolari va umumiy holatini ifodalovchi atamalarni tashkil etadi. Bunday reklama matnlarida go‘yoki bir lahzaga bo‘lsa-da milliy qadriyat, urf-odat va an’analar unutiladi, chunki tibbiy xizmatlar reklama matnlarida qo‘llanilayotgan ba’zi bir apellyativ leksik birliklar o‘zbek xalqi uchun or-nomusi poymol bo‘layotgandek tuyuladi. Masalan: **erkak urug‘i** (сперма) va uning sifati bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar apellyativ leksika shaklida reklama orqali ommaga oshkor etilishi. “*Эко Центр MIRACLE IVF в Ташкенте. Sizda sperma bilan muammolar mavjudmi? Sperma bilan bog‘liq muammolar. ONLINE konsultatsiyaga yoziling!*”;

Ereksiya apellyativ leksikasining oshkora tarzda qo‘llanilishi: “*Sizda ereksiya muammosimi? “Эқдирон форте” bilan har kuni payshanba*”. Bundan tashqari, reklama matnida ikkinchi apellyativ leksik birlik ham mavjud. Uni har kuni payshanba (er-xotin qovushishi uchun hafta kunlaridan eng ma’qul kun) frazeologik birligi tashkil etadi va bu ibora nimani anglatishini faqat o‘zbek xalqi tushunadi.

Erkak kishining o‘ziga bo‘lgan ishonchi sezilarli foizlarda oshishi yoki pasayishiga sababchi bo‘lgan kimyoviy elementlar yig‘indisining dori vositalari ko‘rinishidagi shakli, apellyativ leksika sifatida reklama matnida aks ettirilishi va ommaga oshkor etilishi ham kuzatiladi: “*Avicenna’s LAB ANDROGARD bilan ota bolishingiz mumkin. “Dadajon! – deb chaqirishlari uchun” ANDROGARD qabulini boshlang!*”. Bu reklama mazmuni va unda aks etgan his-hayajon gapning tarkibiy qismlariga qarab, muallifning sayl-harakati orqali yaqqol namoyon bo‘lgan o‘zbek millatining madaniyati ta’sirida uyg‘unlashgan lingvomadaniy xususiyatlar diqqatimizni o‘ziga tortadi. Shu sabab, bu reklamani bir emas, balkim bir necha fikrlar orqali tahlil qilsa bo‘ladi. Masalan:

1-fikr, turmush qurgandan keyin, har bir millatda bo‘lgani kabi, o‘zbek oilalarida ham farzand ko‘rish katta baxt bo‘lib hisoblanadi. Turmushga chiqqan o‘zbek ayoli alla aytib beshik tebratishni orzu qilsa, uylangan o‘zbek erkak farzandining “Dadajon! – deb chaqirishini” albatta istaydi. Bunga dalil sifatida, quyidagi o‘zbek maqollarini eslasak maqsadga muvofiq: “Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt”; “Yigitning chirog‘i – qizi bilan o‘g‘li”; “Bola bo‘lsa, beshik topilar”; “Otaning chirog‘i – og‘li”; “Bolali xotin – gul xotin, bolasiz xotin – tul xotin”; “Bolasi ko‘p bo‘lar boy, bolasi yo‘q – quruq soy” va b.;

2-fikr, erkak kishiga ba’zi bir holatlarda oshna-og‘aynilari tomonidan farzanding yo‘q deb tanbeh berilishi va bu orqali unga psixologik ta’sir ko‘rsatish, hattoki mana-man degan erkak ruhiyatini sindirishi mumkin. Bu esa, erkakning umumiy ruhiyatiga salbiy ta’sir qilib, hattoki jamiyatda bosh ko‘tarib yurolmaslik darajasigacha olib borishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda, qisman bo‘lsada, yuqorida reklama qilingan ANDROGARD dori vositasini qabul qilishni boshlash, najot vazifasini bajarishi mumkin ekanligi reklamada ta’kidlanadi.

3-fikr, nahot erkak kishining o‘ziga bo‘lgan ishonchi va umidi bitta dori samaradorligiga bog‘liq bo‘lsa, qani uning irodasi va g‘ururi degan bo‘lar edik. To‘g‘ri, farzand tirnog‘iga zor erkaklar son sanoqsiz, ular organizmi ham bir xil shakllanmaganidek, ushbu dori vositasi hammaga har xil ta’sir etishini ham unutmaslik lozim va “ANDROGARD bilan ota bo‘lishingiz mumkin” degan fikrga qo‘shilmaymiz. Sababi o‘zbek erkaklari uchun ushbu fikr ularni kamsituvchi bo‘lib ko‘rinishi va bu reklama ular ongida negativ taassurotni shakllantirishi mumkin. Biz tomondan amalga oshirilgan ushbu reklamaning tahlil jarayonini anti reklama deb qabul qilsak adashmagan bo‘lamiz.

Yuqorida keltirilgan reklamaga mavzusi jihatdan o‘xshash bo‘lgan rus tilida ifodalangan variantni misol keltirishga qaror qildik: “*EramedECO Если хотите забеременеть, то Вам к нам! Лучшие врачи, доступные цены*”. Fikrimizcha, bu reklama mazmunida etika qoidalari va qolaversa madaniyatsizlik belgilari yaqqol namoyon bo‘lgan. Chunki reklama matnida ***хотите забеременеть/ikkiqat (homilador) bo‘lishini istaysizmi*** so‘roq ohangini ifodalovchi apellyativ leksikaning ***то Вам к нам/unday bo‘lsa siz bizga*** degan ibora bilan ushbu sintaktik konstruksiyada ketma ketlikda joylashgani qo‘pol, nafaqat o‘zbek, balki rus mentalitetiga ham ma’nosi jihatdan zid mazmunga ega reklama deb baholanishiga loyiq. Chunki, EramedECO kabi tibbiy klinika va markazlarning bunday qo‘pol ko‘rinishdagi reklama matnini hamma ham teng ravishda qabul qila olmaydi. Bu kabi tibbiy xizmatlar reklama matnlari shu ko‘rinishda ommalashtirilishi, bir qator oilalar farzandli bo‘lib tinchib ketsa, bir qator oilalarning buzilib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Keyingi rus tilida ifodalangan reklama “*Bookimed Вы хотите увеличить свой размер? Эстетическая пластика для мужчин в лучших клиниках Турции*” nozik va shu bilan birga qo‘shtirnoq ichidagi mavzuga oid tibbiy xizmat reklamasi bo‘lib, u asosan [18+] yoshdagi erkak jinsi vakillari uchun mo‘ljallangan. Reklamada erkak jinsiy a’zosini hajmini kartalashtirish xizmati estetik plastik jarrohlar tomonidan taklif qilingan. Bir qarashda reklama matnidagi ***Вы хотите увеличить свой размер?/O‘lchamingizni kattalashtirmoqchimisiz?*** apellyativ gap oddiy bo‘lib ko‘rinadi, ammo uning asl mazmuni va mohiyatiga diqqatni kuchaytirgan holda e’tibor berilsa, matnda aynan

qanday xizmat reklamasi nazarda tutilgani yaqqol seziladi. Bizningcha, bu mavzudagi reklamalarni ommalashtirishdan oldin, auditoriya yoshi, jinsi, millati va xohish-istaklarini inobatga olish lozim.

Bir qator tibbiy xizmatlar reklama matnlarida yosh diskriminatsiyasi kuzatiladi. Yosh diskriminatsiyasi reklama matnlarida qo‘llanilgan inson yoshi bilan bog‘liq apellyativ leksika yordamida ifodalanadi. Masalan: ***chol, kampir, qariya, keksa, keksalik*** va b. Yosh diskriminatsiyasi holatini inson ruhiyati va psixologiyasi bilan bog‘lash mumkin, chunki psixologiyada eydjizm degan tushuncha mavjud. Eydjizm – bu ma’lum bir yosh toifasidagi odamlar bilan bog‘liq stereotiplar va xurofotlarga asoslangan kamsitishning bir turi bo‘lib hisoblanadi. Odatda, fanda “eydjizm” atamasi faqat yosh jihatdan keksa odamlarga nisbatan qo‘llaniladi, garchi yoshlar ham o‘zlariga nisbatan noto‘g‘ri munosabatni his qilib, o‘zlariga o‘zlari “men qariyapman, men qaridim, men yosh emasman” deb baho berishlari ham keng tarqalganini eshitishimiz mumkin.

Yosh diskriminatsiyasi (eydjizm) tibbiy xizmatlar reklama matnlarida quyidagicha ifodalanadi: “*Avicenna’s LAB Erkak kishi keksalikda ham ota bo‘la oladimi?*”. **Keksalikda/в старости** — apellyativ leksikasi ushbu reklama matnida eydjizm – yosh diskriminatsiyasiga misol bo‘la oladi. Ammo imkon bo‘lganda aynan shu reklamaga anti reklama sifatida “Avicenna’s LAB Erkak kishi keksalikda ham ota bo‘la oladi!!!” variantga o‘zgartirib qo‘ysak adolatli bo‘lar edi deb hisoblaymiz. Chunki tarixdan ma’lumki, erkak kishining quvvati belida degan ibora o‘zbek xalqi o‘rtasida normal qabul qilinadi. Bunga isbot, yoshi keksa erkalardan Oltmishvoy, Yetmishvoy, Saksonvoy, To‘qsonvoylar ham pushti-kamar bo‘lib tug‘ilishgan. Bundan tashqari, ehtimol bir qarashda qo‘pol misol bo‘lishi mumkin, lekin haqiqat, taniqli rus komik aktyori, paradist, yumorist, teleboshlovchi, Rossiya Federatsiyasining xalq artisti Evgeniy Vaganovich Petrosyan ham kam emas, 78 yoshda ota bo‘lish baxtiga muyassar bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot reklama matnlarida qo‘shtirnoq ichidagi tibbiyot sohasiga tegishli, o‘zbek va rus mentalitetiga xos bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi apellyativ leksikaning faol ishtiroki reklama shinavandalarini befarq qoldirmayapti. Ular orasida negativ reklama, anti reklama kabi tushunchalar paydo bolishi kuzatilmoqda, bu esa tibbiy xizmatlar sohasidagi reklama matnlarini yaratuvchi mualliflardan har bir xalqning madaniyati, mentaliteti, qadriyatlarini oyoq osti qilmasdan, unga hurmatda bo‘lishlarini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gafurov B.Z. Reklama diskursida tibbiyot leksikasi: funksional-semantik va lingvomadaniy jihatlar (rus va o‘zbek tillari misolida). Filologiya fanlari doktori DSc dissertatsiyasi avtoreferati. -Buxoro, 2023. -68 b.
2. Энциклопедический словарь медицинских терминов. -М. Советская энциклопедия. -1982-1984 гг.
3. Xudoyqulova D.K. Farmatsevtik terminlarning leksikografik va funksional-semantik tadqiqi (ingliz, rus, o‘zbek tillar misolida). Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Buxoro, 2022. -50 b.
4. https://ria.ru/20171002/1505888158.html

UDC 811.111’37

LINGUACULTURAL EVOLUTION OF PROVERBS AND FABLES IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

M.A.Jumaniyazova, teacher, Urgench Branch of Tashkent Medical Academy, Urgench

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollar va matallarning lingvokultural evolyutsiyasi taqqoslanadi. Maqolada ingliz va o‘zbek xalq adabiyotida mavjud bo‘lgan maqollar va ertaklarning tarixiy rivojlanishi, tilshunoslik va madaniyat nuqtai nazaridan ta’siri o‘rganiladi. Maqolalar va ertaklar nafaqat tilning evolyutsiyasi, balki jamiyatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlaridagi o‘zgarishlarga qanday moslashganligini ko‘rsatadi.*

Kalit so`zlar: *maqollar,matallar,madaniyat,donolik, an’ana, Islom ta’siri, ijtimoiy meyorlar,Sovet davri, milliylik, axloqiy saboqlar*

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ лингвокультурной эволюции пословиц и басен на английском и узбекском языках. Рассматривается историческое развитие пословиц и басен в английской и узбекской народной литературе, влияние языка и культуры на эти формы. Особое внимание уделено тому, как пословицы и басни изменялись в контексте социальных, экономических и культурных изменений.*

Ключевые слова: *пословицы, басни, культура, мудрость, традиция, Исламское влияниесоциальные, социальные нормы, советский период, национальная идентичность, нравственные уроки*

Abstract. *This article compares the linguacultural evolution of proverbs and fables in English and Uzbek languages. The article explores the historical development of proverbs and fables within English and Uzbek folklore, analyzing the impact of language and culture on these forms. Proverbs and fables not only reflect linguistic evolution but also adapt to changes in the social, economic, and cultural conditions of the societies in which they are embedded.*

Key words: *proverbs, fables, culture, wisdom, tradition, Islamic influence, social norms, Soveit period,national Identity, moral lessons*

Introduction. Proverbs and fables are integral to the oral traditions of both English and Uzbek cultures, encapsulating wisdom, values, and social norms passed down through generations. These two forms of traditional literature have evolved over centuries, adapting to the changing dynamics of language and society. While proverbs are often short, pithy sayings offering practical or philosophical lessons, fables are narrative tales, often involving animals or mythological figures, used to convey moral teachings. This article examines how both proverbs and fables have evolved in English and Uzbek, reflecting the broader shifts in linguistic, cultural, and historical contexts. Focusing on proverbs and fables from both cultures, article will explore how they reflect the societies from which they emerged and how they adapted to significant historical changes—whether political, economic, or social. In doing so, article aims to understand how language and culture interact, influencing the evolution of these traditional forms of wisdom.

Literature review: Research on the evolution of proverbs and fables reveals their crucial role in the transmission of culture, wisdom, and ethical values. Scholars such as Z. A. Abidov (1998) and M. J. Smith (2004) have examined how proverbs evolve in the context of societal changes, with a particular focus on how the Soviet and post-Soviet periods affected Uzbek proverbs, while López (2004) explored how English proverbs changed alongside the rise of capitalism, individualism, and the industrial revolution. In terms of fables, Aesop remains one of the most influential figures, with his fables having transcended time and geography, shaping moral storytelling in Western literature. On the Uzbek side, Khodja Nasreddin serves as an iconic figure whose fables have survived centuries, demonstrating the intersection of humor, wisdom, and critique of social norms. A particularly useful framework for understanding the evolution of these forms is linguistic relativity, as described by Whorf and Sapir (1956), which suggests that language shapes thought and worldview. This theory is crucial for understanding the ways proverbs and fables have adapted over time in response to both linguistic and cultural shifts.

Research methodology. This study adopts a comparative-historical approach to analyze the evolution of proverbs and fables in English and Uzbek. Proverbs and fables were selected from historical texts, oral traditions, and literary collections, covering both traditional and modern sources. This study includes both classical proverbs (from medieval and early-modern periods) and modern proverbs, as well as selected fables from Aesop and Khodja Nasreddin. The research divides the evolution of proverbs and fables into key historical periods. For English, this includes the medieval period, the Renaissance, and the Industrial Revolution, while for Uzbek, it spans the nomadic era, Islamic influence, Soviet rule, and post-independence periods. This part compares thematic content, linguistic features, and cultural influences in both the English and Uzbek proverbs and fables. The aim is to explore common themes, linguistic structures, and cultural shifts that have shaped both traditions. Each proverb and fable is analyzed within its specific historical and cultural context. For example, the Islamic influence on Uzbek proverbs during the Islamic Golden Age is a central focus, as is the impact of capitalism and industrialization on English proverbs.

Analysis and results. English proverbs have evolved significantly, reflecting the socio-economic changes over the centuries. From the feudal system of medieval England to the capitalist society of the Industrial Revolution, English proverbs have adapted to reflect changing values,

particularly the rise of individualism and pragmatism. Medieval Proverbs are rich in historical context, shaped by the social, religious, and economic conditions of the time.

"A bird in the hand is worth two in the bush" reflects the value of caution and pragmatism in a feudal society where survival depended on careful resource management. Another Medieval Proverb, *"Hunger is the best sauce "*depicts the medieval peasant's experience, where food scarcity made people appreciate even the simplest of meals.

During Industrial Revolution, the increasing importance of time, efficiency, productivity, and materialism, along with the challenges of urbanization and the changing nature of work, all played a role in shaping new proverbs. The proverb, *"Time is money"* emerged as a direct result of industrialization, emphasizing the need for efficiency and productivity in the context of the growing capitalist economy. The proverb *"Grass is always greener on the other side"* encapsulated the disillusionment of many who sought a better life only to face new challenges in the city.

Modern proverbs have evolved in response to significant social, technological, and economic changes, particularly with the rapid advancement of the 20th and 21st centuries. Modern Proverb, *"Actions speak louder than words"* became ingrained in modern societies, especially as capitalism and the emphasis on self-reliance shaped public consciousness.

English fables, particularly those of Aesop, have remained largely consistent in their moral teachings. Aesop's fables such as "The Tortoise and the Hare" continue to teach lessons about perseverance, humility, and the consequences of pride, values that are universally applicable.

The evolution of Uzbek proverbs reflects deep historical and cultural shifts, particularly the nomadic past, Islamic influence, and the transition through Soviet socialism to post-Soviet independence. Uzbek nomadic proverbs tend to emphasize themes such as resilience, survival in harsh conditions of the steppes and deserts, hospitality, and the importance of community. Nomadic Proverbs *"Ko'ngil katta bo'lsa, mashaqqat kichik bo'ladi "* reflects how nomadic communities had to endure long migrations, unpredictable weather, and difficult living conditions.

With the arrival of Islam, many Uzbek proverbs began to reflect Islamic teachings, which emphasized justice, patience, and humility. Proverbs such as *"Sabr bilan xor guliston bo'lar, sho'r zamin bog' bilan bo'ston bo'lar* " echo the Quranic principles of perseverance and trust in God's plan.

The Soviet period had a significant impact on Uzbek proverbs, shifting their themes to align with socialist values such as collectivism, progress, and loyalty to the state. The proverb, *"Kuch-birlikda "*reflects the Soviet ideal of collective work, where individual effort was seen as secondary to the importance of teamwork and cooperation in building socialism.

Post- independence Uzbek proverbs reflect a complex interplay of traditional values, Islamic teachings, and new national aspirations. National identity, Islamic spirituality, economic self – sufficiency, patriotism, and social change became central themes in the proverbs that emerged after 1991. The proverb *"Vatanni sotgan er bo'lmas"* shows the idea of patriotism and importance of one's country in their life..

Uzbek fables, particularly those featuring Khodja Nasreddin, have undergone similar transformations. These fables, often infused with humor and wit, carry social critique and wisdom, reflecting both Islamic and pre-Islamic Uzbek thought. For example, Khodja Nasreddin's tales often highlight the complexity and irony in human nature, illustrating timeless moral lessons.

Conclusion. The linguacultural evolution of proverbs and fables in both English and Uzbek languages highlights the dynamic relationship between language, culture, and society. As living reflections of their respective cultures, proverbs and fables have undergone continuous transformation, adapting to the shifting socio-political and historical landscapes. Through the comparative study of these forms in both cultures, it becomes clear that despite differences in linguistic and cultural contexts, there are universal themes that transcend geographic and cultural boundaries. These include fundamental human values such as wisdom, justice, moral integrity, and the relationship between the individual and the collective. In the case of Uzbek proverbs, the Islamic influence has played a significant role in shaping the ethical and moral fabric of the language, with many proverbs stemming from or reflecting Islamic teachings such as patience, humility, and charity.

Similarly, Khodja Nasreddin's fables not only served as moral lessons but also critiqued societal norms and human nature, demonstrating the profound impact of both pre-Islamic and Islamic influences on Uzbek folklore.

Meanwhile, English proverbs and fables evolved in line with the social and economic developments of Western society, notably the rise of individualism and capitalism. This evolution is evident in proverbs that emphasize personal responsibility, efficiency, and economic success. The enduring legacy of Aesop's fables further reinforces universal moral values, such as the consequences of arrogance, dishonesty, and pride, continuing to offer timeless lessons for both children and adults.

REFERENCES:

1. Abidov, Z. A. (1998). The Role of Proverbs in Uzbek Culture: A Linguistic and Cultural Perspective. Tashkent: Uzbekiston Publishing House.
2. Aesop. (1991). Aesop's Fables. New York: Dover Publications.
3. López, M. (2004). Proverbs as Cultural Transmissions: A Comparative Analysis of English and Spanish Proverbs. Linguistics and Culture Studies Journal, 19(2), 122-134.
4. Whorf, B. L. (1956). Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. MIT Press.
5. Sapir, E. (1949). Language: An Introduction to the Study of Speech. Harcourt, Brace.
6. Vygotsky, L. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
7. Smith, M. J. (2004). The Evolution of English Proverbs: A Historical Overview. Cambridge University Press.
8. Ushakov, I. (2009). The Fables of Khodja Nasreddin: A Cultural Analysis. Tashkent: Fan Publishing.
9. Bakhtin, M. M. (1981). The Dialogic Imagination: Four Essays. University of Texas Press.
10. Matkarimova, B. K. (2021). Pragmatic study of the concept of subject in the semantic structure. *ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (93)*, 85-87.

UO'K 811.161.1 (075.8)

XORAZM VOHASI FOLKLORI TILIDAGI SHAXS MA'NAVIYATINI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARI XUSUSIDA

M.X.Jumanyazova, f.f.n., dots., Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xorazm vohasi folklori tilidagi shaxs ma'naviyatini ifodalovchi til birliklari xususida fikr yuritilgan. Unda "Oshiqnoma" turkumiga kiruvchi Xorazm dostonlari tilidagi shaxs ma'naviyatini aks ettiruvchi leksik-frazeologik va paremiologik birliklar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Folklor, folklor tili, ma'naviyat, milliy qadriyat, Xorazm dostonlari, ijobiy va salbiy xislatlar.*

Аннотация. *В статье рассматриваются языковые единицы, выражающие духовность личности в фольклорном языке Хорезмского оазиса. Анализируются лексико-фразеологические и паремиологические единицы, отражающие духовность личности в языке хорезмийских эпосов, входящих в цикл «Ошигнома».*

Ключевые слова: *Фольклор, язык фольклора, духовность, национальные ценности, хорезмийские эпосы, положительные и отрицательные качества.*

Abstract. *This article discusses the linguistic units expressing personal spirituality in the language of the Khorezm oasis folklore. It analyzes lexical-phraseological and paremiological units reflecting personal spirituality in the language of Khorezm epics, which are part of the "Oshiqnoma" series.*

Keywords: *Folklore, folklore language, spirituality, national value, Khorezm epics, positive and negative qualities.*

Kirish. Dunyo hamjamiyatida o'tgan asr oxirlaridan boshlab milliy o'zligini saqlab qolishga intilayotgan har bir xalq uchun ma'naviyat masalasi alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Ma'naviyatni yuksaltirish zaminida yuksak ma'naviyatli shaxslarni tarbiyalash yotadi. Ma'naviy yetuklik, avvalo, bizga meros qolgan milliy ma'naviyatimiz sarchashmalari – og'zaki va yozma manbalar, xususan, xalq og'zaki ijodining nodir namunalari – xalq dostonlari, xalq maqol va matallari, rivoyatlardan imkoni boricha ko'proq baxramand bo'lish, shu asosda har bir inson o'zini millat, bashariyat, tabiat, koinotga nisbatini to'g'ri anglashi hamda, shunga muvofiq, faoliyat ko'rsata olishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Binobarin, Xorazm vohasi folklori tilidagi shaxs ma'naviy sifatlarini ifodalovchi vositalar

hamda ularning barkamol avlodni tarbiyalash tizimidagi o‘rni masalasini tadqiq qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida ma’naviyat muammosiga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar mavjud, bu sohada hatto lug‘atlar ham chop etilgan[1;2]. Tilshunoslikda, xususan, o‘zbek tilshunosligida bir qator ilmiy tadqiqotlar “ma’naviyat” kategoriyasi tarkibiga kiruvchi ayrim til birliklari o‘rganilgan. Y. Xodjievning “Alpomish” dostonidagi shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning semantik-struktur, kontseptual va leksikografik xususiyatlari” nomli tadqiqotida dostonni lingvoma’naviyatshunoslik aspektida o‘rganishning ilmiy ahamiyati o‘z ifodasini topgan hamda xalq og‘zaki ijodi namunalarida qo‘llangan shaxs ma’naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarni o‘rganishning kognitiv asoslari ko‘rsatib berilgan [3].

G.Tojievaning “O‘zbek tili ma’naviy-ma’rifiy leksikasining mustaqillik yillardagi taraqqiyoti” (“milliy g‘oya” atov birliklar) mavzusidagi tadqiqot ishida *milliy g‘oya* tushunchalarini ifodalovchi atov birliklarning o‘zbek tili leksik tizimdagi o‘rni, semantik-struktur, genetik xususiyatlari tadqiq qilingan[4].

Xorazm vohasi folklori ham folklorshunoslik, ham tilshinoslik jihatidan ko‘plab tadqiqot obyektlari bo‘lgan [5;6;7]. Ammo shu paytgacha Xorazm vohasi folklori tilidagi shaxs ma’naviyatini ifodalovchi til birliklari tadqiq qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ming yillik madaniyatimiz tarixida xalqimiz badiiy tafakkuri dahosining mahsuli sifatida yuzaga kelgan nafis so‘z san’ati durdonalari behisobligini ta’kidlagan holda N.Mahmudov: “...Ularning allaqanchasi turkiy tafakkur teranligi va taxayyul bepoyonligining muhtasham obidalari o‘laroq jahon badiiyati ganjinasining to‘rida qo‘r to‘kib turibdi. Bu asarlarda mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi abadiyatni allalovchi insoniy g‘oyalar va ayni paytda ulardagi til deyiladigan sururbaxsh sehrga to‘la qudratning benazirligi, so‘zning inson qalbi qatlariga huzurbaxsh hayrat soluvchi zamzamalari, o‘ktam ishva va erkli erkalik bilan eshiluvchi ma’no jilvalari, po‘rtana misol shiddat va oquvchan ohang, kamalakdek tovlanuvchi zangin ranginlik odam bolasini hamisha ma’naviy kamolot sari yetaklagan”,-deb e’tirof etadi [7.25].

Ajdodlarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta, ta’lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojlanishini ham belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Xalq og‘zaki ijodi ana shu omillarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta’lim-tarbiyaning asosiy vositalaridan sanaladi.

Tahlil va natijalar. Xorazm vohasi folklori xalq tilining yuksak namunasi, uning noyob ko‘rinishi desak mubolaga bo‘lmaydi. Ainiqsa, Xorazm dostonlarida o‘zbek xalqining qadimiy va boqiy tili o‘zining butun qudrati bilan namoyon bo‘lgan. Buni “Oshiqnoma” turkumiga kirgan, prof. S.Ro‘zimboyev mas’ul muharrirligida chop qilingan Xorazm dostonlari tilidagi xalqimiz ma’naviyatini ifodalaydigan katta miqdordagi leksik-frazeologik va paremiologik birliklar ham aks ettiradi. Zero, har bir so‘z, har bir qo‘shimcha, fonetik tovlanish va variantlar, tilning mantig‘ini namoyon qiluvchi betakror sintaktik qurilmalar xalq ruhiyatini zohir qiladi, xalq ma’naviyatini ko‘rinuvchi go‘zallikka aylantiradi. “Oshiqnoma” turkumining 1-kitobidan o‘rin olgan “Sayod va Hamro”, “Hurliqo va Hamro”, “Royi Chin”, “Edigo”, “Malikai Dilorom” dostonlarida [9(*misollar shu manbadan olindi va sahifasi ko‘rsatildi*)] qo‘llangan ko‘plab “ma’naviyat” umumiy ma’noli birliklar katta bir tizimni hosil qiladi. Ularni semantik-struktur jihatdan Y.Xodjiyev tasnifiga ko‘ra [3]quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Leksemalar: badfe’l, barkamol, baxil, befarosat, gunohkor, do‘st, jabr, jafo, zehn, zolim, zulm, ilm, imonsiz, insof, kitob, qabohat, qiblagoh, maloyik, mal’un, manmanlik, maslahat, mehnat, mehnatkash, mehr, mehribon, musulmon, mushtipar, nomus-or, oriyat, oshiq, pand, pir, rahm, savod, savodxon, salom bermoq, saxiy, sig‘inmoq, takabburlik, taqdir, tilamoq, o‘qimoq, usta bo‘lmoq, farishta, fahm, hamroh, haromi, shayton, shafoat, sha’n, shod-u hurram, shumlik, e’tiqod va h.k.

2. Iboralar: betiga fotiha tortmoq, ko‘ngliga og‘ir olmoq, javobini bermoq, duosini olmoq, ko‘nglini xushlamoq, quloq solmoq, yer yuziga tushmoq, qulluq bo‘lsinga kelmoq, yuragini yorolmaslik, nazar solmoq, izza bermoq, harom bilmoq, xudo demoq va h.k.

3. Matallar: har ishni bandaga xudo qilar, xudo qilganiga banda ko‘nar; boshga manmanlik balo bo‘ladi; davlat talab davlat tilar; qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar va h.k.

4. Aforizmlar: Yer-u ko‘kni xalq aylagan bir-u bor, ulug‘ yoshlik xizr ko‘rgan jon bobom; shum raqiblar qon yig‘lasin, kulmasin; bir xudoning berganiga ko‘naman; yaxshilik qil, yomonlikni qilmagin; ko‘p yeganman, tuzing oqlab turayin va h.k.

Keltirilgan birliklar ichida quyida leksik birliklar shaxs ma'naviy sifati bilan bevosita aloqador birliklardir: *gunohkor (*Bir osiyam hasratingda gunohkor, Qilmag‘il sharmanda o‘zing biru bor. 308*), oshiq (*mani o‘ziga loyiq ko‘rib, manga oshiq bo‘lib, aytib turubdir. 18), pokizalik (Maning o‘g‘limni pokizalikdin o‘zga aybi yo‘qdir. 23), noinsof (Ey noinsof kanizlar, xo‘ja kishini tushurib, hujraga eltib qo‘yinglar. 26), do‘st (Bizi dushman bilib, kimni do‘st aylar?! 27), bevafo (Bevafo yor uchun ko‘p yondi banda. 31) *zolim (*Bir toza gul edim, so‘ldim-xor o‘ldim, Zolimlar qo‘linda giriftor o‘ldim.33), beiqror (Beiqrorsan, iqroringda yolon bor. 50), g‘arib (Man bir g‘arib, topa bilmam chorani 52) va h.k. Bunday so‘zlarni misol sifatida ko‘plab keltirish mumkin. Ular doston qahramonlarining axloqiy sifatlarini aks ettiradi. Xususan, badfe'l, baxil, befarosat, imonsiz, mal'un, haromi, shayton kabilar salbiy xislatlarni ifodalasa, mehnatkash, mehribon, musulmon, nabi, savodxon, saxiy, farishta, barkamol, maloyik va boshqalar ijobiy xislatlatlarni namoyon qiladi.

Quyidagi ibora, matal, aforizmlar esa shaxs ma'naviy sifatlariga ishora qilib turadi: "Ot rizqi oldindadir", sanga berar yoli ot yemim yo‘qdir;davron surmoq - Sizing birla davron sursam, o‘ynashsam (54), kel ikkimiz bir maqsada yetali, Muhabbatni muhabbata qotali (54) sandin ayrilg‘onni umri kul bo‘lur (55), yona-yona bag‘rim boshi kul bo‘ldi (55), Sayodxon otingga bo‘layin qurbon (57), soqi ajal paymonamiz yetishdi (58), har nar'a chekishi jonim oladir, Endi mani jonim chiqib boradir (59), Ey, sardor og‘o, endi har nechuk bo‘lsa ham, bir o‘limni bo‘ynimg‘a olibman. Harna taqdira tan berdim. Endi manga qaytmoq bo‘lmas,-dedi (59), boshimiza ko‘p savdolar solibsan (61) va h.k.

"Oshiqnoma" turkumiga kirgan Xorazm dostonlarida qo‘llangan ifodalar goh adabiy yozma me'yorlar, goh so‘zlashuv nutqiga nomutanosibligi bilan ham ajralib turadi. Undagi ekzotizmlar, boy etnografik ma'lumotlar, evfemizmlar, o‘rni bilan qo‘llangan disfemik mazmunli birliklar turli badiiy-estetik vazifa bajaradi.

Xulosa. O‘zbek tilining boyligi va go‘zalligini tarannum etuvchi, millat jonli tilining go‘zal namunalari bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi namunalarini ilmiy o‘rganish, ularning bag‘ridagi lisoniy-ma'naviy qadriyatlarni aniqlash, milliy ma'naviyatimizni takomillashtirishda ulardan qadriyat manbalari sifatida foydalanish va lingvistik tadqiq etish bugungi o‘zbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Zero, har bir millatning milliy ma'naviyati "qaymog‘"i xalq og‘zaki ijodi durdonalarida o‘z ifodasini topadi [3]. Buni Xorazm dostonlarida tilidagi shaxs ma'naviyati bilan bog‘liq til birliklari ham ko‘rsatib turibdi. "Oshiqnoma" turkum dostonlaridagi leksik-frazeologik hamda paremiologik birliklar ma'naviyat asoslaridan bo‘lgan so‘z san'atining ildizi folklor namunalari ekanligining ayni isbotidir. Binobarin, xalq og‘zaki ijodini ilmiy va amaliy maqsadlarda tadqiq qilish muhim va ijtimoiy zarurat sanaladi. Til xalq ma'naviyatini aks ettirish va avlodlarga uzatish vazifasini bajarar ekan, ma'naviyatning lisoniy ifodalovchilarini tilshunoslik aspektida chuqur o‘rganish dolzarb vazifalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot modeli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005. – 192 b

2. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. – 448 b

3. Xodjiyev Y. "Alpomish" dostonidagi shaxs ma'naviy sifatlarini ifoda etuvchi atov birliklarning semantik-struktur, konseptual va leksikografik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 46 b.

4. Tojiyeva G. O‘zbek tili ma'naviy-ma'rifiy leksikasining mustaqillik yillardagi taraqqiyoti ("milliy g‘oya" atov birliklari): Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Samarqand, 2017. – 48 b.

5. Ro‘zimboyev X.S Janubiy Xorazm dostonlari tilining lug‘aviy-ma'noviy tahlili ("Shaxriyor" va "Malikai Zavriyo" dostonlari misolida) NDA. Toshkent, 2000.

6. Sariyev S.M. Xorazm "Guro‘g‘li" dostonlarining qo‘lyozma variantlari. ND, Toshkent, 2007.

7. Olloyorov K.M. Xorazm dostonlari onomastikasi, ("Go‘ro‘g‘li" va "Oshiqnoma" turkum dostonlari asosida). Filol. fan. falsafa d-ri... (PhD) diss. Avtoref. Samarqand, 2018, B.46.

8. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998.

9. Oshiqnoma. Xorazm dostonlari. 1-kitob. – Urganch: Xorazm, 2005.

UDK 37.02

YOSHLARNI VATANGA MUHABBAT RUHIDA TARBIYALASHDA TARIX FANINING ROLI

S. Karimboyeva, dots., Namangan davlat texnika universiteti, Namangan
6. Chaudhuri, A. (2017). Transcendentalism and its Philosophical Roots. Oxford University Press.
7. Jadidism and Its Influence on Modern Uzbek Literature.(2008).Journal of Central Asian Studies,3(2),45-67.
8. Akhmedov, R. (2006). Transcendentalism and Its Cultural Significance. Tashkent: Literature and Art.

UO'K 82

MAQOL JANRIGA XOS AYRIM XUSUSIYATLAR HAQIDA

N.R.Khudayberganova, PhD, Urganch Ranch texnologiya Universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollari janriga xos xususiyatlar, xalq maqollarining badiiy jihatdan mukammalligi yuzasidan taniqli olimlar va shoir, yozuvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *maqol, folklorshunos, ibora matal, hikmatli so'z, naql, tasnif, chegara, qavlun, paremya, ibratli so'z, chuqur ma'noli gap.*

Аннотация. *В этой статье рассказывается об особенностях жанра узбекских народных пословиц, о мнениях известных ученых, поэтов и писателей по поводу художественного совершенства народных пословиц.*

Ключевые слова: *пословица, фольклорист, поговорка, пословица, поговорка, пословица, классификация, граница, кавлун, паремия, поучительное слово, поговорка с глубоким смыслом.*

Abstract. *This article describes the peculiarities of the genre of Uzbek folk proverbs, the opinions of famous scientists, poets and writers about the artistic perfection of folk proverbs.*

Key words: *proverb, folklorist, proverb, proverb, proverb, proverb, classification, border, kavlun, paremia, instructive word, proverb with deep meaning.*

Kirish. Xalq maqollarining badiiy jihatdan mukammalligi taniqli olimlar va shoir, yozuvchilar tomonidan tan olingan. Bu jihatdan maqollar so'z san'atining oliy namunasi sifatida baholanishga loyiq. Hajm jihatdan kichikligi, mazmunan serma'noligi, mavzu jihatdan hayotiyligi maqollarning asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib yashashini ta'minlagan omillardir.

San'at asari qimmatini belgilovchi eng talabchan sinov vaqt hisoblanadi. Ayniqsa, vaqt sinovi talabiga og'zaki asarning javob berishi o'ta muhimdir. Har qancha tashviqotlarga qaramay sho'ro tuzumida kolxoz afzalligi maqtalgan maqollarning umri qisqa bo'ldi. Sho'ro tuzumi haqidagi maqtov dostonlar ham yaratilgani zahoti esdan chiqib ketdi.

Haqiqiy maqollarning shakllanishi uzoq davrni qamraydi, ammo badiiy mukammal va hayot tajribasi aks etgan maqolning umri boqiy bo'ladi. "Qonni qon bilan yuvib bo'lmas" maqolini Mahmud Koshg'ariy "Qanig' qan bilan jumas" tarzda keltirgan. Bu maqol olim qalamiga tushguniga qadar necha asrlar yashaganini faqat taxmin qilish mumkin.

Tadqiqot metodikasi. Ko'rinib turibdiki, maqollarning badiiy mukammalligi ularning hayotiyligini, umrboqiyligini izohlar ekan. Ayni choqda badiiy go'zallikning bevosita so'z tanlash, tasvir vositalaridan unumli foydalanish jihatlari ham bor. Ularning ayrimlarini esga olib o'tamiz:

1. Qarshilantirish (tazod) "Yaxshidan bog' qolar, yomondan dog'". Bu maqolda "yaxshi", "yomon"; "bog'", "dog'" so'zlari qarama-qarshi ma'nolarni bildiradi va shu bilan birga "bog'" – "dog'" so'zlari chiroyli qofiyani ta'minlaydi.

2. Tovushdoshlik (alliteratsiya, assonans). "Boy boyga boqar, suv soyga oqar".Maqolda "B", "Y", "R", "S" kabi undosh tovushlar alliteratsiya – undosh tovushlar uyg'unligini, "O", "A"lar esa assonans – unli tovushlar o'xshashligini ko'rsatadi va maqol qimmatini oshiradi.

3. Metafora – ko'chim (istiora). "Otning yag'iri toyga qolar".Bu maqolda "ot" so'zidan qarindosh-urug'chilikdagi katta avlod vakilining ramzi sifatida foydalanilgan.

Odatda mahallada biror odamga baho berish lozim bo'lsa, birinchi navbatda, u shaxsning ota-onasi esga olinadi. Katta avlod tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik shu zahoti farzandga ko'chiriladi.

Natijada, inson hayoti davomidagi har bir xatti-harakat mahalladoshlar, qarindoshlar tomonidan nazoratda ekani anglashiladi.

Maqol mazmunan har bir inson yoshidan qat'i nazar kelajakda ota, ona bo'lishni orzu qilsa, keyingi avlodiga "yag'iri"ni qoldirmasligi kerak, degan ma'no anglashiladi va katta, yosh avlod tarbiyasining muayyan to'g'ri tizimda bo'lishi uchun asos tayyorlanadi. Maqolda istiora san'ati yetakchilik qiladi.

"Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas" maqolidagi "et" va "tirnoq" so'zlari qarindosh-urug'; ota-bola; aka-uka ma'nolarini bildiradi. Bu misolda sinekdoxa san'ati ham bor. Ya'ni butunning tarkibiy qismi orqali yaxlit narsa ifodalangan.

4. Sifatlash."Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin". Maqolda insonlar o'rtasidagi munosabat faqat moddiy narsa bilan emas, shirin muomala bilan qadrlanishi qayd qilinmoqda. "Bug'doy non", "bug'doy so'z" birikmasida sifatlash san'ati qo'llangan.

5. Jonlantirish. (tashxis). "O'tin ayirgan bolta maydonda qolar". Bu maqolda odamlarni toifalarga: pulli-pulsiz, amalli-amalsiz, foydali-foydasizga ajratib muomala qilish o'sha shaxsning xalqdan ajralib qolishiga sabab bo'lishi aks etgan. Ikkinchidan, biror muammoni hal qilishda faol ishtirok etgan odam, ko'pincha, ish bitganidan keyin esdan chiqishi ifodalangan.

Xullas, maqollar badiiyati ularning yaratilishi ustida avlod-avlod millat vakillarimizning ijod qilish saviyasi qanchalar yuqori bo'lganidan darak beradi.

Natija va tahlil. Yozma adabiyot vakillari asarlarida xalq maqollari og'zaki va yozma adabiyot ijodiy hamkorligining ko'prigi darajasida muhimdir. Har bir ijodkor mumtoz adabiyot davrida bo'ladimi, hozirgi zamonda bo'ladimi xalq vakili hisoblanadi. U iqtidorli shaxs, avvalo, o'zbekning tarbiyasida voyaga yetadi. Xalq bilan birga yashaydi, millat vakili mentalitetini o'zlashtiradi. Shu bilan birga ijodida asarlarini o'qiyotgan ommaga o'zining xalq vakili ekanini uqtirmoqchi ham bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirishda maqol eng samarali omil sifatida xizmat qiladi.

Yozma adabiyotda maqollardan foydalanishning uch ko'rinishi mavjud:

1. Xalq maqoli aynan keltiriladi.

Alisher Navoiydan Muqimiygacha, Cho'lpondan O'tkir Hoshimovgacha o'z asarlarida fikrni ixcham va tushunarli ifodalash maqsadida maqol matnidan aynan foydalanganlar.

"Masaldurkim uyqu o'limdir" (Alisher Navoiy).

"Otning o'limi, itning bayrami" (Abdulla Qahhor).

2. Maqoldagi ayrim so'zlar o'zgaradi, ma'no saqlanadi.

"Otalarda bir so'z bor, eshit og'ajon,

Bosgan izidan qaytmas, o'lsa ham arslon" (Hamza). Bu misralarda shoir "Arslon izidan qaytmas, yigit so'zidan" maqolidan ijodiy foydalangan.

3. Shoir biror fikrni maqoldagi ma'nodan foydalanib ifodalaydi. Bir qarashda bu fikr mustaqildek ko'rinadi. Fikr yuritsak, adibning xalq maqollaridagi ma'noni o'ziga xos boshqa so'zlar bilan ifodalaganini anglaymiz. Masalan, Alisher Navoiy g'azallaridan birida "O'lturur mahramni sulton, ganji pinhon aylagach", — degan misra bor. Unda xo'jayin, sulton, hokim xazinasini yashirishni mahramiga, ya'ni eng yaqin xizmatlarini bajaruvchi xizmatkoriga buyurishi, xazina biror yerga ko'milganidan so'ng ortiqcha guvohdan qutulish uchun uni o'ldirishi aytilgan.

Ehtimol, shoir zamonasida aynan shundoq maqol bo'lgandir. Ammo biz bu maqolning borligidan bexabarmiz. Lekin undagi ma'no bugungi kunda mavjud va biz avvalroq esga olgan "O'tin ayirgan bolta maydonda qolar" yoki "Ishim bitdi, eshagim loydan o'tdi" kabi maqollar mazmunini ifodalaydi.

Ba'zan mumtoz shoirlar g'azaldagi baytlarning har birida biror maqolni misol qilib ham keltirgan hollar uchraydi. Xususan, XIV-XV asrlarda yashagan taniqli shoir Lutfiyning quyidagi g'azaliga e'tibor bering

Ayoqingg'a tushar har lahza gesu,
Masaldurkim: "Chirog' tubi qorong'u".
Tutarmen ko'zki ko'rsam orazingni,
Ki derlar "Oqqon oriqqa oqar suv".
Yuzingni tuttum ortuq oyu kundin

"Kishining ko'zidur ore torozu".
Ko'zung qonimdin iymonmas ajabdur,
Ki "Qo'rqar qaydakim qon ko'rsa hindu".
Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat
Ki ayturlar: "Tilaganni tilogu".

Bu g'azalda ajoyib so'z sohibi mavlono Lutfiy o'zining ma'shuqasiga bo'lgan ko'ngil izhorini so'z marvaridlaridan tizilgan marjondek ifodalay olgan. G'azalning mazmuni go'zal va mo'jaz doston ma'nosini beradi:

Ayoqingg'a tushar har lahza gesu,
Masaldurkim: "Chirog' tubi qorong'u".

Baytda yorning qaddi tik shamga o'xshatilmoqda. Shamning yonayotgan pilikdan pastki qismi qorong'u bo'ladi. Yorning yuzi yonayotgan shamga qiyoslanmoqda. Uning sochi shu qadar uzunki, yuzi yorug', pastki qismi qorong'i ko'rinadi.

Tutarmen ko'zki ko'rsam orazingni,
Ki derlar "Oqqon oriqqa oqar suv".

Shoir o'zini bir paytlar suv oqqan ariqqa o'xshatadi. U oqqan ariqqa suv oqishini kutib umid qilmoqda: ko'z tutib yorning visoliga yetmoqchi. Ma'shuqaning oshiq huzuriga kelishi oshiq uchun qaqrab yotgan ariqdan yana suv oqishiga tenglashtirilmoqda.

Yuzingni tuttum ortuq oyu kundin
"Kishining ko'zidur ore torozu".

Xalqda odamning ko'zini toroziga o'xshatish haqida maqol bor. Mening ko'zim taroziga o'xshagani uchun bir pallasida oy va quyosh bo'lsa, ikkinchi pallada ma'shuqa. Ma'shuqamning yuzini ortiq ko'rganim uchun tarozi pallasining shu tomoni bosib turibdi. Oy va quyosh esa ikkinchi pallaga joylashgan va ma'shuqa go'zalligiga chidash bermay osmonga uchib ketgan.

Ko'zung qonimdin iymonmas ajabdur,
Ki "Qo'rqar qaydakim qon ko'rsa hindu".

Mumtoz adabiyotda ma'shuqaning ko'zi va xolini qoraligi uchun hindga o'xshatish an'anasi bor. Bu o'rinda shoir yorining ko'zini hindga o'xshatmoqda. Hind qondan qo'rqadi, degan tushuncha bor. Ammo men ajablanamanki, sening ko'zing hind bo'lsa ham ko'z yoshlarimning qondek oqishidan qo'rqmayapti. Agar qo'rqqanida edi, rahm qilardi, men vaslingga yetar edim va ko'z yoshlarim to'xtar edi.

Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat
Ki ayturlar: "Tilaganni tilogu".

Mazkur bayt g'azalda ifodalangan hamma orzu-istaklarning xulosasi hisoblanadi. Unda shoir o'z ma'shuqasidan oxirgi marta muruvvat, lutf qilishni so'ramoqda. Men odamlar "Tilagan tilagiga yetadi" deganlaridek, senga vaslingga yetish uchun iltijo qilaman va agar odamlarning gapida haqiqat bo'lsa, maqsadimga yetaman, deb umid bildiraman, demoqchi. Ma'lum bo'ladiki, bir jihatdan, maqollar shoir mahoratining namoyon bo'lishi uchun ajoyib vositaga aylangan. Ikkinchi jihatdan, g'azal vositasida biz XIV-XV asrlarda xalq orasida mashhur bo'lgan maqollar matni bilan tanishish imkoniga ega bo'lmoqdamiz.

Ayrim iqtidorli yozuvchilar badiiy asarlarida qahramon nutqida qo'llagan maqol orqali ularning dunyoqarashi, fe'li haqida kitobxonda tasavvur hosil qilishga erishganlar. Misol uchun Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek hoji nutqida "Zo'ri behuda miyon meshi-kanad" (tojik maqoli: ortiqcha zo'riqsang, belingni sindirasan), xizmatkor ayol To'ybeka nutqida "Teng tengi bilan, tezak qopi bilan" maqolini keltiradi. Maqollarni qo'llashdanoq Yusufbek hojining ilmli, fors tilini biluvchi ziyoli ekani, Mirzakarim qutidor xizmatkorining esa sodda, ilm ko'rmagan, bor gapni lo'nda va aniq aytishga o'rgangan ayol ekani seziladi. Xullas, xalq maqollari yozma adabiyot vakillari tomonidan ularning iqtidorini namoyon qilishga yordam bergan.

Xalq og'zaki ijodidagi maqollar janri tarixiy hayot davomida son va mazmun jihatdan boyish xususiyatiga ega. Ya'ni maqollar zamon o'tishi bilan iste'moldan chiqishi va ayni paytda yangi-yangi namunalari vujudga kelishi mumkin. Maqollarning iste'moldan chiqishida quyidagi omillar sabab bo'ladi:

1. Tarixiy hayotning o‘zgarishi. Ijtimoiy hayotda maqolni qo‘llash ehtiyojining yo‘qolishi oqibatida maqol xalq esidan chiqadi.

Omoch seni to‘ydirgay,

Omboringni to‘ldirgay.

Omoch ishlatish asta-sekin yo‘qola borgan sari bu maqol ham iste’moldan chiqqan.

2. Tarixiy so‘zlar ishtirokidagi maqollar vaqt o‘tishi bilan yo‘qoladi.

Qoziga bersang suyar,

Bermasang – so‘yar.

3. Ayrim maqollar og‘zaki ijodning og‘zakiligi belgisi ta’sirida yo‘qolishi ham mumkin. Bir avlod qo‘llamagan maqol o‘limga mahkum. Xitoy xonining gazmoli ko‘p, lekin o‘lchamay kesilmaydi.

Ba’zan maqolning bir qismi yashaydi, ikkinchisi yo‘qoladi.

Ash tatig‘i tuz, jug‘rin jemes.

(Osh tuz bilan totli, lekin lagan bilan yolg‘iz tuzning o‘zi yeyilmaydi).

Bu maqolning birinchi qismi hozir ham bor, ammo ikkinchi qismni biz tasavvur ham qilmaymiz.

Yuqoridagi sabablar maqolning yo‘qolishiga olib keladi. Ayni paytda maqollarimiz namunalarining boyish manbalari ham yo‘q emas. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar natijasida yangi maqollar vujudga keladi. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng “Vatanni sevmoq iymondandir” hikmatli so‘zini qo‘llash ommalashdi. Dastlab, bu maqolsifat jumlaning Abdulla Avloniy yozgan “Turkiy guliston yoxud axloq” kitobida Muhammad Payg‘ambarimiz (s.a.v.) hadisi ekani aytilgan edi. Ammo bu hikmatli so‘z xalqimiz orasida ko‘p qo‘llanmagan. Mustaqillikdan so‘ng eng ommaviy maqolga aylanib ketdi.

2. Xalq maqollarining yangi-yangi namunalari xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy aloqalarning rivojlanishi natijasida paydo bo‘ldi. “Olma og‘ochidan olisga tushmas” maqoli “Yabloka ot yabloni daleko ne padayet”ning tarjimasi. Bugungi kunda bu maqolning kelib chiqishi bizni deyarli qiziqtirmaydi.

3. Yangi maqollarning paydo bo‘lishi allomalar, dono adiblar aytgan hikmatli so‘zlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Tarixda biz Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy ijodi bilan tanishar ekanmiz, aforizm deb atalmish muallifi aniq dono va hikmatli so‘zlarga duch kelamiz. “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur” kabi misollar shular jumlasidandir.

Maqollar o‘z va ko‘chma ma’nolarga ega bo‘lishi bilan yana ham diqqatga sazovordir. “Yomon xotin olguncha, bo‘ydoq yurgan yaxshiroq”, “Qizi borning nozi bor”, “Quda bo‘lguncha, ko‘p sinash, quda bo‘lgach, ko‘p siylash” kabi maqollar o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Ayrim maqollar faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas”, “Egrining omochi yerga botmas”, “O‘tin ayirgan bolta maydonda qolar” kabi maqollar bilan tanishganimizda ko‘chma ma’no yashiringanini his qilamiz. Bir qarashda “Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamas” maqoli o‘z ma’nosida ham qo‘llanadigandek tuyiladi.

Ammo bu hikmatli so‘zni hech kim o‘z ma’nosida deyarli qo‘llamaydi. Aslida, hayotda uchrab turadigan turli mish-mishlarning rost ekanligini ta’kidlash maqsadida bu maqolni esga olish odat tusiga kirgan. “Tuhmatchining omochi yerga botmas” maqolida bir oz g‘alati fikr ilgari surilgandek tuyiladi. Omochning yerga botmasligi bilan tuhmatchining qanday aloqasi bo‘lishi mumkin, degan mulohaza paydo bo‘ladi. Ammo aynan shu o‘rinda “omoch” deganda, bevosita yer haydashda foydalaniladigan asbob emas, balki tuhmatning natijasi nazarda tutiladi. “Yer” so‘zi iymonli, rostgo‘y odamga nisbatan qo‘llangan. Ya’ni tuhmatchining tuhmati rostgo‘y va pokiza odamga hech qanday salbiy ta’sir ko‘rsata olmasligi ta’kidlanmoqda. Binobarin, maqol matni bilan tanishganda, yoki uni eshitganda, qanday maqsadni nazarda tutib qo‘llanganiga e’tibor berishimiz lozim. Aks holda aytilgan maqolning asl ma’nosini tushunmay qolishimiz mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, olim Fitratning maqol janriga munosabatiga diqqatimizni qarataylik.

Abdurauf Fitrat xalq ogʻzaki ijodiga mansub maqol janri haqida ham ma'lumot berar ekan, tushunarli va loʻnda fikrni aytib qoʻya qoladi: "Elning kun koʻrgan, ish oʻtkargan sinalishli qarilari tomonidan aytilgan hikmatli, qisqa, ma'noli gaplardirkim, el orasida "yashash qonunlari" kabi hukm surib, tildan tilga yururdur".

E'tiborli jihati shundaki, Fitratning maqol janriga bergan bu ta'rifi unga nisbatan berilayotgan hozirgi ta'rifdan jiddiy farq qilmaydi. Hozirda maqol xalq ogʻzaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega boʻlgan, xalqning koʻp asrlik hayotiy kuzatishlari, tajribalari asosida vujudga kelgan hikmatli soʻzi sifatida ta'riflanadi. Koʻrinyaptiki, maqolning Fitrat tomonidan ham, undan keyin yetishib chiqqan olimlar tomonidan ham aytilgan ta'rifida, asosan, uning xalq turmush tajribasida sinovdan oʻtgan boʻlishi, shaklan ixcham, mazmunan teran koʻrinishda ogʻizdan-ogʻizga koʻchib yurishi bir xilda ta'kidlanmoqda. Faqat Fitrat ta'rifida maqolning "qarilar tomonidan aytiladi" deb koʻrsatilishiga qoʻshilish biroz qiyin. Chunki maqollar kattayu kichik tomonidan aytilaveradi. Shuning uchun boʻlsa kerak, maqolga nisbatan berilayotgan hozirgi ta'riflarda bunday ta'kid uchramaydi. Negaki, maqollar, odatda, bolalarga yoshlikdan oʻrgatilib boriladi. Hatto hozirgi paytda boshlangʻich sinflar uchun moʻljallab tuzilgan darsliklarga ham maqol namunalari koʻplab kiritilgan.

Shu ta'rifdan keyin u quyidagi maqollarni janr namunasi sifatida koʻrsatib oʻtadi:

Sinamagʻan otning sirtidan oʻtma.
Otang bolasi boʻlma, odam bolasi boʻl.
Chumchuq soʻysa ham qassob soʻysin.
Chumchuqdan qoʻrqqan tariq ekmas.
Och qornim – tinch qulogʻim.
Oʻz uyim – oʻlan toʻshagim.
Boʻzchi belboqqa yolchimas.
Mulla bilganin oʻqir, tovuq koʻrganin choʻqir.
Yotib qolguncha – otib qol.
Ogʻzi qiyshiq boʻlsa-da boy bolasi soʻzlasin.

Misol keltirilayotgan ushbu maqollarning har biri badiiy ijodning oʻziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan boʻlib, folklorda ixcham shakliligi, ammo teran mazmunga egaligi bilan alohidalik kasb etadi. Shuningdek, har biri tilimiz koʻrkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan badiiyat qatralari sifatida e'tiborni tortadi.

Ular xalqimizning koʻp asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada xalqning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi oʻzi va oʻzligi toʻla namoyon boʻlgandir. Shuning uchun ham maqollar gʻoyatda keng tarqalgan boʻlib, asrlar davomida jonli soʻzlashuv va oʻzaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qoʻllanib kelgan va qoʻllanilmoqda.

Xulosa. Maqol, matal, masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli soʻz, tanbeh, mashoyixlar soʻzi, donolar yoki donishmandlar soʻzi, oqinlar soʻzi va otalar soʻzi atamalari bilan el orasida yurgan bu janr namunalari gʻoyat ommaviy boʻlib, umumfolklor hodisasi hisoblanadi.

Maqollar ota-bobolarimizning asrlar davomida toʻplagan hayotiy tajribalarini zamonlar osha yetkazishda ma'naviy koʻprik boʻlib, avlodlarning bir-biriga bogʻlanishida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abdurauf Fitratning maqollar haqidagi qarashlari, ayrim ilmiy kuzatishlari va xulosalari ularning janriy tabiatini oʻrganishda, mazmuni va tuzilishida roʻy bergan oʻzgarishlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb eta oldi.

Xullas, xalq poetik ijodining kichik janri maqol yuqorida biz sanab oʻtgan oʻziga xos xususiyatlari bilan folklor ilmining boshqa janrlaridan farqlanib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. "Oʻqituvchi" 2002
2. Sarimsoqov B. Oʻzbek folklorining janrlari sostavi. Oʻzbek folklori ocherklari. 1-jild. Toshkent. 1988.
3. Xusainova Z. Oʻzbek topishmoqlari. Toshkent. "Fan", 1966.

4. Dilshod Rajabov. O'zbek xalq she'r tuzilishida qofiya va uning unsurlari/ "O'zbek tili va adabiyoti", 2003.
5. Farmon Rayhonov. Xalq ijodi ritm va qofiya /"O'zbek tili va adabiyoti"/1980.
7. Xursand Sharofiddinov O'zbek she'riyatida qofiya va urg'u munosabati "O'zbek tili va adabiyoti", 1998.
8. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. — Toshkent. Fan. 2009
9. Hodimiy X., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. Toshkent.1967
10. O'zbek maqollari. Toshkent. Sharq, 2003.

UDC 808.3

PHONETIC ECONOMY IN THE ENGLISH LANGUAGE: EPENTHESIS, DIAERESIS, METATHESIS AS DERIVATIVES OF ASSIMILATION AND DISSIMILATION

N.S.Kobilova, PhD, associate professor, Bukhara State University, Bukhara
D.T.Yusupova, master student, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. *Til fonetikasi sohasidagi o'zgarishlar ko'pincha talaffuzdagi qulaylik va eshitiladiganda aniqlik o'rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi uchta fonologik jarayon — epenteza, diereza va metateza — kengroq bo'lgan assimilyatsiya va dissimilyatsiya mexanizmlarining natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Diaxron va sinxron yondashuvlar asosida, bu jarayonlarning fonetik tejamkorlikka qanday hissa qo'shishi, artikulyatsion harakatni kamaytirish, talaffuzi og'ir bo'lgan tovush birikmalaridan qochish, va ortiqcha yoki chalkash tovush ketma-ketliklarini yo'qotish orqali tahlil qilinadi. Qadimgi ingliz tili, O'rta davr ingliz tili va Zamonaviy ingliz tilidagi misollar asosida tarixiy korpuslar va zamonaviy lahjaviy nutq kuzatuvlari umumlashtiriladi.*

Kalit so'zlar: *fonetik tejamkorlik, epenteza, diereza, metateza, assimilyatsiya, dissimilyatsiya*

Аннотация. *Фонетические изменения в языке зачастую отражают противоречие между лёгкостью артикуляции и чёткостью восприятия. В данной статье рассматриваются три фонологических процесса в английском языке — эпентеза, диэреза и метатеза — как проявления более широких механизмов ассимиляции и диссимиляции. С использованием диахронического и синхронического подходов исследуется, каким образом эти процессы способствуют фонетической экономии, снижая артикуляционные усилия, избегая труднопроизносимых сочетаний и устраняя избыточные или двусмысленные звуковые последовательности. На материале древнеанглийского, среднеанглийского и современного английского языков обсуждение обобщает наблюдения, полученные из исторических корпусов и данных современной диалектной речи.*

Ключевые слова: *фонетическая экономия, эпентеза, диэреза, метатеза, ассимиляция, диссимиляция*

Abstract. *Phonetic change in language often reflects a tension between the ease of articulation and the clarity of perception. This article examines three phonological processes in English—epenthesis, diaeresis, and metathesis—as outcomes of the broader mechanisms of assimilation and dissimilation. Through a diachronic and synchronic lens, it explores how these processes support phonetic economy by reducing articulatory effort, avoiding difficult clusters, and eliminating redundant or ambiguous sound sequences. Drawing on examples from Old English, Middle English, and Modern English, the discussion synthesizes observations from historical corpora and contemporary dialectal usage.*

Key words: *phonetic economy, epenthesis, diaeresis, metathesis, assimilation, dissimilation*

Introduction. Language is shaped by the twin imperatives of efficiency and clarity. Spoken communication must be both fluent and comprehensible. In phonology, these goals are pursued through two primary mechanisms: assimilation and dissimilation. Assimilation refers to a sound becoming more similar to a neighboring sound, facilitating articulation and continuity. Dissimilation, by contrast, causes a sound to diverge from a neighboring or similar sound to enhance contrast and perceptibility. These underlying pressures give rise to a range of specific phonological processes, including epenthesis (insertion), diaeresis (separation), and metathesis (reordering), which this paper examines. The concept of phonetic economy underpins this discussion: how languages tend to favor

articulatory and perceptual simplicity while maintaining communicative efficiency. By analyzing selected processes across time, this paper contributes to our understanding of English phonological development within the larger typology of sound change. Epenthesis is the insertion of an additional sound, usually a vowel or consonant, within a word. This often occurs to resolve phonotactic constraints, such as complex consonant clusters that are difficult to pronounce. In English, epenthesis is primarily a product of assimilatory pressure: the inserted sound is typically chosen based on the articulatory properties of surrounding sounds. Historically, epenthesis is evident in numerous lexical developments. One well-documented class involves the insertion of a homorganic stop between a nasal and a liquid. For instance, Old English *þunor* became Modern English *thunder*, with an inserted /d/ facilitating the transition between /n/ and /r/. Similar developments occurred with *nimble*, *thimble*, *bramble*, and *spindle*, where the inserted /b/ or /d/ aligns with the place of articulation of the preceding nasal: bilabial /m/ invites /b/, while alveolar /n/ invites /d/. This process can be viewed as the articulators 'resting' at the same location during the transition, creating an audible stop as a byproduct. Modern English also displays epenthesis, particularly in informal or dialectal speech. Speakers may insert a schwa /ə/ to break up awkward clusters, as in 'athlete' pronounced /ˈæθəˌliːt/, or 'film' as /ˈfiləm/. This is often attributed to a tendency toward syllable uniformity and avoidance of complex codas. In other cases, consonantal epenthesis occurs: 'hamster' becomes 'hampster', and 'something' is realized as 'sompthing', where a /p/ appears between /m/ and /θ/. These epenthetic consonants often reflect a blending of adjacent articulatory features. Epenthesis serves phonetic economy by minimizing articulatory difficulty, especially in rapid or casual speech. Although it technically increases word length, the trade-off lies in smoother transitions between segments. As R.L. Trask notes, the process does not introduce random noise but rather improves pronunciation alignment with phonotactic expectations. Furthermore, epenthesis helps preserve prosodic rhythm and sonority sequencing, especially when a cluster violates the sonority hierarchy. Diaeresis, from the Greek diairein meaning 'to divide', is the process of maintaining two adjacent vowel sounds as distinct syllables, rather than allowing them to coalesce. Although diaeresis is rare in everyday English, it plays an important phonological role by preserving vowel distinctiveness in morphologically or etymologically complex words. In orthography, the diaeresis mark (¨) appears in words like 'naïve', 'coöperate', or 'Noël', where it signals the reader not to combine the vowels into a diphthong. Phonetically, this separation helps clarify the morphemic composition of words—e.g., co+operate—as well as avoid unintended elisions. Without diaeresis, 'cooperate' might be pronounced as /ˈkuːprət/ rather than /koʊˈɑːpəˌreɪt/. In spoken language, diaeresis is more frequently encountered in poetic or musical contexts, where syllable count affects meter. For example, the word 'ruined' may be pronounced /ˈruːɪnd/ instead of /ˈruːnd/ to satisfy syllabic requirements. Similarly, 'flower' may be articulated as two syllables in certain poetic contexts. These instances illustrate how diaeresis supports rhythmic and articulatory precision. Diaeresis is also evident in hiatus avoidance strategies in English. To prevent vowel collision at word boundaries (e.g., 'go out'), speakers may insert a glottal stop or a semivowel: [goʔaʊt] or [goʊwaʊt]. While technically epenthetic, the motivation is the same: preventing two vowels from fusing. In non-rhotic dialects, this is often managed with linking or intrusive /r/: 'the idea of it' becomes [ðiaɪˈdɪərəvɪt].

Methodology. The examples and case studies discussed in this paper were selected based on their frequency in authoritative linguistic literature and their illustrative value for the phonological processes in question. Priority was given to examples cited by reputable scholars and sources. Historical sound changes (especially from Old English to Modern English) were drawn from standard works in English historical linguistics. For instance, Richard Hogg's A Grammar of Old English and other historical phonology texts document changes like the reduction of bere-ærn to barn and 'Anglaland' to 'England'. Such sources ensure that Old English examples (e.g., syncope and haplology in compound words) are well-attested. Modern English examples were chosen from observations in phonetics and pronunciation studies (for example, Peter Roach's work on connected speech processes and R.L. Trask's examples of vowel deletion and insertion. Wherever possible,

examples that are widely recognized (such as the silent syllables in Worcester or the metathesis in ask/aks) were included to illustrate each process clearly.

Results. English contains several prominent examples. The word 'bird' developed from Old English 'bridd', and 'third' from 'þridda'. In both cases, /r/ and the vowel switched positions. This may reflect a preference for placing /r/ after a stressed vowel, in alignment with other English words like 'word', 'herd', and 'curd'. The metathesis normalizes the sequence within the lexicon. Another well-known example is 'ask' versus 'aks'. Both forms derive from Old English 'ascian' and 'axian'. Over centuries, the forms alternated in usage, with 'aks' surviving in African American Vernacular English and some British dialects. Linguists note that /ks/ is a stable coda cluster (as in 'box'), while /sk/ may be more marked in final positions, suggesting phonotactic pressures influenced the shift. Metathesis is also common in child language acquisition. Children often produce forms like 'pasketti' for 'spaghetti' or 'aminal' for 'animal'. These are not random but reflect attempts to impose more familiar structures on unfamiliar sequences. Such productions often mirror the metathetic processes found in historical sound change. While many metatheses remain idiosyncratic or dialectal, some become standard.

Discussion. Epenthesis simplifies articulation under assimilatory pressure. Diaeresis enhances perceptual clarity through dissimilation. Metathesis reorganizes sounds for easier pronunciation and processing. Together, they reflect adaptive strategies in spoken English, driven by the need to optimize both speech efficiency and intelligibility.

Conclusion. Epenthesis, diaeresis, and metathesis are phonological strategies that promote phonetic economy, each shaped by the pressures of assimilation and dissimilation. Epenthesis simplifies articulation by inserting helpful sounds; diaeresis preserves vowel clarity by separating potential mergers; metathesis reorganizes sound sequences for ease. Though each operates differently, they all reflect the adaptive tendency of spoken language to favor pronounceability, efficiency, and perceptual distinctness. These processes, found in both historical shifts and contemporary usage, illustrate the dynamic nature of English phonology and its continuous negotiation between speaker effort and listener clarity.

REFERENCES:

1. Algeo, John, and Thomas Pyles. The Origins and Development of the English Language. 5th ed., Thomson Wadsworth, 2005.
2. Campbell, Lyle. Historical Linguistics: An Introduction. 2nd ed., MIT Press, 2004.
3. Crystal, David. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. 6th ed., Blackwell, 2008.
4. Jones, Charles. A History of English Phonology. Longman, 1989.
5. Roach, Peter. English Phonetics and Phonology: A Practical Course. 4th ed., Cambridge University Press, 2009.
6. Trask, R. L. A Dictionary of Phonetics and Phonology. Routledge, 1996.
7. Valipour, Ahmad, and M. H. Salehi. "On the Question of Diaeresis and Haplology of Consonants in Russian and Persian Languages." Polish Journal of Science, no. 53, 2022, pp. 61–63.
8. Van Gelderen, Elly. A History of the English Language. John Benjamins, 2006.
9. Nazarova, N. A. (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system (In Web of Scientist: International Scientific Research Journal, Volume 3, Issue 1, pp. 90-96).
10. Ahrorovna, NN (2022). Study of anthroponyms and their places in the lexical system. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(1), 90-9610.
11. Kobilova, N. S.(2016). Literary interpretation of social psychology in the novel"Martin Eden". Worldscience,4(3(7)), 52-53.
12. Sulaymonovna, Q. N., & Abduxoloqovna, R M. (2023, May). Structure of the linguistic category" characteristics of a human". In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 151-153).
13. Sulaymonbekovna, Q. N., & Raimovna, I. G. (2021). Cognitive dissonance and pragmatic influence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 902-908.8.

UDC 808.3

EVALUATIVE UNITS IN THE ENGLISH LANGUAGE AND THEIR PRAGMATIC FEATURES

N.S. Kobilova, PhD, associate professor, Bukhara State University, Bukhara
M.Sh. Azimova, master student, Bukhara State University, Bukhara

Annotatsiya. *Baholash birliklari muloqot uchun asos bo'lib, ma'ruzachilarga o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini va mulohazalarini bildirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi baholash birliklarining tabiatini va ularning nutq, ishontirish va shaxslararo muloqotdagi rolini o'rganadi. Tadqiqot aniq va yashirin baholash strategiyalarini tekshiradi, ularning kontekstga bog'liq ma'nolarini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *Baholovchi til birliklari, pragmatika, sub'ektivlik, himoyalanish, yumshatish, ironiya, xushmuomalalikni saqlash.*

Аннотация. *Оценочные единицы имеют основополагающее значение для общения, позволяя говорящим выражать мнения, эмоции и суждения. В этом исследовании изучается природа оценочных единиц в английском языке и их роль в дискурсе, убеждении и межличностном общении. В исследовании изучаются явные и неявные стратегии оценки, подчеркивая их контекстно-зависимые значения.*

Ключевые слова: *Оценочные языковые единицы, прагматика, субъективность, хеджирование, смягчение, ирония, поддержание вежливости.*

Abstract. *Evaluative units are fundamental to communication, allowing speakers to express opinions, emotions, and judgments. This study explores the nature of evaluative units in English and their role in discourse, persuasion, and interpersonal communication. The research examines explicit and implicit evaluation strategies, highlighting their context-dependent meanings.*

Key words: *Evaluative language units, pragmatics, subjectivity, hedging, mitigation, irony, maintaining politeness.*

Introduction. Evaluation is a crucial aspect of human communication, enabling individuals to convey approval, disapproval, emotions, and attitudes. In English, evaluative units appear in various forms, from adjectives to more complex structures involving modality, hedging, and discourse strategies like irony or understatement. Understanding evaluative expressions is essential for grasping how language influences social interactions. Evaluative language is not only a means of expressing opinions but also a tool for persuasion, politeness, and maintaining relationships. Evaluative units, the linguistic building blocks that express subjectivity and judgment in language, encompass a wide range of elements from single words to more complex phrases and grammatical structures. They serve as vehicles for conveying a speaker or writer's attitude, opinion, or assessment toward a particular subject. However, the interpretation and impact of these units are not fixed; they are profoundly influenced by their pragmatic features. This means the context in which they are used, the speaker's intent, the audience's expectations, and even considerations of politeness play a crucial role in shaping their meaning. Understanding both the evaluative units themselves and the pragmatic forces that shape their interpretation is essential for comprehending how language is used to express attitudes, persuade others, build relationships, and ultimately, create meaning in social interactions.

Methods. This research employs qualitative linguistic analysis, focusing on:

1. Corpus Analysis: A study of texts from media, literature, and spoken discourse to identify frequently used evaluative expressions.
2. Discourse Analysis: Examination of evaluative expressions in natural communication settings to determine their pragmatic functions.
3. Contextual Analysis: Investigation of how evaluative language changes meaning based on context, tone, and speaker intent.

Results. Types of Evaluative Units in English. The study identified three primary types of evaluative units in English: Lexical Evaluations: Words that explicitly convey judgment, such as adjectives (excellent, awful), adverbs (fortunately, unfortunately), and nouns (success, failure). Ex: Service at the restaurant was terrible, I would not recommend it to anyone. Grammatical Evaluations:

Evaluative meaning expressed through modality (must, should, might), tense, and syntactic structures. Pragmatic Evaluations: Evaluations conveyed indirectly through politeness strategies, irony, understatement, and discourse markers. Ex: I must admit that this is one of the best presentations I've seen. Ex: It was not as impressive as I expected.

Evaluative Strategies in English. Hedging: Softening an evaluation to make it less direct (It's somewhat difficult instead of It's difficult). Ex:This movie seems to be quite well-received by critics. I suppose the project could have been handled more efficiently. Intensification: Strengthening an evaluation (That's absolutely fantastic!). Ex: I strongly believe that this policy will benefit everyone. Ex: This is absolutely the most breathtaking view I've ever seen. Mitigation: Reducing the impact of a negative evaluation (It's not the best option instead of It's a bad option). Ex: His performance in the exam was less than satisfactory. Irony and Understatement: Expressing evaluation indirectly (That was an interesting choice to imply criticism).

Ex:(At a funeral in a heavy rain) What aperfect day for a celebration,don't you think?

Discussion. Subjectivity in Evaluative Language. Evaluative expressions are inherently subjective, as they reflect the speaker's personal perspective. In English, subjectivity is often marked by modal verbs (might, should), adverbs (probably, perhaps), and hedging phrases (I think, in my opinion). These elements allow speakers to adjust the strength of their evaluations and maintain social harmony. Pragmatic Functions of Evaluative Units. Evaluative expressions serve several communicative functions: Expressing opinions: Used in conversation, reviews, and debates. Maintaining politeness: Hedging and indirect evaluation help speakers avoid conflict. Persuasion: Common in advertising, media, and political discourse to shape public perception.

Contextual Influence on Evaluative Expressions. The meaning of evaluative expressions is highly context-dependent. For example, the phrase That's quite good can have different connotations depending on tone and setting. In formal communication, evaluations are often more neutral and polite, whereas in informal speech, they can be more exaggerated or sarcastic. Conclusion.
Evaluative units play a central role in English communication, influencing discourse, persuasion, and social interaction. This study highlights the diverse forms of evaluation, from lexical and grammatical expressions to pragmatic strategies. English speakers frequently use hedging, intensification, and irony to shape their evaluations, with context playing a key role in interpretation.

REFERENCES:

1. Brown, P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.
2. Martin, J. R., & White, P. R. (2005). The Language of Evaluation: Appraisal in English. Palgrave Macmillan.
3. Kobilova, N. S.(2016). Literary interpretation of social psychology in the novel "Martin Eden".Worldscience,4(3(7)), 52-53.
4. Sulaymonovna, Q. N., & Abduxoloqovna, R M. (2023, May). Structure of the linguistic category "Characteristics of a human". In Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes (pp. 151-153).
5. Sulaymonbekovna, Q. N., & Raimovna, I. G. (2021). Cognitive dissonance and pragmatic influence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 902-908.8.
6. Biber, D., & Finegan, E. (1989). "Styles of Stance in English: Lexical and Grammatical Marking of Evidentiality and Affect." Text - Interdisciplinary Journal for the Study of Discourse, 9(1), 93–124.

UO'K 808.5

ABDULLA QAHHORNING "DAHSHAT" HIKOYASIDA SHAMOL DETALI ORQALI "QO'RQUV" SEMASINING AKTUALLASHUVI

D.M. Komilova, o'qituvchi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali, Farg'ona

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matnning tarkibiy elementi hisoblangan detal hususida mulohazalar, unga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e'tirof etish, so'z birikmalari, gap paradigmalari, konseptual jihatdan tahlil qilish borasidagi nazariy masalalar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *badiiy detal, reprezental, tasviriy detallar; aniqlashtiruvchi detal , xarakter, implitsit, badiiy matn, yashirin ma'no.*

Аннотация. *В данной статье описываются теоретические вопросы, касающиеся детали, рассматриваемой как структурный элемент текста, филологического подхода к ней, рассмотрения ее как малого элемента текста, распознавания, словосочетаний, парадигм предложений и концептуального анализа.*

Ключевые слова: *художественная деталь, постоянные, изобразительные, изобразительные детали; уточняющая деталь, характер, неявный, художественный текст, скрытый смысл.*

Abstract. *This article describes theoretical issues regarding the detail, which is considered a structural element of the text, the philological approach to it, viewing it as a small element of the text, recognition, phrases, sentence paradigms, and conceptual analysis.*

Keywords: *artistic detail, constant, representational, descriptive detail; clarifying detail, character, implicit, artistic text, hidden meaning.*

Bizga ma'lumki, matndagi asosiy semantik yuklama so‘z orqali amalga oshiriladi. Matnning semantik tuzilishining asosini semantik ma'nolarni o‘zida ifodalagan leksik birliklar tashkil qiladi. So‘z shunday xususiyatga egaki, u assotsiativlik, metafora va simvolizm xususiyatlariga ega bo‘lgani uchun u kitobxon ongida yangidan yangi tasavvurlarni uyg‘otishga, ko‘rinmas aloqalar, assotsiatsiyalar o‘rnatishga qodir. Erkin Vohidovning "So‘z latofati" kitobida: "Xoliqi olam odamzotga idrok va So‘z aytish ne'matini berib, uni barcha xilqatlardan ustun yaratdi, jonli va jonsiz olamga hokim qildi. Olamni idrok qilgan inson So‘zni idrok qilib olamni yanada teranroq idrok qiladi. So‘zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetganidek bahra topadi. Insoniyat tarixi so‘zlar qismatida yashirinib yotar ekan", degan fikrlarni uchratamiz. Darhahiqat, So‘z so‘zning hissiy ohangini aniqlay oladi, hissiy "zaryad"ni yaqin so‘zlarga tarqatadi, ular boshqa kontekstlarda odatiy bo‘lmagan yangi hissiy tovushga ega bo‘ladi. So‘z so‘zning kaliti hisoblanadi. U orqali idrok, anglash, yangi tasavvur, kechinma kabi jarayonlar vujudga keladi. So‘z orqali yangi bilimlar olinadi.

So‘zdan stilistik maqsadda foydalanish tilshunoslikning alohida sohasini vujudga keltirdi, chunki u neytral elementlarda stilistik imkoniyatlarni "uyg‘otishi", shuningdek, stilistik zaryadlangan til birliklarini zararsizlantirishi mumkin. Bunday hodisa so‘zning semantik tarkibidagi komponentlar o‘rtasida bir vaqtning o‘zida leksik birlikning "o‘zgarmasligi va harakatchanligini" ta'minlovchi tabiiy bog‘lanish mavjudligi sababli amalga oshadi. Qachonki so‘z o‘zining stilistik xususiyatini stilistik maqsadlarda qo‘llanganda uning yangi mazmuniy xususiyati namoyon bo‘ladi. So‘zda ikki komponent – ma'no va ma'no qirralari mavjudir. So‘z kontekstga kirganda maxsus stilistik ma'noning paydo bo‘lishiga olib keladi. So‘zning ma‘nosi - bu yangi individual stilistik imkoniyat, so‘z ma'lum bir iborada, ma'lum bir kontekstda kiyingan intellektual va hissiy ohanglarning o‘ziga xos muhiti ...", deb yozadi V.V. Vinogradov. Ma'noga ega bo‘lgan so‘z stilistik ma'noga ham ega. So‘zning stilistik imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi natijasida stilistik ma'no paydo bo‘ladi. Stilistik ma'no detalning namoyon bo‘lishiga yordam beradi, chunki detalni ifodalovchi leksik birliklar uni faqat kontekstdagina ifoda etadi. Chunki so‘zning stilistik bo‘yoqlari detalni badiiy detal darajasiga ko‘taradi. A.Qahhorning "Dahshat" hikoyasida yozuvchi qahramonning hayajon va tashvishini shamol detali yordamida tasvirlab beradi. Shamol tasviri shunchaki peyzajni to‘ldiruvchi emas. U lingvistik vositalarning stilistik bo‘yoqlari orqali badiiy detal darajasiga ko‘tarila olgan ekstralingvistik vosita. Muallif matnni shunday tuzganki, shamolning bo‘ronli unsurlari tasvirini yaratgan detallar Unsinning ruhiy holatini ham anglashga yordam beradi.

"Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida ***chiyillaydi, g‘uvillaydi****; tomlarda* ***vishillaydi,*** *yopiq eshik va darchalarga* ***bosh urib uf tortadi"***

Ta'kidlangan detallarda "***chiyillaydi, g‘uvillaydi, vishillaydi, bosh urib uf tortadi***" kabi so‘zlar harakatning semantik ma'nosi va leksik-semantik varianti bilan mikrokontekstida amalga oshiriladi

-

Chiyillaydi—ingichka yoqimsiz ovoz chiqarish;

g‘uvillaydi –to‘xtovsiz, davomli tarzda g‘uv-g‘uv ovoz chiqarmoq;

vishllaydi-vish-vish ovoz chiqarmoq;

bosh urib uf tortadi- uflab ovoz chiqarmoq.

Unsin uyiga kirdi, paranji-chimmatini yopindi, qumg'onga suv to'ldirib, choynakka choy soldi-yu, jo'nadi. Ko'r oydin. Osmonning chekkasi sarig' kir uvadaga o'xshaydi. Bu kir shu'la qo'ynida past-baland uylar, shamolda ***egilayotgan, tebranayotgan*** *daraxtlar qop-qora ko'rinadi.* ***Pishqirayotgan*** *shamol* ***har xuruj qilganida*** *Unsinni* ***tentiratar, talay joyga surib tashlar edi.***

Tebranayotgan— biror jismni harakatga keltirmoq,tebranmoq;

Pishqirayotgan—otga o'xshab pishqirib ovoz chiqarmoq;

har xuruj qilganida—bezovta qilmoq, avjiga chiqmoq;

tentiratar—yo'ldan ozdirmoq;

talay joyga surib tashlar edi—bir joydan ikkinchi joyga surib tashlamoq.

Ammo bu so'zlarning aniq ma'nosidan qat'i nazar, kitobxon shamol keltirib chiqarayotgan shovqinni qahramonning qalbidagi hayajon, qo'rqinch va tashvish bilan bog'laydi. Obyektning xususiyatlarini turli xil sinonimlar bilan kelib shamol detali tilining tarkibiy birligi ma'nosini anglaydi, lekin matn tuzilishi bilan o'zaro aloqada bo'lib, yashirin qo'shimcha ma'nolarni aktuallashtiradi.Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan ***esayotgan*** shamolga so'z bermay, ba'zan irg'ishlab borar edi. Esayotgan—havo oqimini yengil harakatga kelishi.Shamol harakati neytal ma'no ifodalovchi so'z bilan ifodalangan bo'lib, sababi Unsinning hayajoni, kayfiyati ko'tarinki holatda, bizningcha, bu yerda detalning salbiy bo'yoq ifodalagan so'zlardan foydalanish joiz emas.

Shamolda *to'lg'anayotgan* tutun aralash alanganing qizg'ish shu'lasidan qorong'ilik lipillab, uzoq-yaqinda do'ppayib turgan go'rlar, xuddi birov tuproqni ko'tarib chiqayotganday harakatga keldi. To'lg'anayotgan—tugruq alomatlaridan biri muallif ustalik bilan shamolning harakati natijasini ushbu so'z bilan ifodalaydi. Bu so'z ifodalayotgan sema ayni bir qo'rqinchli vaziyatga mos tanlab olingandir.

So'zning potentsial imkoniyatlarini amalga oshirish uchun kontekstni tartibga solish kerak[Kolshanskiy 1980].“Stilistik kontekst” (M.Riffater atamasi) so'zning kontseptual va uslubiy imkoniyatlarini kengaytirish, uning yashirin yoki unutilgan semalarini aktuallashtirish yoki neytral birliklarni stilistik aktuallashtirishga qaratilgandir. Shu bilan birga, so'zning ma'lum potentsial imkoniyatlaridan foydalanish muallif nazarda tutgan hatto nazarda tutmagan ma'nolarini ham anglash demakdir. Neytral so'zning stilistik maqsadlarda ishlatilishi kitobxon idrokida qanchalik kutilmagan ma'no ifodalasa, uning stilistik intensivligi shunchalik yuqori bo'ladi. So'zni stilistik aktuallashtirish uchun, qoida tariqasida, butun matnni o'z ichiga olgan til zanjirining kengroq segmenti talab qilinadi.

Stilistik bo'yoqdor so'zlarga nisbatan neytral so'zlardan stilistik maqsadlarda foydalanish katta mazmuniy imkoniyatlarni keltirib chiqaradi. Konteksdagi neytral va emotsional so'zlarning aktuallashuv jarayonini tahlil qilishda turli xil lug'at turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, so'z o'zining emotsional va ekspressiv ma'nosini yuzaga chiqqan vaqtda, qo'shimcha ma'no xususiyatlari ortishi kuzatiladi.

Ikkinchidan, so'zning semantik va stilistik imkoniyatlarni tahlil qilganimizda, uning haqiqiy ma'nosini tubdan o'zgarishi kuzatiladi.

Uchinchidan, stilistik rangga ega bo'lgan so'zlarning stilistik imkoniyatlarini neytral holatda ko'rib chiqish.

Sanab o'tilgan hodisalar semantik jarayonlar asosida sodir bo'ladi, masalan, semalar induksiyasi va qayta taqsimlanishi, semalarning ko'chishi kabi.

Neytral so'zni semantik jihatdan tahlil qilganimizda uning predmet ma'nosi va matn tarkibidagi ma'nosi yuzaga keladi. Semantik ma'no (kontseptual, obyektiv) – so'zga emotsional mazmun beradigan stilistik ma'nodan farq qiladi. So'zning lingvistik talqini paytida lug'aviy ma'no stilistik ma'noga birlashadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградов В. В. Современный русский язык.- Вып. 1.- М., 1938.-267 с.
2. Колшанский Г. В. Контекстная семантика. - М., Наука, 1980. -125 с.
3. Vohidov E. So'z latofati. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.

UO'K 808.5

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ISH HUJJATLARI MATNINING IZOMORF VA ALLOMORF JIHATLARI HAMDA TARJIMA MASALALARI

M.U.Kosimova, o'qituvchi, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ish hujjatlari matnlarining izomorf va allomorf jihatlari tahlil qilinadi. Hujjatlarning turli turlaridagi o'xshashlik va farqlar, leksik, grammatik va sintaktik xususiyatlar tarjimaga qanday ta'sir ko'rsatgani izohlanadi. Tahlil qilishda madaniy farqlar ham hisobga olingan.*

Kalit so'zlar: *hujjatlar, izomorf, allomorf, leksika, grammatika, sintaksis, rasmiy uslub.*

Аннотация. *Статья анализирует изоморфные и алломорфные аспекты текстов официальных документов на узбекском и английском языках. Рассматриваются сходства и различия в лексике, грамматике и синтаксисе, а также влияние этих различий на перевод, с учетом культурных факторов.*

Ключевые слова: *документы, изоморфные, алломорфные, лексика, грамматика, синтаксис, стиль документов.*

Abstract. *The article analyzes the isomorphic and allomorphic aspects of official document texts in Uzbek and English. It discusses the similarities and differences in lexicon, grammar, and syntax, as well as how these differences influence translation, taking cultural factors into account.*

Key words: *documents, isomorphic, allomorphic, lexicon, grammar, syntax, the style of documents.*

Kirish. O'zbek va ingliz tillarida hujjatlar matnini chog'ishtirma qiyoslar ekanmiz, ularning izomorf va allamorf jihatlarini qayd etish va buni tarjima masalalariga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib o'tish zarur. Ikki tildagi ish yuritish hujjatlari matnidagi izomorf xususiyatlar xalqaro standartlar va rasmiy uslubning umumiy jihatlari orqali yuzaga chiqsa, allomorf xususiyatlari esa har bir tilning milliy til sifatida rivojlanishi va madaniyati bilan bog'liqdir. Butun dunyoda hujjat turlari deyarli o'xshash bo'lib, global tarzda davlatlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni ta'minlaydi. Har ikki tilda ham hujjatlarni turli xususiyatlariga ko'ra turlarga ajratish mumkin. Ularning ishlatilish doirasiga ko'ra tasniflaganimizda ikkala tilda ham qonun, biznes, offis, sud, harbiy hujjatlar mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida hujjatlar turlari turli olimlar tomonidan farqlicha ajratiladi. Masalan, M.Aminov, A,Madvaliyev, N.Mahkamov va N.Mahmudovlarning "Ish yuritish" amaliy qo'llanmasida hujjatlarni tasniflash bir necha xususiyatlariga ko'ra amalga oshiriladi [1]. ular hujjatlarni yaratilish o'rni, mazmuni, mazmun bayon shakli, tegishliligi, tayyorlanish xususiyati va xizmat mavqeiga ko'ra turlarga ajratishgan. X.Muhiddinova va D.Xudayberganova [2] ajratib ko'rsatgan hujjatlar tasnifi esa yuqoridagidan farq qiladi: 1. Namunali hujjatlar. 2. Qolipli hujjatlar. 3. Xizmat hujjatlari. 4. Shaxsiy hujjatlar. 5. Tashkiliy hujjatlar. Biz esa hujjatlarni matniy xususiyatlariga ko'ra tasnifladik va ularning qonun, buyruq beruvchi, ma'lumot beruvchi, ishni tashkillashda xizmat qiluvchi va xizmat yozishmalariga ajratdik. Ingliz tilidagi hujjatlar turi ham shunday tasniflanishi mumkin. Ingliz tilida ish yuritishda bir necha xil hujjat turlari mavjud bo'lib, I.R.Galperin ularni umumiy ravishda rasmiy hujjatlar uslubi (the style of official documents) deb ataydi va ularni to'rt turga ajratadi: 1. Biznes hujjatlari. 2. Qonun hujjatlari. 3. Diplomatik hujjatlar. 4. Harbiy hujjatlari [3]. Xizmat yozishmalarining turlari bo'yicha aniq chegara yo'q, ular turlicha manbalarda har xil talqin qilinadi. Ingliz tilidagi yozishmalar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham ularning turlari haqida ma'lumot uchramaydi. Biror bir darslik yoki o'quv qo'llanmada to'xtamli fikr aytilmagan. Ayrim onlayn akademik yozuv kurslaridagina ularing turi va yozilish tartibi batafsil keltirilgan. Masalan, bir manbada rasmiy xatlar turlari quyidagicha beriladi: 1.Savdoni targ'ib qilish uchun xatlar. 2. Ko'rsatma xatlar. 3.Ilova xat (letter of transmittal). 4. Tavsiyanoma. 5. Umumiy biznes xatlar. 6. So'rov xati. 7. Shikoyat. 8.Ariza[4]. Qolgan manbalarda rasmiy xatlarni tijorat xatlari, buyurtma xat, shikoyat xat, shikoyatlarga javoban yoziladigan qoniqtirish xati (adjustment letter), tasdiq xati, so'rov xati, tavsiya va ariza xatlariga bo'linishi

ko‘rsatilgan [5]. Hujjat turlaridagi asosiy farqlar esa ularning janrida ko‘zga tashlanadi. Hujjatlarning turlarini ajratib ko‘rsatish lingvistlarning ishi emasdek ko‘rinsa-da, ularni tasniflash, janrlarini ajratib taqqoslay olish tarjima jarayonini yengillashtiradi va natijada tashkilotlarning xalqaro munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodi. Ushbu ishda biz ilmiy tadqiqotning struktur, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalandik. Ushbu metodlar orqali o‘zbek va ingliz tillarida hujjatlar matnining izomorf va allamorf jihatlari va ularning tarjima masalalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan.

Natija va tahlillar. Ikki tildagi ish yuritish hujjatlari matnidagi izomorf xususiyatlar xalqaro standartlar va rasmiy uslubning umumiy jihatlari orqali yuzaga chiqsa, allomorf xususiyatlari esa har bir tilning milliy til sifatida rivojlanishi va madaniyati bilan bog‘liqdir. Ularning o‘xshash va farqli tomonlarini bir necha aspektda ko‘rsatib o‘tamiz.

Rasmiy uslubni ta’minlovchi leksik vositalar. O‘zbek va ingliz tillaridagi hujjatlar matni izomorf xususiyatlari asosan ularda ishlatiladigan leksik vositalarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Har ikki tilda ham rasmiylikni ifodalovchi so‘zlar qatlami mavjud bo‘lib, ular asosan rasmiy doirada og‘zaki va yozma tarzda foydalaniladi. Rasmiy uslub leksikasi turli soha terminlari, o‘zlashma so‘zlar, ba’zida arxaik so‘zlardan iborat bo‘lib, bu uslubning shakllanishi yillar davomida hujjatchilikning rivojlanishiga davlatchilikning ta’siri bilan bog‘liq. Hujjatchilikning umumstandartlar asosida shakllangani yoki lotin tilidagi ko‘plab so‘zlarning yevropa tillari orqali boshqa tillarga tarqagani sababli ikkala tildagi hujjatlarda turli o‘xshash o‘zlashma so‘zlar uchraydi. Ba’zi so‘zlar esa o‘zlashish jarayonida o‘zgarishlarga uchrab, ikki tilda ma’nosi farq qiladi. Tillardagi o‘zlashma so‘zlar ulushi qaysi tilga tegishliligi farq qilishi esa siyosiy-tarixiy jarayonlar oqibatidir. Davlat boshqaruvida ma’lum muddat fransuzlar turgani ingliz tilidagi hujjat matnlarida fransuzcha so‘zlarning ko‘payishi va saqlanib qolishiga, rus davlatchiligi ta’siri o‘zbek tilidagi hujjat matnlarining rus hujjatlari qolipida shakllanishiga sabab bo‘lgan. Ikki tildagi hujjatlar matni leksikasida ma’lum farqlar ham mavjud. Kundalik hayotimizda faol ishlatiladigan ba’zi so‘zlar terminlashib hujjatlar tiliga moslashib qolishi mumkin. O‘zbek tilida bunday so‘zlar miqdori ko‘p emas, lekin ingliz tilida bir qancha terminlashgan so‘zlarni uchratish mumkin. Shuningdek, o‘zbek tilidagi hujjat matnlarida arxaik so‘zlar deyarli ishlatilmaydi, ingliz tilida esa qat’iy va faol ishlatiluvchi arxaik ravishlar mavjud (hereby, thereafter, hereon, etc). Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda bu so‘zlar faqatgina hujjatlarda ishlatilayotgani sababli ulardan foydalanish darajasi juda pastlab ketgan [6]. Ushbu ravishlarning hujjatlar matnida ishlatilishi o‘zbek tiliga tarjima qilishni biroz murakkablashtiradi.

NOW IT IS HEREBY AGREED AS FOLLOWS: a) This agreement will come into effect from and will remain in force up to or unless it is terminated as per the terms hereinafter contained. (from a contract) - *ENDI QUYIDAGILAR KELISHIB OLINDI: a) Ushbu kelishuv imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va quyida keltirilgan shartlarga muvofiq bekor qilinmaguncha o‘z kuchini saqlab qoladi.* Ushbu gapda *hereby quyidagi* deb tarjima qilindi. Lekin ba’zida ushbu so‘z tarjima qilinmaydi: *Seller hereby sells and shall transfer on Closing Date and accordingly, Purchaser hereby purchases and shall accept on Closing Date the Shares.* (from a contract) - *Sotuvchi shu bilan Yakunlash sanasida Aksiyalarni sotish va topshirish majburiyatini oladi, hamda shunga muvofiq, Xaridor ularni Yakunlash sanasida sotib olish va qabul qilish majburiyatini zimmasiga oladi.*

Ikki tildagi hujjat matnlari farqini ularda uchraydigan qisqartma so‘zlarda ham ko‘rish mumkin. O‘zbek tilidagi hujjatlar matnida ularning soni cheklangan bo‘lib, ingliz tili hujjatchiligida ularni har qanday hujjatda uchratish mumkin. Abrevatsiya, akronim va klippinglar hujjatlarda faol ishlatilishiga sabab, ular mazmunni aniq va tushunarli yetkazishga yordam beruvchi vositalar hisoblanadi, har bir kishi xabarni to‘g‘ri talqin qilishini ta’minlaydi. Ingliz tilidagi hujjatlar matni sinonim so‘zlarni yonma-yon yoki juft tarzda ishlatilishi va ko‘p ma’noli so‘zlarning qo‘llanilishi bilan ham o‘zbek tilidagi hujjat matnlaridan farqlanadi.

Grammatik xususiyatlar. O‘zbek va ingliz tilidagi hujjatlar matnida izomorfik jihatlarni rasmiy uslubning umumiy talablaridan kelib chiqqan holda tahlil qilish mumkin. Grammatik jihatdan tahlil qilganda Majhul nisbat(Passive Voice)dan foydalanish, matnning 1-va 3shaxsda yozilishi, uyushiq bo‘laklarning faolligi, bir xil kirish so‘z va undalmalardan foydalanishi bilan ikki tildagi hujjatlar

matni o‘xshash. Shuningdek, hujjat matnida qo‘llanadigan fe’l zamonlari ham o‘xshash bo‘lib, har ikki tilda ham hozirgi-kelasi va o‘tgan zamonlar faol hisoblanadi. Bu hujjatlarning vazifasi bilan bog‘liq bo‘lib, ma’lumot beruvchichi hujjatlarda o‘tgan zamon, boshqa hujjatlarda hozirgi-kelasi zamon ko‘p ishlatilishini ko‘rish mumkin. Hujjatlar matnidagi allamorf jihatlar tillarning grammatik xususiyatlarida ham ko‘rish mumkin. Misol uchun, buyruqlarning ifodalanishi o‘zbek tilida majhul nisbatning 3-shaxs buyruq-istak maylidagi -sin qo‘shimchasini qo‘llash orqali amalga oshirilsa *(tayinlansin, qabul qilinsin kabi*), ingliz tilida aniq yoki majhul nisbatdagi oddiy hozirgi zamon fe’li (Active or Passive Present Simple) orqali ifodalanadi *(... is resolved, ... is adopted, adopts* kabi). Shuningdek shaxs-sonning gaplarda aks etishida ham ma’lum farqlar mavjud bo‘lib ular har bir tilning xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Masalan, o‘zbek tilida shaxs olmoshlari odatda tushib qoladi. Buning sababi fe’lda shaxs-son qo‘shimchasi ishlatiladi. Lekin ingliz tilida shaxs-son qo‘shimchasi bo‘lmaganligi sababli, shaxs olmoshlari hech qachon tushib qolmaydi. Bu narsa hujjatlar matnida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bunday farqlarning asosiy sababi bu ikki tilning boshqa til oilalariga mansubligi bo‘lib, o‘zbek tili aglyutinativ, ingliz tili esa flektiv til hisoblanadi.

Sintaktik jihatlari. Hujjatlar matnida so‘z birikma va gaplarni tahlil qilish orqali ularda ham umumiy va farqli jihatlar mavjudligi aniqlandi. Hujjatlar matnidagi sintaktik izomorf xususiyatlar asosan murakkab gaplardan foydalanishda ko‘rish mumkin. O‘zbek va ingliz tilidagi hujjatlar matnida qo‘shma va murakkab gaplar faol hisoblanib, hujjatlar janriga qarab turlicha ishlatilishi mumkin. Ikki tilda ham hujjatlar matnida sabab va shart ergash gaplar ko‘p ishlatilishi hujjatlarning ekstralingvistik xususiyatlaridan biri, hujjatning maqsadi bilan bog‘liq. Farqli jihatlar asosan gaplarning sintaktik bog‘lanishida ko‘zga tashlanadi. Ya’ni ingliz tilida gapdagi so‘z tartibi SVO - Subject-verb object (ega –fe’l-to‘ldiruvchi), o‘zbek tilida esa SOV-ega-to‘ldiruvchi-fe’l qolipida ishlatiladi. Bu qoida hujjatlarda ham amal qiladi. Shuningdek, so‘z birikmalarining bog‘lanish uslubi ham o‘xshash bo‘lib ingliz tilida asosan so‘z tartibi va predloglar orqali bog‘lanadi. Ularning allomorf tomoni esa aglyutinativ tillarga xos kelishikli bog‘lanish bilan harakterlanadi.

Xulosa. Yuqorida sanab o‘tilgan jihatlar hujjatlar tarjimasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatlar matnini tarjima qilish tarjimondan nafaqat til bo‘yicha yetarli bilim, shu bilan birga hujjatchilikni va turli sohalarni tushunishni talab etadi. Chunki hujatlarning turli sohalarga oid bo‘lishi uning tarjima jarayonini yanada murakkablashtiradi. Masalan, tashkilotlararo, tashkilot va ishchi, mijoz va tashkilot o‘rtasida, shuningdek sudga yozilgan xatlar mavjud. Ularning strukturasi o‘xshash bo‘lsada, ularda ishlatiladigan leksika bir-biridan tubdan farq qiladi va bu tarjimaga ta’sir ko‘rsatadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi hujjatlar matni o‘zaro tarjima qilinganda yuqoridagi jihatlarni e’tiborga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O‘zbekiston. 2020, – B.21-24.

2. Муҳиддинова Х., Худойберганова Д., Умиров И. Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Т.: “Ўқитувчи”, 2006. Б 133

3. Галперин И.Р. Стилистика английского языкаю. – М.: Высшая школа, 1977. – С.312.

4. https://www.ebookbou.edu.bd/Books/Text/SOB/pgdm/pgdm_2305/Unit-02.pdf.

5. https://work.chron.com/10-types-business-letters-9438.html

6. https://www.etymonline.com/word/hereby

7. https://www.lawinsider.com/clause/contract-text

8. https://weagree.com/clm/contracts/contract-wording/hereby

UO’K 808.5

THE ASPECTS OF APPEARING AND FORMING RETRONYMS IN LANGUAGE

M.K.Kudratova, teacher, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara

Annotatsiya. *Ushbu maqola retronimlarning tildagi hodisasi, ularning shakllanishi, vazifasi va ahamiyati o‘rganiladi. Retronimlar - bu mavjud so'z texnologik taraqqiyot yoki boshqa madaniy o'zgarishlar tufayli noaniq bo'lib qolganda paydo bo'ladigan neologizmlardir. Ular asl so‘zning yangi versiyadan yoki tegishli ob'ektdan ajratish uchun xizmat qiladi.*

Kalit so’zlar: *neologizmlar, retronimlar, aralashtirish, qisqartirish, birlashtirish.*

Аннотация. *В этом обзоре рассматривается феномен ретронимов в языке, рассматривается их формирование, функция и значение. Ретронимы — это неологизмы, которые возникают, когда существующее слово становится двусмысленным из-за технологических достижений или других культурных сдвигов. Они служат для того, чтобы отличить исходное слово от более новой версии или связанной сущности.*

Ключевые слова: *неологизмы, ретронимы, смешение, аббревиатура, объединение.*

Abstract. *This review explores the phenomenon of retronyms in language, examining their formation, function, and significance. Retronyms are neologisms that arise when an existing word becomes ambiguous due to technological advancements or other cultural shifts. They serve to distinguish the original word from a newer version or related entity.*

Key words: *neologisms, retronyms, blending, acronym, combining.*

Introduction. A retronym is a type of neologism, specifically a word created because a change has occurred that necessitates distinguishing the original objector concept from a new one.[1] The emergence of new products and technologies often leads to the creation of retronyms to differentiate older versions from their modern counterparts. The classic example is "acoustic guitar," which only became necessary after the invention of the electric guitar. Similarly, "analog watch" emerged to distinguish traditional watches from digital ones. The term "snail mail" is now used to refer to traditional postal service, due to the advent of email, which is much faster.

Retronyms are distinct from other word formation processes such as compounding, blending, and acronyms, although some overlap may occur. Compounding involves combining two or more existing words (e.g., "keyboard-to-screen")[2], while blending merges parts of two words (e.g., "brunch"). Acronyms are formed from the initial letters of a phrase (e.g., "OVD" for ophthalmic viscosurgical devices)[3]. Retronyms typically emerge in response to technological or cultural changes that create ambiguity in existing terms. As new innovations enter the lexicon, the original terms may become inadequate to describe the original concept without risking confusion. Technological advancements are a primary driver of retronym formation. The introduction of digital cameras led to the use of "film camera" to specify the older technology. Similarly, the rise of electric cars has prompted the use of "gasoline car" or "internal combustion engine car" to differentiate traditional vehicles.

Cultural shifts can also lead to the development of retronyms. For example, the rise of "non-dairy milk" alternatives like almond milk and soy milk has led to the use of "cow's milk" to specifically denote the original product. Similarly, the increasing prevalence of online courses has resulted in the term "face-to-face classes" to describe traditional in-person education. Retronyms serve several important functions in language, including clarification, historical context, and highlighting change. The primary function of a retronym is to clarify which version of an object or concept is being referenced. This is particularly important when the newer version has become more common or dominant. By using a retronym, speakers and writers can avoid ambiguity and ensure that their audience understands the intended meaning. Retronyms can also provide historical context by reminding users of a time when the original object or concept was the only one available. They highlight the evolution of technology and culture, and can evoke a sense of nostalgia or historical awareness. The use of a retronym can also serve to emphasize the magnitude of change that has occurred. By creating a new term to differentiate the old from the new, speakers and writers draw attention to the significant differences between them. This can be particularly effective in highlighting the impact of technological advancements or cultural shifts.

Retronyms can be found in various domains, reflecting the diverse ways in which language adapts to change. In technology, retronyms are common due to the rapid pace of innovation. Examples include "analog television" (vs. digital television), landline phone" (vs. mobile phone), and "floppy disk" (vs. USB drive). In music, the emergence of electronic instruments led to the use of retronyms such as "acoustic drums" and "acoustic piano" to differentiate traditional instruments from their electronic counterparts. In communication, the rise of digital media has resulted in retronyms like "snail mail" (vs. email), "print newspaper"(vs. online newspaper), and "brick-and-mortar store

(vs. online store). In the realm of food and beverages, cultural shifts have prompted the use of retronyms like "cow's milk" (vs. almond milk), "regular coffee" (vs. decaf coffee), and "cane sugar" (vs. beet sugar).

The need for precise language in scientific and technical fields also drives the formation of retronyms. In medicine, new terminology often emerges to reflect advancements in understanding and treatment. For example, the term "ophthalmic viscosurgical devices (OVDs)" was created to classify devices used in eye surgery. As technology evolves, older methods or devices may be distinguished using retronyms. In computer science, the rapid pace of technological change necessitates the creation of new terms and retronyms. The development of new programming paradigms or hardware architectures often leads to the use of retronyms to differentiate older technologies. Other scientific disciplines also use retronyms to distinguish between older and newer concepts or technologies. This ensures clarity and precision in scientific communication.

The formation and use of retronyms is a natural part of language evolution, reflecting the dynamic nature of human communication[4]. As societies and technologies change, language adapts to meet new communicative needs.

Language is constantly evolving to reflect changes in society, technology, and culture. New words are coined, old words acquire new meanings, and grammatical structures shift over time. Retronym formation is one mechanism through which language adapts to change.

Neologisms, or newly coined words, are an essential part of language evolution They arise to describe new objects, concepts, or phenomena. Retronyms are a specific type of neologism that emerges in response to the need to differentiate between old and new versions of something. The evolution of language can also be viewed through the lens of information theory as the complexity of the world increases, language must adapt to efficiently convey information. Retronyms help to reduce ambiguity and ensure that communication remains clear and effective. While retronyms serve important functions, they can also present certain challenges. Not all retronyms gain widespread acceptance or usage. Some may be considered awkward or unnecessary, and may not be adopted by the broader language community. The success of a retronym depends on various factors, including its clarity, usefulness, and social acceptance. In some cases, retronyms may overlap with jargon or specialized terminology. This can create confusion if the retronym is not widely understood outside of a particular field or community. Some retronyms may be temporary, disappearing once the newer version becomes dominant or the original version fades into obscurity. This reflects the dynamic nature of language and the changing relevance of certain distinctions.

Conclusion. Retronyms are a fascinating aspect of language, reflecting the dynamic interplay between language, technology, and culture. They arise in response to the need to differentiate between older and newer versions of objects or concepts, and serve important functions in clarification, historical context, and highlighting change. While not all retronyms gain widespread acceptance, they play a valuable role in language evolution and communication. Further research could explore the cognitive processes involved in retronym comprehension and the social factors that influence their adoption and usage. The study of retronyms provides insights into how language adapts to the ever-changing world around us.

REFERENCES:

1. Connor, Richard J., Durkin, Sarah, Cohen, Joanna E, Barnoya, Joaqun, Henriksen, Lisa, Hill, Sarah, and Malone, Ruth E.. 2021. "Thoughts on neologisms and pleonasm in scientific discourse and tobacco control". BMJ. https://doi.org/10.1136/tobaccocontrol-2021-056795

2. Jucker, Andreas H. and Drscheid, Christa. 2012. "The Linguistics of Keyboard-to-screen Communication: A New Terminological Framework". University of Bern. https://doi.org/10.13092/lo.56.255

3. Arshinoff, Steve A.. 2000. "New terminology: Ophthalmic viscosurgical devices". Lippincott Williams & Wilkins. https://doi.org/10.1016/s0886-3350(00)00450-8

4. Wolters, M. and Bosch, Antal Van Den. NaN. "Workshop Notes of the ECML/MLnet Workshop on Empirical Learning of Natural Language Processing Tasks". None. https://doi.org/None

UO'K 81-13

XORAZM DOSTONLARI TILI LEKSIKASINI O'RGANISH AHAMIYATI

B.K.Kurbanova, o'qituvchi Urganch Ranch texnologiya universiteti, Urganch

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xorazm dostonlari tilining leksik xususiyatlari, uning o'ziga xosligi va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Xorazm dostonlari tilining leksik birliklari, ularning tarixiy, madaniy va tilshunoslik jihatlari muhokamaga tortiladi. Dostonlarning og'zaki xalq ijodining eng muhim shakli sifatida tahlil qilinishi, xalq tilining saqlanishi va rivojlanishidagi o'rni, leksik vositalarning ma'noviy qiymati ta'kidlanadi. Shuningdek, dostonlar tilining zamonaviy tilshunoslikdagi tadqiqi o'rganilgan. Maqola dostonlar tilining boyligini, uni o'rganishning zarurligini va yosh avlodga meros sifatida yetkazish ahamiyatini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: dostonlar leksikasi, sinonim, antonim, tilshunoslik, madaniyatshunoslik*

Аннотация. *В данной статье анализируются лексические особенности языка хорезмского эпоса, его уникальность и культурное значение. Рассмотрены лексические единицы языка хорезмского эпоса, их исторические, культурные и лингвистические аспекты. Подчеркивается анализ эпосов как важнейшей формы устного народного творчества, их роль в сохранении и развитии национального языка, духовная ценность лексических средств. Также изучается вклад эпического языка в современную лингвистику. В статье показано богатство языка былин, необходимость его изучения и важность передачи его подрастающему поколению в качестве наследия.*

Ключевые слова: *эпическая лексика, синоним, антоним, языкознание, культурология.*

Abstract. *This article analyzes the lexical features of the language of Khorezm epics, its uniqueness and cultural significance. Lexical units of the Khorezm epics language, their historical, cultural and linguistic aspects are considered. The analysis of epics as the most important form of oral folk art, their role in the preservation and development of the national language, and the spiritual value of lexical tools are emphasized. Also, the contribution of epic language to modern linguistics is studied. The article shows the richness of the language of epics, the need to learn it and the importance of passing it on to the younger generation as a legacy.*

Key words: *epic lexicon, synonym, antonym, linguistics, cultural studies*

Xorazm, tarixiy va madaniy jihatdan o'ziga xos bo'lgan hududlardan biridir. Bu hududda xalq ijodi, ayniqsa dostonlar, kuchli rivojlangan. Xorazm dostonlari – o'zining she'riyati, leksik boyligi, xalqning hayoti va urf-odatlarini aks ettiruvchi muhim manbalardir. Xalq og'zaki ijodi orqali tilning rivojlanishi, uning leksik xususiyatlari va tili to'g'risidagi bilishimizni chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Xorazm dostonlarida tilning leksik xususiyatlari, uning ahamiyati va xalq madaniyatining shakllanishidagi roli alohida o'rin tutadi. Dostonlar tilining o'rganilishi nafaqat tilshunoslar, balki madaniyatshunoslar va tarixchilar uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun Xorazm dostonlari tili leksikasini chuqur o'rganish, uning madaniy merosni saqlashda va yosh avlodga yetkazishda muhim o'rin tutadi.

Xorazm dostonlarining tili va leksik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqsadimiz – Xorazm dostonlarining leksik boyligini aniqlash, ularning tilshunoslik va madaniyatshunoslikda o'rnini ko'rsatishdir. Xususan, Xorazm dostonlari o'zbek adabiyotining qimmatbaho asarlaridan biridir va ko'plab xalq og'zaki ijodi namunalarini o'z ichiga oladi. Xorazm dostonlariga misollar sifatida «Oshiq G'arib va Shoxsanam'', «Edigo, «Sayyod va Hamro'', «Malikayi Zavriyo'' va boshqa ko'plab dostonlarni keltirish mumkin. Bu dostonlar xalq qissalari va afsonalari bo'lib, ularda azaliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy voqealar aks ettiriladi.

Ilmiy muhokamalarga kelsak, Xorazm dostonlari va ularning mazmuni, tarixi, badiiy qiyofasi, ayniqsa, xalq og'zaki adabiyotining o'rni va ahamiyati haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Tadqiqotchilar tomonidan bu dostonlarning mantiqi, struktura jihatdan tahlili, ularning estetikasi va etnografik jihatlari ko'p o'rganilgan.

Bu borada quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan: Xorazm dostonlaridagi leksik birliklarni tahlil qilish.

Dostonlar tili va uning leksik tarkibidagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlash. Dostonlarning madaniy va tarixiy ahamiyatini ko‘rsatish. Dostonlar tilining zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi ahamiyatini baholash. Xorazm dostonlari tili, o‘zining noyob va boy leksik tarkibi bilan, xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Ularning leksikasi tilshunoslikda katta ahamiyatga ega, chunki dostonlar orqali xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, qadriyatlari, ehtiroslari va tilning rivojlanish jarayoni o‘rganiladi. Shu bilan birga, Xorazm dostonlari tilining leksik xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunda milliy til va madaniyatni saqlash va rivojlantirishda muhim vazifani bajaradi.

Xorazm dostonlari xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lib, uning tilidagi leksik birliklar bugungi kunda ham zamonaviy tilga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa mavzuning dolzarbligini oshiradi. Xorazm dostonlari nafaqat adabiyot, balki xalqning tarixi va madaniyatining asosi sifatida qadrlanadi. Dostonlar o‘zida o‘rta asrlarning ijtimoiy hayotini, urf-odatlarini, qadriyatlarini saqlagan. Xorazm dostonlari tili o‘zining boy va rang-barang leksik tarkibi bilan ajralib turadi. Dostonlar tilida ishlatilgan so‘z va iboralar xalqning ko‘plab turli qatlamlari, shuningdek, turli davrlarida bo‘lgan o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Xorazm dostonlari epik janri o‘zining she’riy va og‘zaki shakllari bilan, o‘ziga xos leksik boylikka ega. Dostonlar tili xalqning tarixiy va madaniy an’analari, urf-odatlari, hayot tarzini ifodalovchi, xalqning ko‘plab dialektal qatlamlarini o‘zida mujassam etgan bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Dostonlar tilining leksik xususiyatlari xalqning dunyoqarashi, uning qadriyatlari va hayotga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Ushbu leksik xususiyatlar dostonlarning badiiy ifoda ta’siri, tasvirlash vositalari va ifodaviy imkoniyatlarini yanada boyitadi.

Xorazm dostonlari tilining asosiy leksik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz: **Boy va rang-barang leksik tarkib**. Xorazm dostonlarining tilida juda boy va rang-barang leksik birliklar mavjud. Bu birliklar xalqning kundalik turmush tarzini, urf-odatlarini, qadriyatlarini aks ettiradi. Dostonlar tilidagi so‘zlar va iboralar xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini, til va madaniyatining rivojlanish darajasini ko‘rsatadi. Dostonlarda ishlatilgan so‘zlar ko‘pincha turli qatlamlarga, masalan, qishloq va shahar ahliga, ishchi va ziyoli tabaqalarga xos bo‘lishi mumkin. Masalan, dostonlarda ishlatilgan «yigit» [1], «mard», «sodiq», «xushbichim» kabi so‘zlar, nafaqat qahramonlar obrazini yaratishda, balki o‘sha davrning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega.

1.Ko‘p ma’noli so‘zlar. «Dostonning turkman va qoraqalpoq versiyalari hajmi jihatdan bir biriga ancha yaqin. Ular qo‘lyozma manbalar asosida nashrga tayyorlanganligi sababli uslub va til jihatidan mumtoz adabiyotga tegishli asarlarga ko‘proq o‘xshaydi. Turkmancha versiyada fantastika, romantik bo‘yoqdorlikning salmog‘i juda kuchli’ [2]. Dostonlar tilida ko‘pincha ko‘p ma’noli so‘zlar ishlatiladi. Bu so‘zlar, bir necha xil ma’nolarda ishlatilishi orqali dostonning ifodaviy kuchini oshiradi. Masalan, «quvvat’’, «vatan’’, «muhabbat» kabi so‘zlar dostonlarda nafaqat ma’lum bir narsani ifodalash uchun, balki qahramonning ichki hissiyotlari, kurashdagi ruhiy holatini aks ettirish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, bunday so‘zlar dostonning dramatik va emotsional ta’sirini kuchaytiradi.

2. Sinonimlar va antonimlar. Dostonlar tili o‘zining sinonimlar va antonimlar boyligi bilan ajralib turadi. Sinonimlar, ya’ni bir xil ma’no ifodalovchi so‘zlar, dostonning she’riyligini oshiradi va hikoyaning ifoda kuchini kuchaytiradi. Masalan, «qo‘rqish’’ va «yuragi titrash’’, «ishonch’’ va «umid’’ so‘zlarining sinonimlari dostonlardagi dramatik ziddiyatlarni va qahramonlarning ichki kurashlarini yanada yorqinroq ko‘rsatadi. Antonimlar, ya‘ni qarama-qarshi ma’nolardagi so‘zlar esa dostonlarning badiiy tasvirlarini kuchaytiradi. «Yaxshi» va “yomon, “adolat” va “zo‘ravonlik” kabi antonimlar dostonning asosiy qarama-qarshiliklarini, shuningdek, qahramonlarning yuksak axloqiy qiymatlari va kurashlarini ifodalashda ishlatiladi. Xorazm dostonlari, o‘zining leksik boyligi orqali xalqning madaniy merosini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu dostonlar orqali o‘rganilgan so‘zlar va iboralar, xalqning qadriyatlarini va tarixini aks ettiradi. Xorazm dostonlarining leksikasi, nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarixshunoslik nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Dostonlar tarixiy va madaniy jarayonlarni tasvirlash orqali xalqning tarixiy xotirasini saqlashga yordam beradi. Xorazm dostonlari o‘z vaqtida yuzaga kelgan muhim ijtimoiy, siyosiy va madaniy

hodisalarni, qahramonlik kurashlarini va xalqning axloqiy qadriyatlarini yoritadi. Dostonlar orqali xalqning qahramonlik, sadoqat, sevgi, shon-sharaf va adolatga bo‘lgan munosabati ifodalanadi. Xorazm dostonlari nafaqat xalqning badiiy merosi, balki xalqning tarixiy kechmishining guvohnomasi sifatida ham xizmat qiladi. Ular milliy va madaniy jihatdan qadrlanadi, chunki ular o‘z davrining madaniy, iqtisodiy, siyosiy hayotini tasvirlashda katta ahamiyatga ega. Tarixiy shaxslar, janglar, davlatlararo aloqalar va xalqning turmush tarzini aks ettiruvchi dostonlar xalq tarixining qimmatli manbalari bo‘lib, kelajak avlodlarga bu voqealarni yetkazib beradi. Buni "Malikayi Zavriyo" dostonida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

"Kofirlar shahrina dolon solinglar". Bu ibora doston yoki xalq she'riyatida qahramonning **dushmanlarga qarshi kurashish** niyatini bildiradi. «Kofirlar shahri'' islom dini va madaniyatiga qarshi kurashayotgan, tahdid solayotgan begona kuchlarni ifodalash uchun ishlatiladi. "Dolon solinglar" esa, shaharga kirish yoki dushman bilan yuzma-yuz kelish, ularga qarshi harakat qilish ma'nosida ishlatiladi. Bu yerda **qahramonning qarshi kurashishga bo‘lgan istagi**, uning **ajoyib va yuksak maqsadlari** ko‘rsatilgan. **"Dolon** (dolon) — bu [usti yopiq yo‘lak; daxliz shev]Darvozadan hovli ichkarisigacha qurilgan , ikki tomoni devor, usti yopiq, keng yo‘lak'' [3] so‘z ko‘pincha "yuzaga chiqish", "harakat qilish" yoki "yurish" ma'nosida ishlatiladi. Boshqa so‘z bilan aytganda, bu yerda "dolon solish" deganda, shaharga kirish, tashrif buyurish, o‘tkazish ma'nosi nazarda tutiladi.

Metaforik ma'no: Dolon so‘zi ba'zan **hayot yo‘li**, **yo‘ldosh** yoki **maqsad sari harakat qilish** kabi metaforik ma'nolarda ham ishlatilishi mumkin. Bunda, doston yoki she'rda insonning maqsadga erishish uchun qilgan harakati yoki **yo‘l**ni ifodalovchi obraz sifatida ishlatiladi. "Dolon solish" iborasi nafaqat jismoniy yo‘lni, balki ruhiy va ma'naviy safarni ham anglatishi mumkin. **Dialektik o'zgarishlar**: "Dolon" so'zi, ba'zi mintaqalarda yoki dialektlarda boshqacha shakllarda ishlatilishi mumkin. Masalan, ba'zi o‘rta asr yoki qadimiy adabiyotda bu so‘z "yo‘l" yoki "yurish" kabi so‘zlar bilan almashtirilgan bo‘lishi mumkin. "Hech vaqt ilgari egri og‘och to‘g‘ri bo‘lmas deb, shamshirini chiqarib andog‘ urdikim, voh bolam deb yetti marta yumalandi….. Bu yerda "egri og‘och" (egri yo‘g‘och) metaforik tarzda ishlatilgan bo‘lib, noaniq yoki yomon yo‘lni ifodalaydi, "to‘g‘ri" esa haqiqiy va to‘g‘ri yo‘ldir. Maqsad shuki, agar biror narsa yoki ish noto‘g‘ri boshlanib ketgan bo‘lsa, u hech qachon to‘g‘ri bo‘lishi mumkin emas, ya'ni xato qilishdan qaytish qiyin [1]'. Bu gapni leksik jihatdan tahlil qilsak, "Og‘och" so‘zi ba'zan **metaforik ma'no** tarzda ham ishlatiladi. Masalan, "egri og‘och" ifodasi, biror narsaning yoki holatning noto‘g‘ri yoki buralganligini bildiradi. "To‘g‘ri bo‘lmas" iborasi bilan birgalikda ishlatilganda, bu ma'noda hayotda ba'zi narsalar yoki odamlar egri bo‘lsa, ularni to‘g‘rilash qiyinligini bildiradi.

Dialektik o‘zgarishlar "Og‘och" so‘zi ba‘zi mintaqalarda yoki dialektlarda boshqa so‘zlar bilan almashtirilishi mumkin, masalan, ba‘zi joylarda "yog‘och" yoki "daraxt" so‘zi o‘rnida ishlatiladi. Bu o‘zgarishlar hududlar kesimidagi muloqot tilida turlicha bo‘lishi mumkin.

Leksik semantika "Og‘och" so‘zi, bir tomondan, tabiiy materialni ifodalasa, boshqa tomondan, u odamlar tomonidan ishlov berilishi va ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan material sifatida ham tushuniladi. Misol uchun, og‘ochdan turli buyumlar, mebellar, vositalar va boshqalar tayyorlanadi. Bu so‘zning semantik doirasi juda keng. **Masalan,** "Alif qaddim g‘am uyinda yoy emdi" [1] "Alif " so‘zi arab alifbosining birinchi harfi bo‘lib, adabiyotda ko‘pincha boshlang‘ich yoki boshqaruvchi element sifatida ishlatiladi. Bu yerda "Alif " so‘zi biror boshlanish, boshlang‘ich nuqtani, harakat yoki jarayonni anglatishi mumkin. "Alif " orqali avvalgi holatlar yoki vaqtlar bilan bog‘lanish ko‘zda tutilgan. Bu ibora, ehtimol ichki qayg‘u yoki yo‘qotishning boshlanishini tasvirlaydi. «Alif» so‘zi bu harakatda qadam tashlashning boshlanishini bildiradi, 'Alif qaddim' iborasi «g‘am uyinda« esa qayg‘u yoki ichki g‘amgin holatning yo 'qolishini bildiradi. Natijada bu holat biror muammoli yoki qayg‘uli vaziyatning yakunini anglatadi. " -Ey kanizlar, bu o‘g‘longa bosh -oyoq sarupo birlan bir chanoq tillo bering, -dedi." [1] "Chanoq" — so‘zi o‘zbek tilida kichik idish yoki o‘lchov birligi sifatida ishlatiladi. Odatda "chanok" kichik hajmda bo‘lgan narsalarni o‘lchash yoki saqlash uchun ishlatiladigan idishdir. Bu so‘z o‘rta asr va qadimiy tilda ham ishlatilgan. Bu yerda "bir chanoq" ifodasi "bir idish" yoki "bir miqdor" ma'nosida ishlatilgan. Jumla "bir chanoq (tovoq) tillo beringlar" orqali qiymatli yoki boy narsani taqdim etish

yoki berishni buyurish tasvirlangan. "Tillo" (oltin) so'zi o'zgacha qadriyat yoki boylikni anglatadi, "chanoq" va "tovoq" esa bu boylikni taqdim etish uchun ishlatiladigan idishlar sifatida ishlatilgan. So'zlar badiiy leksikada boylik, qiymat va ulug'likni ifodalashda ishlatiladi. "Beringlar" buyruq shakli orqali bu amallarni amalga oshirish talab qilinmoqda.

Xulosa. Dostonlar tili orqali xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari va tilining o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Dostonlar tili orqali xalqning tarixi, madaniyati va urf-odatlarini o'rganish mumkin. Xorazm dostonlarining leksik xususiyatlari ularga nafaqat badiiy ahamiyat, balki tarixiy va madaniy ma'no ham beradi. Dostonlarning leksik boyligi, unda ishlatilgan sinonimlar, antonimlar, folklor iboralari, metaforalar va boshqa til vositalari Xorazm xalqining madaniy xazinasini, qadriyatlarini va tarixiy merosini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oshiqnoma. 1-kitob. Mas'ul muharrir S.Ro'zimboyev. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006-B 147.

2. Туркман версияси ќақида кенгроқ маълумот олиш учун қаранг: Короглы Х.Г. Взалмосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Эзарбайджана, с. 248-317; Короглы Х.Г. «Шахсенем и Гарып» народный дастан, АКД, М., 1955.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati 1-tom.Mas'ul muharir Abduvahob Madvalyev. -Tosh.O'zbekiston nashriyoti, 2020 — 640 B

UO'K 80:801: 3310

O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA PAREMIOLOGIK MATERIALLAR, XALQ OG'ZAKI IJODI, FOLKLORISTIK MANBALAR

H.T.Mamaniyozov, dekan, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand

Annotatsiya. *Ushbu maqolada „oltin" konseptining o'zbek va nemis tillarida qo'llanilishi maqollar, matallar va xalq og'zaki ijodi manbalari misollari yordamida tahlil qilingani yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Paremiologik, qiyosiy-dedaktik, qiyosiy-tipologik, folklor, metaforik, frazeologik.*

Аннотация. *В данной статье освещается использование понятия" Алтын " в узбекском и немецком языках на примерах пословиц, поговорок и источников устного народного творчества.*

Ключевые слова: *Паремиологический, сравнительно-дедактический, сравнительно-типологический, фольклорный, метафорический, фразеологический.*

Abstract. *This article covers the use of the concept of "gold" in Uzbek and German, analyzed using proverbs, matals and examples of sources of folk oral creativity.*

Keywords: *Paremiological, comparative-deductic, comparative-typological, folklore, metaphorical, phraseological.*

Nemischa paremiologik materiallarda bir-biri bilan uyg'unlashadigan holatlar mavjud bo'lib, ular asosan farqlanadigan holatlardan ham mustasno emas. Bu kabi qiyosiy-tipologik tavsif esa nemis va o'zbek tillarini qiyoslash, taqqoslash va chog'ishtirish metodlari asosida tahlil etilib, qiyoslanayotgan har ikki tilning ham o'zaro manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladigan qiyosiy-didaktik jarayonlar mazmunini boyitadi degan umiddamiz.Lekin bu qiyosiy- tipologik jarayonlarning yuqoridagi tarjima qilingan maqol va matallar asosidagi tahliliga tayanib to'liq qiyosiy tipologik jarayoni amalga oshiriladi degan xulosa va tezisdan uzoqdamiz.

Qiyoslanayotgan ikki til: nemis va o'zbek tillarida paremiologik materiallar xalq og'zaki ijodi, folkloristik manbalarda xalqning nomoddiy madaniy merosi hisoblanadi. Bu jarayonlarni nomoddiy madaniy meros sifatida ro'yxatga kiritish uchun olib borgan tahlillarimizning ilmiy xulosalari isbotlab turibdi. "Oltin" mifologemasining pragmatik maqomi oltinning (sifatning) muhim va ramziy belgilari sifatida belgilanadi. O'zbek mifopoetikasida „oltin" konseptining pragmatik va semantik xususiyatlari uyg'unlashgan holda yuqorida oltin konseptining kognitiv tahlilidagi tavsiflarda o'zbek tilidagi oltin konsepti bilan bog'liq frazeologizmlarning aksariyat ko'pchiligi metaforik ma'no ko'chish xususiyatini mujassamlashtiradi. "Oltin" konseptining metoforik va boshqa ma'no ko'chish xususiyatlariga ko'ra oltin konseptining yadroviy ma'no xususiyatiga yaqinlashadi. Quyidagi frazeologik va paremiologik materiallarning aksariyat ko'pchiligi o'zbek badiiy adabiyot fondlaridan tanlab olingan. "Oltin" konseptining frazeologizmlarda va paremiologiyalardagi xususiyati oltin

konseptining moddiy xususiyatidan anchagina uzoqlashadi va farqlanadi. Ularning metaforik ma'no ko‘chishi "oltin" konseptining noyob matal ekanligiga ishora etiladi. Quyidagi frazeologik va paremiologik materiallarning oltin konseptiga uyg‘unlashuvi esa noyob metall ma'noviy konsepsiyasiga uyg‘unlashadi.

Bu berilgan paremiologik materiallarda asosiy e'tibor "oltin" va uning muqoyasasi "boylik" konseptlari bilan bog‘liq manbalarning aksariyat ko‘pchiligida antroposentrik g‘oyalar mavjud. Mazkur berilgan nemischa paremiologik (matal va maqollar) aksariyat ko‘pchiligi hozirgi o‘zbek tilida mavjud paremiologik materiallarga bog‘liq yoki uyg‘unlashish holatlari mavjud.

O‘zbek folkloristik materiallarning aksariyati tematik (mavzuli) jihatdan akademik To‘ra Mirzayev tomonidan olib borilgan tadqiqot va tashkiliy etimologik ishlarda to‘liq o‘z tavsifiga ega bo‘lgan. Bu materiallarni ham nemischa ekvivalentiga muqoyasa qilib, ularni ham nemischa – o‘zbekcha paremiologik materiallarning kognitiv mental lug‘atini tuzish ham qiyosiy tipologiya fanini O‘zbekistonda rivojlanishiga ahamiyatli hissa qo‘shgan bo‘lar edi.

Akademik To‘ra Mirzayevning o‘zbek paremiologik materiallarini rivojlantirib, boyitib ikki tilli, o‘zbekcha-inglizcha, nemischa-o‘zbekcha, fransuzcha-o‘zbekcha lug‘atlar kognitiv va kategorial talablarga javob beradigan ilmiy va konseptual manba bo‘lib, xalqaro darajada o‘rganilishga molik bo‘ladi desak xato bo‘lmasa kerak. Nemischa o‘zbekcha, inglizcha o‘zbekcha qiyosiy tipologiya bo‘yicha manbalarda, fundamental tadqiqotlar (dissertatsiyalarning ko‘pchiligida aynan nemischa original holatlari to‘liq tavsif etilmagan. Masalan: Baymanovning "Inson xarakteriga xos sifat leksemalarning funksional xususiyatlari" (nemis va o‘zbek tillari misolida) nomli fundamental tadqiqot ishida inson xarakteriga xos sifat leksemalarning barcha semantik hamda funksional ma'noviy xususiyatlari to‘liq ochilmagan. Chunki bunday deb atashimizga hozirgi davrning eng dolzarb masalasi antroposentirik tilshunoslikning zamonaviy mental hamda konseptual talablari tadqiqotda o‘z aksini topmagan. "Oltin va boylik" konseptlarini ko‘pgina olimlar sinonim tarzida ishlatadi. Biz esa bu an'anaviy tavsifdan voz kechib, ular bir-birini to‘ldirib turadigan o‘zining prototip va o‘xshashlik xususiyatlariga ko‘ra bir-birini ba'zi konseptual va kategorial imkoniyatlarini to‘ldirib, keladigan mental-logik jarayon ekanligi tadqiqot materiallari tavsifi hamda tadqiqi asosida o‘zini oqlamoqda.

Morgenstunde hat Gold im Munde Ertalabki mushtdan qaytma

Bu berilgan misolimizda nemischa berilgan paremiologik material barcha antroposentrik talablarga to‘liq javob beradigan xususiyati manbaning o‘zbekcha variantiga muqoyasa qilinganda antroposentrik xususiyatga ega ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Mazkur manbada oltin konseptini moddiy tomondan dastlabki ma'noviy xususiyatiga uyg‘unlashmaydi, faqat antroposentrik xususiyatiga ko‘ra insonga xos xususiyat namoyon bo‘ladi. "Ertalabki mushtdan qaytma" paremiologiyasidagi manba asosiy ma'noviy xususiyatiga ko‘ra nemis tilidagi ma'nosidan ancha uzoqlashgan. Uning bir qancha leksik-semantik xususiyatlari german millatiga milliy mentalitetiga bog‘lanadi. Bizda esa o‘zbeklarda "oltin" konseptining milliy birlamchi ma'noviy konseptual xususiyatiga ko‘ra hech qachon oltin konseptini og‘ziga ertalabdan solib turmaydi. Bu erda ham nemischa ekvivalentini, ham o‘zbekcha muqoyasa ekvivalentini bir-biriga taqqoslash masalaning dolzarb konseptual asosini ochish imkoniyat yaratadi. Qanday holatda bo‘lsa ham paremiologik A.M.Bushuy tadqiqotlarida faqat strukturaviy-semantik xususiyatlariga ko‘ra tadqiq etilgan. Uning konseptual va kategorial, prototip hamda o‘xshashlik xususiyatlari kognitiv tilshunoslik talablaridan kelib chiqib, to‘liq tahlil etilmagan. Shunga ko‘ra barcha paremiologik hamda frazeologik manbalarning konseptual va kategorial kognitiv mental-logik xususiyatlari ochib berilsa tadqiqotimiz ko‘lamini mukammallashtiradi. Nazarimizda bitta paremiologik manbaning lisoniy-mental xususiyatidagi ayrim to‘ldirilishi zarur bo‘lgan holatlar bilan nomukammal holat deb nuqta qo‘ya olmaymiz.

Was du heute kannst besorgen, das verschiebe nicht auf morgen Bugungi ishni ertaga qo‘yma

Nemis tilidagi bu paremiologik manba ham "vaqt" konsepti bilan bog‘lik ekanligi buning o‘zbek tiliga tarjimasi ma'no ko‘rsatkichlari va ma'no ottenkalariga qarab aytmoqdamiz. Mazkur paremiologik manbaning "Bugungi ishni ertaga qo‘yma" nomli paremiyasiga muqoyasa qilinishida

A.M.Bushuyning paremiyalar to‘g‘risidagi manbalarida frazeologiyaga uyg‘unlashadimi yoki yo‘qmi degan savol bizni qiynaydi. “Bugungi ishni ertaga qo‘yma” paremiyasi vaqt konseptining konseptual, mental, kategorial, kognitiv xususiyatlarining “oltin” konseptining metaforik ma’no ko‘chish xususiyatlarida “vaqt” konseptining qadrli, qimmatli, noyob kabi ma’no ottenkalariga uyg‘unlashadi. Rossiyalik ayrim tadqiqotchilar “vaqt” konseptini qadrli, qimmatli, dolzarb kabi antroposentrik talablar asosida “oltin” va “boylik” konseptlarining faqat antroposentrik hamda aksiologik xususiyatlariga ko‘ra uyg‘unlashish jarayonlari E.S.Kubryakova tadqiqotlariga tayanib sinonim tarzida ishlatiladi. Kognitiv tilshunosligi talablaridagi manbalarga faqat sinonim, antonim kabi leksik-semantik tadqiqot natijalarini bog‘lasak, salgina nomukammalliklar sodir bo‘ladimi degan xulosa keladi. Nazarimizda, kognitiv-lisoniy talablarni uyg‘unlashtirgan holatda tadqiq qilib, har bir kognitiv tilshunoslik talabini konseptual, kategorial, prototip, o‘xshashlik, differensiatsiya (farqlanish) holatlariga ko‘ra tadqiq etishimiz zarur bo‘ladi. To‘g‘ri, “vaqt” konsepti bilan “oltin” konseptining uyg‘unlashish holatini sinonim degan xulosani XX asrdagi leksik-semantik tadqiqotlarga bog‘lamasdan ularni kognitiv va konseptual metafora tarzida bog‘lasak, yuqoridagi tahliliy manbamiz tadqiqiga ozroq bo‘lsada amaliy va nazariy yondashgan bo‘lar edik.

Alles zu seiner Zeit *Yo‘qotilgan vaqt oltindan qimmat*

Bu paremiologik manbamizda ham “vaqt” konseptining “oltin” konseptiga bog‘lanish holatlari metall, logik (mantiqiy) konseptual jihatdan bir-biri bilan uyg‘unlashadigan holat mavjud. Nazarimizda, bu erda ham “vaqt” konsepti “oltin” bilan ayrim mental xususiyatlariga ko‘ra bog‘lanadi. Vaqtning qiymati, “oltin” konseptining noyob manba ekanligi nemis va o‘zbek xalqlarining mentalitetida, aksiologik (qadriyatlar) xususiyatiga ko‘ra har ikkala xalq o‘rtasidagi qadriyatlarning barcha gnosiologik (ilmiy-nazariy) ildizlariga bog‘lanadi. Bu kabi nemis va o‘zbek xalq paremiologik manbalarining A.M.Bushuyning semantik-struktural hamda semantik maydonlar asosida tuzilgan ma’noviy guruhlariga bog‘lab, ularning manbalarini ko‘rsatgan holda nemischa-o‘zbekcha paremiologik lug‘atini paradigmatik xususiyatiga ko‘ra tuzib, ularni konseptual, mental, tafakkur talablari, kategorial, prototip, o‘xshashlik differensiya xususiyatlari singdirilib tuzilsa, juda yaxshi kognitiv tilshunoslik fanining o‘zbek milliy mentalitetiga xos yangi ilmiy-konseptual yo‘nalishlar ochilgan bo‘lar edi. Demak, “vaqt” konseptining “oltin” konsepti bilan muqoyasa qilinishi boshqa tillarda tadqiq etilgan degan xulosani beradi. To‘g‘ri, bu tadqiqotlar umumiy planda tahlil obyektiga olinganda iqtiboslar olishga yaraydi. Lekin ulardagi milliy nemis va o‘zbek mentalitetining aksiologik (qadriyatlar) tamoyillariga to‘g‘ri javob bera olmaydi. Chunki bu masalani “Aksiologiya” fanining taraqqiyoti va ravnaqida ham o‘zbek mentalitetini ko‘ramiz.

Alte Liebe rostet nicht *Eski sevgi zanglamaydi*

Bu paremiologik manbamiz ham nemis xalqi mentalitetiga xos bo‘lgan bilan, o‘zbek tilidagi “Oltin zanglamas” muqoyasasiga teng keladi. Lekin oltinning noyob metall ekanligi ham kislorod bilan reaksiyaga kirishib, temir va po‘lat metallariga ko‘ra zanglash xususiyatiga ega emasligini xalqimizning yosh va 79-80 yoshga kirgan nuroniylarimizgacha biladi. To‘g‘ri, sevgining zanglamasligi haqidagi fikr bilan oltin zanglamas o‘rtasidagi fikrda metaforik ma’no ko‘chishlar bir-biridan farqlansa-da ularning o‘rtasidagi mushtaraklik ikki xalq, nemis va o‘zbek xalqlarining mentalitetidagi “oltin” konseptining zanglamaslik xususiyatidagi “sevgi” konseptidagi oltinning zanglamaslik xususiyatining antroponimik xususiyati orqali ma’no ko‘chish metaforik asosda ekanligi esa metafora nazariyasidagi talablarga mos kelgan. Balki yoshlikdagi sevgi motivi ham zanglamas konseptualizatsiyasi orqali amalga oshmoqda.

In einer rauher Schale steckt oft ein guter Kern *Ko‘pincha qo‘pol qobiqda yaxshi yurak bor*

Bu jumlada ham yurak, qalb kabi konseptlar “oltin” konsepti bilan antroponimik konsepsiya orqali uyg‘unlashadigan tomonlari bor. Bunda yurak, qalb konseptlarida uyg‘unlashadigan motivlar mavjudligi esa oltin konseptidagi uyg‘unlashadigan tomoni inson konseptining olijanoblik xususiyati “oltin” konseptining qalbdagi tuyg‘ularning “oltin” konsepti bilan uyg‘unlashish xususiyati mavjud degan xulosaga borishimiz esa tafakkur talablari asosidagi konsepsiyalarga mos keladi.

Nicht jeder Stein ist Edelstein *Har bir tosh marvarid emas*

"Oltin" konsepti bilan "marvarid" konseptining qimmatbaho predmetlar konseptidagi konseptual bog'lanish orqali oltin va qimmatbaho predmetlar orqali bir-biri bilan uyg'unlashish holatlari mavjud. Demak, keyingi manbada qimmatbaho tosh va marvaridlarning "oltin" konseptiga "boylik" konseptining markazlashuvi mental (tafakkur) xususiyatlari orqali bog'lanadi.

Yosh chog'im-oltin chog'im. Demak, yoshlik oltinga tenglashadi. Albatta, bunda tarbiyaviy ahamiyati yoshlik damlarini oltin konseptiday noyob xususiyatga ega ekanligiga bog'lanadi.

Bulbul uchgandan so'ng, Oltin qafasni o't olsin.

Demak, bu erda bulbulga oltin qafasni keraksizligi qayd etilgan.

Ona yurting oltin beshiging — Ona yurt esa oltin beshikka (ko'chma ma'noda bo'lsa ham) tenglashtiriladi. Demak, bu parchada ham "oltin" konseptining noyob xususiyati ona yurt tavsifiga badiiy bo'yoq beradi. Kimxob to'ning bo'lguncha, oltin beshiging omon bo'lsin. — Kimxob to'nning (qimmatbaho "boylik" konseptiga konseptuallashadi) oltin beshikdan ustun emasligi ko'zga tashlanadi.

Ona tilim — oltin sandig'im. — Ona tilining boshqa funksional (vazifaviy) darajada o'rganiladigan xorijiy tildan ustunligi ham jumladagi oltin konsepti bilan aniqlanadi.

Oltiariqning oltin yerlari tengi yo'q saxovatga ega ekanligini Ro'ziali o'z hovlisida isbotladi. Qaysi darvozadan chiqmoqchisan? Oltin darvozadanmi yoki yelim darvozadan? Demak, bu manbada "oltin" konsepti darvozaga nisbatan to'liq voqelanmagan. Darvozaga nisbatan "oltin" konsepti salbiy ma'no ottenkasida foydalanilgan. Darvoza bilan "oltin" konsepti voqelanishida umumiy uyg'unlashuv juda kam miqdorda. Begona shaharda nimasidir esdan chiqib qolgandek, nimasidir ko'ngliga g'ashlik solayotgandek tuyuldi. Hech kim uni kuzatgani chiqmagan bo'lsa ham, ko'zlari jovdirab kimnidir qidirdi, kimgadir aytadigan gapi borday pichirladi. Poezd jilganda-ku, kupeda turolmay, o'zini derazaga urdi, kimnidir ko'rmoqchi edi...Bu holatning boisi, o'sha atlas ko'ylakli, kulgisi yoqimli qiz, oltin uzukning suvga tushib ketgan zumrad ko'zi ekanini Qodir yaxshi bilardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shuhrat. Oltin zanglamas.
2. Erkin Vohidov «Ruhlar isyoni»
3. Erkin Vohidov. "Oltin devor"
4. Erdavlat Odilov "Mustabid zamon sarqitlari"
5. https://biblioclub.ru/index.php page
6. http://www.uzaz.uz

UDC 81: 378

IMPROVING THE COMPETENCE OF PROFESSORS AND PROBLEMS OF LEARNING LANGUAGES BY USING ICT

O.Mamatkulova, Phd student, Uzbekistan state world languages university, Tashkent

Аннотация. *Мақолада чет тил ўқитувчиларининг ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда хорижий тил бўйича касбий компетентлигини ошириш муаммолари ва ахборот-таълим муҳитини яратиш шарт-шароитлари ёритилган.*

Калит сўзлар: *АКТ, хорижий тил, компетенция, касбий компетенсия*

Аннотация. *В статье рассматриваются проблемы повышение уровня профессиональной компетентности учителей по иностранному языку с применением информационно-коммуникационных технологий и условия создания информационно-образовательной среды.*

Ключевые слова: *ИКТ, иностранный язык, компетентность, профессиональная компетентность*

Abstract. *The article discusses the content of normative model of teacher's competency, displaying scientifically based composition of professional knowledge and skills and here we can see pedogogical condition and developing level of professional competence of foreign languages teachers.*

Keywords: *ICT, foreign language, competence, professional competence*

Development of information and methodological support for the development of professional qualifications of future teachers in the Russian language. by actively introducing modern technical educational tools (computers , multimedia educational programs, internet resources) into the language, educational process, it provides ample opportunities to raise the educational system to a new level of quality and increase its effectiveness.

One of the priorities for the modernization of the educational system is the teaching of a foreign language, which creates conditions and opportunities for the development of international relations and cooperation.

Through the acquisition of large-scale information on the educational system of our country and abroad, as well as the exchange of professional contacts and experience, future teachers are able to improve their qualifications in the Russian language. However, it takes a lot of time to obtain, collect and work on this information over the Internet and, therefore, for teachers who do not have enough skills to use these resources in their professional activities, this presents certain difficulties. Therefore, classes organized using the Internet, in some cases, are segregated and unsystematic.

The necessary material and technical conditions have been created for the development of professional competence of teaching staff in the field of foreign languages of educational workers, in particular foreign higher educational institutions. As a result, an electronic information resource was formed, which serves to develop the professional competence of foreign language teachers, and its use was achieved to increase the effectiveness of the educational process. The implementation of specific targeted tasks assigned to military educational institutions of our country, in particular to teachers of non-linguistic specialties, on the "broad worldview of cadets, intellectual potential, the development of creative and analytical thinking, the formation of solid knowledge in the field of natural and exact sciences, foreign languages and modern information technologies, as well as the assimilation of basic knowledge in military work Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated June 12, 2015 Decrees PF-4732 "On measures to further improve the system of retraining and advanced training of senior and pedagogical personnel of higher educational institutions" and PF-4947 "On the strategy of actions for the further development of the Republic of Uzbekistan" dated February 7, 2017, PK-1730 "On measures for the further introduction and development of modern information and communication technologies" dated March 21.

Based on these tasks, the improvement of information and methodological support, which serves to develop the professional competence of teachers of foreign languages, and its use to increase the effectiveness of the educational process, closely helps to independently master retraining and advanced training courses for teaching staff. At the same time, the development of expanded methodological support using modern online technologies that serve to improve the pedagogical development of a software platform and information and methodological support for the regular development of foreign language knowledge, skills and qualifications of teachers, improving the effectiveness of the system of independent teaching and evaluation, studying pan-European competencies in the field of foreign language proficiency among teachers, one of the The development of supply resources is an important task, which are the basis for mastering the learning and Assessment requirements (CEFR). The strategy of action on the five priority areas of development of Uzbekistan mentions as one of the priorities "Further improvement of the system of continuing education, increasing the possibilities of providing high-quality educational services, training highly qualified personnel in accordance with the modern needs of the labor market." Also, the implementation of measures aimed at achieving a specific goal "strengthening the material and technical base of educational institutions within our competence through construction, reconstruction, major repairs, providing them with modern educational and laboratory equipment, computer equipment and teaching aids" is highlighted in Sifti as one of the priorities.

The development of professional competence in the field of foreign languages among teachers has its own characteristics, which will directly depend on the conditions of studying the culture of the people whose language is being studied and maintaining constant communication in this language, starting with the material and technical base of educational institutions, and differ from the issues of improving the professional competence of teachers in other areas. This implies a special approach to

the issue of priority development of this area. The role of modern information and communication technologies, which is especially important in solving this problem, is great. Therefore, the teaching staff must have certain knowledge, skills and competence in the work, analysis, and use of information based on the application of this technology in their activities.

REFERENCES:

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. On the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan. Sobranie zakonodatelstva Respubliki Uzbekistan, 2017, 6 (766), p. 70.

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. 4732 of June 12, 2015 "On measures to further improve the system of retraining and advanced training of senior and pedagogical personnel of higher educational institutions".

3. Heathcjte H. 'A' Lavel AKT. – London: Cogan Page, 2000. – 371 p.

4. Hutmacher V. Yevropa uchun asosiy Kompetensiyalar // Bern simpoziumining hisoboti. – Shveytsariya, 1996. 27–30 mart. - 15:00

UO'K 81-13

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "OILA TARBIYASI"GA OID LEKSIK BIRLIKLARNING O'ZARO MA'NO ALOQALARI VA KO'P MA'NOLILIKNI TAHLIL QILISHNING KOGNITIV MODELI

G.T.Melikova, o'qituvchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida "oila tarbiyasi"ga oid leksik birliklarning o'zaro ma'no aloqalarini va ko'p ma'noliligini tahlil qilishning kognitiv modelini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotda oila tarbiyasi sohasiga oid leksik birliklar, ularning semantik tuzilmalari, ma'no aloqalari va ko'p ma'nolilik xususiyatlari kognitiv tahlil usullari yordamida o'rganiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi oila tarbiyasiga oid terminlarning o'zaro farqlari va o'xshashliklari aniqlanadi, shuningdek, ularning madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qanday ishlatilishi tahlil qilinadi. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida oila tarbiyasiga oid leksik birliklarning semantik xaritasini yaratishga va ularning kognitiv modelini ishlab chiqishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *oila tarbiyasi, leksik birliklar, semantik tahlil, ko'p ma'nolilik, kognitiv tahlil, madaniyat, terminlar.*

Аннотация. *Данная статья направлена на разработку когнитивной модели анализа взаимосвязей значений и многозначности лексических единиц, связанных с понятием «семейное воспитание» в английском и узбекском языках. В исследовании анализируются лексические единицы в области семейного воспитания, их семантические структуры, связи значений и особенности многозначности с использованием когнитивного анализа. Выявляются различия и сходства в терминах, относящихся к семейному воспитанию в английском и узбекском языках, а также их использование в культурном и социальном контекстах. Статья способствует созданию семантической карты лексических единиц и разработке когнитивной модели анализа данных терминов.*

Ключевые слова: *семейное воспитание, лексические единицы, семантический анализ, многозначность, когнитивный анализ, культура, термины.*

Abstract. *This article aims to develop a cognitive model for analyzing the semantic relations and polysemy of lexical units related to the concept of «family education» in English and Uzbek languages. The study explores lexical units related to family education, their semantic structures, semantic relations, and polysemy using cognitive analysis methods. The differences and similarities between terms related to family education in English and Uzbek are identified, along with their usage in cultural and social contexts. The article contributes to creating a semantic map of lexical units and developing a cognitive model for analyzing these terms.*

Keywords: *family education, lexical units, semantic analysis, polysemy, cognitive analysis, culture, terms.*

Kirish. Oila tarbiyasi insoniyat jamiyatining asosiy yadro tuzilmasi bo'lib, uning tarbiyaviy va madaniy ahamiyati beqiyosdir. Oila, insonning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishi uchun muhim bo'lgan

ilk ta'sirchan muhitdir. Hozirgi kunda oila tarbiyasining nafaqat ijtimoiy va psixologik, balki lingvistik jihatlari ham o'rganilmoqda. Oila tarbiyasiga oid leksik birliklar tilshunoslikda keng qamrovli tadqiqotlar ob'ekti bo'lib, bu mavzu zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oila tarbiyasining leksik birligi va ularning ma'no aloqalari ikki xil tilda (ingliz va o'zbek) tahlil qilinishi, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga xizmat qiladi.

Ingliz va o'zbek tillarida "oila tarbiyasi"ga oid leksik birliklarning o'zaro ma'no aloqalari, ko'p ma'noliligi va kognitiv tahlili tilda sezilarli farqlar va o'xshashliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqot o'zbek va ingliz tillarida mavjud bo'lgan "oila tarbiyasi"ga oid leksik birliklarning semantik tuzilmasini aniqlashga yordam beradi va kognitiv modelni ishlab chiqishda yangi yondashuvni taklif etadi. Shuningdek, bu ilmiy ishning natijalari tarjimashunoslik, lingvokulturologiya, ijtimoiy lingvistika va til o'qitishda qo'llanilishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. "Oila tarbiyasi" tushunchasi va uning lingvistik jihatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar so'nggi yillarda turli mamlakatlarda e'tibor markazida bo'ldi. Bu sohada ko'plab ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va monografiyalar mavjud bo'lib, ular oila tarbiyasining semantik va kognitiv aspektlarini o'rganishga qaratilgan.

Oila tarbiyasi va uning lingvistik aspektlari bo'yicha dastlabki izlanishlar o'zbek tilshunosligi, rus tilshunosligi va kognitiv lingvistika sohalarida amalga oshirildi. M. Qobilov (2013) o'zining "O'zbek tilida leksik-semantik tahlil" nomli asarida oila tarbiyasiga oid leksik birliklar va ularning semantik xususiyatlarini tadqiq qilgan. U oila tarbiyasiga oid so'zlarning semantik polivalensiyasi (ko'p ma'noliligi)ni va ularga o'xshash terminlarning lingvistik kontekstdagi o'zgarishini o'rganishga urg'u beradi.

Kognitiv lingvistika sohasida o'tkazilgan tadqiqotlar ham oila tarbiyasiga oid terminlar va ularning semantik tahliliga qaratilgan. J. Lakoff (1987) va G. K. Turner (1989) tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv model va ramkalar semantik analizda keng qo'llaniladi. Lakoffning «Metaphors We Live By» (1987) asarida kishilar tushunchalari va ular bilan bog'liq bo'lgan til birikmalarining kognitiv modeli, shuningdek, oila tarbiyasi kabi madaniy va ijtimoiy muammolarni til orqali ifodalashda qanday rol o'ynashi ta'riflanadi. Ushbu tadqiqotlar kognitiv tilshunoslikka asoslangan tahlillarni amalga oshirishda muhim o'rin tutadi, chunki u tilning ijtimoiy va madaniy ko'rinishlarini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlarni yaratadi.

Oila tarbiyasining semantik tahlili o'zida nafaqat leksik birliklarni, balki ularning madaniyatdagi o'rni va ijtimoiy ahamiyatini ham o'z ichiga oladi. O'zbek va ingliz tillarida oila tarbiyasiga oid so'zlarning o'xshashliklari va farqlari madaniy va ijtimoiy kontekstga qarab o'zgarganligi ko'rsatilgan. I. Rajabov (2010) o'zining "O'zbek tili leksikasi" asarida oila tarbiyasiga oid so'zlarning semantik spektrini va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tahlil etadi.

Shuningdek, pragmatik tahlilda ham oila tarbiyasiga oid so'zlarning ijtimoiy va madaniy kontekstga mos ravishda qanday ishlatilishi tahlil qilinadi. Pragmatik lingvistikaga oid ko'plab ishlar, ayniqsa, oila tarbiyasiga oid o'zaro munosabatlarda kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishda tilning rolini o'rgangan. Y. P. Frolova (2006) «Pragmatika va kommunikatsiya» asarida bu masalalarni keng yoritib, tilning insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda qanday aloqalar o'rnatishini o'rganadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qo'llaniladigan metodlar qatoriga kognitiv tahlil, qiyosiy-tipologik metod, semantik tahlil va diskurs tahlilini kiritish mumkin. Kognitiv tahlil til va ongning o'zaro bog'liqligini aniqlashda yordam beradi, semantik tahlil esa leksik birliklarning ma'nosini o'rganishga imkon beradi. Qiyosiy metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning farqlari va o'xshashliklari tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijasi. Ushbu tadqiqotning natijalari tilshunoslikning bir qancha yo'nalishlarida, jumladan, tarjimashunoslik, lingvokulturologiya, ta'lim va til o'qitish sohalarida qo'llanilishi mumkin. Ma'no aloqalari va ko'p ma'nolilikni tahlil qilish, yangi kognitiv yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, til o'qitishda talabalarga leksik birliklarning keng qamrovli qo'llanilishiga yordam beradi.

Muhokama. Oila umuminsoniy, barcha jamiyatga xos "universal" hisoblanib, ijtimoiy hayotning yagona mumkin bo'lgan shakli, garchi nihoyatda o'zgaruvchan bo'lsa ham, milliy

xususiyatni o‘zida jamlagan tushunchadir. “Oila jamiyatning ajralmas qismi, xalqlar hayotining ijtimoiy, huquqiy, demografik va madaniy jihatlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Turli ijtimoiy sinflar va qatlamlarning ko‘plab oilalari butun jamiyatni tashkil qiladi va ijtimoiy munosabatlar tizimining murakkab palitrasini aks ettiradi” [10, 63]

Har bir madaniyat o‘ziga xos bo‘lgan oila modelini shakllantirish bilan tavsiflanadi, ushbu tuzilmasida oila a’zolari, munosabatlar tuzilmasi, shuningdek, oilaviy munosabatlar va rollarning rivojlanishi kabi elementlarni ajratish mumkin. Oila a’zolarining mavqei va rollari o‘ziga xos munosabatlar tuzilmasi bilan belgilanadi, oilaviy munosabatlarning o‘zgarishiga ijtimoiy-siyosiy va geosiyosiy omillar ta’sir qiladi [7, 230].

Kognitiv tahlilga ko’ra, oila tarbiyasining leksik birliklari nafaqat tilning semantik tizimida o’rin oladi, balki ular insonlarning o’z hayot tajribalariga asoslangan kognitiv strukturalarini ham aks ettiradi. Oila tarbiyasi jarayonida til orqali shakllangan tushunchalar va fikrlar jamiyatdagi me’yor va qadriyatlarni, shuningdek, individuallarning dunyoqarashini belgilaydi. Quyida ayrim misollarni tahlil qilamiz:

“Qo‘l” so‘zi – asosiy ma’no – insonning tana a’zosi.

“Farzand tarbiyasida ota-onaning qo‘li bor”.

Ko‘chma ma’no – biror ishda ishtirok etish, ta’sir ko‘rsatish.

“O‘g‘ilning yaxshi odam bo‘lib yetishishida boboning qo‘li katta”.

“Qo‘l” so‘zining asosiy ma’nosi tana a’zosi bo‘lsa, ikkilamchi ma’noda insonning faol ishtirokini va ta’sir kuchini ifodalash uchun metaforik tarzda ishlatiladi. Tarbiyadagi ota-onaning ta’siri shu metafora orqali ifodalanadi.

“Ildiz” so‘zi – asosiy ma’no – daraxt yoki o‘simlikning tuproq ostidagi qismi.

“Tarbiyaning ildizi oilada yotadi”.

Ko‘chma ma’no – biror narsaning boshlang‘ich negizi, asosi.

“Oila – farzand tarbiyasining ildizi hisoblanadi”.

“Ildiz” tushunchasi tarbiya va oila kontekstida asosiy boshlang‘ich nuqtani anglatuvchi kognitiv metafora sifatida qo‘llaniladi.

“Foundation” so‘zi – asosiy ma’no – bino yoki strukturaning poydevori.

“A strong family provides the foundation for good upbringing”.

Ko‘chma ma’no – biror narsa uchun asos, poydevor.

“Trust and respect form the foundation of family relationships”.

“Foundation” so‘zi ko‘chma ma’noda oila va tarbiyaning asosini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu metafora inson ongida barqarorlik va mustahkam asos timsolini uyg‘otadi.

“Root” so‘zi – asosiy ma’no – o‘simlik ildizi.

“The roots of proper upbringing lie in family values”.

Ko‘chma ma’no – boshlang‘ich sabab yoki asos.

“Family serves as the roots of a child’s development.”

Bu holatda “root” so‘zi bir-biriga o‘xshash “ildiz” tushunchasi bilan uyg‘un. Ingliz tilida ham asosiy tushunchaning ko‘chma ma’nosi bolalarning tarbiyasida boshlang‘ich nuqtani ifodalash uchun ishlatiladi.Pragmatik tahlil oila tarbiyasiga oid so’zlarning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi o’rnini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Oila tarbiyasiga oid leksik birliklar nafaqat to’g’ridan-to’g’ri ma’noda, balki jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy ehtiyojlar bilan bog’liq holda ishlatiladi. Masalan, «tarbiya» so’zi o’zbek tilida ko’pincha ota-ona tomonidan farzandga beriladigan ma’naviy va axloqiy ta’limni anglatadi, ammo ingliz tilida esa bu so’z ko’proq ijtimoiy va psixologik yondoshuvlarni o’z ichiga oladi.Pragmatik tahlilning muhim jihatlaridan biri oila tarbiyasi jarayonida so’zlarning qanday kommunikativ maqsadlarni amalga oshirishi va ularga qanday ijtimoiy yondoshuvlar orqali tasavvur qilinishi bilan bog’liqdir. Oila tarbiyasiga oid leksik birliklar ijtimoiy interaktsiyalarni tashkil etishda, ota-ona va farzandlar o’rtasidagi munosabatlarni belgilashda, shuningdek, jamiyatdagi axloqiy me’yorlarni ta’minlashda muhim rol o’ynaydi.

Xulosa. Mazkur maqolada ingliz va o’zbek tillarida “oila tarbiyasi”ga oid leksik birliklarning o’zaro ma’no aloqalari va ko’p ma’nolilik xususiyatlari kognitiv yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko’ra, ushbu leksik birliklarning ma’no aloqalari faqat lingvistik ko’rinish bilan

cheklanmay, balki madaniy va kognitiv omillar bilan ham chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Ingliz tilida ko'p ma'nolilik odatda individualistik qadriyatlar va erkinlikni ta'kidlasa, o'zbek tilida esa bu birliklar ko'proq kollektivizm va ijtimoiy hamjihatlikni aks ettiradi.Tadqiqot davomida "oila tarbiyasi" sohasidagi terminlarning ko'p ma'nolilik qirralari har ikki tilga xos o'ziga xosliklarni ifoda etuvchi metafora va metonimiyalarga boy ekanligi kuzatildi. Ushbu xulosalar "oila tarbiyasi" terminologiyasini yanada chuqurroq o'rganish va ikki til o'rtasidagi lingvokulturologik aloqalarni mustahkamlash uchun yangi istiqbollarni ochib beradi. Mazkur tadqiqot natijalari tilshunoslikning kognitiv yo'nalishidagi nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gavhar M. Lexico-pragmatic characteristics of family education terms. InInternational Scientific and Current Research Conferences 2024 Aug 30. – P. 200-203.

2. Jumanova D. "Oila" – madaniy konsept tushunchasi sifatida. ICAS [Интернет]. 23 декабрь 2023;2(13):13-7. доступно на: https://www.econferences.ru/index.php/icas/article/view/10986

3. Lakoff G. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 242 p.

4. Qobilov M. O'zbek tilida leksik-semantik tahlil. Toshkent: Fan, 2013. – 230 b.

5. Rajabov I. O'zbek tili leksikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010. – 198 b.

6. Turner G.K. Cognitive Models in Language. New York: Oxford University Press, 1989. – 215 p.

7. Xalilova Z. Tilshunoslikda 'oila/family' konseptining o'rganilishi. Farg'ona Davlat Universiteti, vol. 30, no. 3, Sept. 2024. – P. 230 https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/4916.

8. Любарт М.К. Семья во французском обществе XVIII–начала XX века: монография/отв.ред. М.Ю. Мартынова; Рос.акад. наук; Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н. Миклухо-Маклая. – М.: Наука, 2005. – 296 с.

9. Скребцова Т.Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011. – 256 с.

10. Фролова Ю.П. Прагматика и коммуникация. Москва: Наука, 2006. – 175 с.

UO'K 808.5

OLAMNING LISONIY MANZARASI LINGVISTIK BILIM TIZIMIDA

Z.R. Mirzatillayeva, magistrant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona
N.X. Aliyeva, PhD, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona

Annotatsiya. *Maqolada dunyo tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi tavsifida til egalarining dunyoni qay tarzda idrok etishi, milliy-madaniy qarashlari, tafakkuri kabilarning o'rni, shuningdek, turli tillarda olam lisoniy manzarasining universal jihatlarini tadqiq etish haqida ma'lumotlar o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *til birliklari, olam manzarasi, lisoniy tizim, lingvistik bilim, o'zbek tili.*

Аннотация. *Статья содержит информацию о том, как восприятие мира носителями языка, национально-культурные взгляды, мышление отражаются в описании языкового ландшафта мира в мировой лингвистике, а также об исследованиях универсальных аспектов языкового ландшафта мира на разных языках.*

Ключевые слова: *языковые единицы, картина мира, языковая система, лингвистические знания, узбекский язык.*

Annotation. *The article contains information on the way language owners perceive the world, the role of national-cultural views, thinking, as well as the study of universal aspects of the linguistic landscape of the universe in different languages in the description of the linguistic landscape of the world.*

Key words: *Language units, landscape of the universe, linguistic system, linguistic knowledge, Uzbek language.*

Til birliklarini undan foydalanuvchi kishilarning etnik belgisi, mentaliteti, milliy-madaniy qadriyatlari, dunyoqarashi va ruhiyati kabilar bilan bog'liq holda o'rganish ustuvor ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu bois lisoniy tizimda aks etuvchi milliy-madaniylik tamoyili ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarining ob'ekti sifatida belgilanmoqda.

Dunyo tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi tavsifida til egalarining dunyoni qay tarzda idrok etishi, milliy-madaniy qarashlari, tafakkuri kabilarning o‘rni, shuningdek, turli tillarda olam lisoniy manzarasining universal jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Makon kategoriyasining tadqiqida ham til egalarining milliy tafakkuri, madaniy qarashlari, makonni idrok etishi va uni til birliklari orqali ifodalashi kabi masalalarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu esa olam lisoniy manzarasining tarkibiy unsurlaridan biri bo‘lgan makon kategoriyasining lingvomadaniy tahlilini monografik aspektda o‘rganish, xususan, o‘zbek tilida makon kategoriyasi ifodalanitining milliy o‘ziga xos jihatlarini tadqik etish dolzarb va zaruriy muammolardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tilida makon kategoriyasining ifodalanishi milliy-madaniy tafakkur bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, an’anaviy qadriyatlari va dunyoqarashi bilan uzviy holda shakllangan. Til birliklarida makon tushunchasining aks etishi, nafaqat geografik yoki fiziki hududni ifodalash, balki xalqning mentaliteti va ma’naviy olamini yoritishda ham muhim rol o‘ynaydi. Xususan, o‘zbek tilida makonni bildiruvchi so‘zlar, iboralar, maqollar va matallar orqali milliy o‘ziga xoslik, qadimiy e’tiqodlar va hayot tarzi namoyon bo‘ladi. Shuningdek, makon anglashuvi metaforik ma’nolar vositasida ham ifodalanib, o‘zbek xalqining dunyo haqidagi tasavvurlari va qadriyat tizimini o‘zida mujassam etadi. Shu sababli, makon kategoriyasini lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish, uning o‘zbek tilida ifodalash xususiyatlarini chuqur o‘rganish va boshqa tillar bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotining turli sohalarida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan islohotlar olib borilishi natijasida ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan milliy qadriyatlarimiz va milliy tilimizni rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi.

Xususan, o‘zbek tilining lingvomadaniy xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektda tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Lekin tilning milliy tabiatini yaqqol ko‘rsatib beruvchi antropopentrik paradigmaga asoslangan dastlabki tadqiqotlarda til tizimida makon katsgoriyasini voqelantiruvchi birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”[1] da ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” alohida ta’kidlangan. Bu jihatdan tilshunoslik muammolarini yangi metodologik tamoyil va zamonaviy mezonlar asosida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilda olam manzarasining tasviri masalasi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biridir. Har qanday tabiiy til olamni ma’lum tarzda tasvirlaydi. “Biz, – deb yozadi akademik K.M.Bikov, – atrofimizni o‘rab olgan borlikdagi har xil predmet va hodisalarni so‘zlar yordamida tasvirlaymiz va har bir jumla uchun xarakterli bo‘lgan sintez, ya’ni so‘z signallarining turli-tuman bog‘lanishlarini amalga oshiramiz. Bu nutqimizga xos so‘zlarni bir butun jumlada to‘plashga, bizni o‘rab olgan olamni aniq aks ettirishga olib keladi”.[2]

Olamning lisoniy manzarasi til egalarining olam haqidagi bilim va tasavvurlarining tildagi aksidir. Mazkur tushuncha, bir tomondan, Vilgelm fon Gumboldtga borib taqalsa, ikkinchi tomondan, Sepir – Uorfning til nisbiyligi haqidagi faraziga asoslanadi. Ma’lumki, Vilgelm fon Gumboldt til va tafakkurning milliy mazmuniga e’tiborini qaratgan tilshunoslardan edi. U “turli tillar millat uchun o‘ziga xos fikrlash va qabul qilish organlari hisoblanadi”, – deya e’tirof etgan.[3] Darhaqiqat, til sohiblari bir lisoniy jamoaning a’zolari bo‘lganliklari uchun muayyan milliy xarakter va tafakkurga ega bo‘ladilar.

Hozirgi kunga kelib olam manzarasi turli fanlarning fundamental tushunchalaridan biriga aylandi. Bu tushunchaning negizida tildan foydalanuvchi sub’ekt markaziy o‘rinni egallaydi. D.Xudoyberganova ta’biri bilan aytganda, “alohida shaxs, shaxslar guruhi, muayyan xalq, insoniyat olam manzarasi sub’ekti bo‘lishi mumkin”.

Olam manzarasi tushunchasiga tavsif berar ekan, G.X.Boqieva quyidagilarni yozadi: “Olam manzarasi inson psixikasini hayvonot psixikasidan farqlashga imkon beruvchi fundamental tushunchadir. Bilish ob’ektlari, xoh moddiy olam unsuri, xoh ong fragmenti bo‘lishidan qat’i nazar,

individ yoki jamoa psixikasida o‘z aksini topadi. Bunda u bilish ob'ektining konseptual tasavvurini hosil qiladi".

Olamning obrazini to‘g‘ridanto‘g‘ri reflekslar vositasida anglab bo‘lmaydi, uni faqat o‘ziga xos obrazlarni "o‘z boshidan kechirish" orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini "odatdagi" bilish orqali anglab bo‘lmasa-da, uni verbal va obrazli aks ettirish, ifodalash mumkin. A.K.Kamenskiy olamning lisoniy manzarasini "mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so‘zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so‘zli hosila" sifatida umumiy shaklda izohlagan.

M.Xaydeggerning qayd qilishicha, "manzara" so‘zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o‘ylaymiz, "olam manzarasi dunyoning tasvirini emas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi". Haqiqiy borliqni aks ettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o‘rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo‘ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o‘ngchap, sharq-g‘arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o‘lchovlar vositasida tasavvur etilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an'analar, tabiat va landshaft, ta'lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta'sir ko‘rsatadi. Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo‘la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo‘lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o‘zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida anglaydi. Bu o‘rinda milliy tajriba tilning barcha darajadagi o‘ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Tilning o‘ziga xosligi tufayli til egasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko‘radi.

Xullas, har qanday madaniyat o‘zining kalit so‘zlariga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning tilimizning milliy madaniy xususiyatlari haqida bildirgan quyidagi fikrlarini keltirish ayni muddaodir: "...tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadrqimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to‘ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g‘alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o‘zi mushkul bir muammo".

Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o‘ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so‘zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning amaliy ifodasidir".

Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini o‘rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o‘zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni, Xalq so‘zi, 2017 yil. 8 fevral. — No 28 (6722).

2. Быков К.М. Учение И.П.Павлова и философские вопросы психологии. — М.: Изд-во АН СССР, 1952. - С. 29-30.

3. Гумболдт В. Фон. Язык и философия культуры. -М.: Прогресс, 1985. — С. 324.

UO'K 81-13

"MUNTAXAB UL-ARUZ" RISOLASIDA ARUZ BAHRLARI TASNIFI

X.T. Mirzayev, dots., PhD, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asrda yaratilgan va muallifi noma'lum bo‘lgan "Muntaxab ul-aruz" nomli risola o‘rganilgan. Tadqiqotda muallifning aruz bahrlari tasnifiga oid yangicha qarashlari boshqa aruzshunoslar nuqtai nazari bilan ilk marotaba qiyosiy o‘rganilgan. Natijada "Muntaxab ul-aruz"da mazkur masala bilan bog‘liq yangi g‘oyalar, metodlar va tamoyillar mavjudligi aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *she'r, vazn, aruz, bahr, mumtoz poetika, arab aruzshunosligi, ajam aruzshunosligi, asliy bahrlar.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается трактат «Мунтахаб ул-аруз» неизвестного автора, созданного в XIX веке. В исследовании впервые сравниваются новые*

взгляды автора на классификацию метрики аруза со взглядами других арузоведов. В результате было установлено, что «Мунтахаб уль-аруз» содержит новые идеи, методы и принципы, связанные с этой проблемой.

***Ключевые слова**: стихотворение, метрика, аруз, бахр, классическая поэтика, персидское арузоведение, исходные метрики*

***Abstract.** This article studies the treatise "Muntahab ul-Aruz", written in the 19th century and authored by an unknown author. In the study, the author's new views on the classification of aruz were studied for the first time in comparison with the views of other aruz scholars. As a result, it was found that "Muntahab ul-Aruz" contains new ideas, methods and principles related to this issue.*

***Key words:** poetry, meter, aruz, symbiosis, classical poetics, Arabic symbiosis, foreign symbiosis, original symbiosis*

KIRISH. "Muntaxab ul-aruz" risolasi XIX asrda noma'lum muallif tomonidan yozilgan ta'limiy risolalardan hisoblanadi. Bu risola aruzshunoslik sohasida so'ngi yillarda topilgan asarlardan biri bo'lib, ko'pchilik haligacha uning mavjudligidan bexabar. "Muntaxab ul-aruz"da aruz bahrlari masalalari aruz ilmiga doir boshqa mavzularga qaraganda kengroq muhokama qilinadi. Risolaning oxirgi, ya'ni to'rtinchi faslida muallif bahr mavzusi va uning doiradagi joylashuviga e'tibor qaratgan. Ta'kidlash joizki, muallifning bahr masalasi bo'yicha qarashlarini o'rganishdan oldin ushbu istiloh haqida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Bahr arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi "teshilmoq"dir. Sayfiy Buxoriy "Aruzi Sayfiy" risolasida "bahr lug'atda daryodir" deydi [3.15]. Aruzshunoslik ilmida "bahr" so'zi "guruh" degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, u yoki bu asliy rukn asosida yoki ikkita asliy ruknning birikmasidan kelib chiqadigan ma'lum bir vaznlar guruhi "bahr" deb ataladi. XVI-XIX asrlar aruzshunosligidan ma'lumki, bahrning yaratilishi va uning solim, muzohaf vaznlari, doiralarni tasniflash hamda bahrlarni ularga joylashtirish mezoni borasida mualliflarning har biri o'ziga xos nuqtai nazarga ega bo'lgan. Xususan, bahr va uning solim hamda muzohaf vaznlarini talqin etishda davr aruzshunosligida turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin.

ASOSIY QISM. XVI-XIX asrlarda yaratilgan aruz risolalarida bahrlar tasnifi izchil bo'lsa-da, "Muntaxab ul-aruz"da aruzshunos o'n to'qqiz bahrning solim va muzohaf bahrlari talqinida o'ziga xos yondashuvni amalga oshirgan. Muallif bahrlarning solim va muzohaf (g'ayrisolim) vaznlarini ikki bosqichda o'rgangan. **Birinchi bosqichda** u Tavil bahridan tortib, Mushokil bahrigacha bo'lgan o'n to'qqiz bahrning faqat solim vaznlarini she'riy misollar bilan ko'rsatadi. **Ikkinchi bosqichda** bahrlarning muzohaf (g'ayrisolim) vaznlari haqida so'z yuritadi. Tadqiq etilayotgan davrning boshqa risolalarida mualliflar har bir bahrning muzohaf avzonini uning solim avzonidan keyin ma'lum tartibda zikr etganliklari kuzatilgan. Demak, "Muntaxab ul-aruz" muallifining bahr va uning turli vaznlari haqidagi yondashuvi XVI-XIX asrlarda faoliyat yuritgan boshqa aruzshunos olimlar yondashuvidan farq qilishi ayon bo'ladi.

Aruzshunosning bahrlar va ularning solim vaznlari haqidagi ma'lumotlari nisbatan mu'jaz ko'rinadi. Qadimgi aruzshunoslardan farqli o'laroq muallif Hazaj, Ramal, Mutaqorib yoki boshqa bahrlarning lug'aviy va istilohiy izohini keltirmaydi, shunchaki bahr nomini tilga oladi va uni taqti'lash uchun she'riy misol keltiradi. Masalan, muallifning Mutaqorib bahri haqidagi ma'lumotlari quyidagilardan iborat:

Zi sharmi ruxat lolaro dog' bar dil,
Zi sarvi qadat sarvro poy dar gil.
Vazni faulun sakkiz marotaba"[2.11].

Ko'rinadiki, muallif Mutaqorib bahri va boshqa bahrlarning solim vazni haqida gapirganda juda qisqa so'zlashni ma'qul ko'rgan va bahrlar ta'limotining bu qismida aruz ilmini o'rganuvchilarga solim vaznning taqti'lash mashqini bir bayt misolida ko'rsatib o'tadi va bu baytda ruknning necha marotaba takrorlanishini ta'kidlaydi.

"Muntaxab ul-aruz"dan oldin yaratilgan aruz ilmiga oid risolalardan ma'lum bo'ladiki, arab aruziga xos bahrlarni talqin etishda har bir muallif o'ziga xos yondashuv va uslubdan foydalangan. Jumladan, Shams Qays Roziy o'zining "Al-mu'jam" asarida Tavil, Madid, Basit, Komil, Vofir

bahrlarini qisqacha ta’riflab, bu bahrlarning ikki-uch xil vaznini misollar bilan izohlab bergan. Nasiriddin Tusiy “Me’yor ul-ash’or” asarida Shams Qays Roziydan farqli ravishda yuqoridagi besh bahr haqida batafsil to‘xtalib, ularning arab va fors she’riyatidagi o‘rnini aniqlashga harakat qilgan. Bu aruzshunos arab shoirlaridan bir necha she’riy misollar keltirib, mazkur vaznlarning iste’mol darajasini arab poetikasida ko‘rsatgan. Shuningdek, fors-tojik she’riyatida arab aruziga xos besh bahr avzonining qo‘llanilishini ham o‘rganib, ajam shoirlari lirikasidan ba’zi she’riy misollar keltirgan.

Arab she’riyatiga xos bo‘lgan besh bahr haqida XV-XVI asrlarda yaratilgan risolalarda turlicha yondashuvlar mavjud. Temuriylar davri aruzshunosligini o‘rgangan taniqli olima Dilnavoz Yusupova o‘zining “Temuriylar davridagi aruzga doir risolalarning qiyosiy tahlili” nomli tadqiqotida bu masala yuzasidan shunday fikr bildirgan: “Abdurahmon Jomiy, Atoulloh Husayniy, Alisher Navoiy va Sayfiy Buxoriylarning risolalarida bahrlarning umumiy miqdori 19 ta deb ko‘rsatiladi, lekin ular orasida Abdurahmon Jomiy masalaga bir oz o‘zgacharoq yondashib, “Risolai aruz”da faqat 14 bahrni misollar bilan izohlaydi, arab aruziga xos bo‘lgan bahrlarga keng to‘xtalib o‘tirmaydi” [5.31]. Darhaqiqat, Jomiyning “Risolai aruz” asarida arab she’riyatiga xos bahrlar beshligining nomlari tilga olingan bo‘lsa-da, muallif ularni tadqiq va tahlil qilishni afzal ko‘rmaydi. Olima Jomiyning bunday yondashuvi sababini uning talqin uslubi bilan bog‘laydi va aruzshunosning ko‘proq ajam she’riyatiga qo‘llanilgan bahrlarga diqqat qaratganligini ta’kidlaydi. Sayfiy Jomiydan farqli o‘laroq, “Aruzi Sayfiy” risolasida beshta arab bahri – Tavil, Madid, Basit, Komil, Vofir haqida alohida boblar yaratib, ularning arab she’riyatida paydo bo‘lish va rivojlanish tarixi, ajam she’riyatida qo‘llanish darajasi va ko‘lami haqida batafsil so‘z yuritadi.

Oldingi tadqiqotlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, XVI-XIX asrlar aruzshunoslari, jumladan, Xoja Hasan Nisoriy “Chahor gulzor”da, Muhammad G’iyosiddin “Me’roj ul-aruz”da arab she’riyati uchun xos bo‘lgan besh bahr haqida mu’jazbayonlikni ma’qul ko‘rganlar va faqat ularning solim vaznlarini fors-tojik shoirlari she’riyati misolida ko‘rsatganlar. “Muntaxab ul-aruz” muallifi, asosan, Xoja Hasan Nisoriy va Muhammad G‘iyosiddinning arab nazmiga xos mazkur besh bahr haqidagi yondashuvlarini qabul qilib, Tavil, Madid, Basit, Vofir, Komil bahrlarining solim vaznlarini she’riy misollar bilan taqti’lab ko‘rsatadi. Muallif tomonidan taqti’lash uchun tanlangan baytlar davr aruzshunosligida yangilik emas. Aruzshunos tomonidan keltirgan beshta she’riy misol ham yuqoridagi mualliflarning risolalaridan iqtibos keltirilgan. Bu shu narsadan dalolat beradiki, “Muntaxab ul-aruz” muallifi o‘tmish va o‘z davri she’riyatida arab aruziga xos bahrlar ulushi bo‘lmaganligi bois ularga qisqagina nazar tashlagan hamda o‘tmish aruzshunoslari ma’lumotlarini takrorlash bilan kifoyalangan.

